R.R.Zamilova

UZLUKSIZ TA'LIM PEDAGOGIKASI VA INKLYUZIV TA'LIM

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

R.R.Zamilova

UZLUKSIZ TA’LIM PEDAGOGIKASI VA INKLYUZIV TA’LIM

Darslik

"USMON NOSIR MEDIA"

Namangan – 2023

UO'K: 376.1
KBK: 674.48
Z – 21

Zamilova, Rimma Ramilevna

Uzluksiz ta'lim pedagogikasi va inklyuziv ta'lim: darslik / Rimma Ramilevna Zamilova. – Namangan: "USMON NOSIR MEDIA" nashriyoti, 2023 – 700 bet.

KBK: 674.48

Taqrizchilar:

Asqarova O'.M. – pedagogika fanlar doktori (DCs), professor (NamDU)

Misirov S.A. – pedagogika fanlar nomzodi, dotsent (NamDChTI), kafedra mudiri

Namangan davlat universiteti Kengash bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9910-9750-2-8

Inv. № 25692

© R.R.Zamilova, 2023
© "USMON NOSIR MEDIA", 2023

Annotatsiya

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori ijrosi hamda “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 9-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturining dastlabki loyihasini tasdiqlash va tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 298-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim mazmunidagi o‘zgarishlar, ya’ni milliy o‘quv dasturi va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqildi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta’lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o‘rgatish.

Fanning vazifasi:

- talabalarni milliy va innovatsion pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga o‘rgatish;
- o‘quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o‘quv-me’yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta’lim olganlikni tashxis etish qonuniyat va tamoyillari bilan tanishtirish;
- o‘quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo‘nalishlari hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish mazmunini o‘zlashtirish;

- milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- global doirada ta lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rmishlarini ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;

- talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o'rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomala madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishlariga erishish.

Shartli belgilar:

Mavzu. Mavzu nomi keltiriladi.

Nazariy ma'lumot. Mavzu haqida umumiy ma'lumot beriladi.

Eslab qoling! Mavzuga doir eng ahamiyatli ma'lumot beriladi.

Testlar! Mavzu yuzasidan testlar beriladi.

Yodda tuting! Mavzuning nazariy qismidagi eng zarur ma'lumotlar beriladi.

Topshiriq. Nazariy qism tarkibida ochilishi amaliyot bilan bog'liq bo'lgan vazifa beriladi. Bu orqali talaba mavzu mohiyatini tushuna boshlaydi.

Bilib oling! Nazariy qismdagi muhim eslatmalar berib boriladi.

"Foydalanilgan adabiyotlar". Mazkur metod orqali talaba o'zining dars davomida olgan bilimini nazoratdan o'tkazishi uchun darajalangan savol-topshiriqlar beriladi.

Ilmiy fakt! Mavzuga oid ilmiy asosli fakt keltiriladi.

SO‘Z BOSHI

Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim pedagogik fan bo‘lib, uning maqsad, vazifalarini oliy o‘quv yurtlarida o‘qib yurgan talabalik yillarida o‘rgangansiz. Binobarin, “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” atamasi ham, shu atama asosida idrok va tasavvur qilinadigan o‘quv kursi ham sizga tanishdir. Shu bilan birga yaxshi bilasizki, oliy ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan har bir o‘quv predmetining o‘z metodikasi mavjud. U yoki bu o‘quv yurtida matematikani o‘qitish masalalarini matematika metodikasi o‘rgansa, fizika ta’limini tashkil etish muammolari bilan fizika metodikasi shug‘ullanadi. Ushbu uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim darsligining maqsadi esa u yoki bu o‘quv yurtida – bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, uning mazmuni, maqsadi, tamoyillari, metodlari, tashkiliy shakllarini o‘rganadi.

“Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” XX asr mobaynida, rivojlangan fan bo‘lishiga qaramay uning ildizlari dastlabki pedagogika paydo bo‘lishi, miloddan avvalgi davrga borib taqaladi. Uning rivojlanib, fan shaklini olishida umumiy pedagogikaning ta’siri katta bo‘ldi. Natijada “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” fani hozirgi shakl-shamoyilini oldi. Ushbu fan doirasida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilib yanada boyitildi. Bularning natijasi o‘laroq “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” sohalarida ilmiy ishlar ko‘paydi.

Uzluksiz ta’lim yurtimizda o‘rta asrlar so‘nggi qismigacha rivojlanib kelgan bo‘lsa, keyingi davrlarda turg‘unlikni boshdan kechirdi. Yangi davrda jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ilg‘or pedagogik g‘oyalar ilgari surilib yangi bosqichga chiqdi.

Sovetlar davrida ham birmuncha ijobiy o‘zgarishlar bo‘lishiga qaramay bu sho‘rolar mafkurasiga bo‘ysundirilgan va davr nuqtayi nazaridan olib qarasak ancha orqada qolgan edi.

O‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab uzluksiz ta’lim o‘z tarixiy o‘zanidan tashqarida rivojlana boshladi. Maktab, masjidlarda domulla va imomlar dars berishgan bo‘lsa, qiz bolalarning o‘qish va tarbiyasi bilan otinbibi (Toshkentda), bibixalifa (Buxoroda), eltabibi (Xivada)lar mashg‘ul bo‘lishgan.

Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan talablar asosida uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta’lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o‘rgatish.

Siz, hurmatli kitobxon, “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” fani, uning tadqiqot predmeti, vazifalari, ta’limni tashkil etish shakllarini yaxshi bilasiz. Biz sizga uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim pedagogikasi bilan yonma-yon, parallel ravishda pedagogik mahorat darslarini taklif qilyapmiz. “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” fanining qator afzalliklari quyidagilar:

- ta’lim muassasalarida o‘qitish tajribasini pedagogik, psixologik umumlashmalar darajasiga ko‘tarish;
- o‘qitish tajribasining pragmatik yo‘nalishini-amaliy muammolarni tanlash va bajarish jarayonida o‘quvchining o‘z intilishlari, xatti-harakatlari ustuvorligini ta’minlash;
- o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini ta’lim jarayoni sub’yekti sifatida sharhlash;
- darslarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida qarashni asoslashdan iborat.

Ushbu kitobda “Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim” fani xususida fikr yuritildi. Unda ta’lim muassasalarida o‘qitish tajribasini pedagogik, psixologik umumlashmalar darajasiga ko‘tarish, o‘qitishning qator muammolariga yangicha yondashish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi.

1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari.

Reja:

1. Taraqqiyot strategiyasi jadal rivojlanish va yangilanish sari.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuni. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari.
3. Pedagogika fani haqida tushuncha. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogik fanlar tizimi. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tayanch so‘z va iboralar: taraqqiyot strategiyasi, jadal rivojlanish, yangilanish, “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun, davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta’lim tizimi, pedagogika, pedagogik fanlar tizimi, ilmiy-tadqiqot metodlar, ta’lim, islohot, modernizatsiya, integratsiya, uzluksiz ta’lim, “uzluksiz ta’lim” konsepsiyasi, uzluksiz ta’lim tizimi, ta’lim shakllari, hayot davomida ta’lim olish, innovatsion jamiyat, “El-yurt umidi” jamg‘armasi.

Taraqqiyot strategiyasi jadal rivojlanish va yangilanish sari. Bugungi kunga kelib, globallashuv va integrasiyalashuv oqibatida jahon iqtisodiyotida rivojlanishning oldin uchramagan yangi omillari va tendensiyalari vujudga kelmoqda. Bir tomondan jadal rivojlanish uchun ilg‘or texnologiyalarni yaratish evaziga keng imkoniyatlar yaratilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan turli sabablar, xususan pandemiya kabi salbiy oqibatlar natijasida ayrim sohalarda pasayish tendensiyalari ham kuzatilmoqda. Buning oqibatida iqtisodiyotga turli yo‘nalishlarga ega bo‘lgan innovatsion yechimlarni amaliyotga joriy qilishni taqozo qilmoqda. Shu tufayli mamlakatimizda ham “Harakatlar strate-

giyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" shioriga asoslangan holda "Yangi O'zbekiston strategiyasi" ishlab chiqildi. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli bu farmon orqali bayon qilingan strategiya mamlakatimizda barqaror iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy o'sishlarni ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "2030-yilga borib o'rtacha yillik iqtisodiy o'sish sur'atlari 6,3 – 6,5 foiz, kapital qo'yilmalar 8,0 – 8,5 foiz, eksport 9,0 – 10,0 foizni tashkil etishiga erishishimiz kerak". Bunday taraqqiyotga erishishga barcha asoslarimiz bor. Bizda mehnat, tabiiy resurslarimiz yetarli, faqat ulardan samarali va maqsadga muvofiq ravishda foydalanish lozim bo'ladi.

Dunyo taraqqiyotining hozirgi holati taraqqiyotga evalyutsion emas, balki revolyutsion yondashishni taqozo qilmoqda. Bu o'z navbatida o'zimizning imkoniyatlarimiz bilan birga bir qancha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan ham foydalanishimiz maqsadga muvofiq, deb hismoblaymiz, chunki bizning qisqa vaqtda erishgan yutuqlarimiz, rivojlangan mamlakatlar bilan bellashishga ojizlik qiladi. Shuning uchun xorijiy tajribalardan foydalanib, rivojlanishni tezlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda ilg'or texnologiyalar yordamida raqobatbardoshligini ta'minlab kelayotgan davlatlar tajribasiga tayanibgina qolmay o'z rivojlanish yo'limizni qurish eng muhim masala hisoblanadi.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko'ra, har bir xalq o'z oldiga ulug' va istiqbol maqsadlarni qo'yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi" istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda.

Xo‘sh, strategiya nima? U xalqning maqsadlarini qanday ta’minlaydi? Tanlangan maqsadlarning istiqbollari nimalarda namoyon bo‘ladi?

Strategiya – bu ta’limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko‘plab tushunchalarda ifodalanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog‘liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iboratki, strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo‘lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob’yektning mayog‘iga aylanadi. Taktika esa strategik vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo‘yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ko‘rib turganimizdek, strategiyaning asl mohiyatida xalqimizning orzu-umidlari yo‘g‘rilgan g‘oyalardan tashkil topgan milliy mafkuraning ifodasi yotadi. Mafkuradan nusxa olib bo‘lmaganidek, davlatning strategik maqsadlarini ham boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o‘zlashtirib yoxud nusxa olib bo‘lmaydi. Zero, har bir xalqning o‘ziga xos siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy tarixi, tabiiy resurslari mavjud bo‘ladi. Aynan shu omillar ma’lum ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Strategiyani amalga oshirish eng mas'uliyatli jarayon. Agar u real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lsa, uning muvaffaqiyati ta'minlanadi. Mabodo teskari bo'lsa, unda turg'unlik yuzaga keladi. Bunga sabab, noto'g'ri tahliliy ma'lumotlar, xulosalar, kutilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalana olmaslikdir. Strategiyani baholash va nazorat qilish strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omili bo'lib hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanishini ta'minlash jarayonida strukturaviy bo'g'inlardagi bog'lanish imkoniyatlarini tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zaruratda strategik rejalarni o'zgartiradi.

Davlat strategik rejalari aniq va o'zgarmas tamoyillarga bo'ysundirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yo'nalishini ta'minlashga xizmat qiladi. Jumladan, rahbar o'z vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalardagi ma'lumotlar va xulosalar bilan qurollanmog'i, bundan tashqari, improvizatsiya qilmog'i, qo'yilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etishi lozim. Mazkur tamoyillar oldin qabul qilingan qarorni o'zgartirish ehtimoli yoki o'zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqib, qayta ko'rib chiqish imkoniyatini berishi zarur.

Strategik dastur va rejaning uyg'unligi hamda turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog'liqligi muvaffaqiyatning kafolati. Mazkur birlik davlat organlarning strukturaviy bo'g'inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo'lim rejalarining kelishuvi bilan ta'minlanadi. Ayni paytda strategiyani amalga oshirish imkoniyatlarini tug'diradi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy va huquqiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur'atlariga, shaxsiy mas'uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan o'zgartirishga xizmat qiladi. Eng muhimi,

strategik yo'nalishlarni belgilashning mavhum va noma'lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga erishiladi.

Istiqbol maqsadlarni qo'ygan davlatlarning aksariyati milliy strategik muvaffaqiyatlarni YAIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida, deb qaraydi. Yaqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hosildorlikni oshirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Albatta, ushbu omillarni inkor etmagan holda bugun O'zbekistonda milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarolarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligini ta'minlash asnosida amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Strategik maqsadlarning aynan inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, faol ijtimoiy institutlar harakati tashkil etilishiga qaratilayotganligi bejizga emas. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning tamal toshi mustahkamlanadi.

Mamlakatimiz strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa, xalqning davlatga bo'lgan munosabatini o'zgarayotganligida namoyon bo'lmoqda. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugun hayotdan rozi bo'lib yashashi davlatning bosh maqsadi sifatida strategik yo'nalishlar belgilanmoqda. Ular avvalo, rivojlantirilayotgan ijtimoiy sohalarda o'z ifodasini topmoqda. Yoshlarga munosib ta'lim berish, zamonaviy kasb-hunarlar bilan qurollantirish, aholining salomatligini ta'minlash, nogironligi bo'lgan shaxslar, boquvchisini yo'qotganlar, yolg'iz keksalar, umuman, ko'makka muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash davlatimiz rahbarining 2018-yil 28-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida o'z tasdig'ini topdi.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o'zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokomotiv vazifasini ham bajaradi. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, ob'yektiv tahlil qilish, o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilishni talab qiladi.

Davlatning harakatlar strategiyasi yetaklovchi lokomotiv kuchi – bu davlat va uning organlari. Islohotlarning garovi va kafolati hokimiyatning samarali faoliyati bilan bog'liq hodisa. U boshqaruv mahorati bilan uzoqqa mo'ljallangan maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qiladi, aholini safarbar etadi, mavjud resurslardan oqilona foydalanish va uni odilona taqsimot qilish vazifalarini amalga oshiradi. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo'lmaydi. Modernizatsiya o'z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko'tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan Prezidentimiz parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma'muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo'llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish,

mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalarini belgilaydi.

Boshqaruvda adolatli davlat idora tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari – ikkinchi uzviy bog'lanuvchi muhim tamoyil ta'minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud – oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi-yomoni, foyda-ziyonini belgilab beruvchi ma'naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan ko'ra bunyodkorlik qilish afzal bo'ladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning izchil amaliyotini joriy etishga qaratilmoqda.

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi, shubhasiz, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlash, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi, ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni amalga oshiradi. Natijada, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi. Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqarolar qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'lqin sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. U, o'z navbatida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga, aholining real daromadi va shunga muvofiq turmush darajasining o'sib borishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta'lim tizimi va turlari. Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga extiyoj ortib boradi, chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan holda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi.

Ta'lim-tarbiyaning "sovetcha" modeli o'rnida yangi, ya'ni hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya sohasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan holda ta'limni amalga oshirishga, ta'lim sohasiga yangi innovatsiyalarni joriy etishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda. Uning yutuqlarini esa dunyo e'tirof etmoqda. Masalan, ta'lim sohasida innovatsiyalarni joriy

etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasini ikkinchi o‘rinni olganligi ham bunga dalildir[1].

Mustaqillik yillarida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun[2], “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi[3], Kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilib, yangicha dunyoqarash, g‘oya va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta’lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bo‘lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta’lim-tarbiya sohasida muhim o‘rin to‘tadi. Bu borada e’tibor berilishi zarur bo‘lgan vazifalar sifatida qo‘yidagilarni aytib o‘tish mumkin.

Birinchidan, mamlakatimizda demokratik jamiyat ko‘rish vazifalarini amalga oshirishda ta’lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish muhim rol uynaydi.

Ikkinchidan, globallashuv davrida o‘qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari o‘zgaradi. Uni boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablar qo‘yiladi. Boshqarish – bu yo‘naltirish, vazifa qo‘yish, o‘rganish, yordam berish va qo‘llab-quvvatlashni hamda maslaxat berish, rahbarlik qilish, kuzatish, talab qilish, ko‘rsatma berishlari o‘z ichiga oladi. Ta’lim-tarbiyada donishmand va mutafakkirlarning, xalqimizning milliy ma’naviy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ta’lim-tarbiya jaryonidagi o‘zgarishlar tinglovchilar, yoshlar oldiga ham muhim vazifa qo‘yadi. Ular izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to‘plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog‘liq.

---

[1] Қаранг: Бош максадимиз-кенг куламли ислоҳотлар ва модернизация йўлини катъият билан давом эттириш. // Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2012-йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мулжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йуналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. 19.01.2013.

[2] “Таълим тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 225-модда.

[3] Кадрлар тайёрлаш миллий дастури // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11 – 12-сон, 295-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 15-сон, 150-модда; 2013 й., 41-сон, 543-модда.

Umuman olganda globallashuv davrida ta'lim-tarbiya jarayoni zamon kutayotgan talablarga javob berishi, undan orqada qolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirishda xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasidagi yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo'lsa, tarbiya sohasidagi o'ziga xoslik O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini kafolatlab beradi.

"Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlangan ishlarimizni yangi yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[4] deb alohida ta'kidladilar. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'zining "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvolini tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar.

Birinchi vazifa – maktabgacha ta'lim sohasida. Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etadi.

---

[4] Ш.Мирзиёев. "Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халк фаровонлиги гарови" мавзусидаги Ўзбекистон Республикаси Конституцияси кабул килинганининг 24 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги маърузаси. Халк сузи. 2016 йил 8 декабрь. 243-сон.

25692

Tasdiqlangan dasturga ko‘ra, bu yo‘nalishda 2 ming 200 ta muassasaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Shuningdek, tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda, o‘quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi.

Ikkinchi vazifa – umumta’lim maktablari, litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qitish sifati bilan bog‘liq.

Zamonaviy o‘quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas.

Bolalar va yoshlarga maxsus fanlar, mamlakatimiz va jahon sivilizatsiyasi tarixini, xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter dasturlarini chuqur o‘rgatish vazifalari xali sifatli va to‘liq holda hal etilgani yo‘q.

Yana bir muammoni xal etish ham o‘ta muhim xisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur.

Uchinchi vazifa – ta’lim muassasalarini, eng avvalo, kasb-hunar kollejlarini oqilona joylashtirishni, shuningdek, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va har bir xududning zarur mutaxassislarga bo‘lgan talabini to‘g‘ri aniqlashni tanqidiy tahlil qilishdir.

To‘rtinchi vazifa – nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o‘quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish.

Bu o‘rinda ikkita asosiy vazifani hal etish zarur: birinchi – ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg‘or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak. Bunda, albatta, davlatning extiyojlari va uning maqsadli vazifalari inobatga olinishi shart;

ikkinchi – akademiklarni har taraflama qo'llab-quvvatlash, jumladan, moddiy rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Beshinchi vazifa – kitoblarni chop etish va tarqatishdagi muammolarni hal qilishdir. Bu o'rinda gap, eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda.

Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va ayniqsa, internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur.

Ana shu vazifani hal etishda turli darsliklarni yaratish, ularni chop etish va moliyalashtirish masalalarida idoralar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, afsuski, jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Shu o'rinda hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi[5].

Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri – bu ta'lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta'limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida ta'limning barcha turlariga bo'lgan munosabat o'zgardi. Ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e'tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali – bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo'lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta'lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

---

[5] Ш.Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент: Ўзбекистон. – 2017.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va keskin raqobatchilik kuchayib borayotgan sharoitda insonning oldingi davrdagi butun hayot uchun ta'lim olish emas, balki butun hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Ba'zi bir manbalarga ko'ra, ta'limning uzluksizligi to'g'risidagi ilk g'oyalarni ba'zi bir G'arb tadqiqotchilari hatto Suqrot, Aflotun, Aristotel va Senekanning insonning doimiy ravishda ma'naviy takomillashuvi haqidagi diniy-falsafiy tasavvurlarida va ilmiy asarlaridan hamda bunga o'xshash g'oyalarni muqaddas islom dinimizda ham uchratishimiz mumkin. Uzluksiz ta'lim g'oyasining paydo bo'lishi o'z navbatida, bir tomondan pedagogik konsepsiya sifatida, boshqa tomondan esa, amaliyotning natijasida paydo bo'lgan. Umuman, bugungi kun tushunchasidagi kattalar ta'limi rivojlanishi XIX asrdagi sanoat inqilobi natijasida fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar oqibati bilan bog'liq.

"Uzluksiz ta'lim" konsepsiyasi birinchi marta YUNESKOning 1965-yildagi forumida taniqli nazariyotchi P.Langrand tomonidan o'rtaga tashlanib sezilarli darajada nazariy va amaliy rezonansga sabab bo'ldi va natijada o'tgan asrning 60-yillari oxiriga kelib mazkur ibora ilmiy tahlilning maxsus predmetiga aylandi. Uzluksiz ta'limni xalqaro darajada o'rganishning ustuvorliklari o'z ichiga ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlovchi uzluksiz kasbiy ta'lim, qo'shimcha ta'lim, kattalar ta'limi, aholining himoya qilinmagan qatlami ta'limini va iqtisodiy modellarni qamrab oladi[6].

Uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanishi, uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etishga sezilarli darajada hissa qo'shgan MDH olimlaridan S.G.Vershlovsiy, N.V.Vasilenko, S.M.Vishnyakova, V.I.Ilina, O.M.Nikandrov, V.I.Podobeda va boshqalarning nomlarini keltirib o'tish mumkin.

---

[6] Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uzluksiz ta'lim borasida bir-biridan farqlanuvchi bir necha nuqtayi nazarlarni uchratish mumkin. Ulardan eng ko'p uchraydiganlari: "uzluksiz ta'lim – butun hayot davomida egallaydigan ta'lim", "uzluksiz ta'lim – kattalar uchun ta'lim", "uzluksiz ta'lim – bu uzluksiz kasbiy ta'lim" kabi iboralar qo'llanilsa, jahon pedagogikasida uzluksiz ta'lim bir nechta atamalar bilan izohlanib ular ichida "davom etuvchi ta'lim", "hayot davomida o'qish", "doimiy o'qish" iboralari keng qo'llaniladi.

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, davlat uchun uzluksiz ta'lim har bir shaxsning kasbiy va umumiy rivojlanishi uchun maqbul shart-sharoitlarni ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatning yetakchi sohasi hisoblansa, jamiyat uchun esa, uzluksiz ta'lim ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim sharti, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtiruvchi hamda uning kasbiy va madaniy salohiyatini oshirib boruvchi mexanizm hisoblanadi. Jahon hamjamiyati uchun uzluksiz ta'lim xalqaro hamkorlik asosida milliy madaniyatlarni va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va o'zaro boyitish usuli hisoblanadi. Bu, eng avvalo, bilimlarni egallash va o'rganib olishni talab etadi. YUNESKOning "Ta'lim – yashirin xazina" ("Learning: The Treasure Within") deb nomlangan XXI asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyasining ma'ruzasida ilmiy taraqqiyot hamda iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning yangi shakllari butun hayot davomida o'qishni talab etayotgani alohida ta'kidlanadi.

Ma'ruzada butun hayot davomida ta'lim olish to'rt ustunga tayanishi lozimligi ta'kidlanadi[7]:

[7] Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.



1. Bilishga o‘rganish. Bu shaxsning keng umumiy madaniyatini fanlarning cheklangan sohasida bilimlarni chuqur egallashni nazarda tutadi. Shaxsning umumiy madaniyati ta’lim olishni rag‘batlantiradi, uning bilimini muttasil oshirib borishga o‘rgatadi. Bu, shuningdek, uzluksiz ta’lim tug‘dirgan imkoniyatlardan foydalangan holda o‘qishni o‘rganishni ham ko‘zda tutadi.

2. Ishlashni o‘rganish. Har bir shaxs faqat kasb malakasini egallabgina qolmasdan, ayni paytda turli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va jamoa bilan birga ishlay olish ko‘nikmalarini shakllantirgan kompetentlikka ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, shaxs hayoti davomida duch keladigan turli ijtimoiy yoki ishlab chiqarish muhitida mehnat faoliyatini amalga oshirishga ham o‘rganishi kerak.

3. Birgalikda yashashga o‘rganish. Umumiy loyihalarni amalga oshirish, hur fikrlilik, o‘zaro anglashuv, kelishish qadriyatlarini hurmat qilgan holda mojaroli vaziyatlarni hal qilishda bevosita ana shu fazilat asqotadi.

4. Yashashni o‘rganish. Bu o‘z shaxsini kamol toptirish, mustaqil fikrga ega bo‘lish, shaxsiy mas'uliyat demakdir. Shuning uchun ta’limda insonning ushbu fazilatlarini rivojlantiradigan barcha vositalardan: xotira, mushohada yurgizishga qodirlik, estetik did, jismoniy imkoniyatlar, aloqa qilishga qodirlik va hokazolardan samarali foydalanilishi lozim.

Umuman olganda, uzluksiz ta'lim shaxs va jamiyatning mos ehtiyojlari davlat va jamiyat institutlari va tashkiliy ta'minlovchi tizim orqali shaxsning butun hayoti davomidagi ta'lim (umumiy va kasbiy) salohiyatining o'sish jarayoni bilan kechadi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, kreativ, ma'naviy boy shaxsni shakllantiruvchi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda oldinda borish uchun zarur sharoitlar yaratadi. Ta'limning turlariga o'z navbatida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash va maktabdan tashqari ta'limni kiritish mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin jahon hamjamiyatinining teng huquqli sub'yekti va ajralmas bir qismi sifatida inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, strategik rivojlanish, jahon hamjamiya-tiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik kuchli huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini qurmoqda.

1997-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashning huquqiy asoslarini yaratdi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo'yicha mehnat qilish huquqi ro'yobga chiqariladi.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy

jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo‘lib, uning rivojlanish omillaridan biridir.

O‘tgan yillarda ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko‘maklashdi. Mustaqillik yillarida respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi, biroq, o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda[8]. Shu bilan birga, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko‘rsatdi[9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktabrdagi F-4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan Ishchi guruh tomonidan oliy ta’lim tizimidagi holatni o‘rganish natijalariga ko‘ra, bir qator oliy ta’lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta’lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

---

[8] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5198-сонли Фармони.

[9] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 январдаги “Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5313-сонли Фармони.

Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti[10].

Tahlillarning ko'rsatishicha, oxirgi yillarda o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yetarli darajada bog'lanmagan.

Aholi turli toifalarini "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi bo'yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda[11].

Shu bilan birga, islohotlar amalga oshirilgan yillarda umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, 12 yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloh qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi[12].

---

[10] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПК-2909-сонли Қарори.

[11] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 январдаги "Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5313-сонли Фармон.

[12] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Умумий ўрта, ўрта махсус ва касб-ҳунар таълими тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармонига ШАРҲ// http://uzlidep.uz/positionparty/82

Umuman olganda, kasb-hunar ta'limining obro'si hamda o'qituvchilar, tarbiyachilar va murabbiylarning, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning ijtimoiy maqomi pasayib bormoqda. Oliy malakali kadrlardan samarali foydalanilmayapti. Kadrlar bilimi va ular tayyorgarligining sifatini nazorat qilish hamda baholash tizimi hozirgi zamon talablari darajasida emas.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integratsiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Respublikamiz ta'lim tizimi amaliyotidagi mavjud muammolar hisobga olingan holda hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida umumiy o'rta ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ni belgilangan rejalar amalga oshirish maqsadida. 2018-yil 17-iyul kuni O'zbekiston Prezidenti huzurida ta'lim tizimi rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda inson resurslarini rivojlantirish poydevori bo'lgan, yoshlarda bilim, dunyoqarash va ma'naviyat asoslarini shakllantiruvchi umumiy o'rta ta'lim tizimini tubdan isloh qilish masalalari muhokama qilindi.

Bugungi kunda Respublikada 9,7 ming maktabda jami 5,2 million o'quvchi ta'lim olmoqda. Bu aholining 16 foizini tashkil etadi, o'quv-tarbiyaviy va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qilmoqda. Biroq so'nggi 20 yilda asosiy e'tibor kollej va litseylarga qaratilib, umumta'lim maktablari

faoliyatini zamon talablariga javob beradigan yaxlit bir tizimga aylantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarsiz bo'lgan.

Yig'ilishda maktablarni moliyalashtirishga ikkinchi darajali masala sifatida qaralib, ushbu tizimga byudjet mablag'lari "qoldiq" usulida ajratib kelinganligi, ayniqsa xalq ta'limi tizimi xodimlari yillar davomida o'z faoliyatiga xos bo'lmagan boshqa ishlarga muntazam jalb qilinib, tom ma'noda "tekin xizmatkor" ga aylanib qolganligi keskin tanqid qilindi.

Bu kabi holatlar maktablarda erkak o'qituvchilarning kamayishiga ham sabab bo'lib, hozirgi kunda maktablarda erkak o'qituvchilar 30 foizni, Toshkent shahrida esa 10 foizni tashkil qilishi qayd etildi.

Shuningdek, o'qituvchilar o'z ustida ishlab, bolalarni fanlarga qiziqishini oshirish o'rniga, maktabning kam-ko'stini yopish uchun o'quvchilar ota-onalaridan pul yig'ish, tinimsiz tekshirishga kelayotgan turli komissiyalarni "tinchitish" bilan ovora bo'lib qolganligi, maktablarda davomat tushib ketishi, o'quvchilarning ko'cha-ko'yda qarovsiz holda yurishi, hattoki bezorilarga va turli zararli oqimlarga qo'shilishi holatlariga olib kelganligi tanqidiy muhokama qilinib, ta'sirchan chora-tadbirlar belgilash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlat rahbari Jahon banki rahbariyati bilan uchrashuvda "inson kapitali"ga sarmoya kiritishni ko'paytirish masalasi muhokama qilinganligi hamda avvalgidek "arzon ishchi kuchi bo'lsa, chet el sarmoyasi keladi" degan siyosat hozirgi zamon talabiga mutlaqo to'g'ri kelmasligini alohida ta'kidlab, tegishli topshiriqlar berdi.

Prezident dunyoda ilmiy-texnik rivojlanish va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashish darajasi oshayotgani sababli past malakali ishchi kuchiga ehtiyoj kamayib borayotganligini, jumladan, Xitoy ham aynan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'limga qattiq e'tibor qaratib, katta sarmoyalarni yo'naltirayotganligini alohida ta'kidladi.

Sababi jahon va mamlakatimizda ro‘y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar va innovatsion o‘zgarishlarning rivojlanishi mos ravishda jamiyatda ta’lim jarayonlarini modernizatsiyalashni talab etadi. Uzluksiz ta’lim butun ta’limdagi o‘zgarishlarni shakllantiruvchi tizim sifatida, mehnat bozorida mutaxassislarning malakasi va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishini belgilovchi va umuman iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanish darajasini oshiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta’limning rivojlanishi shuningdek, ilmiy-texnik jarayonlar, informatsion texnologiyalarni joriy etish va innovatsion o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Innovatsion jamiyatning o‘ziga xos xususiyati o‘zida har xil yosh kategoriyasidagi insonlar bilimini doimiy tizimli ravishda to‘ldirib borish va kengaytirishni ta’minlaydigan hayot davomida va bosqichma-bosqich jarayondan iborat bo‘lgan uzluksiz ta’lim hisoblanadi[13]. Uzluksiz ta’limning maqsadi bilimlar iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish bo‘g‘inining ajralmas bo‘g‘ini sifatida insonning o‘zgarishlarga va iqtisodiyotni modernizatsiyalashga, kasbiy hayot, madaniyat, jamiyat va hokazolarga moslashish qobiliyatini mustahkamlash sifatida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya

[13] Қаранг: Ахмедов А.Э., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынка труда. 2016. №3. С. 26 – 28.

qilish, zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha Oliy ta’lim tizimini 2017 – 2021-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi[14] tasdiqlandi.

Ta’lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko‘tarish, shuningdek uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

Shu bilan birga, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur’atlar oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg‘or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta’lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda[15].

Respublikada ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalari qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash barobarida ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi, o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli choralar ko‘rilmoqda. Ta’lim sohasini isloh etish

---

[14] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли Қарори.

[15] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 февралдаги “Олий ўқув юртидан кейинги таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги ПФ-4958-сонли Фармони.

borasida 2016 – 2018-yillarning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasiga doir yetmishdan ortiq farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Ushbu g‘oyat muhim huquqiy hujjatlar mamlakatimizda ta’lim tizimini tom ma’noda sifat jihatdan tubdan o‘zgarish va yangilashlar jarayonlari uchun asos bo‘ldi.

Ta’lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2018-yil 5-sentabr kuni davlatimiz rahbarining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni[16], shuningdek, qator qarorlari qabul qilindi.

Hujjatda, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta’limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Jumladan: **birinchidan,** joylarda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, umumta’lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq ta’limi boshqaruv organlari rolining yetarli darajada emasligi; **ikkinchidan,** umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo‘lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o‘rinbosarlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi; **uchinchidan,** umumiy o‘rta ta’limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta’minlash masalalarida xalq ta’limi bo‘limlari va umumta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro ham-

[16] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5538-сонли Фармони.

korlik darajasining pastligi; **to'rtinchidan,** rahbarlar, o'qituvchilar va umumta'lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi; **beshinchidan,** ta'lim sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi; **oltinchidan,** xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me'yoriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi aytib o'tilgan.

Prezident Farmonida xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilarni belgilab berilgan:

- umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash;

- ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining muvofiqlashtiruvchi roli va mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mazkur yo'nalishdagi vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish;

- rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish;

- xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, shu jumladan barcha muassasalarning telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash, barcha foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar manbasini yaratish, ularning faoliyatini baholashning elektron reyting tizimini joriy etish;

- xalq ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

- zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo'li bilan umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko'rsatishga oid faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tarmog'ini yanada rivojlantirish, ushbu sohaga davlat-xususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy etish;

- xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish.

Bundan tashqari, 2018-yil 1-sentabrdan maktablarda faoliyat olib borayotgan 450 mingdan ziyod pedagog va rahbar xodimlarning maoshi oshirildi. Xalq ta'limi xodimlariga uy, yer, maishiy texnika, chorva va mashina sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berish tizimi joriy etildi. Ular uchun maxsus davlat mukofoti ta'sis qilindi. O'qituvchilarni boshqa ishlarga jalb etish, maktablarda asossiz tekshiruvlar o'tkazish amaliyotiga chek qo'yildi.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida xalq ta'limi tizimi joriy yilda 16 ming nafar oliy ma'lumotli yosh kadr bilan to'ldirildi. Qariyb 13 ming nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytdi.

Keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Prezident qarori bilan 2017 – 2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2018-yilda mamlakatimizda 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etildi. Fanlar akademiyasi va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlari boshlandi.

Albatta, bunday e'tibor yaqin kelajakda o'z samarasini beradi, lekin barcha sohalarda jadal islohotlar olib borilayotgan bir paytda shu sur'atga mos ilg'or kadrlar mamlakatimizga bugun kerak.

Hozirgi tizimli o'zgarishlar jarayonida aksariyat mutaxassislarning bunga tayyor emasligi, ularning bilimi, malakasi va ko'nikmasi zamon talabiga javob bermasligi ayon bo'lib qoldi.

Masalan, xorijda doktorantura va magistraturada o'qitish, malaka oshirish va stajirovkani tashkil qilish bo'yicha dastlabki ehtiyoj 3,5 mingdan ortiq. Yurtimizda xalqaro ilmiy va amaliy tajriba ega 600 nafardan ziyod vatandoshlarimizga ehtiyoj mavjud. 1000 ga yaqin xorijiy olimlar va ekspertlarni jalb etishga talab bor, ya'ni, bugun kechiktirib bo'lmaydigan, oddiy ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyoj 5 mingdan ziyodni tashkil etadi. Agar ishlab chiqarishdagi talab ham inobatga olinsa bu raqam kamida 50 – 100 baravarga oshadi.

"Bu hali bugungi ehtiyoj. Yaqin va uzoq istiqboldagi iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan bizga qaysi soha uchun qanday mutaxassis kerak bo'ladi? Shuni hozirdan chuqur o'ylashimiz, zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlarni tarbiyalashimiz kerak. Bu masala bizning kelajagimiz, bizning ertangi kunimiz", – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 25-sentabrdagi Farmoniga[17] muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda

[17] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 25 сентябрдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги мутахассисларни хорижда тайёрлаш ва ватандошлар билан мулоқот қилиш бўйича «Элюрт умиди» жамғармаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги ПФ-5545-сонли Фармон.

tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etilgan edi.

Jamg‘arma oldiga o‘zbekistonlik iqtidorli yoshlarni doktorantura va magistratura dasturlari bo‘yicha o‘qitish, turli soha mutaxassislarining malakasini oshirish va stajirovkasini tashkil etish, xorijdagi vatandoshlar bilan doimiy muloqot o‘rnatish, ularni mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga jalb qilish, chet eldagi universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga ko‘mak berish vazifalari qo‘yilgan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun 2019-yilda davlat byudjetidan 45 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirilgan. Prezidentimiz ko‘rsatmasiga muvofiq, bu mablag‘ yanada oshiriladigan bo‘ldi.

Vazirlar Mahkamasiga “El-yurt umidi” jamg‘armasi bilan birgalikda barcha vazirlik va idoralar kesimida xorijda kadrlar tayyorlash, stajirovkasini tashkillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Oliy ta’lim vazirligi, “El-yurt umidi” jamg‘armasiga kadrlarni xorijga yuborish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, tanlov e’lon qilish bo‘yicha topshiriq berildi.

Jamg‘arma Tashqi ishlar vazirligi, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda xorijda qimmatli tajribaga ega bo‘lgan vatandoshlarimiz to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirib borishi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mamlakatlar va mutaxassisliklar kesimida vatandoshlar to‘g‘risida ma’lumotlar reestrini tezroq ishga tushirishi zarurligi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga jalb etilayotgan har qanday xorijiy investitsiyaning ma’lum bir qismini malakali mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirish kerakligini alohida ta’kidladi.

Yig'ilishda yana bir masala – istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlab olish, ularning kasb malakasini uzluksiz oshirib borishga ko'maklashish masalalari ham ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi "Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[18] qarorida Respublika bo'yicha vazirlik, idora va tashkilotlarda rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplash maqsadida tanlov o'tkazish belgilangan edi.

Tanlovning dastlabki bosqichidan so'ng 8 ming 334 talabgordan 3 ming 825 nafari keyingi bosqichlarga tavsiya etildi. Yakunda 50 nafar yuqori malakali kadr tanlab olinadi.

Davlatimiz rahbari tanlovning final bosqichi ishtirokchilarini qisqa muddatli kurslar orqali malakasini oshirish kerakligini ta'kidladi. Tanlov g'oliblarining stajirovkasi qaysi rivojlangan mamlakatda, qaysi tashkilotlar va qanday mezonlar asosida o'tkazilishini aniq belgilash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish masalasida bir ahamiyatli xujjatga e'tibor bersak, bu Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori[19].

Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish:

---

[18] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 30 майдаги "Истиқболли бошқарув кадрларини танлов асосида танлаб олишнинг замонавий тизимини яратиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3755-сонли Қарор.

[19] Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги "Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 997-сонли Қарори.

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang'ich 4 sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berildi.

Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;

- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog'liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'ymoqda.

Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo'lgan qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fani haqida tushuncha. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi va pedagogik fanlar tizimi. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga

ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularni moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllan-tirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Pedagogika fanining tadqiq qilish ob'yekti, va u o'rganadigan sohalari yildan-yilga ortib, kengayib va rivojlanib bormoqda. Natijada uning tarmoqlari ham bir necha guruhlarga ajralmoqda va mustaqil soha sifatida o'rganilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb nomlanadi.

Pedagogika fanini ulkan katta daraxtga qiyoslash mumkin. Har bir fan o'z rivojlanishida, o'z nazariyalarini boyitadi, o'zining ichki amaliy yo'nalishlariga tayanib takomillashib boradi. Hozirgi vaqtda pedagogika fani o'z fanlari tizimida:

Umumiy pedagogika (insonga, shaxsga ta'lim-tarbiya, ma'lumot berish shakli, mazmuni, usullari va ularni shakllantirishning, tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi va amaliyotda qo'llashga o'rgatadi).

Yoshlar pedagogikasi (turli yoshdagi kishilarga ta'lim-tarbiya berish, shaxsni shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Maktab pedagogikasi (maktab yoshdagi o'quvchilar ta'lim-tarbiya sohasining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish, tarbiyalashning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Pedagogika tarixi (turli tarixiy davrlarda maktablar ta'lim tarbiyasi, pedagogik g'oyalarning mazmuni, rivojlanish masalalarini o'rganadi).

Maxsus pedagogika (Defektologiya Y.Bu quyidagi guruhlar-ga bo'linadi: 1) kar-soqov bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan surdopedagogika; 2) ko'zi ko'r va zaif ko'ruv-chi bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalasi bilan tiflopeda-gogika; 3) axloq jihatdan qoloq bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan oligofrenopedagogika; 4) duduq va tili yassi bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan esa logopediya shug'ullanadi).

Metodika (ta'limning umumiy qonuniyatlarini muayyan predmetlaridan (ona tili, adabiyot, tarix, fizika, ximiya, matematika, jismoniy tarbiya) dars berishda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini, usullarini tadqiq qiluvchi sohasi).

Oila pedagogikasi (oila muhiti, a'zolari, sharoiti, ta'lim tarbiyasining umumiy masalalarini o'rganadi).

Kasb pedagogikasi (ishlab chiqarish, turli kasblarni o'rganishning umumiy masalalarini o'rganadi).

Qiyosiy pedagogika (g'oyalarni taqqoslab xulosa chiqarish masalalarini o'rganadi).

Xalq pedagogikasi (mazkur xalq ta'lim-tarbiyasi, maktabi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, axloq-odobi va boshqalarni o'rganadi).

Ijtimoiy pedagogika (barcha yoshdagi fuqarolarni tarbiyalashning zamonaviy imkoniyatlari, vositalari va manbalarini o'rganadi).

Tibbiyot pedagogikasi.

Harbiy pedagogika.

Rahbarlik pedagogikasi.

Mehnat pedagogikasi singari tarmoqlarga ega.

Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini

kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot va rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Pedagogika fanining tizimi Pedagogika fani komil insonda jahon tajribalarida sinalgan tizim bo'lgan bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy meros, an'analar, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarning boy manbalari bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy tushunchalar haqida bilim, malaka hosil qilishda pedagogikaning ko‘p fanlar bilan aloqadorligi bilan ulug‘dir. Pedagogika fanlar tizimida etnopedagogik, maktabgacha ta’lim pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasbiy ta’lim mehnat pedagogikasi jismoniy kamolot pedagogikasi, harbiy pedagogika, maxsus pedagogika, kar, soqov (surdo) pedagogika, ko‘rlar (Tiflo) pedagogika, aqliy jihatdan orqada qolgan (oligrofeno) pedagogika, pedagogik mahorat kiradi. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Pedagogika fani inson tarbiyasi bilan shug‘ullanganligi sababli unga hamma fanlar ko‘maklashishi tabiiydir. Pedagogikaning metodik asosi, bilim nazariyasi va tarbiyadagi qonun-qoidalar bevosita falsafa fanining ta’sirida amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta’limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?
2. Ta’limning xususiy qonuniyatlariga nimalar kiradi?
3. Ta’lim tamoyillari deb nimaga aytiladi?
4. Ta’limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?
5. Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.
6. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” qachon ishlab chiqildi?
7. “Maxsus pedagogika” necha turga bo‘linadi?
8. “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qachon qabul qilingan?
9. “Ijtimoiy pedagogika” nima?
10. “El-yurt umidi” 2019-yilda davlat byudjetidan qancha pul ajratildi?

Nazorat uchun testlar:

1. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" qachon ishlab chiqildi?

A)*2022-yil 28-yanvar;
B) 2021-yil 19-sentabr;
C) 2017-yil 7-fevral;
D) 2020-yil 20-yanvar.

2. "Maxsus pedagogika" necha turga bo'linadi?

A)*4 ga;
B) 7 ga;
C) 2 ga;
D) Bunaqa yo'nalish mavud emas.

3. "Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olish-ning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qachon qabul qilingan?

A)*2018-yil 30-may;
B) 2007-yil 20-dekabr;
C) 2018-yil 19-dekabr;
D) 2019-yil 16-avgust.

4. "Ijtimoiy pedagogika" to'g'ri berilgan qatorni ko'rsating?

A)*Tibbiyot pedagogikasi, Harbiy pedagogika, Rahbarlik pedagogikasi, Mehnat pedagogikasi;
B) Ilmiy pedagogika, ommaviy pedagogogika;
C) Erkin pedagogika, shaxsiy pedagogika;
D) To'g'ri javob yo'q.

5. "El-yurt umidi" 2019-yilda davlat byudjetidan qancha pul ajratildi?

A)*45 mlrd so'm;
B) 10 mlrd so'm;
C) 43 mlrd so'm;
D) 70 mlrd so'm.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102 b.

3. "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

4. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

5. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 8-dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga Sharh // http://uzlidep.uz/positionparty/82

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomil-lashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5545-sonli Farmoni.

16. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori.

17. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. С. 34 – 38.

18. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

19. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынок труда. 2016. № 3. С. 26.

20. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.

21. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

22. Ҳасанбоев Ж., Ҳасанбоева О., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.

2-mavzu: Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.

Reja:

1. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
2. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish.
3. "Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish, bakalavriat, magistratura. Pedagogika, didaktika, tarbiya nazariyasi, shaxs, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivoilanish, korreksion (maxsus) pedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya, metodika, Individ, shaxs, indi-viduallik, muhit, tarbiya, rivojlanish, Yaxlit, tzim, tarbiyaning maqsadi, tarbiya maqsadining xilma-xilligi, barkamol avlod tarbiyasi.

Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogika (yunoncha "paidagogike" – "paidagogos" "bola" va "yetaklayman") ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, shaxsni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat mazmuni, ta'lim, ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, shakllari, metodlari, vositalari, yagona ijtimoiy maqsad asosida yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rga-

nadi. A.Avloniy tushunchani "bola tarbiyasining fani" ("pedagogiya") deb ataydi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati, uni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni qaratadi. Shu bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ta'lim umumiy va maxsus ta'lim kabi turlarga ajratiladi. Umumiy Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi. Tarbiya nazariyasi bevosita tarbiya jarayonini o'rganadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha "didaktikos" – "o'rgatuvchi", "didasko" – "o'rganuvchi") – ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizini kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagi-

larni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalanish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishida yetarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. "Akademiya" so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida, quldorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular "pedagog" deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi "bola yetaklovchi" demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug'ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.

O'rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo'lib, ular "Donishmandlar uyi" (IX asr, Bag'dod), "Ma'mun akademiyasi" (XI asrboshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha kuchli bilimga ega bo'lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo'lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo'nalishlarda keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O'rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko'rinishidagi maktablarda ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo'yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o'z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta'lim berganlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma'rifatparvarlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma'naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar. Insoniyatning yashash uchun kurashish va turli tabiiy ofatlardan himoyalanish yo'lida olib

borgan harakatlari tarbiya g'oyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlarning guruh-guruh bo'lib hayot kechirishi sababli bojalarga tirikchilik o'tkazish yo'lidagi faoliyat (o'simlik mevalari, ildizlarini terish, hayvonlarni ovlash)ni tashkil etish borasidagi tajribalarni o'rgatish guruh a'zolari tomonidan birdek amalgam oshirilgan. Bilimlar, aksariyat hollarda, mehnat va o'yin jarayonlarida o'zlashtirilgan. Mehnat faoliyatini tashkil etish jinsiy xarakterga ega bo'lganligi bois o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashda o'ziga xos jihatlar ko'zga tashlangan. Oila, xususiy mulk va davlatning paydo bo'lishi ijtimoiy tarbiya mazmunida ham tub o'zgarishlarning sodir etilishi, quldorlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Aynan mana shu davrdan tarbiya jamiyatning ijtimoiy talab va ehtiyojlari asosida yo'lga qo'yila boshladi. Erkin fuqarolarni tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni va vositalari borasidagi fikrlar Demokrit, Platon va Aristotellarning asarlarida muhim o'rin egallagan. Mutafakkirlarning asarlarida ushbu fikrlar mustaqil pedagogik nazariya sifatida emas, balki falsafiy qarashlar yoki jamiyatni tashkil etish loyihasining muhim komponenti tarzida bayon etilgan. Ushbu davrda tabiiy-ijtimoiy fanlar tizimi shakllanishi uchun boshlang'ich asoslar qo'yildi.

Quldorlik tuzumida erkin bo'lmagan kishilar (qullar)ning haq-huquqlari cheklanganligi bois tarbiya tizimi faqatgina quldorlar, ularning farzandlari uchun xizmat qilgan.

Pedagogika fanining tadqiq qilish ob'yekti, va u o'rganadigan sohalari yildan-yilga ortib, kengayib va rivojlanib bormoqda. Natijada uning tarmoqlari ham bir necha guruhlarga ajralmoqda va mustaqil soha sifatida o'rganilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb nomlanadi.

Pedagogika fanini ulkan katta daraxtga qiyoslash mumkin. Har bir fan o'z rivojlanishida, o'z nazariyalarini boyitadi, o'zining ichki amaliy yo'nalishlariga tayanib takomillashib boradi. Hozirgi vaqtda pedagogika fani o'z fanlari tizimida:

Umumiy pedagogika (insonga, shaxsga ta'lim-tarbiya, ma'lumot berish shakli, mazmuni, usullari va ularni shakllantirishning, tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi va amaliyotda qo'llashga o'rgatadi).

Yoshlar pedagogikasi (turli yoshdagi kishilarga ta'lim-tarbiya berish, shaxsni shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" kabi me'yoriy hiyjatlarda belgilab berilgan.

Demak, mavjud sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo'llarini o'rganadi.

Maktab pedagogikasi (maktab yoshdagi o'quvchilar ta'lim-tarbiya sohasining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish, tarbiyalashning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi).

Pedagogika tarixi (turli tarixiy davrlarda maktablar ta'lim tarbiyasi, pedagogik g'oyalarning mazmuni, rivojlanish masalalarini o'rganadi).

Maxsus pedagogika (Defektologiya. Bu quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1) kar-soqov bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan surdopedagogika;

2) ko'zi ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalasi bilan tiflopedagogika;

3) axloq jihatdan qoloq bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan oligofrenopedagogika;

4) duduq va tili yassi bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bilan esa logopediya shug'ullanadi).

Metodika (ta'limning umumiy qonuniyatlarini muayyan predmetlaridan (ona tili, adabiyot, tarix, fizika, ximiya, matematika, jismoniy tarbiya) dars berishda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini, usullarini tadqiq qiluvchi sohasi).

Oila pedagogikasi (oila muhiti, a'zolari, sharoiti, ta'lim tarbiyasining umumiy masalalarini o'rganadi).

Kasb pedagogikasi (ishlab chiqarish, turli kasblarni o'rganishning umumiy masalalarini o'rganadi).

Qiyosiy pedagogika (g'oyalarni taqqoslab xulosa chiqarish masalalarini o'rganadi).

Xalq pedagogikasi (mazkur xalq ta'lim-tarbiyasi, maktabi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, axloq-odobi va boshqalarni o'rganadi).

Ijtimoiy pedagogika (barcha yoshdagi fuqarolarni tarbiyalashning zamonaviy imkoniyatlari, vositalari va manbalarini o'rganadi).

Tibbiyot pedagogikasi.

Harbiy pedagogika.

Rahbarlik pedagogikasi.

Mehnat pedagogikasi singari tarmoqlarga ega.

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o'rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisod – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularni moddiy-texnika va zamonaviy texnolo-

giyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularni jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllan-tirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish. Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi, shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob'yektiv va sub'yektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'yektiv va sub'yektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan

jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;

2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;

3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;

4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'yektiv yondashuv;

5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;

6) tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish;

7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba – avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik

kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;

2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;

3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;

5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'yektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;

4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;

5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;

6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

8) olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini ta'minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;

5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbayiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: O'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol-stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi savollardan iborat:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, batafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

2) yopiq turdagi savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar);

3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o‘z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma’lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

1) fan olimpiadalari;
2) turli mavzulardagi tanlovlar;
3) maktab ko‘rgazmalari;
4) festivallar;
5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish") metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlashi hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;

2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;

3) tadqiqot ob'yektlari va usullarining to'g'ri tanlanishi;

4) tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligining aniqlanishi;

5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;

6) tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda, pedagogik yo'nalishda,

tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko'virlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

"Individ" va "shaxs" tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

"Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ (lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, "bo'linmas", "alohida shaxs", "yagona" ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga avlanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish o'zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishning manbayi qarama-qarshiliklar o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga

munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi, chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga "kirishadi" va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiy-lashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon, chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallar, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga "kirishib" ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak, lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan,

ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin. Zero, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtayi nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar. XV asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtayi nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi. Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit. inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib,shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatning o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi, shuningdek faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim, lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi. O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonidagi faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatning ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida, hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir, chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero,

barcha ma'naviv-axloqiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir, chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab, chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. "temperamentum" "qismlarning bir-biriga munosabati"

ma'nosini anglatib) shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.

2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3. Maktabgacha bo'lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (bolalar) – 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha.

5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) – 14 – 15 yosh.

6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16 – 18 yosh.

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi. Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha, ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlik 12 – 15 yosh). O'smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi

kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi. Intizomi bo‘shashadi.

Hozirgi davr o‘smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko‘zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to‘garaklar, studiya, seksiya, turli tadbirlar o‘tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o‘qishga qiziqishi ortadi.

2. O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, o‘smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo‘ladi. Bu o‘smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi, lekin o‘smirlarning hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas, 38 foiz o‘smir hech qaysi o‘quv fanlarini o‘qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o‘quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o‘quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o‘smirlar qiziqishi o‘qituvchiga bog‘liq, biroq ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o‘qishlari ham barqaror emas.

Turli to‘garaklarga 21 foiz o‘smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug‘ullanadi. 40 foiz o‘quvchida, sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo‘q. Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o‘smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o‘z ixtiyorlari bilan qanday o‘tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o‘tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o‘smir vaqtini o‘z holicha o‘tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko‘radi, 50 foizi sport bilan shug‘ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi.

Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti "qiyin" vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar. O'smir yoshida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim. O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa – o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar. Shuning uchun o'smirga o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13 – 14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat qilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi – kollej, litsey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15 – 18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtayi nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O'spirinlik bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib,

shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtayi nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim.Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqeyi, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada, ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega, chunki o‘spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo‘lib, ularning bu hayotga to‘g‘ri qadam qo‘yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo‘lishining muhim shartidir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. “Pedagogika” tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Didaktika (ta’lim nazariyasi) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o‘rganadi?
4. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari mohiyatini yoriting.
6. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
7. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda qanday metodlar qo‘llaniladi?

Nazorat uchun testlar:

1. O‘rta o‘smirlik Yoshi necha yosh?

A)*12 – 15 yosh;
B) 15 – 17 yosh;
C) 9 – 13 yosh;
D) 12 – 16 yosh.

2. Yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o‘smirlarning?

A)*15 foiz;
B) 50 foiz;
C) 30 foiz;
D) 1 foiz.

3. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri?

A)*1 – 3 yosh;
B) 2 – 7 yosh;
C) 2 – 5 yosh;
D) 3 – 6 yosh.

4. “Individ” so‘zi qaysi so‘zdan olingan?

A)*lotincha;
B) grekcha;
C) fransuz;
D) inglizcha.

5. “Akademiya” so‘zi kimning nomidan kelib chiqqan?

A)*akademia;
B) akadem;
C) akadesim;
D) Akademik Karl.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga

quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017. – 102 b.

3. "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

4. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

5. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 8-dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini

yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga ShARH // http://uzlidep.uz/positionparty/82

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5545-sonli Farmoni.

16. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori

17. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.

18. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.To'xtaxo'djayeva va boshqalar. Prof. M.X.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

18. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. С. 34 – 38.

19. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

20. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынок труда. 2016. № 3. С. 26.

21. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.

3-mavzu. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon.

Reja:

1. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi va o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi.
2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi.
3. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari.
4. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi.

Tayanch so'z va iboralar: pedagogik jarayon, pedagogik tizim, tarbiya ob'yekti, jadallashtirish, optimallashtirish, tarbiyachi, didaktika – pedagogika, yaxlit pedagogik jarayon, pedagogik jarayon qonuniyatlari, pedagogikaning tarkibiy qismi.

Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi va o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Didaktikaning predmeti ta'lim tarbiya muassasi sharoitida muallimning raxbarligi ostida amalga oshadigan O'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning konuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari o'qitish vositalari va metodlarining samoradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir. Didaktika yunoncha didaktikos so'zidan kelib chiqqan bo'lib o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Ibn

Sino, Umar Xayyom kabi mutaffakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridir. A.Komenskiy, Shvetsariyalik pedagog I.P.Pestolotstsi, nemis pedagogi A.Disterverg yevropada didaktikaning rivojlanishiga xissa ko'shdilar. Yuqorida aytib o'tilgan Sharq mutaffakirlari qarashlarining muhim xususiyati shundaki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavxumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar. Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topish nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv taffakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy substansiyani barcha ilmiy bilimlarning predmeti sifatida ko'rib chiqishda eng avvalo miqdor va sifatni xissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilishdan ham mahrumligini uqtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalarida xissiy va ratsional bo'shliqni ifodaladi. Xissiy bilish va narsalarni bilishdan iborat bulsa, ratsional bilish umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha xissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba-ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni O'quv-chining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan.

Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayonining va fandagi bilim shakllarini mohiyatini yoritgan.

Borliqning aks etilishi sifatidagi xissiy bilish muammosi va eng asosiy masala-bilishning manbalari doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi. Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida tahlil hamda talqin qildi.

O'qish va takrorlash orqali, – deb yozgan Beruniy, – dunyoning tuzilishini, osmonning va yer shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari xakidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rinni egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushoxada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi.

Abdulla Avloniy (1878 – 1934) o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. "Alxosil – deb yozgan edi u, – butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, ximmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'qimoq, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay vujudimizning dushmani bo'lgan jaxolatdan qutulmakka, jonimiz boriga sa'i qilmagimiz lozimdur".

Hamza o'z tadqiqotlarida tovushli savod o'rganishi metodini ishlab chiqqan. Uning bosh g'oyasi o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondoshish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Didaktika tushunchasini Yan Amos Komenskiy (1592 – 1670) ham ana shu yo'sinda sharxlagan. Uning bu boradagi fikr muloxazalari 1657-yilda nashr etilgan. Hammaga hamma narsani o'qitishning universal san'ati ifodalangan "Buyuk didak-

tika" nomli asarida bayon qilingan, lekin Komenskiy didaktika faqat o'qitish san'atigina emas, balki tarbiyalash san'atidan ham iboratligini qayd qilgan va tarbiya har tomonlama axloqiylik yo'nalishdagi fe'l atvorni shakllantirishning zarur sharti ekanini ham uqtirgan.

Didaktikani yuqoridagicha tushunish XIX asr boshigacha, ya'ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi Iogann Genrix Gerbart (1776 – 1841) didaktikaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqunigacha davom etgan.

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va faktlarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, tartibga solingan. O'qitish jarayoning strukturaviy komponentlari – maqsadli rag'batlantirish-motivlashtirish, mazmuniy, xarakat – faoliyat o'qitishning shakl va metodlarining ajratilish alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu komponentlarning ajratilgani o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Pedagogik yechimlarni tanlash nazariyasi ishlab chiqishning metodologik asosi o'qitish jarayonining mavjud barcha qonuniyatlari hisobga olish fikri bilan barcha qonuniyatlari hisobga olish fikri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Pedagogik va psixologik shart sharoitlarni aniqlash asosida o'qitishning optimalligi mezonlarining asoslari tarkib toptirilgan va ularning eng ahamiyatlilari quyidagilardan iborat.

O'qitish optimal bo'lish uchun har bir O'quvchi o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishlari tarbiyalanishi va kamol topishi shart.

O'qitish optimal bo'lishi uchun O'quvchilar, o'qituvchilar darsdagi va uydagi ishlar vaqtining o'zlari uchun gigienik jihatdan belgilangan normasiga ega bo'lishi kerak. Rejalashtirishning optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini ta'lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan birgalikda loyihalashga kompleks yondashish hamda o'qitish vazifalarini u amalga oshadigan tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdir.

Ishni rejalashtirishda quyidagi rejalardan foydalaniladi. O'qitish mazmuning qo'yilgan vazifalarini eng muaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan optimal variantini tanlash.

O'qitishning qo'yilgan vazifalarini belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlaydigan metodlari va vositalarini tanlash, masalalarni muvaffaqiyatli hal etishni, shu jumladan o'quvchilarga tabaqali yondashishini ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash. Ta'lim mazmunida jamiyatning ma'naviy va moddiy elementlar shu jumladan tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati xulqi va hayoti ifodalanishi lozim.

Ta'limning mazmuni umumiy politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak. Ta'limning mazmuni muayyan yoshga qaratiladi va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmunidagi ajratilgan turt komponent xajmi va mazmuni bo'yicha aynan muvofiq bo'lishi kerak. Maktab rivojlanishning hozirgi bosqichida ta'limning kompyuterlashtirish masalasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim nazariyasidan muammoli kamol toptiruvchi o'qitishni joriy etish, shuningdek o'quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli kamol toptiruvchi o'qitishning nazariyada ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Ta'limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g'oyasi, ya'ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish gipotezani olg'a surish – gipotezani asoslash – gipotezani hal qilish uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur zvenolarni o'z ichiga olgan muammoli o'qitish. O'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilik yo'sindagi ko'nikma va malakalarni o'stirish g'oyasi.

Muammoli o'qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalandi va eksperiment yo'li bilan asoslandiki, ulardan muammoli dars o'tish bilan muammoli o'rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, o'quvchilarning tayyorligi darajasi bilan muammoli o'rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llashning (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini-o'zi boshqariladigan faollikdan iboratdir. Mazkur qonuniyatlar asosida amaliy jihatdan muhim ahamiyatga molik quyidagi nazariy qoidalarni ifodalash mumkin: Faollashtirish vositalari tizimi, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va metodlari o'qitishning asoslangan, maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlash uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- Ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish,
- o'quvchilarni o'z oldilariga tegishli maqsadlarini qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag'batlantirish mexa-nizmini takomillashtirish,
- o'quvchilarda axborotlarni qayta ishlashga doyir ta'limiy va aqliy ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlash,
- o'quvchilarning o'quv-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy va axloqiy, ifodaviy kuchlarini oshirish,
- Ta'lim jarayonida nazorat va o'zini-o'zi boshqarish orqali o'quvchilar o'zining o'quv bilish faoliyatini baholashini ta'minlash. Shu koydalarga rioya qilish ta'lim samoradorligini yanada oshiradi.

Har qanday jarayon – harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki xodisalarning asta-sekin o'zgarishidir. O'qitish jarayoni ham yosh avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Biz

o‘qitish jarayonini qanday tushunamiz. O‘qitish jarayoni – o‘qituvchining va u raxbarlik qiladigan o‘quvchilarning – ularda aqliy qobiliyatlarni o‘stirish, dialektik dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish va hayotiga tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadida – bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini ongli hamda puxta o‘zlashtirishga qaratilgan ilmiy asosdagi ishlarning majmuidir. Maktabdagi o‘qitish jarayoni qandaydir tasodifiy ayniqsa pedagogning xususiy fikridan kelib chiqadigan narsa emas. O‘qitish jarayoni bilish nazariyasi asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarni aks ettiradi. Hozirgi ilg‘or pedagogika inson shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirishga tarbiya, o‘zini-o‘zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribadan iborat tizim sifatida qaraydi.

O‘quv jarayonidagi tarbiya asosan o‘qitish shaklida, o‘zini-o‘zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligi shaklida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra o‘quv jarayoniga ta’lim (pedagog faoliyati), o‘qish (O‘quvchining mustaqil ishi) va ma’lumotning mazmunini kichik tizimlardan iborat ijtimoiy pedagogik tizim sifatida qaraladi.

O‘qitish o‘quv jarayonining professional tomonini tashkil qiladi. Inson shaxs sifatida shakllanishning ikki tamonldama tabiati (tarbiya o‘zini-o‘zi tarbiyalash) shuningdek ichki strukturasi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va o‘quvchilar o‘quv bilish topshiriqlarini mustaqil holda bajarishdan iborat harakatdir. Buning yo‘l yo‘riq ko‘rsatish jihati muallim o‘quvchiga o‘quv materiali bo‘yicha o‘rgatadigan narsalar va ular ustida ishlash metodlari bilan izohlanadi. O‘quvchilar ana shu asosda o‘zlarining ma’lumot mazmunini o‘zlashtirishga doir faoliyatlarini tashkil qiladilar.

Shunday qilib, o‘quv jarayonining mohiyati o‘quvchi bilish faoliyatining mantig‘i bo‘lib, u birinchidan bilish bizdagi bilimlarning yagona manbayi bo‘lishi amaliyotini o‘rganishdan boshlanishi va mavhum fikrlash asosida nazariy umumlashtirish kerakligidan, ikkinchidan bilish olingan bilimlarni, nazariy

umumlashtirishlarni insondagi bilimlar haqidaligining yagona ob'yektiv mezonlari sifatida ham xizmat qiladigan amaliyotga taqqoslash zarurligidan kelib chiqadi. O'quv jarayoni bilish jarayonini inson faoliyati sifatida psixologik-pedagogik jihatdan loyihalashga asoslanishi va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni albatta o'z ichiga olishi zarur. O'quv jarayoni asosida umuman butun jarayonga ta'luqli va barcha o'quv fanlariga taqaladigan ma'lum talablar hamda prinsiplar mavjud bo'ladi. Bugungi didaktika ana shulardan eng muhimlari tarbiyalovchi ta'lim prinsipi. Ilmiylik prinsipi nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi prinsipidan iboratdir. Ta'limning metodlari va tashkiliy shakllari asosida o'quvchilarning ongli faolligi, ko'rsatmalilik, bilimlari asosli o'zlashtirish. O'ziga xos farqlari tushunarliligi va hisobga olinishi prinsiplari etadi. O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan umumiy didaktik prinsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishga bog'liq.

Ma'lumki, qonuniyat – bu barqaror, zaruriy, u eki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiejlar va sharoitlar o'quv jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta qurish, takomillash-tirish kerak.

Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o'qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o'zaro bog'lanishda qo'llash kunikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta'sirli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning onglilik, puxtalik, ta'sirchanlik qoidalarini xarakterlaydi.

Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi jadallashtirish muammolari, ishlab chiqa-

rishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosida intensivlash o‘z aksini topish kerak.

Har bir o‘qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o‘quv jarayonini samarali qurish – bu, ishda o‘zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni hal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o‘zaro aloqada foydalanish demakdir.

O‘qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarni e’tiborga olish zarur.

O‘qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni o‘qitish qoidalari deb ataydilar. O‘qitish qoidalarini bilish o‘qitishning zarur usullarini yanada ishonchliroq tanlashga imkon beradi.

Ta’lim qoidalari – o‘qituvchining faoliyatini va o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo‘l-yo‘riqlarini uz ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta’lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko‘ra ta’lim qoidalari o‘qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

Ta’lim qoidalari deb umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qish va o‘qitish jarayonlarining yo‘nalishi, o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlaning o‘zlashtirilishi, bilim va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig‘indisiga aytiladi.

“Prinsip” so‘zining ma’nosi xulqning, xatti-harakatning asosiy qoidasi, yetakchi g‘oya demakdir. Biz, hatto turmushda ham “bu odam prinsipli” deymiz va bunda o‘sha odamning o‘ziga xos qoidalarga, o‘zining rintsiplariga muvofiq ish

ko‘rishini nazarda tutamiz. Agar kishining xatti-harakatlarida qat’iy qoidalar bulmasa, uni “prinsipi yo‘q” deb hisoblaymiz.

XX – XXI asrlardagi mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat o‘qitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asos sifatida qaraganlar.

Forobiy “Namunali ta’lim” haqidagi risolasida o‘quvchilar o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni eng yaxshi yo‘sinda bayon qilish masalasiga alohida to‘xtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan ularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi o‘ringa qo‘yishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olg’a surishdan iboratdir.

Ibn Sino asarlarida ham didaktikaning prinsiplariga, xususan ko‘rsatmali o‘qitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibn Sino dastlabki o‘quv mashg‘ulotlarida buyumning tashqi xossasini o‘rgansa, o‘sha buyumni va tasvirini ko‘rib chiqsa, o‘zi mustaqil holda bilimlarni o‘zlashtira oladi, deb hisoblagan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili aql kuchini rivojlantirishdir. Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr bo‘yi Arastuning kitoblarini o‘qisa ham, ularda ifodalangan fanlarning birortasini ham o‘zlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsa-da, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan bo‘ladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va o‘zlashtira olmaydi. Kindiy ana shu fikrlarni bayon qilar ekan, o‘qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini nazarda tutgan.

Pedagog olimlarning yuqoridagi fikr-mulohazalarini xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o‘qitish prinsiplari (qoidalari) yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o‘qitishning xarakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalardir.

So‘nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruhlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta’lim qoidalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

1. Ta'limning ilmiy bo'lish qoidasi.
2. Ta'limning tizimi va izchil bo'lish qoidasi.
3. Ta'limning tarbiyalovchilik xarakteri.
4. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'lik bo'lishi qoidasi.
5. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi.
6. Ta'limda ko'rsatmalilik qoidasi.
7. Ta'lim jarayonida har qaysi o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish qoidasi.
8. Ta'limda ilmiy bilim va ko'nikma, malakalarni puxta, mustahkam o'zlashtirish qoidasi.
9. Ta'limning o'quvchiga mos bo'lish qoidasi.
10. Ta'lim va tarbiyaning birligi qoidasi.

Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, shu narsa ko'rinadiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo'lsa, keyinchalik ta'lim va tarbiya bir-biriga qarama-qarshi qo'yila boshladi: o'qituvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda ob'yektiv nuqtayi nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. L.F.Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta'limda vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa, maqsad bor, vosita yetishmaydi. Nemis pedagogi A.Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha". Pedagogik jarayonning yaxlitligi masalasi K.D.Ushinskiy g'oyalarida chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma'muriy, o'quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi. K.D.Ushinskiyning taraqiyparvar g'oyalari uning izdoshlari: N.F.Bunakov, P.F.Lesgaft, K.B.Yelniskiy, V.P.Baxterov va

boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F.Capterev alohida shug'ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko'p tomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: "Ta'lim, o'qitish, o'rgatish, tarbiya, pand-nasihat, o'git va boshqa bir qator so'zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yaxlit pedagogik jarayondir".

Pedagogik jarayon – pedagogika fanining eng muhim, asosiy tushunchalaridan biri.

Pedagogik jarayon – kattalarning pedagogik faoliyati va tarbiyachilarning boshqaruvchilik roli tufayli hayotiy faoliyat natijasida bolaning o'zini-o'zi o'zgartirishining maqsadga yo'naltirilgan mazmundor, tashkiliy harakatidir.

U haqiqatdan ilmiy asoslangan, rivojlantiruvchi va takomillashib boruvchi tizim sifatida mavjud bo'ladi hamda tarbiya qonuniyatlari, pedagogning ijodkorligi va ta'lim oluvchilarning yosh bilan bog'liq o'zgarishlari dinamikasiga asoslanadi. Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog'langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo'nal-ganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining real o'zaro harakatiga bogliq bo'ladi. O'quv-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati – yaxlitlik, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati.

Yaxlitlik asosiga ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi. Pedagogik jarayon – ko'plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig'indisidir. Unda o'qitish, ta'lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari birlashadi. Pedagogik jarayonning umumiyligi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo'ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari:

- uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi;
- undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;

- umumiy mavjudlik va o'ziga xoslikni saqlashda namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o'zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin. Tuzilish (struktura) – bu tarkibiy qism (element)larning tizimdagi joylashuvidir. Tizimlarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo'yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o'zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi barcha ko'rinishdagi maktabgacha tarbiya, o'rta umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o'zaro uzviylikdagi tizimi pedagogik tizim deyiladi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari.

Ta'lim jarayoni tuzilishining andozasi (modeli).

Ushbu tizim sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshiruvchi jarayon pedagogik jarayon deyiladi.

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga, o'zaro ta'sir kuchiga bog'liq.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi: tarbiya ob'yekti bir vaqtning o'zida tarbiya sub'yekti ham hisoblanadi. O'zaro faollikka asoslangan pedagog va tarbiyalanuvchi

o‘rtasidagi hamkorlik pedagogik o‘zaro ta’sir tushunchasini to‘laroq aks ettiradi.

Sub’yekt bilan ob’yekt o‘rtasida turli-tuman aloqalar mavjud:

1. Axborot xarakterida (o‘zaro axborotlar almashinib turish).
2. Tashkiliy faoliyat aloqalari (o‘zaro birgalikdagi faoliyat).
3. Kommunikativ aloqalar (muomala, munosabat).
4. Boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv aloqalari.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng ma’noda mazmun, shakl va usullarni o‘z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo‘yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Being due to the formation of the human bio social creatures, as well as the development of biological and social development, and a person at a certain stage of perfection. Man found a number of social, scientific-based forms of independent thought. Social Development – external and internal factors and qarilmaydigan a positive impact, and that the process of formation of the person. Human and social development of targeted education and training leading position. Educa-	Shaxs shakllanishi – inson bioijtimoiy mavjudot bo‘lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma’lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Kishida bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi. Ijtimoiy taraqqiyot tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta’sir etish, ya’ni shaxsning shakllanish jarayoni. Insonning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya yetakchi o‘rinni egallaydi. Pedagogik faoliyat jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umum-

tional activities – in order to meet the training needs of the society is based on the scientific development of human attributes and qualities of the implementation of the program, according to the plan, the generations to prepare a social activity. Educational process – teachers or tutors, students or schools between information and knowledge, training, decent, well functioning relations system. Pedagogical principles (principles) through the relationship between the teacher and the students of knowledge, size and content, as well as school supplies, and spiritual aspects of pupils necessary to follow the laws of origin correlates. Teaching experience – education and training on the principles of pedagogy and education to the specific methods and the methods adopted and put into practice in real conditions and taking into account the uniqueness of each child to implement in practice	insoniy sifatlar va fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi. Pedagogik jarayon – o'qituvchi yoki tarbiyachi, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish-o'rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi. Pedagogik tamoyil (prinsiplar) – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o'quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish. Pedagogik tajriba – ta'lim-tarbiya beruvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to'liq o'zlashtirib hamda ularni amalda qo'llashdagi real shart-sharoitlarni, bolalar jamoasi va har bir bolaning o'ziga xosligini hisobga olgan holda amaliyotda tatbiq etish[20].

Ta'lim-tarbiya tizimida barcha maqsad va vazifalarni, shuningdek, uning tarkibiy qismlarini kompleks hal etishga yo'naltirilgan jarayon yaxlit pedagogik jarayon sifatida qabul qilingan.

Yaxlit pedagogik jarayonning tashqi qonuniyatlari:

[20] Educational Psychology: A Tool for Effective Teaching. Chapter One.

1. Pedagogik jarayonning maqsadi nafaqat ta'lim va tarbiya vazifalarini qamrab oladi, balki pedagogni ham, o'quvchi shaxsini ham har tomonlama barkamol qilib rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

2. Yaxlit pedagogik jarayon, uning maqsad-vazifalari, mazmuni, shakl va metodlari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi va u jamiyatning mafkurasi va siyosatiga bog'liq.

3. Pedagogik jarayonning maqsad va vazifalari nafaqat shaxs ehtiyojiga, balki uning imkoniyatlariga ham bog'liq bo'lib, bu uning tashqi belgilaridir.

Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlari:

1. Ta'lim-tarbiya va rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

2. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash o'rtasidagi bog'liqlik.

3. Shaxs faoliyati bilan uning munosabati o'rtasidagi bog'liqlik.

4. Shaxs va jamoa o'rtasidagi bog'liqlik.

5. Shaxsning imkoniyatlari bilan pedagogik ta'sir o'rtasidagi bog'liqlik.

6. Vazifa, mazmun, shakl va metodlar o'rtasidagi bog'liqlik.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonining tuzilishi. O'quvchilar o'quv idrok etish faoliyatlarini boshqarishga o'rganib olish uchun bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tuzilishini yaxshi tasavvur etish, o'quvchilar tomonidan bilimlarning egallash bosqichlarini bilishi zarur: idrok etish, o'quv materialini anglab yetish, mustahkamlash, amaliy faoliyatida bilimlarini qo'llash.

Birinchi bosqich idrok etish hisoblanadi. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni bo'lib, u tanlash xususiyatiga ega. Shuning uchun birinchi navbatda o'quvchilarga mavzuni, ya'ni, ularning nimani o'rganishlari (masalani qo'yish)ni tushuntirib berish kerak. Shu asosida o'quv materiali bilan dastlabki tanishish amalga oshiriladi. U haqiqiy mavjud yoki hayoliy predmet, hodisa, vaziyatlarni kuzatish, mumkin bo'lgan tajribalarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich o'quvchi qaysi hodisa va

voqealarni, predmetlarni o'rganish haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lganida va o'quv masalasini tushunib yetganda yakunlanadi.

Ikkinchi bosqich – o'quv materialini anglab yetish. U ma'lumotlarning nazariy jihatlarini ajratib olish va analiz qilishdan iborat. Bunda asosiy mazmunni topish, tushunchani ajratib olish, ularning belgilarini asoslab berish, tushuntirish materialining xususiyatini aniqlab olish, misollar va tushuntiruvchi dalillar to'plamini o'rganib chiqish kerak. Bu vaziyatda bilimlar o'rtasidagi tizimlilik muhim ahamiyatga ega. Unda o'quvchi eng asosiy ikkinchi darajali hamda qo'shimcha, tushuntiruvchi elementlarni ajratib ko'rsatsin. O'quvchi o'quv masalasini yechish usulini tushunsa, bilimlar o'rtasidagi tizimni tushunib yetsa ushbu bosqich yakunlangan sanaladi.

Uchinchi bosqich – eslab qolish va mustahkamlash. Bu bosqich o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq vaqt davomida saqlab qolishdan iborat. Unda idrok etish faoliyati ko'proq mashqlar, mustaqil, reproduktiv va ijodiy masalalar xususiyatiga ega bo'ladi. Nazariy material, tushuncha, qoida, isbotlar turli xil mashqlarda takrorlanadi. O'qituvchi o'quvchilar to'shiriqlarni tushunib bajarishlarini kuzatib borishi kerak. Ular matnlarni mexanik ko'chirib olishlari, topshiriqlarni bajarishlari, qoida va tushunchalarni chuqur anglab yetmay bajarishlari mumkin. Bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materiallarni biladilar va ulardan mashqlarni bajarish, masalani yechish, teoremani isbotlashda foydalanishni biladilar. Ularda o'quv malakalari va ko'nikmalari shakllantirilgan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich bilim ko'nikma va malakalarni amaliy faolivatda faollashishdan iborat bo'ladi. Bilimlarini qo'llash o'rganilayotgan materialning mazmuniy xususiyatiga qarab, faoliyat turli shakllari va ko'rinishlarida amalga oshirilishi mumkin. Bu o'quv mashqlari, laboratoriya ishlari, tadqiqot topshiriqlari, maktab yer maydonidagi ishlar bo'lishi mumkin. Bilimlarni egallab olish bosqichlari sxematik ko'rinishi quyidagichadir:

Bilimlarni egallash bosqichlari



Sub'yekt bilan ob'yekt o'rtasida turli-tuman aloqalar mavjud: O'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari)da, tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

1) rejalashtirish;
2) tashkil etish;
3) boshqarish (rag'batlantirish);
4) nazorat;
5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning tayyorliklari

darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati. Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni, ta'limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operatsiyalari) sanalib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan "mnemonikon" – eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda o'quvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab yetish talab etadi. Pedagogik jarayonda o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini yetarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavflidir.

O‘quvchilarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘zlashtirish shartlari bilan tanishtirib, ularga o‘zini-o‘zi nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zini-o‘zi nazorat qilishda o‘quvchilar ular qo‘llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o‘z mehnati natijalarini baholashi kerak.

Natijalarni baholash. nazorat qilish va tahlil etish o‘quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi tomonidan o‘zini nazorat qilish, o‘zini baholash va o‘zini tahlil qilishni amalga oshirish o‘qituvchining shunga o‘xshash o‘rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o‘quvchilarni o‘z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o‘zaro nazoratni tashkil etish, o‘rnatilgan mezonlar asosida o‘z faoliyati natijalarini o‘zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

Lotincha “Intensio” tushunchasi – kuchaytirish, tezlatish degan ma’noni anglatadi.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish – vaqtning har bir bo‘lagi uchun ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish demakdir.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish shartlari:

1. Pedagogik jarayoning maqsadga yo‘naltirilganligini kuchaytirish, o‘quv-tarbiya tadbirlarida ilgari surilayotgan vazifalarning jiddiyligini oshirish bilan birga ularning shu sinfga, o‘quvchilarga, jamoaga qulayligini ham hisobga olish kerak.

2. O‘quvchilarning o‘qish, ijtimoiy, mehnat va boshqa faoliyati asoslarini chuqurlashtirish.

3. Eng zarur axborotlarni saqlagan holda mazkur sinf o‘quvchisiga yetkaziladigan axborot hajmini oshirish.

4. O‘quv, ijtimoiy mehnat va boshqa faoliyatlar tezligini oshirish.

5. O‘quvchilarning mustaqil bilish va ijtimoiy foydali faoliyatlarini faollashtiruvchi kompleks shakl va metodlarni joriy etish.

6. Axborot va ta'lim texnologiyalarini keng qo'llash.

7. O'quvchilarning mustaqil bilishini yo'lga qo'yish orqali o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'ziga ta'sir ko'rsatish, majburiyat olish, baho bera olish, o'z-o'ziga hisob berishdan iborat usullardan unumli foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga kuchli yordam beradi.

Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish (lotincha optimus – eng ma'qul) – eng qulay, eng ma'qul degan ma'noni bildirib, keng ma'noda olib qaralganda, ushbu sharoit uchun har qanday vazifalarni hal etishning eng qulay, eng ma'qul, to'g'ri variantlarini tanlash demakdir.

Ma'lum mezonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish ushbu sharoit uchun ta'lim-tarbiyaning eng maqbul vazifa, mazmun, shakl va metodlarini ilmiy asoslangan holda tanlash va amalga oshirish deganidir.

O'ptimallashtirishda boshlang'ich holatdan qaror qabul qilingungacha bo'lgan jarayon quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Qo'yilgan vazifalarni hal etishning bir nechta variantlarini qarab chiqish.

2. Ushbu sharoit uchun tanlab olingan variantning asosliligini, zarurligini anglab etish.

3. Ushbu vazifalarni hal etish uchun tavsiya etilgan usullarning samaradorligini qiyosiy tahlil etish orqali anglash.

4. Taqdim etilgan variantlarni eng maqbul ikkita variantgacha qisqartirish.

5. Ikkalasini vaqt va samara nuqtayi nazaridan taqqoslash.

6. Eng ma'qul variantni optimallashtirish mezoni nuqtayi nazardan tanlash.

Lekin eng maqbul variantni tanlash o'qituvchidan fikrlashning muammoli-tadqiqot usulidan foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonini optimallashtirishda uning mezoni faoliyatni to'g'ri baholashga yordam beradi.

O'quvchi u yoki bu materialni o'zining maksimal darajadagi imkoniyati doirasida o'zlashtiradi (natijaga real

erishish mumkin bo'lgan imkoniyat). Bu esa, o'z o'mida, o'qitishni optimallashtirish uchun o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlarini o'rganishni talab etadi.

Real o'quv imkoniyatlari ichki (sog'liq, bilim darajasi, fikrlash qobiliyati, o'qishga munosabat, mashuliyat hissi) va tashqi (oila, tengdoshlar, jamiyat ta'siri) sharoitlarning o'zaro uzviyligida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi bolaning bugungi real o'quv imkoniyatlarini bilishigina emas, shuningdek, yaqin rivojlanish zonasini, ya'ni yaqin rivojlanish imkoniyatlarini anglab etishi ham zarur bo'ladi.

Shunday qilib, optimallashtirishning birinchi mezoniga ko'ra, o'quvchi shunday o'zlashtirish darajasiga erishishi kerakki, ushbu daraja uning yaqin rivojlanish zonasidagi imkoniyatlariga to'g'ri kelsin.

Optimallashtirishning ikkinchi mezoni shuki, o'quvchi va o'qituvchi dars va uy mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilsinlar.

Tarbiyada birinchi mezon erishilgan natijaning qo'yilgan maqsad va vazifalarga to'g'ri kelishida ifodalanadi.

Ikkinchi mezon tarbiyachining tarbiyalanuvchi uchun ajratilgan me'yorlarga qat'iy amal qilishida ko'rinadi.

O'qituvchi amaliy faoliyatidagi pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlarini optimallashtirish usullari tizimi quyidagicha:

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni uchun eng maqul (ratsional) vazifalar kompleksini tanlaydi.

2. Ushbu sinf xususiyatidan kelib chiqib, vazifalarni aniqlashtiradi.

3. Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur mazmun tanlaydi.

4. Ushbu mazmunni amalga oshirish uchun eng maqbul metod, shakl va vositalar tanlaydi.

5. Tezkor tarzda jarayonga o'zgartirishlar kiritadi va unga ko'ra metod, shakl va vositalarni o'zgartiradi.

6. Qilingan ishlar chuqur va har tomonlama tahlil etiladi (natija va vaqt nuqtayi nazaridan).

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng ma'noda mazmun, shakl va usullarni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar – qo'yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulqatvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda ob'yektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidur"[21]. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning asosiy g'oyasi Respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan

[21] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent. O'qituvchi. 1992.

demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatning barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlari, chunonchi, "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'lmadi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Zero, tarbiya ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi asosida kechadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga

qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Ijtimoiy jarayonda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi ortib boradi. Faoliyat o'quvchilar jamoasi manfaati va istagi asosida uyushtirilsa, bu jarayonda bolaning tengdoshlari va o'zini-o'zi anglash jarayoni yuzaga keladi. Bola o'z xulqi, xatti-harakati uchun jamoa oldida javobgarlikni sezishga erishgach, ijrochi emas, balki umumiy ishning faol qatnashchisi bo'lib qoladi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbayini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat.

Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etishi muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin.

Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi.

Umumiy pedagogika jarayonida tarbiya muhim o'rin tutadi. Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega

bo‘lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o‘ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o‘rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma’lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g‘oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi:



Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat.

Didaktika pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktika pedagogika nazariyasining nisbatan mustaqil qismi bo‘lib, unda o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlari ochib beriladi. Didaktikaning so‘zma-so‘z tarjimasi “ta’lim nazariyasi” ma’nosini anglatadi. Didaktika “yunoncha” so‘zdan olingan bo‘lib, “didacticos” – o‘rgatish, o‘qitish ma’nosini bildiradi.

Didaktika – ta’lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi ta’lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

"Didaktika" atamasi ilk bor nemis pedagogi Volfgang Ratkening "Didaktika yoki ta'lim san'ati" (1613-yil) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan. Didaktika nomi ostida fanning nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida "Buyuk didaktika" asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy "hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati" deb tushuntirdi.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning "Buyuk didaktika" (1657-yil) asarida ochib berilgan.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

Pedagog – olimlar yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? Qayerda o'qitamiz? kabi savollarga javob izladilar. Didaktika "nimaga o'qitish?", "nimani o'qitish?", "qayerda o'qitish?", "qanday o'qitish?" kabi savollarga javob beradi.

Ushbu holatga asosan, 1990-yillarning o'rtalarida ta'lim sohasiga oid nazariyalar va ularning asoschilari, o'sha davr amaliy darslari va o'qitish tarixi, talqin qilish kabilar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Men o'z hamkasblarimga qarata o'zida "qanday o'qitish" kabi savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'llanmalar avval ham, hozir ham ta'lim jarayonida asosiy ustun bo'lib kelgan va talabalar, izlanuvchilarga amaliy maslahat ko'rsata olgan deb ayta olaman.

Didaktikaning ob'yekti – o'sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyatning asosiy turi hisoblangan ta'lim berishdir.

Didaktikaning predmeti sifatida o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchilarning bilish faoliyati), ularning o'zaro harakati aks etadi.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

Bularning barchasi o‘qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o‘quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shaklantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati o‘quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o‘zaro bog‘liqlikda joylashadi. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qtishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: o‘rgatish, o‘rganish, o‘qitish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.

O‘rgatish – o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O‘rganish – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi.

O‘qitish – qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati.

Ta’lim – o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim – ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘ oyalari yig‘ indisi.

Ko‘nikma – egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash.

Malaka – avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish layoqati.

Maqsad – o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi.

Mazmun – o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish – qo‘yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl – o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq.

Metod – o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li.

Vosita – o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob’yekt.

Natija – o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

1. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
2. Zamonaviy ta’lim paradigmalari.
3. O‘qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari.
4. O‘qitish jarayoni bosqichlari.
5. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.
6. Ta’lim tamoyillari va qonuniyatlari.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so‘zining o‘zi keng ma’noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o‘ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni aniqlash va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya.

Ta’limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtayi nazari – har bir alohida inson hayotining o‘ ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e’tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘z-o‘zini realizatsiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e’tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqa-

lar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o'rnatish jarayonida sodir bo'ladi.

Asosida ta'limga yangicha yondashuv yotadigan g'oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo'shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta'limot, shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar, shular jumlasidandir.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta'limiy, tarbiyaviy), ta'limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o'quv-tarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o'zaro ta'sir etish tavsifiga ko'ra paradigmalar farqlanadi.

Ta'limning keng tarqalgan beshta paradigmasi mavjud: an'anaviy (bilimga yo'naltirilgan paradigma); fenomenologik (insonparvarlik paradigmasi); ratsionalistik (bixevioristik, xulq-atvorga doir); texnokratik; ezoterik.

An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma. Bilimga yo'naltirilgan paradigmada ta'limning bosh maqsadi: "Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir". Shuning uchun ta'lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko'proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilma-xil, muhim bilim, ko'nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish va saqlashda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o'tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiyligini ta'minlashga asoslanadi.

Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an'anaviy paradigmaga qarama-qarshi o'laroq, o'zining diqqat markazida mazmunni emas, o'quvchilarning turli turdagi bilimlarni o'zlashtirishining samarali usullarini

qo'yadi. Ratsionalistik ta'lim paradigmasi asosida ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta'lim muassasasining maqsadi – ta'lim oluvchilarda ijtimoiy me'yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli "xulq-atvor majmui"ni shakllantiradi. Shuning uchun "xulq-atvor" atamasi "barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, his-tuyg'usi va harakati"ni bildiradi.

Mazkur paradigma ta'lim muassasasiga ta'lim oluvchilarning maqbul xulq-atvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o'zlashtirish yo'li sifatida qaraydi, ya'ni har qanday ta'lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta'limiy mexanizmi. Bunday o'qitishning asosiy metodlariga o'rgatish, trening, test nazorati, individual o'qitish, korreksiyalash kiradi.

Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasining diqqat markazida o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo'lgan, hayot sub'yekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'limning xilma-xil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya'ni ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Inson-parvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigmasi quyidagi mezonlarga tayanadi:

- ta'limning ijtimoiylashuvi – o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining

pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

- milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqlol g'oyalariga asoslanish;

- shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

- o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

- ta'lim (xususan, kasbiy ta'lim) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

- pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

- mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

- ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimini yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

- ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur "aniq" ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. "Bilim – kuch", shuning uchun inson qadr-qimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilangan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulq-atvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quv-tarbiya jarayonining istalgan natijasi "ha – yo'q", "biladi – bilmaydi", "tarbiyali – tarbiyasiz", "egallagan – egallamagan" tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zma-so'z tarjimasi "sirli", "yashirin" ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas "Haqiqat"ga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarini rivojlantirishdir.

Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'qitish jarayoni mohiyati va uning vazifalari: O'qitish – o'qituvchi va o'quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar yuzaga chiqadi.

O‘qitish (didaktik) jarayonining mohiyatini quyidagi formula yordamida to‘liq anglash mumkin: DJ = M + Ao‘f + Ao‘fb
Bu yerda:

DJ – didaktik jarayon.

M – motivatsiya.

Ao‘f – o‘quvchilarning o‘zlashtirish faoliyati algoritmi.

Ao‘fb – o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish.

O‘qitish jarayoni uchta vazifani bajaradi: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

O‘qitish jarayonining ta’limiy vazifasi o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. O‘qitish natijasi sifatida bilimlarining to‘liqligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta’lim jarayonining metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyaning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

O‘qitishning tarbiyaviy vazifasi ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantirilishida o‘z ifodasini topadi. Ta’limning tarbiyaviy xususiyati, eng avvalo, ta’lim mazmunida aks etadi. O‘qitish jarayonida tarbiyaning ikkinchi omili o‘qituvchi va o‘quvchilarning munosabatlari, sinfdagi psixologik muhit, o‘qish jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari, o‘quvchilarning idrok etish faoliyatlariga o‘qituvchining rahbarligi hisoblanadi.

O‘qitishning rivojlantiruvchi vazifasi o‘quvchi nutqining, fikrlashi, shaxsning sensorli va harakatlanish sohalari, emotsional-irodaviy, intellektual sohalarini rivojlantirishda o‘z aksini topadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchini aqliy rivojlantirish, aqliy faoliyat usullari, analiz qilish, taqqoslash, tasniflash, kuzatish, xulosa chiqarish, ob'yektlarning muhim belgilarini ajrata bilish,

faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni bilishga o'rgatish, uning natijalarini tekshirishni malakasini rivojlantirishga erishiladi.

O'qitish jarayonining bosqichlari: O'qitish o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo'lgan tarkibiy qismlarga (yoki komponentarga) ajratish mumkin. O'quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo'lidan borib, ushbu bosqichlardan o'tishi kerak.

O'qitish jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan iborat:

1) o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;

2) uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo'lishi;

3) bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;

4) hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash (kompetensiyalarni tarkib toptirish).

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O'rganilayotgan materialni idrok qilish. O'quvchilarning o'rganilayotgan (yoki o'rganilishi lozim bo'lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o'qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko'rsatadi.

O'rganilayotgan materialni fahmlab olish. O'rganilayotgan ob'yekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta'minlovchi, asta-sekin chuqurlashib boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O'qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir.

Bilimlarni mustahkamlanishi, ko'nikma va malakalarnining hosil bo'lishi. O'quv materialini idrok etish va faqmlab olish jarayonida o'zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llay olish (kompetentsiyalarni shakllantirish). Bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash jarayoni ta'limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borish.

O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san'at, o'yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o'z-o'zini bilish bilan bog'langan. O'qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o'qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko'nikma malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O'rgatuvchilik faoliyati yoki o'qitish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi va ularni mashg'ulotlar uchun uyushtirishda, ularning diqqati, tafakkuri, xatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ular oldiga ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo'yib borishda, ularni tekshirib borish kabilarda o'z ifodasini topadi.

O'quv faoliyati yoki o'qish bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo'lib, o'quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g'ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag'batlantiradi. O'qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o'quvchilarning esa faol ongli ishtirokisiz, ta'lim jarayonida ijobiy natijalar bo'lishi mumkin emas. Ta'lim jarayonining bu ikki tomoni (o'qitish va o'qish) bir maqsad: ta'limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o'quv materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

Ma'lumki, bilish faoliyatining sub'yekti o'quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta'lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o'rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o'quvchilar va uning ta'lim olishini

tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi o'qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta'limda o'quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o'quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar o'quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya'ni o'quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo'lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O'quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O'quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o'quvchi jalb etilayotgan ta'lim jarayoni turlicha kechishi; sub'yekt (o'quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktuv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari xarakteriga ta'sir etadi.

O'quvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo'li kabi haqiqat o'qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o'rganish ularning tarixiy yo'lini o'zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub'yektining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O'quvchilarning ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o'quvchining o'zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan

o‘quvchining xafa bo‘lib, “men o‘qidim, o‘rgandim! “Adolatdan emas” degan fikrni qat’iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o‘ziga xos uzoq yo‘liga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quv-harakatlari ta’sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha.

Hatto o‘qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma’naviy boyishiga ko‘maklashuvchi umumiy yo‘nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o‘quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta’sir etadi.

Ma’lumki, o‘quv jarayoni modeli o‘zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati hamda o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning jadal o‘zaro faoliyati. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtayi nazaridan qator belgilariga ko‘ra tasnif etish mumkin: yo‘nalganligiga ko‘ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko‘ra (o‘zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo‘nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko‘ra.

O‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o‘quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtayi nazardan qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o‘quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o‘zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo‘tadillashgan bosqichga o‘tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o‘quv jarayonida ijro

etuvchilik faoliyati; o'quvchining sub'yektiv nuqtayi nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylik.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko'rsatkichi sifatida mo'tadillik, ishtiyoq, o'rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo'lishi, nostandart o'quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o'quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

O'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo'lishi – bu rivojlanib boruvchi, o'zgaruvchan jarayon. O'qituvchi yordamida o'quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o'tib boradi. Ko'p jihatdan o'quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko'tarilishi yoki ko'tarilmasdan qolishi o'qituvchiga bog'liq.

Didaktlarning ishlarida shu narsa yaqqol ko'rinadiki, o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat sub'yekt-sub'yekt tavsifiga ega bo'lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim – bu keng tarzda sotsiumning bo'lajak a'zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o'rgatish uchun zarur bo'lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtayi nazaridan zamonaviy ta'lim jarayonini ko'rib chiqish asosida o'quvchilarning rollar orqali namoyon bo'lishi quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

- o'quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- namuna bo'yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so'ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o'z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zining faoliyati egasi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning ob'yekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.
3. Zamonaviy ta'lim paradigmalariga nimalar kiradi?
4. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
5. O'qitish jarayonining bosqichlariga ta'rib bering.
6. O'quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklarini izohlang.
7. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
8. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning ob'yekti va predmetini izohlang.
9. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?
10. Ta'lim tamoyillari deb nimaga aytiladi?
11. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?
12. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.

Nazorat uchun testlar:

1. "Didaktika" atamasi ilk bor kim aytgan?

A)*Volfgang Ratkening;
B) Konfutsiy;
C) Arnold Shvartsneger;
D) Barak Obama.

2. Volfgang Ratkening qachon "Didaktika yoki ta'lim san'ati" deb nomlangan?

A)*1613-yil;
B) 1631-yil;
C) 1713-yil;
D) 1731-yil.

3. Volfgang Ratkening millati nima?

A)*Nemis;
B) Fransuz;
C) Rus;
D) Ingliz.

4. O‘qitish jarayoni nechta asosiy bosqichdan iborat?

A)*4 ta;
B) 3 ta;
C) 2 ta;
D) 1 ta.

5. Nemis pedagogi V.Ratke “Didaktika” atamasini qachon fanga kiritgan?

A)*1571 – 1635-yillar;
B) 1441 – 1556-yillar;
C) 1517 – 1743-yillar;
D) 1234 – 1567-yillar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

2. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2018-yil 8-dekabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga Sharh // http://uzlidep.uz/positionparty/82

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillash-tirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni.

12. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro

tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori

13. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.

14. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.To‘xtaxo‘djayeva va boshqalar. Prof. M.X.To‘xtaxo‘djayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 1996.

15. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. С. 34 – 38.

16. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

17. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынок труда. 2016. № 3. С. 26.

18. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.

4-mavzu. Ta'lim mazmuni.

Reja:

1. Ta'lim metodlari va vositalari. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni.

2. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar.

3. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti va yangi avlod darsliklarini yaratishga qo'yiladigan talablar.

4. Darslikdagi o'quv materiallarini tizimlashtirish tamoyillari. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari.

5. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Interfaol ta'lim metodlari.

Tayanch so'z va iboralar: metod, ta'lim metodi, ta'lim usuli, qoida, intrefaol metod, metodika, texnologiya, didaktik vosita, kompetensiyaviy yondashuv, ta'limning texnik vositalari.

Ta'lim metodlari va vositalari. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Ta'lim metodlari: tushuncha, funksiya, tasnif. "Metod" so'zining yunoncha tarjimasi "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni

anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda "maqsadga erishish usullari" deya sharhlangan.

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini uqtirgan.

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, al-Xoraz-miy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar.

Burxoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql – faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4 – 5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zaxoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish-o'rganish diqqat-e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur.

O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham

talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin.

Xalq xo'jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchilarga mos shaklda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim. Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishdir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muhabbat uyg'otish vazifasi turibdi.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim metodlarining o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to'g'risidagi fikrlar ham mavjud.

"Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi".

Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, "ta'lim metodi" tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar "ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari" degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Ta'lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo'ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko'ra):



Ta'lim metodi tuzilmasi

Chizmadan anglanib turibdiki, ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta'lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mehanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

"Ta'lim metodi" atamasi bilan birga ko'p hollarda "metodik usul" (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy

qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi.

Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:



Metodik usullarning turlari

Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Ta'lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi:

didaktik maqsad asosida;

ta'lim mazmuni asosida;

o'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;

o'qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan ta'lim metodlari majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu

jarayonda ayrim metodlarni qo'llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlaridan foydalanish ko'lami, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo'layotgan yana bir muhim ob'yekt ta'lim metodlarining tasnifidir. "Ta'lim metodlari tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o'nlab ta'lim metodlari ma'lum", – ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlasiy fikrini quyidagicha davom ettiradi, – "Biroq bugungi kunda yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O'qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak".

Ta'lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko'p bo'lsada, bu borada yagona to'xtamga kelinmagan. Ushbu o'rinda ta'lim amaliyotida qo'llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi.

M.A.Danilov va B.P.Esipovlarning qarashlariga ko'ra
1. Bilimlarni egallash metodlari. 2. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari. 3. Bilimlarni qo'llash metodlari. 4. Nazorat (bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va tekshirish) metodlari

Ta'lim metodlarining tasnifi

Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshqarishdan iborat bo'ladi.

Suhbat. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'yektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat.

O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

Darslik (umuman, kitob) bilan ishlash (umumlashma va xulosalarni anglash, ularni xotirada saqlashga xizmat qiladi).

Bilimlarni o'zlashtirish manbayi bo'lib bosma matn xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi.

O'qituvchilarning kuzatuvi (sinfda va sinfdan tashqari (shu jumladan, sayohat va ekskursiyalar) jarayonlarda).

O'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzata borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlarga taqsimlab har bir o'quvchining o'ziga xos, o'xshash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish manbayi bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, ob'yektni belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

Laboratoriya ishlari. Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. O'quvchilar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar.

Bilimlar manbayi kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiy jarayon va bosqichlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

Mashq (aqliy va faoliyatli mashqlar). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xshash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi.

Bilimlar manbayi: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi.

O'qituvchi mashqni bajarish uchun joy hamda vaqtni belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqichlarining borishini nazorat qiladi, boshqaradi, shuningdek, yakuniy natijalarni tekshiradi.

Ijodiy mashq. Ushbu metod o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'ziga xoslik masalaning mohiyatini chuqur anglash, uni bajarishga nisbatan mustaqil yondashish, dalillarni saralash va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ijodiy bajarish jarayonida bilimlarni qo'llash va kengaytirish kabi holatlar bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini

bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarliligi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi, har qanday faoliyat uning ob'yektini talab qiladi.

Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini, yo bo'lmasa, bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat ob'yekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning

hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Metod strukturasiga o'qitish usullari kiradi, lekin metod mazkur usullar majmuidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida operatsiyalari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;
- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
- nazorat va o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish usullari;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi, ammo umumiy o'rta ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga, shu jumladan, o'quvchilarni

mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir. Umuman, o'qitish metodlarining majmui – atrofdagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin.

O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir. O'qitish nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki birbirini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Ta'limning mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimidir. O'quvchi ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, axloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta'lim mazmuniga insoniyat to'plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, hajmi, ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ya'ni uning mazmuniga tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri haqidagi bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi. Ta'limning mazmuni o'zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi.

Bugungi kunda ta'limning mazmuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqadi. Ta'lim mazmuni jamiyat umumiy o'rta ta'lim oldiga qo'yayotgan talab-buyurtma asosida belgilanishi kerak. Ya'ni shakllanayotgan inson nimani bilishi, o'rganishi, qanday insoniy fazilatlarga ega bo'lishi haqidagi savollarga javob berishi kerak.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarda: bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta'lim mazmunini belgilashga, ta'lim olishga yordam beradi. O'quvchi o'zida shakllangan munosabatlarga asoslanib tevarak-atrofdagi narsalarni, voqyealarni baholaydi; oq-qorani ajratadi, ilmiy va g'ayri ilmiy hodisalarning farqiga boradi.

Ta'lim mazmuniga kiritilgan o'quv materiali yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, ta'lim jarayonining imkoniyatlariga mos bo'lishi (ta'limni tashkiliy shakllari, qonuniyatlar, tamoyillari, usullari, o'quvchilarning umumiy

rivojlanishi darajalariga, maktabning o'quv-metodik hamda moddiy holati hisobga olinishi) lozim.

Shuningdek, ta'lim mazmunini belgilashda maktabda o'qitiladigan barcha fanlarning o'ziga xos xususiyatlari va fanlararo aloqa hisobga olinishi shart.

Ta'lim mazmuni ilmiy asoslagan DTS, o'quv rejalari, dasturlari va darsliklarida ifodalanadi. Xususiy metodika nuqtayi nazari bo'yicha "ta'lim" aynan bir o'quv fani asosida o'qitish va o'qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogika fani nuqtayi nazaridan qaralganda esa "ta'lim" o'qituvchi va o'quvchi ta'sirining majmui bo'lib, uning natijasida o'quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruxiyatini rivojlantirish ma'nosini bildiradi.

Bilim-tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qilinadigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishidir. Bilimlar qarash, g'oya, ta'rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, omil va boshqa shakllarda beriladi. Ta'lim jarayoni tarkibiga ko'ra, o'ta murakkab didaktik hodisadir. Agar bu jarayonga o'qituvchi faoliyati nuqtayi nazaridan yondoshsak, "o'qitish jarayoni", o'quvchilar faoliyati nuqtayi nazaridan, esa "o'quv jarayoni" iboralari ishlatiladi.

O'qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o'qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanadi.

Ta'lim ma'lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi: o'rganiladigan narsa – hodisalarni bevosita yoki bilvosita idrok etish; oldin o'rganilgan bilimlarni xotiraga, ya'ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo'llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Hozirgi an'anaviy maktabda asosiy e'tibor bilimlarni o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tajribasining eng zaif tomonidir. Ma'lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish yo'li bilangina har

tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarish mumkin. Ta'limning asosiy mazmunini uning vazifalari oydinlashtirib beradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar, hamda ular bilan bog'lik bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma'nosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi haqidagi xikmatli fikrlar borki, bular bugungi xalq ta'limi taraqiyoti uchun va milliy maktab yaratishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari tuyg'ularini tarbiyalaydi.

Ta'lim mazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir. Hozirgi sharoitda o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta'lim mazmuni (o'quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta'lim mazmunida quyidagi g'oyalar yetakchi o'rin tutadi:

1) insoniylashtirish;
2) insonparvarlashtirish;
3) integratsiyalashtirish;
4) standartlashtirish;
5) ko'p bosqichlilikka asoslanish;
6) amaliylashtirish;
7) axborotlashtirish;
8) individuallashtirish;
9) uzluksizlik.

Maktab ta'limi mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta'lim mazmunining barcha elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo'lishi tamoyili.

2. Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili.

3. Ta'lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili.

5. Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili.

6. Ta'lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili.

7. Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili.

8. Ta'lim mazmunining o'quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili. Umumiy o'rta ta'limning mazmunini shakllantirish ko'rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o'rta maktablar uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;

- ilmiy va amaliy ahamiyati;

- ta'lim mazmunining murakkabligi, o'quvchilar imkoniyatlarining mavjud o'quv dasturlariga mosligi;

- ta'lim hajmining uni o'rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;

- maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmunini qurishda xalqaro tajribalarni hisobga olish. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

1) umumiy nazariy bosqich;

2) o'quv bosqichi;

3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

Umumiy o'rta ta'lim mazmuni davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari, o'quv dasturi va darsliklar mazmunida namoyon bo'ladi.

O‘quv rejasi – davlat hujjatidir. Unga barcha umumta’lim maktablari so‘zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o‘quv rejasi hisoblanib, u xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o‘quv rejasi – shu fanni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O‘quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o‘quv rejasi.

Umumiy o‘rta ta’limi muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib, u namunaviy va amaliy o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standarti tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Maktablarning namunaviy o‘quv rejalari tayanch o‘quv rejasi asosida tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo‘ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o‘quv rejalari ishlab chiqiladi.

O‘quv rejasi – me’yoriy hujjat hisoblanib (ta’lim muassasasi sertifikati) quyidagilarni belgilaydi:

- O‘quv yili, chorak (semestr)lar va ta’tillarning davomiyligi;
- Ushbu ta’lim muassasasida o‘rganiladigan o‘quv fanlari tartibi;
- O‘qish yillari bo‘yicha fanlarni taqsimlash;
- Har bir fan bo‘yicha yaxlit ta’lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o‘rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- Har bir fanni o‘rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- Praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi. O‘quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o‘quv muassasasi xususiyatlarini aks

ettiruvchi, o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha fakultativ va majburiy mashg'ulotlar aks ettiriladi.

O'quv fan dasturi – har bir alohida fan uchun o'quv dasturi tuziladi. Dastur o'quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettiradigan davlat hujjatidir.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv dasturida bir sinfda alohida fanlar bo'yicha o'quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to'ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma'lum mavzular orqali ko'rsatiladi. O'quv dasturida shu fan bo'yicha o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Dasturda o'quv materialining ta'limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo'yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyatliligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;

- O'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;

- Kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;

- Dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;

- Fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;

- O'quv uskunalari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;

- Tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o'quv dasturlari Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomnidan ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta'riflanadi, o'quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o'quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantig'idan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtayi nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo'lishi kerak va ular mavjud bo'lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining Pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti va yangi avlod darsliklarini yaratishga qo'yiladigan talablar. O'quv fani ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manbadir.

O‘quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta’limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda boblarga bo‘linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo‘linib, shu mavzu yuzasidan o‘quvchi qanaqa bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashgirishi lozim bo‘lsa, uning mazmuni qisqacha ifodalanib beriladi. O‘quv dasturining o‘zini amal qilinishi kerak bo‘lgan prinsiplari mavjud:

1. Dasturning aniq bir g‘oyaga asoslanganligi. Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohadagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarda erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirishi lozim.

2. Dastur ilmiylik prinsipiga asoslanadi. Har bir ta’lim va tarbiya g‘oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O‘quv dasturi – aniq mazmun va mantiqiy g‘oyalarni o‘zida aks ettirishi lozim. Dasturda fanning maqsad va vazifalari undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o‘rgatiladi. Aks holda, o‘rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo‘ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi. O‘quvchilar olgan nazariy bilimlarini, amalda qo‘llay olishi ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O‘quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi. Vaqt o‘tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma’lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo‘lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o‘zida qisqacha ifodalaydi.

6. O‘quv dasturi davlat tomonidan tasdiklangan reja asosida bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslik o‘quv jarayonining asosi. Darslik o‘quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi, darslik, ya’ni fan ob’yektiv borliq o‘rtasidagi muhim qonuniyatli bog‘lanishlarini aks ettiradi, darslikdagi bilimlar tizimi o‘zaro ichki, mantiqiy bog‘lanishlarga ega bo‘lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Har bir o‘quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari, g‘oyaviy yo‘nalishlari tizimli va izchil bo‘lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo‘lishi lozim. Keltirilgan fakt va dalillarning ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta’rif etilishi tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Shu holdagina o‘quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta’riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o‘quvchining yoshiga mos, fanning harakteriga monand bo‘lmog‘i zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo‘lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma’lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi.

Pedagogika o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o‘ziga xosliklarini to‘liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Darslikdagi o'quv materiallarini tizimlashtirish tamoyillari. Ta'lim metodiari va usullari tushunchalari. Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o'ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to'liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o'quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o'quvchini o'qitish kerak emas, uni o'zini o'qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki bolaning o'zi izlanmas ekan, ta'limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli harakterga ega bo'lishi, o'quvchilarni o'ylanishga, izlanishga, sinab ko'rishga da'vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.

O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi. Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqtai nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-

tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) motivatsion vazifa – bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;

2) axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

3) nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi;

4) muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

5) rivojlantiruvchi – tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

6) o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim mazmuni o'quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarih

xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, geografiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

Davlat ta'lim standartlari: Ta'limni standartlashtirish-insoniyatning ijtimoiy ongida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo'layotgan voqealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro'y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba'zan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy axvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish extiyoji paydo bo'ldi. Bu holat ta'lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart – ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o'quvchini haddan tashqari zo'riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u o'quvchi yoshiga mos, uni o'zlashtirishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xoxishi, extiyoji hisobga olinishi lozim. Ta'lim standartlarini o'zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o'ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o'tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar

tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko'rsatib berishi tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta'lim standarti hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o'sha ko'rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko'nikma, malaka va ma'naviy sifatlarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo'lmaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, davlat ta'lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda, ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o'quvchiga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standarti: Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1) Turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta'lim standarti:

1) Ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) O'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) Ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish lozim. Bunday standartlar umumiy o'rta maktabda o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Interfaol ta'lim metodlari. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash,

bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Zamonaviy tilda bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi[22].

Masalan, "Aqliy hujum" metodi – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir.

"Aqliy hujum" metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.

Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki

[22] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. 2015, 81 b.

doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. "Aqliy hujum" metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

"Aqliy hujum" metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida "Aqliy hujum" metodining tuzilmasi keltirilgan. Muammoli savol beriladi. Fikr va g'oyalar eshitiladi va jamlab boriladi. Fikr va g'oyalar guruhlanadi. Aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

"Aqliy hujum" metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

"Aqliy hujum" metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

2. "Kichik guruhlarda ishlash" metodining tuzilmasi "Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 3 – 6 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodining afzalligi:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;

- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;

- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi[23].

Kichik guruhlar shakllantiriladi. Mavzu yoritiladi. 1-guruhga topshiriq; 2-guruhga topshiriq; 3-guruhga topshiriq; 4-guruhga topshiriq beriladi. O'qituvchi tomonidan ko'rsatma berish va yo'naltirish; Muhokama va tahlil qilish; 1-guruh taqdimoti, 2-guruh taqdimoti, 3-guruh taqdimoti, 4-guruh taqdimoti o'tkazilib baholanadi.

Bunda:

- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;

- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;

- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;

- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

3. "Davra suhbati" metodi: "Davra suhbati" metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir[24].

---

[23] Ishmuhamedov R.J. 2004.

[24] Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. 2004.

"Davra suhbati" metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi: Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga soladi va belgilar qo'yadi.

Belgilar: 1 – ta'lim oluvchilar, 2 – aylana stol solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

Quyida "Davra suhbati" metodining tuzilmasi keltirilgan. "Davra suhbati" metodining tuzilmasi "Davra suhbati" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda nechta ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan

"Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

Suhbatni o'tkazish shartlari bilan tanishtirish:

Konvertlar va "Javoblar varaqalari"ni tarqatish;

Konvertlarga savollar yozish; Savollarga javob yozish;

Baholash va tahlil qilish. Konvertni yonidagi o'quvchiga uzatishlarga savollar yozish.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'yektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbati" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialning yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbati" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi

Ana shunday interfaol metodlar yordamida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularni yangi bilimlarni samaraliroq o'zlashtirishlariga omil bo'la oladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktika nimani o'rganadi? Mazkur sohaning ob'yekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.
3. Zamonaviy ta'lim paradigmalariga nimalar kiradi?
4. O'qitish j arayonining asosiy vazifalariga izoh bering.
5. O'qitish jarayonining bosqichlariga ta'rib bering.
6. O'quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklarini izohlang.
7. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
8. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?
9. Ta'limning xususiy qonuniyatlariga nimalar kiradi?
10. Ta'lim tamoyillari deb nimaga aytiladi?
11. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?
12. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.

Nazorat uchun testlar:

1. Pedagogika tarixi fanining vazifasi

A) ilg‘or qarashlarning taraqqiyot yo‘lini ochib berish;

B) o‘tmish pedagogik nazariyalari, ta’lim-tarbiyaning eng ilg‘or tajribalari asosida pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni o‘rgatadi;

C) pedagogik faoliyatni chuqurroq o‘rgatadi;

D)*ijtimoiy fan sifatida pedagogik nazariyalarni o‘rgatadi.

2. Yunonistonda bolalarning *“donishmand”*lar bilan suhbatini qanday nomlangan?

A)*Maktab;

B) Dargoh;

C) Ilmxona;

D) Savodxona.

3. *“Maktab”* yunon so‘z bo‘lib, qanday ma’noni anglatadi?

A) “savod o‘rganish”;

B)*“bo‘sh vaqt, mehnatdan dam olish”;

C) “mahorat sirlari”;

D) “yashash uchun kurash”.

4. “Ta’lim, – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishni, o‘rganishi-dir” ushbu sitata qaysi qomusiy olim fikridan keltirilgan?

A) Abu Ali ibn Sino;

B)*Abu Nasr Forobiy;

C) Abu Rayhon Beruniy;

D) Al Xorazmiy.

5. ... jamiyatning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilm-fan va amaliy faoliyat sohasidir.

A) Sotsioligiya;

B) Falsafa;

C)*Pedagogika;

D) Psixologiya.

6. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyaning jahon xalqlari pedagogik-tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o'rganishdan iboratdir.

A)*Pedagogika tarixi fani predmeti;

B) Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D Pedagogika tarixi fanining tadqiqot metodlari.

7. Qadimgi O'rta Osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini, buyuk Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta'lim-tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

A) Pedagogika tarixi fani predmeti;

B)*Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D) Pedagogika tarixi fanining ilmiytadqiqot metodlari.

8. Pedagogik jarayonning vazifasi (funksiyasi) nimalardan iborat?

A)*Bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish;

B) O'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib borish;

C) Bilish kuchlarini rivojlantirib borish;

D) Tevarak-atrofdagi voqealarni tushuntirish.

9. Ekskursiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?

A)*Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish;

B) Kuzatish;

C) Ta’lim-tarbiya berish;

D) Tabiatni ko‘rsatish.

10. Qaysi alloma o‘zining asarlarida aqliy tarbiyaga, jismoniy tarbiyaga estetik tarbiyaga, axloqiy tarbiyaga, mehnat tarbiyasiga e’tibor qaratgan.

A) A.Navoiy;

B) Farobiy;

C) Beruniy;

D)*Ibn Sino.

11. Yangi usul maktablari ochish uchun birinchi bo‘lib “Ustodi avval” alifbosini kim yaratgan.

A) Bexbudiy;

B)*Saidrasul Aziziy;

C) Avloniy;

D) Shakuriy.

12. Didaktika bu – ...?

A) Tarbiyalash;

B) Zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;

C)*Ta’lim va o‘qitish nazariyasi sifatida har qanday fanni o‘qitishga xos umumiy qonuniyatlarni o‘rgatadi;

D) Bolani maktaga tayyorlaydi.

13. Mehnat jarayonini rejalashtirish nimalarni o‘z ichiga oladi?

A)*Mehnat malakasini o‘rgatish, mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish;

B) Maqsad qo‘yish, mehnat faoliyati uchun kerakli ish qurollarini tayyorlab olish;

C) Natijani aniqlab olish, ish joyini yig‘ib qo‘yish;

D) qo‘l mehnati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

5. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met. qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

6. Musurmonov R. Ta'lim faoliyati sharoitida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi nizolarning oldini olish – ta'lim samaralidorligi omili. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.

7. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish. "Xalq ta'limi" jurnali. T.: 2020-yil №5.

8. Khasanova G.K. The success and education system of South Korea and Japan // Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материа. – 2021. – С. 94.

9. Khasanova, G.K. (2021). Main trends in the development of education and professional training in the world.

Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 1), 257 – 262.

10. Хашимова С. Некоторые грамматические и семантические особенности удвоения в японском языке. – Страны. Языки. Культура. – С. 334 – 338.

11. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334 – 338.

12. Насирова, С.А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. Китайская лингвистика и синология (С. 384 – 387).

13. Насирова, С.А. (2021). Военная система древнего китая: обзор терминов. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 1), 139 – 146.

14. Hashimova, S.A., & Nasirova, S.A. (2021). Features of forming of animated nouns with the affixes in modern Chinese language. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1 – 10.

5-mavzu: Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. STEAM ta'lim (STEAM Education).

Reja:

1. Ta'limni tashkil etish shakllari uning yordamchi shakllari tushunchasi hamda ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar.

2. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati va o'quv jarayonida nazorat hamda hisobga olish funksiyalari.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

4. STEAM – Science (fan), Technology (texnologiya), Engeneering (injeneriya), Mathematics (matematika) o'qitish: hayot ta'limi (STEAM Learning: Education for life). Transversal va tajribaga asoslangan ta'lim (Tranversal and experiental knowledge) va shu kabi zamonaviy o'qitish usullari.

Tayanch so'z va iboralar: tashkil etish, shakl, ta'limni tashkil etish shakli, ta'limni tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari, ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari, STEAM, transversal.

Ta'limni tashkil etish shakllari uning yordamchi shakllari tushunchasi hamda ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etish shakli – bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksiya-seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari.

Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi: individual; sinf-dars; ma’ruza-seminar. Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limning individual shakli hisoblanadi. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va sur’atini to‘la individuallashtirish imkoniyatining mavjudligi; 2) aniq bir masalani hal etishda ta’lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.	1) vaqtning tejamli emasligi; 2) o‘qituvchi ta’sirining cheklanganligi (o‘qituvchining vazifasi o‘quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat); 3) boshqa o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi); 4) jamoada ishlash tajribasining shakllanmasligi.

XVI asrdan boshlab individual o‘qitish shaklining ahamiyati pasayib, uning o‘rnini ta’limning individual-guruhli shakli egallashiga imkon berdi.

Ulardan biri bolalarning guruhli (jamoali) ta’limi sanaladi. U G‘arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g‘arbiy qismlari) birodarlik maktablarida ilk bor qo‘llanilgan va u sinf-dars shaklining asosi bo‘lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars, mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarni kiritdi.

Sinf-dars tizimi garchi 350-yil avval asoslangan bo'lsada, bugungi kunda ham keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda.

Afzalliklari	Kamchiliklari
1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim; 2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati; 3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi; 4) ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi; 5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi.	1) tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi; 2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi; 3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi; 4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, aqliy rivojlanishida farqi bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda individuallashtirishga ahamiyat qaratish masalasi, ayniqsa, dolzarb xususiyat kasb etdi. Shunga mos ravishda tanlab o'qitish shakli yuzaga keldi (AQShda Batov, Yevropada Mangeym tizimi).

Yevropa va AQShda, XX asr boshida o'quvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. 1905-yili Dalton shahrida (Massachusets shtati) o'qituvchi Elena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan ta'limning individuallashtirilgan tizimi ular orasida eng radikal hisoblangan. Bu tizim "dalton-reja" nomi bilan pedagogika va maktab tarixiga kirdi. U ba'zan laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi deb ham ataydilar.

60-yillarda Tramk rejasi juda mashhur bo'ldi. Uni Amerikalik professor pedagog Lyuyd Tramk ishlab chiqqan. O'qitishni tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100 – 150 odam) mashg'ulotlarni, 10 – 15 kishilik guruhlarda va o'quvchilarning individual ishlarini birgalikda olib borishni taklif etadi. Turli xildagi texnik vositalardan foydalanib umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40%i ajratiladi. Kichik guruhlarda mashg'ulotlarga (seminarlar) – 20%i kabinet va laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga 40%i ajratiladi.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksiya-seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Leksiya-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

Ta'lim turlari (yunoncha "species" alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);

- avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan av. VII – VI asrlar);

- yunon (Ellin, rim-yunon, rim-eramizdan av. V – I asrlar);

- o'rta asr (dogmatik, sxolastik V – XVI asrlar);

- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli dasturlashtirilgan, komputerlashtirilgan innovatsion);

- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, komputerli o'qitish, masofali, Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).

Ayni vaqtda, respublika hududida faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim ham deb ataladi);

- muammoli o'qitish;

- dasturlashtirilgan ta'lim yoki komputerli o'qitish.

Ayni vaqtda "innovatsion" (yangilik kiritish) ta'limni tashkil etishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mazkur ta'limning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

1) bu oldindan ko'ra bilish, ya'ni, o'quvchini avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki uni uzoq kelajakni mo'ljallashga o'rgatishdan iborat bo'lib, o'quvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda taxmin qilish, ko'zlash, modellashtirish va loyihalashtirishni amalga oshira olishi zarur.

2) o'quvchining hamkorlikda ta'lim olish va muhim qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiydan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish)da faol ishtirok etishini ta'minlash.

Keyingi yillarda masofaviy ta'lim (lotincha distantia – masofa) – masofadan turib o'qitish keng rivojlanmoqda. Masofaviy o'qitish – ta'lim texnologiyasi bo'lib, unga ko'ra o'quvchi qayerda va qanday holatda bo'lishidan qat'iy nazar muayyan ta'lim muassasasi ta'lim dasturini o'rganish imko-

niyatiga ega bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari: darsliklar va boshqa bosma nashrlar, o'rganilayotgan materialni komputer telekommunikatsiyalari orqali uzatish, videotasmalar, munozaralar va seminarlar o'tkazish, regional va milliy televideniye hamda radio orqali o'quv dasturlarini namoyish etish, kabelli televideniye va ovozli pochta, ikki tomonlamali videokonferensiyalar, telefon orqali qayta aloqa bilan bir tomonlama videotranslyatsiya va boshqalarning xizmatiga tayaniladi.

Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etish zamonaviy shakllarining turlari. Turli dars tuzilmalaridan yanada samaraliroq foydalanish yo'llarini izlashda darsda o'quvchilar o'quv faoliyatlarini tashkil etish shakllari alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Pedagogik adabiyotlar va maktab amaliyotida asosan uchta shunday shakllari qabul qilingan – ommaviy, guruhli va individual.

Ta'limning ommaviy shakli sinfdagi jami o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida birgalikda harakatlarini ko'zda tutadi. Guruhli shaklida esa o'quvchilar 3 – 6 kishidan iborat guruhlar yoki juftliklarda ish olib boradilar. Guruhlar uchun topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo'lishi mumkin. Individual shakli har bir o'quvchining alohida mustaqil ishlashini ko'zda tutadi.

O'qish guruhli shaklida o'qituvchi sinf o'quvchilari guruhlari o'quv-o'rganish faoliyatlarini boshqaradi. O'quvchilarni zvenoli, brigadali, birlashtirish-guruhli va differensiyalangan guruhlarga taqsimlash mumkin. O'qish zvenoli shakli o'quvchilar doimiy guruhi o'quv faoliyatini tashkil etishni ko'zda tutadi.

Individual ta'lim o'quvchilarning boshqa o'quvchilar bilan bevosita aloqalarini ko'zda tutmaydi. O'z mohiyatiga ko'ra sinf jamoasi yoki muayyan guruhlar bilan ishlashdan tubdan farq qilmasada, biroq o'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga muvofiq o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni mustaqil bajaradi. Bu maqsad yo'lida maxsus tayyorlangan kartochka-

lardan foydalanish mumkin. Darsda o'qituvchining e'tibori bir necha o'quvchiga qaratilsa, bu vaqtda qolgan o'quvchilar mustaqil ishlasalar ta'limning bunday shakli individual-guruhli shakl deb ataladi.

Ta'lim maqsadlari va foydalanshning qulayligi nuqtayi nazaridan ta'lim shakllari quyidagicha darajalanadi: asosiy, qo'shimcha va yordamchi ta'lim.

Dars – ta'limni tashkil elish asosiy shakli. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Dars ta'limning boshqa shakllaridan farq qiluvchi o'ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o'quvchilarning doimiy guruhi, o'quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o'rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o'z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsning turlari va tuzilishi. Darsning quyidagi turlari mavjud:

- Aralash (kombinatsion dars).
- Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
- O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
- Laboratoriya darslari.
- Amaliy darslar.

Aralash darsning tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish);

v) yangi mavzuni bayon qilish;

g) o'rganilgan materialni mustahkamlash;

d) o‘quvchilarni baholash;

e) uy vazifasini berish.

Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) yangi mavzuni bayon qilish;

v) o‘rganilgan materialni mustahkamlash;

d) uy vazifasini berish.

O‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilgan mavzularga doir savol-javob o‘tkazish;

v) o‘rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish;

g) o‘quvchilarni baholash.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) o‘rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish);

v) nazorat ishini o‘tkazish;

g) uy vazifasi (o‘rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

Laboratoriya darslarining tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

v) laboratoriya ishini o‘tkazish;

g) o‘quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

Amaliy darslarning tuzilishi:

a) tashkiliy qism;

b) nazariy materiallarni mustahkamlash;

v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;

g) o‘quvchilarni baholash;

d) uy vazifasi.

Darsga qo'yiladigan talablar. Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ana shularni hisobga olib darsga umumiy talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarda aniq ifodalanadi.

Didaktik (yoki ta'limiy) talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli xildagi shakli, metodlari va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatlarini turli shakllaridan birga foydalanish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish, o'quvchilarga diqqat e'tiborli munosabatda bo'lib, pedagogik odob talablariga amal qilish, o'quvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv-o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi

o‘zgarishlarni rag‘batlantirish, o‘quvchilarning intellektual, emotsional, ijtimoiy rivojlanishlaridagi “sakrash”larni oldindan ko‘ra bilish, boshlanayotgan o‘zgarishlarni hisobga olish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini operativ qayta qurish kabilar kiradi.

XX asr 70-yillari o‘rtalarida, milliy maktablarda o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratildi.

Nostandart dars an’anaviy tuzilishdagi improvizatsion o‘quv mashg‘ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o‘nlab turlari mavjudligini ko‘rsatdi. Ular orasida “berilish” darsi, amaliy o‘yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, QVZ turidagi o‘yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, komputerli darslar, fantaziyalar, “sudlar”, haqiqatni izlash, “paradokslar”, auksionlar, dialoglar va boshqalar ko‘zga tashlanadi.

Ta’limning yordamchi shakllari: to‘garak, konferensiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg‘ulot, o‘quv ekskursiyalari, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg‘ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o‘qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o‘quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o‘quvchilarning individual layoqati, iste’dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Ta’limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo‘lishi mumkin. O‘quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha

fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob'yekt va marshrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak.

O'quv rejasi turli fakultativ va tanlov bo'yicha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan bog'liqlikda ishlab chiqiladi. Fakultativ va tanlov fanlari ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya – o'quv suhbati)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati va o'quv jarayonida nazorat hamda hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni

amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi.

Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi – sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi? – degan masalada bahslashib kelmoqda.

Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'yektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

1) o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;

2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;

3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish. Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o‘quv materiallarini o‘rganishning keyingi bosqichiga o‘tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o‘qituvchining o‘quv metodlarini va usullarini to‘g‘ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o‘quv materiallarini o‘rganishning maqbul yo‘llarini topish bilan bog‘liqdir.

Agar nazoratning o‘qitish va tarbiyalash vazifalari to‘g‘ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg‘ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug‘iladi. Bu esa o‘z-o‘zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

Pedagogikada o‘quvchilarning ta’lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob’yektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko‘rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. Xolislik (ob’yektivlik) tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko‘rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo‘yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashxis o‘tkazgan o‘qituvchidan qat’iy nazar hamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazaorat.

O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish metodlari qo‘yidagilar: og‘zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Ta’lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta’lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta’lim olganlik

tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi – sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Har bir tarixiy davr turli jihatlari bilan ajralib turadi. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida ilm-fan va texnika sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir va allomalarning ijod mahsuli namunalari, ishlab chiqarishda qo'lga kiritilgan moddiy boyliklar kabi omillar

tasnif uchun mezon sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarini tubdan yaxshilash masalasi qo'yilgan. Jumladan, dasturda: "inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs maanfatlarini ro'yobga chiqarishning shart-sharoitlarini yaratish, tafakkur hamda ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika hamda texnologiyalarining yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir"[25] – deb ta'kidlangan. Innovatsion omil zamonaviy ta'lim tizimining bosh xususiyatlaridan biri sifatida qaralar ekan, pedagogikadagi yangiliklar pedagogik kadrlarning innnovatsion faoliyatiga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallaganligi, kundalik ta'lim tizimida yaratuvchanlik xususiyatlari ta'limdagi sifat va samaradorlik darajasi bilan belgilanadi. Binobarin, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar o'qituvchini yangi pedagogik malakalari manzarasini tasvirlaydi.

2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, Internet va boshqa resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish"[26], "Davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta'lim muassa-salarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish,

[25] O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 76 b.

[26] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 76 b

xorijiy tillarni chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi"[27].

Tadqiqot ishimiz mobaynida umumta'lim maktablarida ingliz tili o'qituvchila-rining ish usuli va metodlari o'rganildi. Buning natijasida ingliz tili fani o'qituvchilari o'quv jarayonida o'quvchilar bilimini baholash va nazorat qilishda quyidagi kamchiliklar mavjud-ligini, jumladan, tilga oid bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish natijasida o'quv jarayonida o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar hamda nazorat qilish va baholashning sustligi; pedagogik faoliyat jarayonida o'quvchilar bilimini nazorat qilishning nazariy asoslanmaganligini ko'rsatdi.

O'quv shartlarining eng muhimi vazifalaridan biri ta'lim sohasida bo'ladigan islohotlar asosida bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat ko'rsata oladigan, xususan jahon andozalariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Mutaxassis tayyorlashda eng muhim bo'lgan jarayonlardan biri o'quvchilarni bilimini aniqlash va baholashdir.

Shu bois, pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning 3 vazifasi borligini alohida uqtiradi.

1. O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta'lim standartlarining qanday bajarilayotganligi to'g'risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi.

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi va talabalarda bilimlar yanada kengayadi.

3. Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. www.ziyouz.com kutubxonasi jahonning ilg'or tajribalari va ko'plab pedagoglar mehnatining natijasi o'laroq, reyting uslubi bugungi kunning eng maqbul nazorat mezoni deb qabul qilindi.

---

[27] O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 34 b.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlari. Reyting deganda – baholash, tartibga keltirish, Proceedings of International klassifikatsiyalash, birorta hodisani oldindan belgilangan ko‘rsatkich bo‘yicha baholash tushuniladi. Reyting nazoratida test usuli ham samarali qo‘llaniladi. Test deganda aniq vazifaning takomillashganlik darajasini aniqlash hamda sifat va miqdoriy o‘lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biror shaklini paydo qiluvchi va biror aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.

Testning afzalligini quyidagicha belgilash mumkin:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- nazorat va amaliy bilimlar darajasini ob’yektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- ko‘p sonli o‘quvchilar bilan bir vaqtning o‘zida nazorat olib borish mumkin;
- bilim natijalari o‘qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi va h.k.

Reyting nazorat tizimining asosi sifatida o‘quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo‘yicha o‘quvchi o‘zlashtirishining sifat ko‘rsatkichlari baholar bilan ifodalanadi.

Har bir chorakdagi fanlardan to‘plangan baholar yig‘indisi tarzida o‘quvchining o‘zlashtirishini baholash jarayoni chorak davomida muntazam olib boriladi va quyidagi nazorat turlari shaklida tashkil etiladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Joriy nazorat – bu o‘rganiladigan mavzularning o‘quvchi va talabalar tomonidan qanday o‘zlashtirayotganini dars jarayonida muntazam ravishda nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilib, o‘quvchining bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bo‘yicha aniqlab borishni ko‘zda tutadi.

Oraliq nazorat – bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzulami o'z ichiga oladi va shu qism bo'yicha o'quvchining bilimini www.ziyouz.com kutubxonasi aniqlashga xizmat qiladi. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va o'quvchilarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat – bu nazorat o'quv rejadagi fan uchun ajratilgan soatlar tugagach, butun o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi bu dastur mavzusi to'liq aks ettirilgan test sinovi yoki nazorat ishi shaklida o'tkaziladi, yuqorida qayd etilgan nazorat turlariga asoslangan reyting tizimini ishlab chiqish uchun bir nechta talablarga rioya qilish lozim.

O'quvchining fan bo'yicha fan dasturidagi rayting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plangan ballari bo'yicha aniqlanadi. Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksaldi. Shu bilan birga, O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun bugungi kunda kelajak ruhiga mos bo'lgan Zamonaviy kadrlarga ham ehtiyoj sezila boshladi. Mustaqil davlat o'zining muhim tarixiy hujjatlariga ham ega bo'ldi va ular orasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" alohida o'rin tutadi.

Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilandiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim-tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi. Demak, yangi asr information texnologiyalar asri bo'lishi bilan bir qatorda ularning o'quv jarayonlariga keng ko'lamda aralashuvini ham ta'minlaydi. Shu jumladan AQSh va Angliyada keng tarqalgan, uning mohiyati o'quvchiga uzluksiz bilim olish va olgan bilimi natijasini muttasil tekshirib turish imkoniyatini beradi, o'quvchilar bilimini nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga o'tishdan maqsadi:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asoslangan davlat siyosatini izchillik bilan amalga oshiradi.

2. O'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlashda haqqoniy, aniq va adolatli baholash.

3. Reyting tizimida har xil nazorat turlaridan keng foydalanish.

4. O'quvchi to'plagan ballari orqali ma'lum bir fan bo'yicha imtihon sinovda oladigan bahosini oldindan bilib olish va to'plagan bali o'zini qoniqtirmasa ko'rsatkichni yaxshilash uchun oldindan harakat qilishga undash.

5. O'quvchilarning o'quv yili davomida o'qitilayotgan fanlar bo'yicha nazoratlarning qachon, qanday turi o'tkazilishini bilishi va unga tayyorgarlik ko'rib borishini psixologik jihatdan yo'naltirib borish.

6. O'quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshirish va xokazolardan iboratdir.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'yektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim, Didaktik nazorat ta'limning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim. Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi.

O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega. Birinchi navbatda,

baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi.

Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – shaxsning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi. Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olishning vazifalari. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega.

O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab berishi lozim. Nazorat tushunchasi ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, o'lchash va baholashni anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ham ataladi. Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida teskari aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'yektiv axborot olinishi, bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashni ta'minlashdir. Og'zaki frontal tekshirish o'quvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar.

Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo'ladi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o'quvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o'quvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin. Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o'qituvchi bir necha o'quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3 – 4 nafar o'quvchi esa kartochkalar bo'yicha

yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatni guruhdagi hamma o'quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi. Yozma tekshirish – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq, ya'ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi. Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish.

Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Ingliz tili o'qituvchilari o'quv jarayonida bilimni nazorat qilish turlari va baholashga o'rgatishda xorijiy tajribalar amaliy qiymatga ega. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash jarayonida o'qitish, o'rgatish, dars berish metodlaridagi bir-biri bilan bog'lanishlar va ularning qo'yilgan maqsadni amalga oshirish imkoniyatlari ancha yuqori bo'lib, ular o'zida bir nechta faol metodni biriktiradi hamda dars berish jarayonida bosqichma-bosqich maqsadni amalga oshirishda xizmat qiladi.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro tadqiqotlarda

ishtirok etish bo'yicha ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Xalq ta'limi vazirligi va Rossiya ta'lim akademiyasining Ta'limni rivojlantirish strategiyasi instituti bilan hamkorlikda Jahon bankining READ dasturi doirasida "Ta'lim sifatini milliy va hududiy baholashning asosiy xususiyatlari. Rossiya tajribasi" mavzusida onlayn vebinar o'tkazildi. Ta'lim sohasi tubdan yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda, PISA, PIRLS, TIMSS va TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o'ringa ega davlatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada Rossiya Federaesiyasida ham o'ziga xos tajriba shakllangan. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi fan va ta'lim masalalari bo'yicha hukumatlararo komissiyasi bayonnomasida Rossiya Maorif vazirligi, Fan va ta'lim sohasini nazorat qilish federal xizmati hamda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi o'rtasida o'zaro aloqalarni rivojlantirish belgilangan. Bugungi kunda Rossiyada ta'lim sifatini baholashning yagona tizimi shakllantirildi. Ushbu tizim mamlakatda ta'lim sifati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish, maktablar faoliyatiga turli omillarning ta'sirini tahlil qilish va hisobga olish imkonini beradi. Buning vositasida maktablar o'zini o'zi baholaydi, mavjud muammolarni aniqlaydi, ota-onalar farzandlari bilimi to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ta'lim sifatini baholash sohasida faoliyat yuritayotgan mingga yaqin rahbar va mutaxassis, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari, umumta'lim maktablari rahbarlari hamda o'qituvchilar ishtirok etdi. Shuning uchun ingliz tilini o'rganish ijodkorlik hisoblanib, u o'zining tarkibiy jihatidan ancha murak-

kab va juda sekin amalda paydo bo'ladigan, ijodkorni juda sekinlik bilan ommaga tanishtiradigan jarayon hisoblanadi. Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida qator adabiyotlar va ilmiy manbalar tahlil etildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash to'laqonli o'z yechimini topmaganligini ko'rish mumkin.

Axborot texnologiyalari sharoitida ayniqsa, mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy tajribalar asosida o'quvchilar bilim saviyasi va baholash masalalar sirasiga kirganligini bildiradi. O'quvchilar bilim darajasini nazorat qilish va baholashda xorijiy tajribadan foydalanib, ingliz tilini o'qitishda yuqori natijaga erishish mumkin.

STEAM – Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (injeneriya), Mathematics (matematika) o'qitish: hayot ta'limi (STEAM Learning: Education for life). Transversal va tajribaga asoslangan ta'lim (Transversal and experiental knowledge) va shu kabi zamonaviy o'qitish usullari. STEAM bu – S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo'ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika. Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?

Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shun-

daki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar".

STEAM ta'limi nafaqat o'qitish usuli, balki fikrlash tarzidir.

STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu yerda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish yetarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lim va ta'limga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda.

Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini.

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.

Dunyo o'zgarib bormoqda, hatto ta'lim bir joyda turmasa ham.

So‘nggi o‘n yilliklardagi o‘zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko‘plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo‘ladi, shuning uchun zamonaviy o‘qituvchilar o‘qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo‘qmi? – deb o‘ylashlari kerak.

O‘zingizning g‘oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g‘oyani haqiqatga aylantiradi. Agar biz an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilimlarni o‘rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko‘nikmalar bilan birlashtirishga o‘rgatadi. Bu maktab o‘quvchilariga nafaqat ba’zi bir g‘oyalarga ega bo‘lish, balki ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Haqiqatda ishla-tilishi mumkin bo‘lgan bilimgina haqiqatan ham qadrlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusets Texnologiya Instituti (MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori “Mens et Manus” (Aql va qo‘l). Massachusets Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o‘rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba’zi ta’lim muassasalarida STEAM o‘quv markazlarini yaratdi.

Statistikaga ko‘ra, 2011-yildan buyon STEAM-kasblarga bo‘lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo‘lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo‘ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talabni ko‘rsatadi, lekin bunday yuqori talab nima bilan bog‘liq? Ko‘pgina mamlakatlarda STEAM-ta’lim ba’zi sabablarga ko‘ra ustuvor ahamiyatga ega.

Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O‘zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo‘ladi.

Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog‘liq

bo'lgan kasblarga ega bo'lamiz, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo'ladi.

Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta'lim va tajribaga muhtoj bo'ladi.

Integratsiyalashgan ta'lim. Xo'sh, bu ta'lim tizimi va fanlarni o'qitishning an'anaviy usuli o'rtasidagi farq nima? STEAM-ta'lim o'quvchilar ilmiy usullarni amalda qanday qo'llashni tushunishga kirishadigan aralash muhitni nazarda tutadi. Ushbu dastur bo'yicha talabalar, matematika va fizika bilan bir qatorda, o'z robotlarini ishlab chiqadigan va ishlab chiqaradigan robotlarni o'rganadilar. Darslarda maxsus texnologik uskunalar ishlatiladi.

STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida to'rtta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

Prezident maktablarida "STEAM" ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, 9 – 11-sinflarda o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri – tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, o'quvchilarning innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intellektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat. STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv

dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berishdir. O'quvchilarga mazkur fanlarni o'qitishda malakali mahalliy o'qituvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o'qituvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo'nalishda ko'p yillik tajribaga ega "Teachaway" (Kanada) va "TIC Recruitment" (Buyuk Britaniya) rekruting kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda. 9 – 11-sinf o'quvchilarining qiziqishlari va xususiyatlariga qarab, Prezident maktabida ta'lim o'quv jarayonini individualizatsiya qilingan holda olib boriladi. Prezident maktablari bitiruvchilari belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan shahodatnoma, attestat bilan bir qatorda, xalqaro nufuzli oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishadi. STEAM ta'lim texnologiyasi asosida o'rganiladigan barcha narsalar zamonaviy hayotimizda o'z aksini topgan. Bu odatdagi ta'limdan farqli o'laroq bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda beradi. Bola o'zida nostandart muammolarni yechish, imkoniyatlar yaratish va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantiradi va bu kelgusida uning hayotida juda qo'l keladi.

Xulosa qilib aytganda, shuni ta'kidlashni istardikki, an'anaviy o'qitish uslublari bilan taqqoslaganda, o'rta maktabdagi STEAM yondashuvi bolalarni tajribalar o'tkazishga, modellar tuzishga, mustaqil ravishda musiqa va filmlar yaratishga, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirishga va yakuniy mahsulotni yaratishga undaydi. Ushbu ta'lim yondashuvi bolalarga nazariya va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va OTMga kirish va keyingi o'qishni osonlashtiradi.

STEM shaxs rivojining ijodiy aspekti. Art (san'at) – STEAM konsepsiyasi: Music (musiqa) – STEMM, Reading (o'qish san'ati) – STREAM. STEAM ta'lim dasturlari.

STEM va STEAM o'rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati bilan bog'liq

muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan fan va unga tegishli fanlarga zamonaviy yondashuvni anglatadi. STEAM, STEM dasturidagi fanlar bilan birgalikda ijodiy fikrlash va san'atni ham hayotiy vaziyatlarga bog'lab o'qitadi.

STEAM "A" – bu gumanitar fanlar, tilshunoslik, ijtimoiy tadqiqotlar, jismoniy san'at, tasviriy san'at va musiqa uchun atama. STEAM o'qitish – bu STEM loyihalarida ijodiy fikrlashni qo'llash, san'at orqali o'quvchilarning tasavvur va ijodini uyg'otishdir. San'at ob'yektlarini o'rganish hamkorlik, muloqot, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, u o'quvchining moslashuvchanligi, mahsuldorligi, mas'uliyati va yangiliklarini oshiradi. Bu ko'nikmalarning barchasi har qanday o'qish sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarurdir.

STEM + Artni joriy etish natijasida o'qitishning yangi usullari paydo bo'ldi. O'qituvchilar loyihalarga grafiklar, chizmalarni qo'llay olishlari kuzatildi. O'quvchilar STEM loyihasi haqida muloqot qilish uchun sahna san'atidan ham foydalanishlari, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatishlari ham mumkin bo'ldi.

An'anaga ko'ra, san'at va fan ikki xil o'qish sohasi sifatida qaraladi, lekin STEAM ta'limi bu ikki sohani birlashtirib, texnologiya, robototexnika, sanoat dizayni, muhandislik va boshqalarga fanlararo yondashuvni yaratdi.

STEM qisqartmasi ta'lim, sanoat va mehnat bozoridagi 4 ta eng istiqbolli yo'nalish – fan, texnologiya, muhandislik va matematika haqida gapirishni osonlashtirish uchun yaratilgan. Kompyuter tizimlarini tahlil qilish, dasturiy ta'minot muhandisligi, tibbiyot va biomedikal muhandislik kabi kasblarda ko'proq ish o'rinlari o'sishi kutilmoqda, shuning uchun kelajakda STEM darajasiga ega bo'lgan bitiruvchilarga talab katta bo'ladi. Ammo, taniqli STEM kurslaridan tashqari, xorijiy universitetlarda STEMM, STREAM va STEAM dasturlari mavjud.

STEMM, STREAM va STEAM bir xil fan, texnologiya, muhandislik va matematika + san'at olamiga tegishli qo'shimcha komponent:

STEMM – bu 4 ta asosiy fan va musiqa.

STREAM bu 4 ta asosiy fan va qo'shimcha adabiyotlarni o'z ichiga oladi (reading).

STEAM – san'at (Art).

Bu turdagi dasturlarning barchasi (tabiiy, muhandislik, aniq fanlarni o'rganish bilan bir qatorda) ijodiy idrokni rivojlantirishga, modellashtirish va badiiy-texnik dizayn asoslarini o'rgatishga qaratilgan.

STEM va STEAM / STEAM / STEMM o'rtasidagi asosiy farq shundaki, STEM ilmiy tushunchalarga e'tibor qaratadi, boshqa tadqiqot dasturlari ham xuddi shu tushunchalarni o'rganadi, lekin ijodiy yondashgan holda tadqiq etadi.

STEAM texnologiyalarning ahamiyati. Geymifikatsiya: o'yin orqali o'rgatish (Gamification: learning through play).

STEM ta'lim – ilmiy usullardan, texnik dasturlardan, matematik modellashtirish, muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu o'quvchining innovatsion fikrlash, XXI asrning qobiliyatlari, ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi.

STEM – ta'limning afzalliklari

- fanlar bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integral mashg'ulotlar
- ilmiy va texnik bilimlarni real hayotda qo'llash.
- tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni hal qilish.
- o'ziga ishonchni shakllantirish.
- muloqot jarayonida faollashish va jamoada ishlash.
- texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish.
- loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv.
- har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik motivatsiyasini rivojlantirish.

- kasbga erta yo'naltirish.
- bolalarni hayotdagi texnologik yangiliklarga tayyorlash.

STEAM yondashuvining asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot ham nazariy bilim kabi muhimdir. Ya'ni, o'rganayotganda biz nafaqat miyalarimiz bilan, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak, faqat sinf xonasidagi ta'lim tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam bo'lmaydi. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bu yerda bolalar ko'plab fanlarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun miyalaridan va qo'llaridan foydalanishadi. Bilimlarni ular mustaqil "kashf etadilar".

Gamifikatsiya – bu foydalanuvchilarni rag'batlantirish va jalb qilish uchun o'yin tajribasiga o'xshash tajriba yaratish maqsadida tizimlar, xizmatlar, tashkilotlar va faoliyatni takomillashtirishning strategik urinishidir. Bunga odatda o'yin dizayni bo'lmagan kontekstlarda o'yin dizayni va o'yin tamoyillari (dinamikasi va mexanikasi) elementlarini qo'llash orqali erishiladi. Bu, shuningdek, o'yin elementlarining xususiyatlaridan foydalangan holda yoki ularni qo'llashda muammolarni hal qilish bo'yicha harakatlar va jarayonlar majmui sifatida ham belgilanishi mumkin.

Oddiy qilib aytganda, gamifikatsiyaning ta'rifi – bu o'yin dizaynining elementlari va o'yindan tashqari sharoitlarda o'yin tamoyillaridan foydalanishdir. Oddiy o'yin elementlari yangi bo'lmasa-da, ular haqiqatan ham veb-saytlar, raqamli marketing, korporativ ilovalar, hatto virtual bajariladigan ishlar ro'yxati va unumdorlik vositalari kabi o'yin bo'lmagan kontekstlarda keng tarqalgan. Biroq, gamifikatsiya keng tarqalgan katta sohalardan biri bu ta'limdir.

Ta'limdagi gamifikatsiya nazariyasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'yin – kulgini yaxshi o'tkazadilar. Bu nafaqat – ular maqsadlari, vazifalari va yutuqlari bo'lganida, eng yaxshi narsani o'rganishadi, albatta, bu ma'noda o'quvchi buni hali ham qiziqarli deb biladi.

Bolalarni (va kattalarni) qiziqtiradigan va o'ziga jalb qiladigan video o'yinlarning o'ziga qaramligi tufayli, o'yin elementlari o'quv materiallariga qo'llanilganda, biz o'zaro ta'sir natijalarini ko'rishimiz tabiiy.

O'qishdagi gamifikatsiya faollikni rag'batlantirish, o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish va o'z bilimlarini sinab ko'rish uchun ballar, tengdoshlar bellashuvi, jamoaviy ishlash va baholash jadvallari kabi o'yin elementlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. U maktab fanlarida qo'llanilishi mumkin, lekin o'z-o'zini o'rganish dasturlari va kurslarida ham keng qo'llaniladi, bu shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiyaning ta'siri biz o'sib ulg'ayganimizda tugamaydi.

Texnologiya bizning kundalik hayotimizning ko'p qismini qamrab oladi, yashash tarzimizni, xarid qilishimizni, ishlashimizni, o'ynashimizni, ovqatlanishni, odamlar bilan uchrashishni va muloqot qilishni o'zgartiradi. Siyosatchilar o'qituvchilarning yuklamalarini optimallashtirish uchun texnologiyadan foydalanishning potensial afzalliklarini jiddiy o'rganishni boshlaydilar. Biz, shuningdek, bir qancha vaqtdan beri bilamizki, ko'p bolalarga yoqadigan o'yin – o'yinlardan foydalanish va o'rganishni qo'llab-quvvatlash uchun ma'lum xususiyatlardan foydalanish.

Gamifikatsiya quyidagi sabablarni asoslaydi:

✓ O'yinlar asosiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan (avtonomiya, qadriyat, malaka va boshqalar).

✓ O'yinlar ijtimoiy bo'lishi mumkin (masalan, o'yinlarda peshqadamlar taxtasi yoki eng yuqori ballarni ko'rsatadigan joylar bo'lishi mumkin, shunda o'yinchilar o'zlarini yaxshi his qilishlari mumkin. O'yinchilar do'stlariga qarshi chiqish yoki boshqalarni o'ynashga taklif qilishlari mumkin).

✓ O'yinlar ishtirok etishni rag'batlantiradi (gamification foydalanuvchilarni o'yinni davom ettirishga va ko'proq ball to'plashga, mukofot olishga yoki ko'proq ma'lumot topishga undash orqali ushlab qolishga yordam beradi).

✓ Bu o'yinchilarga (talabalarga) nazoratni beradi (ular o'zlarini A nuqtadan B nuqtagacha bo'lgan o'qish safari uchun mas'ul deb hisoblaydilar).

Zamonaviy iqtidorlik konsepsiyasi.

Iqtidorli bola shaxsining o'ziga xosliklari. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash.

"Noosfera" modeli asosida iqtidorli o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish.

TRIZ va ARIZ. Prezident maktablari. Ijod maktablari.

TRIZ – bu muammoni hal qilishda uyushgan va tizimli yondashuvni yaratishda navbatdagi evolyutsion qadamdir. TRIZga muvofiq mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish muhandislik tizimlarini ishlab chiqishning ob'yektiv qonunlariga asoslanadi.

1946-yildan boshlab va hozirgacha rivojlanayotgan TRIZ rus ixtirochisi Geynrix Altshuller va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan. TRIZ rus tilida = Ixtirochilik muammolarni hal qilish nazariyasi yoki Inglizcha muammolarni yechish nazariyasi. Yillar davomida o'tkazilgan Rossiya patent tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, fundamental muammolarni hal qilish uchun atigi 100 ta ma'lum yechim bor va ular TRIZ yechimlarining uchta ro'yxati va effektlar bazasida hammaga ochiq qilib qo'yilgan.

Aniq fikrlash va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish orqali TRIZ sizga murosaga kelmasdan mukammal yechim topishga yordam beradi. Biroq, bu nazariya emas – bu ko'plab oddiy vositalardan iborat katta asboblar qutisi bo'lib, ularning ko'pini o'rganish oson va muammolarni darhol hal qilish mumkin. Bu ajoyib qobiliyat har qanday muammo yoki qiyinchilikni yengishga yordam beradi, hatto qiyin, hal qilinmaydigan yoki imkonsiz bo'lib tuyulgan vaziyatlarga duch kelganimizda ham.

TRIZ bizga tafsilotlarni joyida saqlashga, katta rasmni ko'rishga va ahamiyatsizlikka chalg'imaslikka, arzimas muammolarni tuzoqqa solishga yoki erta qarorlar vasvasasiga tush-

maslikka yordam beradi. U boshqa asboblar to'plami bilan birga ishlaydi va qo'llab-quvvatlaydi, ayniqsa jamoalarni muammolarni samarali tushunish, g'oyalarni birgalikda ishlab chiqarish va innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun birgalikda ishlashga jalb qilishda samarali bo'ladi.

ARIZ – bu murakkab muammoni bosqichma-bosqich soddalikka aylantiradigan bosqichlar majmuasidan iborat tuzilgan jarayon. ARIZ TRIZning kuchli vositalaridan biri hisoblanadi. ARIZning asosiy maqsadi – dastlabki muammoni bosqichma-bosqich hal qilish oson bo'ladigan bosqichga o'tkazish. Bu muammoning bayonotidan barcha oldindan o'ylangan yechimlarni olib tashlaydigan neytral yechim. Bu sizning muammoingizning tabiati noma'lum degan taxmin bilan boshlanadi. U murakkab muammolarni oddiy formatlarga o'zgartiradigan protseduralarning uzun ro'yxatini taqdim etadi.

Muammoni shakllantirish yoki uni tahlil qilish – bu muammoni hal qilishning birinchi va eng muhim bosqichi. Muammo to'g'ri tushuntirilsa, u o'zining qarama-qarshiliklarini ko'rsatadi va uning yechimiga juda yaqin qoladi. Ammo ko'p hollarda ixtiro muammolari juda oddiy bo'lib, ularni oddiy so'zlar bilan tushuntirib bo'lmaydi. ARIZ eng murakkab muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi. ARIZ – TRIZda kamroq ishlatiladigan vosita. Har qanday muammo birinchi navbatda Prinsiplar, Qarama-qarshiliklar, S-maydonlar va standartlar kabi boshqa vositalar yordamida hal qilinadi. Muammo juda murakkab bo'lsa, ushbu vositalar yordamida hal qilinmaydi.

ARIZning 1956-yilda boshlanganidan buyon o'nga yaqin turli xil versiyalari mavjud. ARIZning oxirgi mashhur versiyasi 1985-yilda ishlab chiqilgan ARIZ-85-C. Bu versiya oldingi versiyalariga nisbatan ancha yaxshilandi. ARIZning ushbu versiyasida murakkab texnik muammolarni tahlil qilish va hal qilish uchun S-maydonlar, operatorlar, resurslar va boshqalar mavjud.

ARIZ tizimi to‘qqiz bosqichdan iborat. Birinchi uchta qadam asl muammoni tahlil qilishga va qayta shakllantirishga harakat qiladi. Keyingi uchta qadam qarama-qarshilikni olib tashlashga harakat qiladi. Oxirgi uchta qadam yechimni tahlil qilishga harakat qiladi. Asosan, bularning barchasi berilgan muammolarni qayta tuzish yoki qayta qurish orqali murakkab muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan. Bu to‘qqiz qismga muammolarni hal qilish uchun 50 ga yaqin bosqichma-bosqich ruhiy protseduralar kiradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. STEAM – Science faniga izoh bering?
2. STEM shaxs rivojining ijodiy aspektining o‘ziga xosligini izohlang.
3. Iqtidorli bola shaxsining o‘ziga xosliklari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. “Noosfera” modeli o‘ziga xosligini izohlang.
5. TRIZ va ARIZ. Prezident maktablarining o‘ziga xosligini izohlang.
6. Ijod maktablarini tushuntirib bering.

Nazorat uchun testlar:

1. O‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo‘li bilan ta’limni tnshkil etish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta’rif qaysi o‘qish turiga tegishli?

A) komputerli ta’lim;
B) tushuntirish-namoyishli ta’lim;
C) masofali ta’lim;
D) muammoli ta’lim;
E) innovatsion ta’lim.

2. Tinglash, o'qish, mexanik yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlash qaysi o'qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan. Bu yerda o'qishning qaysi turi tasvirlangan?

A) tushuntirish;
B) sokratcha;
C) arxaik;
D) komputerli;
E) dogmatik.

3. Bu darsning tuzilishi quy idagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tuslnunishini tekshirish vabilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?

A) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;
B) ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;
C) yangi material bilan tanish ish darsi;
D) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
E) bilimlarni tekshirish darsi.

4. O'qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko'rsatiladi:

A) yordamchi, sinfdan tashqearish;
B) konsultatsiya, instruktaj, konferensiya;
C) frontal, guruhli, individual;
D) diagnostika (tashxis qilish, bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish);
E) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga

quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017. – 102 b.

3. "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

4. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

5. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 8-dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga ShARH // http://uzlidep.uz/positionparty/82

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillash-tirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5545-sonli Farmoni.

16. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori.

17. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.

18. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.To‘xtaxo‘djayeva va boshqalar. Prof.

M.X.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

19. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. С. 34 – 38.

20. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

21. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынка труда. 2016. №3. С. 26.

22. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.

Axborot manbalari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.ped

6-mavzu: Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tashxis etish. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni.

Reja:

1. Zamonaviy iqtidorlilik kontsepsiyasi va iqtidorli bola shaxsining o‘ziga xosliklari.
2. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash. “Noosfera” modeli asosida iqtidorli o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish.
3. TRIZ va ARIZ. Prezident maktablari. Ijod maktablari.
4. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.
5. O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta’lim olganlikni tashxis etish tamoyillari.

Tayanch so‘z va iboralar: zamonaviy iqtidorlilik, “Noosfera” modeli, TRIZ va ARIZ, Prezident maktablari, ijod maktablari, ta’lim olganlikni tashxis etish, hisobga olish funksiyasi.

Zamonaviy iqtidorlilik kontsepsiyasi va iqtidorli bola shaxsining o‘ziga xosliklari. Iqtidorning pedagogik muammosining asosini bolaning bilish faoliyati tashkil etadi. Iqtidorli bolalar dunyoni keng idrok etishi, atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni o‘tkir his qilishlari bilan ajralib turadi, iqtidorli bolalarning miyasi doimiy ishda, ular yaxshi rivojlangan nutqqa ega, ular juda katta lug‘atga ega, ular hal qilishdan mamnun, murakkab muammolar, aralashuvga toqat qilmang va ularga tayyor javobni yuklang.

Ko‘pgina iqtidorli bolalar matematik fikrlash qobiliyatiga ega, ular uzoq vaqt davomida bir muammo yoki vazifaga diqqatini jamlay oladilar, ular qanday o‘rganishni biladilar, ular o‘rganish qobiliyatlari va o‘rganish qobiliyatlariga ega, shuning uchun iqtidorli bolalar o‘quv va kognitiv faoliyatning barcha

bosqichlaridan xabardor. Iqtidorli bolalarda aqliy faoliyatga moyillik kuchayadi, bunday bolalar ko'p o'qiydilar, ular yuqori tashkilotchilik va tashkilotchilik natijasida o'ziga ishonch bilan ajralib turadi. Ular juda sezgir va o'yin faoliyatiga, fantaziyalarga moyil, ular hazilni ham yaxshi tushunishadi, lekin ularda hissiylik yo'q, ko'pincha qo'rquv, o'zlaridan norozilik hissi bor.

Ijodkor bolalar – bu "nostandart" bolalar, ularning o'z fikrlari, o'z pozitsiyalari bor, ular umumiy qabul qilinganidan farq qiladi. Ular ba'zan tengdoshlari yoki ota-onalari uchun tushunarsiz bo'lgan narsalarga berilib ketishadi. Iqtidorli bolalarning xarakterli xususiyatlari, asosiy farqlari – bu ajoyib xotira, g'ayrioddiy diqqat, qiziquvchanlik, yangi narsalarni tushunish istagi va fikrlashning yuqori tezligi. J.Piagetning fikricha, "O'pkaning nafas olishi kabi miyaning ham o'rganishi tabiiydir". Olimlarning aytishicha, iqtidorli bolalarda miyaning biokimyoviy va elektr faolligi ancha yuqori bo'ladi. Kichik yoshda bo'lgan iqtidorli bolalar mavhum fikrlash qobiliyati, shuningdek, sabab-oqibat munosabatlarini kuzatish va ma'lumotlarni tasniflash qobiliyati bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, iqtidorli bolalar ba'zan tengdoshlari tomonidan qandaydir ijtimoiy rad etishdan aziyat chekishadi va bu ularda o'zlariga nisbatan salbiy tasavvurni rivojlantiradi. Har bir "xunuk o'rdak"ning go'zal oqqushga aylanishiga imkon berish, "qush hovlisi" aholisining uni cho'kishiga yo'l qo'ymaslik – bu o'qituvchining vazifasi.

Birinchidan, iqtidorli insonlar atrofdagi dunyoni o'rganishga katta qiziqish bilan ajralib turadi va hech qanday cheklov va taqiqlarga toqat qilmaydi. Olimlarning ta'kidlashicha, iqtidorli, iste'dodli odamlar miyaning biokimyoviy va elektr faolligini sezilarli darajada oshirgan. Ular juda ko'p ma'lumotni "hazm qilish" orqali o'zlarini rag'batlantiradilar va doimo bu bilan band.

Ikkinchidan, iqtidorli kishilar bolalikdan boshlab sabab-oqibat munosabatlarini kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish

qobiliyati bilan ajralib turadi. Ularning eng qiziqarli mashg'uloti mantiqiy modellarni qurish, hamma narsani tizimga keltirishdir.

Uchinchidan, bunday odamlar ajoyib xotiraga ega, bu ularga ma'lumot va tajribani tasniflash, olingan bilim va ko'nikmalarni mohirona boshqarish, deyarli hamma joyda tizimli yondashuvni qo'llash imkonini beradi.

Nihoyat, iqtidorli odamlar eng murakkab vazifalarni o'z zimmalariga olishdan mamnun bo'lib, ularga e'tiborni qaratadilar va natijada, qoida tariqasida, ular favqulodda, noan'anaviy yechimlarni taklif qiladilar. Psixosotsial rivojlanish sohasida iqtidorli va iqtidorli odamlar juda rivojlangan adolat tuyg'usi bilan ajralib turadi, bu o'zlari va boshqalar uchun juda yuqori standartlarni o'rnatishga ta'sir qiladi. Ularning yorqin tasavvurlari har doim o'yin vaziyatlarini yaratadi, ular zukkolik, ijodkorlikka intiladi. Odatdagi muhitdan bunday sezilarli farqlar bilan ular ko'pincha o'zlarini yaxshi rivojlangan hazil tuyg'usi, so'z o'yinlari, nomuvofiqliklar, ko'pchilik sezmaydigan kulgili hayotiy mojarolar orqali himoya qilishga harakat qilishadi. Bu iste'dodli odamlarning nozik ruhiyatini himoya qilishning bir turi.

"Ular hal qilmoqchi bo'lgan muammolar ko'pincha ishdagi hamkasblar uchun "juda qiyin" bo'lgani uchun va iqtidorli odamlar buni o'zlari tushunmaydilar, ular "halo effekti"ga ega – tashkilotning boshqa a'zolaridan shunga o'xshash harakatlarni bo'rttirib kutishadi. Ko'pincha nizolar shu asosda yuzaga keladi, iste'dodli odamlarni ishchilarning asosiy massasidan ma'lum bir rad etish, dushmanlik. Biroq, bunday tushunmovchilik ko'proq madaniyatimizning yetarli emasligi, davom etayotgan hodisalarga nisbatan kamroq sezgirligimiz bilan bog'liq. "Boshqaruv faoliyati amaliyoti iste'dodli odamlarni egosentrizmda ayblashda ko'plab misollarni biladi – bu insonning individual "men"ni butun olamning markaziga qo'yadigan nuqtayi nazar. Ko'rinishidan, egosentrizm o'zining odatiy salbiy ma'nosi bilan egoizmni anglatmaydi. Katta ehtimol bilan, bu bir tomonlama idrok. Shu sababli, ko'plab rahbarlar uchun bunday g'ayrioddiy

odamlar bilan muloqot qilish ko'pincha juda qiyin: ular boshqa nuqtayi nazarni idrok eta olmaydilar, ayniqsa u parallel tajribaga asoslangan bo'lsa. "Iqtidorli va qobiliyatli kishilarning jismoniy xususiyatlari odatda ikkita raqib stereotip bilan birga keladi. Birinchisi, oriq, jismonan zaiflashgan "ko'zoynakli", "o'z ichiga olgan odamlar". Yana bir tasvir – go'zal, sog'lom, tabassumli shaxslar. Bu stereotiplarga amal qilish qiyin emas. Bu ko'p jihatdan irsiyatga, ijtimoiy muhitga, shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligiga e'tiboriga bog'liq. Lekin bir narsa aniq: iqtidorli va qobiliyatli insonlar o'z aql-zakovati, madaniy mahorati, boshqalar bilan muloqot qilishdagi yumshoqligi bilan doimo jozibali. Ular har doim yuqori energiya darajasi bilan ajralib turadi.

Ajoyib qobiliyatga ega iqtidorli odamlar deyarli har doim muvaffaqiyatga erishish istagi bilan xatti-harakatlar modeli bilan ajralib turadi. Iqtidorli va qobiliyatli bolalar maqsadga erishishda katta qat'iyat ko'rsatganligi sababli, ularning yuqori ishtiyoqi hamma narsani mukammallikka yetkazish uchun nomaqbul istak paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Bu yuqori shaxsiy standartlar iqtidorli odamlarni juda zaif qiladi". Iqtidorli va iqtidorli bolalar turli qiziqishlari bilan ajralib turadi. Bu bir vaqtning o'zida bir nechta narsalarni boshlash tendensiyasini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ular uchun g'ayrat va pragmatizm o'rtasidagi yozishmalarni topish qiyin. Bunday muvozanat amaliy tajriba va boshqalarning do'stona munosabati bilan erishiladi. U yaxshi samaradorlikni, ustuvorlik madaniyatini va maqsadlarni belgilashni o'z ichiga olishi kerak.

Iqtidorli odamlar ma'lum darajada o'jarlik bilan ko'pincha ajoyib natijalarga erishishlari va muvaffaqiyatsizlikka duch kelishlari mumkin. Ikkinchi holda, ularning kuchaygan hissiy tajribalari ruhiy tushkunlikka, qobiliyatlarida umidsizlikka olib kelishi mumkin. "Iqtidorli odamlar juda oddiy vaziyat bilan ajralib turadi, ular suhbatda suhbatdoshni qat'iyan to'xtatib, uni tuzatib, o'z bilimlarini namoyish etadilar va ba'zida boshqalarni

masxara qilish ob'yektiga aylantiradilar. Buning sababi shundaki, ular javobni allaqachon bilishadi, ular buni e'lon qilishga shoshilishadi, ular o'z fikrlarini tezda ushlaydilar. To'g'rilab qo'yilgan suhbatdosh o'zini xavf-xatar yoki yashirin chaqiriq his qiladi. O'rtoqlar nazarida u yoki bu "dono yigit" o'z tabiatidan ajralib turishni xohlayotgandek tuyuladi. Natijada, iqtidorli bolalar begonalashish, rad etish bilan duch kelishadi. Ijodiy qobiliyatlarni o'lchash tizimini yaratuvchisi Torrance "irsiy potensial kelajakdagi ijodiy samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichi emas" deb xabar beradi. Bu shuningdek, oilaga, inson kiradigan ijtimoiy muhitga bog'liq. Ko'pgina ijodiy qobiliyatli, fan va san'at uchun juda ko'p ishlarni qilgan iste'dodli odamlarni o'zlarining juda tor bilim doiralari yoki ijodkorliklari olib ketdi va ularni ko'p qirrali shaxslar deb atash qiyin edi.

Pedagokning asosiy vazifalari – iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning faoliyati uchun sharoit yaratish, ijodiy o'sishga to'sqinlik qiluvchi sabablarni bartaraf etish. "Inson ijodkorligining pasayishining sabablari bor. Hissiy – xato qilishdan qo'rqish, kulgili ko'rinish, boshqa xodimlar tomonidan hukm qilinishi, qobiliyatsizligi. Professional – tajribasizlik, raqobat, haddan tashqari qat'iy hukmlarning mavjudligi, muqobil variantlarning yo'qligi, yuqori maxsus bilim. Idrokning sabablari – fikrlashning bir tomonlamaligi, tegishli intellektual darajaning yo'qligi. Shaxsiy – sezgirlik, dangasalik, manmanlik, xudbinlik, konservatizm.

Tadbirkorlik quyidagi hollarda bo'g'ilishi mumkin: aniq belgilangan maqsadlar bo'lmasa; maqsadlarni almashtirish mavjud; mag'lubiyatdan qo'rqish bor; muvaffaqiyat qo'rquvi bor; o'zgarish qo'rquvi bor; xavfsizlikka aniq intilish va boshqalar. Shuni esda tutish kerakki, ijodiy, iste'dodli shaxslar oddiy odam uchun odatiy bo'lmagan bir qator xususiyatlarga ega: Bunday odamlar o'ynashga va improvizatsiya qilishga moyil, hazilkash, har doim qoidalarga zid, yangi tajribalarga

yo‘naltirilgan, xatti-harakatlarida spontan va o‘z qarorlarida mustaqil. Ular aniqlik va aniqlikni talab qiladigan holatlarda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ular atrofdagi dunyoni estetik idrok etish bilan ajralib turadi. Ular g‘ayratli, ko‘pincha ideallashtirilgan.

Bunday odamlar boshqalar sezmaydigan hodisalar va narsalarda ko‘rishlari mumkin. Ular nafaqat o‘ylash, balki harakat qilish istagiga ega. Ular muammolarga o‘zlarini amalga oshirish uchun yana bir imkoniyat sifatida qaraydilar. Ular natijalarga erishish uchun ishtiyoqli va o‘zlari intilayotgan g‘oyalar va maqsadlarga berilib ketishadi. Oddiy, o‘rtacha narsa ularning noroziligi va g‘azabini keltirib chiqaradi. Ular ishni qachon tugatib ketishni, qanday qilib chiziq chizishni bilishadi. Sabr ularni kamdan-kam tark etadi, lekin ular qilayotgan ishiga ishonishlari kerak. Ular o‘z harakatlarida jasorat va g‘ayrioddiy iroda, diqqatni jamlash va oddiy ko‘rinadigan maqsadlarga erishish uchun barcha kuch va energiyani to‘plash qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu ijodiy odamlarning to‘liq tavsifidan uzoqdir, ammo uni shubhasiz deb hisoblash mumkin emas. Biz bu yerda iste’dodni tug‘ilishdan boshlab insonga xos (ehson qilingan) iste’dodning namoyon bo‘lishi ma’nosida tushunamiz.

“Iste’dodli odamlar yo‘q” ayni paytda, insoniyatning madaniy rivojlanish tajribasi, uning kollektiv ongsizligida qayd etilgan. Agar biz “iste’dod” tushunchasini nafaqat intellektual faoliyat bilan cheklanib qolmasdan, balki inson faoliyatining barcha sohalariga kengaytiradigan bo‘lsak, unda bu har qanday shaxsning eng oson va eng muvaffaqiyatli bo‘lgan yo‘nalishda rivojlanishining ajralmas qobiliyati sifatida tushunilishi kerak. she’riyat, tikuvchilik, to‘p o‘ynash, matematik muammolarni hal qilish va hokazo.

Xo‘sh, nega iqtidorli odamlar kam? Yoshi bilan iste’dodlar qayerga boradi? Ba’zilar jamiyat tomonidan talab qilinmagan holda qisqaradi. Boshqalar esa o‘z egalariga zararli ekanligini isbotlab, ildizdan yirtilgan. Buning bir qancha sabablari bor va

ular xuddi samolyotda yotadi, va muxtasar qilib aytganda, ular iste'dodni (iqtidorni) kattalar – ota-onalar, o'qituvchilar, murabbiylar va boshqalar tomonidan sezilmasligi (o'tkazib yuborilishi) yoki sezilmasligi, lekin sub'yektning o'zi (iqtidorli bola) tomonidan yo'q qilinishidan iborat. O'sish jarayoni va uning ortib borayotgan ijtimoiy konditsiyasi. Qanday bo'lmasin, bu sabablarning barchasi iste'dodli bolalarning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Bolaning iqtidori kattalar tomonidan e'tiborga olinmasligi yoki ataylab e'tiborga olinmasligi sabablarini ko'rib chiqing.

Ushbu sabablar tashqi sabablar deb ataladi. Birinchidan, zamonaviy psixologik-pedagogik fanlar iqtidor tushunchasini bolaning o'rganish qobiliyati, aql-zakovati va ijodkorligi (ijodiy qobiliyatlari) tushunchalari bilan chambarchas bog'laydi. Bu uch qobiliyat yosh shaxsning kelajakdagi mutaxassisligi bo'yicha muvaffaqiyatning eng muhim kafolati hisoblanadi. Shunday qilib, defakto iqtidor, go'yo, faqat bola ta'lim olish bosqichida namoyon bo'ladi. (Iqtidor belgilari ro'yxatida "o'rganuvchanlik" birinchi o'rinda turishi bejiz emas.) Bunday yondashuvning o'z-o'zidan iste'dodlarning namoyon bo'lish maydoni va ularni ochish vaqtini toraytirishi aniq.

Darhaqiqat, bolaning iqtidori ota-onasi tomonidan ta'lim muassasasiga yuborilganidan ancha oldin o'zini namoyon qila boshlaydi. Agar siz bolangizga e'tiborli bo'lsangiz, unda uning moyilligi ota-onasiga (yoki doimo uning yonida bo'lganlarga) sezilarli bo'ladi. Musiqiy bolalar birinchi so'zlarini aytishdan oldin qo'shiq aytishni boshlaydilar yoki shunchaki boshlarini chayqadilar. Xuddi shu narsa sport iqtidorli bolalarga ham tegishli. Qoyaga ko'tarilish bo'yicha SSSRning bo'lajak chempioni Mixail Xergiani (u uchun "Qoyalar yo'lbarsi" noyob unvoni berilgan) hatto go'dakligida ham kattalarni qo'llarning chidamliligi va kuchi bilan hayratda qoldirdi.

Minglab bo'lajak chempionlar, ularning g'ayrioddiy erta rivojlanish qobiliyatlari kattalar ustozlari yordamida e'tiborga

olinmagan, tasdiqlanmagan va rivojlanmaganligi sababli amalga oshmadi?

Ikkinchidan, psixologiya va pedagogikada umume'tirof etilgan iqtidorning aql bilan bevosita bog'liqligi iqtidorli bolalar doirasini toraytiradi va badiiy ijodga, sportga, hunarmandchilikka va hokazolarga moyil bo'lganlarni ortda qoldiradi.

Uchinchidan, umumiy ta'lim tizimining o'zi ma'lum bir standart o'rtacha darajaga sozlangan. Muntazam o'quv dasturlaridan tortib o'qituvchilarning kasbiy manfaatlariga qadar hamma narsa iqtidorli bolalarga individual yondashuvga ziddir. Tarbiya va ta'limga ushbu "tenglashtiruvchi" yondashuvning apoteozi 1936-yildagi Bolsheviklar Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining "Narkompros tizimidagi pedologik buzuqliklar to'g'risida"gi iqtidorli shaxslarni aniqlashni taqiqlashga chaqiruvchi shov-shuvli qaroridir. bolalar. Darhaqiqat, totalitar davlat uchun nostandart fikrlaydigan va harakat qiladigan fuqarolarni etishtirish foydasiz va noqulaydir.

O'rtacha o'rta maktab o'qituvchisiga kelsak, u o'zining nostandarti bilan aralashishdan ko'ra, o'quvchining ma'lum bir fan bo'yicha iqtidorini sezmaslik odatiy va osonroqdir. Misol uchun, insholarni baholash mezonlarini olaylik, bu yerda savodxonlik va tasvirni ochishning to'g'riligi birinchi o'rinda turadi va "kurs"dan har qanday og'ishlar va undan ham ko'proq grammatik xatolar qattiq jazolanadi.

Ta'limga tenglashtiruvchi, standartlashtirilgan yondashuv iqtidorli bolaga zarar keltiradi, lekin, aynan u o'rta va kasb-hunar ta'limi tizimida texnologik bo'lib chiqadi. Bu yerda qimmatbaho toshlarni kesish bilan o'xshashlik mos keladi. Agar siz kristallni tabiatning o'zi tomonidan berilgan yuzlar bo'ylab maydalasangiz, unda biz olmosni olamiz. Xo'sh, agar barcha qimmatbaho toshlar "umumiy beton aralashtirgich"ga tashlansa, unda biz faqat poydevor quyish yoki umumiy plyaj uchun mos keladigan yumaloq toshlarni olamiz. Agar, shunga qaramay, bola o'rta maktab o'quv dasturiga zid ravishda, nostandart

fikrlash va biznesga ijodiy munosabatni yo'qotmaslikka muvaffaq bo'lsa, unda bunday yosh odam keyingi kattalar hayotida va kasbiy faoliyatida jamiyat uchun ko'proq noqulay bo'ladi. Iqtidorli shaxsning o'ziga xos xususiyati divergent fikrlashdir (J.Gilford bo'yicha), unda muammolarni hal qilish uchun bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda izlanishlar izlanadi. Qoida tariqasida, bu yo'nalishlar umumiy qabul qilinganlardan farq qiladi. Bunday erkin fikrlovchining faoliyati jarayonida yordam berganidan ko'ra tez-tez qo'llariga urishi ajablanarli emas.

Iqtidorning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy jihatlarga ajoyib og'zaki ko'nikmalar, hissiy barqarorlik, ijodkorlik, turli xil qiziqishlar, yaxshi xotira, aniq shaxsiyat va bolaning mavhum fikrlashi kiradi. Salbiy xususiyatlar orasida diktatorlik moyilligi, o'ziga va boshqalarga haddan tashqari talabchanlik, qiziqishlarning tebranishi, tengdoshlariga nisbatan yozish va fikrlash tezligining farqi, zaif jismoniy tayyorgarlik kiradi. Iqtidorni tasdiqlash uchun ota-onalar, o'qituvchilardan bola haqida to'liq ma'lumot to'plash kerak. Barcha ma'lumotlarni yig'ib, turli testlardan o'tgandan so'ng, ushbu ma'lumotlarga asoslanib, iste'dod va qobiliyatlarning mavjudligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Bunday farzandni ko'zdan qochirmaslik, o'zi tarbiyalangan jamiyatga bundan keyin ham foyda keltirishi uchun shunday ta'lim va tarbiya berishga harakat qilish kerak. Ammo, bu qanchalik paradoksal bo'lmasin, o'qituvchilarga bolalar jamoasini o'rgatishda qiyinchiliklar tug'diradigan qobiliyatli bola. Iqtidorlilik faoliyat turlariga ko'ra tasniflanadi va quyidagilardan iborat:

– Intellektual – Bolalarda qiziqish va zukkolik kuchayadi.

– Ijodiy – U fikrlashning o'ziga xosligi, g'oyalar va yechimlarni yaratishda namoyon bo'ladi.

– Akademik – Bu alohida fanlarni muvaffaqiyatli o'rganishda o'zini namoyon qiladi. Ammo shu bilan birga, u bolaning manfaatlarini tanlashda farqlanadi.

– Badiiy va estetik – iste'dodning musiqa, adabiyot va ijodda aks etishi.

– Ijtimoiy – Aloqalarni o'rnatish va muloqot qilish qulayligi.

– Sport – Ularning harakatlarini nazorat qilish va tananing muvofiqlashtirishni boshqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash. "Noosfera" modeli asosida iqtidorli o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish. Iqtidorli ta'lim (shuningdek, nomi bilan tanilgan iqtidorli va iqtidorli ta'lim (DARVOZA), iste'dodli va iqtidorli dasturlar (TAG), yoki G / T ta'limi) deb aniqlangan bolalarni o'qitishda ishlatiladigan maxsus amaliyotlar, protseduralar va nazariyalarning keng guruhidir iqtidorli yoki iste'dodli.

Iqtidorli ta'limga asosiy yondashuvlar boyitish va tezlashtirish. Boyitish dasturi qo'shimcha, tegishli materiallarni o'rgatadi, ammo o'quvchining o'quv dasturida boshqa talabalar bilan bir xil tezlikda rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, iqtidorli talabalar o'quv dasturidagi odatdagi ishni bajargandan so'ng, boyitish dasturi ularga mavzu to'g'risida qo'shimcha ma'lumot berishi mumkin. Akseleratsiya dasturi o'quvchini odatdagi o'quv rejasi bo'yicha odatdagidan tezroq rivojlantiradi. Bu juda ko'p turli xil yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Iqtidorli talaba nima ekanligi to'g'risida bir nechta ta'riflar mavjud global standart ta'rif mavjud emas. Ko'pgina ta'riflar ma'lum bir sohada eng mahoratli yoki iste'dodli talabalarni tanlaydi, masalan, musiqa, til, mantiqiy fikrlash yoki matematikada eng qobiliyatli yoki iste'dodli talabalar. Tanlangan talabalarning ulushi turlicha, odatda iqtidorli ta'lim dasturlari uchun tanlanganlarning 10% yoki undan kamrog'i. Ammo, o'quvchilarning qobiliyatlari va yutuqlari turlicha bo'lganligi sababli, musiqa kabi bir sohada iqtidorli bo'lmagan talaba, masalan, til kabi boshqa sohada iqtidorli hisoblanadi.

Binobarin, hatto barcha dasturlarga o‘z hududidagi talabalarning eng yaxshi 5 foizini jalb qilishga kelishilgan taqdirda ham, talabalarning atigi 5 foizidan ko‘prog‘i iqtidorli deb topilgan bo‘lar edi.

Tezlashtirish

O‘quvchilar o‘zlarining qobiliyatlari va tayyorgarligiga ko‘proq mos keladigan yuqori darajadagi sinf materiallariga o‘tdilar. Bu shaklni olishi mumkin baholarni o‘tkazib yuborish yoki odatdagi o‘quv dasturini odatdagidan qisqa vaqt ichida bajarish (“teleskop”). Mavzuni tezlashtirish (qisman tezlashtirish deb ham yuritiladi) bu boshqa yo‘nalishdagi ishlarni o‘zgartirmasdan, masalan, matematika yoki til kabi o‘quvchilarni bitta fan tarix yoki fan bo‘yicha oldinga siljitadigan moslashuvchan yondashuv. Ushbu turdagi tezlashtirish odatda emas, balki yutuqlarni sinab ko‘rishga asoslangan IQ.

Ba’zi kollejlar taklif qiladi erta kirish dasturlari bu iqtidorli yosh o‘quvchilarga kollejga erta borish imkoniyatini beradi. AQShda ko‘pchilik jamoat kollejlari ilg‘or talabalarga maktab ma’murlari va o‘quvchining ota-onalarining roziligi bilan ro‘yxatdan o‘tishga ruxsat berish.

Tezlashtirish iqtidorli bolalarga ularning qobiliyatlari va tayyorgarligiga mos keladigan belgilangan o‘quv dasturlaridan o‘quv materiallarini taqdim etadi va shu sababli maktab nuqtayi nazaridan arzon variant hisoblanadi. Bu oz sonli bolalarning katta yoshdagi bolalarga yo‘naltirilgan darslarga olib kelishi mumkin. Iqtidorli talabalarning aksariyati uchun tezlashtirish akademik va ijtimoiy jihatdan foydalidir. Sinfdan to‘liq o‘tish tezlashuv deb hisoblanadi. Ba’zi advokatlar standart aralash sinfda saqlanishning kamchiliklari tezlashtirishning har qanday kamchiliklaridan sezilarli darajada yomonroq, deb ta’kidlashdi. Masalan, psixolog Miraca Grossning xabar berishicha: “bu bolalarning aksariyati [odatdagi sinfda saqlanadigan] ijtimoiy jihatdan rad etilgan [o‘z tengdoshlari tomonidan odatdagi akademik iste’dodlarga ega], izolyatsiya qilingan va chuqur

baxtsiz. IQ Oddiy sinfda saqlanadigan 180 yoshdan oshganlar xavf ostida bo'lib, jiddiy hissiy tanglikni boshdan kechirishadi. Ushbu tezlashtirilgan bolalar, iloji bo'lsa, bitta sinfga joylashtirilishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tezlashtirish o'quvchilar o'rta maktabni tugatgandan so'ng ancha vaqtgacha ta'sir qilishi mumkin. Masalan, bitta tadqiqot shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi tezlashuvni boshdan kechirgan IQ darajasi yuqori bo'lgan odamlar kattalardayoq ko'proq daromad olishgan.

Klaster guruhlash

Klaster guruhlash to'rt-oltita iqtidorli va qobiliyatli va / yoki yuqori natijalarga erishgan o'quvchilarni butun o'quv kuni davomida bitta xonada yig'ilishidir. Klaster o'qituvchilari iqtidorli o'quvchilarni farqlash bo'yicha maxsus tayyorlangan. Klasterlar odatda yuqori boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi. Klaster guruhi tarkibiga boyitish va kengaytmalar, yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari, dastlabki sinov va farqlash, ixchamlashtirish, tezlashtirilgan sur'at va tarkibdagi murakkablik kiradi.

Kollokvium

Akseleratsiya singari, kollokvium ham o'rta maktab o'quvchilari uchun rivojlangan materiallarni taqdim etadi. Kollokviumda talabalar qabul qilishadi Kengaytirilgan joylashtirish (AP) kurslari. Biroq, kollokvium AP sinflaridan farq qiladi, chunki talabalarga odatda AP sinfidagi o'quvchilarga qaraganda ko'proq loyihalar beriladi. Kollokvium talabalari, odatda AP mavzularida o'qigan talabalarga qaraganda, mavzularni chuqurroq va ba'zan boshqacha tarzda o'rganadilar. Kollokvium – bu an'anaviy davlat maktabida amalga oshiriladigan shakl. Kollokviumda mavzular birlashtiriladi. Mavzular kunning turli vaqtlarida o'qitiladi; ammo, odatda, bitta fan bo'yicha o'qitiladigan narsa boshqa mavzu bilan bog'lanadi. Masalan, agar talabalar "Tarix"dan mustamlakachi Amerika haqida ma'lumot olsalar, unda ular matnni tahlil qilishlari

mumkin Qizil maktub inglizchada. Ba'zi maktablarda faqat ma'lum fanlardan kollokvium bo'lishi mumkin. Kollokvium faqat ingliz va tarix tillarida olib boriladigan maktablarda odatda kollokvium o'quvchilari qatnashadilar Kengaytirilgan joylashtirish matematika va tabiatshunoslik kurslari va aksincha.

Siqish

Siqish paytida odatdagi maktab materiallari o'quvchining qaysi ko'nikmalar va mazmun allaqachon o'zlashtirilganligini aniqlash uchun oldindan sinov qilish yo'li bilan ixchamlashtiriladi. Pretestlar har kuni taqdim etilishi mumkin (o'quvchilar birinchi varaqdagi eng qiyin ishlarni bajaradilar va agar ular to'g'ri bajarilgan bo'lsa, qolganlarini o'tkazib yuboradilar) yoki o'quv vaqtining bir haftasidan yoki undan uzoq vaqtidan oldin. Agar talaba tegishli darajadagi malakani namoyish qilsa, takroriy takroriy amaliyotni xavfsiz tarzda o'tkazib yuborish mumkin, bu esa zerikishni kamaytiradi va talabaning yanada qiyin material ustida ishlashiga vaqt ajratadi.

Boyitish

Boshlang'ich maktab darajasida o'quvchilar barcha dars vaqtlarini tengdoshlari bilan o'tkazadilar, ammo ularga qarshi chiqish uchun qo'shimcha materiallar oladilar. Boyitish o'zgartirilgan kabi oddiy bo'lishi mumkin topshiriq odatdagi sinf o'qituvchisi tomonidan taqdim etiladi yoki u kabi rasmiy dasturlarni o'z ichiga olishi mumkin Aqlning Odisseyasi, Maqsad xayoli yoki kabi akademik musobaqalar Brain Bowl, Kelajakdagi muammolarni hal qilish, Fan olimpiadasi, Milliy tarix kuni, ilmiy yarmarkalar, yoki imlo asalari. Boyitish tadbirlari dasturlari maktab kunidan tashqarida ham tashkil etilishi mumkin (masalan, o'rta ilmiy ta'limdagi ASCEND loyihasi). Ushbu ish har qanday oddiy maktab ishi o'rniga emas, balki qo'shimcha ravishda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvni tanqid qiluvchilar iqtidorli talabalar uchun ilg'or darajada bir xil miqdordagi ish o'rniga ko'proq ishlashni talab qilishini ta'kidlaydilar. O'rta maktab darajasida ba'zida ko'proq kurs-

larga o'ting Ingliz tili, Ispaniya, Lotin, Falsafa, Ilm-fan yoki boshqalar yoki qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari bilan shug'ullanish. Ba'zilar, boyitish va tezlashish o'rtasida kerakli tanlov mavjudligini, go'yo ikkalasi bir-birini istisno qiladigan alternativa deb bilishadi. Biroq, boshqa tadqiqotchilar ikkalasini bir-birini to'ldiruvchi sifatida ko'rishadi.

Kunduzgi alohida sinflar yoki maktablar

Shuningdek qarang: Iqtidorli va iste'dodli dasturlarning ro'yxati.

Ba'zi iqtidorli o'quvchilar alohida sinfda yoki alohida maktabda ta'lim olishadi. Ushbu sinflar va maktablar ba'zan "birlashtirilgan iqtidorli dasturlar" yoki "bag'ishlangan iqtidorli dasturlar" deb nomlanadi.

Ba'zi mustaqil maktablar akademik iqtidorli talablarga xizmat qilish uchun asosiy vazifani bajaradilar. Bunday maktablar nisbatan kam va ko'pincha oilalarni topish qiyin. Qo'shma Shtatlarda iqtidorli maktablarni topish uchun bitta manbani topish mumkin Iqtidorli bolalar milliy assotsiatsiyasi "Resurs katalogi"ga ularning uy sahifasi orqali kirish mumkin. Bunday maktablar ko'pincha o'z missiyalarini vaqti-vaqti bilan elitizm ayblovlaridan himoya qilish, xodimlarining kasbiy o'sishi va o'qitilishini qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarining ijtimoiy, hissiy va akademik qobiliyatlarini qondirish uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini yozish va ularning tarbiyasi uchun barcha yoshdagi ota-onalar ishlashlari kerak.

Ba'zi iqtidorli va iste'dodli sinflar o'z-o'zini boshqarish yoki individual ishlarni taklif qilishadi, bu yerda talabalar o'zlari sinfni olib boradilar va o'zlarining vazifalari, testlari va boshqa barcha topshiriqlarini hal qiladilar. Ushbu alohida sinflar yoki maktablar sinflarning kichikligi va o'quvchilarning o'qituvchilarga bo'lgan ratsionining pastligi sababli odatdagi sinflarga qaraganda qimmatroq. Foyda uchun emas (notijorat) maktablar ko'pincha foyda keltiradigan maktablarga qaraganda past narxlarni taklif qilishi mumkin. Qanday bo'lmasin, ularga talab katta

va ota-onalar ko'pincha xarajatlarning bir qismini to'lashlari kerak.

Xobbi

Kabi tadbirlar o'qish, ijodiy yozuv, sport, kompyuter o'yinlari, shaxmat, musiqa, raqs, chet tillari va san'at maktab vaqtidan tashqari qo'shimcha intellektual muammolarni berish.

AQShda uyda o'qitish

Iqtidorli bolalar uchun son-sanoqsiz ta'lim variantlarini qamrab oluvchi soyabon atamasi: sirtqi ta'lim; uyda maktab; sinflar, guruhlar, murabbiylar va murabbiylar; va maktabdan bo'shatish. AQShning ko'plab shtatlarida iqtidorli talabalar soni uyda o'qitiladi byudjet muammolari va standartlarga asoslangan siyosatga javob beradigan maktab tumanlari cheklangan iqtidorli ta'lim dasturlarini qisqartirayotgani va oilalar har bir bolaning o'ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olish imkoniyatlarini izlayotgani sababli, bu juda tez o'sib bormoqda.

Tortib olmoq

Iqtidorli talabalar chiqardi vaqtining bir qismini o'tkazish uchun bir xil bo'lmagan sinf xonasi iqtidorli sinf. Ushbu dasturlar puxta ishlab chiqilgan yarim kunlik o'quv dasturlaridan tortib, har haftada ta'lim muammolari uchun bir soatgacha o'zgarib turadi. Umuman olganda, ushbu dastur akademik yutuqlarni targ'ib qilishda samarasizdir, agar berilgan materiallar asosiy o'quv dasturiga qo'shimcha va boyitishni o'z ichiga olmasa. O'chirish dasturlarining aksariyati tanqidiy fikrlash mashqlari, ijodiy mashqlar va odatda standart o'quv dasturlariga kiritilmagan mavzulardan iborat. Iqtidorli tanlov dasturlarida kiritilgan materiallarning aksariyati o'rganish bilan bog'liq mantiq, va matematikadan tortib to maydonlarga qo'llanilishi falsafagacha. Talabalar ushbu empirik mulohaza yuritish ko'nikmalarini darsning tashqarisida va tashqarisida ta'limning har bir sohasiga tatbiq etishlari tavsiya qilinadi.

O'z-o'zidan qadam bosish

Kabi o'z-o'zidan pacing usullari Montessori usuli, bolalarning o'z tezligida o'sishiga imkon berish uchun moslashuvchan

guruhlash amaliyotidan foydalaning. O‘z-o‘zidan pacing qilish barcha bolalar uchun foydali bo‘lishi mumkin va iqtidorli yoki iqtidorli deb topilganlarga qaratilgan emas, lekin bu bolalarga tezlashtirilgan tezlikda o‘rganishga imkon beradi. Yo‘naltirilgan tadqiqotlar, odatda, o‘z-o‘zidan qadam bosishga asoslangan.

Yozgi boyitish dasturlari (AQSh)

Ular asosan yozda bo‘lib o‘tadigan turli xil kurslarni taklif qilishadi. Yozgi maktablar Qo‘shma Shtatlarda mashhur. Bunday dasturlar uchun kirish to‘lovlari talab qilinadi va dasturlar odatda lager davomida bitta mavzu yoki sinfga qaratilgan bo‘ladi.

Ushbu turdagi dasturlarning bir nechta namunalari:

Iqtidorli yoshlar markazi

CTYI

GERI: Iqtidorli ta’lim resurslari instituti, Purdue universiteti

Jons Xopkins universiteti

Iste’dodlarni rivojlantirish markazi, Shimoli-g‘arbiy universiteti

Qo‘shma Shtatlar ichida, shtat tomonidan ishlab chiqilgan dasturlardan tashqari, ba’zi tumanlar ham o‘zlarining iqtidorli va qobiliyati dasturlarini tuzishni tanlaydilar. Ba’zan bu alohida okrug o‘z TAG dasturini shakllantiradi degan ma’noni anglatadi; ba’zan bitta okrugda iqtidorli talabalar yetarli bo‘lmasa, bir nechta tumanlar yig‘iladi. Odatda, TAG dasturi ma’lum bir yosh guruhiga, xususan mahalliy TAG dasturlariga qaratilgan. Bu boshlang‘ich yoshni, o‘rta maktab yoshini yoki 9 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan yoshni anglatishi mumkin.

Ushbu darslar odatda talabalar o‘zlari xohlagan bir nechta kurslarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun tashkil etiladi. O‘qitiladigan kurslar ko‘pincha predmetlar bo‘yicha farqlanadi, ammo odatda ushbu fan bilan qat’iy bog‘liq emas. Masalan, tarixda taqdim etilishi mumkin bo‘lgan TAG kursi talabalar ma’lum bir voqeani bilib olishlari va keyinchalik

dasturning so'nggi kechasida ota-onalarga taqdim etiladigan spektaklda namoyish etilishi mumkin. Ushbu kurslar o'quvchilarni nafaqat maktabda bo'lgani kabi ma'ruza qilish uchun emas, balki yangicha fikrlashga undash uchun mo'ljallangan.

Iqtidorli bolalarni aniqlash

"Iqtidorli baholash" atamasi, odatda, mos yozuvlar guruhiga nisbatan intellektual faoliyati sezilarli darajada rivojlangan bolalarni aniqlash maqsadida malakali psixolog yoki psixometr tomonidan o'tkaziladigan me'yorga asoslangan psixometrik testlardan foydalanish jarayonida qo'llaniladi (ya'ni, ularning yoshi, jinsi va mamlakati). Ushbu guruhni farqlash uchun chegara ballari odatda tuman maktablari kengashlari tomonidan belgilanadi va har bir hududda bir oz farq qilishi mumkin, ammo ko'pchilik ushbu guruhni intellektual (kognitiv)ning qabul qilingan testlaridan birida eng yuqori 2 foizli ball to'plagan o'quvchilar deb belgilaydi) ishlaydigan yoki IQ. Ba'zi maktab kengashlari, shuningdek, boladan individual yutuq testlarida yoki sinfdagi faoliyati orqali ilg'or akademik mavqeyini namoyish etishni talab qiladi. Iqtidorli bolalarni aniqlash ko'pincha qiyin, ammo juda muhimdir, chunki odatdagi maktab o'qituvchilari iqtidorli o'quvchini tarbiyalashga qodir emaslar. Bu iqtidorli bolani zeriktirishi, darsda yetishmovchilik va o'zini tutish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shaxsiy IQ testi odatda bolalar orasida iqtidorni aniqlashning eng maqbul usuli hisoblanadi. Ammo u iqtidorli deb topilganlar orasida yaxshi farq qilmaydi. Shuning uchun imtihonchilar avval iqtidorni aniqlash, so'ngra yanada farqlash uchun turli xil testlardan foydalanishni afzal ko'rishadi. Bu ko'pincha individual IQ testlarini, so'ngra guruh yoki individual yutuq testlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Sinovlardan foydalanish bo'yicha standart kelishuv mavjud emas, chunki har bir test ma'lum bir rolga mos keladi.

Maktab yoshidagi aholida iqtidorni aniqlash bo'yicha eng mashhur ikkita test quyidagilardir WISC IV va SB5. The WIAT

III bolaning umumiy o'rgangan bilimlarini aniqlash uchun eng ommabop o'quv yutuqlari testi hisoblanadi.

WISCning yangi versiyasi – WISC V 2014-yil oxirida ishlab chiqilgan bo'lsa-da, WISC IV hali ham eng oddiy sinov hisoblanadi. Ispan, portugal, norveg, shved, fransuz, nemis, golland, yapon, xitoy, koreys va italyan tillariga tarjima qilingan. WISC-IV bolaning kognitiv qobiliyatini, yosh guruhiga qarab baholaydi. Boshqa test natijalari bilan birgalikda WISC bolaning kelajakdagi rivojlanish va psixologik ehtiyojlarini aniq aks ettiradi.

SB5 kognitiv qobiliyatlarni aniqlaydigan va deyarli har qanday yosh guruhidagi odamlarga berilishi mumkin bo'lgan aql-idrok testidir. U aql-zakovat, umumiy bilim, miqdoriy fikrlash, fazoviy ishlov berish va ish xotirasini o'z ichiga olgan bir qator intellekt ko'rsatkichlarini baholaydi. SB5 og'zaki va og'zaki bo'lmagan testlardan foydalanadi.

WIAT-III o'rganilgan bilimlarning barcha tarkibiy qismlarini baholay olmaydi, lekin rasmiy ta'lim orqali bolaning ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish qobiliyati to'g'risida tushuncha beradi. Ushbu test o'quv jarayonining an'anaviy maktab sharoitida o'qish, yozish, matematik va og'zaki tilda sodir bo'ladigan jihatlarini o'lchaydi. WIAT-III turli xil materiallarni sinovdan o'tkazgan bo'lsa-da, u asosan bolalarning o'spirinlikgacha o'rganishini baholash uchun mo'ljallangan.

Ushbu testlarning versiyalari har bir yosh guruhi uchun mavjud. Shu bilan birga, baholashni iloji boricha erta boshlash tavsiya etiladi, taxminan sakkiz yosh sinov uchun eng maqbul vaqt hisoblanadi. Sinov talabalarning aniq ehtiyojlarini aniqlashga imkon beradi va ta'limni erta rejalashtirishga yordam beradi.

Muvaffaqiyatni guruhdan tashqarida tekshirish (masalan, SAT yoki ACTni erta topshirish) ushbu talabalarni erta aniqlashga yordam beradi (qarang. SMPY) va ta'lim dasturlarida ishlatiladigan turli xil iste'dodlarni qidirish dasturlari tomonidan

amalga oshiriladi. Guruhdan tashqari test sinovlari, shuningdek, bitta IQ testida eng yuqori foizli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bolalarni farqlashga yordam beradi, faqatgina test o'tkazish har bir iqtidorli bolani aniq aniqlay olmaydi. O'qituvchilar va ota-onalarning nominatsiyalari baho va ballar bilan ta'minlangan ob'yektiv ma'lumotlarga muhim qo'shimchalar. Ota-onalar farzandlari ishlarining portfellarini va ularning iqtidorli xulq-atvorining dastlabki belgilari to'g'risida hujjatlarni saqlashlarini tavsiya etadilar.

Iqtidorni o'rganish tomonidan erta aniqlash testlarining rivojlanishi Alfred Binet Lyuis Terman tomonidan ishlab chiqilgan Stenford-Binet IQ testiga olib keldi. Terman iqtidorli bolalarni uzoq muddatli tadqiq qilishni "erta pishgan, erta chirigan" degan mashhur fikrning to'g'riligini tekshirish maqsadida boshladi. Geniusning "Terman Genetic Studies" uzunlamasina tadqiqotini Terman vafotidan keyin tadqiqotni olib borgan izdosh tadqiqotchilar va shuningdek, tadqiqot fayllariga to'liq kirish huquqiga ega bo'lgan mustaqil tadqiqotchi tomonidan tasvirlangan.

Jeyms va Kulikning zamonaviy tadqiqotlari iqtidorli talabalar foyda keltiradi degan xulosaga kelish kamida aralash darajadagi sinfda ishlashdan va foyda olishdan eng tezlashtirilgan yoki boyitilgan sinflarda boshqa shunga o'xshash ilg'or talabalar bilan o'qishdan.

Iqtidorning ta'rifi

Ta'lim organlari iqtidorning ta'rifi bo'yicha farq qiladi: hatto bir xil ishlatilganda ham IQ iqtidorlilikni aniqlash uchun test, ular qanday iqtidorli degani haqida kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin – biri aholining eng 2 foizini egallashi mumkin, boshqasi shtat, tuman yoki maktab ichida bo'lishi mumkin bo'lgan aholining eng yaxshi 5 foizini egallashi mumkin. Bitta maktab okrugi doirasida o'lchangan IQ taqsimotida sezilarli farqlar bo'lishi mumkin. Yuqori ko'rsatkichga ega maktabdagi yuqori foizli ko'rsatkichning IQ darajasi past darajadagi maktabnikidan ancha farq qilishi mumkin.

Doktor Piter Marshal

Doktor Piter Marshal ushbu sohada 1986-yildan beri olib borilgan tadqiqotlar uchun 1995-yilda doktorlik unvoniga sazovor bo'ldi. O'shanda u Iqtidorli bolalar uchun Mensa fondining birinchi tadqiqot direktori edi. Uning ishi qiyin bolalik gipotezasini shubha ostiga qo'ydi, chunki iqtidorli bolalarda, umuman olganda, oddiy bolalarnikidan ko'ra qiyinroq bolalik yo'q va aslida ular qayerda bo'lsa, ularning iqtidorliligi ularga oddiy bolalarga qaraganda yaxshiroq kurashishga yordam beradi va keyinchalik "Iqtidorli bolani tarbiyalash" kitobi uchun material taqdim etdi.

Yilda Iqtidorli bolalarni aniqlash: amaliy qo'llanma, Syuzan K.Jonsen (2004) iqtidorli bolalarning barchasi Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtidorli va iqtidorli talabalarning federal ta'rifiga kiritilgan sohalarda yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lish imkoniyatlarini namoyish etishini tushuntiradi.

Noosfera (yun. noos – akl-idrok va sphaira – shar) – biosferannng inson aql-idroki hukmronlik qiladigan yangi holati. Noosferada inson biosfera rivojlanishini belgilab beradigan asosiy omil hisoblanadi. Noosfera tushunchasini 1927-yilda fransuz olimlari E.Lerun va P.Teyetyar de Sharden fanga kiritishgan bo'lib, ular noosferani biosfera ustidan hukmronlik qiluvchi, yerni o'rab olgan akl-idrok qavati deb karashgan. V.I.Vernandskiy 20-asrning 30 – 90-yillarida noosfera to'g'risidagi materialistik tushunchani ilgari surdi. Uning fikricha, jamiyatning o'zaro munosabatlari natijasida paydo bo'lgan biosferaning sifat jihatidan yangi, inson manfaati yo'lida qayta tashkil etilgan evolyutsion xolatidir. Tibbiyot qonuniyatlarining tafakkur va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlari bilan uyg'unlashib ketishi noosfera uchun xos xususiyat hisoblanadi. Noosferaning ayrim tarkibiy-funksional elementlari jamiyat rivojlanishining hozirgi davridayoq yuzaga kelmoqda. Rivojlanishning umumbashariy muammolarini hal qilish maqsadida insonlar kuch-qudrati birlashib borgan sari biosferaning noosferaga aylanishi ham kuchayib boradi.

TRIZ va ARIZ. Prezident maktablari. Ijod maktablari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi bugun bir yoshga to'ldi.

Agentlik muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2019-yilning 9-sentabr kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra faoliyatini boshlagan.

Agentlikning asosiy vazifasi iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qitish, tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Agentlik tizimida barcha sharoitlarga ega bo'lgan **16** ta maktab faoliyat yuritmoqda.

Jumladan, **4** ta Prezident maktabi, **9** ta ijod maktabi va **3** ta ixtisoslashtirilgan maktabda **3095** nafar o'quvchi turli fan yo'nalishlari bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim olmoqda.

2019-yilda mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan yangi maktablar tizimi yaratildi.

Prezident maktablari mamlakatimizda uzluksiz ta'limni yangi bosqichga olib chiquvchi o'ziga xos lokomotivga aylanadi.

Bugungi kunda respublikamiz hududlarida tashkil etilishi rejalashtirilgan jami **14** ta Prezident maktablarining **4** tasi Toshkent, Nukus, Xiva va Namangan shaharlarida faoliyat yuritmoqda.

Prezident maktablarida **576 nafar** iqtidorli o'quvchilarga **"STEAM"** fanlari bo'yicha **Kembrij xalqaro ta'lim dasturlari** asosida ta'lim saboq berilmoqda. Keyinchalik mazkur amaliyotni barcha o'rta ta'lim maktablariga bosqichma-bosqich joriy qilish ko'zda tutilgan. Ta'lim jarayoniga **40 nafar** xorijlik malakali o'qituvchi jalb qilingan.

Prezident maktablarida ta'lim oluvchilarga o'quv fanlari mazmunini chuqur o'rgatish bilan birgalikda, ularda mantiqiy va tanqidiy fikrlash, bilimlarni amaliyotda mustaqil qo'llash, ma'lumotni tahlil qilish va natijani barchaga tushunarli tilda yetkazish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

Prezident maktablari bitiruvchilari belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan o'rta ma'lumot to'g'risidagi hujjat (*shahodatnoma, attestat*) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkonini beruvchi Kembrij Xalqaro sertifikati (**Cambridge International AS & A level**)ga ham ega bo'ladilar.

2020-yilda yana 5 ta Prezident maktabi Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlari markazlarida qurilmoqda.

2021-yilda esa respublikaning qolgan hududlarida ham Prezident maktablari tashkil etiladi.

Ijod maktablari:

Agentlik tizimidagi ijod maktablari mamlakatimizdagi ijodkor yoshlarning ta'lim olishi va iqtidorini rivojlantirish maqsadida tashkil qilindi.

Ayni paytda yurtimizning turli hududlarida **9** ta ana shunday ijod maktablarida **1464** nafar o'quvchilarga yuqori malakali o'qituvchilar tomonidan ona tili, adabiyot va xorijiy tillar yo'nalishlarda chuqurlashtirilgan bilim berilmoqda.

2019-yilda **3** ta ijod maktabi faoliyati yangidan yo'lga qo'yildi. Xiva shahridagi Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi, Guliston shahrida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi, Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktablari zamonaviy bino bilan ta'minlandi.

Ayni vaqtda ijod maktablari o'quvchilari uchun respublikaning yetakchi adabiyotshunos olimlari tomonidan ixtisoslik fanlari bo'yicha yangi avlod darsliklari tayyorlanmoqda.

Ijod maktablari uchun chet tili (ingliz, fransuz, nemis tillari) darsliklari ilg'or xorijiy davlatlarning nufuzli nashriyotlaridan xarid qilinmoqda.

Barcha ijod maktablari optik tolali yuqori tezlikdagi internet orqali Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasining axborot-resurs bazasidan foydalanishiga sharoit yaratilgan.

Ijod maktablari o'quvchilari har yili o'zbek va dunyo adabiyotining eng sara 50 ta asarlaridan o'qishi, 50 ta she'rni yod olishi, o'zbek va dunyo kinematografiyasining 100 ta eng yaxshi namunasini tomosha qilishi, o'zbek va dunyo tasviriy san'atining 100 ta eng yetuk asari bilan tanishishi, o'zbek va dunyo mumtoz musiqasining 100 ta eng mukammal asarini tinglashi yo'lga qo'yilgan.

Ijod maktablarida nafaqat ixtisoslik fanlari, balki aniq va tabiiy fanlar ham malakali o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. Bu, o'z navbatida, ijodkor o'quvchilarimizning kelgusida jamiyatda o'z o'rnini topishiga, har xil sohalarda faoliyat olib borishiga zamin yaratadi.

Ijod maktablarida eng qulay virtual laboratoriyalardan Crocodile Physics, Technology, Crocodile Chemistry, Interactive Physics, Crocodile ICT, Stratch dasturlari orqali foydalanish imkoniyat yaratilgan.

Ijod maktablarida yuksak estetik didga va chuqur bilimga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal biladigan, ijodkor va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun tamal toshi qo'yilgan.

Agentlik tasarrufidagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi, Mirzo Ulug'bek nomidagi va Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarda **1055** nafar iqtidorli o'quvchilarga matematika, axborot texnologiyalari, fizika, astronomiya, kimyo va biologiya fanlaridan interaktiv tarzda chuqurlashtirilgan bilim berilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ham ixtisoslik fanlar chuqur o'qitilishi bilan birgalikda, o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy

fikrlash, bilimlarni amaliyotda mustaqil qo'llash, ma'lumotni tahlil qilish va natijani barchaga tushunarli tilda yetkazish kabi malaka va ko'nikmalar shakllantirishga yo'naltirilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab Ilm-fan (Science), Shaxsiy saviya (Personal development), Zamonaviy yondashuv (Global Perspecrives) kabi fanlarini ixtisoslik fan sifatida o'qitish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, 2019-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi AKTga ixtisoslashtirilgan maktab uchun 1200 o'quvchi o'rniga ega zamonaviy bino qurildi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab kimyo va biologiya fanlari bo'yicha tayanch ixtisoslashtirilgan maktabga aylantirildi.

Mazkur maktab Prezident maktablari, xorijlik hamkorlarning tajribasidan keng foydalangan holda tayanch maktablarida biologiya hamda kimyo fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish bo'yicha ishlarni olib boradi.

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar mamlakatimizda iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni rivojlanishi hamda bilim olishi uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish tizimini yaratishdagi qadamlardan biridir.

Agentlik tizimidagi ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalarni, eng yaxshi ta'lim dasturlarini, yaratilgan darsliklarni bosqichma-bosqich ta'lim tizimidagi barcha umumta'lim maktablariga ham joriy etish ko'zda tutilgan.

Agentlik bizning kelajagimiz bo'lgan yoshlarning chuqur bilim egasi va komil shaxs bo'lib tarbiyalanishi barcha shart-sharoitlarni yaratishda ta'lim tizimidagi muhim ahamiyatga ega bo'g'in vazifasini bajaradi.

Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. Tashxisning mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida farqlab olaylik. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta'lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning maqsadi o'o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi. Tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamroxi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani

ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob'yektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo'nalganlikga ega bo'lishi, o'z-o'zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foydali bo'lishi lozim.

Ta'lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab o'quvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – insonning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

Yoshlarni mustaqil bilim olishga o'rgatish bugungi kunning eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun ham

birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sesiyasida so'zlagan nutqida "Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadrini, bir suz bilan aytganda o'zligini angalash, erkin va ozod jamiyatda yashash mustaqil jamiyatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallash uchun fidokorlik bilan kurashishi mumkin" [1] degan edi. Shu o'rinda ta'kidlamoq lozimki bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning ahamiyati kattadir.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolatlarini nazorat qilish va baholash davlat miqiyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yilgan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurotlar qoldirganini, ular o'rtoqlarining o'qishdagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish lozim

Bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholash nima uchun kerak, uning qanday ahamiyati bor, u qanday vazifa bajaradi? Degan savol sizni qiziqtirsa kerak.

1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, iqtidor va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqni o'stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, iqtidor va ko'nikmalarini yanada takomillashtirish ishtiyoqi uyg'onadi.

3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi. Rivojlanish faol o'quv orqali, shu jumladan nutq faoliyati orqali amalga oshiriladi.

4. Tahsil funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quv materiali yanada chuqur o'zlashtiriladi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy xislatlari shakllanib boradi.

6. Nazoratni xususan baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniqlanadi.

Nazorat jarayonida uning yozma, og'zaki va amaliy usullaridan keng foydalanilmoqda. Bu jarayonda og'zaki so'rash orqali o'zlashtirishni nazorat qilish keng tarqalgan. Bu asosan savol-javoblar orqali olib boriladi. Bunda yakka so'rash, frontal surash kabi turlari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" va "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li", "Istiqlol va ma'naviyat" kabi asarlarida mustaqil O'zbekistonning ma'naviy hayotining kelajagi haqida asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan. Jumladan, mutaxassislar tayyorlashda ularni intellektual rivojlantirish zarurligini alohida qayd qilingandi.

Yoshlarni tarbiyalash jarayoni ma'naviy-intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsadi va vazifalari ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchidagi bor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ustida muntazam ishlansa, bolaning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga asos solinadi. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirishning eng samarali yo'li o'quvchilarda ongli bilim, mustahkam ko'nikma va malakalarni shakllanish jarayonini ularning tarbiyasi bilan birga tashkil etishdir. Buning uchun o'qituvchi tinimsiz izlanishi, o'qitishning yangi texnologiyalaridan samarali foydalanishi lozim.

O'quvchilarning intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ularning bilim faoliyatining psixologo-pedagogik qonuniyatlarini chuqur bilishni taqozo etadi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarida ta'limning har bir bosqichida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berilgan. Lekin bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni bolaning intellektual imkoniyatlarini hisobga olib tashkil etilsa, yuqori samaradorlik ta'minlanadi.

Ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlarini zamonaviy usullarda aniqlash tarbiya jarayoniga samarali o'zgartirishlar kiritadi. O'quvchi yoshlarning, talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlardagi yutuq va kamchiliklarni rag'batlantirish, tuzatish tarbiya mazmuni usullari va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi.

Qo'yilayotgan talablar bilan har tomonlama intellektual rivojlantirishning pedagogik sharoitlarining mufassal emasligi orasida tafovut yaratadi. Ayniqsa, mutaxassis tayyorlashda maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqqunlarigacha nazorat shaklining to'liq bo'lmaganligi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy muammolarini tashkil etadi. Masalani muhim tomoni shundaki, mutaxassislar ommaviy tusda tayyorlanganda tarbiyachilarning har bir talaba bilan yetarli darajada yakkamayakka muloqot qilishga vaqti yetmaydi. Muloqot tezkor savol-javob tarzida o'tsa, tabiatan bunday muloqot talabani ham tarbiyachini ham qanoatlantirmaydi. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish va baholash o'quv yili davomida har doim muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, u ba'zan o'tkaziladigan tasodifiy tekshirishlarni oldini oladi va tartibli doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib beradi.

UO'T Reyting tizimi to'g'risidagi Nizomda "O'quvchilar bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari va shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellectual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat" [2], deb ko'rsatiladi.

Reyting deganda – baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting yordamida psixologik ob'yektlarni, ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki klassifikatsiyalash amalga oshiriladi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtiradi. Ularning turli uslublari, tavsiflari qay bir miqdoriy o'zgaruvchilarga turlicha aylantirish uslublaridan iborat.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchi talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchi talabalarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

O'quvchilar bilimini tashxis etishning mohiyati. Ta'lim tashxisi mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida qabul qilamiz. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Ta'lim tashxisida oqibatlar, erishilgan natijalar va ta'lim olganlik farqlanadi. Shuningdek, ta'lim olganlikni tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirishda erishilgan daraja sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxisning maqsadi o'quv jarayonini uning samaradorligi bilan bog'liq holda aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat. Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tashxis ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini an'anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma'no kasb etadi. Ta'limni baholash yoki tekshirish faqat natijalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarini ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqadorlikda baholaydi, ta'lim samarasini ta'minlovchi jarayon va bosqichlarni aniq-laydi.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bosqich har bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim

alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi alohida olingan muayyan vaziyatni o'rganishdir. Bunday tekshirish shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materiali mazmuni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga muvofiq belgilanadi. Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bosqichi sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'zlashtirilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarning mustahkamlik darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Tashxisning boshqa shakl va metodlari bilan birga qo'llanilsagina ushbu tekshirish kutilgan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bosqichi – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bosqich ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir.

O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda mavjud bilim darajasi (sifati)ni tashxislashdir. Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholash (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida) ham oladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftar-

chalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100 foiz – axborotni to'liq o'zlashtirish va 0 foiz – uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi.

O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. Ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo'llari va vositalari, usullari bilan aloqa-dorlikda baholaydi, ta'lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi, tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo'lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg'in munozaralar davom etmoqda. Avval bo'lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko'rsatishi lozimligi: ta'lim oluvchi o'zlashtirishning qat'iy belgilovchisi – sifat ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta'lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko'rsatkichi bo'lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda. Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi

ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Har bir tarixiy davr turli jihatlari bilan ajralib turadi. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida ilm-fan va texnika sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan mutafakkir va allomalarning ijod mahsuli namunalari, ishlab chiqarishda qo'lga kiritilgan moddiy boyliklar kabi omillar tasnif uchun mezon sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ishlarini tubdan yaxshilash masalasi qo'yilgan. Jumladan, dasturda: "inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs maanfatlarini ro'yobga chiqarishning shart-sharoitlarini yaratish, tafakkur hamda ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, respublika amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika hamda texnologiyalarining yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir" – deb ta'kidlangan[28]. Innovatsion omil zamonaviy ta'lim tizimining bosh xususiyatlaridan biri sifatida qaralar ekan, pedagogikadagi yangiliklar pedagogik kadrlarning innovatsion faoliyatiga tayyorlik va muvofiqlik darajasi, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallaganligi, kundalik ta'lim tizimida yaratuvchanlik xususiyatlari, ta'limdagi sifat va samaradorlik darajasi bilan belgilanadi.

Binobarin, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash natijasida ro'y beradigan o'zgarishlar o'qituvchini

[28] O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 76 b.

yangi pedagogik malakalari manzarasini tasvirlaydi. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, Internet va boshqa resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish”, “Davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur o‘rganish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Tadqiqot ishimiz mobaynida umumta’lim maktablarida ingliz tili o‘qituvchilarining ish usuli va metodlari o‘rganildi. Buning natijasida ingliz tili fani o‘qituvchilari o‘quv jarayonida o‘quvchilar bilimini baholash va nazorat qilishda quyidagi kamchiliklar mavjudligini, jumladan, tilga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish natijasida o‘quv jarayonida o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar hamda nazorat qilish va baholashning sustligi; pedagogik faoliyat jarayonida o‘quvchilar bilimini nazorat qilishning nazariy asoslanmaganligini ko‘rsatdi. O‘quv shartlarining eng muhimi vazifalarida biri ta’lim sohasida bo‘ladigan islohotlar asosida bozor iqtisodiyoti tizimida faoliyat ko‘rsata oladigan, xususan jahon andozalariga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Mutaxassis tayyorlashda eng muhim bo‘lgan jarayonlardan biri o‘quvchilarni bilimini aniqlash va baholashdir. Shu bois, pedagogika fani bilimlarni o‘z vaqtida nazorat qilish va baholashning 3 vazifasi borligini alohida uqtiradi:

1. O‘zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab davlat ta’lim standartlarining qanday bajarilayotganligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi va galdagi vazifalar belgilanadi;

2. Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o‘quvchi va talabalarda bilimlar yanada kengayadi;

3. Ta’lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ularda ko‘tarinki ruh, o‘z kuchiga

bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. www.ziyouz.com kutubxonasi jahonning ilg'or tajribalari va ko'plab pedagoglar mehnatining natijasi o'laroq, reyting uslubi bugungi kunning eng maqbul nazorat mezoni deb qabul qilindi. Reyting deganda-baholash, tartibga keltirish, Proceedings of International klassifikatsiyalash, birorta hodisani oldindan belgilangan ko'rsatkich bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazoratida test usuli ham samarali qo'llaniladi. Test deganda aniq vazifaning takomillashganlik darajasini aniqlash hamda sifat va miqdoriy o'lchamlarda belgilash imkonini beradigan, faollikning biror shaklini paydo qiluvchi va biror aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi. Testning afzalligini quyidagicha belgilash mumkin:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- nazorat va amaliy bilimlar darajasini ob'yektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- ko'p sonli o'quvchilar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi va h.k. Reyting nazorat tizimining asosi sifatida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha o'quvchi o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlari baholar bilan ifodalanadi. Har bir chorakdagi fanlardan to'plangan baholar yig'indisi tarzida o'quvchining o'zlashtirishini baholash jarayoni chorak davomida muntazam olib boriladi va quyidagi nazorat turlari shaklida tashkil etiladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Joriy nazorat – bu o'rganiladigan mavzularning o'quvchi va talabalar tomonidan qanday o'zlashtirayotganini dars jarayonida muntazam ravishda nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, o'quvchining bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlab borishni ko'zda tutadi.

Oraliq nazorat – bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga oladi va shu qism bo'yicha o'quvchining bilimini www.ziyouz.com kutubxonasi aniqlashga xizmat qiladi. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va o'quvchilarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat – bu nazorat o'quv rejadagi fan uchun ajratilgan soatlar tugagach, butun o'tilgan mavzular bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun o'tkaziladi bu dastur mavzusi to'liq aks ettirilgan test sinovi yoki nazorat ishi shaklida o'tkaziladi, yuqorida qayd etilgan nazorat turlariga asoslangan reyting tizimini ishlab chiqish quyidagi talablarga rioya qilish lozim.

O'quvchining fan bo'yicha fan dasturidagi rayting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plangan ballari bo'yicha aniqlanadi. Mustaqil O'zbekiston bugungi kunga kelib jahonga o'z nomini tanitdi. Iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksaldi. Shu bilan birga, O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun bugungi kunda kelajak ruhiga mos bo'lgan Zamonaviy kadrlariga ham ehtiyoj sezila boshladi. Mustaqil davlat o'zining muhim tarixiy hujjatlariga ham ega bo'ldi va ular orasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" alohida o'rin tutadi.

Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilandiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim-tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi. Demak, yangi asr informatsion texnologiyalar asri bo'lishi bilan bir qatorda ularning o'quv jarayonlariga keng ko'lamda aralashuvini ham ta'minlaydi. Shu jumladan AQSh va Angliyada keng tarqalgan, uning mohiyati o'quvchiga uzluksiz bilim olish va olgan bilimi natijasini muttasil tekshirib turish imkoniyatini beradi, o'quvchilar bilimini nazorat qilish hamda baholashda reyting tizimiga o'tishdan maqsadi:

1. O‘zbekiston respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga asoslangan davlat siyosatini izchillik bilan amalga oshiradi.

2. O‘quvchining o‘zlashtirish darajasini aniqlashda haqqoniy, aniq va adolatli baholash.

3. Reyting tizimida har xil nazorat turlaridan keng foydalanish.

4. O‘quvchi to‘plagan ballari orqali ma’lum bir fan bo‘yicha imtihon sinovda oladigan bahosini oldindan bilib olish va to‘plagan bali o‘zini qoniqtirmasa ko‘rsatkichni yaxshilash uchun oldindan harakat qilishga undash

5. O‘quvchilarning o‘quv yili davomida o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha nazoratlarning qachon, qanday turi o‘tkazilishini bilishi va unga tayyorgarlik ko‘rib borishini psixologik jihatdan yo‘naltirib borish:

6. O‘quvchilarning mustaqil ishlash samaradorligini oshirish va hokazolardan iboratdir.

Ta’limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug‘ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta’kidlab o‘tgan edi. U pedagoglarni o‘zlari ega bo‘lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta’lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob’yektiv bo‘lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta’kidlashicha, demokratlashgan ta’lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo‘lmasligi lozim, Didaktik nazorat ta’limning o‘ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lishi o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta’lim oluvchining o‘zi uchun zarur va foydali bo‘lishi lozim. Ta’lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o‘qishga undashning murakkab shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O‘quvchilarning o‘quv mehnatini rag‘batlantirishning yangi usullarini izlash, ta’lim va tarbiya sohasida kuch to‘plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni

belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsning yetuklik darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'lim (shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – shaxsning jamiyatdagi mavqei ko'rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. STEAM – Science faniga izoh bering?
2. STEM shaxs rivojining ijodiy aspektining o'ziga xosligini izohlang.
3. Iqtidorli bola shaxsining o'ziga xosliklari nimalarda namoyon bo'ladi?
4. "Noosfera" modeli o'ziga xosligini izohlang.
5. TRIZ va ARIZ. Prezident maktablarining o'ziga xosligini izohlang.
6. Ijod maktablarini tushuntirib bering.

Nazorat uchun testlar:

1. O'rta o'smirlik Yoshi necha yosh?

A)*12 – 15 yosh;
B) 15 – 17 yosh;
C) 9 – 13 yosh;
D) 12 – 16 yosh.

2. Yomon baho olmaslik uchun maktabga boradigan o‘smirlar necha foizni tashkil qiladi?

A)*15 foiz;
B) 50 foiz;
C) 30 foiz;
D) 1 foiz.

3. Bog‘chagacha bo‘lgan yosh davri?

A)*1 – 3 yosh;
B) 2 – 7 yosh;
C) 2 – 5 yosh;
D) 3 – 6 yosh.

4. “Individ” so‘zi qaysi so‘zdan olingan?

A)*lotincha;
B) grekcha;
C) fransuz;
D) inglizcha.

5. “Akademiya” so‘zi kimning nomidan kelib chiqqan?

A)*akademia;
B) akadem;
C) akadesim;
D) akademik Karl.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. 76 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 76 b.

3. “Kompyuterlashtirishni rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” 2002-yil 31-maydagi PF-3080-sonli Farmoni.

4. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – Toshkent: 2002. – 148 b.

5. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.

6. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.To'xtaxo'djayeva va boshqalar. Prof. M.X.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

7. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. С. 34 – 38.

8. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

9. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынка труда. 2016. №3. С. 26.

10. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.

7-mavzu. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'yekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari.

Reja:

1. Tarbiya tushunchasi. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya turlari aktiv jamoa tushunchasi.
3. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari.
4. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.
5. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishi. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

Tayanch so'z va iboralar: Tarbiya metodlari, o'quvchilar jamoasi, Tarbiya jarayoni, Tarbiya qonuniyatlari, Tarbiya turlari, Aktiv jamoa, pedagogik rag'batlantirish, Xulq-atvor me'yorlari.

Tarbiya tushunchasi. Tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil e'tish masalalarini o'rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o'sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mustahkamlashadi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchi, tarbiya jarayonining manbayini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bu tarbiya jarayonidagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklardan iborat. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, muayyan qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat (o'qish, mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin, sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta'sir etish muhimdir. Aks holda xulq me'yorlari, axloq talablarini yaxshi tushunmay qolishi natijasida shaxs ijtimoiy munosabatlarda beqaror, tasodifiy ta'sirga beriluvchan bo'lib qolishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshirilib, uning tarkibiy qismlari ayni bir vaqtda, faoliyatning biror turi asosida namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy tarbiya orqali shakllanadi.

Shaxsni shakllantirish, boshqarish, nazorat xarakteriga ega bo'lib, bu borada belgilangan vazifalar tasodifiy harakatlar orqali emas, balki oldinda belgilangan va puxta o'ylangan rejalar asosida hal etib boriladi. Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakl va metodlari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi.

Chunonchi tarbiyaning o'ziga xos turlari:

axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi

bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish;

jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat to'rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigienani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

estetik tarbiyani olib borish jarayonida – o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

ekologik tarbiyani olib borish chog'ida – o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror

toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga nisbatan ta'lim muassasasining ta'sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta'til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor beriladi. Ana shu maqsadda bir qator tarbiyaviy ishlar olib boriladi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit holda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni va metodlarini birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs ma'naviy-axloqiy sifatlarni navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtira boradi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxsning xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit tarzda rivojlanadi. Bola o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi.

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil

O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarni tobora boyitish;

c) umuminsoniy axloq me’yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va h.k.), muomala odobi, yuksak madaniyatni o‘quvchilarda qaror toptirishga erishish;

d) huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish, o‘quvchilarda fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish:

e) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

f) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

g) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish;

h) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash. uning sha’ni, ornomusi qadr-qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o‘rgatish va boshqalar.

Tarbiya mazmunida oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarning mohiyatini aks ettiradi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishi,lik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi va g‘oyalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g‘oyalar yotadi:

1. Tarbiya maqsadining aniqligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, tarbiya maqsadi aniq belgilab olingan edi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalariga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita – bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya'ni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalash tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratish ko'zda tutiladi.

2. Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O'qituvchining bolalar bilan ma'naviy madaniyatining eng yaxshi namunasini izlashi, shu asosida tarbiyachi insonning hayotiy me'yor va qadriyatlarini ishlab chiqishi, o'quvchining tarbiya jarayonida faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari hamda ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta'sirga ega.

3. O'z-o'zini anglash. Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim jihatlaridan biri – bu insonning hayotida o'z-o'zini anglashi, inson o'z shaxsiy hayoti va baxtining sub'yekti sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotda fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash g'oyalariga tayanib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

4. Tarbiyaning yo'naltiruvchanligi. Mazkur g'oya maktab (ta'lim muassasalari) amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos tavsifi o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ularini rivojlantirib borishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi va o'quvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o'qituvchi) o'quvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglashi, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'rib va anglay olsagina uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatda samaraga erishadi.

6. Jamoat yo'nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, unda dunyoni anglash va uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg'ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olish lozimligini uqtirishning o'zi ham samara beradi. Zamonaviy tarbiya mazmuni, g'oyalari yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Zamonaviy tarbiya mazmuni va g'oyalari. Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini aniqlab olishi muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'yektiv va ob'yektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Sub'yektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglashga yordam bersa, ob'yektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli ob'yektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarili-

shida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyatining uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez suratda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati o'zining uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni – bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtirila boriladi. shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik tavsifiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishni talab etadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Demak, yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni bo'lib, har

qanday ijtimoiy tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosiy bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish ko'zlangan maqsad va vazifalarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya turlari aktiv jamoa tushunchasi. Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ikki tomonlamalilik;

Tarbiya qonuniyatlari bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning ob'yektiv va sub'yektiv omillariga bog'liqligi;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;

- faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbayi;

- tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;

- tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi;

- tarbiyalanuvchining "ichki olami"ga ta'sir etishning intensivligi;

- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari deb yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisiga aytiladi.

Tarbiya tamoiyllari o'qituvchi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

· Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;

· Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;

· Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;

· Tarbiyada izchillik va tizimlilik;

· Tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;

· Tarbiyani mehnat bilan bog'lash;

· Tarbiyalanuvchi shaxsni hurmat qilish;

· Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;

· Jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;

· Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish.

O'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi hodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ruyobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi – tarbiyachi tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish har bir bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu – tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlaridan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya ob'yekti emas, balki o'zi kabi sub'yekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchi teng huquqli hamkor, hamfikr deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

Xalqning ko‘p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an’analari, urf odatlari, marosimlari, xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘yinlar va ularda ifodalangan g‘oyalarni o‘quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g‘oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo‘lgan, insoniyat o‘tmishi, buguni hamda kelajagi uchun dahldor qadr-qimmatga ega bo‘lgan an’anlar, urf-odatlar haqida ma’lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ularni qo‘llab-quvvatlash, ezgu g‘oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo‘naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O‘quvchilarga birdaniga ko‘p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O‘qituvchilar o‘quvchilarga bo‘lgan munosabat jarayonida o‘zaro bir-biriga zid harakatda bo‘lmasliklari, yagona talab qo‘yishlari lozim.

Mehnatning tarbiyaviy ta’siri g‘oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o‘z qobiliyati va iste’dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O‘quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o‘quvchi shaxsiga ijobiy ta’sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta’minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma’naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor

beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdaki o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishining turli davrlarini bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchi xususiyatini o'rganish maqsadga muvoffiqdir.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi.

Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyush-

ganlargina tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish ma'suliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Maktab jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir. O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z-o'zini boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim

muassasalarida jamoani shakllantirish ma'suliyatli vazifa sanaladi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir. O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z-o'zini boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

O'quvchilarni talablar bilan tanishtirish ko'pincha umumiy majlislarda amalga oshiriladi, bunda ta'lim muassasasining direktori yoki o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari istiqbol rejalari va ularni amalga oshirish jarayonidagi talablar mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Batafsil tanishtirish ayrim hollarda amalda ko'rsatish, keyinroq sinflar bo'yicha sinf majlislari yoki maxsus suhbatlarni uyushtirish asosida amalga oshiriladi. Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish. O'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashlari mumkin, biroq aksariyat hollarda ularga rioya qilmaydilar. Shu bois muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi. Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli

shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois o'qituvchi faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishi bu o'qituvchilar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o'quvchilarning faol ishtirok etishidir. O'z-ozini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar (masalan,o'quv komissiyasi yoki tozalik komissiyasi) faoliyati muhim o'rin

tutadi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim o'rin tutadi. Jamoa an'analari jamoa a'zolari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odatlar bo'lib, ularning mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi. Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi: a) kundalik faoliyat an'analari; b) bayram an'analari. Kundalik faoliyat an'analari o'quvchilarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam turlari), va mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog'liq sanalar (xususan, "Alifbe bayrami", "Mustaqillik bayrami", "Navro'z bayrami", "Xotira va qadrlash kuni" va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etilgan faoliyat kiradi. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsalargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

O'quvchilar jamoasining rivojlanish jarayonini quyidagi uch bosqichga bo'linadi:

a) jamoani dastlabki jipslashtirish;

b) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

c) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jamoa hayotida muhim o'rin tutuvchi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi. A.S.Makarenko jamoa a'zolari o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlarining ichki xususiyatlariga katta ahamiyat bergan edi. Pedagog jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

1) major – doimiy tetiklik, o'quvchilarning faoliyat (harakat)ga tayyorliklari;

2) o'z jamoasining qadriyatlari mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qimmatini anglash;

3) jamoa a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

4) jamoaning har bir a'zosida qaror topgan do'stona birlik;

5) tarbiyali, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;

6) hissiyotni boshqara olish hamda muloqot odobiga amal qilish ko'nikmasi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab o'quvchilarning dars jarayonidagi, tanaffus, sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek, jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalarni o'z ichiga oladi. Puxta o'ylab qo'yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o'rnatilishini ta'minlaydi. O'qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o'quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.

2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.

3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim.

4. O'quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O'quvchi qo'yilayotgan talablar hajmi va tizimini bilibgina qolmasdan, talab qo'yish metodikasini ham o'zlashtira olgan bo'lishi kerak. O'quvchilar jamoasiga nisbatan talablarni qo'yish metodikasi bolalarni talablar mazmuni bilan tanishtirish, talablarning ahamiyatini tushuntirish, tajriba orttirish hamda o'quvchilar faoliyat, shuningdek, qo'yilayotgan talablarning bajarilish holatini muntazam suratda nazorat qilib turishdan iborat.

Jamoa bilan tarbiya, milliy qadriyatlarni o'quvchi ongiga singdirish pedagog uchun anchagina oson va qiyin chunki jamoadagi bolalarning fikrlash va qabul qilish darajasi har-xil,

shuning uchun ham pedagog inson ularning har qanday toifasi qabul qila oladigan yo'sinda tarbiyani shakllantirishi kerak va doimo ushbu tamoyillar asosida tarbiya berish kerak:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan tarbiyaviy suhbat, davra suhbati, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali tadbir kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o'quvchilarda madaniyatni qaror topishini ta'minlaydi. O'quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan sub'yektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, internet) materiallari va ularning g'oyalari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

V.S.Selivanovaning fikricha, tarbiyalanuvchilarning faoliyat turlari (o'qish, mehnat, o'yin, muloqot) bu tarbiyaning

fundamental vositalaridir. Pedagogika va psixologiya inson o'z malakalarini, xulq-atvor modelini, qadriyatlari, hissiyotini odamlar bilan muloqot qilish jarayonida shakllantiriladi va rivojlantiradi deb ta'kidlaydi. Shuning uchun pedagog, sinf rahbari tarbiya maqsadiga erishish uchun tarbiyalanuvchlarni turli faoliyatlarini tashkil etishni bilishi kerak.

Har qanday maktabda bolalarni darsdan tashqari faoliyatlarini tashkil etish o'qituvchining asosiy ish sohasi hisoblanadi. Maktablarimizda sinfdan tashqari faoliyatning quyidagi turlari: bilish, qadriyatga yo'naltirilgan, ijtimoiy, estetik, dam olish, texnik, sport, sog'lomlashtirish faoliyatlari tashkil etiladi. Bilish faoliyati o'quvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish, bilishlarni to'plash, aqliy qobiliyatni shakllantirish aqliy tarbiyalash maqsadida ekskursiya, olimpiada, konkurs, ilmiy konferensiya shakllarida tashkil etiladi.

O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarida turlicha o'tkaziladi. O'quvchilar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsalargina uning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. An'analarning yuzaga kelishida o'quvchilarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega.

Maktab rahbariyati va o'qituvchilar o'quvchilar jamoasiga muayyan sanalarga bag'ishlab haddan ziyod ortiqcha tadbirni uyushtirish talabini qo'ymasligi zarur. Tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchilar jamoasi yoki o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonda o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda ish olib borish, ularni an'analarni davom ettirishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratishlari pedagogik jihatdan ijobiy natijalarni beradi. Jamoa va uning shaxsni shakllanishidagi o'rni va roli muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishini ta'minlaydi: yigirma bitta

o‘quvchilar jamoasi ijtimoiy-foydali ahamiyat kasb etuvchi umumiy maqsad va birgalikdagi faoliyatga asosan jipslashgan o‘quvchilar birlashmasi, guruhidir.

O‘quvchilar jamoasi (shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari jamoasi)ga rasmiy saylangan (tayinlangan) o‘quvchi hamda o‘qituvchilar yo‘lboshchilik qiladi. Ular sirasiga guruh rahbari, guruh faollari (xususan, guruh yetakchisi, “Yoshlar ittifoqi” tashkilotining guruh sardorlari, tozalik komissiyasi raisi, devoriy gazeta muharriri va boshqalar). Bolalar jamoalarida rasmiy yetakchilar bilan birga norasmiy yo‘lboshchilarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Odatda rasmiy yo‘lboshchilar tarkibini a’lo baholarga o‘qiydigan, jamoa ishlarida faol ishtirok etuvchi o‘quvchilar tashkil etsa, norasmiy liderlar garchi bu kabi sifatlarni namoyon etmasalarda, ayrim sifatlariga ko‘ra tengdoshlarini o‘z ortlaridan ergashtira oladilar. Bunday o‘quvchilar boshqalardan jismonan kuchliligi, qat’iyatliligi, hech narsadan cho‘chimasligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi bilan ajralib turadilar. Norasmiy liderlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi boshqa o‘quvchilarga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois sinf rahbari hamda maktab pedagogik jamoasi bunday liderlarning faoliyatini bevosita va bilvosita nazorat qilib borishlari zarur.

O‘quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik, yuqorida qayd etilganidek, aksariyat holatlarda sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a’zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur. Sinf rahbarining jamoa an’ana (qadriyat)lar ni qabul qiladi Jamoa an’ana lari va qadriyat lariga amal qilinishi to‘laqonli birlikning qaror topishi shaxs jamoaga ixtiyoriy (konfor mizm) ravishda bo‘ysunadi. Shaxs jamoani o‘ziga bo‘ysundi radi (konformizm) Jamoa faoliyatini tashkil etishdagi rollari. Jamoa an’analari (qadriyatlari) shaxs tomonidan majburan qabul qilinadi, unga nisbatan norozilik kelib chiqishi mumkin Ikki yoqlama

qadriyatlar tizimining qaror topishi norasmiy liderlik shaxs va jamoa shaxs jamoaga bo'ysunadi munosabatlarning muvofiqligi shaxs jamoani o'ziga bo'ysundiradi shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanish andozasi yigirma ikkita norasmiy liderlar va ularning shaxsi haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega bo'lishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Jamoa bir necha a'zo (kishi)lardan tashkil topgan muayyan guruh bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad asosida birlashadi hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi.

2. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi.

3. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, u ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlariga ko'ra to'rt bosqichdan iborat bo'ladi.

4. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi, jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

5. Jamoaning mustahkam bo'lishi, uning a'zolari o'rtasida o'zaro yordam hamda hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

Talablarning qo'yilishi jarayonida ularga o'quvchilarning amal qilishi ustidan nazorat o'rnatish lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi, chunonchi, xulq-atvor jurnalini yuritish, sinfdagi navbatchilik uchun stendda baholarni qayd etib borish va boshqalar. Qo'yilayotgan talablarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan nazorat muntazam ravishda, izchil olib borilishi va haqqoniy bo'lishi zarur. Olib borilgan nazorat natijalaridan o'quvchilarni ogoh etib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jamoani uyushtirish va

jipslashtirish unda faol (aktiv)ni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faolini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan jamoa faolini yaratish uchun o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o'quvchining ijtimoiy faoliyatni tashkil etish layoqatini aniqlash zarur. Jamoa faolini shakllantirishda o'quvchilarning jamoadagi obro'sini ham inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, o'qituvchi ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi jamoa faoli bilan maslahatlashish asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etadi. Jamoa faolining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifani yuklash, ularning ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish maqsadga muvofiq. O'qituvchi aynan faolga oshirilgan talab qo'yadi. O'quvchilar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish ma'suliyatli vazifa sanaladi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi.

O'quvchilar jamoasi – bu ijtimoiy ahvoli shuningdek, umumiy saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir. O'quvchilar jamoasi unga rahbarlikni olib boruvchi o'qituvchilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi bo'lib, o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z-o'zini boshqarish huquqi, shuningdek, o'ziga xos psixologik muhit va an'analariga ega bo'ladi.

Jamoa va uni shakllantirish metodikasini bilish o'qituvchiik faoliyatining asosiy mazmuni sanaladi. Muhim tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan sub'yektlarning alohida namuna ko'rsatishlari jamoani shakllantirishning muhim vositasi bo'lib, ushbu vosita yordamida jamoaning barcha yoki muayyan a'zosini tarbiyalash ijobiy samaralar beradi.

Jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifa shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni tarbiyalash hamda mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi jamoa a'zolarining jamoa tomonidan hal etilishi ko'zda tutilgan yetakchi tarbiyaviy vazifalar bajarilish sifati orqali aniqlanadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o'qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi. Maktab jamoasi ikki muhim bo'g'in – o'qituvchilar jamoasi hamda o'quvchilar jamoasi asosida tarkib topadi. O'quv yurtlari jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlari tasnifi Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishi. Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to'ldiradi, nimaga yo'naltirilgan, qanday Shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha "metodos" – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo'yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o'zining tarbiyalanuvchilari bilan yo'l ochadigan o'rganilmagan so'qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo'llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to'g'ri qo'llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda tarbiya vositalari tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda,

usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqqoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi Shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

Zamonaviy pedagogikada ba'zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilari faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi (N.I.Boldbirev, N.K.Goncharov, F.F.Korolev va boshqalar). Mazkur holatda metodning Umumiy xarakterli belgisi uo'zida yo'nalganlikni, o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki gurnhga bo'lish mumkin:

- Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.

- Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Hozirgi vaqtda o'zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko'proq ob'yektiv va

qulay metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi:

- Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar;
- Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish metodlari;
- Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari.

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan qo'llanib kelinayotgan tarbiya metodlari va ularning xususiyatlari. Tarbiya metodlarining tarbiya maqsadi, prinsiplari, mazmuni va tarbiya shart-sharoitlariga bog'liq ekanligi. Tarbiyada o'quvchilarning yoshi va alohida xususiyatlari, o'quvchilar rivojlanish darajasining hisobga olinishi.

Tarbiya metodlarini turkumlash muammosi va unga yondashish. Tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash shart-sharoitlari.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar: hikoya, suhbat, tushuntirish, pand-nasihat qilish, buyruq, ibrat-namuna, bahs, munozara.

O'quvchilarni faoliyatga undovchi metodlar: o'rgatish, mashq qilish, topshiriqlar berish, pedagogik talab, o'yin, musobaqa.

O'quvchilarni ijobiy xatti-harakatga undovchi metodlar: rag'batlantirish va uning turlari; jazolash va uning turlari, qo'llanilishiga nisbatan qo'yiladigan talablar.

Shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash metodlari: shaxsiy majburiyatlar olish, o'z-o'ziga hisob berish, o'zi-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash. Tarbiya metodlaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar. Tarbiya metodlaridan foydalanishda o'qituvchining mahorati.

Shaxsni bolalar jamoasida shakllantirish-barkamol shaxs tarbiyasining tarkibiy qismi. Bolalar jamoasi, ularning tuzilishi va belgilari. Bolalar jamoasini shakllantirish yo'llari va vositalari. Jamoada bir maqsadga qaratilganlik, uyushqoqlik va

ijtimoiy fikr uyg'otish uchun shart-sharoit yaratish. Jamoada barobar ta'sir ko'rsatish tizimi. Jamoa ishini tashkil etishda "Kuch-birlikda" kabi hikmatlarga amal qilish. Bir maqsadga qaratilgan faoliyat-o'qish, o'yin, sport, mehnat, badiiy havaskorlik va boshqalarni tashkil etish.

Jamoadagi kelajakka umid bog'lash tizimi va an'analari. Faollar va ularning jamoa a'zolari bilan munosabati. Jamoada o'zaro axloqiy munosabatlarni shakllantirishda o'qituvchi, tarbiyachining tutgan o'rni.

Dunyoqarash haqida tushuncha. O'quvchilarda tabiat va jamiyat hodisalariga ilmiy qarash va ishonchni shakllantirish. Bu qarash va ishonchning o'quvchilar xatti-harakatlariga mos kelishi. O'quv fanlarini o'qitish va ijtimoiy foydali ishlarni uyushtirish orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish ishlarining mazmuni, dunyoqarash shakllari va ularni tarkib toptirish metodlari.

Barkamol shaxs tarbiyasida ijtimoiy-siyosiy tarbiya tizimi. Ijtimoiy-siyosiy tarbiya berish yo'llari. Siyosiy axborot. Siyosiy axborot berishda o'quv jarayonining o'rni. Sinfdan tashqari olib boriladigan siyosiy ta'lim shakllari va metodlari. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi asosiy vosita ekanligi. O'quvchilarni tashkilotchilik malakalari bilan qurollantirish. O'quvchilarda ijtimoiy-siyosiy faollikni o'stirish. Barkamol shaxs tarbiyasida axloqiy tarbiyaning tutgan o'rni va mohiyati. Axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslari. Axloqiy tushuncha: savob, gunoh, uvol. Axloq tarbiyasi, uning mazmuni, shakllari va metodlari. Axloq tarbiyasi mazmuni: vatanparvarlik, millatlararo hamkorlik, insonparvarlik, jamoatchilik, intizomlilik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantirish.

Vatanparvarlik: vatanni sevish, uning boyliklari, qadriyatlari bilan faxrlanish tuyg'usini tarkib toptirish, unga munosib farzand bo'lish hissini tarbiyalash. Milliy g'urur, vatanparvarlik, birodarlik, qon-qarindoshlik udumlari.

Insonparvarlik tarbiyasi: bolalarda shaxsga nisbatan ochiq ko'ngillilik, mehribonlik, g'amxo'rlik, diqqat-e'tiborlilik, yaxshi munosabat va muomalada bo'lish, o'rtoqlik va do'stlik kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalash.

Millatlararo hamkorlik: barcha millat kishilari bilan tinch-totuv yashash, boshqa xalqlarning urf-odatlari va an'analariga hurmat bilan qarashni shakllantirish.

Jamoatchilik: jamoani hurmat qilish, jamoa tarkibida o'z o'rniga ega bo'lish, jamoa bo'lib yashash va mehnat qilishga o'rgatish.

Ongli intizom va intizomlilikni tarbiyalash yo'llari va shart-sharoitlari:

- Oilada va maktabda bola hayotini uyushtirish, tushuntirish, buyruq va talab; O'quvchilar yurish-turishlari, intizomlilik, madaniyatlilik;
- Ongli intizom tarbiyasida "O'quvchilar uchun qoidalar"ning tutgan o'rni va u bilan ishlash;
- O'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish;
- Ma'naviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari: o'quvchilarda o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari asosi hisoblangan hadislar, hikmatlar, maqollar, rivoyat va hikoyatlardan tarbiyaviy ishlar jarayonida vosita sifatida foydalanish;
- Ma'naviy tarbiyada o'qituvchining tutgan o'rni.

Tarbiya o'qituvchining o'quvchilarga, jamoa faoliyatiga va tarbiya tizimini vujudga keltirishga qaratilgan aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir vositasidir.

Barkamol shaxs tarbiyasi prinsiplari: Tarbiya maqsadiga intilish va g'oyaviy yo'nalish; tarbiyaning hayot bilan bog'lanishi; mehnatda va faollikda tarbiyalash; shaxsni jamoada tarbiyalash; shaxsga nisbatan talab va hurmatning birligi; tarbiya imkoniyatlarining muntazamliligi, uzluksizligi, ketma-ketligi; tarbiyalanuvchilar tashabbuslarini o'stirish bilan pedagogik rahbarlikning o'zaro bog'liqligi. Tarbiyada pedagog obro'si o'quvchilarning yoshi va alohida xususiyatlarini hisobga olish.

Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya jarayonida tarbiya metodlarining tutgan o'rni va vazifalari. Metod, usul va tarbiya vositalari.

Barkamol avlodni tarbiyalashda estetik tarbiyaning tutgan o'rni. O'quvchilarni tabiat va san'at go'zalligini his qilish va idrok qilishga o'rgatish. Estetik tarbiyaning vazifalari. Estetik tarbiyaning vositalari: tabiat go'zalligi va san'at turlari. O'zbekiston hukumatining kishilarni ma'naviy va estetik jihatdan tarbiyalash vositasi bo'lgan milliy yodgorliklarni, madaniy merosimizni saqlash va rivojlantirish haqidagi g'amxo'rligi.

Darsda va sinfdan tashqari ishlar orqali o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash. O'quvchilarning ijodiy qobiliyat va iste'dodlarini o'stirish.

Barkamol shaxs tarbiyasida mehnat tarbiyasining tutgan o'rni. Mehnatning hayotiy zaruriyat ekanligi. Mehnat inson moddiy va ma'naviy hayotining asosi ekanligi. Mehnat va mehnatsevarlik haqida xalq pedagogikasi va buyuk allomalarning ta'limotlari. Mehnat tarbiyasining vazifalari. Bolalarni mehnatga psixologik va pedagogik jihatdan tarbiyalash, mehnatda faoliyat ko'rsatishga ijtimoiy qiziqishlarini shakllantirish. Kishilar mehnatiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash.

Maktabda mehnat tarbiyasi mazmuni, tizimi va asosiy tarmoqlari. Oilada bola mehnati va uni tashkil etishga qo'yiladigan talablar. Bolalar mehnatini tashkil etish metodlari. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari: kasbga oid axborot, yo'riqnomalar berish, kasb tanlashga o'rgatish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar orqali mehnat tarbiyasi berish.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni, vazifalari va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy tarbiya va sport ishlarining ommaviyligini oshirish haqidagi qaror va ko'rsatmalari. Jismoniy tarbiya berish omillari: yer, suv, havo, quyosh.

O'quvchilar jismoniy tarbiyasi tizimi. Jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish: tayyorlov qismi, asosiy qismi va

yakunlovchi qism. Bolalar jismoniy sog'ligini mustahkamlash, tanalarini chiniqtirish, jismoniy mashqlar va sport bilan shug'ullanish ehtiyojini oshirish hamda shakllantirish, sanitariya-gigiena madaniyatini tarbiyalash-o'quvchilar jismoniy tarbiyasining asosiy vositalari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. "Individ", "shaxs", "individuallik" tushunchalarini sharhlang.
2. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.
3. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida nimalarni bilasiz?
4. Shaxs faoliyati haqida so'zlab bering.
5. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini tavsiflang.
6. Shaxsning ijtimoiylashuvini qanday tushunasiz?

Nazorat uchun testlar:

1. Shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega individual xususiyatlariga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang:

A) shaxs rivojlanishidagi umumiylik;
B) shaxs rivojlanishidagi o'ziga xoslik;
C) tarbiya jarayonini amalga oshirish;
D) o'quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlariga asoslanish;
E) barcha javoblar to'g'ri.

2. Nima uchun V – VII sinf ba'zi o'quvchilarining o'zlashtirishi va intizomi susayadi?

A) sinf rahbari va o'qituvchilar ularga boshlang'ich sinfdagiga qaraganda kam e'tibor beradi;

B) o‘quvchilar o‘qishning yangi talablari va sharoitiga o‘rganmagan yoki tayyor emaslar;
C) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari rivojlanishida, V sinfda o‘qish uchun zarur bo‘lgan masalalarga e’tibor berilmagan;
D) mazkur davrda o‘quvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bog‘liq;
E) barcha javoblar to‘g‘ri.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”. – 2017. – 102 b.

3. “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

4. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

5. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga

bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi 2018-yil 8-dekabr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-sonli Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga Sharh // http://uzlidep.uz/positionparty/82

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli Qarori.

14. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции

непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

15. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынка труда. 2016. №3. С. 26.

16. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/book201.pdf.

8-mavzu. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya. Fuqorolik tarbiyasi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya. O‘quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi.

Reja:

1. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g‘oyani shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari.
2. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.
3. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari.
4. Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi.
5. Fuqarolik tarbiyasi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari.

Tayanch so‘z va iboralar: Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash, milliy g‘oya, o‘quv-tarbiya, tarkibiy qism, ekologik tarbiya, mehnat tarbiyasi, aqliy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi.

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g‘oyani shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o‘rni, mohiyati, hayotiy yo‘nalishini, o‘zligini anglash kabi savollarga javob beradi.

Shuningdek, dunyoqarash "dunyoni tushuntirish", "dunyoni his qilish", "ifodani idrok qiliish" kabi tushunchalar bilan yaqin ma'nodosh ekanligini aytish joiz. Dunyoqarash tushunchasi mafkura tushunchasi bilan aloqador. Mafkura bizning nazarimizda mehnatsevarlikka, milliy ong, milliy g'oya, milliy g'ururni tarbiyalashga, o'zini o'zi anglashga, millatimiz bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'liga qanday yondashishimizni bilishga, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, rasm-rusmlarimizni qayta tiklashga va yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bizning milliy istiqlol mafkuramiz davlat mustaqilligini mustahkamlashda, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda aniq maqsad va yo'nalishlarga tayanadi. Uning yordamida xalqimiz inson huquqini himoya qiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptiradi, kelajagi buyuk davlat qurish yo'lida o'zida kuch topadi. Eng muhimi istiqlol mafkuramiz, milliy g'oyamiz insonni halol va pok hayot kechirish, beva-bechoralar, qarovsiz qolgan bolalarga nisbatan diqqat va e'tiborda bo'lish.

Kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga asoslanadi.

Dunyoqarash insoniyatni o'tmish merosi, hozirgi hayot va bundagi sharoitlar, tizimlarning anglab olinganligi, qadriyatdir. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig'indisidir. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'yektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod

dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi.

O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarashshaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Aqliy rivojlanishning nima ekanligini aniqlash uchun "fikrlash" va "aql kuchi" tushunchalariga to'xtalish lozim bo'ladi. Amaliy tajribamimizda fikr so'zini juda ko'p uchratamiz.

Oddiy qilib aytganda, ob'yektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta'sir etishi natijasida hosil bo'lgan tuyg'u fikr deb ataladi. Uning tub mohiyati shundaki, fikrimiz orqali biz ko'zimiz bevosita ilg'amayotgan, ko'z o'ngimizda bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham o'sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo'lgan "sirli" jihatalarini ko'rish imkoniga ega bo'lamiz. Fikrlash esa,shaxs bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettrish bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, u aqliy faoliyat mahsuli. Eng qizig'i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha inshonlarga

xos. Falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko'rsatiladi:

- mantiqiy;
- abstrakt (mavhum);
- umumlashgan;
- nazariy;
- texnik;
- reproduktiv;
- ijodiy (produktiv);
- tizimli;
- kategorial;
- induktiv;
- deduktiv;
- algoritmik;
- tanqidiy;
- mustaqil va boshqalar.

Bilimlarga mantiqiy ishlov berish usullarini egallash, ya'ni oldin o'rganilgan va yangi bilimlar orasida umumlashgan aloqadorlikni o'rnatish; Tushunchalarga tavsif bera olish; Muhokama, isbotlash, rad etish, xulosa chiqarish, faraz, bashorat qilish usullarini egallash bilan xarakterlanadi. Umumlashgan fikrlash hodisalarni muayyan guruhlarida ko'p uchraydigan harakat usullari yoki umumiy tamoyillarni topa olish bilan xarakterlanadi. Nazariy fikrlash, yuqori darajada umumlashgan bilimlarni egallashga layoqatlilik, u yoki bu sohadagi bilimlarning rivojlanish tamoyillari va ilmiy asoslarini tushunish bilan xarakterlanadi.

Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari. Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim olganlik o'z aksini topadi. Ta'lim olganlik – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi. Aqlning teranligi inson yangi materialni egallashda

mavhumlashtira olishi mumkin bo'lgan belgilarning muhimligi bosqichi va ularni umumlashganligi darajasida namoyon bo'ladi. Aqlning sustligi qarama-qarshilikda bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka, moyillikda, bir harakatdar tizimidan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikda namoyon bo'ladi. Fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o'zgaruvchanlikni talab etadi.

Aqlning barqarorligi insonga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rinadi. Fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so'zda ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati. Aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo'llarini faol izlashda namoyon bo'ladi. Fikrning tejamkorligi – kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari aqliy tarbiya ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uning asosiy vazifasi – ta'lim oluvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni o'zlashtirish natijasida dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda o'z bilimlarini to'ldirish, umumta'limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ta'lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Agar inson odamlar orasida ijtimoiy muhitda yashar ekan, uning aqliy taraqqiyoti, intellekti haqida gapirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa uning jismoniy taraqqiyoti uchun ham muhim. Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta’sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi va fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Aqliy tarbiya o‘quvchining har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to‘plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko‘nikmalar, ya’ni har qanday fanni o‘rganishda qo‘llaniladigan umumiy o‘quv ko‘nikmalari o‘qish, tinglash, o‘z fikrini og‘zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalarini shuningdek biror fanni egallash bo‘yicha zarur bo‘lgan maxsus ko‘nikmalar (chizma, xaritalarni o‘qiy bilish, ularning natijalarini chiqara olish)ni egallashdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ya’ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham Aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Bunda bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o‘rab turgan barcha narsalar bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Aqliy tarbiya ta’lim, o‘yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda ro‘y beradi.

O‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo‘llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e’tiqodga aylanadi.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o‘rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini

anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy urf odatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: "Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi". Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: "Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqbolli bo'lib, turli fikr va xotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi".

Texnik fikrlash texnika bilan ishlashga insonning psixologik tayyorgarligini, ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy tamoyillari va ilmiy asoslarini tushunishni talab etadi. Reproduktiv fikrlash ma'lum turdagi vazifalarni hal etish yoki aniq Sharoitlardagi harakatlarni bajarish uchun zlashtirilgan bilimlarni faollashtirish bilan bog'liq. Ijodiy fikrlash oldin unga tanish bo'lmagan yangi vazifalarni insonning mustaqil hal etishi.

Tizimli fikrlash insonning fanlarning o'zaro bog'liqligini ko'ra olishi, umumiy, jamiyat va tabiat rivojlanish qonuniyatlarini bilishi asosida yuzaga keladi.

Kategorial fikrlash – tushunchalarni bir sinf va guruhlash asosida paydo bo'ladi. Masalan, "it-ot-mushuk", ularning qatorida yo'lbarsni qo'yish mumkin emas, chunki bu yerda faqat uy hayvonlari birlashtirilyapti. Induktiv fikrlash – xususiy fikrdan umumiy fikrni paydo bo'lishi orqali yuzaga chiqadi. Faktlardan umumlashma hosil bo'ladi. Deduktiv fikrlash – umumiy fikrdan xususiy fikrlash asosida kelib chiqadi. Masalan, qoidadan misollarni keltirib chiqarish. Algoritmli fikrlash – aniq tushunchalar asosida hukm tarzida xulosa chiqarish. Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayonidir. Mustaqil fikrlash – bu insonning muammoni, uni hal qilish yo'llarini o'zi ko'ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliyatidir.

XX asrning so'ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik yondashuv va tamoyillarni amalga oshirish ko'plab ta'riflanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, "aqliy rivojlanish" tushunchasi keng qo'llaniladi, lekin qanday belgilariga ko'ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga bir mazmunli javob berilmaydi. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta'lim asosiy, hal qiluvchilik rolini o'ynashini e'tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi. O'z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta'siri ostida ijtimoiy tajribani o'zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o'zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo'ladi. Olimlar orasidagi ba'zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi.

Masalan, A.N.Leontev bilimlar bilan aqliy rivojlanish, xuddi Shunday rivojlanish o'rtasida aniq teng ishorasini qo'yadi. Uning fikricha, insoniyat tajribasini "o'zlashtirish" butunlay bola yashayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy Sharoitlarda qo'lga kiritilganligi bilan xarakterlanadi. Boshqa olimlar (E.N.Kabanov-Meller, V.A.Krutetskiy) bilimlarni ahamiyatini pasaytirmaydi, biroq uni mutlaqlashtirmaydi ham. Ular bilim aqliy rivojlanish sharti sifatida aks etadi, lekin uning tuzilishiga kirmaydi, deb hisoblashadi. Bu mualliflarning fikricha, aqliy rivojlanish faqatgina bilimni o'zinigina emas, insonning mazkur bilimni yangi sharoitlarda qo'lga kiritish, qo'llay olish, uzatish imkoniyatidan kelib chiqadi. Z.I.Kalmikov quyidagi ta'rifni taklif etadi: aqliy rivojlanish – inson psixikasining individual o'ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog'liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining murakkab dinamik tizimi.

Insoniyat tajribasini qanchalik o'zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; "Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilm-u hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir" deydi.

Shuningdek, hadisi sharifda "Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir" deydilar.

Alisher Navoiy o'zining "Farhod va Shirin" dostonidan Farhodning aql-u idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Jismoniy tarbiya – deyarli butun tarbiya tizimining ajralmas tarkibiy qismi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, korxonalarda yuqori unum bilan ishlashga qodir, har qanday qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammalashtirish;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarning gigiyenik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-axloqiy sifatlar (dadillik, qat'iyatlik, intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;
- o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

Axloq-ijtimoiy ong shakllarida bo'lib, insonlarning o'zi, do'st-birodarlari, jamoa a'zolari va tabiatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi xulq-odob qonun-qoidalarining majmuidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiya deb nomlanadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlari, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir". Amir Temur axloqi xusniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham shoshma shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan. Imom Ismoil al-Buxoriy "Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to'rt xislatni Olloh Taolo senga

bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir", degan edi. Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir. Xuddi shu ma'noda axloh kishining xulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbayi, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi. Xalqimizning "Mehnat – mehnatning tagi rohat", "Bugungi ishni ertaga qoldirma", "Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar", "Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi", "Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq", "Odamning husni mehnat" kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Naqshbandning "Dil ba yoru, dast ba kor" degan hikmati bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Allomaning fikricha, "Agar kishi hunarli bo'lsa, u bilimini haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo'lmasa, bilimini kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi". Ta'kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda

do‘stlik, birodarlik, jamoa bo‘lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o‘zining va o‘zgalarning qadrini biladi.

Ota-bobolarimiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o‘rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e’tibor berishgan. O‘zlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna bo‘lganlar. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Krimov ta’kidalaganidek: “Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo‘yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o‘rtaga qo‘yilgan maqsadlarga erishish o‘zlariga bog‘lik ekanligini, ya’ni, bu narsa ularning sobitqadam, g‘ayrat-shijoatiga, to‘la-to‘kis fidokorliliga va cheksiz mehnatsevarligiga bog‘lik ekanligini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir”.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o‘z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, maktab o‘quvchilarida mehnatga va mehnat ahliga to‘g‘ri munosabatni shakllantirishdagi mas’uliyatni chuqur his qilish kerak.

Ijtimiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya jarayoni o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo‘naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan samarali hamkorlik demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub’yektiv

va ob'yektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Sub'yektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'yektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda ob'yektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab yetakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini

oilada, ko‘chada, jamoat orasida o‘tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta’til davrlarida o‘quvchilar maktab, o‘qituvchi ta’siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo‘lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o‘qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta’siri va nazoratidan uzoqlashadilar.

O‘quvchilarga nisbatan maktab (ta’lim muassasasi)ning ta’sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta’til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e’tibor beriladi.

Ayni vaqtda, respublikada o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo‘shimcha ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Qo‘shimcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o‘rganishlari, texnika va badiiy yo‘nalishlar bo‘yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari mumkin. qo‘shimcha ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo‘nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko‘rgazma, ko‘rik va suhbatlar o‘quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g‘oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma’lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o‘zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta’sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo‘lishi mumkin.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi.

Ikki tomonlama aloqa ikki yo‘nalishda, ya’ni, o‘qituvchining o‘quvchiga nisbatan ko‘rsatadigan ta’siri (to‘g‘ri aloqa) hamda o‘quvchining o‘qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.

Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g‘oyasiga muvofiq endilikda o‘quvchi tarbiya jarayonining ob’yektigina bo‘lib qolmasdan, sub’yektiv sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.

Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning g‘oyat ko‘pligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o‘quvchilarda o‘z tushunchalariga muvofiq paydo bo‘lgan dastlabki sifatlar o‘rtasida yoki o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o‘rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.

Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko‘pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo‘lmasligidan, o‘qituvchi va tarbiyachilarning o‘quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe’l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog‘lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Iqtisodiy tarbiya-o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: o‘quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo‘jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o‘rta biznes,

ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, byujdetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar) borasida chuqur bilimlar berish va ularni takomillashtirish; o'quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, xususan, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash, ularda muayyan kasbiy yoki ishlab chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantiris, ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish; o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish, ular tomonidan tor doirada bo'lsada tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish. Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, hamda treninglar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriluvchi ekskursiyalar, tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o'yinlari, o'quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko'rik-tanlovlar, ularning iqtisodiy tafakkurini o'stiruvchi iqtisodiy yo'nalishdagi konferentsiya, seminar va munozaralarni tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni "O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi"da o'z ifodasini topgan. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: "Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy g'oyadan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu

muammoning hal qilinishiga bog'liqdir". O'quvlarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonidir. Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir. Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur.

O'quvchilarning ta'lim jarayonida o'zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish. Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbati, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko'kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o'quvchilarda ekologik madaniyatni

qaror topishini ta'minlaydi. O'quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan sub'yektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, Internet) materiallari va ularning g'oyalari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Fuqarolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Kelajagi buyuk bo'lgan mustaqil, demokratik, huquqiy davlatni barpo etish ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo'lida bo'ladi. Shunday ekan yoshlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ayniqsa, ijtimoiy va ma'naviy sohada quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozimligi yurtboshimiz tomonidan ham ta'kidlanadi:

- Insonparvarlik g'oyalariga sodiqlik;
- Milliy-istiqlol g'oyasiga sodiqlik;
- Ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- Qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san'atni bilish hamda ko'paytirish;
- Hur fikrlilik, vijdon va din erkinligi qoidalarini qaror toptirish;
- Ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish;
- Xalqimizning milliy, tarixiy va madaniy an'analarini, ma'naviy tajribasini ta'lim va tarbiya tizimimizga uzviy ravishda kiritish;

- Ijodning barcha turlarini rivojlantirish.

Birinchi Prezidentimiz ma'naviyatni aql-axloq, ongli amaliy faoliyatda shakllanishi va rivojlanishini ta'kidlab "Ma'naviyat – taqdirning ehsoni emas. Ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak" – deb uqtiradi.

Yurtimzda ma'naviyatni jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuch deb bilamiz. Birinchi prezidentimiz o'zining "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida shunday deydi: "Sir emaski, har bir davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'anviyati bilan kuchlidir".

Mamlakatimizda mafkuraviy mo'ljallarning tubdan yangilanishi, milliy istiqlol g'oyasini kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan boshlash zarurligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimida yangicha metodologik yondashuvlarni yuzaga keltirayotir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimini zamonaviy talablarga javob beradigan uslubiyotlar majmui bilan ta'minlashni takomillashtirish ishlari Respublikamizda qizg'in olib borilmoqda". Bu ishlarni amalga oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining salmoqli mehnatlari ham sezilib turadi.

Istiqlol mafkurasi ko'p millatli O'zbekiston xalqining ezgu g'oya – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu – intilishlari hayotiy ideallarini o'zida aks ettiradi.

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodani, tugal namunasi hali hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz

kerak. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no – mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qat'i nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt – saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no – mazmunini belgilaydi. Shunday ekan milliy istiqlol mafkurasida fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi qay tarzda talqin etiladi?

Endi Vatan, fuqaro, huquq, axloq, burch, majburiyat tushunchalariga sinkveyn tuzing.

(Sinkveyn tuzish qoidalari oldingi mavzularda keltirilgan.) Yosh avlodga yagona pedagogik jarayonda axloqiy tarbiya malakasini singdirishda avvalo fuqaroviylik yo'nalishini berish muhim masala sifatida qaralmog'i lozim. Zero ta'lim tizimida yoshlar ongida fuqaroviylik tushunchasini hosil qilish vatanparvarlik g'oyalari asosida shakllanadi. Shuning uchun ham fuqaroviylik tarbiyasi vatanparvarlik tarbiyasi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rini o'qing (yod ayting) va mushohada qiling. Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no – mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan – ota-bobolarimizning xoki poylari jo bo'lgan, vaqti – soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir.

Barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligi va qonun ustuvorligini, jamiyat munfaatlari va aholi xavfsizligining muhofazasini kafolatlovchi huquqiy davlatni barpo etish yo'lidan borayotgan ekanmiz, biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi.

Vatanparvarlik haqida gapirganda ona zaminga bo'lgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash va uning ravnaqi yo'lida g'amxurlik qilish tushuniladi.

Millatimizning vatanparvarligi – bu xalqimizning qoniga singib ketgan iymon va isnof, mehr-muhabbat, vijdon va andisha, or-nomus, ona yurtga, elatiga sadoqat kabi azaliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlar haqidagi g'oya va qarashlari yig'indisidir.

Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p muhim masalalardan iborat. Misol uchun Vatan tuyg'usini olaylik. Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi, ya'ni inson o'zligini anglagani, nasl – nasabini bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.

Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi ko'p ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega. Payg'ambar alayhissalom vafotlaridan so'ng islom olamida yangi qonun va qoidalarning paydo bo'lish jarayoni to'xtadi. Ana shu davrdan boshlab barcha huquqiy muammolar Qur'oni Karimda va Payg'ambar Alayhissalom sunnatlarida ko'rsatib bergan qonun va qoidalar asosida hal etilib huquqiy tarbiya beriladigan bo'ldi. Islom huquqshunosligi asosan Qur'oni Karim

va sunnati Naboviya asosida shakllanadi va sunnatning negizini tashkil etuvchi hodisalarni jamlab kelajak avlodning huquqiy ehtiyoji vujudga keladi. Buyuk islom olimi faqih Burhonuddin-al Marg'iloniy Qur'oni Karim va hadis ilmini mukammal egallab fiqh-islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lgan va huquqiy tarbiya sohasida beqiyos durdona hisoblangan "Al-Hidoya" asarini 573-yil (milodiy 1170-yil)da yozgan. "Al-Hidoya" bir necha asrlar davomida ko'p musulmon mamlakatlarida, jumladan Markaziy Osiyoda huquqiy tarbiyaga oid eng yirik asosiy manbalardan biri bo'ldi.

Buni avvalo Istiqlol mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etishi va ulardan oziqlanishida ham ko'rish mumkin:

· qonun ustuvorligi;

· inson haq-huquqlari va hurfikrlilik;

· turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;

· diniy bag'rikenglik;

· dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;

· o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish va hakozo.

O'zbekiston insonparvarlik qoidalariga asoslangan millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlat. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi huquqiy tarbiyada asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil bo'lishi munosabati bilan maktablardagi ta'lim-tarbiya ishlari rivojlanib takomillashib borayotir. Mamlakatimizda juda katta o'zgarishlar ro'y berganligi yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq tartibotini yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Huquqiy tarbiyani berish, amalga oshirish yo'llari nimalardan iborat?

Har bir pedagog ta'lim bilan tarbiya berishga jiddiy e'tibor berishi lozim. O'quvchi yoshlarga tarbiya berishda ularga yuksak fuqarolik his-tuyg'ularni sifat va xislatini tarkib toptirishda ta'lim va tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etgan. Maktabda o'qitiladigan har bir fanning o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish o'qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, izlanishiga bog'liq. Ta'limiy-tarbiyaviy omil va vositalar ko'p. Shulardan biri davlat ramzlaridan darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'rinli foydalanishdir. Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta'lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o'quvchilarga tushuntirish, ularning xulq-atvoriga chuqur ta'sir etadi. Hozirgi vaqtda Davlat ramzlaridan foydalangan holda o'quv tarbiya ishlarini tashkil etish muhim masalalardan biri. Hayotga qadam qo'yuvchi har bir o'smir o'z respublikasining qomusini bilishi, unga amal qilishi kerak. O'quvchilarda O'zbekiston respublikasi Madhiyasi, Gerbi va Bayrog'iga nisbatan hurmat tuyg'ulari tarbiyalanishi zarur.

Hazirgi davrda bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning yangi shakllari qo'llanilmoqda. Yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va sodir etiladigan huquqbuzarliklarni oldini olish borasida pedagogik faoliyatni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Umumiy ta'lim maktablarida huquqiy bilimlarni targ'ib qiladigan xonalar tashkil etishga alohida ahamiyat berish.

2. Barcha maktablarning sud, prokuratura, advokatura, birinchi navbatda esa voyaga yetmaganlar inspeksiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar bilan aloqalarini mustahkamlash.

3. Doimiy ravishda yangi tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish. To‘plangan ilmiy bilimlardan pedagogik tajribalarda oqilona foydalanish, o‘smirlarga davlatimiz qonunlariga muntazam rioya qilish ko‘nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

Asrlar davomida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umum e’tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi.

Insonning haq huquq va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo‘li bilan kafolatlanadi. “Taraqqiyotning o‘zbek modeli” – yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh qilishning chuqur ilmiy asoslangan tamoyillaridan birida shunday deyiladi: “Jamiyat hayotining burcha sohalarida qonunning ustuvorligi, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim”.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta’lim shubhasiz mustahkam poydevor rolini o‘taydi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o‘qish darslarida amalga oshiriladi. Ona tili va o‘qish darslarida olib boriladigan barcha mashg‘ulotlarning yetakchi o‘rni nutq o‘stirish bo‘lib, u savod o‘rgatish, chiroyli yozish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Xar bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqali odamzod o‘zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi.

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o‘quvchi

hech qaysi bilimlarni muvaffaqiyat bilan o'zlashtira olmaydi. Bu borada so'z va nutqning ma'no-mohiyatini teran idrok etgan buyuk qalam sohiblari so'zlash qobiliyati va go'zal nutq qudrati bemisil bir ne'mat ekanligini takror va takror ta'kidlaganlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim muassasasini boshqarish tizimi qanday tashkil qilinadi?
2. Ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjatlar haqida gapirib bering.
3. Ta'lim sifati monitoringi tushunchasini izohlang.
4. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmoqlari qaysilar kiradi?
5. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.
6. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar.
7. Inklyuziv ta'lim siyosatining xuquqiy asoslari haqida gapirib bering.
8. Inklyuziv ta'lim tamoyillari.

Nazorat uchun testlar:

1. Shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega individual xususiyatlariga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang:

A) shaxs rivojlanishidagi umumiylik;
B) shaxs rivojlanishidagi o'ziga xoslik;
C) tarbiya jarayonini amalga oshirish;
D) o'quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlariga asoslanish;
E) barcha javoblar to'g'ri.

2. Nima uchun V – VII sinf ba'zi o'quvchilarining o'zlashtirishi va intizomi susayadi?

A) sinf rahbari va o'qituvchilar ularga boshlang'ich sinfdagiga qaraganda kam e'tibor beradi;

B) o'quvchilar o'qishning yangi talablari va sharoitiga o'rganmagan yoki tayyor emaslar;

C) boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishida, V sinfda o'qish uchun zarur bo'lgan masalalarga e'tibor berilmagan;

D) mazkur davrda o'quvchilarning rivojlanishi ularning yosh xususiyatlariga bog'liq;

E) barcha javoblar to'g'ri.

3. Qaysi javob variantida pedagogika fanlari tizimi to'g'ri ko'rsatilgan?

A) umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsud) pedagogika; surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya;

B) umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsud) pedagogika, metodika, pedagogika tarixi, ta'limni boshqarish, ijtimoiy pedagogika va boshqalar;

C) umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta'limi;

D) umumiy pedagogika, metodika, ta'limni boshqarish; axloq tuzatish pedagogikasi;

E) barcha javoblar to'g'ri.

4. Mazkur g'oya qanday tushuncha mohiyatini yoritadi: "... shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo'lib, ular asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, ob'yektiv va sub'yektiv omillari aniqlanadi"?

A) pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining;

B) ta'lim nazariyasining;

C) tarbiya nazariyasining;

D) pedagogik fanlar tizimining;
E) pedagogika fani vazifalarining.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq”, 1998.

2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: “O‘zbekiston”, 2000.

3. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Ma’ruza matnlari uchun materiallar) – T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.

4. Pedagogika. Ma’ruzalar matni. N.G‘aybullayev va boshqalar. – T., 2000.

5. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. – T.: “Sharq”, 1998.

6. Ibroximov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. – T.: “O‘zbekiston”, 1996. 30 – 34 betlar.

7. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: SANO-STANDART, 2017.

8. Xodjayev B.X, Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi, Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

9. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

10. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU. 2015.

9-mavzu. O‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish. Ta’lim muassasasi menejmenti. Xalqaro baholash dasturlari (Programme for the International Assesment).

Reja:

1. Axborot iste’moli madaniyati: mazmuni va mohiyati.
2. Shaxsiy axborot xavfsizligi va o‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish metodlari hamda texnologiyasi.
3. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Ta’lim muassasasini boshqarish, ta’lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.
4. Xalqaro baholash dasturlarining me’yoriy asoslari. Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi. PISA-o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi. TIMSS-maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring. ISILS-kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

Tayanch so‘z va iboralar: Axborot iste’moli madaniyati, shaxsiy axborot xavfsizligi, ta’lim muassasasi menejmenti, ta’lim muassasasi ustavi, xalqaro baholash, PISA, TIMSS, ISILS.

Axborot iste’moli madaniyati: mazmuni va mohiyati. So‘nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy taraqqiyotning yangi, tarixiy va tadrijiy bosqichiga ko‘tarildi. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini modernizasiyalash davrida xalq bilan muloqot sezilarli darajada oshdi.

Inson manfaatlarini ta’minlash jarayonida ochiqlik, shaffoflikka alohida e’tibor qaratilgan bu pallada har bir fuqaroning informasion madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish masalasi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda ta’lim tizimi

oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri ham ta'lim oluvchining axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish jarayonini chuqur tahlil va monitoring qilish hamda shu asosda ilmiy asoslangan o'qitish texnologiyalarini yaratishdan iborat.

Globallashuv jarayoni tobora shiddatli tus olarkan, dunyo mamlakatlarining inson manfaatlariga xizmat qiladigan tom ma'nodagi demokratik yo'lni tanlab olishga intilishi muttasil kuchayib boraveradi. Ushbu jarayonda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning axborot iste'moli madaniyati tez o'zgaruvchan axboriy jamiyatda yaxshi moslashish va samarali ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Chunki axborot iste'moli madaniyati shaxsning ilmiy bilish, mustaqil ta'lim olish, hordiq chiqarish va boshqa ko'rinishdagi faoliyati jarayonida paydo bo'ladi. Umuman olganda, axborot iste'moli madaniyati ma'lumotdan samarali foydalanishga doir bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, zaruriy axborotni kompyuter va internet tarmog'i orqali qidirishning turli usullarini o'zida mujassam etadi.

Shuning uchun global axborot tizimidagi xabarlarni filtrsiz qabul qilish xavfi muttasil kuchaya boradi va bu holat salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, bugun jahonda 3 milliard kishi yoki dunyo aholisining 40 foizi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Izlanishlar odamlar bir kunda o'rtacha 2 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotganini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ham keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi keskin oshdi.

Ulardan millionlab fuqarolarimiz faol foydalanmoqda. Albatta, axborot xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning asosiy ta'sir vositalari sifatida qo'llanayotgan turli tashviqot aksiyalari, mafkuraviy tazyiqlar, madaniy ekspansiyalar, diskreditasiya, dezinformasiya, tuhmat, e'tiborni asosiy masalalardan chalg'itish, faktlarni manfaat uchun buzib talqin qilish kabi ruhiy-informatsion ta'sirlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Chunki bu jarayonda barcha ishlar ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi hamda davlatning ichki siyosatiga ishonchsizlik uyg'otish, ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, muxolif kayfiyatni qo'zg'ash hamda vaziyatni keskinlashtirish maqsad qilib olinadi. Demokratik boshqaruv, fikrlar xilma-xilligi holatida bu jarayonning oldini olish ham o'ta murakkab.

Eng yomoni, tarqatilayotgan axborotning haqqoniyligini tekshirish ham ushbu axborot tarqatilayotgan real vaqt oralig'ida deyarli imkonsiz. Shuning uchun tashqi axborot ta'sirlariga qarshi kurashning eng samarali usullari eng muhim va yirik tahdidlarga nisbatan umumiy va to'g'ri munosabatni shakllantirishdan iborat. Buning uchun yoshlarning, fuqarolarning bilimi va saviyasini, tahlil qilish ko'nikmasini oshirish, jamiyat va davlat manfaatlariga mos bo'lgan va bo'lmagan turli axborotlarga oqilona munosabat bildira olish madaniyatini shakllantirish lozim.

Aynan shu holatda salbiy axborotlarning yoshlar va fuqarolar ongiga ta'siri keskin tushadi. Bunday sharoitda axborot iste'moli madaniyati ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni saralab olishga doir bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Chunki internet, global tarmoqda axborot shu qadar ko'p va xilma-xilki, bu holat foydalanuvchilarning ma'lumotlarni, albatta, tanlashi, saralashi va tahlil qilishini taqozo etadi.

Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan axborotning 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlikning, 57 foizi axloqsizlikning bevosita va bilvosita targ'ibotiga xizmat qiladi. 25 foiz axborot esa yolg'on, to'qima, 31 foiz ma'lumot haqiqatga to'la mos emas. Bu holat yoshlar ongu shuuriga kuchli ta'sir etuvchi yot, buzg'unchi g'oyalar, milliy mentalitetimizga zid, zararli odat va ko'nikmalar, tekshirilmagan axborotga ham birdek taalluqlidir.

Aynan shuning uchun ham tarqatilayotgan bu kabi axborotlarni yoshlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilayotgani va uning oqibatlari barchani birdek tashvishga solmoqda. Buning ustiga bugun bu jarayon axborot va madaniyatlarning integratsiyalashuvi davrida yuz bermoqda. Natijada axborot iste’moli madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasi sifatida ko‘rilmoqda. Unga yaxlit tizim sifatida qarash tendensiyasi kuchaymoqda.

Aynan ana shu qarash axborot iste’moli madaniyatining asl mohiyatini ochishga imkon beradi. Mamlakatimizda ham bu jarayon kuzatilib, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida joriy etilgan karantin tadbirlari tufayli internet orqali onlayn olib borilgan muloqotlar va axborot almashinuvi fonida yaqqol ko‘zga tashlandi.

Ta’lim tizimida ham professor-o‘qituvchilar tomonidan davlat ta’lim standartiga mos barcha o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’ruzalar video va yozma taqdimotlar ko‘rinishida, amaliy mashg‘ulotlar taqdimotlari, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun vaziyatli masala, test, grafikli organayzerlar ko‘rinishida ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Talabalarning darslarda qatnashishi va o‘zlashtirishi kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan nazorat qilib borildi. O‘quv jarayonida kelib chiqqan ba’zi juz’iy kamchiliklar o‘z vaqtida to‘g‘rilanib, talabalarga tushuntirish ishlari olib borildi.

Mana shu holat oliy o‘quv yurti talabalari o‘rtasida axborot vositalaridan foydalanish, axborot iste’moli madaniyati tushunchasi shakllanishida muhim turtki bo‘ldi. Endi aynan shu platformalardan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish, mamlakatimizning jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikasiyalar tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirish imkoniyatini oshirishda samarali foydalanishimiz lozim.

Shaxsiy axborot xavfsizligi va o‘quvchilarda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish metodlari hamda texnologiyasi. Axborot iste’moli madaniyati – axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakalarni o‘zida ifodalaydi.

Axborot iste’moli, kim tomonidan qabul qilinishidan qattiy nazar, qabul qilish, tushunish, talqin etish kabi bir-biri bilan uzviy bo‘gliq bo‘lgan bosqichlarda amalga oshadi.

Axborot iste’moli, aniqrog‘i, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan hodisadir. Axborot iste’moli xizmatlar iste’molining o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Ma’lumki, har qanday xizmatni iste’mol qilishdan avval uning sifati, narxi, foydasi, qulayligi va boshqa shu xususiyatlari ham inobatga olinadi. Masalan, taklifi kamayib ketgan xizmatlarning iste’mol darajasi yuqori bo‘lib, ularga talab kuchayadi. Mazkur xususiyatlar axborot iste’moli jarayoniga ham xosdir. Biroq, ma’naviy ne’mat bo‘lgan axborotni iste’mol qilish o‘ziga xos tomonlari bilan ham ajralib turishini ta’kidlash joiz. Xususan, axborot konkret shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat va davlat tomonidan iste’mol qilinadiki, mazkur darajalarda iste’mol jarayonlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, biron shaxs uchun qiziqarli bo‘lgan ma’lumot, muayyan ijtimoiy qatlam yoki guruh uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Shuningdek, axborot makon va zamon xususiyatlariga ham ega. Chunonchi, g‘arbda o‘ta ommabop bo‘lgan axborotlar, Sharq xalqlari tomonidan kam iste’mol qilinishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lum bir tarixiy davrda katta qiziqish bilan kutib olingan ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan odatiy holga aylanishi va ijtimoiy hayotda bu tarzda in’ikos etmasligi mumkin.

Bugungi kunda, axborot iste’moli jarayoni ham o‘ziga xos madaniyatni taqozo etmoqdaki, madaniyatning bunday shakli insoniyat ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Axborot iste'moli madaniyati globallashuv jarayonlarining xarakterli xususiyatlaridan biri bo'lgan, internet tarmog'i jadal rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot iste'moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Komunikativ, reguliyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir.

Shaxsiy axborot xavfsizligiga qisqacha ta'rif beradigan bo'lsak, uni inson ongi, qalbi orqali jamiyat kayfiyati va ruhiyatiga salbiy, o'z milliy va insoniy manfaatlariga zid axborot xurujlaridan saqlanish vositasi deyish mumkin.

Shu o'rinda shaxs axborot xavfsizligiga qachon ehtiyoj seziladi, degan savolga javob berib o'tsak.

Insonning ruhiy holati, unga yetkaziladigan axborot mazmuniga ham bog'liq. Demakki, unga yolg'on axborot yetkazish yo'li bilan uyushtirilgan xurujga qarshi doimo kuchli intellektual himoya vositasi zarur. Bu yerda inson axborot psixologik xavfsizlikka, aniqroq aytganda, axborotga qarshi turuvchi "immunitet"ga ehtiyoj sezadi.

Axborot xurujiga qarshi immunitet ma'lum bir tayyorgarlikka ega, axborotni tahlil qila olishga qodir darajaga yetgan shaxsdagina shakllanishi mumkin.

Axborot xurujiga qarshi psixologik xavfsizlik immuniteti o'z vazifasiga ko'ra birinchi galda, har qanday axborotning xolis jihatlarini qabul qila olishni anglatadi. Ayni vaqtda jahon jamoatchiligi o'rtasida rivojlanayotgan mamlakatlar aholisiga axborot texnologiyalari kuchli bo'lgan davlatlar tomonidan katta hajmda oqib kelayotgan axborot oqimini tartibga solish va muammoni adolatli hal qilish borasida biror arzigulik ish olib borilmayapti. Chunki buning foydasi yo'q. Agar begona axborot oqimlarini to'xtatishning iloji bo'lganda bunday imkoniyatdan ko'p mamlakatlar foydalangan bo'lardi. Bunday sharoitda eng

to‘g‘ri yo‘l – har bir davlat o‘z fuqarolarini yot ta’sirlardan o‘zi himoya qilishidir.

Inson uchun axborot – eng ta’sirchan vositadir, chunki uning ongi bor. Mantiqiy isbot, qolaversa, axborot yetkazishning eng oddiy usullari shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo‘ya olmaydi.

Shuning uchun targ‘iboti haddan kuchli mamlakatning aholisi fanatiklarga o‘xshaydi. Masalan, Gitler davridagi nemis byurgerlari haqiqiy aqidaparastlar bo‘lishgan. Insonning tabiati shunday yaratilganki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yasholmaydi. Har bir odam ma’lumotni ko‘radi, eshitadi, o‘qiydi va eng muhimi, doimo, uzluksiz ravishda, kechayu-kunduz axborotning ta’sirida yashaydi. Shuning uchun axborot yordamida kimgadir ruhiy ta’sir qilmoqchi bo‘lganlarga agar ushbu inson axborotni o‘ylamasdan qabul qilaversa o‘sha odamning psixologiyasi ko‘maklashadi.

Yuqorida aytganimizdek, shaxs tomonidan axborotni qabul qilishning hal etuvchi mezoni – bu insonning ongi borligidir. Mazkur ongdan foydalanib, mantiqiy isbot yordamida odamga xohlagan, eng noma’qul g‘oyani ham “to‘g‘riligini” isbotlash mumkin, bu qiyin emas. Buning uchun dalillarni ustalik bilan tanlab, isbot jarayonini yaxshi tuzish kifoya. Demak o‘quvchilarni axborotni qabul qilish, axborotni uzatish, axborotni saqlash madaniyatini shakllantirish uchun eng avvalo axborotni saralay olish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. O‘quvchi yoshlarda axborot xavsizligi tushunchasini shakllantirishda avvalo ularga to‘g‘ri tizimli tarbiya berish jarayonida, axborotni faqatgina ilm olish, ma’lumot olish uchungina qabul qilish lozimligini uqtirish zarurdir. O‘quvchilarning axborotni saralash va qabul qilish jarayoni ularning axborotga o‘chligini inobatga olgan holda passiv darajada shakllangandir. Xar qanday axborot o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan butun

jamiyat va millatga xavf solayotgan manbalar sifatida millatchilikni, shovinizmni, imperiyaviy tafakkur, mafkuraviy ekspansionizm va boshqa shu kabi illatlarni qo'zg'atuvchi davlatlar, tashkilotlar va shaxslar[29]. Hozirgi kunda nternet tarmog'idagi faxsh, joniga qasd qilish, jismoniy kuchdan salbiy maqsadlar yo'lida foydalanish, boshqalarni sha'ni orqali aldov yo'li bilan pul olish, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolish kabi holatlar o'quvchi-yoshlar tez-tez uchrashini inobatga olish va zarur chora tadbirlarni ishlab chiqish kerakligini bildiradi.

Axborotlashayotgan jamiyatda o'quvchilarning axborot olish madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Mana shu jarayonning samarali kechishida esa pedagoglarning o'rni beqiyos. O'quvchi, talabaning kitob o'qishi, pedagoglarning nazariy, pedagogik va metodik adabiyotlar bilan o'z vaqtida tanishib borishlari, shu yo'l bilan bilimlarini oshirishlari, dunyoqarashi, o'qimishli kishilarga xos jihatlarini tarbiyalashlari, kasbiy mahoratlarini yuksaltirishlari bevosita axborot olish madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq.

Axborot-resurs markazlarining tashkil etilishi o'quvchilarga axborot olishning zamonaviy, avtomatlashgan shaklini taqdim etadi. Metodik adabiyotlarda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirish hamda ularni tahlil etish o'quvchilarda axborot olish madaniyatini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiquvchi omillar quyidagilardan iboratligini e'tirof etish imkonini beradi:

- ta'lim modeli o'zgarib, bir umrga yetadigan bilim olish o'rnini umr bo'yi ta'lim olish egallay boshlaganligi;
- axborot ko'lamining jadal ortib borayotganligi;
- jamiyatning keng miqyosda axborotlashayotganligi;
- axborot olishda u bilan tanishishning o'zi yetarli emasligi;
- axborot olish oz miqdordagi adabiyotlar bilan cheklanishni ifoda etmasligi;

[29] Qarang: Paxrutdinov Sh. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. T.: «Akademiya», 2006.

• axborotni imkon qadar ko‘proq o‘zlashtirish jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi eng muhim omil ekanligi;

• tobora taraqqiy etayotgan axborot texnikasi va texnologiyasidan foydalanilayotganligidir.

Bugun kompyuterga ega Internetga ulanish imkoniyati mavjud bo‘lgan xonadonlar, tashkilotlarga axborot jadal kirib bormoqda. Bunday axborotlashuv jarayoni jamiyatning axborot-resurslari zahirasida, ya’ni axborotlashtirilgan makonning yuzaga kelishi va kutubxonalarning yangi sharoitda innovatsion faoliyat ko‘rsatishi hamda shunga yarasha o‘quvchilarning axborot olish madaniyatini egallashida o‘z ifodasini topmoqda.

Zamonaviy axborot makoni o‘quvchilar uchun katta imkoniyatdir. I.G.Zaxarovaning fikricha, “ushbu imkoniyatlardan jamiyatning yangi axborot makonida mo‘ljal ola bilishga imkon beradigan zarur bilimlarga ega bo‘lgan a’zolarigina oqilona foydalanadilar”. Aks holda, yangilik topish ilinjida axborot ummoniga sho‘ng‘igan kitobxon hech narsa topolmay chiqishi mumkin. N.I.Gendina ta’kidlaganidek, “Bugun axborot jamiyatini “ta’lim oluvchi” jamiyat deb bejiz atalayotgani yo‘q. Bunday deyishga quyidagilar asos bo‘la oladi: axborot va bilimlar – jamiyatning bosh bunyodkor kuchi, yangilik, tezkorlik, jadallashuv – bugungi kunning eng tavsifli belgilari, xoh ishlab chiqarish, xoh ijtimoiy hayot bo‘lsin texnologiyalarning yangilanish maromi olti – yetti yilni tashkil etmoqda; ta’lim olishning uzluksizligi va qayta tayyorlovdan o‘tishga qodirlik – shaxsning o‘z ijtimoiy maqomini saqlab qolishning ajralmas qismi; har bir insonning taqdiri o‘z vaqtida, yangi axborotni qidirib topish, olish, mos ravishda qabul qilish va undan samarali foydalanishiga bog‘liq. Respublikada “axborot olish madaniyati”, axborot-resurs markazlarining paydo bo‘lishi munosabati bilan esa “o‘quv jarayonining metodik ta’minoti” tushunchalari keng ommalashib bormoqda.

Mutaxassislarning bergan ta’rif va izohlariga ko‘ra axborot olish madaniyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- jamiyatning axborotlashuv darajasini anglash;
- shaxsda axborot olishga intilishning vujudga kelishi (shaxsning sifati);
- axborot olishga doir bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni egallash;
- axborot vositalari manbalaridan samarali foydalanish;
- shaxs erkinligi, uning axborotlashgan jamiyatdagi xulq-atvori;
- huquqiy bilimlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugun axborot hech qanday chegara va to'siq bilmay hayotimizga kirib kelmoqda. Bu borada har bir davlatdan axborot xavfsizligini ta'minlashni yaxshi yo'lga qo'yish talab etilmoqda. Sababi, axborot ortidan kelayotgan psixologik tahdidlar bevosita insonlarga, ayniqsa, yoshlarga qaratilayotgani hech kimga sir emas. Shuni nazarda tutgan holda, barcha ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlarida hamda ommaviy axborot vositalarida shu mavzuda yoshlarga tushuntirish va tashviqot ishlari kuchaytirilsa, bu haqda yetarlicha ma'lumotlar berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Va yana taklif sifatida shuni aytish kerakki, internetda eng ko'p foydalaniladigan saytlarga axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan reklama roliklari joylashtirib chiqish mumkin. Bu videoroliklar qisqa va qiziqarli, diqqatni jalb qiladigan bo'lishi kerak. Bu roliklar pand-nasihat ruhida emas, balki har xil oqimlarning mavjudligi, uning to'riga ilinish qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi, inson o'z fikrida sobit turishi kerakligi va boshqalar haqida yoshlarga tushunarli holda bo'lishi kerak. Bunday roliklar ayniqsa, xavfli saytlarga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ta'lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Ta'lim muassasasini boshqarish, ta'lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat. Ta'lim muassasasini boshqarishning

pedagogik-psixologik asoslari. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'yektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, "ta'sir etish" tushunchasining o'rniga "o'zaro harakat", "hamkorlik", "refleksiv boshqarish" kabi tushunchalar qo'llanilmoqda.

Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo'sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta'lim muassasasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

"Menejment" va "menejer" atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o'z mulklari va xodimlarni o'zlari boshqarganlaridan ko'ra tanlangan yo'nalish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib yetganlaridan so'ng paydo bo'ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta'lim muassasasi menejmenti haqida so'z yuritilganda, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning 4.6-bandida so'z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to'xtalib o'tilganligini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilicha, ta'lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo'li bilan boshqarib borilishi;

- barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga muvofiq belgilanadi;

- ta'limning normativ-huquqiy bazasi rivojlantiriladi;

- moliya-xo'jalik faoliyatini olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta'minlanadi;

- ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi;

- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining,

fondlarning va homiy vakillarni o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta'lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi. Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir ob'yektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir. Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir. Bugungi kunda pedagogika faniga ta'lim muassasalarini boshqarish bo'yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham teranroqdir. Masalan, "ta'sir etish" tushunchasining o'rniga "o'zaro harakat", "hamkorlik", "refleksiv boshqarish" kabi tushunchalar qo'llanilmoqda. Ta'lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta'lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o'zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

Mazkur tartib barcha ta'lim turlari bo'yicha davlat ta'lim muassasalari ustavlarini (keyingi o'rinlarda Ustav deb ataladi) ishlab chiqishda amal qilish uchun qo'llaniladi.

Xar bir ta'lim muassasasi Ustavga ega bo'lishi kepak. Ustav ta'lim turi xususiyatlari va ta'lim muassasasida kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda ishlab chiqiladi.

USTAVNING TUZILISHI:

1. Umumiy qoidalar. Ushbu bo'limga ta'lim muassasasining to'liq va qisqartirilgan nomi; ta'lim turiga tegishlilik, ta'lim faoliyati yo'nalishi; o'qish shakli (kunduzgi, sirtqi); mulkchilik shakli; muassis; ta'lim muassasasining yuridik manzili kipadi. Ta'lim muassasasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariga, Respublika Hukumatining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy hujjatlariga va Ustavga amal qilishi ko'rsatiladi.

2. Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari. Ta'lim turi to'g'risidagi Nizomga muvofiq mazkur ta'lim muassasasining maqsadi va ta'lim, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, sog'lomlashtiruvchi asosiy vazifalari hamda unga xos bo'lgan vazifalar sanaladi. Faoliyatning asosiy yo'nalishlari va vazifalarni amalga oshirish shakllari qayd etiladi.

Bo'limga shuningdek ta'limning tegishli turi to'g'risidagi Nizomga muvofiq ta'lim muassasasining majburiyatlari va huquqlari ham kiritiladi.

3. Ta'lim oluvchilar. Ta'lim oluvchilar (tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar)ni qabul qilish, tanlash, to'ldirish tartibi bayon etiladi.

Ta'lim oluvchilarning huquq va majburiyatlari ko'rsatiladi.

4. O'quv-tarbiyaviy va ilmiy-uslubiy ish. Ushbu bo'limga ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari, davlat ta'lim standartlari va davlat talablarini amalga oshirish ta'minlanishi kiritiladi. Bilimlarni nazorat qilish va baholash shakllari va tartiboti, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi; ta'lim muassasasi ishini tashkil etish va uning ish tartibi; sanitariya-gigiyena me'yorlari va qoidalariga rioya etish; o'quv (fakultativ, qo'shimcha) va amaliy mashg'ulotlar shartlari va shakllari; o'quv yili (uning davrlari, bosqichlari, choraklari, semesterlari)ning qancha davom etishi va bo'linishi; eksternat, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning boshqa jihatlari aks ettirilishi

zarur. Ta'lim beriladigan til, ta'lim muassasasining tarbiyaviy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishi ko'rsatiladi.

5. Ta'lim muassasasining tuzilishi. Tarkibiy bo'linmalar, ularning faoliyat ko'rsatish tartibi va shartlari sanaladi.

6. Pedagog xodimlar, o'quv-tarbiyaviy xodimlar. O'qituvchilar (ilmiy-pedagog xodimlar)ning va o'quv-tarbiyaviy xodimlarning lavozim huquq va majburiyatlari, ishga qabul qilish tartibi, shtatdagi tegishli lavozimlarga qo'yiladigan talablar; lavozimga tayinlash va bo'shatish tartibi belgilanadi.

7. Ta'lim muassasasiga rahbarlik qilish. Rahbariyat va boshqaruvning yuqori organi ko'rsatiladi. Rahbar (rektor, direktor, mudir)ning huquq va majburiyatlari, uni ishga tayinlash va ishdan bo'shatish tartibi sanaladi. Ta'lim muassasasida qanday qay'at organlari tashkil etilishi qayd etiladi. Qay'at organini shakllantirish tartibi, uning vakolatlari, funksiyalari, huquqlari, qay'at organi va uning a'zolarining javobgarligi; uning ish tartibi (majlislar o'tkazish muddatlari, qarorlar qabul qilish tartibi, qabul qilinadigan qarorlarning qonuniyligi shartlari) belgilanadi.

8. Jamoat tashkilotlari. Ta'lim muassasasining ta'lim oluvchilarni, o'qituvchilarni, ma'muriy xodimlarni va o'quv-tarbiyaviy tarkibga kiruvchi xodimlarni birlashtiruvchi jamoat tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilishi va faoliyat ko'rsatishi qayd etiladi.

9. Mol-mulki va mablag'lari. Ta'lim faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan mablag'lar manbalari, mulkiy huquqlar ko'rsatiladi.

10. Qayta tashkil etish va tugatish. Ta'lim muassasasini qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratish va qayta o'zgartirish, shuningdek uni tugatish tartibi belgilanadi.

Namunaviy ustavlar:

- maktabgacha ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun – Xalq ta'limi vazirligi;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari uchun – Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ustav:

- oliy ta’limning ta’lim muassasalari, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash respublika institutlari, respublika bo‘ysunishidagi ta’lim muassasalari uchun – vazirliklar, idoralarning buyruqlari;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash viloyat ta’lim muassasalari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun – viloyat ta’lim boshqarmasining buyruqlari;

- umumiy ta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim muassasalari uchun – tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limining buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

Ustav ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Ustavga uni tasdiqlash uchun belgilangan tartibga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.

Xalqaro baholash dasturlarining me’yoriy asoslari. Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi. PISA-o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi. TIMSS-maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring. ISILS-kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot. Xalq ta’limi vazirligitashabbusi bilan A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti va Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi hamkorligida tashkil etilgan konferensiyada xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik natijalari sarhisobi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha mahalliy ekspertlar tadqiqotlari natijalari tahlil etilmoqda.

Dunyoda yuzdan ortiq davlat o‘z mamlakatida joriy etilgan ta’lim sifatini xolisona baholash maqsadida PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS, EGRA hamda EGMA kabi xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etadi. Jumladan, O‘zbekistonning ham birinchi marta PISA va boshqa xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida 2030-yilga borib PISA o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan “Stesting” loyihasi doirasida 100 dan ortiq trenajyor video yaratildi va “Stesting” platformasi ishga tushirildi.

Bu platforma o‘quvchilarning xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o‘z ichiga olgan. Unga 1500 tadan ortiq test joylashtirilgan.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish, testlarni yechish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan mazkur elektron platforma sentabr-oktabr oylarida muayyan maktablarda tajriba-sinovdan o‘tkazildi. Eng muhim jihatlardan biri ushbu platformadan foydalanish mutlaqo bepul. Bugunga qadar ushbu platformada **2,6 milliondan** ortiq o‘quvchi ro‘yxatdan o‘tgan va ularning diagnostik baholash natijalari tahlil qilingan.

Konferensiyada erishilgan dastlabki natijalar to‘g‘risida xalqaro tashkilotlar, hukumat vakillariga ma’lum qilinib, hamkorlikdagi faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha fikr almashilmoqda.

Ayubxon Radjiyev, Abdulla Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti rahbari:

– Mamlakatimiz ishtirok etadigan xalqaro ta'lim sifatini baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik doirasida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Konferensiyada ko'zda tutilgan asosiy maqsad "Stesting" platformasi orqali uch oy mobaynida barcha ma'lumotlar tahlilini keng ommaga yetkazishdan iborat.

Konferensiyaga biz bejiz turli xalqaro hamkor tashkilotlarni taklif etmadik. Chunki har biri bilan ta'lim sifatini oshirishga bog'liq alohida loyihalarimiz bor. Matematik savodxonlikni oshirish, milliy baholash tizimini ishlab chiqish, o'zbek tilining to'rtta ko'nikmasiga asoslangan tizimni yaratish, joriy etilayotgan yangi avlod darsliklari bo'yicha o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini hamkorlikda ishlab chiqdik. Ular ham shu konferensiya doirasida bu borada erishgan yutuqlari va bajarayotgan ishlari, istiqboldagi rejalar haqida taqdimot qilishyapti.

Laziz Xo'jaqulov, Xalq ta'limi vazirligining ta'lim sifati jarayonlarini muvofiqlashtirish, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning salohiyatini oshirish boshqarmasi boshlig'i:

– Mamlakatimizda berilayotgan ta'lim sifatiga xalqaro doiradagi ekspertlarning bahosi juda muhim. Sababi, hech qaysi mamlakat o'z ta'lim tizimiga xolis baho bera olmaydi. PISA tadqiqotlari esa dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida standartlashtirilgan testlar orqali o'tkaziladi. Ta'lim rivojlangan mamlakatlardagi 14 yoshdagi bolalarning bilim darajasini bir xil mezonda o'lchash imkonini beradi. PISA tadqiqotlarida O'zbekistonning ishtiroki mamlakatda ta'lim sifati nechog'lik darajada ekanini xalqaro miqyosda ko'rsatadi. Bu nima uchun muhim? Avvalo, ta'limdagi o'zgarishlarda to'g'ri yo'ldan ketyapmizmi, degan savolga javob topiladi. PISA tadqiqotlarida shunday savollar beriladiki, bu qaysidir bir faktga asoslangan bo'lmaydi. Bitta savolda bir nechta fanlar elementlari jamlangan

va unda kimyo, fizika, biologiya ham bo'lishi mumkin. Test bolalarning mustaqil hayotga nechog'lik tayyorligini baholaydigan sinov.

Hozirgi kunda milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi doirasida bolalarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko'nikma va malaka berish ustida ish olib borilmoqda. Shu orqali biz xalqaro baholash dasturlarida natijaga erishishimiz mumkin.

Geoffrey Ijumba, YUNISEFning yurtimizdagi vakolatxonasi vakili o'rinbosari:

– O'zbekiston xalqaro baholash tizimi (PISA)ga kirish bo'yicha xohish bildirgani juda ham muhim. Chunki PISA ta'limni qanday qilib takomillashtirish mumkin bo'lgan barcha savollarga javob tizimi hisoblanadi. Bu, albatta, katta tayyorgarlik talab etadi. Juda ko'p mutaxassislar buning ustida ishlaydi. Lekin yakunda biz ob'yektiv ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

O'zbekiston ta'lim tizimi 2030-yilga borib aynan PISA xalqaro baholash dasturida birinchi o'ttiztalikka kirishi uchun zarur ko'mak beramiz. Bundan tashqari, milliy baholash tizimini ham hozir shakllantirish harakatidamiz. Mazkur milliy tizim juda ham muhim. Chunki uning bir nechta komponenti bo'ladi. Bu sizga qiz va o'g'il bolalar kesimida viloyatlar, tumanlar, shaharlarni taqqoslash imkoniyatini yaratadi. Biz qayerda kamchilik, bo'shliq borligini bilgan holda zarur chora-tadbirlar ko'ramiz.

Mazkur xalqaro konferensiya yakunida xalqaro baholash tadqiqot dasturlariga tayyorgarlik, erishilgan yutuq va kamchiliklarni aniqlash, xalqaro baholash dasturi natijalari asosida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash milliy tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda maktab o'quvchilarining kelajakdagi xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik darajasini oshirishga doir takliflar tayyorlash ko'zda tutilgan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Nazorat va hisobga olish deb nimaga aytiladi?
2. Nazoratning qanday vazifalari mavjud?
3. Tekshirish deb nimaga aytiladi? Tekshirishning qanday bo‘g‘inlari mavjud?
4. Nazoratning turlari, shakl va metodlarini bayon eting,
5. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlarini tushuntirib bering.
6. Ta’lim sifati monitoringi qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
7. Ta’lim muassasasini boshqarish tizimi qanday tashkil qilinadi?
8. Ta’lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi xujjatlar haqida gapirib bering?
9. Ta’lim sifati monitoringi tushunchasini izohlang?
10. Xalqaro baholash dasturlarining me’yoriy asoslari. Xalqaro baholash, dasturlari metodologiyasi va PISA haqida gapirib bering?

Nazorat uchun testlar:

1. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nimadan iborat?

A) fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy insonlar etib tarbiyalash;

B) komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalash;

C) yetuk aqliy salohiyatga ega shaxsni tarbiyalash;

D) texnik ijodkorlik layoqatiga ega shaxsni tarbiyalash;

E) harbiy-vatanparvarlik tuyg‘usiga ega insonni tarbiyalash.

2. Vatanparvarlik nima?

A) vatanga xizmat qilish;

B) vatan ravnaqi uchun kurashish;

C) vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonch;

D) shaxsga xos bo'lgan yuksak fazilat bo'lib, vatanga bo'lgan muhabbat, o'zi mansub bo'lgan millat hamda vatan tarixidan g'ururlanish, buguni to'g'risidagi qayg'urish hamda istiqboliga bo'lgan ishonchga egalik;

E) barcha javoblar to'g'ri.

3. Ta'lim metodlari muammosi qanday tadqiqotga tegishli?

A) fundamental;

B) amaliy;

C) funksional;

D) sonli.

4. Izohli-tasvirli, reproduktiv, muammoli bayon, evristik, tadqiqot-chilik metodlarining asosida nima ajratilib ko'rsatilgan?

A) mazmunning turli ko'rinishlarini egallash xususiyati;

B) funksiyalari;

C) bilimlar manbayi;

D) shaxs faoliyatining tuzilmasi.

5. Binarli (juftli) ta'lim metodlarini asoslagan pedagog nomini ko'rsating.

A) M.I.Maxmutov;

B) M.I.Maxmutov, I.Ya.Lerner;

C) V.G.Bespalko;

D) V.V.Davidov, D.B.Elkonin.

6. Nazariy bilimlarni birmuncha yuqori darajasini shakllantiradi:

A) ma'ruza;

B) namoyish;

C) amaliy;

D) nazorat.

7. Tafakkurni rivojlantirishda samarali sanaluvchi metodni ko'rsating.

A) ma'ruza;
B) munozara;
C) illyustratsiya;
D) davra suhbati.

8. Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy sanaluvchi metod, bu:

A) didaktik o'yin;
B) mashq;
C) namoyish;
D) muammoli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

2. Xodjayev B.X, Choriyev A., Saliyeva Z.T., Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU. 2015.

5. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник – Т.: ТТПУ, 2014.

6. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы жэне практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.

7. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

8. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

9. Pedagogika. // M.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

10. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003.

11. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. – М.: Туманит. изд. центр ВЛАДОС, 2006.

12. Хошимов К., Нишонова С., Иномова М., Хасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

13. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

14. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент, Иқтисод молия, 2012.

15. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Учебник. – Москва: Академия, 2012.

10-mavzu. Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta'lim (Inclusive education).

Reja:

1. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida hamda korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.

2. Anomal bolalar va ularning umumiy ijtimoiy holati va tavsifi.

3. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar.

4. O'zbekiston Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari va inklyuziv ta'lim tamoyillari. Muvaffaqiyatli inklyuziya resurslari. Inklyuziyaning komponentlari, mezonlari va ko'rsatkichlari hamda inklyuziv ta'lim variantlari: doimiy, to'liq; doimiy, noto'liq; vaqtinchalik, qisman; epizodik, masofaviy ta'lim.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish hamda inklyuziv jarayonni boshqarish, individual ta'lim dasturlari. Inklyuziv ta'limning maxsus usullari, imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashning pedagogik metodlari, inklyuziv ta'lim sharoitida tyutorlik amaliyotini tashkil etish.

Tayanch so'z va iboralar: Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari, anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi, aqliy rivojlanish, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar. Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari, inklyuziv ta'lim tamoyillari.

Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida hamda korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya – yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan. ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korreksion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada "defektologiya" tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi:

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "korrectio" tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda "korreksion pedagogika"ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'ligi imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan birqatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va

mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi. psixik funksiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Anomal bolalarni tarbiyalash – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash

atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion-tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlaryaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar)ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (yunoncha "compensation" – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariga tayanadi.

Litimotiv reabilitatsiya (yunoncha "rehabilitas" – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy

muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarning o'rni to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha "adapto" – moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati yetmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

Oilaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl-, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat,

badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Anomal bolalar va ularning umumiy ijtimoiy holati va tavsifi. Anomal – yunoncha "anomalos" – noraso, odatdan tashqari degan ma'noni bildiradi. Bunday bolalar jismonan nogiron bolalar hisoblanadi. Ular, ruhiy rivojlanishi sust, nuqsonli kamchiligi mavjud tug'ma va orttirilgan anomal bolalardir. Bular: ko'r, kar va soqov, aqli zaif va og'ir nutqiy kamchiligi bor bolalardir. Qisqacha aytilganda, ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar "anomal bolalar" deyiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, defektologiya fanining maqsadi – anomal bolalar uchun differensial ta'limni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holatga keltirish usullarini belgilash va amaliyotga tadbiq etish yo'llarini tarbiyachi va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdan iboratdir. Anomallik har xil bo'lib, ularning ba'zilari batamom bartaraf etiladi, ba'zilari qisman tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ya'ni kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo'pol kamchilik bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan uni to'liq bartaraf etish mumkin.

Lekin defektologiya amliyotida shunday anamalliklar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi. Masalan. Tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir.

Psixolog olim professor L.S.Vigotskiy o'zinig "Defektologiyaning asosiy muammolari" nomli kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. Shuningek, u anomal boladagi nafaqat "salbiy", balki "ijobiy" tomonlarni ham o'rganib, aniqlab, ularga tayangan holda potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi.

Unga asosan anomal bolalarning asosiy kategoriyalari quyidagilar:

1. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar (karlar, zaif eshituvchilar, hech eshitmaydiganlar);
2. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar (ko'r, zaif ko'ruvchilar);
3. Nutqida nuqsoni borlar (logopedlar);
4. Aqliy rivojlanish qobiliyati buzilgan (aqlan zaif bolalar, ruhiy rivojlanishi sust bolalar);
5. Ruhan va jismonan rivojlanishda orqada qolgan bolalar (kar va ko'r, soqov va aqlan zaif);
6. Tayanch harakat sistemasi ishdan chiqqan bolalar.

Shunday qilib, anomal bolalar nuqsoni tufayli ruhiy jihatdan orqada qolgan va maxsus tashkil etilagan ta'lim-tarbiyaga muhtoj bolalardir.

Bola shaxsidagi jismoniy va aqliy buzilish uni hayotni anglash, idroki va tafakkur faoliyatinig rivojlanishiga butunlay ta'sir ko'rsatadi.

Anomal bolalar rivojlanishlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning birlamchi nuqsonlarini paydo bo'lish muddatiga bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolaning ko'rish qobiliyati yo'qolsa unda dunyoni idrok etish uchun ilk obrazlarning sodda ko'rinishi saqlanib qolsa, maktab yoshida ko'rish qobiliyatini yo'qotgan bola ko'r bo'lib tug'ilgan boladan o'zining rivojlanishi bilan keskin farq qiladi.

Shunday qilib, anomal bolalar rivojlanishining ilk bosqichidayoq ulardagi nuqson, uning sabablari aniqlanib uni bartaraf etish yo'llari amalga oshirilishi lozim. Anomaliyalarining kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin:

1) Bosh miya to'qimalari tuzilmasining buzilishi;

2) Anolizatorlar faoliyatidagi nuqsonlar yoki umuman ishdan chiqish.

Demak, anomaliyalar kelib chiqish turiga ko'ra ikki gurnhga bo'linadi:

a) tug'ma anomaliyalar;

b) hayot davomida orttirilgan anomaliyalar.

Aqliy rivojlanishi, eshitishi, ko'rishi, nutqida nuqsoni bor bolalar. Homilaning ilk rivojlanish davrida, tug'ilishida yoki chaqaloqlik davrida mexanik shikastlanish ko'p hollarda lokal (sezgi, harakat, nutq, eshitish) yoki diffuz (psixik faoliyatdagi buzilishlar) holdagi buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Surunkali somatik kasalliklardan aziyat chekuvchi bolalarda miya faoliyatining funksional dinamik buzilishlar jarayonida jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlar kelib chiqadi. Ba'zida neyroinfeksiyalar ta'siridan, bosh miya shikastlaridan, oiladagi notinchliklar oqibatida yuzaga keladi. Asab tizimining surunkali quvvatsizlanib borishi natijasida ruhiy faollik susayib, bola tez charchaydigan, biron bir faoliyat bilan band bo'lganda, tinka madori qurib oxiriga yetkaza olmaydi.

Dars davomida uxlab qolishlik, diqqatni bir joyga to'play olmaslik holatlari kuzatiladi. Nutqida, eshitishida nuqsoni bo'lgan astenik bolalar darsda o'qituvchi berayotgan ma'lumotlarni to'la eshita olmaydi, eshitgan taqdirda ham chala eshitib, o'tilgan mavzudan to'la to'kis qoniqish ololmaydi. Shu sababli, o'qituvchining bergan savoliga tavakkal javob beradi.

Bolalarni maktabga qabul qilayotganda bunday nuqsonlarga ahamiyat berilmaydi, ota-onalar esa bu nuqsonlarni

berkitishadi. O'qituvchidan doimiy tanbeh olish, sinfdoshlarning kalakasi, kamsitilishlar, qulog'i og'ir bolalarda maktabga nisbatan ishtiyoqi yo'qolishiga olib keladi. Bunday bolalarga tibbiy pedagogik qarov zarur bo'ladi. Qulog'i og'ir ekanligini hisobga olib uni oldi partaga o'tqazish lozim, balandroq ovozda gapirish, sinfdoshlariga esa, qulog'i og'ir bolalar bilan qanday muomala qilish zarurligi to'g'risida tushuntirish pedagoglar zimmasiga yuklatilishi zarur. Astenik holatning buzilishi ko'p holatlarda maktabga nutqi buziq bolalarni qabul qilganda yuzaga keladi. Pedagoglar bunday bolalarni logopedga murojaat etishlari lozim.

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhan sus rivojlangan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy asab tizimidagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan yengil patalogik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan 2 guruhga bo'linadi: Yengil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1 – 3 yil ta'lim-tarbiya olganlardan so'ng o'qishni umumta'lim maktabining tegishli sinfida davom ettirishlari mumkin.

Ruhiy jihatdan rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar – bular o'rta maktabni bitirgunga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda olimlar ruhiy sust rivojlangan bolalarni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

Konstitutsional.

Somatogen.

Psixogen.

Serebral shakli.

Konstitutsional xilini harakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sog'lom tengdoshlarnikiga nisbatan 1 – 2 yosh kichik ko'rinadi. 7 yashar bola o'zini 5 yashar bolaga o'xshab tutadi va ta'lim olish uchun hali

"yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past.

Somatogen xilida surunkali infeksiyalar, allergik holat, tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turganligi tufayli bolada asteniya holati kuzatiladi. Bola o'z kuchiga ishonmaydigan, tez charchaydigan, injiq, qo'rqoq bo'ladi, hech narsaga qiziqmaydi.

Psixogen xilida bola noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi. Natijada u ham ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga qo'shilib qoladi. Psixogen xilida bolalarning 50% da asab tizimida organik jarohatlanish kuzatiladi, shuning uchun u nisbatan turgun bo'ladi. Bu narsa bolaning bilish faoliyati, his-tuyg'ulari, irodaviy holatlarining rivojlanmasligiga olib keladi, organik infantalizm kuzatiladi. Bola yo ko'tarinki ruhda, o'zidan yosh bolalarga o'xshab yoki aksincha kayfiyati past bo'lib, mayus tortib yuradigan, ishni mustaqil hal qila olmaslik tashabbus ko'rsata olmaslik, qo'rqish holatlari kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar maxsus yordamga muhtoj, ular maxsus muassasalarda yoki differensial ta'limga jalb etilishi kerak.

Turg'un eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga ko'ra tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin.

Kar-soqov bolalarning 25 – 30 foizida eshitish nuqsonlari tug'ma bo'ladi. Bunga sabab: onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallanishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilar-bilmas dori-darmonlarni iste'mol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xinin, singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik o'zgarishlar bo'lishi, masalan, eshitish yo'li atreziyasi – bituvi).

Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, o'tkazuvchi yo'llar yoki

quloqning o'zidagi o'zgarishlar sabab bo'ladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi ba'zi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalalarning keng o'rganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli ta'sir etib, ayniqsa analizatorning o'tkazuvchi asab tolalarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan bo'lib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eshtish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan o'qitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bog'cha va maktab dasturlarining o'zlashtirishda bir qator o'ziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Kichik yoshdagi bolalarning eshitish qobiliyati nutqi rivojlangandan so'ng, masalan, ikki yoshida yo'qolganida ham karlik natijasida bola atrofdagilar nutqini eshitmaydi va hattoki bilganlarini ham asta-sekin unutadi, boladagi karlik bilan soqovlik qo'shilib u kar-soqov bo'lib qoladi. Bolaga o'z vaqtida maxsus yordam ko'rsatilmasa, unda aqli zaiflik belgilari ham paydo bo'ladi. Biroq nuqsonning o'rnini to'ldirib, boshqaruvchi jarayonlarni aktivlashtiruvchi maxsus, korreksion rostlaydigan sharoit boladagi nuqsonlarni bartaraf etib, ularning ham nutqiy rivojlanishini, ham umumiy, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi.

Zaif eshituvchi bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktabgacha tarbiya muassasasi hamda maktab-internatda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi

tarbiyachi va o'qituvchilar bunday bolalarning tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak.

Yuqorida qayd etilganidek, surdopedagogikada eshitish qobiliyati zaif bolalarga kar-soqov, tug'ma hamda keyinchalik zaif eshituvchi bo'lib qolgan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar o'z navbatida eshitish qobiliyatining nechog'lik buzilganiga qarab yengil, o'rta va og'ir darajali kamchiligi bor bolalarga bo'linadi. Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar ovoz bilan gapirilgan nutqni 6 – 8 m masofadan ovoz chiqarmay, shivirlab gapirilgan gapni quloq suprasidan 3 – 6 m masofada eshitadi. O'rta darajadagi qulog'i og'ir bolalar ovoz chiqarib gapirilgan gapni 4 – 6 m, ovozsiz pichirlab gapirilganini 1 – 3 m masofadan eshitadi. Og'ir darajali qulog'i zaif eshitishda bola o'rta me'yorda ovoz bilan gapirilgan gapni quloq suprasidan 2 m, shivirlashni 0,5 m masofadan eshitadi, xolos.

Qulog'i og'irlik natijasida bola nutqida bir qator kamchiliklar kuzatiladi: lug'atining kambag'al bo'lishi, grammatik komponent rivojlanmagan – gap ichida so'zlarni tashlab ketish, so'zlarni noto'g'ri ishlatish, ularni o'zaro bog'lay olmaslik, kelishik, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ishlata olmaslik; tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish – o'xshash, jarangli-jarangsiz undoshlarni bir-biri bilan adashtirish, tushirib ketish va boshqalar shular jumlasidandir.

Bola nutqidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini bilmaslik orqasida ayrim tarbiyachi va o'qituvchilar bolani dangasa, mas'uliyatsiz, bezori deb, unga noto'g'ri munosabatda bo'lishadi, natijada bola injiq, yig'loqi, serjahl, gap o'tmas bo'lib qoladi, ya'ni unda ikkilamchi ruhiy o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Yengil darajadagi zaif eshituvchi bolalar sog'lom tengdoshlari qatorida ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktabda ta'lim-tarbiya olishi mumkin. Biroq ularga alohida munosabatda bo'lish, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish talab etiladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekistonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab va kasb-hunar kollejlarida maxsus guruhlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu toifadagi bolalar uchun tashkil etilgan maktab-internatlarda maktabgacha tarbiya bo'limi hamda umumta'lim maktab bo'limi mavjud. Ushbu muassasalarda ta'lim umum ta'lim 9 yillik ta'limning davlat talablari va dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyati zaiflashgan bolalar bilan ishlashda surdopedagoglar katta yutuqlarga erishmoqdalar. Ushbu toifadagi anomal bolalar maxsus kechki maktablarda ta'lim olganlaridan keyin oliy o'quv yurtlarini ham muvaffaqiyatli bitirib chiqmoqdalar, mamlakatimizning turli korxonalarida hamma bilan baravar mehnat qilmoqdalar. Demak, eshitish nuqsonlarini bartaraf etish, to'la kompensatsiyalash, mumkin. Tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifasi – sog'lom bolalarni zaif eshituvchi bolalardan ajratib, ularga alohida yondashish, zarur bo'lsa, ularning "maxsus muassasalarda ta'lim-tarbiya olishini yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etilishini ta'minlashdan iborat".

Maxsus muassasalarda o'z fikrini og'zaki ifodalay olmasligini his etgan o'quvchi yozma shaklda bayon etishni bilishi kerak. Buning uchun o'quvchilarni o'z fikrini og'zaki, yozma bayon etishga o'rgatish amaliy nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida amalga oshiriladi.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish yuzasidan dars va mashg'ulotlarda muayyan tizimdagi mashqlar asosida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati tashkil etiladi, didaktik vositalarning barcha turlarini nutqiy jarayonga moslay olish talab etiladi. Nutqiy materiallarning amaliy egallanishini ta'minlash uchun maxsus sodir etilgan muammoli nutqqa (gapirish, yozib tushuntirishga) ehtiyojni tug'diruvchi vaziyatlar oldindan rejalashtiriladi. Bunda nutqiy materiallar fanlar bo'yicha o'quv dasturlarida, rejalash-

tirishlarda oldindan belgilangan bo‘ladi, ya’ni korrek-sion-pedagogik jarayon muayyan tizim asosida amalga oshiriladi.

Har bir dars uchun nutqiy materiallar korreksion-kommunativ tizim tamoyillariga qat’iy rioya qilgan holda (o‘quvchilarning eshitish, talaffuz qilish imkoniyatilariga mos, talaffuzi yaqqol va eshitilish diapazoni yengil, oddiydan murakkabga, noo‘xshashlikdan-o‘xshashlikka boruvchi tartibda) tanlanadi va tayyorlanadi.

So‘zlashuv nutqiga ehtiyojni tarbiyalash oiladan boshlanishi, ya’ni maktabda egallangan nutqiy ko‘nikma va malakalar oilada tabiiy vaziyatlarda mustahkamlanishi va o‘quvchilar amalda (erkin, qo‘rqmasdan, uyalmasdan) qo‘llashlariga erishish uchun keng sharoit yaratilmoqda. Ushbu sharoit oila a’zolari ishtirokida yaratiladi. Ularning kar bola bilan keng muloqoti va iliq munosabati bolaning keyingi bosqich ta’lim-tarbiyasiga va umuman taqdiriga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyati eshitish (har qanday daraja karlikda u ma’lum miqdorda bo‘ladi) qoldig‘idan optimal ravishda foydalanishga bog‘liq bo‘lganligi tufayli maxsus muassasalarda ta’limni ovoz kuchaytiruvchi apparatlar asosida olib borish talab etiladi. Sinflar maxsus jihozlanadi. Ya’ni maktab-internat moddiy-texnika negizining yo‘nalishga mos shakllanishi ta’lim mazmunining samaradorligini oshiradi.

Kar va zaif eshituvchi bola o‘z ona tilini shu til qonuniyatlari, xususiyatlaridan kelib chiqqan, mazkur bolaning ruhiy, nutqiy imkoniyatlariga moslashtirilgan, korreksion-kommunikativ tamoyillarga asoslangan va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan maxsus yondashuv asosida egallaydi.

Maxsus maktab-internatlarda ta’lim-tarbiya jarayonini, xususan ona tili ta’limini amalga oshirishda o‘quvchilarning fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatishda daktil belgi-

lardan tegishli bosqichlarda o'rinli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirishga ijtimoiy ehtiyoj sifatida yondashish dolzarb masaladir. Buni amalga oshirish mazkur bolalarning jamiyatga moslashuvi, ularning borliqni anglashlari hamda ularni atrofdagilar qanchalik tushunib qabul qilishlari bilan belgilanadi.

Kar va zaif eshituvchi bola jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarning barchasida me'yorda rivojlangan, sog'lom tengqurlari qatorida o'z ona tilida bemalol, erkin, samarali va barcha uchun (nafaqat o'zi kabi taqdirdoshlari) tushunarli tarzda muloqot qila olishini ta'minlash mumkinligi amalda o'z isbotini topmoqda.

O'quvchilarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyatini rivojlantirish, o'z ona tilida sog'lom tengqurlari kabi so'zlashish, fikr almashishini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv-korreksion jarayonni yagona tizim asosida amalga oshirish orqali takomillashtirilmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablari o'quv rejasiga "Labdan o'qish" ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash mashg'ulotlari kiritilgan.

Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar maxsus maktab-internatlarining barchasi ovoz kuchaytiruvchi apparatlar bilan ta'minlangan, xonalari maxsus tovush qaytarmaydigan qoplamalar bilan jihozlanadi, sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni maqsadli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratilgan.

Ko'rish bolaning hayotiy faoliyatida va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'rishdagi nuqsonlar bolaning ruhiy, jismoniy rivojlanishida ikkilamchi nuqsonlar kelib chiqishiga olib keladi. Tiflopedagogika fanida ko'rish nuqsoni darajasiga hamda o'quv materialni idrok qilishga ko'ra quyidagi guruhlar farqlanadi:

Individual o‘quv dasturi – muayyan o‘quvchining xususiyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda, uning mazmunini individualizatsiya qilish asosida ta’lim dasturini ishlab chiqishni ta’minlaydigan o‘quv dasturi;

Inklyuziv ta’lim – maxsus o‘quv ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha o‘quvchilar uchun teng huquqli ta’lim olishni ta’minlash;

Moslashtirilgan ta’lim dasturi – imkoniyati cheklangan odamlarni o‘qitish uchun moslashtirilgan, ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlarini, individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda va agar kerak bo‘lsa, ushbu shaxslarning rivojlanishidagi buzilishlarni tuzatishni va ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydigan ta’lim dasturi;

Nogiron talabalarning ta’lim olishi uchun maxsus shartlar – bunday o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish uchun sharoitlar, shu jumladan maxsus o‘quv dasturlari va o‘qitish va tarbiya usullaridan, maxsus darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va didaktik materiallar, jamoaviy va individual foydalanish uchun maxsus texnik o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish, o‘quvchilarga zarur texnik yordam ko‘rsatadigan, guruhli va individual tuzatish mashg‘ulotlarini olib boradigan, ta’lim faoliyatini olib boradigan tashkilotlar binolariga kirishni ta’minlaydigan yordamchi (yordamchi) xizmatlarini ko‘rsatish va boshqa sharoitlar mavjud bo‘lib, ularsiz nogiron o‘quvchilar uchun ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish imkonsiz yoki qiyin.

O‘zbekistonda Inklyuziv ta’lim siyosatining huquqiy asoslari va inklyuziv ta’lim tamoyillari. Muvaffaqiyatli inklyuziya resurslari. Inklyuziyaning komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari hamda inlyuziv ta’lim variantlari: doimiy, to‘liq; doimiy, noto‘liq; vaqtinchalik, qisman; epizodik, masofaviy ta’lim. Ma’lumki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992-yil 14-oktyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, har yil 3-dekabr

sanasi butun dunyoda Xalqaro nogironlar kuni sifatida nishonlanib kelmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida himoya qilish, ularning muammolariga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etishdan iborat.

Mehr-muruvvatli va bag'ri keng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab keladi. Ana shunday ezgu an'analarimizni bugungi zamon talablari asosida rivojlantirish maqsadida so'nggi yillarda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan fuqarolarimizni qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish borasidagi davlat siyosati yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Buning tasdig'ini "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingani, mamlakatimiz Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga qo'shilgani, sohada mustahkam qonuniy baza yaratilgani misolida ko'rish mumkin. Shu asosda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish, harakatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, reabilitatsiya, siyosiy-ijtimoiy hayotda ishtirok etish bilan bog'liq huquqlari ta'minlanmoqda[30].

Bu borada "Inson qadri uchun" tamoyili asosida Yangi O'zbekistonda inklyuziv rivojlanish, ya'ni aholining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda ushbu yo'nalishda nogironligi bo'lgan insonlar – jamiyatning to'laqonli a'zolari, degan tamoyilga amal qilgan holda izchil ish olib bormoqda.

---

[30] "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-20, Issue-2, November – 2022. 93 b.

Chindan ham, biz barpo etayotgan yangi, erkin va demokratik davlatda jamiyatning har bir a'zosi bilim olish, zamonaviy kasb-hunarlarni egallash, o'z iste'dod va qobiliyatini ro'yobga chiqarish, mehnat bilan band bo'lish uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'lishi shart. Biz uchun nogironligi bo'lgan insonlarni ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga jalb etish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Yaqinda bo'lib o'tgan Prezident saylovida shu masalalarga alohida e'tibor qaratilib, nogironligi bo'lgan shaxslar saylov uchastkalariga kelib-ketishlari uchun transport bilan ta'minlangani, Brayl alifbosida saylov byulletenlari tayyorlangani va saylov uchastkalari panduslar bilan jihozlangani ularning siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'lganini xalqaro va xorijiy kuzatuvchilar ham e'tirof etdilar. Imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida gapirganda, so'nggi ikki yilda pensiya va nafaqa oluvchi nogironligi bo'lgan shaxslar soni 100 ming nafarga ko'payib, ularning miqdori qariyb 2 barobarga oshirilganini ta'kidlash lozim. Shuningdek, barcha hududlarda "Saxovat va ko'mak" umummilliy harakati doirasida hamda "temir daftar", "ayollar daftari" va "yoshlar daftari"ga kiritilgan imkoniyati cheklangan yurtdoshlarimizga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi. Ana shunday fuqarolarimizga bepul beriladigan protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalarining ro'yxati 22 turdan 27 tagacha ko'paytirildi.

Xususan, joriy yilning o'zida nogironligi bo'lgan bolalarning hayot sifatini yaxshilash maqsadida ular byudjet mablag'lari hisobidan qariyb 40 milliard so'mlik protez-ortopediya va reabilitatsiya moslamalari, koxlear implantlar hamda boshqa maxsus buyumlar bilan ta'minlandi.

Bundan tashqari, xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish dasturini amalga oshirish ishlari boshlandi, 300 dan ortiq maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarning bilim

olishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Haqiqiy matonat egasi bo‘lgan nogiron yigit-qizlarimizning jahon maydonlarida yuqori natijalarni qo‘lga kiritib, Vatanimiz bayrog‘ini baland ko‘tarib kelayotganlari barchamizga cheksiz g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi. Jumladan, shu yil Tokioda o‘tkazilgan Paralimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston vakillari 8 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza medallarini qo‘lga kiritgani har qanday tahsin va tasannolarga munosibdir. Ta’kidlash joizki, 3 dekabr sanasi butun dunyoda paralimpiyachilarni sharaflaydigan ayyomga aylanib bormoqda[31].

Hayotning boshqa sohalarida ham yuksak marralarni egallashga qodir bo‘lgan yoshlarimiz o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi, hayotda o‘zining munosib o‘rnini topishiga ko‘maklashish – bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Shu maqsadda hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘zlarini jamiyatning ajralmas qismi sifatida his etib yashashlari uchun ularga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan alohida dastur qabul qilib, uni, albatta, amalga oshiramiz. Ushbu dasturning mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang bo‘lib, unda nogironlikni belgilashda tibbiy yondashuvdan ijtimoiy yondashuvga o‘tish asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Endi nogironligi bo‘lgan shaxslar – “muammosi bor insonlar” degan qarashdan voz kechib, ularning imkoniyatini kengaytirish uchun, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish yo‘lidan borishimiz zarur. Birinchidan, nogironligi bo‘lgan yoshlarga barcha darajada sifatli ta’lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, kelgusi o‘quv yilidan boshlab alohida ta’lim olishga ehtiyoji bor bolalarning 24 foizi, 2025-yilda esa 40 foizi oddiy maktablarda o‘qishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

---

31 “PEDAGOGS” international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-20, Issue-2, November – 2022. 94 b.

Shuningdek, inklyuziv ta'limning resurs markazlari soni 14 barobarga ko'payib, 200 tadan oshadi. Ikkinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarni kasb-hunarga o'qitish va ular uchun munosib ish o'rinlarini yaratish orqali ularning daromadini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar yanada kuchaytiriladi. Bu borada ularni zamonaviy kasb-hunarga o'qitish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, har bir inson uchun davlat hisobidan kasb-hunar o'rganish imkoniyati yaratiladi, shu maqsadda ajratiladigan mablag'lar 2 barobarga oshiriladi. Barcha darajadagi davlat idoralariga imkoniyati cheklangan fuqarolarni ular uchun mos keladigan ishga qabul qilishda ustunlik va imtiyoz beriladi. Bundan tashqari, tadbirkorlarning nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilish borasidagi tashabbuslari qo'llab-quvvatlanib, ularni rag'batlantirish choralari ko'riladi. Jumladan, bunday tadbirkorlar va ishga qabul qilingan fuqarolarga qo'shimcha soliq imtiyozlari beriladi va davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladi. Uchinchidan, nogironligi bo'lgan shaxslarning salomatligini asrash, ularga tibbiy xizmatlar ko'rsatish ishlari tizimli ravishda davom ettiriladi.

Nogironligi bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish uchun Respublika bolalar tibbiy reabilitatsiya markazi va uning hududiy filiallari tashkil etiladi. Shuningdek, har yili 2 ming nafar bolada tug'ma yurak nuqsoni va bosh miyadagi patologik o'zgarishlar bo'yicha jarrohlik amaliyotini o'tkazish belgilanmoqda. To'rtinchidan, imkoniyati cheklangan fuqarolar mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashishi uchun "to'siqsiz muhit", ya'ni, qulay sharoit yaratiladi. Jumladan, yangi barpo etiladigan davlat idoralari binolari, ijtimoiy ob'yektlar, bog' va parklar, jamoat transportida maxsus infratuzilma yaratish, davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirish bo'yicha choralar ko'riladi, ular uchun maxsus axborot portallari, teleko'rsatuvlar, adabiyotlar va kutubxonalar soni ko'paytiriladi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida barpo etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlarida nogironligi bo'lgan shaxslarga uy-joy sharoitlarini yaxshilash uchun subsidiya va imtiyozli kreditlar beriladi. Eng muhimi, barcha darajadagi rahbarlar va davlat idoralari mas'ullari tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning muammolarini o'rganish va hal qilish bo'yicha doimiy muloqot tizimi yo'lga qo'yiladi[32]. Bir fikrni alohida ta'kidlash kerakki, jamiyatimizning eng ehtiyojmand qatlamlaridan biri bo'lgan nogironlar bilan bog'liq faoliyatimizni tanqidiy qayta ko'rib chiqar ekanmiz, bu insonlar ham mamlakatimiz fuqarolari, bizning yurtdoshlarimiz ekanini, binobarin, hech qachon o'zlarini yolg'iz his etmasliklari, ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizda faol ishtirok etishlari uchun bundan buyon ham barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi Ishonchimiz komil, 3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni mamlakatimiz ijtimoiysiyosiy hayotida mustahkam o'rin egallab, jamiyatimizda ezgulik, mehr-oqibat, gumanizm g'oyalarini yanada chuqur qaror toptirishga xizmat qiladigan muhim sanalardan biri bo'lib qoladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim va imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish hamda inklyuziv jarayonni boshqarish, individual ta'lim dasturlari. Inklyuziv ta'limning maxsus usullari, imkoniyati cheklangan bolalarni qo'llab-quvvatlashning pedagogik metodlari, inklyuziv ta'lim sharoitida tyutorlik amaliyotini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017 – 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida

[32] "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-20, Issue-2, November – 2022. 95 b.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida “Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim muassasasi to‘g‘risida”gi nizomda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalash, nuqsonlarini korreksiyalash, imkoniyatiga muvofiq. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha: alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minlash; jamoatchilik o‘rtasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish; o‘quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini optimallashtirish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini

ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan[33].

Bundan tashqari, "Zamonaviy maktab"larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha "Zamonaviy maktab"ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi

- ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

a) inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim dasturlarini joriy etish;

- inklyuziv ta'lim metodikasiga oid o'quv materiallarini takomillashtirish;

- inklyuziv ta'lim berishning zamonaviy nazariyalarini o'zlashtirish, inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarini tashkil etish hamda ta'lim berishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish;

- o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta'lim bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish;

---

[33] "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995 www.pedagoglar.uz Volume-20, Issue-2, November – 2022. 96 b.

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning sifat tarkibini, xususan magistrlik darajasiga ega bo'lgan pedagoglar sonini bosqichma-bosqich oshirish;

- inklyuziv ta'limni joriy etishda avvalo chekka hududlarda joylashgan, o'quvchilar soni kam bo'lgan umumta'lim maktablaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitishga e'tibor qaratish;

- inklyuziv ta'lim sifatini mustaqil baholash tizimini shakllantirish va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qo'shimcha pedagogik ta'lim xizmatlarini yo'lga qo'yish;

- xalq ta'limi sohasida rahbar kadrlar tayyorlash bo'yicha standartlashtirilgan dastur ishlab chiqish, ularga inklyuziv ta'limini amalga oshirish mexanizmlarini ko'zda tutuvchi o'quv kurslarini kiritish;

- masofaviy kurslarni yo'lga qo'ygan holda, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi samaradorligini kuchaytirish va qamrovini kengaytirish;

- pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qabul parametrlarini oshirish, Xalq ta'limi vazirligi tavsiyasi asosida pedagog xodimlarga ehtiyoji katta bo'lgan chekka hududlardagi abituriyentlar uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlarini belgilash mexanizmini joriy etish;

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalarida yosh o'qituvchilarni, ularning xizmat mavqei o'sishini hisobga olgan holda, kasbiy qo'llab-quvvatlash va hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'lim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- A.Avloniy nomidagi Xalq ta'limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim-tarbiyaga oid maxsus o'quv dasturlari va mashg'ulotlarini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish;

b) inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- bolalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda sifatli ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini hamda qulaylikni ta'minlash bo'yicha davlat kafolatlarining amalga oshirilishini ta'minlovchi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumiy o'rta va professional ta'lim muassasalariga yuborish uchun asos bo'luvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- hududlar imkoniyatlarini inobatga olgan holda inklyuziv ta'limni rivojlantirish holati va tendensiyalari monitoringini olib borish;

- har bir bolaga o'zining shaxsiy tempiga mos ravishda rivojlanish huquqini ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ulardagi aqliy yoki jismoniy nuqsonlarning ifodalanganlik darajasidan kelib

chiqqan holda umumta'lim maktabida tegishli bilimlarni olishiga sharoit yaratish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda kasb tanlash, kasbiy o'sishini mustaqil rejalashtirish, zamonaviy kasblarni egallash qobiliyatini rivojlantirish;

- inklyuziv ta'lim dasturlari asosida zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etgan holda multimedia ilovalarini yaratish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasb-hunarga o'qitishni takomillashtirish va ushbu yo'nalishlarda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish;

- inklyuziv ta'limning rivojlanishini monitoring qilish hamda amalga oshirilayotgan ishlar natijalarini yoritib borish;

v) inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish:

- inklyuziv ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun sog'lom ovqatlanish tamoyillarini ommalashtirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun sport to'garaklarini tashkil qilish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan ota-onalar o'rtasida inklyuziv ta'lim tizimi to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borish;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rgangan holda inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik (bulling)ning oldini olishga qaratilgan dasturlarni joriy etish;

g) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

d) inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish:

- barcha inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan ta'lim muassasalarini ma'lumotlarni uzatish bo'yicha yagona tarmoqqa birlashtirish;

- ta'lim muassasalarini inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilar uchun maxsus jihozlangan kompyuter texnikasi, interaktiv doska, eshitish moslamalari va boshqa jihozlar bilan ta'minlash;

- davlat xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta'lim jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha axborot tizimini joriy etish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun darslik va metodik materiallarning elektron shakllarini eduportal.uz portalida joylashtirish va muntazam yangilab borish;

- inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalar uchun mavjud darslik va o'quv-uslubiy adabiyotlarni elektron shaklga o'tkazish;

- inklyuziv ta'lim jarayoni uchun multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayonini tizimli tashkil etish;

e) inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini "mustahkamlash va ularni byudjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish:

- ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalardagi qurilish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash ishlarida ilg'or texnologiyalar va muhandislik yechimlariga tayanish;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, "Zamonaviy maktab" davlat dasturi doirasida umumta'lim maktablari uchun inklyuziv ta'lim sharoitlarini hisobga olgan holda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;

- inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumta'lim muassasalarining o'quv xonalari va laboratoriyalarini zamonaviy mebel, jihozlar, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikalari, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash;

- davlatxususiy sheriklik asosida inklyuziv ta'lim tarmog'ini rivojlantirish hisobiga inklyuziv ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish;

- nodavlat umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish amaliyotini kengaytirish;

j) inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish:

- "Barkamol avlod" bolalar maktablari to'garaklarida inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining qamrovini oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning madaniyat, san'at, sport va boshqa yo'nalishlarda erishgan yutuqlari to'g'risida targ'ibot tadbirlarini o'tkazish.

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ijtimoiy himoya va imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi, ijtimoiy himoya masalalari huquqiy asosda alohida e'tiborga olinib davlat siyosati olib boriladi. Buning samarasi o'laroq jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan ijobiy kayfiyat va ular

tengdoshlari orasida teng huquqli ravishda yutuqlarga ham erishib kelyaptilar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmoqlari qaysilar kiradi?
2. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari.
3. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi. Aqliy rivojlanishi, eshitish, ko'rish, nutqida nuqsoni bor bolalar
4. Inklyuziv ta'lim siyosatining xuquqiy asosoli haqida gapirib bering?
5. Inklyuziv ta'lim tamoyillari.

Nazorat uchun testlar:

1. O'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo'li bilan ta'limni tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta'rif qaysi o'qish turiga tegishli?

A) komputerli ta'lim;
B) tushuntirish – namoyishli ta'lim;
C) masofali ta'lim;
D) muammoli ta'lim;
E) innovatsion ta'lim.

2. Tinglash, o'qish, mexanik yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlash qaysi o'qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan. Bu yerda o'qishning qaysi turi tasvirlangan?

A) tushuntirish;
B) sokratcha;

C) arxaik;
D) kompyuterli;
E) dogmatik.

3. Bu darsning tuzilishi quyidagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tuslnunishini tekshirish vabilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?

A) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;
B) ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;
C) yangi material bilan tanish ish darsi;
D) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
E) bilimlarni tekshirish darsi.

4. O'qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko'rsatiladi:

A) yordamchi, sinfdan tashqari ish;
B) konsultatsiya, instruktaj, konferensiya;
C) frontal, guruhli, individual;
D) diagnostika (tashxis qilish, bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish);
E) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

2. Xodjayev B.X, Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU. 2015.

5. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник – Т.: ТТПУ, 2014.

6. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы жэне практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.

7. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

8. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

9. Pedagogika // M.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

10. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003.

11-mavzu. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyda tarixi, maktab va pedagogik fikrlar.

Reja:

1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari. "Pedagogika tarixi" fani g'oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya jaraynida milliy meros pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida.
3. Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolarining qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
4. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni.
5. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati.
6. Qur'oni Karimda – axloqiy-falsafiy ta'limotlar. Hadis ilminng paydo bo'lishi. Muhaddislar imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalarning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.

Tayanch so'z va iboralar: Pedagogika tarixi, milliy meros, pedagogik qadriyatlar, pedagogikani davrlashtirish, diniy kitoblarning tarbiyaviy ahamiyati, Islom dini, Qur'oni Karimda – axloqiy-falsafiy ta'limotlar, hadis ilmi, muhaddislar, imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy.

"Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari. "Pedagogika tarixi" fani g'oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning birinchi bosqich vazifalari muvaffaqiyatli hal qilindi, ikkinchi sifat bosqichida o'quv-tarbiya ishlari butunlay yangi asosda tashkil qilindi va yuqori sifat ko'rsatkichiga erishildi. Uchinchi bosqich 2005 va undan keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tashkil etish va umum-lashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o'zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g'oya ta'lim tizimi oldiga:

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy etishni hal etish vazifalarini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida Pedagogik texnologiyar larga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da Pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlanib, ularni o'quv muassasalariga olib kirish zarurligi uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan, ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi. Pedagogik texnologiya atamasining mohiyati nimada? "Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "techne" – mahorat, san'at, "logos" – tushuncha, o'rganish demakdir. Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug'ilishi tabiiy. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni;

- rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida Pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;

- fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimining tobora ko'payib borayotganligi;

- zamonaviy texnikalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi va texnik vositalardan foydalanish kerakligi;

- talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari va texnik vositalarni yaxshi egallagan bo'lishi,

talabaning qiziqish va intiluvchanligi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi;

- o‘qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishganligi;

- o‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnika bazasining yaratilganligi;

- ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob’yektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;

- o‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob’yektiv borliqqa majmuyi yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidadir.

Demak, Pedagogik texnologiyar yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir hisoblanadi.

Bugungi kunda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o‘qitishni jadallashtirish sanaladi. Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda.

“Pedagogik texnologiya” so‘z birikmasi asosida “texnologiya”, “texnologik jarayon” tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat,

ta'limda esa fan bo'yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta'lim oluvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta'lim oluvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofig'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogika tarixi fani ijtimoiy fan bo'lib, uning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an'analarini, jamiyatning taraqqiyot bosichlaridagi o'qitish, kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma'rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta'lim-tarbiya va ma'rifatga doir g'oyalarini va bu g'oyalarning rivojlanishini mukammal o'rganishdir.

O'tmishda progressiv pedagoglar va atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, bularni o'rganish bo'lajak pedagogning tafakkurini o'sishiga, pedagogik madaniyatini yuksalishiga imkon beradi.

Quyida ba'zi pedagoglarni nazariyalarini qarab chiqamiz. Buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenekiyning fikricha tarbiya nazariyasining uch vazifasi bor: O'zini, tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya), o'z o'zini boshqarish (axloqiy tarbiya) va xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiyning o'rta asr pedagoglaridan bu masaladagi farqi shuki, u birinchi vazifani hal qilinishini juda muhim deb hisobladi.

Komenskiy tarbiyaning roliga juda yuksak baho berdi. Inson, – deydi u – faqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi,

insonga u tarbiyalanishiga eng qulay yoshda bo'lganida, ya'ni bolalik chog'ida tarbiya berilishi lozim.

Tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon pedagogika tarixi rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Bu borada yunon olimlari Arastu, Platon, Demokrit kabi olimlar o'z fikrlarini bayon etdilar. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

Shvetsariyalik buyuk pedagog I.G.Pestalotssi elementar nazariyasini yaratdi. Unga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta sekin tobora murakkabroq darajaga ko'tarilib borishi lozim.

Pestalotssining elementar ta'lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o'qitishni o'z ichiga oladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zimizning milliy urf-odatlarimiz qadriyatlarimizdan foydalanishga keng yo'l ochildi. Shuningdek, pedagogikada ham yoshlarni komil inson bo'lib yetishishlarida mustaqil O'zbekistonning mustaqilligini mustaxhkamlash uchun barcha ishlarni sidqidildan bajarishga kirishildi. Ya'ni pedagogikada o'zimizning milliy asarlar Qur'oni Karim, Hadislardan foydalanishga imkoniyat yaratildi. Chunki ularda ta'lim-tarbiyaning yuqori cho'qqilarini ko'rish mumkin.

Masalan: Qur'onning Oli-Imron surasida "kishilardagi baxillik, ochko'zlik sifatlari qoralanib, ularni saxiy adolatli oliyjanob bo'lishga chaqiradi".

Chunonchi, hadislarda ham ta'lim-tarbiyaning barcha qirralarini ko'rishimiz mumkin. "Ilmni Xitoydan borib bo'lsa, ham o'rgan" "beshikdan qabrgacha ilm izla" kabi hadislardan ilmni qanchalar qudratga ega ekani, u tufayli inson buyuk darajaga yetishib jamiyatda o'z o'rnini topishini anglasak, "salomlashishni odat qilinglar, zero u bir-birlaringga

muhabbatlaringni ziyoda qilur" hadisda insonning yuksak odob axloq egasi ekanligini oliy belgisi salomlashish haqida fikr yuritilib, u orqali insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati ortishi yaqqol ifodalanadi.

Biz ta'lim-tarbiya berishda o'zimizni, o'zligimizni anglashda avvalo milliy, ma'naviy durdonalarimizdan foydalanish zarurdir. Bular bizga milliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, A.Navoiy, Bobur singari allomalarni yetkazdi.

Qolaversa, ularning axloq odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Pedagogika tarixning ilmiy, nazariy va milliy asoslarini puxta o'rganish o'qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki shu bilan birga, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya jaraynida milliy meros pedagogik qadriyatlardan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida. Ta'lim muassasalari O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasi, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolari, milliy istiqlol g'oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo'nalishlariga xizmat qiladi. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish, ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasini singdirishda differensial pedagogik-psixologik dasturlar yaratish, o'quv

dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasi g'oyalarini teran aks ettirish, maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish, pedagog-kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega yo'nalishlardir. Ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichi, o'z navbatida, milliy g'oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o'ziga xos omillarini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari. Bu o'rinda har bir ota-onaning o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi uning keying taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta'lim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab yetishiga erishish zarur. Bunda oilaning maktabgacha ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishishni nazarda tutish kerak. Bu davrdagi barcha maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari bolalardagi umumiy savodxonlik va maktabdagi ta'lim-tarbiyaga tayyorlash jarayonining muhim va zaruriy bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Bevosita ta'lim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir.

Ularning barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida, barcha o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Shu bilan birga, Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish; ona tilimizga muhabbat uyg'otish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish va e'zozlash, ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash, oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish, mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uqtirish, din va dunyoviy bilimlarning o'zaro qarama-qarshi emasligini

anglatish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlovchi dalillar keltirish, siyosiy va huquqiy madaniyat sog'lom dunyoqarashning muhim omili ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'paytirish bu boradagi zarur bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik yillarida butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga nihoyatda katta e'tibor qaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi. Uni amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish kun tartibidagi eng muhim va jiddiy masalaga aylangan edi.

Hozirgi kunda istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirda ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlar misolida ma'naviyatning yuksalishini kuzatish mumkin va tabiiyki, bunday sharoitda g'oyaviy tarbiya mezonlari ham davrga muvofiqlashib boradi.

XXI asr – innovatsiyalar asridir. Mamlakatimiz kelajagi jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan birga ta'lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko'tarishga yo'naltirilgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o'z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim samaradorligi o'quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan holda yangi o'qitish uslublari,

shakllari ta'lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma'naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimizbarhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o'z oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi qilishi ko'zda tutilgan. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g'oyaviy uyg'unlik – ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma'naviy-ma'rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaraganda o'tmish allomalari, mutafakkirlarining ma'naviy meroslarini yosh avlodning tarbiyasidagi ahamiyati bugungi kunda ham g'oyat beqiyosdir.

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, marosim va bayramlar ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi. Xususan, Mustaqillik, Navro 'z, O'qituvchilar va murabbiylar, Xotira va qadrlash kuni kabi yangi bayram va marosimlarimizdan jamiyat hayotiga zamonaviy mazmun baxsh etish yo'lida oqilona foydalanish zarur. Bugungi kunda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to'liqroq foydalanish lozim. Milliy an'analarni o'rganish, targ'ib etish bilan bir qatorda to'y-marakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish darkor.

Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolarining qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o'tgan qisqa vaqt ichida o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'naviy merosni o'rganish sharafiga muyassar bo'ldi, milliy g'ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda; o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq hayotiga tadbiq etishdek ulug' ishlar amalga oshirilmoqda.

Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda O'rta Osiyoni Uzoq sharq, ya'ni Xitoy va Yaponiya singari uzoq mamlakatlar bilan bog'lagan "Ipak yo'li" nafaqat savdo, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqa yo'l ham bo'lib, u ayniqsa, turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. O'sha davrdayoq O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida o'rnatilgan madaniy hamda ta'lim-tarbiya sohasidagi do'stona aloqalar keyinchalik yanada mustahkamlana bordi. Buni hayot o'zi taqozo etdi.

"Ipak yo'li" bo'ylab ahli elat – o'zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, qirg'izlar bahamjihat ahillikda bir oiladek yashaganlar. Bunga bu xalqlarning turmush tarzi, og'zaki ijodlari va turmushdagi o'xshash tomonlar yorqin dalildir. Buni biz IX – XI asrlarda yashab ijod etgan ulug' mutafakkirlar, pedagoglar, shoir va yozuvchilarning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni hayoli, imon-e'tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar, bu ishda islomiy tarbiyaning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati katta bo'lgan. Buyuk ajdodlarimiz bola tarbiyasi, madrasa, maktab, mudarris, o'qituvchi-pedagog, umuman

maorif sohasida juda qimmatli fikrlar bildirganlar, bu sohada biz avlodlarga juda katta boy ma'naviy meros qoldirganlar. Ushbu ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganib, tahlil qilib, amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Pedagogikamiz tarixini o'rganish millatimiz tarixini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal etib bo'lmaydi.

Pedagogika tarixi fani quyidagi manbalar asosida o'rganiladi:

- xalq og'zaki ijodi;
- buyuk adib va allomalarimiz ijodiy merosi;
- qadimgi yozma yodgorliklar;
- hukumatimizning ta'lim-tarbiyaga oid qonun va qarorlari;
- Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari;
- dasturlar, ilmiy va pedagogik adabiyotlar;
- ta'lim-tarbiyaga oid kundalik matbuot materiallari.

Atoqli mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiya sohasida bildirgan muhim fikrlarini o'rganish, pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi. Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiya mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik tizimlarida bo'lgan ilg'or fikrlardan ijodiy foydalanadi.

Pedagogika tarixi fani ikki qismga bo'lib o'rganiladi:

- O'rta Osiyo va sharq xalqlari pedagogika tarixi.
- Chet el pedagogika tarixi.

Birinchi qismda biz, qadimdan boshlab to hozirgi kunga qadar yashab ijod etgan allomalar Al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Jomiy,

Abulqosim Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Bedil kabi O'rta Osiyo xalqlari olimlarining hayoti, ijodiy, pedagogik faoliyati, maktab, maorif, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'shgan hissasi bilan tanishib chiqamiz.

Ikkinchi bo'limda esa chet El pedagoglaridan Yan Amos Komenskiy, J.Lokk, Jan Jak Russo, I.G.Pestalotsi, A.S.Makarenko, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va boshqalarning faoliyati va pedagogika sohasidagi qarashlari va faoliyatlari bilan tanishib o'tamiz.

Pedagogika tarixini o'quv kursi sifatida pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Pedagogika tarixi fanini o'rganish – kishilik jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi tarbiya zinapoyalarining tajribalariga suyangan holda har bir o'qituvchida pedagogik madaniyat va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi. Pedagogika va pedagogika tarixi fani orqali bo'lajak o'qituvchilarda yoshlar bilan ishlash, muomala madaniyati, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish yo'nalishlari, bolalarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, kiyinish madaniyati, turli xil tarbiyaviy jarayonlarni uyushtirish san'ati o'rganiladi.

Pedagogika tarixi kursi yana talabaning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga to'g'ri munosabatda bo'lishga imkon beradi, ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika tarixi fanini o'rgana borib, boshqa psixologiya-pedagogika turkumidagi o'quv fanlari kabi pedagogik tushunchalar yuzasida fikr yuritishga hamda ularning mohiyatini tushunishga ham o'rgana boradi.

Pedagogika tarixini o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning faqat pedagoglik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu

bilan birgalikda, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi. Shuningdek, o'tmishning ta'lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarni o'rganadi, bu esa uning kelajakdagi kundalik pedagoglik faoliyatida yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Bugungi kunda pedagogika tarixini kursini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:

1. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar;
2. VII asrdan IX asrning birinchi yarmigacha o'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
3. Sharq Uyg'onish davrida (IX – XII asrlar) pedagogik fikrlarning rivojlanishi;
4. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya va maktab;
5. XVII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
6. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
7. 1924 – 1991-yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji;
8. Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji;
9. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmigacha jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yaritilishi. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyada o'rni. "Avesto" (asli "Ovasto") so'zi "Ogohnoma", "donishnoma" degan ma'nolarni ifodalaydi. "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, o'z davrida o'sha paytlarda bu dinga e'tiqod qiluvchilar uchun muqaddas kitob sanalgan va

unga bir necha ming yillar davomida ixlos bilan amal qilib kelganlar[34]. Hozir esa bu kitob ajdodlarimiz madaniyati va ma'naviy qadriyatlaridan darak beruvchi, jahon tamadduniga (sivilizatsiyasiga) muhim hissa qo'shgan, olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan ona yurtimizning eng qadimgi, eng mo'tabar, eng nodir, madaniy tarixiy, ma'rifiy yodgorligi sifatida o'rganiladi.

"Avesto" uzoq davrlar mobaynida – miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og'zaki tarzda shakllanib avloddan-avlodga o'tib kelgan. Muqaddas "Avesto"ning yozuvlari turli davrlarda yozilgan va bu yozuvlar har xil ijtimoiy muhitning mahsuli bo'lgan. Ularni miloddan avvalgi XII – VIII asrlar orasida Xorazmda tug'ilib o'sgan Zardushtra (Zardusht) bir tizimga solib, o'zi ham "Avesto"ning "Gohlar" ("Gotlar") qismin yozib kitobat qilgan va "zardushtiyya" diniga asos solgan. Ya'ni zardusht o'sha davrdagi ko'p xudolik g'oyalari va u g'oya bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va diniy marosimlarga qarshi chiqib yakka xudolik g'oyalarini targ'ib etadi.

Abu Rayhon Beruniy ham Zardushtrani insoniyatni ko'pxudolik (poleteizm)dan yakka xudolik (monotiezm)ga targ'ib etgan ilk payg'ambarlardan biri bo'lgan, deb ta'riflagan.

Ko'p xudolik bilan bog'liq bo'lgan dahshatli odatlardan biri insonlarni qurbonlikka so'yish bo'lgan. Tarixning ana shunday chirkin, daxshatli davrlarida insoniyat xaloskori sifatida vatanimiz va millatimiz iftixori bo'lmish zardusht mardlarcha maydonga chiqdi. Zardusht insoniyat hayoti uchun g'oyat zararli bo'lgan ko'pxudolik e'tiqodlarining g'ayriinsoniy mohiyatini chuqur anglab etdi va o'z bilimlarini yakka-yu yagona Oliy Tangri – Ahura Mazda (Xurmuzd) vahiylari bilan boyitib, insoniyat ongi va mafkurasida inqilob yasab, o'tmishning bunday daxshatli chirkin sarqitlariga bolta urib chil-parchin qilib tashladi va kishilik jamiyatining ma'naviy taraqqiyotini yangi yo'nalishga soldi.

---

[34] Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

Uning ta'limoti, siymosi, uning nomi bilan ataladigan "zardushtiylik" dini insonlarga asrlar bo'yi ma'naviy madad, ruhiy oziq bo'lib xizmat qildi. "Avesto"dagi alqov qo'shiqlari, sanolar bashariyat tomonidan uzoq-uzoq yillar mobaynida qiroat bilan kuylab kelindi va insonlarda kelajakka umid, yaxshilik, ezgulik, mardlik, qahramonlik, pokizalik, rostgo'ylik tuyg'ularini tarbiyalaydi, yovuzlikka nisbatan esa nafrat hissini uyg'otishga xizmat qildi va mamlakatlar bo'ylab keng tarqaldi. Jumladan, qadimgi Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Parkana, Ozarbayjon, Eron, Xuroson, Iroq, Mug'ilistondan tortib to Suriya, Xitoy, shimoliy Hindiston, Rum, Habashiston va boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"ning "Gohlar" ("Gotlar") qismini o'zi yozadi, kitobning qolgan qismini esa xalq og'zaki ijodini bir tizimga soladi.

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn mil. Avv. 330-yilda ahamoniylar imperiyasini mag'lub etgach, insonlarni xaniflikka, yakka xudolikka targ'ib qilib, otashxonalarni vayron etgan. Olimlarga "Avesto"dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o'rinlarini tarjima qilib qoldirib, qolgan ko'p xudolik qismini yoqib yuborishni buyurgan.

O'tmishda "Avesto" va zardushtning vatani qayerda bo'lganligi to'g'risida olimlar o'rtasida bahs-munozaralar bo'lib o'tgan. Pirovardida o'ttizdan oshiq chet ellik mashhur avestoshunos olimlar va o'zimizning qadimshunos, tarixchi, avestoshunos tadqiqotchi olimlarimiz "Avesto" va zardushtiylik dinining asoschisi zardushtning vatani O'zbekiston, Xorazm deb qat'iy bir to'xtamga kelganlar. Olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini BMTning maorif va madaniyat bo'limi – YUNESKO ham tasdiqlagan. Ushbu fikrni o'z o'rnida yurtboshimiz ham ta'kidlab o'tganlar: "Avesto eng mo'tabar, qadimiy qo'lyozmamiz... Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir".

"Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lishi bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo'yicha mukammal ma'lumot beradigan ulkan, eng ko'hna manba hisoblanadi. Unda eramizdan oldingi ikki minginchi yillardan tortib to oltinchi asrgacha bo'lgan davrdagi Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma'lumotlar bor. Bundan tashqari ushbu obidada iqtisodiy hayot, jo'g'rofiya, falakiyot, ilmi nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotga doir ko'p qimmatli ma'lumotlar mavjud.

"Avesto"da olov, tuproq, suv va havo muqaddas hisoblangan. Unga ko'ra yer, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni ozoda tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. Yemi iflos qilgan va uni asrlash qoidalarini buzgan shaxslar 400 qamchi urish bilan jazolangan. "Avesto"dagi muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash. Shu yo'l bilan mikroblar o'ldirilgan yoki kamaygan.

2. Otash, issiqlik va sovuqlik yo'li bilan yo'qotish. "Avesto"da otash poklovchi va ofat ketkazuvchi vosita. U bilan hatto kiyim-kechaklarni zararsizlantirilgan.

3. Kimyoviy yo'l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar tutatish yo'li bilan.

"Avesto"da doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi.

Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Ma'lumki, jahon madaniyati xazinasining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan arab tilidagi adabiyot faqatgina arablar emas, balki ko'pgina xalqlar namoyandalari tomonidan yaratilgan o'lmas yodgorlik bo'lib, u o'z taraqqiyotida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Abbosiy xalifalar /750 – 1258/ davrida,

ayniqsa dastlabki, uch asrda fan va adabiyot, shuningdek, tarixnavislik ham ravnaq topdi. Xalifalikning poytaxti Bag'dod shahri adabiyot va ilmiy tafakkurning markazlaridan biriga aylanib, arab tili esa ilm va fan ahllari uchun asosiy vosita rolini o'ynadi.

Chunonchi, G.N.Sharbatov ta'kidlaganidek, "arablar hamda madaniyat va ilmu fanda arab tilini xalqaro til tariqasida qo'llagan O'rta Osiyo, Eron, Kavkaz va Sharqning boshqa xalqlari tomonidan yaratilgan ko'pdan-ko'p badiiy, tarixiy, jug'rofiy, ilmiy va diniy asarlar ham mana shu davrning mahsulidir".

Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O'rta Osiyodabir nechta turdagi ta'lim muassasalari (maktab, madrasa, qorixona, daloilxona) mavjud edi.

Maktablar boshlang'ich ta'lim muassasasi hisoblanib, unda bolalarga yozish va o'qish o'rgatilgan, din haqida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Madrasalar yuqori turuvchi o'quv muassasasi hisoblangan, qorixona va daloilxona ("Daloil al-xayrot") quyi diniy xizmatchilarni tayyorlagan.

Maktablardagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rganish ko'p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3 – 4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng "Haftiyak"ni (fors. "Qur'onning ettidan bir qismi") o'qishni boshlaganlar. Maktabni tamomlagan o'quvchilar ta'limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo'limdan, ya'ni: quyi (ibādat al-'islām) va yuqori (mas'ola) bo'limlardan iborat bo'lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo'limlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo'lim "mushkulāt" deb yuritilgan.

Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbayi. "Qur'on" – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida "qiroat" ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. "Qur'on"ning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, "Qur'on"da uylanish, er-xotin, ota-ona va farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va muslimaning oila qurishi Ollohning farzi ekanligi ta'kidlanib, "Qur'oni Karim"ning "Baqara" surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: "Xotinlaringiz sizlarning ekinzor yerlaringiz bo'ladi. Ziroat yerlari urug' sepganda samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o'z xotinlaringiz farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini iymonlilarga bergin".

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. Islom olamida Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyligi puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahih deyiladi. Sahih so'zining ma'nosi sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadisni rivoyat qiluvchi kishi isnod, hadislarni to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Hadislarni to'plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan va bilganlardan yozib olingan ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to'plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa'd al-Ansoriy, Ibn Jurayj

kabilar bo'lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, imom ibn Majj' Kazviniy, Abu Iso Muhammad as-Samarqandiy, imom at-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to'plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug' alloma birgina "Al jome' as-sahih" ("Ishonchli majmua") asari ustida o'n olti yil ish olib borgan va olti yuz ming hadisni to'plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, "Al-jome' as-sahih" asaridan odob-axloq mavzusiga bag'ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad ("Adab durdonalari") deb nomlangan bo'lib, bu asar 1322 ta hadisni o'z ichiga olgan.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratgan asarlari ichida, "Al-Jomi' as-sahiyh" ("Ishonchli to'plam") eng asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek "al-Jomi' al-kabiyr" ("Katta to'plam"), "Sahiyh at-Termiziy", "Sunan at-Termiziy", ("Termiziy sunnatlari") kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi ibn Hojar al-Asqaloniyning yozishicha at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiy) yilda, ya'ni qariyb oltmish yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitoblarning tarbiyaviy abamiyati. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni. Arab istilochilarining Movarounnahrdagi g'alabasidan so'ng barcha mustamlaka mamlakatlar qatori u yerda ham Islom dinining asoslari xususida ma'lumot beruvchi muqaddas kitob – Qur'on yaratilgan til – arab tilini o'rganish joriy etildi.

Diniy ulamolarning maxsus ko'rsatmalariga muvofiq muqaddas kitobni boshqa tillarga tarjima qilish ta'qiqlandi. Shu bois musulmon maktablarida asosiy manbaning tili hamda fan sifatida arab tilining o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Mustaqillik tufayli diniy kitoblar ko'plab chop etilyapti. Madrasa ko'rmasak ham, diniy ilmlarga ega bo'lyapmiz, qiyin

joylarini ilmli kishilardan so‘rab-surishtirib, o‘rganyapmiz, Allohga shukrlar bo‘lsin. Biroq, diniy kitoblarning ba’zi o‘rinlarida hozirgi o‘quvchini ishontirmaydigan, ba’zan e’tiroz uyg‘otadigan, haqiqatdan yiroq jumlalar uchrab qoladi. Qadimgi kitoblarni o‘ylamay-netmay tarjima qilib yoki harfini o‘zgartirib nashr etish hollari uchrab turibdi, shekilli. Masalan, “Sunnani Termiziy” degan qalin, katta va salobatli bir kitobda aytilishicha, Al-Buxoriy hazratlari vafot etganlarida At-Termiziy bir yil oh-voh qilib, ko‘zyosh qilgan emishlar. Bu – hech ishonib bo‘lmaydigan gap! Ayniqsa, At-Termiziydek ulamo uchun nisbat berganda!

Yana bir qimmatli kitobda payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga “ummatni hidoyat qiluvchi” sifati berilgan. Vaholanki, “Baqara” surasining 272-oyatida, “Qasas”ning 56-oyatida, “Layl”ning 12-oyatida aytilishicha, payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga hidoyat qilish vazifasi berilmagan.

Arab tilidan tarjima qilinib, qayta nashr qilingan “Tanbehul g‘ofilin” degan kitobning (“Movounnahr”, 2014) muqaddimasida (muallif Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy, qisqacha, Abu Lays Samarqandiy yozgan) shunday so‘zlar bor (7-bet): “Faqih, zohid, amal qiluvchi olim Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ibrohim Samarqandiy (rahmatullohi alayhi) aytadi: Qaysi kishini Alloh taolo odobda taniqli, ilmda nasibali, hukm va pandu nasihatlarda ibratli, solihlarning siyratiga tavaqqufli va mujtahidlarning ijtihodida bo‘lishdek ulug‘ baxt bilan rizqlantirgan bo‘lsa, bunday kishini Allohning yo‘lida harakat qilishi lozim deb bildim”.

Bu gapni ozgina tahlil qilib ko‘raylik. Avvalo, muallif o‘ziga o‘zi ta’rif berayapti. Qolaversa, “odobda taniqli, ilmda nasibali, ... ibratli” va hokazo sifatlarga ega bo‘lgan kishi “Allohning yo‘lida harakat qilishi lozim” emish. Kishiga berilgan ta’rifni qarangu, gapning iddaosiga qarang! Iddaoning hech qanaqa zalvori yo‘q, gapga umuman yopishmayapti. Muallif aytsa-aytmasa, Kishi Alloh yo‘lida harakat qilganki, aytilgan yuksak sifatlar bilan rizqlantirilgan.

Ishtibohda stilistik xato ham bor: "bunday kishini" jumlasidagi "ni" qo'shimchasi ortiqcha, gap mazmuniga halal beryapti.

592 sahifalik kitobning 543 betida hadislarga tegishli rivoyatlar keltirilgan bo'lib, aksari "Faqih Abu Lays Samarqandiy aytadi", "... rivoyat qiladi", "...otasidan rivoyat qiladi" kabi so'zlar bilan boshlanadi. Bularning rivoyat mazmuniga hech qanaqa aloqasi yo'q, ortiqcha yuk bo'lib turibdi.

Bunday qaytariqlar matn muallifini eslatib turish uchun yozilgan bo'lsa kerak. Qadimgi qo'lyozmalarda kitob muqovasiga muallifni, kitob nomini chiqarib yozish odat bo'lmagan, ehtimol, imkoni ham bo'lmagan. Hozir, kitobat amaliyoti taraqqiy etgan zamonda, o'sha qaytariqlarning hammasini yig'ishtirib olib, muallifning muqovaga chiqarilgan nomi bilan almashtirish mumkin edi. Shuningdek, kitob boshida qisqagina izoh berib ketish ham yordamchi vosita bo'lar edi.

Arab millatiga mansub mualliflarning o'sha mamlakatlarda nashr etilgan kitoblarida ham xatolar uchrab turar ekan. Shunday holatni Muhammad Huzariyning "Nur ul-yaqin" kitobida uchratish mumkin ("Cho'lpon-Kamalak", 1992-y.). "Hayit namozi" sarlavhali qisqagina matn "Shu yili Olloh taolo musulmonlarga hayit namozini o'qishni farz qildi", – degan so'zlari bilan boshlanadi. Farz qilingan bo'lsa, Qur'onda aytilgan bo'lar edi, lekin Qur'onda hayit namozlari haqida hech gap yo'q, hadislarda – bor.

Qadimda islom ilmidan xabari bor va yozish-chizish qo'lidan keladigan odamlar hikoyatlar yoki kitoblar yozavergan. U vaqtlarda taqriz, tanqid degan gaplar bo'lmagan. Sifatidan qat'i nazar, diniy masalalar haqida bir nimalarni yozishning o'zi favqulodda hodisa sanalgan. O'tmishdagi ilmli kishilar ham, o'zimiz singari, qusurli bo'lishgan, nimanidir yaxshi bilib, nimalarnidir ozroq bilishgan. Tabiiyki, yozma yodgorliklarga kamchiliklar, noto'g'ri ta'limotlar kirib qolavergan.

Tasavvufga oid hikoyatlarda ham shunday holatlar ko‘p uchraydi. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti 2014-yili Muzaffar Xilvatiyning “Muhabbat – sharob” nomli risolasini chop etdi (tarjimon Jamol Kamol). Tasavvuf – o‘xshatishlar, ramzlar, timsollarga boy ilm ekanligi ma’lum, lekin bularni deb, masalaning boshqa jihatlariga putur yetkazish yaxshi emas-da! Masalan, yangi qabr qazilganda chirib ketgan kalla suyagi tashqariga chiqib qolib, shunday tashlab qo‘yilgan emish. Yana, uning tishlari orasida bitta yasmiq doni saqlanib qolgan emish. Dafn marosimiga kelgan bir odam o‘sha donni olib, og‘ziga solgan emish. Bu gaplarning hammasi “Birovning nasibasini birov yutib ketolmaydi”, – degan so‘fiyona ta’limotni tushuntirish uchun to‘qilgan. Boshqa bir hikoyatda esa, katta majlis qilib turgan shayx, to‘g‘ri so‘z uchta odamni xaloyiq oldida, eshak, deb haqorat qilgan emish. Shayx hech qachon bunaqa ish qilmaydi! Bu hikoyat, muhabbatsiz odam eshakdan ham tuban, degan ta’limotni tasvirlash uchun aytilgan...

Gapni muxtasar qilsak, qadimgi diniy yozma manbalarni tarjima qilishda, nashrga tayyorlashda juz’iy xatolarini tuzatib, tegishli izohlar berib ketish maqsadga muvofiq. Jiddiy xatolari bo‘lsa, nashr masalasi, albatta, diniy idoraning qaroriga bog‘liq bo‘ladi.

Qur’oni Karimda – axloqiy-falsafiy ta’limotlar. Hadis ilminng paydo bo‘lishi. Muhaddislar imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalarning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi. VIII asrning I yarmida arablar O‘rta Osiyoda to‘liq zabt etgach, islom dini bilan birga arab tili va yozuvi, arab madaniyati ham kirib keldi. Natijada oilaviy munosabatlarda ham shariat qoidalari, islom ahkomlari faol qaror topa boshladi. Islom dinining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim” mazkur davr oila muammolari, er-xotin, ota-ona va farzandlar munosabatlari, bola tarbiyasi kabilarni yo‘lga qo‘yishda dasturul-amal vazifasini bajargan.

Yettinchi asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan Qur'oni Karim islom dini ta'limotida bosh manba hisoblanadi. Qur'oni Karim Alloh taolo tomonidan Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga 23 yil mobaynida sura, oyat tarzida farishta – Jabroil alayhissalom orqali ilohiy vahiy sifatida, arab tilida, og'zaki nozil qilingan. Kur'oni Karimning oyatlari bir joyda emas, balki Makka, Madina, Toif, Juhfa, Baytil-maqdis, Hudaybiya kabi shaharlarda va Mino, Arafot, Badr, Uhud kabi joylarda nozil qilingan.

Bundan tashqari hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri uylanishdan oldin yigitning qizga "qalin puli" to'lashi masalasiga e'tibor qaratilib, unda belgilangan qoidalarga rioya qilishligi "Niso" surasining 4-oyatida shunday uqtirilgan: "Xotinlaringizga mahrlarini hadya kabi beringiz! Agar o'zlari sizlar uchun u mahrdan biron narsani ixtiyoriy ravishda kechsalar, sizlar uni pok va muborak bilib yeyaveringlar".

Uylanish majburan emas, yigit va qizning bir-biriga muhabbati asosiga qurilishi, agarda er-xotinlik mehr-muhabbatsizlik asosida bo'lsa, bunday oilaning poydevori zaif bo'lishi "Rum" surasining 21-oyatida ta'kidlab o'tilgan: "Sizlarga o'z jinslaringizdan juft yaratdi, toki siz o'z juftingiz bilan orom topingiz. Xotinlar va erlaringiz o'rtasida muhabbat va mehribonchilik ehson qildi" yoki "Niso" surasining 128-oyatida "Ayollarga yaxshi muomalada bo'linglar", deya nozil qilingan. Shu bilan bir qatorda ayollarning erlari oldidagi burchlari ham ko'rsatib berilgan. Niso surasining 34-oyatida "Yaxshi ayollar o'z erlariga itoat qilgan xotinlar, erlarining mollarini va o'z nomuslarini nobudlik va begonalar qo'lidan himoya qiladiganlar", – deb madh etiladi.

Ayollar va erkaklarning o'z nafslarini tiya olishlari, diyonat, iffat kabi xislatlarni o'zlarida mujassamlashtirishlari zarurligi, er-xotin murosa-madora qilib yashashi zarurligiga ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Qur'oni Karim"da iffat va nomusning erga ham, xotinga ham barobar ekanligi "Nur"

surasining 30 – 31 oyatlarida shunday bayon etilgan: "Ey, Muhammad! Ahli islom erkaklariga aytgin: oshkor va yashirin ko'zlarini haromdan yopsinlar va nafslarini haromdan tiysinlar. Bu harakat ularning o'zlariga pokizaroq, yaxshiroq ko'rinadi. Xudovandi olam qilgan har bir ishdan xabardordir. Ayollarga ham aytgin: ko'zlarini va o'z nafslarini haromdan saqlasinlar". Erlarning xotinlari bilan murosa-yu, madora qilib yashashlari lozimligi "Niso" surasining 31-oyatida: "Ey ahli islom kishilari! O'z x'otinlaringiz bilan yaxshi muomala qiling. Agar ularga nisbatan mehringiz bo'lmasa ham (sabr qiling va yaxshi muomalani tark etmang). Zero, Alloh taolo sizlarga yomon ko'rgan narsada ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lishi mumkin" tarzida aytib o'tilgan.

Hadis (arab. – xabar, gap, yangilik) – Muhammad (S.A.V.) aytgan so'zlari, qilgan ishlari, iqrorlari to'g'risidagi rivoyat. Islom dinida Qur'on karimdan keyin ikkinchi manba hisoblanadi. Hadis 2 qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. Hadis 2 turga – Hadisi qudsiy (ma'nosi Alloh taoloniki, aytilishi rasululloh tomonidan bo'lgan hadislarlar) va Hadisi nabaviyga bo'linadi. Hadislar e'tiborga olinishi jihatidan 3 qismga bo'linadi: 1) sahih (ishonchli); 2) hasan (yaxshi); 3) zaif.

Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniqlik kiritish va izohlash uchun Muhammad (S.A.V.) o'z hadislarini aytardi. Bu hadislarni payg'ambarlarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Payg'ambar vafotidan so'ng Hadislarni naql qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan bir guruh musulmonlar uni yozma shaklda to'play boshladilar. Birinchi hadis kitobini Ibn Shihob az-Zuhriy yozdi. Undan keyin birin-ketin hadis to'plamlari tasnif etila boshladi. Lekin bu to'plamlar muayyan tartibga solinmagan, boblarga ajratilmagan bo'lib, ularda payg'ambar hadislari bilan sahobalar va tobe'inlarning fatvolari chalkashtirib yuborilgan edi.

Hijriy 3-asrda hadis ta'lif etish sohasida "musnad", "sahih", "sunan" deb atalmish turli yo'nalishlar vujudga keldi. "Musnad"

yo‘nalishida tasnif etilgan to‘plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko‘ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan. Abu Hanifa, Ahmad ibn Hanbalg‘ging hadis kitoblari shu yo‘nalishga mansub. “Sahih” yo‘nalishiga tug‘ri, ishonarli hadislar kiritilgan. Bu yo‘nalishga Imom Buxoriy asos solgan. “Sunan” yo‘nalishidagi to‘plamga esa, to‘g‘ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda “zaif” hadislar ham kiritilgan. Abu Dovud, Abu Iso at Termiziy, Nasoiy, Ibn Moja to‘plamlari shu yo‘nalishta mansubdir.

Movarounnahrda birinchi bo‘lib Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy hadis to‘plamini ta’lif etgan. Bundan tashqari Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rohavayh al Marvaziy, Haysam ibn Kulayb ash Shoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma’qul an Nasafiy va boshqalar hadis to‘plamlarini tasnif etishgan. Keyinchalik, milliy-siyosiy ixtiloflar natijasida, payg‘ambar nomidan yolg‘on hadislar to‘qish, fiqh va kalom ilmi sohasidagi ziddiyatlar, amir va hokimlarga xushomadgo‘ylik oqibatida ko‘plab ishonarsiz, to‘qima hadislar yuzaga kelgan.

Davr o‘tishi bilan hadislar tanlanib, muhim deb hisoblanganlari bir tizimga solina boshladi. IX – X-asr boshlarida dindorlar orasida eng ishonchli deb tanilgan hadisning 6 ta to‘plami vujudga kelgan. Bular: “Sahihi Buxoriy”, “Sahihi Muslim” (qarang Muslim ibn Hajjoj), “Sahihi Termiziy”, “Sunani Abi Dovud”, “Su-nani Ibn Moja”, “Sunani Nasoiy”. ko‘proq e’zozlanadi. Bu 6 ta hadis to‘plamini tuzgan muhaddislardan 2 tasi movarounnahrlik, 4 tasi esa xurosonlik bo‘lgan. Hadislar to‘plami sunna deb nom olgan. Hadislarni yig‘uvchi, sharhlovchi, targ‘ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan.

Islomni qabul qilgan xalqlar madaniy va g‘oyaviy merosining ko‘p unsurlari islomga hadis shaklida o‘tgan. Hadis yig‘ish o‘rta asr musulmon madaniyatining muhim xususiyati bo‘lib, bilim izlashning asosiy mazmuni hisoblangan. Hadislar

qanday ilmiy asarni asoslashning muhim qismi bo‘lgan; undan hikmatli so‘z va matal sifatida ham foydalanilgan. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asari islom olami oliy o‘quv yurtlarining shariat f-tlarida asosiy o‘quv qo‘llanmasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” Hadislar to‘plami 4 jildda (1-j. – 1991, 2-j. – 1996, 3-j. – 1994, 4-j. – 1992), 2-nashri esa 1997-yilda Toshkentda nashr etildi. Abu Iso Muhammad Termiziyning “Sahihi Termiziy” Hadislar to‘plami 1-jildining o‘zbekcha tarjimasi 1999-yil Toshkentda chop etildi. Bulardan tashqari “Ming bir hadis” tarjimasi, “Qudsiy hadislar” tarjimasi ham nashr etildi.

Hadis (حديث) Muhammad alayhissalomning aytgan gaplari, ta’kidlari yoki qilgan ishlari tasvirlangan manbalardir. Hadisni muhaddislar yig‘adi va o‘rganishadi. Hadislar shariat normalari asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 14 – 15-aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi”.

Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi.

Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim jarayoni tuzilmasi va vazifalarining mohiyatini yoritib bering.

2. O'quvchilar tomonidan bilimlarning egallanishini ta'minlovchi jarayonining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?

3. Ta'lim tamoyili nimani anglatadi? Misollar keltiring.

4. Sharq Uyg'onish davri allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino) ilgari surgan ta'limiy qoida va tamoyillarini ta'riflab bering?

5. Ta'lim mazmunining mohiyati nimadan iborat?

6. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta'riflab bering.

7. Hozirgi bosqichda ta'lim mazmunini belgilash asosiy g'oyalarini (asoslarini) aytib bering.

Nazorat uchun testlar:

1. "Qutadg'u blig" asarining muallifi kim?

A)*Yusuf Xos Hojib;
B) Muso al-Xorazmiy;
C) Mahmud Qoshg'ariy;
D) Ahmad Yugnakiy.

2. Didaktik qarashlar ilgari surilgan "Xibat ul-xaqoyiq asarida kimning qalamiga mansub?

A) Yusuf Xos Hojib;
B) Muso al-Xorazmiy;
C) Mahmud Qoshg'ariy;
D)*Ahmad Yugnakiy.

3. Bu darsning tuzilishi quy idagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tushunishini tekshirish va bilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?

A) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;

B) ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;

C) yangi material bilan tan ish ish darsi;

D) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;

E) bilimlarni tekshirish darsi.

4. O'qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko'rsatiladi:

A) yordamchi, sinfdan tashqari ish;

B) konsultatsiya, instruktaj, konferensiya;

C) frontal, guruhli, individual;

D) diagnostika (tashxis qilish, bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish);

E) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

2. Ҳасанбоев Ж., Ҳасанбоева О., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.

3. Сафо Очил., Ҳошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

4. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 2010.

5. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т.: NOSHIR, 2012.

6. Атаева Н., Расулова Ф., Ҳасанов С. Умумий педагогика (Педагогика тарихи). – Т.: "Fan va texnoligiya", 2011.

12-mavzu. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi. Sharq uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji.

Reja:

1. IX – XI asrlar – Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishi.
2. Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-pedagogik qarashlari.
3. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim tarbiya masalalari, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari pandnoma asar sifatida.
4. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: uyg'onish davri, ilmiy-pedagogik qarashlar, ta'lim tarbiya masalalari, pandnoma asar, didaktik qarashlar, qomusiy allomalarning ta'lim tarbiyaga oid qarashlari.

IX – XI asrlar – Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishi. Arab xalifaligi yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yagona Islom dinining tarkib topishi madaniy hayotga ham ta'sir etdi. Madaniy hayotda yuz bergan ko'tarinkilik ma'naviy hayotda ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

Ana shu ko'tarilish butun Arab xalifaligini, Yaqin va o'rta Sharqni qamrab olganligi uchun ham Sharq uyg'onish davri deb ataldi. Bu uyg'onish jarayoni IX asrdan boshlab XV – XVI asrlargacha davom etdi.

Arab xalifaligida IX asrda vujudga kelgan Uyg'onish davri xalifalikning Bag'dod, Damashq, Xalab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u

davlatlarning ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlagan. Xalifalik yemirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.

Xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786 – 833-yy.) va uning O'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda "Bayt – ul-hikmat" ("Donishmandlik uyi") (hozir Akademiya ma'nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan. Akademiya 813 – 833-yillarda yanada rivojlangan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va g'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz.

Zero, xalifa al-Ma'mun ilm fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Farg'oniy, al-Marazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan. Al-Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach u olimlarning barchasini Bag'dodga chaqirib oladi va "Bayt-ul-hikmat" – donishmandlik uyi ("Ma'mun akademiyasi")da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Shuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati bo'lsin, Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu yerda ilgari mavjud bo'lgan fan va madaniyat o'choqlarini yo'qotgan bo'lsalar, ko'p o'tmay qadimiy ilmiy an'ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning yetuk siymolari etishib chiqa boshlaydi.

Bularning barchasining bir-biriga qo'shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

Yaqin va o'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkazorti va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi. Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalishga olib kelgan asosiy sabab – feodal munosabatlarning yangi bosqichi bo'ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab xalifaligiga bo'ysungan mamlakatlarning xo'jalik-iqtisodiy aloqalarining kuchayishi va buning oqibatida turli madaniyatlar – Hind, Movarounnahr, Eron, Arab, Misr, Grek, Yunon, Rim madaniyatlarining yaqindan o'zaro aloqasi va bir-biriga ta'sir etib borishi katta rol o'ynadi. Haqiqatdan ham bu davrda iqtisodiyot taraqqiy etdi, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik rivojlandi.

Bu davrda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kengaydi, ko'plab sug'oriladigan yerlar ochildi, sug'orish inshootlari tiklandi, yangilari qurildi, paxta, zig'ir, kanop ekilib, ularning tolasidan mato to'qildi. Movarounnahrda, xususan, Xorazm, Urganch, Farg'ona, Samarqand va Buxoro to'qimachilik mahsulotlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik, sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo'l ochdi. Natijada Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko'lami ortib bordi.

Pireney yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarixining yangi sahifalarini ochib berdi. Bu jarayonning, ayniqsa, Yevropa uchun ahamiyati beqiyos bo'ldi. Sharq faqatgina Yevropa madaniyatining rivojiga ta'sir etibgina qolmay, balki umuman, Yevropalik odamning psixologiyasi, tafakkuri, xarakteri, hayot tarzini tarixiy jarayonni tubdan o'zgartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida matematika, falsafa,

astronomiya, tabiiyot, tibbiyot, xulq-odob, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'sir etdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishida xalifalikning yemirilishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar, albatta madaniy hayotga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch O'sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Ammo hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

O'sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo'lgan. Kitob do'konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy muloqot, munozaralar o'tkazganlar. Abu Ali ibn Sino kitob do'konlaridan birida Forobiyning Aristotel "Metafizika"siga yozgan sharhlarini sotib olganligini tarjimai holida hikoya qiladi.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo'lgan.

Amir kutubxonasini o'sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar ijod etganlar. X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ham ba'zi xonlar o'z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va hatto

G‘arbiy Yevropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan asarlarini yaratdilar. XI asr boshida G‘aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati tashkil topdi. G‘aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlandi. Mahmud G‘aznaviy o‘z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to‘playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning mashhur “Hindiston” asarini shu yerda yaratgan edi.

Saljuqiylar davrida Alp-Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizom ul-Mulk o‘z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma’rifatparvar kishilaridan bo‘lgan.

Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo‘lib, bu hokimyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi. U g‘aznaviylar ish uslubiga bir oz o‘zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o‘zining “Siyosatnoma” asarini yaratadi (1091 – 1092-yy.). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari-prinsiplari bayon etiladi. Nizom ul-Mulk maorifni rivojlantirishda katta xizmat qiladi. 1067-yilda Bag‘dodda o‘zining shaxsiy jamg‘armasiga o‘sha davrning eng mashhur O‘quv yurti – “Nizomiya” madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so‘fiylarga katta e’tibor berib, g‘amxo‘rlik qiladi. Uning katta xizmatlaridan yana biri taqvimni isloh qilgani. U 1074-yili o‘rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim hozirgacha eng takomillashgan kalendarlardan biri hisoblanadi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma’mun II o‘z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan “Bayt-ul-hikma” – Donishmandlar uyi tarixda “Ma’mun akademiyasi” deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl

al-Masixiy, tabib Abulxayr Xammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug'ullanganlar. Lekin toj-taxt uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o'z faoliyatini to'xtatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi – Uyg'onish davrining boshlanishga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, Sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy Abu Ali ibn Sinoning ilmiy-pedagogik qarashlari. O'rta Osiyoning emas, balki umuman Yaqin va O'rta sharqning mashhur mutafakkirlari bo'lgan Abu Nasr Forobiy IX – X asrlarda iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan, feodal to'qnashuvlar avj olgan. Turli ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi kurashlar keskinlashgan, davrda yashadi va ijod etdi.

Abu Nasr Forobiy yashab ijod etgan davrda O'rta Osiyo arab halifaligiga bo'ysundirilgan edi. Bu davrda hindchadan, forschadan va grekchadan turli ilmiy va falsafiy, badiiy asarlar arabchaga tarjima qilindi. Galen, Gippokrat, Ptolomey, Evklid,

Aristotel kabi qadimgi grek olimlarining asarlari tarjima qilindi. O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida halifalikka bo'ysundirilgan xalqlarning boy madaniyati ta'sirida tabiatshunoslik ilmlarining yutug'i va ig'or grek falsafasi ta'limoti ta'sirida original va progressiv ijtimoiy-falsafiy oqim vujudga keldi.

Asarlari: "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Fozil odamlar shahri", "Aql ma'nolari haqida", "Shaharni o'rganish haqida" va boshqalar.

Pedagogik qarashlari:

- Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir: Ta'lim – so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya – esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.
- Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish.
- Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, hiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.
- Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi.

Abu Nasr Farobiy o'z davridagi barcha ilmlarni ilg'or madaniy yutuqlarni o'zlashtirib, ular asosida orginal ijtimoiy-siyosiy va falsafiy sistemasini olg'a surgan, ta'lim-tarbiya sohasida ham ko'p ilg'or fikrlarni aytib o'tgan, zamonasining mashhur faylasufi, yetuk olimi edi. Forobiyning ilmiy biografiyasi yaratilmagan, uning hayot yo'li haqida biror maxsus asar yo'q. Forobiyning to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon ibn O'zlik bo'lib, u 260 hijriyda, ya'ni 873 – 874 melodiy yilda hozirgi Toshkentning g'arbiy-shimolida, Ares suvining Sirdaryoga qo'yiladigan yerda Farob (so'ngroq O'tror) degan joyda tug'ilgan. Abu Nasr boshlang'ich ma'lumotini o'z yurtida oladi, so'ng o'qishini davom ettirish

uchun markaziy shaharlarga jo'naydi. U Samarqandda, Buxoro, Marv, Rey shaharlaridan o'tib, Bog'dodga boradi. Bu davrda arab halifaligining markazi Damashqdan yangi qurilgan Bog'dod shahriga ko'chirilgan va Sharqning madaniyati va markazlaridan biriga aylangan edi. Forobiy bilim olish maqsadida diniy tafovud va e'tiqodga e'tibor bermay, arab, fors, grek, xristian olimlaridan ta'lim oladi. Farobiy muallimlari va ustozlaridan ayrimlarining nomi manbalarda saqlanib qolgan. U meditsina va mantiq ilmini Xirron shahriga borib, xristian vrachi Yuxanna ibn Xaylan Kunnoidan, hikmat va grek ilmini xristian Abu Bashar Maytodan o'rganadi. U ayniqsa, nazariy ilmlar mantiq, matematika, nazariy meditsina va falsafaning umumiy masalalari bilan qiziqdi. Forobiy ayniqsa grek falsafasini, xususan, Aristotelning asarlarini izchil va chuqur o'rganib chiqadi. Bog'dodda u arab tilini va boshqa tillarni o'rgandi. X asrga kelib arab halifaligining markazi Bog'dod juda notinch bo'lib qoldi. Qo'zg'olonlar feodal urushlari avj oldi. Farobiy Bog'doddan Damashqqa bordi. Manbalarda umumiy Xalab va Misr shaharlariga borganligini ham hikoya qilinadi. Ba'zi manbalarda Farobiyning O'rta Osiyoga kelib ketganligi ham qayd etiladi. Umrining so'nggi yillarida Damashqda Said-ud-Davla saroyida zamonasining elkparvar shoiri va mutafakkiri Mutannabiy bilan birga o'tkazdi va 339 hijriyda ya'ni 950 melodiy yilda vafot etdi. Manbalarda uning Damashqda ko'milganligi ko'rsatiladi. Forobiy asarlarining umumiy soni 100 bilan 120 nom atrofida faraz qilinar edi.

1950-yilda Farobiy vafotining 1000 yilligi munosabati bilan Farobiy haqida Turkiyada chiqqan maqolalarda birining avtori Ahmad Otash Farobiyning 152 ta asari bo'lganligini nomma-nom sanab o'tadi.

Ta'lim-tarbiya haqidagi ma'lumot va fikrlar har doim ma'lum metodologiyaga, dunyoqarash sistemasiga falsafaga asoslanadi. Bu nazariy asoslari bilan olam haqidagi falsafiy ta'limot hamda va insonning ruhiy hayoti haqidagi ta'limotdan

iboratdir. Forobiyning ruhiy protsesslari haqidagi ta'limoti, ya'ni psixologiya ilmining rivojlanishiga qo'shgan hissalari uning falsafiy ta'limoti bilan uzviy bog'langan. Forobiy ta'limoticha to'rt element-olov, tuproq, suv, havo ya'ni sodda substantsiyalarning o'zaro aralashuvi, qo'shiluvi protsessida murakkab substantsiyalar vujudga keladi.

Forobiy o'simlik, hayvon va insonga oid bo'lgan xususiyat va qobiliyatlarni bir butun holda quvvat deb atab, uni o'sish quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat deb 3 ga ajratadi. Hozirgi ilmiy termenologiya bo'yicha, Farobiyning quvvatlari haqidagi klassifikatsiyasini organizmdagi protsesslarni biologik, fiziologik-psixik va fikrlash protsesslariga ajratish deb tushinmoq lozim. Biologik protsess barcha tirik organizmga fiziologik-psixik protsess hayvonlarga aqliy intelektual protsess, ong faqat insonlargagina xosdir. Farobiyning inson va uning psixikasi haqidagi fikrlari, "Ideal shahar aholisining fikrlari", "Masalalar mohiyati", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Jism va agtsidentsiyalarning shakllariga qarab bo'linishi", "Shaharlardan", "Hikmat ma'nolari", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi qator asarlarida bayon etilgandir.

"Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolasida bilimlarni o'rganish tartibi birma-bir sanab o'tiladi.

"Bundan keyin, – deb davom etadi Farobiy-insonni o'rganishga kirishamiz va shuning natijasida insonning kim va qanday narsa ekanligini bilib aniqlab olamiz. Shundan keyin biz insonning kamolotga erishuviga sabab bo'lgan narsalarni o'rganishga boshlaymiz. Bu narsalar esa xayri-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvidan mahrum qiladigan salbiy xislatlarni o'rganish yo'li bilan ajratib olamiz. Bu salbiy xislatlar har turli yomon odatlar, nuqsonlar va bema'ni xatti-harakatlardir. Biz bu yomon xulq-atvor, bema'ni xatti-harakatlarning o'zi bilan tanishib chiqamiz".

Forobiy "Ixso al-ulum" (Ilmlarning tartibi) asarida ham o'rta asrda ma'lum bo'lgan barcha ilmlarni sanab o'tar ekan, madaniy ilmlarni, ya'ni insonning ijtimoiy hayoti to'g'risidagi ilmlarni barcha boshqa ilmlardan, grammatika, logika, matematika (falsafa) ilmlaridan so'ng tahlil qiladi va xarakterlab beradi. U barcha ob'yektiv reallikdagi narsa hodisalarning vujudga kelish tartibi, materiyaning rivojlanish tartibi asosida tartibga solib chiqishga harakat qiladi.

"Aql va nafs", – deb yozadi Farobiy. "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" degan risolasida, – o'zining cheksiz kamoloti bilan borliqda inson bilan gavdalanadi, ammo bu boshlang'ichlar odamzotning shu tabiiy boshlang'ichlar ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishi uchun kifoya qilmaydi. Chunki inson inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb-hunarga muhtojdir.

Inson bilimi, umumiy dunyoqarashning o'zgarishida tarbiyaning rolini ta'kidlab, Forobiy "Ixso al-ulum" asarida bunday deydi: "Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar noo'rin ko'rinadi ... U bilim va tajribaga ega bo'lganidan so'ng, fikri o'zgaradi, noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi".

Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan uning ikki tomoniga-aqli-axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha insonni aqliy tomonidan ham yetuk, mukammal kishi qilib etishtirishga qaratilmog'i lozim: demak, ta'lim-tarbiyaning bir-biridan vazifasi-jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. Farobiyning "Ideal shahar aholisining fikrlari" hamda "Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolalarida shular to'g'risidagi fikr yuritiladi, bu risolalar aqliy va axloqiy jihatdan yetuk, ideal insonlar yetishtirish va yetuk,

ideal insonlardan iborat ideal jamiyat vujudga keltirish vazifalarini bayon qilish bilan yakunlanadi.

Forobiyning insonning ma'naviy jihatdan yetuk va mukammal bo'lib etilishi zarur bo'lgan tarbiya turlari, xususan jismoniy-tarbiya, aqliy intelektual tarbiya, estetik va axloqiy tarbiya haqidagi fikrlarga alohida to'xtalib o'tishdan avval uning umuman ijobiy insoniy xislatlari nimadan iborat ekanligi, bu xislatlarni tarbiyalash usullari, tarbiya etiladigan insonning fazilatlari to'g'risidagi fikrlarni ko'rib o'tish lozim. Forobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" nomli risolasida xususan pedagogika, ta'lim-tarbiyaning vazifasi va metodlariga oid qimmatli fikrlar juda ko'p. Bu fikrlardan ma'lum xulosalar chiqarishdan avval Farobiy pedagogikasi haqida ma'lum darajada izchil tasavvurga ega bo'lish uchun ulardan ayrimlarini to'liq keltirishni lozim ko'rdik.

Forobiy insoniy quvvatlar va ularning vujudga kelishi hamda bunda tarbiyaning ahamiyati haqida to'xtab bunday deb yozadi: fikriy fazilat yordamida sodir bo'ladigan narsa kashf ixtirosining sifatida qarab, juda foydali va go'zal bo'lishi mumkin. Chunki odatda, go'zal va manfaatli ish-harakatining o'zi ham yaxshi fazilatdir, o'ta ketgan foydali narsa esa g'oyatda go'zal hamdir.

Mana bu fikriy fazilat madaniy (ya'ni ijtimoiy) fikriy fazilatdir.

Fikriy quvvat ham qismlarga bo'linadi, masalan, fikriy fazilat natijasida vaqti-vaqti bilan bir yangilik yoki eng go'zal va foydali biron narsani kashf etuvchi quvvat mana shu quvvatlar jumlasidandir.

Insonda ma'lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi va bu mazkur san'at (yoki kasb-hunar) shunday san'atki, uni yuzaga chiqarish uchun unga muvofiq tushadigan hamma narsa ish-harakatni demak, hamma san'atlarda bo'ladigan usul va harakatlarini qo'llamasdan ilojimiz yo'q. Demak, bu san'at barcha san'atlarning boshlig'i, kasb-hunar fazilatlari ichida eng

kuchlisi, quvvatda ham boshqa hamma san'atlarning kuchlirog'i. Uni amalga oshirishga yordam beruvchi tug'ma fazilat esa quvvatda hamma tug'ma fazilatlarning eng zo'ri va kattasidir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish tajriba bilan amalga oshiriladi, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan, ish-harakat, kasb-hunarga o'rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni kasb-hunarga butunlay jalb etsa, demak, ular shu kasb-hunarni chinakamiga egallaydilar.

Ikkinchi yo'I (yoki usul) – majbur etish yo'lidir. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlariga nisbatan ishlatiladi. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar.

Odamlarga tarbiya berish usuli ikki turli bo'ladi. Avvalgi usul-san'atni o'z ra-batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi.

Tarbiyalanuvchining xarakteri, xohish, intilishlarga, ruhiy mayllariga qarab ta'lim-tarbiya yo asta-sekin tushuntirish, anglatish yo'li bilan olib boriladi, yoki majburlash, chora ko'rish, mo'ljallangan maqsadga bo'ysundirish va unga yo'naltirish yo'li bilan olib boriladi. Bu har ikki metod ham bir maqsadni – yetuk va mukammal inson etishtirishni nazarda tutadi. Forobiyning ta'lim-tarbiya metodlari haqidagi fikrlari bu bilangina chegaralanmaydi.

Forobiy hatto muallim va shogird-o'quvchi o'rtasidagi munosabatning nimaga asoslanishi va qanday bo'lishligi haqida ham fikr yuritadi va yetuk inson tarbiyalab yetishtirishning eng natijali yo'lini qidiradi.

Forobiyning "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida" risolasidagi quyidagi fikrlar bu jihatdan e'tiborga loyiqdir:

"... Muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka ham, bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogird muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi, agarda shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning o'qiyotgan ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo'ladi".

Insonni har tomonlama mukammal qilib yetishtirish unda ijobiy xislatlar tarbiyalash shu yuqorida ko'rsatilgan yo'llar yordamida salbiy xislatlarning ta'siriga qarshi kurash natijasida amalga oshiriladi.

Forobiy fikricha "O'zida o'n ikki tug'ma xislatni birlashtirgan" kishigina axloqli odam bo'la oladi.

- (Birinchidan), bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin;
- (Ikkinchidan), barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan;
- (Uchinchidan), xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarning birortasini ham esidan chiqarmay yodda saqlab qoladigan bo'lsin;
- (To'rtinchidan), zehni tez va o'tkir bo'lsin;
- (Beshinchidan), so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olsin;
- (Oltinchidan), bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin;
- (Yettinchidan), ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan yiroq bo'lsin;

• (Sakkizinchidan), haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga, nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

• (To'qqizinchidan), ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin;

• (O'ninchidan), dirham, dinar va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

• (O'n birinchidan), o'z tabiati bilan adolatli va adolat uchun kurashuvchilarni sevadigan, adolatsizlikka hamda jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

• (O'n ikkinchidan), adolatli bo'lsin va qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib o'zbilarmonlik qilmasin, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin.

• Forobiy bu fazilatlar ichida ayniqsa donolikka, aqllilikka katta e'tibor beradi. Forobiy estetik tarbiya haqida qimmatli fikrlar ilgari so'radi. "Muzika to'g'risidagi katta asar" kitobida muzikaning kishilar hayotidagi rolini asoslab beradi. Estetik zavqlanishning ruhiy jismni salomatlikni saqlashdagi tutgan o'rnini ko'rsatishga harakat qiladi.

• U mehnat tarbiyasi va kasbiy tarbiyaning kishining hayotidagi o'rnini ulug'lab uni "fazilatlarning raisidir" deb baholaydi: "Insonda ma'lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi" – deb yozadi. "Endi insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir". Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi.

Qomusiy olim Abu Rayxon Muhammad ibn Axmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Abu Rayxon Beruniy 362-yil 3-zulxijjada (milodiy 973-yil 4-sentabr) Xorazmning Qiyot shahrida dunyoga keldi. Berun-birun so'zi "tashqari", shahardan tashqarida degan ma'noni anglatadi.

Beruniy xali juda yosh olim bo'lishiga qaramay, Qiyot shaxrida 994 – 995-yillarda astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblar ixtiro etgan.

O'sha davrda Xorazmda va Kaspiy oldi viloyatlarida Qobus ibn-Vushmagir yosh olimga xayrihohlik ko'rsatadi. "Shams al Maoli" ("Oli martabalar quyoshi") laqabi bilan mashhur bo'lgan bu podshohga bag'ishlab Beruniy "qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozadi va unga taqdim etadi. Bu asar Beruniy nomini Yaqin va O'rta Sharqqa mashhur qildi. 1004-yilda Beruniy Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va uning yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi. Ma'mun davrida Urganchda "Ma'mun akademiyasi" nomli ilmiy markaz tashkil etiladi va u yerda musulmon sharqining yirik olimlari faoliyat ko'rsatadi.

Beruniy bir necha yil noyob metallar va qimmatbaho toshlar ustida kuzatishlar va tajribalar olib boradi va keyinchalik ana shu tadqiqotlar asosida "Mineralogiya" asasarini yaratadi. Beruniyning yana bir muhim asari munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalardir. Bu asarda ham u bir necha fanlar yuzasidan dastlabki tushuncha, ma'lumotlar berishrgan.

Ma'lumki, Maxmud G'aznaviy Xindistonga qarshi bosqinchilik yurishlarini olib borgan. Ana yurishlarning birida Beruniy ham G'aznaviyga hamrox bo'lib bordi. U sanskrit (eski xind tilini) bilganligi hind halqi madaniyati, adabiyoti va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi va bu mehnatlari natijasida 1030-yilda o'zining Sharq va G'arbda keng e'tirof qilingan mashhur "Hindiston" asarini yaratadi. Kitobning to'liq nomi "Kitobu fi taxkiki molil Hind ma'kulatin makbo'latin fil Aqli av marzulatin", ya'ni "Hindlarning sig'adigan sig'maydigan ta'limot asarini aniqlash kitobi" bo'lib, o'qishga qulay bo'lishligi uchun qisqacha "Taxkiku mo-mil Hind" – ("Hindistonga oid tadkiqotlar" yoki "Hindiston") deb yuritiladi.

Beruniy astranomiyaga oid "Al-qonun al-Mas'udy" ("Mas'ud qonuni") nomli yirik asarni shoh Mas'udga bag'ishlaydi. Beruniy yana "qimmatbaho toshlarni bilib olish bo'yicha ma'lumotlar to'plami" ("Mineralogiya"), "Dorivor

o'simliklar haqida kitob" asarlarini ham yozdi. "Mineralogiya" sharqdagina emas, yevropada ham qimmatbaho toshlarni ishlash usullarini va ular bilan savdo qilish qonunlarni o'rganish. yer osti boyliklarini tekshirish haqida ma'lumot bersa, "Saydana" nomi bilan mashhur bo'lgan keyingi asarda Sharqdagi dorivor o'simliklarning tavsifi bayon qilingan. Mutafakkir ilgari – surgan axloqiy hislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat o'rnatish, uni yovuzliklardan xalos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo'lish kerak deydi. Beruniy insonni kamolotga yetkazuvchi hislatlardan yana biri oliyjanoblik deb ko'rsatadi. Oliyjanoblikning mazmuni yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim inson sifatida muamola qilishni nazarida tutadi.

Eng muhim mutafakkir inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasi e'tirof qiluvchi irsiyat, muhim tarbiyadir. Beruniy inson har tomonlama kamolotga etish uchun u ilmiy bilishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lish kerak deydi. Zero, uning o'zi ham haqiqiy komil insonga xos hislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma'naviy meros qoldirdi.

Sharqda "Shayx ar-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh Qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Abu Ali ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida kichik amaldor oilasida dunyoga keladi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko'chib o'tgach, u boshlang'ich maktabda o'qiy boshlaydi. Undagi tug'ma qobiliyat, o'tkir zehn, kuchli xotira o'zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi

Abdulloh hamda uning do'stlari bilimdon kishilar bo'lib, ularning ilmiy munozara o'tadigan oilaviy muhim yosh Ibn Sinoga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shaxri Somoniylar davrining yirik madaniy markazi hisoblanar edi. Buxoroda ko'plab Madrasa, kasalxona nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo'lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning munozaralarida yosh Ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan hind hisobi, fiqxdan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa mantik, xandasa va boshqa fanlardan ta'lim oladi. Shundan so'ng Ibn Sino o'zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug'ullana boshlaydi. U Ayniqsa tip ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta'lim berishgan kishi buxorolik Abu Mansur Kamariy bo'ldi. Ibn Sino so'ngra falsafani o'rganishga kirishadi. Ayniqsa, Arestotel falsafasini, uning "Metafizika" asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nars Forobiyning yozgan sharxi tufayli to'liq o'zlashtirib oladi.

X asr oxiri – XI asr boshlariga kelib, o'lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashadi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga – Urganchga ko'chib o'tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayxon Beruniy boshqarayotgan "Ma'mun akademiyasida" ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Xorazmda o'zining yirik asari – "Tib qonunlari", "Ash-Shifo" kitoblari ustida ish olib boradi.

Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borlik holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nima qilishimiz kerakligini o'rgatadi deydi.

U birinchi o‘ringa etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga dav’at etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonuniyatlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson kiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. “Ey birodarlar! “Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir”.

Talabaga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir. Shunga ko‘ra Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosik, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berishi.
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqtira olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- Har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur, deydi olim.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolotga yetadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e’tibor beradi. Oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniqsa ota-onalarning oilada mehnat sevarligi bilan farzandlarini hamkasb va hunarga o‘rgatishi borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy

ta'sirini ta'kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug'laydi va qimorboz, sudxo'r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham ruhiy tomondan salbiy ta'sir etishini to'g'ri talqin etadi.

Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa Ibn Sinoning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan bo'lib hisoblanadi.

Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, jisomoniy tarbiyaning o'zaro aloqada amalga oshirishning ilmiy ta'limotini, usullarini yaratib, ta'lim-tarbiya sohasida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'laydi, undagi qudratga ishonadi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qildi.

Ibn Sinoning inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o'rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim tarbiya masalalari, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari pandnoma asar sifatida. Yusuf Xos Xojib Bolasog'unda tug'ilgan, o'z asarini yoshi ellikdan o'tganda yozgan. Asarning xijriy 462 (1069 – 1070) yozib tugallanganligi, uni o'n sakkiz oyda, ya'ni 461-yilning birinchi yarmida boshlab, 462-yilning o'rtalarida

tugatganligi, agar bu davrda Yusuf Xos Xojib 50 yoshlar atrofida bo'lsa, 410 (1019 milodiy) yillarda tug'ilganligi taxmin etiladi. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutafakkir asarni yozib tugatgach, koraxoniylar xukmdori Tavgachxon (kitobda Tavgoch Ulug Bugra Koraxon (Xoqon), Abo Ali Xasan binni Sulaymon Arslon Koraxon (xokon) nomlari bilan zikr etilgan huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitobxonga manzur bo'lib, uning muallifiga Xos Xojiblik unvonini beradi. "Qutadg'u bilig" asari katta shuhrat qozonadi. Shuning uchun ham "Qutadg'u bilig"ni chinliklar (Xitoy) "Adab ul-muluk" ("Xukmdorlar odobi"), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) "Anis ul-malolik" ("Mamlakattaning tartib usuli"), eronliklar. "Shoxnomai turkey", Sharq elida "Ziynat ul-umaro", ("Amirlar ziynati"), turonliklar "Qutadg'ubilig" ba'zilar esa "Pandnomai muluk" ("Xukmdorlar nasixatnomasi") deb atagani kitob muqaddimasiga kiritiriladi. Mazkur asarning shuxrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf; Xos Xojib o'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. Buni asarning mundarijasi va mazmunidan ham bilsak bo'ladi. U o'z asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tibbiyot, geografiya, riyoziyot, xandasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, fikxga oid fikralarni bayon etib, faylasuf va Qomusiy olim sifatida o'zini nomoyon etdi. Chunonchi u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomala, munosabatlarni yoritish Bilan diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasb-koriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

"Qutadg'u bilig" – baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim Dega ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasixatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

"Qutadg'u bilig"ning tadqiqotchilaridan biri B.To'xliyev ta'kidlaganidek, Yusuf Xos Xojib "Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning kator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir". Hozirgacha "Qutadg'u bilig"ning Xirot, Qoxira, Namangan nusxalari ma'lum bo'lib, Venaga keltirilgan Xirot nusxasini Xerman Vamberi nashr qildi va tarjimasini berdi. 1890-yilda V.V.Radlov Vena nusxasining Faksimilesini, 1891-yilda shu Faksimile asosidagi matnini nashr qildiradi. 1896-yilda Qoxira nusxasi topilgandan so'ng, undan ko'chirma olgach, V.Radlov har ikki nusxani qiyoslab 1910-yilda rus grafikasiga asoslangan to'liq transkripsiyasini nemis tiliga tarjimasi bilan nashr ettirdi. 1913-yilda esa uning uchinchi nusxasi Namanganda topilib, keyinchalik olimlar bu asarni tadqiq etishga kirishdilar.

Demak, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asasarini ilmiy jihatdan o'rganishga juda ko'p olimlar hissa qo'shgan. V.V.Radlov, X.Vamberi, S.E.Malovlar uni tarjima etib, nashr qilgan bo'lsalar V.V.Bartolbd, E.Berishrtels, I.V.Stebleva, O.A.Valitovalar. Har tomonlama tadqiq etdilar. Asarning mukammal nashrini tayyorlashda hamda uni tadqiq etishda o'zbek olimlarining xizmati, ayniqsa diqqatga sazovor.

Birinchi bo'lib professor Fitrat 1924-yilda Namangan nusxasini olib kutubxonaga keltiradi va u xaqda maqola e'lon qiladi. "Qutadg'u bilig"ning mukammal nashri o'zbek olimi K.Karimov tomonidan amalga oshirildi va tadqiq etildi. Uni tahlil etishda S.M.Mo'talliboyev, N.M.Mallayevlarning ham xizmati katta Yusuf Xos Xojib X asrning tashkil topgan Qoraxoniylar xukmronligi davrida yashab ijod etdi. Qoraxoniylar Sirdaryodan yettisuvgacha, Shimoli Farg'ona va butun Sharqiy Turkistonda xukmronligini o'rnatgandan so'ng Movarounnaxrning ichki xududlariga ham kirib borib, Qoshg'ardan tortib Kaspiygacha bo'lgan keng maydonda o'z

davlatini tarkib toptirgan edi. Uning markazi Qoshg'ar (Urdukent) bo'lib, shimolda Bolasogun (Ko'zurdu), G'arbda Samarkand, markazidagi Uzgand yirik shaharlardan hisoblanardi. Har bir davlatda bo'lganidek Qoraxoniylar davlatining ham idora qilish usuli, yurgizadigan siyosati, qonunlari, tarbiya tamoyillari ifodalangan komus nizomnoma zarur edi.

Yuqorida eslatganimizdek, Yusuf Xos Xojibning asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi.

Mutafakkir kitobning an'anaviy boshlanmasidan keyinroq insonning xaqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritishi bilan birga unga alohida boblar ham bag'ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma'rifatning ahamiyatini ko'rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rnini ham yoritadi. Yusuf Xos Xojibning biz tahlil etgan mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-axloqiy dostondir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Aqliy kamolot – bilim va zakovat, o'quvga ega bo'lish.
2. Axloqiy kamolot.
3. Jismoniy kamolot.

Yusuf Xos Xojib insonning, kamolga yetishining yo'l-yuriklari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. uning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda.

Xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari ulug' olim, mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy (XI asr)ning "Devonu lug'atit turk" asarida keng bayon etilgan.

"Odamning olasi ichida – yilqiniki tashqi(sirti)da".

"Ho'kizning ortin oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq".

"Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik".

"Odobning boshi – til".

"Ilon o'zining egriligini bilmay, tuyaning bo'ynini egri deydi".

"Ko'kka suzsa yuzga tushun".

"Bir qarg'a bilan qish kelmas".

"Keng to'n to'zimas, kengashli bilig artamas".

"Kichikda qatiqlansa ulg'adu sevinur".

"Erdamsizdan qurt chertilur".

"Qutadg'u bilig" – baxt-saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak asar nomidan ham uning pand-nasixat, ta'lim-tarbiyaga oid yetuk didaktik asar, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalaydigan darslik ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. "Qutadg'u bilig" asari Sharqda pandnoma turkumidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilingan holda tuzilgan.

Avval nasriy muqadddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, hamda, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lim maqsadi, o'n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik xaqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea bayoni e'tirof etiladi. Lekin asarda to'rt qahramon – Kuntug'di – adolat ramzi, vazir – Oyto'ldi – davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'g'dulmish – aql ramzi, sifatida, O'zgurmish – vazirning qarindoshi – qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga ko'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

Asar 1076 – 1077-yillarda yozilgan va yoshlarga nasihatlar tarzida tuzilgan she'riy parchalardan iboratdir. Devondagi qo'shiqlarda tabiat, ov va jang manzaralari, sevgi – muhabbat va o'git – nasihatlar o'z ifodasini topgan.

She'rlarda ilm olishning qadri, bilimli kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik va jasurlikni targ'ib qiluvchi, baxil, ochko'z, do'stga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi.

Pand – nasihatlarda asosiy o'rin ilm olishga undashga, uning foydasini targ'ib etishga qaratilgan. Ko'plab tarbiyaviy xarakterdagi maqollar ham berilgan.

- O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar,
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar.
- O'quv qut beradi, bilim – sharaf-shon,
Shu ikkov tufayli ulug'dir inson.
- Yaxshi nom oladi, ko'r, ezgu kishi,
Yomonlar nasibi – el-yurt qarg'ishi.
- Kishiga chiroydir uyat-andisha,
U asrar nojo'ya ishdan hamisha.
- Yomonlik qilganning ulushi – o'kinch,
Yomonga yaxshi bo'l, mayli har qachon.
- Oq sut bilan kirsa qaysi bir qiliq,
O'lim tutmaguncha o'zgarmas yo'riq.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati. Kaykovus 412 xijriy yilda (milod 1021 – 1022) tug'ilgan. Uning avlodlari G'ilon qabilasidan bo'lib, Tabaristonda (hozirgi Kaspiy dengizining janubidagi hududda) yashaganlar.

Ammo biz Kaykovus haqida batafsil ma'lumotlarga ega emasmiz. Kaykovus o'z hayoti davomida ko'rgan-bilganlari asosida o'zining buyuk "Qobusnoma" asasarini yaratdi. Kitobni u o'g'li G'ilonshoxga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi. "Qobusnoma" Sharqda, xususan Eronning o'zida ham saqlanib kelayotgan an'anaga ko'ra pand-nasixat tarzida yozilgan bo'lib, mana bir necha asrlardan beri halqlarni, jumladan yoshlarni hayotga, amaliy

faoliyatga tayyorlashda, ularni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo'llanma bo'lib kelmoqda.

"Qobusnoma" murakkab yo'lni bosib o'tdi. Sho'ro mafkurasi davrida asarning insonni aqliy, axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyati hokim sinf axloqini targ'ib qilish deb baholandi. Kaykovusning Vatan haqidagi, kasb-xunarni ulug'lovchi, bilimlarni egallash haqidagi fikrlari, diniy qarashlari siyosiy nuqtayi nazaridan qoralanadi. Asarning qimmati faqat uning adabiy-badiy, til xususiyati va tarixiy jihatlarida deb ta'kidlanadi. "Qobusnoma" asariga davr va shart-sharoitlar, siyosiy qarashlar ta'sirida qay darajada soya tashlanmasin, bu asar mashhur xind asari "Kalila va Dimna", Nizom ul-Mulkning "Siyosatnoma", Nosir Hisravning "Saodatnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lugatit at turk", "Sa'diyning "Guliston", Axmad Yugnakiyning "Xibatul xaqoyik", Alisher Navoyining "Maxbub ul-kulub", Voiz Koshifiyning "Axloqiy muxsiniy", Davoniyning "Axloqi Jaloli" kabi axloqiy-ta'limiy asarlari bilan bir qatorda Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o'rinni egallaydi.

Shuningdek, mazkur bobda Kaykovus aql haqida ham fikr bildirib inson qobiliyatining bir xil emasligini, inson aqlining tug'ma, azaliy aql (tabiy aql) va kasbiy aql, ya'ni muktasib (o'rganilgan aql kabilariga bo'linishini bayon etadi. Kasbiy aqlni donish derlar, deydi.

Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar ana shu oxirgi bobida ta'rif bergan juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus unda "... barcha fikr va tushunchalarimni sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham xunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirk to'rt bobda etdim", deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'lagan holda kamolga yetkazish yo'llar usullarini bayon etgan. Kitobda juvonmardlar egallashi

zarur bu, quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Kaykovus "Qobusnoma" asarida jismoniy tarbiyaga ham katta e'tibor berilgan. Zero, Kaykovusning "Qobusnoma" asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, ifodali o'qish, xattotlik san'ati, she'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard uyinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan.

Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlami hayotga tayyorlashda har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtayi nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan.

Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik: riyokor, ikki yuzlamachi kishi bilan do'st

bo‘lmaslik: yolg‘onchi kishi bilan muomala qilmaslik: baxil bilan suhbatda bo‘lmaslik; g‘ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir yerda o‘tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo‘qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muhtoj bo‘lgan odamni gina, qahr bilan qo‘rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf etish; kichiklarga mehribon bo‘lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o‘z hayotida har bir daqiqada bunday xatti-harakatlarga duch keladi.

Asarda boshqa ta’limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqiy tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol dunyoga muhabbat qo‘yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo‘lidan saqlanish haqida, harom va halollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e’tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Ulug‘likka yetsang unutma o‘zing,
Agar atlas kiysang, unutma bo‘zing.
Qora bosh yag‘isi qizil til turur,
Necha bosh edi u, yana ham eyur.
Ming yer do‘sting ersa o‘qish ko‘rmagil,
Bir yer dushman ersa, ani ozlama.
Ulug‘lar ne bersa, yemasmen dema,
Ilig sur, og‘iz ur, yemasang yema.
Tiling bekta tutg‘il tishing sinmasun,
Qolu chiqsa bekta tishing siyur.
Harislik ma erg‘a yovuz xislat bo‘l,
Harislik so‘ng g‘am, o‘kinch hasrat ul.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim jarayoni tuzilmasi va vazifalarining mohiyatini yoritib bering.

2. O'quvchilar tomonidan bilimlarning egallanishini ta'minlovchi jarayonining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?

3. Ta'lim tamoyili nimani anglatadi? Misollar keltiring.

4. Sharq Uyg'onish davri allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino) ilgari surgan ta'limiy qoida va tamoyillarini ta'riflab bering ?

5. Ta'lim mazmunining mohiyati nimadan iborat?

6. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta'riflab bering.

7. Hozirgi bosqichda ta'lim mazmunini belgilash asosiy g'oyalarini (asoslarini) aytib bering.

Nazorat uchun testlar:

1. Abu Nasr Forobiyning qaysi asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bildirilgan?

A)*"Baxt saodatga erishuv to'g'risida";

B) "Ixso-al-ulum";

C) "Aql ma'nolari to'g'risida";

D) "Fozil odamlar shahri".

2. Forobiy xulq-axloqni faqat so'zdagina emas nimada tozalash orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi?

A)*amalda;

B) ilmda;

C) sog'likda;

D) fikrda.

3. Algebra fanining asoschisi, "al-jabr val muqobala" asarining muallifi kim?

A)*Al-Xorazmiy;

B) Beruniy;

C) Navoiy;

D) Ibn Sino.

4. Sharqda "Xosib" matematik laqabi bilan mashhur bo'lgan allomani toping?

A) Sa'diy Sheroziy;

B)*Al-Farg'oniy;

C) Navoiy;

D) Al-Xorazmiy.

5. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarini ko'rsating.

A)*"Tadbiri manozil";

B) "Tib qonunlari";

C) "Salomon va absol";

D) "Hay ibn yakzon".

6. "Shayx ar-Rais" nomi bilan mashhur bo'lgan alloma?

A) Sa'diy;

B) Beruniy;

C) Navoiy;

D)*Ibn Sino.

7. Ibn Sinoning qaysi asarlarida pedagogik qarashlari bayon etilgan?

A) "Risolat fi-l-ishq", "Ash-Shifo", "Tib qonunlari";

B) "Navobig' ul Kalima", "Musiqa bilimiga oid to'plam";

C)*"Kitob al-qonun fit-tib", "Donishnoma", "Hay ibn Yakzon";

D) "Musiqa bilimiga oid to'plam", "Risolat fi-l-ishq", "Guliston".

8. Sharq uyg'onish davri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) V – X asrlar;

B) VII – IX asrlar;

C)*IX – XVI asrlar;

D) X – XV asrlar.

9. "Baytul hikma" ya'ni "Donishmandlik uyi" qayerda va kim tomonidan tashkil etildi?

A)*Bog'dodda Xorun ar-Rashid;

B) Xorazmda Xorazmshoh;

C) Bog'dodda Xorun ar-Rashid o'g'li Ma'mun;

D) Buxoroda A.Temur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

2. Ҳасанбоев Ж., Ҳасанбоева О., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.

3. Сафо Очил., Ҳошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

4. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 2010.

5. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т.: NOSHIR, 2012.

6. Атаева Н., Расулова Ф., Ҳасанов С. Умумий педагогика (Педагогика тарихи). – Т.: "Fan va texnoligiya", 2011.

13-mavzu. IV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. VII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Reja:

1. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri.

2. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi.

3. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning o'qituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni.

4. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni, Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

Tayanch so'z va iboralar: Savodxonlik, bilim, ta'lim-tarbiya, odob, vatanparvarlik, din, mehr-oqibat, rostgo'ylik, yaxshilik, fan, madaniyat va ma'rifat, maktab, Bobur va Navoiy fikrlari, "Savodi ta'lim", "Odob as-solihin" asarlari.

Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnahr va Xorazmning kechagina yashnab turgan obod dehqonchilik viloyatlari halokatga uchradi.

Gavjum va ko'rkam shaharlar, ayniqsa Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Banokat, Xo'jand va boshqalar xarobazorga aylantirildi.

O'zining hosildorligi bilan dong chiqargan vohalar suvsizlikdan qurib qoldi. Asrlar davomida Xitoy va Hindistondan Ulug' Turkiston orqali Kichik Osiyo va Yevropa tomon kesib o'tgan mashhur "Ipak yo'li" mo'g'ullar bosqini davrida butunlay barham topdi. Bu davrda ilm va ma'rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo'lmadi.

XIV asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusida mo'g'ullarning o'troqlikka o'tish jarayoni kuchayib, ularning ijtimoiy hayotida jiddiyo'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Movarounnahrdek madaniy o'lka bilan mustahkam aloqa o'rnatishga va o'troq hayot kechirishga intilgan Chig'atoy xonlaridan biri Kebek (1318 – 1326) edi.

O'troq hayotga ko'chgan Kebek va uning noiblarining bu harakatiga garchi Movarounnahrning o'troq aholisi xayrixohlik bilan qarasa-da, ammo mo'g'ul ko'chmanchi ma'murlarning kattagina qismi unga norozilik bildiradi va qarshilik qiladi. Shunday bo'lsa-da, viloyatlarga kelib o'rnashib olgan mo'g'ullar asta-sekin o'troq hayotga ko'chib, dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida, mo'g'ullarni borgan sari mahalliy, ayniqsa turkiy xalqlarning madaniyati, urf-odatlarini, tilini qabul qilishga va ularga singib, turklashish jarayonini kuchayishiga olib keladi. Ular islom dinini qabul qila boshlaydilar.

Movarounnahr mo'g'ullarining o'troqlashuvi yerli tojik va turkiy aholining hayotiga ta'sirsiz qolmadi. Mo'g'ul harbiy doiralarining o'troqlikka o'tib, unumdor yerlarni egallay boshlashi mahalliy aholining xo'jaligiga zarba beradi. Uning ayrim qismlari o'z joylaridan siqib chiqariladi.

XIV asr o'rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo'rlari qo'l ostida bo'lsa ham, bu yerlar mayda bo'laklarga bo'linib ketib, ularda toju-taxt, hokimiyat uchun

o‘zaro nizolar kuchayib ketgan edi. Chig‘atoy ulusidagi barqarorlik Qozonxon vafotidan so‘ng (1336 – 1347) barham topdi. Siyosiy va iqtisodiy inqiroz Amir Qazog‘on (1347 – 1357) davrida yanada avj oldi. Amir Qazog‘on fitna natijasida o‘ldirilgach, XIV asrning 50 – 60-yillarida Chig‘atoy ulusiga qarashli Movarounnahr hududida 10 ga yaqin mustaqil bekliklar vujudga keldi (Xorazmda so‘fiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayidlar amirlari va boshqalar). Mustaqil bekliklarga bo‘linish oqibatida beklar o‘rtasida doimiy nizo, janjallar yuzaga keldi. Yurt butunligiga jiddiy xavf ostida qoladi.

Buning ustiga, 1348-yil taxtni egallagan Tug‘luq Temur 1360 – 1361-yillarda Movarounnahrga birin-ketin ikki marta bostirib kiradi. Uning xuruji ham vaziyatni yanada qiyinlashtirdi. Mana Shunday o‘zaro ichki urushlar qizigan, mo‘g‘ullar zulmiga qarshi mehnatkash xalq harakatlari boshlangan bir davrda mamlakatda yangi siyosiy kuch yetilmoqda edi. Bunday qaltis vaziyatda siyosiy kurash maydoniga yosh Amir Temur kirib keldi.

Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi. Amir Temur, (to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul) 1336-yil 9-aprelda Kesh, hozirgi Shahrisabz shahri yaqinidagi Xoja Ilg‘or (hozirgi Yakkabog‘ tumani) qishlog‘ida barlos urug‘ining oqsoqollaridan hamda Chig‘atoy ulusining e’tiborli beklaridan hisoblangan Amir Tarag‘ay (? – 1360) oilasida dunyoga keldi. Amir Temurning onasi Takina xotun (taxm. 1318 – 1353) buxorolik.

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga beradi. Shayx Shamsuddin Kulol (? – 1360 yilgacha, Kesh) Temurbekning piri bo‘lgan. U yoshlik chog‘laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida Chavan-

dozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari (Abbos Bahodur, Jahonshohbek, Qimori Inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasovuriy va amir Qazatn bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi amir Taragay Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga karshi kurashadilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Tug'luq Temur 1360 – 1361-yillarda Movarounnahrga harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning

bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydi. Amir Temurning amakisi Kesh viloyatining hukmdori Amir Hoji Barlos Xuroson tomonga qochadi.

Yurt boshiga tushgan mana shunday og'ir pallada siyosat maydoniga kirgan 24 yoshli Temur xalq bilan birga bo'lishga intilib, boshqacha yo'l tutadi. U 1360-yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishib, xon xizmatiga kiradi. Natijada Tug'luq Temurning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi (hokim) etib tayinlanadi. Shubhasiz, bu noilojlikdan qo'yilgan siyosiy hamda strategik qadam bo'lib, bu bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talon-tarojining oldini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Biroq, Movarounnahrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxo'ja va uning lashkarboshisi amir Bekkichik bilan Amir Temurning murosasi kelishmay qoladi. Shu sababdan 1361-yilning oxirida u mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi.

Amir Temur Xivaning janubida, Urganjiy dashtida Tug'luq Temurning yana bir raqibi – qaynog'asi Amir Husayn (Husain ibn Musallab – ? – 1370) bilan uchrashadi. Amir Xusayn bilan Sohibqiron Temurning bir-birlari bilan juda yaqinlashgan va yaxshi munosabatda bo'lgan davrlar 1361 – 1365-yillarni o'z ichiga oladi. Dastlab ular Tug'luq Temurning farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi To'qol (Tavakkal) bilan jang qiladilar va uni tor-mor keltiradi. Biroq ushbu jang oqibatida Sohibqiron g'oyat og'ir ahvolga tushadi. 1362-yil bu vaziyatdan xabar topgan Maxon (hozirgi Mari yonida) hokimi turkman Alibek Joniqurbon Ilyosxo'jaga yoqish maqsadida Temurni qo'lga oladi va zindonga tashlaydi. Temur zindonda 62 kun tutqunlikda hayot kechirgan. Bunday og'ir vaziyatda unga turkmanlarning sanjari qabilasi boshlig'i Muborakshoh yordam beradi.

1362-yilning kuzida Seyistonda viloyat (Eron va Afg'oniston chegarasida joylashgan tarixiy viloyat) hukmdori

Malik Qutbiddinning tarafida turib mekroniylar bilan bo'lgan to'qnashuvda Amir Temur o'ng kafti va o'ng oyog'idan jarohatlandi. Buning oqibatida u bir umr oqsoqlanib yuradi. Shu bois undan dahshatga tushgan dushmanlari hasad bilan "Temurlang" deb atashgan. Ikki oy mobaynida Temur Garmsirda davolandi. So'ngra Balxga yo'l oldi. Bu yerda hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'rdi.

1363-yil Tug'luq Temur vafot etib, Mo'g'ulistonda xonlik taxtini Ilyosxoja egallaydi. Shu yili Amir Husayn va Amir Temur Amudaryoning chap sohilida, Qunduz shahri yonida umumiy dushman ustidan g'alaba qozonadilar. Keyingi ikki yil davomida ittifoqchilar Ilyosxo'ja boshliq jeta lashkarlari bilan bir necha marta jang qiladilar. Nihoyat 1364-yil oxirida ular mo'g'ullarni Movarounnahrdan quvib chiqaradilar.

Biroq Movarounnahrni qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxo'ja 1365 yilning bahorida yana Movarounnahr ustiga qo'shin tortadi. Ikki o'rtadagi jang Toshkent bilan Chinoz o'rtasidagi Chirchiq daryosi bo'yida (Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"siga ko'ra 1360-yil 16-iyunda) Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"siga binoan 1365-yil 22-mayda sodir bo'ladi. Tarixda u "Jangi loy" – "Loy janggi" nomi bilan shuhrat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni botqoqlikka aylangan, hatto otlar loyga botib qolgan. Jangda amir Husaynning xiyonati oqibatida mag'lubiyatga uchraydilar va o'z qo'shinlari bilan Amudaryo bo'ylariga chekinib, Balx viloyatida o'rnashdilar. Ilyosxoja esa hech qanday qarshilikka uchramay Xo'jand, Jizzax va boshqa bir qancha shahar hamda qishloklarni egallab, Samarqand ustiga yuradi. Samarqand o'sha paytlarda katta qo'shinga qarshilik ko'rsata olmasdi. Shaharning na devori va na mustahkam istehkomlari, na qurollangan sipohiysi bor edi. Bek va amirlar shaharni tark etgan edi, lekin mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tarildi, sarbadorlar shahar mudofaasini o'z qo'llariga oldilar. Shahar mudofaachilariga Madrasa tolibi ilmlaridan Mavlonozoda Samarqandiy, jun

(paxta) tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddof va mergan mavlono Xurdaki Buxoriylar boshchilik qiladilar. Sarbadorlar Samarqand shahrida mo'g'ullarga qaqshatqich zarba beradilar.

Samarqandliklarning ishlab chiqqan harbiy rejasi puxta chiqdi va o'z samarasini berdi. Bir necha hujum samarasiz tugagach mo'g'ullar shahar atrofini qurshab olib uzoq vaqt qamal qilish rejasini o'ylab chiqdilar. Lekin lashkar safida yuqumli kasallik tarqaldi. Buni ot vabosi (o'lati) deb atashadi. O'lat oqibatida Ilyosxo'ja qo'shinlariga mansub otlarning katta qismi qirilib ketdi. Ilyosxo'ja katta yo'qotishlar bilan dastlab Samarqandni keyin esa Movarounnahrni tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Sarbadorlarning Ilyosxo'ja ustidan g'alabasi butun Movarounnahrga ovoza bo'ldi. Bu paytda Keshda bo'lgan Amir Temur bu xabarni Amudaryo bo'ylarida bo'lgan Amir Xusaynga yetkazdi. 1366-yilning bahorida ular Samarqandga yetib keladilar va shahar yaqinidagi Konigil (Samarqandning janubiy-Sharqida, Cho'ponota tepaligi etagidagi gil koni bo'lib, bu kon yaqinida, Siyob (Obirahmat) arig'i bo'yida joylashgan keng, ko'kalamzor mavze) mavzeyiga kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib boradilar. Uchrashuvning birinchi kunida beklar ularning sharafiga ziyofat berib, sha'niga hamdu sanolar aytadilar. Biroq ertasi kuni Abu Bakr Kuluyi bilan Xurdaki Buxoriylar dorga tortiladilar. Mavlonozodani esa Amir Temur o'rtaga tushib qutqarib qoladi. Shu tariqa sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi. Ammo ko'p vaqt o'tmay Husayn bilan Amir Temur o'rtasida munosabat keskinlashib, ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. Amir Xusayn Amir Temurga yaqin bir necha beklarni isyon ko'tarishda gumonsirab, ularga katta jarima soldi. Temur do'stlariga yordam berish maqsadida bisotidan bor javohirlarni qaynog'asiga to'lab yaqin kishilarini qutqarib qoldi. To'plangan

boyliklar ichida Xusaynning singlisi O'ljoy Turkonning qulog'idagi oltin sirg'a ham qo'shib tovonga kiritilgan bo'lib uni aslida Temur va O'ljoy Turkonning to'y kunlariga yaqin Xusayn tomonidan hadya qilingan edi. Javohirlar ichida sirg'a egasi kimligini bilib turib Xusayn uni qaytarib bermagan. Amir Temur bundan qattiq g'azablangan. 1366-yilda O'ljoy Turkon xotunning o'limi ham ikki hukmdorni bir-biridan ajralishini tezlashtirgan omil desak bo'ladi. 1366 – 1370-yillar davomida ular o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar ham bo'ladi.

1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shinlari bilan kuchli raqib-Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlog'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka (? – 1404) tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga Oliy hokimiyat ramzi tabl (nog'ora) bilan yalovbayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi. Bu voqea, shubhasiz, siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki u saltanatlik ramzi edi. Amir Temur qo'shini to Balxga yetib borgunicha, yo'l-yo'lakay unga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Bu paytga kelib Amir Husaynning ko'pchilik amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shinlari yengiladi, ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Bu g'alabadan so'ng o'sha davrning udumiga ko'ra, Temur Amir Husayn taxtiga o'tirgach, uning xotinlaridan to'rttasini o'ziga xotinlikka tanladi, ular aql va farosatda yagona, go'zallikda tengsiz Chig'atoy ulusi xoni-Qozonxonning qizi Saroymulkxonim, Bayon sulduzning qizi Ulus og'o, Xizr-Yasavuriyning qizi Islom-og'o va Tog'oy-Turkonlar edilar. Husaynning boshqa xotinlarini Temur o'ziga yaqin kishilarga xotinlikka berdi.

Amir Temur Qozonxonning qizi Saroymulkxonim (1341 – 1408) ya'ni xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur "ko'ragon", ya'ni "xonning kuyovi" unvonini oldi. Zotan

xon avlodiga mansub Saroymulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug‘ hisoblanib, “Katta xonim” yoxud “Bibixonim” degan unvonga ega bo‘ladi.

1370-yilning 11-aprelida Chig‘atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug‘alari, Amir Temurning quroldosh do‘stlari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o‘tkaziladi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e’lon qilinadi. Lekin o‘sha davrdagi vaziyatni va amirlardan bo‘lganligini hisobga olib, mo‘g‘ullarning qarshiligini kuchaytirmaslik maqsadida xon taxtiga “soxta xon” Chingizxon naslidan Suyurg‘otmish (1370 – 1388) o‘tqazildi. Keyinchalik Amir Temur Xorazmga qilgan 4-yurishidan qaytib kelgach, Buxoroda olamdan o‘tgan Suyurg‘atmishxon o‘rniga uning o‘g‘li Sulton Mahmud (1388 – 1404) rasmiy ravishda xon sifatida taxtga o‘tqazilgan. Amalda markaziy hokimiyatni Amir Temur o‘zi boshqardi. Samarqand davlat poytaxti deb e’lon qilindi. Samar-qandda mustahkam devorlar, qal‘alar hamda saroylar barpo etiladi[35].

Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo‘shgan hissasi. Navoiyning o‘qituvchi (mudarris) to‘grisidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqiy Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o‘rni.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483 – 1530) Andijonda, Farg‘ona hukmdori Umar Shayx oilasida tavallud topdi. Uning bolalik yillari Andijon va uning atrofida o‘tdi. Bobur tug‘ilgan davrda Temur asos solgan katta davlatning temuriyzodalar

[35] The Heart of Asia / A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliyest Times. F.H.Skrine and E.D.Ross. London-New York. 2005. P. 109 – 115.

tomonidan bo'lib olinishi boshlangan, toj-taxt uchun kurash avj olgan edi. 1494-yili otasi Umarshayxning vafotidan so'ng Bobur Farg'ona hukmdori deb ehlon qilindi. Davlat ishlarini boshqarishda unga onasi Qutlug' Nigor xonimning ko'magi juda katta bo'ldi. Keyingi yillari Bobur Movarounnahrda katta davlat tuzishga harakat qildi, lekin temuriyzodalarning bir-biriga bosh qo'shmasliklari, tarqoqligi tufayli Bobur Muhammad Shayboniyxondan yengilib Kobulga, keyinchalik Badaxshonga ketishga majbur bo'ldi. 1505 – 1515-yillari Bobur yana temuriylar davlatini tiklash maqsadida Movarounnahrga qaytishga harakat qilib ko'rdi, lekin bu yurishlar ham befoyda ketdi. Shundan keyin Bobur Afg'onistonda hokimiyatini mustahkamlagach, Hindistonga yo'l oldi. 1525-yili Dehlining shimolida Panipatda Dehli sultoni Ibrohim Lo'di qo'shinini yengib, boburiylar davlatiga asos soldi.

Bobur ilm-fanning, sanoatning, umuman, hayotning hamma sohalari bilan yaqindan qiziqqan. G'ayrat va tashabbus, sinchkovlik va istehdod Boburni rivojlangan feodal davrining ulug' namoyandalaridan biriga aylantirdi. U har bir sohani aniq bilishga intilgan, undagi nuqsonlarni ko'ra olgan va masalaning mohiyatini tezda tushunib yetgan.

Jahon sharqshunoslari tomonidan ulug' olim sifatida ehtirof etilgan Bobur fanning ko'pgina sohalari bo'yicha qimmatli ishlarni amalga oshirgan. Yaqin hamda O'rta Sharq xalqlari madaniyati tarixi uchun katta xizmat qilgan.

Buyuk istehdod sohibi bo'lgan Bobur "Boburnoma"da turli toifa tabaqa, urug' nasab, kasbu kor, har xil mansab, lavozimlarga ega bo'lgan tarixiy shaxslar, mashhur kishilar, ularning shajarasi, hayot yo'li, yashash tarzi, sarguzashtlarining aniq va to'liq tavsifini beradi. "Boburnoma" o'sha davr tarbiyasini o'rganish uchun ham o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur shafqatli va ibratli ota sifatida o'z farzandlarini hamisha totuvlik va inoqlikka da'vat qilar, bu tuyg'uni ularning qon-qoniga singdirmoqqa urinardi.

Bu intilishni uning Xumoyun va boshqa o‘g‘illariga yozgan ibrat to‘la maktublarida ko‘rish mumkin. Unda Bobur o‘g‘illarini totuv yashab, bamaslahat ish ko‘rishga chaqiradi.

Bobur lirikasining asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. Bizgacha ulug‘ shoirning 119 g‘azali yetib kelgan. Bobur g‘azallarida ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalariga ham e’tibor berilgan.

Fan va ma’rifatni yuqori darajada qadrlagan Bobur adabiyot, sanoat va ilm ahli bilan doimo yaqin aloqada, ijodiy munosabatda bo‘ldi, ularga homiylik qildi, ilmiy-adabiy suhbatlar, mushoaralar uyushtirdi. U o‘z davrida ilmga berilgan odamlar kamligidan tashvishlanib, astoydil qiziqish, intilish hamda mashaqqatli mehnat bilangina ilm olish mumkinligini va shunday qilish zarurligini quyidagicha ta’kidlaydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak, O‘rgangali ilm tolibi ilm kerak. Men tolibi ilmu tolibi ilme yo‘q, Men bormen ilm tolibi, ilm kerak. Yozuv ham yarim ilm, deb hisoblagan Bobur chiroyli va to‘g‘ri yozdshga, fikrni aniq ifodalashga alohida ahamiyat bergan. Buni uning o‘g‘li Xumoyunga yo‘llagan ushbu maktubi misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin:

“Bu xatlaringni bitibsen va o‘qumaysen ne uchunkim, agar o‘qur xayo‘l qilsang edi, o‘quy olmas eding. O‘quy olmagandan so‘ng, albatta, tag‘yir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o‘qusa bo‘ladir, vale asru mug‘laqtur. Nasri muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost emas, iltifotni “ot” bila bitibsen. Xatingni xud har tavr qilib o‘qusa bo‘ladur, vale bu muglak alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘olibo, xat bitirda johillig‘ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mutlaq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bilan biti; ham senga tashvish ozroq bo‘lur va ham o‘qug‘uvchiga”.

Bobur ana shu maktubida o‘z o‘g‘lini adolatli, haqgo‘y, insofli bo‘lishga, kamtarlik va kamsuqumlikka undaydi.

A.Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi, muhabbat va go'zallik tushunchalari haqidagi chuqur uy-xayollar, hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Shoir nazarida muxabbat – bu insonni yomonliklardan va ehtiyojga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida oliyjanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insondagi barcha imkoniyatlar va ma'naviy kuchlarning faol namoyon bo'lishi yo'llarini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik ko'rinishida tasvirlanadi.

Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmu hikmatiga oshno qilingan ("Qilding ani orifi ul ma'rifat"), faqat odamga ma'rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur'on oyatlariga ishora etib, inson ulug'ligini bunday ta'rif etadi:

"Karramno" – keldi manoqib anga

"Ahsani taqvim" – munosib anga.

Alisher Navoiy insonga birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishi, foydali ishlari bilan qadrli. Boshqalarga ziyon etkazadigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan, siyrati suratiga to'g'ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatning har bir a'zosidan – shohmi, gadomi – inson nomiga munosib bo'lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni – bu xalq g'am tashvishi bilan yashashdir:

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. O'rta asrning buyuk adibi Alisher Navoiyning turkiyzabon xalqlar, xususan o'zbek xalqining ma'naviy ravnaqi yo'lidagi mamlakat obodonchiligi, el-yurtning farovonligi yo'lidagi faoliyati beqiyosdir. Mirzo Muhammad Haydarning yozishicha, Navoiyning har yilgi daromadi o'n sakkiz ming "shohruhiy"

dinorga teng bo'lgan. Bu mablag'ning deyarli hammasini u xayrli ishlarga, shu jumladan jamoat qurilishlariga sarf etgan. U birgina Hirot shahri yaqinida Injil anhori bo'yida bir qancha binolar: "Ixlosiya" madrasasi, uning qarshisida "Xolisiya" xonaqohi, "Qudsiya" jome' masjidi, "Shifoiya" davolash uyi, "Safoiya" hammomi, va ular qoshiga toshhovuz qurdiradi. Binokorlik ishlari Hirotning qator mohir me'mor, muhandis, banno va naqqoshlari tomonidan bajariladi. "Ixlosiya" madrasasi va "Xolisiya" xonaqohida bir necha ming kishi istiqomat qilib, fan, adabiyot va san'at bilan mashg'ul bo'lgan. O'sha davr tarixchisi Xondamirning yozishicha "Xolisiya" xonaqohida har kuni zaifa saqlab qolish, fursat boy berilgan davrlarda esa istiqlol uchun xalqimiz birdamlik bilan oyoqqa turdi, "yo hayot, yo mamot" shiori ostida qahramonona kurashdi.

Jaloliddin Davoniy (to'la nomi Jaloliddin Muhammad ibn Asad as Siddiqiy ad Davoniy) (1427 – Davon qishlog'i, Eron – 1502) – sharq olimi, faylasufi. Yoshligidan ilm-fanga, xususan fiqhshunoslikka qiziqadi. Maktabni bitirgach, Sherozga kelib madrasada tahsil ko'radi. So'ng Sheroz shahri qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqach, mudarrislik qiladi. Umrining oxirida o'z qishlog'iga qaytib, ilmiy ish bilan band bo'ladi. Davoniy Eron, Hindiston, Iroqning ko'p shaharlarida bo'lib, olim va shoirlar bilan uchrashdi. Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning dunyoqarashini o'rgandi, Temur va temuriylar davrida yashagan mutafakkirlar asarlaridan unumli foydalandi. U falsafa, axloqshunoslik, mantiq, fiqh, falakiyot, riyoziyot va handasa fanlari muammolarini tadqiq qilib asarlar yozdi. Bu asarlarida inson va uning kamoloti, ilm-fan va uning jamiyatdagi o'rni, kasb-hunar, yuksak insoniy fazilatlarni egallash haqida fikr yuritdi. Davoniyning asosiy asarlari: "Axloqi Jaloliy", "Risolatul-xuruf" ("Harflar haqida risola"), "Risolayi isboti vojib" ("Zaruriyatning isboti haqida risola"), "Risola ul-mufradot" ("Moddalar haqida risola"), "Risolayi fi tavjix ultashbih" ("Majoz talqini haqida risola"),

"Risola dar elm un-nafs" ("Ruhshunoslik to'g'risida risola"), "Tariqati tarbiyat ul-avlod" ("Bolalarni tarbiyalash usuli") va b. Davoniyning fors va arab tilida bitilgan qo'lyozma hamda toshbosmada bosilgan risolalari dunyoning ko'p kutubxonalarida, shu jumladan O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni, Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba. Maktablardagi ta'lim tizimi bir qancha bosqichli va puxta tashkil etilgani bois savod o'rganish ko'p vaqtni olar edi. Chunonchi, faqatgina alifboni o'rganishga 3 – 4 oydan bir yilgacha, ba'zida undan ham ko'p vaqt sarflanar edi. O'quvchilar dastlabki o'qish ko'nikmalarini egallaganlaridan so'ng "Haftiyak"ni (fors. "Qur'onning yettidan bir qismi") o'qishni boshlaganlar.

O'quvchilar "Haftiyak"ni tugatganlaridan so'ng "Chor-kitob" (To'rt kitob)ni o'qishga kirishganlar. "Chor-kitob" fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, uning birinchi qismida diniy marosimlar (tahorat olish, namoz o'qish, ro'za tutish va h.q.) she'riy usulda bayon etilgan, ikkinchi qismida yuqoridagi masalalar katexizis (izoh) shaklda ancha keng yoritilgan parchalar o'rin olgan. "Chor-kitob"ning "Musulmonlikning muhim masalalari" deb nomlangan uchinchi qismi o'quvchilarni shariatning asosiy ustuni – musulmon diniy huquqlari bilan tanishtirgan. Kitobning "Pandnoma" (Nasihat kitobi) deb nomlangan va XIII asrda yozilgan to'rtinchi qismida Qur'oni karimdan olingan odob-axloq masalalariga oid qoidalar she'riy shaklda bayon etilgan.

Shundan so‘ng o‘quvchilar mutlaq din masalalariga bag‘ishlangan “Sabotul ojizin” kitobini o‘qishni boshlaganlar. Ushbu asar ko‘pincha uning muallifining nomi bilan, ya’ni – “So‘fi Olloyor” deb yuritiladi. Bu sof diniy asar bo‘lib, unda diniy masalalar she’riy usulda bayon qilingan.

Maktabni tamomlagan o‘quvchilar ta’limni davom ettirish uchun madrasalarga kirganlar.

Madrasa odatda ikki bo‘limdan, ya’ni: quyi (ibādat al-’islām) va yuqori (mas’ola) bo‘limlardan iborat bo‘lgan. Lekin barcha madrasalarda ham bo‘limlar shunday nomlanmaganini qayd etish lozim. Masalan, Buxoro madrasalarida quyi bo‘lim “mushkulāt” deb yuritilgan.

Birinchi bo‘limda talabalar din ahkomlarini o‘rganganlar. Ikkinchi bo‘limda esa – Qur’oni karimga muvofiq holda bayon etilgan islomning asosiy qonunlari o‘qitilgan. Bundan tashqari, arab tilshunosligi, mantiq, tarix, she’r yozish ilmi, metafizika va boshqa fanlar ham o‘qitilgan. Madrasalarda barcha mashg‘ulotlar arab tilida olib borilgan.

Madrasa talabalarini shartli ravishda uchta kursga bo‘lish mumkin.

Birinchi, ya’ni boshlang‘ich kurs adnā (quyi), ikkinchi kurs – avsat (o‘rta) va uchinchi kurs – a’lo (yuqori) deb nomlangan. Biroq, kurslarning nomlari hamma madrasalarda ham bir xil bo‘lmagan. Shu o‘rinda bunday kurslarga ajratish faqat yirik madrasalarda mavjud bo‘lgani, talabalar soni 20 kishiga yetmagan kichik madrasalarda esa talabalarning barchasi faqat bitta mudarrisga mashg‘ulotga qatnaganlarini qayd etish lozim.

Madrasada darsni tashkil etish tartibi quyidagicha bo‘lgan: bitta darslikdagi aynan bir bobni o‘rganayotgan 10 – 15 nafar talaba bir sinf xonasiga to‘planishgan va o‘zlariga oqsoqol (sardor) saylab olishgan. Bu guruh “jamoa”, uning oqsoqoli esa “qori jamoa” deb nomlangan. Darsni boshlash uchun oqsoqol mudarrisning huzuriga borar va undan mazkur guruh bilan mashg‘ulot o‘tkazish uchun izn so‘rardi.

Masjid va xonaqohlar qoshida ochilgan maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qitilgan. Qiz bolalar o'z davrining o'qimishli ayollari tomonidan uylarida ochilgan maktablarda o'qitilgan. Ayol muallimani o'lkaning turli hududlarida "otnoyi", "otinbibi", "bibiotin", "bibixalifa" deb ataganlar. Qizlar maktabi o'g'il bolalar maktablariga nisbatan ancha kam bo'lgan, ko'p hollarda maktabdorlarning, imomlarning xotinlari maktabdorlik qilgan. Qizlar maktabi haqida K.E.Bendrikov "Turkistonda xalq maorifi tarixidan ocherklar" asarida quyidagilarni yozadi: "Qizlar ishqiy maktublarga berilmasinlar deb, qizlar maktabida yozuvga o'rgatilmagan". Professor U.Dolimovning fikricha, bu so'zlar haqiqatdan ancha yiroq. O'zbek xalqi – o'tmishda eng ko'p shoiralar yetishtirgan xalq, agar yozuvga o'rgatilmaganida edi, podshohlar saroyiga mansub bo'lgan Gulbadanbegim, Zebunisobegim, Nodirabegimlarni qo'ya bering, XIX asrning o'zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar Otin, Qamarniso, Nozimaxon kabi o'nlab mashhur shoiralar qayerdan yetishib chiqqan?!

O'rta Osiyoda faoliyat yuritgan qizlar maktabining yirik namoyondalaridan biri – Jahon Otin Uvaysiydir. O'zining butun faoliyat davomida xalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilgan Jahon Otin xalqimizning oqila qizlarini tarbiyalash, go'zal hayotga erishishning birdan-bir yo'li deb o'ylab, o'zining butun umrini yosh qizlarga ta'lim-tarbiya berishga bag'ishladi.

O'z maktabida qizlarga boshlang'ich ta'lim berar ekan, Jahon Otin ularning zehnini o'stirishga katta ahamiyat beradi. Otin o'z shogirdlariga savod o'rgatibgina qolmay, ular orasidan iqtidorli qizlarni tanlab sharq she'riyati bilan tanishtiradi. Qizlarni nazm bo'stoniga yetaklaydi.

Atoqli zullisonayn shoira Dilshodi Barno 50 yildan ortiq muallimalik qilib, qizlarga xat-savod o'rgatdi, tabi nazm qizlarga she'riyat ilmidan dars berdi.

Dilshod o‘z maktabida yosh qizlarni tarbiyalar, ularga xat-savod o‘rgatar va ularni chuqur bilim egasi qilib chiqarishga intilar edi. Shu bilan birga, yosh iste’dodli qizlarga o‘zbek, tojik mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarini ham o‘rgatar va ularni nafosat ruhida tarbiyalab, o‘z zamonasining ilg‘or kishilari qilib yetishtirishga harakat qilgan.

Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida ishlatilgan. Munis o‘z davrining yetuk murabbiy shoiri sifatda bolalarning savodxonligini va husnixatni yaxshilash yo‘lida ko‘p izlanadi va yoshlarga husnixatdan ta’lim berib, “bilgancha surib qalamni har yon, ta’lim ishin aylar erdi oson” deydi.

“Bilimning eshigi alifbe” deganlaridek, Munis ham ta’limdagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun “umumiy arqom” yozuv ilmini yaratishga bel bog‘lagan.

Munisning “Savodi ta’lim” asari ana shu tarzda 1804-yil 6-dekabrda vujudga keladi. Mazkur risola nazariy ma’lumotlar va mashqlarni o‘z ichiga olgan. Risola ikki qismdan tarkib topgandir. U “Savodi ta’lim”ning nazariy qismida o‘zigacha mavjud bo‘lgan bolalarga xat-savod o‘rgatuvchi risolalarning barcha nuqson va kamchiliklarni ochib tashlaydi va eski risola bilan o‘zi yaratayotgan risolani bir-biri bilan taqqoslab,eski risolaning o‘sha kungi talablarga javob bera olmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Risolaning ikkinchi qismida arab alifbosidagi har bir harfning yozilish uslubini ma’rifiy-didaktk nuqtayi nazardan sodda qilib tushuntrishga harakat qiladi.

Munis o‘zining “Savodi ta’lim” asarida ilm-fan, maktab, o‘quv-tarbiyaga doir fikr-mulohazalarini batafsil yoritgan. Bu asarning birinchi qismida harf mashq qilishga tayyorgarlik masalalarini, ikkinchi qismida esa xat mashqi va uning usuli haqida amaliy ishlarni bayon qiladi. Munis tarjimon sifatida XV asrda yashab ijod etgan tarixchi Mirxondning “Ravzatus-safo” asarining birinchi va ikkinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Munis ma'rifatparvar shoir sifatida o'z zamonasining eng ilg'or ma'rifatparvari edi. Shoir o'z she'rlarida tarbiya masalalarining zarurligini uqtirdi. U insonga xos yuksak fazilatlari ilm orqali tarbiyalash lozimligini ko'rsatib bergan. Munis og'ir kasallik tufayli 1829-yilda vafot etdi. U qoldirgan o'lmas adabiy va ma'rifiy meros yosh avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Munis kishilarni rostgo'ylik, mardlik, xalqchillik, do'stlik, vatanparvarlik va vafo ruhida tarbiyalash eng avvalo, ilm orqali amalga oshirilishini ta'kidlagan. U bilimning qudratli kuch ekanligini ko'rsatadi. Munis ilmning afzalligi to'g'risida maktab va madrasalarda o'qitiladigan fanlarning mohiyatini she'riy misralarda shunday bayon etgan edi:

Goho talabalar birla gulxan aro
Surub dardkashlikka yuz mojaro.
Gohi rindlar bazmiga yo topib
Hamon kim aqsudg'a qo'l topib,
Gohi maktab ichra kirib shodkom,
Madrasa sari aylab xirom.
Qay u yerda ahbob bazm aylasa,
Tarab irtiqobiga azm aylasa,
O'zimni alar ichra solur erdim,
Ko'ngul qong'uncha bahra olur erdim.

Munis "Savodi ta'lim" asarida donishmandning ilmga bo'lgan e'tiqodi uning o'zxatida aks etishini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, xatni chiroyli, husndor va xatosiz yozilishining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha ochib beradi.

Xatidin o'lub xujasta ta'lim,
Ta'lim fani xatiga taslim,
Sharmanda xati sabzxatlar,
Xolofati xatida nuqtalar.
Ta'lim berur nabir raqamdin,
Xat yozmoq ishi yeti qalamdin.

Shoir insonlarni bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishini, do'stlik rishtalarini bog'lovchi nomalar yozish haqidagi g'oyasini, maqsadi va vazifalarini alohida bayon etadi:

Ko'p muddat erdi guruhi mushtoq,
Ta'lim sumak bag'rig'a ushshoq,
Mashq etmak ishida xat bitarga,
Ta'lim vuqufiga yetirga...
Bilgancha surub qalamni har yon
Ta'lim ishin aylar erdim oson.

Munis ijodiyotida odob-axloq masalalari alohida o'rin egallaydi. Uning ijodiyotidagi asosiy yo'nalishlar: nohaqlik va zulmga qarshi adolat, saxiylik, xalqqa cheksiz muhabbat, ilm-ma'rifat, jaholatga qarshi kurashuvchi insoniy fazilatlar. Munis o'z zamonasidagi o'zaro urushlar, hirsu dunyo odamlami bir-biriga nisbatan mehrsiz bo'lishga asos bo'ldi deydi:

Ne natija berur adab, hunaring
Na nazarga kirar nasab guharing.
Bas erur bu zamonda bisoting
Aro qara siymu zaring.

Munis o'z asarlarida mehr-oqibat hamda do'stlik tuyg'ularini teran satrlarda shunday ifodalagan edi:

Ey do'st, tani zarim aro jonim eding,
Iqlimi muhabbat uzra sultonim eding,
Xush keldingu jonimda nishiman qilding
Xush borki, base aziz mehmonim eding.

Munis o'z asarlari bilan tarbiya masalalariga katta e'tibor berdi. Uning didaktikasi insonni yuksak oliyjanoblik, rostgo'y-lik, halol, ilmga chanqoq, mehru oqibatli bo'lishga qaratilgan. Munisning adabiy va pedagogik g'oyalari maktablarda to'g'ri, chiroyli yozuv tartib-qoidalarini o'rgatish uslubi sifatida xizmat qilgan va qilmoqda. Munisning boy me'rosi kelajak avlod tarbiyasida ham muhim o'rin tutadi. XV asrning yirik olim-laridan biri Xusayn Voiz Koshifiy bo'lib, u axloq, nujummantiq, adabiyotshunoslik, riyoziyot, hisob, islom tarixi, ilohiyot, tarix, – musiqashunoslikda tasviriy san'at, tabobat ilmiga oid 200 dan ortiq asar qoldirib, Sharq ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda muayyan o'rinni egallaydi. Uning mashhur asari "Axloqi Muhsiniy" uzoq vaqt yillar madrasalarda darslik sifatida

o‘qitilgan, mazkur asar 40 bobdan iborat bo‘lib, asosan axloqiy tarbiyaga bag‘ishlangan. Komil inson (yetuk axloqli inson) haqidagi fikrlarni an’anaga ko‘ra buyuk donishmandlar-xakimlar, sarkardalar, shohlar tilida bayon etadi va ularni adolatli, dono,oqil va kamtar inson sifatida ta’riflab, o‘zining komil inson haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi. Koshifiy faqat podsholarnigina emas, balki har bir oddiy insonda ham eng oliyjanob hislatlar tarkib topishini istaydi. U o‘zining ijtimoiy-axloqiy idealini yuzaga chiqarishda asosiy vosita deb ilm-ma’rifat va axloqiy tarbiyani tushunadi. Koshifiy odobli insonni axloqli deb tushunadi. Inson odobli, saxovatli, to‘g‘ri, xalol, pok bo‘lgandagina haqiqiy inson bo‘lishi mumkin deydi. Voiz Koshifiy insonparvarlik va halollikni eng yuksak insoniy fazilatlarlardan deb biladi. Koshifiy insonning eng yuksak xulq-atvor egasi bo‘lishi uchun unga qoidaga amal qilishi zarurligini ilgari suradi. Koshifiy asarlarida inson aqliga, aqliy tarbiyaga katta e’tibor beriladi.

Koshifiyning axloqiy qarashlari Qur’on va Hadislardagi qoidalari bilan bog‘liqdir. U ilgari surgan axloqiy tushunchalar: yaxshilik, yomonlik, adolat, burch, vijdon, or-nomus, baxt saodat kabilarni ta’riflab, har birini insonda shakllantirish yo‘llari va usullarini ham bayon etadi, ular tarkibiy qismlari-gacha ajratib, ijtimoiy talab darajasida tushuntiradi, hamda asosiy mezonlarini ham ko‘rsatib beradi. U axloqiylikning asosiy mezonlari deb insoniylik, adolatlilik, sof insoniy munosabatlarni biladi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
2. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta’lim haqida.
3. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya masalalari.

4. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandnoma asar sifatida.

5. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar.

6. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

7. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab, pedagogik fikrlar rivoji.

8. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

9. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

10. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri.

Nazorat uchun testlar:

1. Hadis ilmining oltin davri?

A) X asrlar;
B) VII – IX asrlar;
C)*IX asr;
D) X – XV asrlar.

2. Tarixda yunon faylasufi "Arastu"dan keyingi ikkinchi muallim nomi bilan sharqda mashxur bo'lgan alloma nomini aniqlang?

A)*A.N.Farobiy;
B) Ibn Sino;
C) A.Navoiy;
D) A.A.Ibn Sino.

3. "Baytul hikma" ya'ni "Donishmandlik uyi" qayerda va kim tomonidan tashkil etildi?

A)*Bog'dodda Xorun ar-Rashid;

B) Xorazmda Xorazmshoh;

C) Bog'dodda Xorun ar-Rashid o'g'li Ma'mun;

D) Buxoroda Ismoil Somoniy.

4. Ibn Sinoning qaysi asarlarida pedagogik qarashlari bayon etilgan?

A)*"Kitob al-qonun fit-tib", "Donishnoma", "Hay ibn Yakzon";

B) "Risolat fi-l-ishq", "Ash-Shifo", "Tib qonunlari";

C) "Navobig' ul Kalima", "Musiqa bilimiga oid to'plam";

D) "Ash-Shifo", "Tib qonunlari", "Navobig' ul Kalima".

5. "Ta'lim faqat so'z va o'rganish orqali egallanadi". Ushbu fikr muallifini aniqlang

A)*Abu Nasr Farobiy;

B) Al-Xorazmiy;

C) Abu Rayxon Beruniy;

D) Abu Ali ibn Sino.

6. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini kimga bag'ishlab yozgan?

A) Ma'munga II ga;

B)*Qobus ibn Vushmagirga;

C) Mahmud G'aznaviyga;

D) Ibn Mas'udga.

7. Ahmad al Farg'oniy sharqda qanday laqab bilan shuhrat qozongan?

A)*"Xosib" (matematik);

B) "Shayx ar-Rais";

C) Ikkinchi muallim;

D) Ustodi zamon.

8. Abu Nasr Forobiy sharqda qanday laqab bilan shuhrat qozongan?

A)*Ikkinchi muallim;

B) Ustodi zamon;
C) "Xosib" (matematik);
D) "Shayx ar-Rais".

9. Abu Ali ibn Sino sharqda qanday laqab bilan shuhrat qozongan?

A)*"Shayx ar-Rais";
B) Ikkinchi muallim;
C) Ustodi zamon;
D) "Xosib" (matematik).

10. Ibn Sinoning "Hay ibn Yaqzon" asari nimaga bag'ishlanadi?

A)*Farosat ilmi haqida;
B) Tabiat ilmi haqida;
C) Meditsina imi haqida;
D) Matematika ilmi haqida.

11. Ibn Sino qaysi tarbiyani ilmiy pedagogik jihatdan bir butun tizimini yaratdi?

A)*Jismoniy tarbiya;
B) Iqtisodiy tarbiya;
C) Ekologik tarbiya;
D) Fuqarolik tarbiyasi.

12. Abu Nasr Forobiyning qaysi asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bildirilgan?

A)*"Baxt saodatga erishuv to'g'risida";
B) "Ixso-al-ulum";
C) "Aql ma'nolari to'g'risida";
D) "Fozil odamlar shahri".

13. Forobiy xulq-axloqni faqat so'zdagina emas, nimada tozalash orqali erishish mumkinligini ta'kidlaydi?

A)*amalda;
B) ilmda;
C) sog'likda;
D) fikrda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

2. Xodjayev B.X, Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU. 2015.

5. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник – Т.: ТТПУ, 2014.

6. Калдыбекова А.С.Жалпы педагогика теориясы жэне практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.

7. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

8. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

9. Pedagogika. // M.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

10. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003.

11. Подласый, И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. – М.: Туманит. изд. центр ВЛАДОС, 2006.

14-mavzu. XIX asrning 2-yarmi – XX asrning I-choragida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Reja:

1. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi.
2. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati va Turkistonda maktablar tizimi.
3. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.
4. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari.

Tayanch so'z va iboralar: maktablar tizimi, ta'lim siyosati, V.P.Nalivkin, Chor Rossiyasi ta'lim tizmi, rus-tuztm maktablari, jadidchilik harakati, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, yangi usul maktabi.

XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida talab etilganidek ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligiga erishishimiz, yoshlarda "Boy milliy madaniy-tarixiy an'analarga va xalqimizning intellektual merosiga hurmat" ruhida tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun esa tariximizning har bir davrini ob'yektiv o'rganishimiz, unga haqqoniy baho berishimiz va har bir davrdagi ilg'or qarashlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga olib kirishga harakat qilishimiz kerak. Yurtboshimiz bu masalaga o'z asarlarida alohida e'tibor berib kelmoqdalar.

XIX asr madrasalarida O‘rta asrga oid diniy falsafa, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi, mantiq ilmlari o‘qitilgan. Uni tugatib imomlik qilish yoki qozinxonada ishlash mumkin bo‘lgan. Maktab va madrasalarda dars o‘zbek, arab, fors-tojik tillarida olib borilgan. Asosan o‘g‘il bolalar o‘qigan.

Ta’lim tizimi 5 toifaga bo‘lingan edi:

1. Quyi-boshlang‘ich diniy maktab.
2. Qorixona.
3. Daloilxona.
4. Maktab internat.
5. Madrasa.

Boshlang‘ich diniy maktablar keng tarqalgan edi, shahar maktablarida o‘quvchilar soni 20 – 30 taga, qishloqda 10 – 15 taga yetgan. O‘qishga 6 yoshdan qabul qilingan, o‘zlashtirishiga qarab 7 – 12 yil o‘qishgan. Bularda Alifbe, Xaftiyak, Chor kitob, Sufi Olloyor, Qur’on o‘rgatilgan.

Qorixonada asosan Qur'on yod oldirilgan. Uni bitirganlar xalq orasida Qur’on sura va oyatlarini aytib berib yurgan. Qorixonalar katta maktablar yoki mozorlar qoshida ochilgan. Katta shaharlarda ko‘p bo‘lgan. Ularga maktabni tugatgan 10 yoshdan katta o‘g‘il bolalar qabul qilingan. 3 – 4 yil o‘qilgan. Qorixonalar madrasalar kabi vaqfga berilgan yer-joy, mollar hisobiga ta'minlangan.

1900-yili Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand viloyatida 333 ta qorixona bo‘lib, 1203 o‘quvchi o‘qigan.

Daloilxonalar ham vaqf mablag‘idan foydalangan, katta yoshdagi savodi chiqqan bolalar o‘qigan. 1 – 2 oy Qur’on suralari, keyin asosiy kitob “Daloil ul-hayrat” yodlatilgan. Bu XV asrda musulmon ulamolaridan Sulaymon ibn Yazuru tomonidan yozilgan asar bo‘lib, unda payg‘ambar va avliyolar hayoti yoritilgan. O‘qish muddati aniq belgilanmagan, xotirasi yaxshilar 2 – 3 oyda, qolganlar 1 yil yoki ortiqda yod olishgan.

Maktab internat – o‘rta madrasa bo‘lib, bularda diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilgan, o‘rta ma’lumot berilgan.

Arxiv hujjatlariga ko'ra 1911-yili yanvarigacha O'rta Osiyoda 10003 ta maktab, 1085 ta madrasa bo'lgan.

Mahalliy bolalardan ilmli kishilar tayyorlash uchun Xiva xoni Rahimxon Bahodirxoni soniy-Feruz (1844 – 1910) katta ishlar qildi. Uning tashabbusi bilan saroyda maktab ochilib, bunda rus o'qituvchisi va mashhur qorilar dars berganlar.

Feruz farmoni bilan 1904-yil 10-noyabrda Urganchda birinchi yangi usul maktab ochilgan. Unda Turkiyalik Husayn Kushaev ta'lim-tarbiya ishlarini olib borgan. 1906 – 07-yillarda qizlar maktabi ham tashkil qilinib, uning xotini Komila Kushaeva qizlarni o'qitgan. 1909-yili Feruz qo'l ostidagi madrasalar soni 130 taga, o'quvchilar soni 2300 ga etadi. Feruz Komil Xorazmiyni Toshkentga gimnaziya va maktablarda o'qitish usulini o'rganishga yuboradi. U qaytgach ishlar jonlanib ketadi.

Maktab o'quv dasturi va rejasida – riyoziyot, tarix, geografiya, tabiat, rus tili, ona tili, islomshunoslik fanlarini o'qitish belgilanadi. Sharq mutafakkirlari va rus yozuvchilari asarlari o'rganiladi.

Feruz o'z saroyida tipolitografiya-toshbosimxona tashkil qiladi. Navoiy, Munis kabilarning asarlari nashr etiladi. 1865-yillarda Markaziy Osiyo to'liq Rossiya tasarrufiga o'tadi va o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi, mustamlakaga aylanadi. Minglab rus oilalari bu yerlarga ko'chirib keltirildi.

1870-yili chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy shunday degan edi: "Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, shubhasiz ularni ruslashtirishdan iboratdir".

Ruslashtirish siyosati bilan birga o'qituvchilar ustidan nazorat kuchaydi, mustaqil ish yuritishga imkon berishmadi. Mahalliy maktablar yopildi.

Ruslar Turkistonda bosqinchilik ishlari olib borish, uning boyliklarini talash bilan birga, xalqning urf-odatlari, tili va

dinidan ham ayirmoqchi bo'ldi. Bu o'rinda Fitratning quyidagi fikrini keltirish mumkin: "...imperatorlik hukumati chin ko'ngildan tilar edi: qo'l ostingdagi o'zga millatlar ezilsinlar, xarob bo'lsinlar, saodat yuzin ko'rmasinlar, tilanchilar kabi yashasinlar".

Toshkentda dastlabki rus maktabi 1866-yili ochiladi. Bunday maktablarda ruslar bilan birga mahalliy bolalar ham qabul qilinardi. O'qish faqat rus tilida olib borilardi. Rus o'rta o'quv yurtlari ham ochila boshladi. 1876-yil Toshkentda erlar va xotin-qizlar gimnaziyalari, 1870-yil o'quvchilar seminariyasi ochildi. Bularda diniy bilimlar o'qitilmasdi, shuning uchun mahalliy bolalar kam edi.

1884-yil 19-dekabrda Toshkentning eski shahar qismida birinchi rus tuzem maktabi ochildi. Boshqa joylarda ham ochila bordi va 1904-yili ularning soni 57 taga yetdi.

Rus-tuzem maktablarida o'quvchilarga rus muallimi rus tili, arifmetika va boshqalarni o'tar, buning uchun o'qish vaqtining yarmi ajratilar, qolgan yarmida esa musulmon domla diniy darslar utardi. 1903-yil Toshkentda qizlar uchun rus tuzem maktabi ochildi. Lekin tezda yopildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ma'rifatparvarlik faoliyati keng yoyilib, qator ziyolilar pedagogik g'oyalar bilan chiqdilar. Shulardan biri Muhammad Amin Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy (1850 – 1903) dir. O'zining sayohatnomalarida, hajviy she'rlarida ilmsizlik, nodonlik, tarbiyasizlikni qoralaydi, ilm-ma'rifatni ulug'laydi.

"Tanobchilar", "Zavodchi boy ta'rifida", "Dodxoxim" she'rlari, "Sayohatnomalarida" kishilarning turli xulq-atvorlarini ko'rsatadi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1858 – 1909) ma'rifatparvarlardan biri. U 1889-yildan Toshkent, Samarqand, so'ngra Turkiya, Yunoniston, Bolgariya, Misr, Arabiston, Hindiston kabi xorijiy davlat safarlariga chiqadi.

Furqatning "Ilm xosiyati", "Gimnaziya", "Teatr haqida majmua", "Vistavka xususida" she'rlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiyani ulug'laydi, u madaniyat, san'at, hunar, odob, aql, texnika taraqqiyoti hammasi ilmdandir deb biladi.

Jahon bastu kushodu ilm birla,
Nadur dilning murodi ilm birla.
Ko'ngillarning sururi ilmdandir,
Ko'rar ko'zlarning nuri ilmdandir.

Ilm-fanni bir mash'alga o'xshatib, mash'al, qorongulni qanday yoritib tursa, ilm-fan ham insoniyatning baxt-saodati va istiqbolini shunday yoritib turishligini ta'kidlaydi.

Ahmad Donish (1827 – 1897) o'zbek va tojik xalqining mashhur mutafakkiri, olimi va faylasufidir. Uning asarlaridan "Navodir-ul vaqoe" (Nodir voqealar), "Buxoro amirlarining tarjimai hollari", "Yulduzlar tasviri", "Globusdan foydalanish yo'llari" va boshqalar.

XIX asrning oxirlariga kelib o'zbek ma'rifatparvarlarining butun bir avlodi etishib chiqadi. XX asrning 20-yillariga kelib ulangan bu avlod xalqimizning umumiy ma'rifatida, ijtimoiy-siyosiy yuksalishida va yangi turmushga tayyorlashda buyuk xizmat etdi.

Abduqodir Shakuriy (1875 – 1943) ham shunday ma'rifatparvarlardan biri edi. U Samarqandning Rajabamin qishlog'ida bog'bon oilasida tug'iladi. Eski maktab so'ngra Samarqandda madrasada o'qiydi. U "Tarjimon" gazetasidan ko'p narsalarni o'rganadi. 1901-yilda o'z qishlog'ida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi. Doska va partalar yasattiradi. Tatar tilidagi darsliklardan foydalaniladi.

Chor hukumati bunday maktablar ochilishiga qarshi edi, ularni qattiq nazorat qilardi.

Bu maktab bolalarni 6 oyda savodli qilib chiqarardi. Bunga eski maktab domlalari, mulla, eshonlar ham qarshilik qiladilar. Shakuriy yilda bir marta umumiy imtihon uyushtirib, ota-onalar oldida o'quvchilar bilimini namoyish qildirar edi.

Shakuriy ona tilida darsliklar zarurligini tushunib, bolaning yoshiga mos tarzda, axloq-odob, turmush qoidalaridan dastlabki ma'lumot berishni ko'zda tutuvchi darslik tuzishga kirishadi. Birinchi alifbe kitobi "Rahnomai savod" (Savod chiqarish rahbari)ni yaratadi. Kitobda so'zlar bo'g'inlarga bo'lib ko'rsatilgan, oxirida o'qish uchun kichik xrestomatiya berilgan. U o'z pedagogik faoliyatida "harf-tovush" metodi (har tovushni alohida harf bilan yozish) qulay va osonligini aniqlaydi. 1913-yili uning rahbarligida shogirdi I.Rahmatillayev tovush-harf metodi asosida yangi alifbe tuzadi. U arab alifbosi bilan tojik tilida yozilgan bo'lib, ko'p yillar qo'llanib kelinadi. Kitobning kirishida tez savod chiqarishga oid maslahat berilgan. Alifbe 46 betdan iborat bo'lib, 90 ta dars uchun mo'ljallangan edi.

1907-yili Shakuriyning 2-kitobi "Jameul hikoyat" (Hikoyalar to'plami) yoziladi. U boshlang'ich sinf 2-sinfi uchun xrestomatiya tarzida bo'ladi.

Shakuriy 1923-yili "Pravda" gazetasi e'lon qilgan "Eng yaxshi o'qituvchi" konkursining g'olibi deb topiladi.

Ismatilla Rahmatillayev (1883 – 1962) xalq ta'limi rivojiga katta hissa qo'shgan pedagoglardan biri. U ham Samarqandning Rajabamin qishlog'ida kambag'al oilasida tug'iladi. Uning savod chiqarishi va atoqli pedagog bo'lib yetishishida Shakuriylar oilasining o'rni kattadir. U eski maktabda, 1901-yildan yangi usul maktabda o'qiydi. Uni tamomlab, 1905-yildan Shakuriy maktabida o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi. Rus-tuzem maktabida ham o'qiydi. Shakuriy "Jameul hikoyat"ini nashr etishda qatnashadi. Tajriba o'rgangach, hozirgi Registon ko'chasida mehnatkashlar bolalari uchun yangi maktab ochadi.

1915-yili "Alifbe ta'limi" kitobini yozadi. Unga ko'plab tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikoya va she'rlar kiritilgan.

I.Rahmatillayev pedagog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shadi. 1922-yilgacha Samarqandda mahalliy o'qituvchilar tayyorlaydigan qisqa muddatli kurslar tashkil etishga rahbarlik qiladi.

1922 – 26-yillarda Samarqandda o'zbek inprosi (bilim yurti) direktori va o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. 1926 – 33-yillarda "O'zbek davlat kitob palatasi"ga direktor bo'ladi. 1935-yil "Mehnat qahramoni".

Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (1864 – 1927). Samarqandda hunarmand dehqon oilasida tug'iladi. Maktabda, madrasada o'qiydi. Rus maktabida o'qiydi, rus tili, adabiyotini o'rganadi. 1900 – 01-yillarda Misr, Arabiston, Turkiya, Rossiyaga boradi. 1903-yili qaytib kelib, Xalvoiy qishlog'ida yangi maktab ochadi. Asosan rus tili o'rgatishga ahamiyat beradi. I.Rahmatillayev arifmetikadan dars beradi. U birinchi bo'lib katta yoshdagi kishilar uchun kechki maktab tashkil qiladi.

1914-yili o'quv qurollari, darsliklar sotadigan "Zarafshon" nomli magazin ochadi. Kutubxona ochishda qatnashdi.

Uning "Mir'oti ibrat" (Ibrat oynasi (1912), "Anjumani arvoh" (1912), "Ganjinai hikmat" (1914), "Aynul adab" (Odob ko'zi (1915)) she'riy to'plamari chiqadi. She'rlariga "Ajziy" deb taxallus qo'yadi. O'zbek va tojik tillarida yozadi. She'rlarida pedagogik g'oyalarini targ'ib qiladi. Ta'lim-tarbiyadagi eski usullarga qarshi chiqadi.

1911 – 14-yillarda maktablar ochishda qatnashadi.

Gogolning "Shinel" asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. 1918 – 21-yillarda Samarqand viloyat adliya komissari bo'ladi, 1921-yildan pedagogik ish bilan shug'ullanadi. "Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoniga ega bo'ladi.

Saidrasul Aziziy (1866 – 1933) Toshkentda ziyoli oilasida tug'iladi. Eski maktab, so'ngra "Madrasai Mahmud dasturxonchi"da (Toshkent) o'qiydi. Rus-tuzem maktabini ham bitiradi. O'qigan madrasasida mudarrislik qiladi. 1900-yildan rus-tuzem maktabiga ham taklif qilinadi. U o'zbeklar orasida birinchi bo'lib rus-tuzem maktabida dars beradi. Keyin Toshkent o'qituvchilar seminariyasida "sharqiya muallimligi"ni olib boradi. Uni rus tilini yaxshi bilgani, rus maktabida dars bergani uchun "nasora maxsum" (kofir maxsum) deb ataladi.

Aziziy o‘z ijodini shoir sifatida boshlaydi, lekin u madaniyatimiz tarixiga ko‘proq islohatchi pedagog sifatida shuhrat topdi. 1900-yili “Ustozi avval” kitobini yozdi, 1902-yil bosilib chiqdi. U yangi maktablarni (tovush usuli) “usuli savtiya” maktablari deb atadi. Bular o‘zbek pedagogikasi va metodikasida reforma yasadi. Aziziy “usuli savtiya”ning asoschilaridan biri sifatida shuhrat topdi.

Aziziyning “Ustozi avval” darsligi alifbe xarakterida bo‘lib, 1-sinflarga mo‘ljallangan.

Folklor, Sharq va o‘zbek klassik adabiyotidan foydalanib yozilgan hikoyalar (“Matonat”, “Xat”, “Beodob”, “Ikki oshna”, “Chaqimchi”).

Rus klassik adabiyotidan qilingan tarjimalar. (“Qiloqi birla bolasi”, “Tulki birla uzum”, “Yolg‘onchi cho‘pon”, “Vatani rus”).

Adibning o‘zi yaratgan hikoyalar (“Hamokat”, “Beforosat”, “Aqlli o‘g‘il”, “Zuluk birla ilon”, “Bir necha do‘stlik uchun ahd qilgan musofirlar”, “Onaga hurmat”, “Poklik” kabilar).

Darslikka kiritilgan hikoyalarda nodonlik, beodoblik, chaqimchilik, takaburlik kabi xususiyatlar qoralanadi. Aql va donolik, farosat va xushfe'llik ulug‘lanadi.

Darslik boshida o‘qituvchilarga ham ko‘rsatmalar beriladi. Bu darslik shuhrat qozonadi va shuning namunasida ko‘plab darsliklar yaratila boshlaydi. Aziziy yangi maktab yuksalishiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biri bo‘lib qoldi.

Mavzumizning birinchi masalasida gapirganimizdek, chor hukumati O‘rta Osiyoda feodal-patriarxal tuzumni saqlab qolib, xalqni qashshoqlikda, qullikda tutishga harakat qiladi. Mahalliy xalqning maorifi, adabiyoti, ozodlik g‘oyalarini ilgari surish vositalari rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan choralarni ko‘rdi. Mahalliy amaldorlarning ham zulmi shu davrlarda kuchayadi.

O‘tkazilayotgan zulmlar, ommaning ma’rifiy qashshoqligi, nodonlik, maktabning inqirozi, madaniy ortga ketish bularning hammasi endilikda chidab bo‘lmaydigan hayot tarzi bo‘lib

qolgan edi. Shuning uchun mamlakatdagi ilg'or, taraqqiyparvar kuchlar birlashib, islohat, o'zgarishlar orzusini qila boshladilar. Ular avvalo, maktab-maorifini, keyin esa ijtimoiy tuzumni isloh qilish g'oyalarini olg'a surdilar. Bular jadid nomini olgan bo'lib, jadid so'zi "yangi" degani bo'lib, yangilik tarafdorlari degan ma'noni anglatadi. Jadidchilik ijtimoiy tafakkurning alohida bir oqimi sifatida XIX asrning 90-yillarida maydonga keldi.

Jadidlar o'rta asr o'qitish usuliga asoslangan ta'limga qarshi chiqib, yangi usulda o'qitishni, qator dunyoviy fanlarni o'quv jarayoniga kiritishni talab qildilar. Ular ilm-fan, texnika, teatr va matbuotni yuksaltirishga harakat qildilar.

Jadidchilikning asoschisi qrim-tatar ma'rifatparvarlaridan bog'chasaroylik Ismoilbek Gaspirali (1851 – 1914) hisoblanadi. U "usuli savtiya"ni boshlab berdi. Barcha turkiy xalqlarni yagona millat deb bildi, millatning ravnaqi uchun kurashdi.

1883-yili "Tarjimon" gazetasini chiqara boshlaydi.

1884-yili 12 bolani "usuli jadid"da o'qita boshlaydi. Bolalar 40 kunda savod chiqarishadi. Imtihon o'tkazadi. Ular uchun "Xujai siben", "Bolalar muallimi" birinchi darsligini tuzadi.

Yangi usul maktablarda quyidagilarga e'tibor qaratilgan edi:

sinfda bolalar 30 dan oshmasligi;

2 marta yoz va qishda bolalarni maktabga qabul qilish;

1 muallimda 3 – 4 sinf bo'lishi;

dars 5 soatdan oshmasligi, har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus;

juma va bayram kunlari dam olinishi, yozda ta'til bo'lishi;

dars zerikarli bo'lmasligi, bolalarni urish, so'kish mumkin emas.

I.Gaspirali usuli jadid bilan o'qitishning qoidalarini shunday tushuntiradi:

a) Butun alifboni birdan o'rgatish og'irdir, boshda 3, 5 harf o'rgatib borish yengil.

b) ...birinchi darsdan bolalar yozishni boshlamasliklari lozim.

v) Darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib o'rgatilishi lozim.

g) Bir harfni o'zlashtirmay turib, ikkinchisiga o'tmaslik kerak.

d) Harflar bilan tanishtirilganda ular haqida kengroq ma'lumot berish lozim.

Uning ta'sirida ko'plab jadid ma'rivatparvarlari yetishib chiqdi. Jadidlar xalqqa ma'rifat va madaniyat tarqatish yo'lini maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi usul maktablar ochish, tijoratni rivojlantirish, gazeta va jurnallar chiqarish, teatr, kutubxonalar barpo etishdan iborat deb bildilar.

Ular "Taraqqiy" (1906), "Samarqand" (1913 – 15), "Sadoyi Turkiston" (1914 – 15), "Oyna" (1913 – 15), "Buxoroyi Sharif" (1912 – 13) va boshqa matbuot organlarini tashkil qildilar. O'z hisoblaridan darslik va o'quv qo'llanmalari chiqardilar. Teatrchilikka asos solindi. Ko'plab teatr gruppalari paydo bo'ldi. Drammaturgiya maydonga keldi. Publitsistika rivojlandi.

Jadidlar maktab va madrasalarda diniy va ilmiy-dunyoviy ilmlarni birga qo'shib olib borishga harakat qildilar.

Jadidlarning yirik vakillaridan: Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Siddiqiy, Aziziy, Shakuriy, Avloniy va boshqalar bo'lib, ularning ayrimlari faoliyati bilan tanishsak.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1874 – 1919) Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniy oilasida tug'iladi. U adabiyot, tarix, geografiya, islom tarixi, siyosatshunoslik bilan shug'ullanadi. 27 yoshida Makkaga borib, hoji va mufti unvonlari bilan qaytadi.

Behbudiy 1899-yildan sayohatlarga chiqadi. Misr, Istanbul, Qrim, Qozon, Kavkazning ko'plab shaharlarida bo'ladi.

U o'lkada usuli jadid maktablarining eng birinchi nazariyotchisi va amaliyotchilaridan, jadidchilikni boshlaganlardandir. Rajabamin qishlog'ida Shakuriy ochgan maktabni 1908-yili

o‘z hovlisiga ko‘chirib keladi, unga har tamonlama yordam beradi.

U o‘zbek va tojik tillarida “Kitobul-atfol” (Bolalar kitobi), “Muxtasari tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi), “Amaliyoti islom”, “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” kabi asarlarni yaratdi. “Behbudiy nashriyoti”ni tashkil etib, unda darsliklar, Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasini bosib chiqaradi. Samarqandda kutubxona va qiroatxona ochishga boshchilik qiladi. Drammaturgiya sohasida qalam tebratadi (m-n, “Padarkush”).

Behbudiy 1913-yildan “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi.

U til o‘rganishga yoshlarni da’vat etadi. Diniy ilmlar va dunyoviy ilmlar ulamolari kerak deb biladi. Behbudiy o‘z maktabi uchun o‘quv reja va dasturlar ishlab chiqadi. Uning maktabi 2 qismdan iborat edi: 1. Ibtidoiy qism. 2. Rushadiya. Birinchi bosqich 4 yil, 2 bosqichi ham 4 yil bo‘lgan va unga birinchi bosqichni tugatganlar olingan.

U ilmning jamiyat rivojidagi rolini yaxshi tushungan va yoshlarni ilm o‘rganishga chaqiradi, “Padarkush” dramasida ham ilmsizlikni qoralaydi.

Munavvar Qori Abdurashidxonov (1872 – 1931) Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug‘iladi. Onasi otinoyi bo‘ladi.

1901-yili birinchi jadid maktabini ochadi. Yangi maktablar uchun tovush usulida “Adibi avval” (1907), “Adibi soniy” darsliklarini yozadi. 1906-yili Ismoil Obid muharrirligida “Taraqqiy” gazetasini tashkil qiladi. Darsliklari qayta-qayta nashr qilinadi.

Munavvar Qori o‘rta maxsus va oliy ta’lim asoschisi sifatida 1916-yil 9-aprelida o‘z uyida to‘plangan jadidlar bilan birga Turkiston xalq dorilfununining musulmon bo‘limini tashkil etish yuzasidan komissiya tuzadi. O‘zi raislik qiladi. 3 bosqichdan iborat dastur tuziladi.

1918-yil 13-may, yakshanba kuni Dorilfunun (hozirgi yosh tomoshabinlar teatri binosida) ochiladi. Munavvar Qori rais (rektor), Iso To'xtaboyev 1-, Burxon Habib 2-, muovin qilib belgilanadilar. O'qituvchilar soni 190 ga etadi. Ular orasida Fitrat, Kamol Shams, Haydar Shavqiy va boshqalar bor edi.

Shu munosabat bilan Toshkent davlat universitetiga Milliy universitet nomi berildi.

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886 – 1938) Buxoroda tug'iladi. Dastlab maktabda, so'ngra Mirarab madrasasida o'qiydi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o'rganadi. 1909-yili "Jamiyati xayriya" ko'magida Turkiyaga o'qishga ketadi. 4 yil o'qiydi. U erda "Munozara" va "Hind sayyohi qissasi" asarlarini yozadi. Bunda Buxorodagi o'quv-o'qituv ishlari, ularni tubdan o'zgartirish masalalariga e'tibor beriladi. "Rahbari najot" (1913), "Oila" (1916) asarlari, "O'quv" (1917) darsligini yozadi. 1922 – 23-yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo'lib, chet ellarga o'qishga talaba va o'quvchilar yuborishga rahbarlik qiladi. 1923 – 24-yillarda Moskva va Leningrad (Peturg)da yashab ijod qiladi, professor bo'ladi. Keyin qator oliy o'quv yurtlari, tadqiqot institutlarida pedagogik va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

"Rahbari najot" asarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor beradi, fanlar tasnifini yaratadi. O'zining didaktik qarashlarini bayon etadi. "O'quv" darsligi ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, turmush odobiga oid ko'plab mavzular berilganki, ulardan hozirgi tarbiya ishlarida ham keng foydalanish mumkin.

Abdulla Avloniy (1878 – 1934) Toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keladi. Maktabda, so'ngra Abdumalikboy madrasasida o'qiydi. Yoshligidan she'rlar yozadi.

1904-yili tinimsiz harakatlardan so'ng Mirobodda yangi usulda maktab ochadi. 1907-yili uning muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqa boshlaydi. 1909-yili "Jamiyati xayriya" ochib, bolalar o'qishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatadi.

Maktabining dovrug'i keng tarqaladi, chor hukumati talabi bilan o'lka ma'muriyati maktabini 1908-yili yopadi.

1909-yili Avloniy endi Degrez mahallasida maktab ochadi. Darsliklar yozishga kirishadi. 1909 – 1917-yillarda uning "Birinchi Muallim", "Ikkinchi Muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami nashr etiladi.

1913-yili yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" axloqiy va ta'lim-tarbiyaviy asar bo'lib, unda "insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm-axloq" haqida fikr yuritiladi.

Bola kamolotida tarbiyaning roli juda kattaligini tushunadi va tarbiya "yo hayot yo mamot masalasi" deb biladi. Bu fikrga yurtboshimiz ham alohida munosabat bildirganlar:

"Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, fikrini ko'p mushohada qilaman".

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzabdir".

Yurtboshimiz bergan bu baho Avloniy g'oyalarining hozirgi kunimiz uchun ham muhimligini, ulardan keng foydalanishimiz zarurligini ko'rsatadi.

Avloniy ma'rifatparvarlik faoliyatini boshqa sohalarada ham davom ettiradi. U 1913-yili 1-o'zbek teatr gruppasi "Turkiston"ni tuzadi. O'zi dramalar yozib beradi. "Turon" gazetasini chiqaradi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889 – 1929) Qo'qonda tabib oilasida tug'iladi. Maktab, keyin madrasada o'qiy boshlaydi. Lekin madrasadagi ta'limdan qoniqmay, mustaqil ravishda klassiklarimiz asarlarini o'rganadi.

16 yoshdan yozuvchilikni boshlaydi. 1911-yili Qo'qonning Hojibek guzarida maktab ochib, yetim va kambag'al bolalarni o'qitadi. Kambag'al bolalarni o'qiy olishlari uchun "Yordam

jamiyati" tashkil etadi. Kattalar uchun kechki kurs tashkil qiladi. Bunga 16 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan kishilarni qabul qiladi.

Chor hukumati amaldorlari Hamzaning maktabini xavfli deb topib, uni yopadi va o'zini ta'qibga oladi. 1913 – 14-yillarda chet ellarga ketadi.

1914-yili qaytib kelgach, kambag'allar uchun tekin maktab ochishga harakat qiladi. 1914-yil 4-oktyabrda "Yetimlar maktabi" ochadi, lekin bu tezda yopiladi.

Hamza Marg'ilonga ketadi va u erda bir kishining tashqi hovlisida 1915-yil avgustda yangi usul maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil etadi.

Hamza 1914-yili "Birinchi sinf talablari uchun maxsus yengil adabiyot" va 2-sinflar uchun "O'qish kitobi" tuzadi.

Hamza 1918-yildan Farg'onada o'qituvchilik ishini davom ettiradi. 1919-yildan Qo'qondagi 1-son boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Xorazm va Qoraqalpog'istonda ishlab keladi.

U o'z pedagogik faoliyatida va ijodida xotin-qizlarning ilm olishiga, jamiyat ishlarida qatnashishiga jiddiy e'tibor beradi. Hamza mohir pedagog, yozuvchi, kompozitor sifatida xalqimizga sidqidildan xizmat qiladi. (Avloniy va Hamzaning pedagogik qarashlari seminarda to'liq o'rganiladi).

Chor Rossiyasining ta'lim siyosati va Turkistonda maktablar tizimi. Yerli xalqning aksariy qismi, ba'zi rusparast boy-zodagonlarni hisobga olmaganda, o'z bolalarini rus-tuzem maktablariga berishning oqibatlaridan cho'chir edi. Bu maktablarda birinchi navbatda pravoslav mahzabinig asoslari, rus tili, podshoni ulug'lovchi madhiyalar o'rgatilgani uchun mahalliy xalq bu ochiqdan-ochiq dinbuzarlikdan qochib o'z farzandlarini rus-tuzem maktablariga bermasdi. Buni o'z vaqtida Sirdaryo viloyatidagi rus maktablarini taftish etgan chor amaldori N.K.Smirnov ham qayd etgan edi. U ruslashtirishga yo'naltirilgan ta'lim siyosatining

muvaffaqiyatsizligi sabablarini quyidagicha izohlaydi va yozadi:

- yerli aholining shaharlardagi rus maktablarining qabul qilmaganligi sababi ularning dasturlarida musulmoncha savod darslari yo'qligi, darslar bolalar uchun tushunarsiz bo'lgan rus tilida olib borilishi va o'qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi;

- (rus) bolalariga pravoslav dini asoslarini musulmon bolalar huzurida o'rgatish.

Shuningdek, ruscha xat-savod oddiy turkistonlikka foyda keltirmas edi, chunki o'lkaning musulmon aholisi barcha narsani – xatlar, hisob-kitoblar va boshqa yozishmalarni mahalliy tillarda va arab yozuvida amalga oshirar, musulmoncha xat-savodli kishi bunda, tabiiy, ko'proq yutar edi.

Rus mustamlaka ma'muriyatining ta'lim tizimini ruslashtirish orqali assimilyatsiya siyosati muvaffaqiyatsizlikka uchragani ayon bo'lgach, chor ma'muriyati o'zlarining pirovard maqsadlariga erishishning boshqa usullarini ham qo'llay boshladilar. Masalan, chor ma'muriyati o'zi tarafidan mutlaqo inkor etilgan, vaqflaridan judo qilingan va o'z holiga tashlab qo'yilgan madrasalarda rus tilini o'qitish g'oyasini ko'tarib chiqdi. Davrning taniqli sharqshunos olimi V.V.Grigoryevning maslahatlariga amal qilingan holda barcha yirik madrasalarda rus tilini o'qitish haqida topshiriq berildi. Bu xususda tilga olib o'tilgan olim qayd etgan ediki, "Madrasalarning domlalari ruschani bilmaydilar, xristian o'qituvchiga esa musulmon o'quv yurtida dars berish "odobdan emas", shu sababli musulmon domlalar va mudarrislarni rus tilini mustaqil o'rganishga majbur qilish kerak". Bu "genial" fikr keyinchalik hayotga qanday amalga oshirilganligi haqida tarixiy manbalarda biror-bir eslatma uchramaydi, ammo mazkur tashabbusning o'rtaga qo'yilishi mustamlaka ma'muriyaining o'zlarining pirovard maqsadiga erishish uchun hech qanday yo'llardan toymaganligiga yaqqol misoldir.

V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Vladimir Petrovich Nalivkin 1852-yilda tug'ilgan. U Turkiston ta'lim tizimiga katta xissa qo'shgan Markaziy Osiyo etnografi va tadqiqotchisi, birinchi ruscha-o'zbekcha lug'at muallifi Shu bilan birga harbiy xizmatchi bo'lgan. Nalivkin 1884-yilda toshkentdagi rus-tuzem maktabida birinchi o'qituvchi sifatida ish boshladi. Toshkentda Turkiston o'qituvchilar seminarida o'zbek va tojik tillarida o'qituvchilik qildi va rus-tuzem maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlashda ishtirok etdi. U 1890 – 1895-yillarda Turkiston o'lkasining Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand xalq ta'limi bo'limlarida inspektor bo'lib faoliyat olib bordi. Bu vaqt ichida Nalivkin o'quv-uslubiy qo'llanma, lug'at va ilmiy maqolalar chop ettirdi, o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha lug'at tayyorladi, o'zbek tili grammatikasi ustida ishladi. "Qo'qon xonligining qisqacha tarixi" "Kratkoy istorii Kokandskogo xanstva" (1886) asari muallifi, ushbu asar 1889-yilda Parijda fransuz tiliga tarjima qilingan.

Nalivkin Turkiston o'lkasi tarixi yuzasidan tarixiy-etnografik xarakterdagi ocherklar yozib bordi. 1908-yilda "Mening dunyoqarashim" ("Моё мировоззрение") nomli qo'lyozmasida o'zining sotsializm haqidagi qarashlarini yozib qoldirgan.

O'zlari kutmagan holda Turkistonda mutloq o'zgacha, kuchli va yashovchan madaniyatga duch kelib, ruslashtirish va xristianlashtirish rejalari puchga chiqqach, chor ma'muriyati til siyosatida bir muncha o'zgarishlar qilishga majbur bo'ldi. Rus ma'muriyati va mahalliy aholi o'rtasidagi asosiy to'siq til muammosi ekanligini anglab yetar edi. O'lka bosib olingan dastlabki davrda xalq bilan muloqot ko'p sonli tatar, qozoq va o'zbek tarjimonlari yordamida olib borilar edi, ammo tarjimonlarning haddan oshishi, o'z qavmi vakillari bilan til

biriktirib olishi, o'z xalqi tarafiga o'tib ketishi va xo'jayinlarni aldashga intilishi kabi hollar ma'muriyatni jiddiy tashvishga solardi. Mahalliy tillarni rus chinovniklarining o'zlari bilishi lozimligi ilk general-gubernator K.P. fon Kaufman davridayoq anglab yetilgan edi. General-gubernatorning taklifiga ko'ra Toshkentda mahalliy tillar kurslari ochilishi, bu kurslar uchun darslik va lug'atlar tuzishga tanlov e'lon qilinishi lozim edi. Ammo, bu ishlar "mablag' etishmasligi tufayli" amalga oshmay qoldi.

Fon Kaufmandan keyingi general-gubernatorlardan biri N.O.Rozenbax 1887-yilda maxsus farmoyish qabul qilgan bo'lib, bu hujjatga ko'ra chor amaldorlari, rus-tuzem maktablari o'qituvchilari mahalliy tillarni o'z xizmat vazifalari talab qilgan darajada bilishga majbur edilar. Shu maqsadda joylarda amaldorlar uchun til kurslari tashkil etildi. Ammo bu kurslarning natijasi ko'ngildagiday chiqmadi va ular tez fursatda "tekinga o'qitish, tinglovchilarning ko'pligi hamda darslar hajmining juda ozligi" tufayli o'z faoliyatini to'xtatdilar. Ammo, fikrimizcha, bunday faoliyatsizlik va muvaffaqiyatsizlikning asosiy sababi shovinistik ruhdagi aksar chor amaldorlarida Turkistondagi mahalliy tillarni o'rganish istaginig yo'qligi edi. "Zarafshon" (Samarqand) gazetasi 1906-yilgi sonlaridan birida yozgan ediki, "...bizning amaldorlarimiz hamma joyda o'zlari xizmat qilayotgan xalqlarning tili va turmushini bilishni astoydil xohlamaydilar. ...Ular til o'rganish uchun vaqt yetishmasligidan shikoyat qiladilar, ammo karta o'ynash va sharobxo'rlik uchun vaqt topa oladilar".

O'lkaning general-gubernatorlaridan D.I.Subotich davrida mahalliy tillarni mustamlaka amaldorlari tomonidan o'rganilishi o'tkir qilib qo'yilganini qayd etib o'tish kerak. Bu yuqori martabali mansabdorning 1905-yilda Rossiya imperiyasi Maorif ministri Redigerga yozgan maktubida ushbu masala xususida quyidagi fikrlar bayon etilgan: "Qirq yildan beri biz Turkistonni egallab turganimizga qaramay mahalliy ma'muriyatda yerli

xalqlar tilini biluvchi amaldorlar soni barmoq bilan sanarli darajada oz. Ahvol – halokatli darajada. Amaldorlar o'zlari boshqarayotgan aholining yoki sud qilayotgan insonlarning tilini bilmay turib qanday ish yuritishlari mumkin? Bu xususda ortiqcha gapirishga hojat yo'q, zarur choralarni ko'rish kerak.

Choralar ikkiyoqlama bo'lishi kerak: ham rag'batlantiruvchi, ham jazolovchi choralar, birinchi chorani ko'rish uchun mablag'lar lozim, ikkinchisi esa tekinga tushadi va ishni ulardan boshlash lozim. Ma'muriyatning uezd boshliqlarigacha bo'lgan barcha mansabdorlariga bir yil davomida o'z hududining tilini tarjimonlar ishini tergab turish darajasida o'rganishni shart qilib qo'yish kerak deb o'ylayman. Ikkinchi yilni esa ular o'z bilimlarini takomillashtirishi kerak, bu talab bajarilmaganida ularni xizmat pillapoyalaridan yuqori ko'tarilishini to'xtatish va hatto xizmatga keraksizligi tufayli iste'foga ham chiqarish zarur". General-gubernatorning o'z salaflari xatosini tuzatishga juda kechikib kirishganini qayd etish kerak.

Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari. Jadidlar harakati Turkiston o'lkasida tasodifan shakllanib qolgan harakat bo'lmay, balki chuqur asoslarga ega, tarixiy ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi, shakllandi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomondan Islom dinining asoslariga, uning ma'rifatparvarlik g'oyalariga, ikkinchi tomondan ilg'or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, milliy qadriyat va o'zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib olgan edi. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil Chor hukumati amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini oyoq uchida ko'rsatishi va buning

natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo'lgan xo'rlik hissi edi.

Garchi chor ma'murlari musulmonlar yashaydigan hududlarda qanday yaxshi narsalarni joriy qilgan bo'lsalar, bu gimnaziyalarning ochilishi bo'ladimi, zavod va fabrikalarning qurilishimi, bularning barchasini ular eng avvalo o'zlarining manfaatlari uchun amalga oshirdi. Qurol va quvvat nuqtayi nazaridan ojiz bo'lgan mahalliy xalq orasidan maydonga chiqqan bir guruh taraqqiyparvarlar mustamlaka va xo'rlik balosidan xalqni qutqarish uchun jadidlar harakatiga asos soldi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishi ham silliq kechgani yo'q. Bu yerda ham Buxoroda bo'lgani kabi jadid-qadim munozaralari, ikki qatlamning o'zaro tushunmasligi kabi muhit hukmron edi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 23-may kungi sonida chop etilgan "Jadid va qadim nedur?" maqolasi so'zimizga isbot bo'la oladi. Maqola muallifi Abdulloh Shoshiy jadid va qadim kalimalarida hech qanday gunoh yo'qligini ta'kidlab, balki haqiqiy gunoh "rasmiy qabihchamiz ila odati shar'iyyadadir", deydi. Shu boisdan ham o'zaro ixtiloflarni tugatib, ikki tomon ham bir-birini eng avvalo tushunib olishlari lozimdir. Shuningdek, muallif musulmonlarning ikkinchi manbasi bo'lmish hadisdan "Binobarin Hazrati Imom Rabboniyni mujaddidi soniy derlar. Yani sanoyi hijriyaning ikkinchi minggida dinni jadid qilg'uvchi, rivojlantirguvchi va nusrat yuborguvchi deyiladi va ham hadisda kelibdurki, "Alloh taolo hazrati yuborur va paydo qilur bu ummat marhamatining nafi uchun va dini islomning rivoji va taraqqiysi uchun har yuz yil boshida mujaddid yuboradur", misolini keltirib, ilohiy mohiyat va dinning o'zi jadidlikni ya'ni islohotchilikni talab qilishini yozadi.

Turkistondagi jadidlar harakatining rivojlanishiga G'ozi Yunus ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. U ham taraqqiyparvarlar bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Obidjon Mahmudov va

boshqa shu kabi insonlarning maslaka va maqsadlari yo'lida xizmat qildi. U bir tomondan turli xil bid'at va xurofotlarga chirmashib ketgan Islomni pok va musaffo holatga keltirish lozimligini ta'kidlasa, boshqa tomondan xalqni yangi usul maktablarida o'qishga targ'ib etdi. G'ozi Yunus ham aksariyat ziyolilar kabi eski usul maktablari o'z umrini o'tab bo'lganini, undan endi hech qanday foyda yo'qligini aksincha qaytaga zarar keltirishini ta'kidladi. Jumladan, u o'zining "Eski maktablar haqinda" nomli she'rida shunday yozadi:

Ko'z oching Turon eli, biz ilmsiz pomolmiz, Ish agar bu yo'lda ketsa ne bo'lur ahvolimiz. Yangi maktablar ochildi bizga lozimdur o'qish Ilm olsaq yaxshi bo'lg'ay bizning hama afolimiz. Eski maktab orqasida bo'ldi Turkiston harob Ilmsizlik orasida bitguvsi islomimiz.

G'ozi Yunus ongli musulmon sifatida islom dinining mintaqa hayotida tutgan o'rnini chuqur anglagan. U bu dinning eng yetuk vakillari bo'lmish ulamolarga murojaat qilib, ulardan Turkiston xalqlarini uyg'otishni, jaholatdan ma'rifatga yo'naltirishni, turli xil fitna va fasodlarni tugatishni so'ragan. G'ozi Yunus ularning asl vazifasi firqalarga bo'linib olib janjallashishda emas, balki millat va xalqni ma'rifatli qilishda ekanini ta'kidlagan.

Jumladan, G'ozi Yunus o'zining "Al-Ulamo varasatul anbiyo" (Ulamolar payg'ambarlarning me'rosxo'ridir) nomli maqolasida: "Islom dinining qabulina musharraf bo'lg'on va islomiyat tarbiya ila tarbiyalanmish har bir musulmon yuqoridagi hadisi sharifni janob sayyidil-a'zam va rasuli karimimizning qavli sharifi bo'lg'oniyg'a inonmishlar. Demakki, bir pok musulmon ulamo laqabi va a'losig'a yetushkan vaqtida anbiyo sifatlari ila mutassif bo'lib va anbiyolarning o'z millatlarig'a fidokorona xizmatlarinda sabot etganlari kabi vorisliqg'a yetushkanlari uchun din va millatlarig'a fidokorona xizmatlar ila isbot huquq etsalar vorisi anbiyo bo'lurlar. Ulamo laqabi va a'losig'a yetushkan zoti kiromning vorisi anbiyo bo'ldiqlarinda

hech bir musulmonning shubhag'a tushurajak yer yo'qdir. Nabiylar har birlari shaxs vohid bo'ldiqlari holda sabot va matonatlarining soyasida o'z qavmlarini ruhoniyatg'a da'vatlari ila barobar madaniyatg'a targ'iblari soyasida o'z qavmlarini boshqa qavmlarg'a qiyos qabul etilmas darajada yuqori ko'tarmishdir", deb yozadi.

G'ozi Yunusning fikricha olimlar o'z qavmlarining har qanday sitamlariga chidam, sabr va matonat ko'rsatib, insonlarni to'g'ri yo'lga solishga qanday intilgan bo'lsa ulamolar ham shunday namuna ko'rsatgan holda odamlarga saodatli manzilni ko'rsatishi lozimdir. Shuningdek, ular huddi payg'ambarlardek faqatgina dinga emas, balki madaniyatga ham chaqirishi, odamlarni ratsional tafakkur qilishga, olamni va ijtimoiyotni mulohaza qilishga da'vat qilishi darkor. Agar "...O'zlari voris bo'lganlariga inonsalar Alloh A'zimush-shan tarafidan berilgan bir quvvat ila millatni ittifoq va nizomg'a solub Janobi Alloh, Kalomi-sharif va Rasuli Akramimiz taraflaridan ularg'a omonat qo'yilmush vazifalarg'a tushunib Janobi Allohg'a mutavassil bo'lib, millatlarig'a lozim bo'lg'on xizmatlarini ado etsunlar. Diniy, milliy, madaniy va siyosiy biror habar bo'lg'onlarini ko'rsatub millatning o'ziga munosib har bir jamiyatg'a tavvodde' va zoyif etsunlar".

G'ozi Yunus madrasalarni isloh etish masalasini ham boshqa aksariyat jadidlar singari amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalardan biri deb bildi. Bu to'g'rida uning o'zi: "Turkistonda islohi madariys masalasi ko'pdan beri qo'zg'olg'on bo'linsada, ma'lum qora kuchlarning (G'ozi Yunus qora kuchlar deganda chor va bolsheviklar hukumatini nazarda tutmoqda – M.Alijonov) qarshi harakati va eskichilarning teskari tutqon yo'llari orqasida, har bir zamon kutar lekin islohi madariys tovushina chuqurroq qabr qazilur edi. Islohi madarischilar garchi Ho'qand va Toshkand shaharlarida bor bo'lsa-da, eskilarning quvvati oldida chekkalarda pisib yotmoqqa majbur edilar. O'zgarish boshlanishi bilan madrasani zamonga muvofiq

isloh etishni amal qilib olg'on kichkina guruhlarga nafas olish mumkin bo'lib, yonlarig'a tarafdorlar to'plashg'a imkoniyat hosil bo'ldi", deb ta'kidlaydi.

1917 – 1918-yillarda Qo'qonning ba'zi madrasalarida va Toshkentning mashhur Baroqxon madrasasida ta'limni isloh qilish tarafdorlari bosh ko'taradi. Biroq Farg'onada boshlangan Muxtoriyat atrofidagi voqealar sabab bu ezgu niyat amalga oshmasdan qoldi. G'ozi Yunusning fikricha, Toshkentdagi madrasalarni isloh qilishga harakat qilayotgan talabalar o'zlariga Baroqxon madrasasini umumiy qarorgoh qilib olib, "eskilar va eskichilar" bilan kurashdi. Islohot tarafdorlari madrasadan 40 – 50-yildan beri faoliyat olib borayotgan "muborak" ho'jalarni haydab chiqarib, ularning o'rniga o'zini ko'rsata olgan, zamon zayli bilan yashab, uning talablariga javob beradigan mudarrislar ishga joylandi. Biroq "...shunday bo'lsa ham xalqning ruhi bilan hisoblashmoqqa to'g'ri keldi, va birdan (madrasalarni – M.Alijonov) isloh etish mumkin bo'lmadi".

G'ozi Yunusning taraqqiyparvarlikka doir g'oyalari ayniqsa u faoliyat ko'rsatgan "Ishchilar dunyosi" jurnalidagi maqolalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Jurnalning birinchi sonida bosilgan "Maslak va maqsad" maqolasida G'ozi Yunus: "Maslagimiz programmasini to'liq amalga oshirish, unda shariati nabaviyada ustuvor turib qo'l uchi bilan kun ko'ruvchi faqir xalqimizni moddiy va ma'naviy jihatlarini yaxshilamakka intilish, shu yo'lda syezdlar, yig'inlar tashkil etish, ish borishi bilan ishchilar uchun maktablar, dorulfununlar, qiroatxonalar, shifoxonalar va madaniy muassasalar bunyod etish, sanoatni yo'lga qo'yish, siyosatda chor mikroblarini surib tashlab o'rniga turk-islom siyosati o'rnatmoq yo'lida jon fido etmakdir, vassalom", deb o'zining va davr taraqqiyparvarlarining maqsadini ochiqlaydi.

Jadid taraqqiyparvarlari o'zbek yoshlarini xorijiy o'quv yurtlarida o'qitishni ham maqsad qilgan bo'lib, ular bu yo'lda xalq ilmiy tafakkurini yuksaltirish va bu omilni taraqqiyotning

eng kuchli vositasi sifatida hal qilinishi lozim bo'lgan milliy masala darajasiga ko'tardi. Ular Turkistonda oliy ta'lim muassasalarining yo'qligi va bu borada amaliy tajriba ham pastligi sabab jadid taraqqiyparvarlari yoshlarni chet ellarda o'qitish, ayniqsa, Yevropa ilm-fani yutuqlari bilan yoshlarni yaqindan tanishtirish orqali Turkistonni erk va ozodlikka olib chiqishni maqsad qilgandi. Shu maqsadda ilk marotaba 1909-yil 12-mayda Toshkentdagi Turkiston jadidlarining "Jamiyati xayriya"si talabalarning ilk guruhini Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlariga o'qishga yubordi. Bu jarayon jadallik bilan rivojlanib bordi.

1909-yil 18-iyulda Buxorodagi "Tarbiyali atfol" jamiyati shu yilning o'zida Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Ato Xo'ja, Mazhar Burxonov kabi ko'pgina yoshlarni Istanbulga o'qishga yo'llagan. Bu harakatlar natijasida Buxorodan Istanbulga yuborilgan talabalar soni 1911-yilda 15 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 1912-yilda 30 nafarga yetgan. Qolaversa, "Ko'mak" tashkiloti ham o'zbek yoshlarini xorijda o'qitish borasida katta ishlarni amalga oshirgan. Bu tashkilotning yuzaga kelishida Maorif komissariyati O'zbek bilim hayati qoshidagi o'rta, oliy maktablarda o'quvchi o'zbek yoshlarining "Adabiyot" to'garagi asosiy o'zagi bo'lib xizmat qildi. Bu tashkilotning yuzaga kelish jarayoni to'g'risida Salimxon Tillaxonov quyidagilarni yozadi: "Ko'mak" uyushmasining maqsadi Turkiston talabalariga oliy tahsil asoslarini yaratmoq, xorijga va ichki Rossiyaga borib o'quvchilarning ishlarini yengillashtirmoqdir". Shuningdek, Salimxon Tillaxonov o'z maqolasida uyushma Toshkent dorulfununi va boshqa maktablarda o'qigan o'quvchilarni ta'lim olishlarini samarali davom ettirishi uchun tashkil qilinganini qayd etgan. Yana Rossiya va chet ellarda talabalar uchrashi mumkin bo'lgan mashaqqatlarni prognoz qilib Sayyidalixo'ja, Ibrohim Orifxonov, Kamol Dadaxo'ja o'g'li, Rizqi Rahimiy, Abduvohid Jahongir, To'lagan Mo'min o'g'li, Ochil Xo'ja, Ahmad

Shakuriy, Tohir Shokiriy, Salimxon Tillaxonlar to'planib 1922-yil 2-mayda "Ko'mak" uyushmasiga asos solinganini yozgan.

G'ozi Yunus o'zining "Qizil bayroq" gazetasidagi maqolalari orqali o'zbek yoshlarining xorijda tahsil olishlari lozimligini aytib, shu maqsadda tashkil etilgan "Ko'mak" uyushmasining faoliyatiga ham butun xalqning e'tiborini qaratishga harakat qildi. Jumladan, bu gazetaning 1922-yilgi 200-sonida bosilgan "Sharaflik ko'mak" maqolasida, "...eski idora vaqtida ilm yo'lida ko'rgan to'siqlarimiz to'g'risida ko'p yozdik, ko'p qichqirdik, nihoyat quruq shovqun-surondan foyda chiqmaslig'ini tushunib amaliy suvratda ishka boshladiq", deb qo'llab-quvvatlaydi va keyingi yillarda o'zbek yoshlarida uyg'ongan "Ilm yo'lidagi yolqinliq"ni alohida e'tirof qiladi. Shuningdek, G'ozi Yunus ayni vaqtda yoshlarda ilmga nisbatan uyg'ongan hisni mahkam ushlab qolgan holda oldingga harakat qilish lozimligini urg'ulab, "Mana shu hisning o'zbek yoshlarida uyg'onishi o'zbek milliyatini ilmsizlik orqasida bo'ynig'a o'ralg'on zanjirdan qutqaza..." olishligiga ishonadi.

G'ozi Yunus "Ko'mak" uyushmasining faoliyatiga baho berib: ""Ko'mak" uyushmasi a'zolari bu to'g'rida charchamasdan ishlab turadirlar. Bular hukumatdan ko'mak kutib o'lturmasdan, ionalar to'plab ishka boshladi. "Ko'mak" uyushmasi iona to'plash bilan ishning yaxshi samaralik chiqmaslig'ini ko'zda tutib hukumatimizdan ko'mak so'rab tegishlik o'runlarg'a murojaat qildi. Shuning bilan barobar qo'shni jumhuriyatlarga ham ko'mak so'rab murojaat qilg'on edi. Bu murojaatga birinchi quchoqni Buxoro hukumati ochdi. Buxoro hukumati "Ko'mak" uyushmasi a'zolaridan ikki kishini [6:9] o'z masorifi bilan chet ellarda o'qutishni o'z ustiga oldi. Eshitishimizga qarag'onda Buxoro hukumati Turkistondan yana ikki o'quvchi yuborishni o'z ustiga olg'on. Har holda Buxoro hukumatining bir qarindoshliq muruvvatini butun Turkiston xalqi esidan chiqormaydur", deb ta'kidlaydi.

Albatta, yuqoridagi ishlarni taraqqiyparvar ziyolilarning ko‘pchiligi qizg‘in qo‘llab-quvvatladi, biroq oradan ozgina fursat o‘tmasdan xorijda tahsil olayotgan talabalarning kam-ko‘stlari uchun yig‘ilgan pul juda oz ekani ma’lum bo‘ldi. Bu haqda G‘ozi Yunus: “Rossiyada o‘qig‘uvchi talabalarimizning soni borg‘on sari ko‘payishi aniqdir. Bultur butun Rossiyada Turksitonlik o‘qig‘uvchilar 20 ga yetmagani holda, bu yilgi o‘qush vaqtida (agar borg‘uvchi o‘quvchilarg‘a turli to‘siqlar bo‘lmasa) 200 dan oshishi mumkindir. Bultur Moskovda va Peterburgda o‘qig‘uvchi talabalarimizning maishiy va o‘qish asboblari yetishmagani orqasida, ularning qandog‘ qiyin hollarg‘a tushkanliklari ko‘pimizga ma’lumdir”, deb xabar beradi va barchani talabalar uchun ionalar to‘plashga chaqiradi. G‘ozi Yunus talabalarning iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun: “Rossiyada o‘qig‘uvchi talabalarimiz uchun, o‘zimizdan to‘plang‘on nalog‘lardan bir miqdorini chiqarish kerak. Hamda o‘zimizning milliy boylig‘imiz bo‘lg‘on vaqflarning yillik daromadidan bir qismini ajratib, Rossiyada o‘qig‘uvchi talabalarimizni ovqat, kiyim va o‘qish qurollari bilan ta’min etishimiz kerak. Bundan boshqa hech chora yo‘qdir”, deb yechim taklif qiladi.

Xullas G‘ozi Yunus jadid va faol jamoat arbobi sifatida XX asrning boshidagi taraqqiyparvarlik jarayonlarida faol ishtirok etdi. U jadid taraqqiyparvarlari qatorida Turkistonning azaliy va o‘z yechimini kutib yotgan muammolarini dadil ko‘tarib chiqib, xalq va hukumat e’tiborini ularga qaratishga harakat qildi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim-tarbiyaga oid fikrlaridan to‘plash, ularning maqolalaridan konspekt qilish.

2. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarini o‘rganib, tahlil qilish konspekt tuzish.

3. XIX asr 2 yarimlarida Turkistonda qanday diniy-islomiy tarbiyaviy muassasalar bor edi?

4. Chorizm maktab siyosatining bosh maqsadi nima edi?

5. Rus va rus-tuzem maktablari kimlar uchun edi va ularda qanday fanlar o'qitiladi?

6. Jadidchilik va uning Turkistonda yoyilishi haqida nimalarni bilar edingiz, ularni qaysi manbalardan o'qigansiz?

7. Jadidchilikka hozirgi kunda qanday baho berilmoqda, bunga sizning munosabatingiz qanday?

8. Jadidlar yaratgan maktablarning eski usul maktablardan farqi nimada edi, jadid maktablarida nimaga e'tibor berildi?

9. Jadid ziyolilari ma'rifatparvarlik faoliyatlari qaysi yo'nalishlarda olib bordilar?

Nazorat uchun testlar:

1. Jadid maktabi Buxorodan keyin ikkinchi bo'lib qaysi shaharda ochilgan edi?

A) Andijonda;
B) Qo'qonda;
C) Toshkentda;
D)*Samarqandda.

2. XIX asrning oxirida jadidlar qaysi shaharlarda o'z gazetalarini chiqara boshladi?

A) Samarqand, Buxoro, Choruy;
B)*Toshkent, Samarqand, Buxoro;
C) Toshkent, Termiz, Buxoro;
D) Buxoro, Marv, Urganch.

3. Abdurauf Fitrat Komil Shams dars bergan "Anjumani maorif" jamiyati xomiyligidagi maktabni aniqlang.

A) Xurriyat;
B)*Anjumani maorif;
C) Turkiston;
D) Tarbiyat.

4. "Ta'lim berib tarbiyalaylik, tarbiyalab ta'lim beraylik" risolasi muallifi kim?

A)*S.Rajabov;
B) Qori Niyoziy;
C) Malla Ochilov;
D) K.Hoshimov.

5. "Usuli jadid" maktabi va unga darslik yozgan adib nomini aniqlang

A)*M.Bexbudiy;
B) I.Gaspiralli;
C) Uvaysiy;
D) Nodira.

6. Maxmudxo'ja Behbudiy qachon tug'ilgan?

A)*1874 y 10 mart;
B) 1919 y 21 fevral;
C) 1861 y 10 noyabr;
D) 1905 y 4 dekabr.

7. Bexbudiy ochgan maktabda ta'lim jarayoni qancha bosqichdan iborat?

A) 4 bosqichda;
B) 3 bosqichda;
C)*2 bosqichda;
D) 5 bosqichda.

8. Behbudiy nechanchi yilda maorif komissari etib tayinlanadi.

A) 1917;
B)*1918;
C) 1920;
D) 1919.

9. Behbudiy qaysi yillarda haj safariga chiqadi?

A) 1820, 1903, 1912;
B)*1899,1900, 1914;
C) 1894, 1904, 1913;
D) 1898, 1905, 1916.

10. Ismoil Gasparali Turkistonga qachon keldi va uning keltirgan g'oyasi nima?

A) 1895-yil, g'oyasi – ozodlik haqida;

B) 1897-yil, g'oyasi – ta'lim-tarbiya haqida;

C)*1893-yil, g'oyasi – milliy mustaqillik haqida;

D) 1892-yil, g'oyasi – bola tarbiyasi haqida.

11. Behbudiyning "Padarkush"sahna asari qachon yozilgan, u qachon va qayerda birinchi marta qo'yilgan?

A)*1912-yilda yozilgan, Samarqandda;

B) 1914-yilda yozilgan;

C) 1916-yilda yozilgan, Samarqandda;

D) 1920-yilda yozilgan, Samarqandda.

12. "Rahbari najot" asarining muallifi kim?

A)*Fitrat;

B) Qodiriy;

C) Navoiy;

D) Avloniy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. – 1914-yil 23-may. – № 12.

2. G'ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. – 1919-yil 25-iyun. – № 129.

3. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. – 1917-yil 6-sentabr. – № 2.

4. G'ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. – 1923-yil 6-fevral. – № 57.

5. G'ozi Yunus. Maslak va maqsad // Ishchilar dunyosi. – 1918-yil 4-yanvar. – № 1.

6. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

7. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

8. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

9. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

15-mavzu. 1924 – 1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji.

Reja:

1. Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi pedagogik fikrlar rivoji.
2. Turkiston o‘lkasida ta’lim siyosati va 1924 – 1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani. 1945 – 1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.
3. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida.
4. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari va O‘zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta’lim-tarbiya islohotlari: Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari.

Tayanch so‘z va iboralar: ta’lim tizimi, pedagogik fikrlar, 1924 – 1945-yillarda ta’lim, 1945 – 1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi, ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar.

Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi pedagogik fikrlar rivoji. Mustaqillik e’lon qilingan (1991-yil 1-sentabr) dastlabki yillardanoq O‘zbekiston hukumati ta’limga ustuvor soha sifatida e’tibor berib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo‘lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonuniylashtirilgan.

Mustaqil Respublikamizda xalq ta'limi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarda asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iboratdir.

Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamiz hukumati xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilishni va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib ta'lim tizimini ham yangilashni taqozo etar edi. Shu maqsadda 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida" Qonun hamda "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" keng muhokama qilindi va tasdiqlandi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun ta'lim, tarbiya fuqarolar kasbiy tayyorgarligi va har bir fuqaroning ilm olish konstitutsion huquqini ta'minlash kabi qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Respublikamiz bugungi kunda tubdan yangi davlat bo'lib, unda har bir siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi islohotlar ham yangi ta'lim tizimida bosqichma-bosqich olib borishni nazarda tutadi. Zero, ta'lim sohasidagi islohotlar ham yangi bosqichma-bosqich o'tish tamoyiliga asoslangandir. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asosi bo'lib hisoblanadi. Milliy dasturning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, u ijodiy va mustaqil fikrlovchi, tafakkuri rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirish bilan barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni kafolatlash bilan ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq boy madaniyatimizni tiklash va uni rivojlantirish, ta'lim tizimini takomillashtirish, uni zamon talablariga javob

bera oladigan jahon andozalari darajasiga ko'tarish maqsadiga e'tibor berib borilmoqda.

Ta'lim sohasida "Ta'lim to'g'risida" Qonun qabul qilinganligi, 1996 – 1997-yildan boshlab birinchi sinflarda o'qishning lotin yozuviga asoslangan yangi alifboda dastur, qo'llanma, dasrliklarning yaratilganligi – bu ta'lim sohasida qo'yilgan dastlabki odimlar edi.

O'tgan davrda yangi turdagi ta'lim muassasalari tashkil etildi. Oliy o'quv yurtlari qoshida litseylar ochildi. Qobiliyatli o'quvchilar chet ellarda ta'lim ola boshladi. O'qituvchilar xorijiy davlatlarda bo'lib, ilg'or tajribalarni o'rganib kela boshladilar.

Viloyatlarda yangi-yangi biznes maktablari, kichik va o'rta kasb-hunar kurslari ochila boshladi va bozor iqtisodi sharoitida fermer, soliq va bojxona xodimlari, audit v.b. yangi mutaxasissliklar kiritildi.

Oliy maktab sohasida test usuli joriy etildi. Viloyatlardagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi, chet el mutaxassislari respublikamiz o'quv muassasalariga jalb etildi.

"Mahalla", "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Nuroniy", "Ulug'bek", "Umid" jamg'armalari ham ta'lim sohasini rivojlantirishga hissalarini qo'shmoqdalar.

Lekin hozirgi davrda amalga oshirilgan barcha ishlarga qaramay ta'lim tizimi hali hayot talabi darajasida natijalarga erishmayotgani, eski Sho'ro zamonidan meros bo'lib qolgan mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xalos bo'la olmagani, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish muammolari to'liq hal etilmagani va nihoyat, amaldagi ta'lim tizimi taraqqiy etgan davlatlar darajasida rivojlana olmaganini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, mutaxassislar kadrlar tayyorlash, ularga bilim va tarbiya berish tizimi mamlakatimizda amalga oshayotgan islohotlar bilan bog'lanmagani, maktablarning moddiy bazasi talabga javob bera olmayotgani, kadrlar, o'qituvchilar tayyorlash muammosi hali hal etilmagani ma'lum bo'ldi. O'quv

dasturlari, qo'llanma va darsliklar ham talabga javob bera olmayotganini hayot ko'rsatmoqda.

Oliy ta'lim sohasida ham islohot o'tkazishni talab qila boshladi. Bularning barchasi hisobga olinib, 1997-yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq, ta'lim tizimini isloh etilish, kadrlar tayyorlash jarayoniga zamon talabi darajasida o'zgartirishlar kiritish maqsadida maxsus komissiya tuzildi va natijada "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida" Qonun Oliy Majlis sessiyasida qabul qilindi.

Bu ikki hujjatga binoan ta'lim tizimi isloh qilishni bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutiladi:

Birinchi bosqich – o'tish davri. 1997 – 2001-yillar. Bu yillarda yangi talab doirasida pedagog kadrlar tayyorlash, ta'lim standartlarini yaratish, o'quv dasturlari ustida ishlash, umumta'lim maktablarini qayta qurish, o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari tizimiga zamin tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimiga asos solish.

Ikkinchi bosqich – 2001 – 2005-yillarga mo'ljallanadi. Bu davrda milliy dasturni to'liq amalga oshirish mo'ljallanadi. Uning ba'zi g'oyalari va qoidalariga o'zgartirishlar kiritilish ham ko'zda tutilgan.

Uchinchi bosqich – 2005-yil va undan keyingi yillar bo'lib, islohot tajribalari tahlil etilib, umumlashtiriladi hamda kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtirilib, rivojlantirilib boriladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga asosan Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Ta'lim sohasidagi davlatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterida ekanligi;
- Ta'limning uzluksiz va izchilligi;

- Umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;

- O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yo‘nalishini: akademik litsey va kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlash ixtiyoriyligi;

- Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

- Davlat standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- Ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- Bilimli bo‘lish va iste’dodni rag‘batlantirish;

- ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Xalq ta’limining asosiy bo‘g‘ini – uzluksiz ta’limi tizimini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi uzluksiz ta’lim tizimi asos qilib olingan.

Bola shaxsini sog‘lom va yetuk o‘qishga tayyorlash maqsadini ko‘zlaydi. Mazkur ta’lim uch yoshdan olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’iy nazar, boshqa xil ta’lim tashkilotlarida olib boriladi.

Turkiston o‘lkasida ta’lim siyosati va 1924 – 1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani. 1945 – 1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji. 1917 – 1990-yillar davri haqida gapirganda birinchi prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish avvalo o‘rinlidir: “...bundan 130 yil muqaddam xalqimiz milliy mustaqilligini va tarixiy davlatchiligini yo‘qotib, mustamlaka asoratiga tushib qolgan edi. Shu davr mobaynida ajdodlarimiz, millatimiz mashaqqatli sinov va kurash yo‘llarini bosib o‘tdi. Bobolarimiz chor Rossiyasining zulmini beadad tortgan bo‘lsa, otalarimiz Oktabr to‘ntarishini, Grajdanlar urushini, quloqlashtirish kompaniyasi, Stalin qatag‘onlarini,

Ikkinchi jahon muxorabasining azob-u – uqubatlarini, tahlikali elliginchi va nihoyat "desantchilar zulmi" nomini olgan saksoninchi yillar voqealarini bevosita boshidan kechirdi. Biz – nisbatan yosh avlod esa "rivojlangan sotsializm" deb atalgan davrni ham ko'rdik, kommunistik mafkuraning hukmron tazyiqi ostida ham yashadik. Bu mafkura zulm va zo'ravonlikka, g'irromlik va soxtakorlikka asoslanganini yaxshi bilamiz. Shu sababli ham u halokatga uchradi".

Ta'kidlanganidek mana shu mustamlakachilik siyosati zulm va asoratlari ta'lim-tarbiya, milliy o'zlikni anglash sohalarimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Sobiq Sho'ro tuzumi davrida pedagogika fani butunlay boshqacha negizda shakllantirildi. Bu sobiq sovet pedagogikasining ajralmas qismi edi. Rus pedagogikasidan rus olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o'zbek pedagogikasi markscha – lenincha nazariya doirasida shakllangan soxta fanga aylanib ketdi.

Oktabr to'ntarishidan so'ng 3 ta xonlik o'rniga yangi yo'nalishdagi mafkuraga asoslangan Turkiston Muxtor Jumhuriyati, Buxoro va Xiva Xalq Respublikalari tashkil topdi.

Maktablardagi o'quv – tarbiya ishlari mazmuni tuzum maqsadi asosida o'zgardi. Din va Qur'oni Karimga e'tibor umuman taqiqlandi. 1918 – 20-yillarda yangi siyosat asosida o'quv reja va dasturlari tuzildi, dars va tadbirlar shu asosida o'tkazildi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslarida esa rus yozuvchilarini o'rgatishga e'tibor qaratildi. Aniq fanlarni o'qitish miqyosi kengaydi. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda ham o'zgarishlar bo'ldi.

Avvalo milliy maktablarda o'qituvchilar yetishmasligi ko'zga tashlandi. 1918-yil 20-yanvardagi sobiq RSFSR XKSning "Cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'grisida"gi dekreti asosida turli mullalar, ziyoli din ahllarining maktablarda dars berishlariga yo'l qo'yilmadi.

Hukumatning xalq maorifi sohasidagi yangi siyosatiga javoban ulkada juda ko'plab maktablar ochilib, o'quvchilar soni ancha oshgan. 1918-yili Toshkentda o'lka maorif xodimlarining s'ezdi ochilib, xalq maorifini qayta qurish bo'yicha tadbirlar belgilangan. "Mehnat maktablari" deb atalgan maktablar ochildi. Yangi tipdagi maktablar vujudga kela boshladi. 1918-yil bahoriga kelib respublikada ishlab turgan maktablarning soni 330 taga yetdi.

1919 – 20 o'quv yili boshida Farg'ona viloyatida 350 ta, Sirdaryo viloyatida 839 ta, Samarqand viloyatida 216 ta maktab ishladi.

Qizlar maktablari ochila boshladi. 1917-yili Beshyog'ochning Zevak mahallasida Bashorat Jalilova maktab ochib, 22 ta o'zbek qizini o'qitadi. Keyin bunday maktablar soni ko'payib boradi.

O'lkada o'rta, maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlari ham ochila boshladi. 1918 – 20-yillar ichida Turkiston sharqshunoslik instituti, Timiryazev nomidagi bilim yurt, Xotin-qizlar bilim yurti, va boshqalar, 1921-yil ximiya – formakologiya instituti, konservatoriya, 6 ta qishloq xo'jalik texnikumi ishga tushdi. Bular orasida 1918-yili 21-aprelda Toshketda ochilgan Turkiston xalq universiteti alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Uning viloyatlarda bo'limlari tashkil etiladi. Sobiq RSFSR XKSning 1920-yil 7-sentabr dekreti bilan shu universitet negizida Turkiston davlat universiteti tashkil etildi.

Pedagogika o'quv yurtlari – ped texnikumlar ochildi. Lekin o'qituvchi kadrlar yetishmasligi katta muammo edi. 1920-yilga kelib 1200 o'qituvchi tayyorlandi.

1920-yili birdan 7 ta maorif instituti (inpros) tashkil etilib, ularga 1145 talaba qabul qilindi. 1921 – 22 o'quv yilida o'lkada 2403 ta maktab va boshqa bolalar muassasalari ishlab, ularda 170105 bola o'qiganligi aytiladi.

1924-yili davlat chegaralanishi o'tkazilib, sobiq sovet respublikalari tashkil topgandan so'ng respublikalarda iqtisodiy-

ijtimoiy va madaniy yuksaklikka erishish maqsadida bolalarni umumiy ta'limga tortish, kattalar orasida yangi yo'sindagi savodsizlikni tugatish kerak edi. Shuning uchun 1930-yili 14-avgustda sobiq SSSR MIK va XKS tomonidan "Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqida" qaror qabul qilindi. Unda 8 – 10 yoshli bolalarni boshlang'ich maktablarning kamida 4 yillik kursi hajmida umumiy majburiy o'qishga jalb etish, 11 – 15 yoshli mehnat maktabining 4 yillik kursida o'qimaganlar uchun tezlashtirilgan 1 – 2 yillik kurslar tashkil etish, sanoat shaharlarida 1930 – 31 o'quv yilidan 7 yillik majburiy maktabga bolalarni tortish masalalari ko'zda tutildi.

1929-yili O'zbekistonda arab alifbosi o'rniga lotin alifbosi qabul qilindi.

1931-yil 5-sentabr "Boshlang'ich va o'rta maktablar to'g'risida" qarorida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatildi, darsni uyushtirish va o'tkazish metodikasini yaxshilashga e'tibor berildi. Fanlar bo'yicha sikl birlashmalari tashkil etish, pedagogik birlashma tashkil etish masalalari ko'rildi.

Yangi o'quv dasturlari tuzildi. 1932-yil 25-avgustda "Boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv programmalari va rejimi haqida" sobiq VKP(b) MKning qarori chiqdi.

1933-yil "Boshlang'ich va o'rta maktab darsliklari" haqidagi qaror chiqdi, tez o'zgaradigan darsliklar yaratish qoralandi.

1933-yildan sinfdan – sinfga ko'chirish sinovlari joriy etildi.

1934-yildan maktablarda sinf rahbari vazifasi ta'sis etildi.

Pedagogika darsliklari yaratila boshlandi. 1932 – 40-yillarda A.Afrikanov, P.Gruzdev, I.Kairov, B.Yesipovlarning pedagogika oliy va o'rta o'quv yurtlari uchun darslik, qo'llanmalari nashr etiladi.

1940-yil Toshkentda respublika o'qituvchilarining 1-se'zdi o'tkazildi. Ta'lim-tarbiyani yaxshilash, majburiy o'rta ta'limni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

1940-yil may oyida sobiq O‘zSSR Oliy sovetining 3-sessiyasida “O‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alfavitiga ko‘chirish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Oliy va o‘rta maxsus ped. o‘quv yurtlari soni ortdi. 1933 – 37-yillarda respublikada 26 ta pedtexnikum, 5 ta rabfak, O‘rta Osiyo davlat universiteti, Navoiy nomidagi Samarqand DU, Toshkent, Farg‘ona, Buxoro pedinstitutlari faoliyat ko‘rsatdi.

Bu davrlarda hukumatning maorif sohasida olib borgan siyosati natijasida o‘zbek xalqi o‘z tarixi, milliy urf-odati, an’ana, umuminsoniy qadriyatlarni bilish va o‘rganish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ldi, millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun kurashgan ma’rifatparvarlar surgunlarda azob chekdilar.

Urush davrida barcha moddiy resurslar va xalqning ma’naviy kuchlari frontga jalb etildi. O‘zbekiston ham himoyaga o‘z hissasini qo‘shdi.

Dushman bosib olgan yerlardagi ko‘plab ishlab chiqarish korxonalari O‘zbekistonga ko‘chirildi. O‘zbekiston ularni joy va ishchi kuchi bilan ta’minladi. Armiyani oziq-ovqat, kiyim bilan ta’minlashga hissa qo‘shdi.

Urush davrida barcha sohadagi kabi maorif sohasida ham qiyinchilik bo‘ldi. Ko‘plab o‘qituvchilar armiyaga chaqirildi, maktab binolari gospitallarga aylantirildi, o‘quv qurollari yetishmasdi.

O‘quv dasturlari sharoitga moslashtirildi. 1943-yil 8-yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarni hisobga olish va ularni majburiy ta’limga tortish haqida qaror chiqdi. Shu yili o‘g‘il va qizlarni alohida o‘qitish ham joriy etildi. Maktabga qatnovchi qizlar soni ortdi.

O‘zbekistonga evakuatsiya qilinganlar soni ortib bordi. Ular 1942-yili 716 minga yetdi. 1943-yil 154 ta, 1945-yili 242 ta bolalar uyi bor edi.

Urush davri qiyinchiliklaridan yana o‘qish 3 smenada olib borildi, darslar 40 minut bo‘ldi, ashula, rasm darslari o‘tilmadi.

O‘qituvchilar kamayib, xotin-qizlardan o‘qituvchilar tayyorlashga katta e’tibor qaratildi. Yana bir qiyinchilik esa urushdan oldin rus grafikasiga o‘tilgan edi, lekin hali o‘tib ulgurilmagan, kitoblar chop etilmagan edi.

1944-yildan bolalar bilimi va xulqini 5 ballik tizim asosida baholashga o‘tildi.

Urushdan keyin xalq maorifini yuksaltirish choralari ko‘rildi. 1949-yili umumiy majburiy 7 yillik ta’limga o‘tildi. Kasbga o‘rgatish maqsadida texnikumlar soni ko‘paytirildi. 1956-yildan internat maktablar vujudga keltirildi.

O‘qituvchilarga talab kuchaydi. 1953-yildan pedbilimyurtlari o‘rta maktab negizida ishlaydigan bo‘ldi, o‘qish muddati 2 yil edi. 1952 yildan o‘qituvchilar institutlari pedagogika institutlariga aylantirildi.

1962 – 63 o‘quv yilidan 7 yillik maktablar qayta tashkil etilib, 8 yillik maktablarga aylantirildi.

1962-yilda ToshDU qoshida birinchi marta pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi Birlashgan Sovet tashkil etildi.

Turg‘unlik yillarida hukumat siyosatidagi har qanday moneliklarga qaramay, mavjud imkoniyatlar doirasida Markaziy Osiyo, jumladan o‘zbek ziyolilari ulug‘ mutafakkir shoir va olimlarimizning pedagogik fikrlarini tadqiq etish davom etdi. 60 – 70-yillarda Furqat, Sadriddin Ayniy, Alisher Navoiy, Jomiy va Davoniy, Abdulla Avloniy kabi allomalarimizning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari tadqiq etildi. “Kalila va dimna”, “Qobusnoma” nashr qilindi. Taniqli pedagog olim Z.Mirtursunov “O‘zbek xalq pedagogikasi va uning xalq og‘zaki ijodida aks ettirilishi” (1967) asarida xalq pedagogikamizni birinchi bor tadqiq qildi.

70 – 80-yillarda ham ta’lim tizimida muhim o‘rinni egallagan umumiy ta’lim maktablari davlatning mafkuraviy, madaniy vazifalariga xizmat qilardi. 1972-yili hukumat tomonidan “Yoshlarni umumiy o‘rta ta’limga o‘tkazishni

tugallash va umumiy ta'lim maktablarini yanada rivojlantirish to'g'risida". Yoshlarni umumiy o'rta ta'limga o'tkazish 1975-yilga kelib tugallandi.

1975 – 76 o'quv yilida O'zbekiston qishloq va shaharlariga 9642 ta umumta'lim maktabi bo'lib, ularda 38028 ming o'quvchiga 237,5 ming o'qituvchi saboq berdi.

Shu o'quv yilida 42 ta oliy o'quv yurtida 246,4 ming talaba ta'lim oldi, ularda 400 fan doktori va 5 mingdan ortiq fan nomzodlari mehnat qildilar. Maktabgacha tarbiya muassalariga 900 mingdan ortiq bola jalb etilgan. Maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalarga 440 mingdan ortiq bola tortildi.

80-yillarga kelib jamiyatning ko'p sohalardagi kamchiliklar ko'zga tashlanib, keng ko'lamda qayta qurish ishlari boshlab yuborildi.

Hukumatning "Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari" 1984-yil ma'qullandi.

O'zbek pedagogikasi butunlay o'sishdan to'xtab qolmadi. Ko'plab olimlarimiz uni yuksalishi yo'lida tinmay mehnat qildilar. 70-yillarda o'zbek pedagogikasi ravnaqi uchun ayniqsa, Siddiq Rajabov (1910 – 1993) fidoyilik ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqot va Nizomiy nomli TDPIda ishlaydi. "O'zbekiston maktablari tarixi" mavzusida doktorlik disertatsiyasini himoya qiladi. "Pedogogika fani taraqqiyotining ba'zi masalari", "Tarbiya va o'qitishda klassik ta'limot", "Oliy ta'lim didaktikasi" kabi o'nlab asarlari nashr etiladi.

Pedagogika fani rivojiga Malla Ochilov (1931) katta hissa qo'shdi. Uning "O'qituvchi odobi", "Studentlarning axloqiy tarbiya jarayoni", "Bo'lajak o'qituvchini axloqiy shakllantirish", Studentlarning ilmiy tadqiqot ishlari" kabi risolalari mashhurdir, u chex pedagogi Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarini 1-bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Iqtidorli olim hozirda Qarshi DU pedogogika kafedirasini boshqarmoqda, ko'plab shogirdlariga ustozlik qilib kelmoqda.

80-yillarda Muzaffar Abdullayevning (1931) Forobiy qarashlari haqidagi tashqiqotlari pedagogikani yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. "Abu Nasr Forobiy", "Forobiy va uning risolalari", "Forobiy ta'lim tarbiya to'g'risida" kitoblarini yozdi. FAning haqiqiy a'zosi, hozirda Sharqshunoslik institutida direktorlik qilib kelmoqda.

O.Sharoffidinov, I.Husanxo'jayev, Z.Mirtursinov, R.Usmanov va boshqa olimlarimiz pedogogikamiz ravnaqi yo'lida kurashgan.

Aholi turmush farovonligi darajasi mamlakatning faqat iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan emas, balki ijtimoiy sohalar taraqqiyoti darajasi bilan ham ifodalanadi. Aynan ijtimoiy sohada davlatning insonparvarlik darajasi har tomonlama yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy soha taraqqiyotining qay darajadaligi ma'lum jihatdan mamlakatdagi siyosiy va psixologik muhitni, aholining umumiy kayfiyatini belgilaydi. Ijtimoiy sohalarning o'sishi hududlarning umumiy iqtisodiy taraqqiyot darajasini ko'rsatuvchi belgi bo'lib xizmat qiladi.

Sovetlar tuzumi yillarida partiya yakkahokimlikning vujudga kelishiga jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o'z mafkuraviy ta'sirini o'tkazib bordi. Ayniqsa, bu kishilar ongini o'zgartirishda muhim olim bo'lgan ta'limda, ilmda va madaniyatda jiddiy tus oldi. Xalqning ma'rifatga, fanga va milliy madaniyatga bo'lgan intilishi hukmron kuchlar tomonidan uzoqni ko'zlamay va yaxshi o'ylamay olib borgan siyosatlari natijasida siyosiy manfaatlar yo'liga burildi.

Yangi ziyoli kadrlarni shakallantirish, eski mavjud ziyolilarni yo'q qilish ana shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirildi. Savodxonlik darajasini o'sishi byurokratik boshqaruv tizimini mustahkamlanib borishi, texnika taraqqiyoti tomon yurish va ilmiy muassasalarning tashkil topish jarayonlari ular ustidan qattiq mafkuraviy nazoratning o'rnatilishi bilan hamohang ravishda yuz berdi.

Savodsizlik davri tugatildi. 1941-yilga kelib maktablar soni 5504 taga, ularda o'qiyotgan o'quvchilar soni esa 1 mln 315 taga etdi. Sovetlarning "madaniy inqilob" tadbiri jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa uning har bir sohasini qamrab oldi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor berildi.

Ikkinchi jahon urushidagi katta yo'qotishlar oliy ma'lumotli xodimlarning son va sifat jihatidan kamayib ketishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida urushdan keyingi yillarda oliy ta'limni rivojlantirish zarur ekanligini taqazo etardi. Oliy ta'limni rivojlantirish dinamikasi quyidagicha kechdi. 1950 – 1953 yillarda 16.600 ta mutaxassis tayyorlandi. 1959-yilda 31 ta oliy o'quv yurtida 88 ming kishi ta'lim oldi. 1985-yilga kelib, 42 ta oliy o'quv yurtlarida 285.5 ming kishi ta'lim oldi. 1960-yilda 30 ta oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, 1985-yilda ularning soni 42 tani tashkil etdi.

Biroq, bular miqdor ko'rsatkichlaridagi ayrim siljishlar edi. Lekin masalaning asosiy jihati – oliy ta'lim muassasalarini bitirib chiqayotgan mutaxassislarning sifati va saviyasi masalasida ko'plab muammolar mavjud edi. Shu o'rinda jahon fanlar tizimida o'z mavqesiga ega olimlar qatlami yetishib chiqganligi va texnikada katta yutuqlar qo'lga kiritilganli gini inkor etib bo'lmaydi.

Ammo ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan ulkan siyosiy va iqtisodiy boshqaruv bu yutuqlarni xalq xo'jaligiga jalb eta olmadi. Novatorlik ishlanmalarni byurokratik chig'iriqdan o'tgunicha ahamiyatini yo'qotar edi. Fanning ko'p tarmoqlari militarlashgan harbiy uslubga yo'naltirildi. Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozaga solish kuchaydi, xalqaro fanlararo aloqalar qattiq nazorat ostiga olindi.

O'zbekistonda malakali kadrlarni tayyorlashdagi, aholining ilmiy madaniy, ta'lim-tarbiyaviy taraqqiyotini ta'minlashda yetarlicha natijalar an'analarni o'zida jamlagan kuchli potensial

jamlangan. Shuning uchun O‘zbekistondagi oliy ta’lim oldida to‘plangan ijobiy tajribalarni saqlash va mazmunan boyitish dunyo ta’lim kengliklarida o‘zining munosib o‘rnini egallash kabi favqulodda jiddiy vazifa turib qoldi. Ayniqsa, bir necha o‘n yillab mafkuraviy iskanjada bo‘lgan fan, madaniyat, ta’limning undan bo‘shatish, yangi qadriyatlar, innovatsiyalar orqali jonlantirish mustaqil O‘zbekiston xalqi oldida sharafli va sermashaqqat vazifalardan biri edi.

O‘zbekiston mustaqillik ostonasida turar ekan, respublika rahbariyati dastlabki vazifalardan biri ilm-fanni, ta’lim tizimini isloh qilish, modernizatsiya qilish lozimligini chuqur anglar edi. O‘zbekiston birinchi rahbari I.Karimov 1988-yil 20-noyabrda O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida bo‘lgan uchrashuvda shunday degan edi: “Respublika hayotining barcha sohalarida ilm-fan mavqeini prinsip e’tibori bilan yangi sifat darajasiga ko‘tarish respublika Fanlar Akademiyasining asosiy vazifasidir, deb o‘ylaymiz. Ilm-fan ahliga buyruq berish, quruq ma’muriyatchilik, olimlarga apparat xodimlari kabinetlarida paydo bo‘ladigan “ijtimoiy buyurtmani” ro‘baro‘ qilish davri o‘tib ketdi. Ijodiy izlanishlarning natijalarini qamrab olgan Fanlar akademiyasi olimlarining asarlari va tavsiyalari respublika taraqqiyotining istiqbolini belgilaydigan kelajakdagi hisob-kitoblar va siyosatning poydevori bo‘lishi darkor... Fanga iste’dodli yoshlarning kirib kelishini ta’minlash uchun kompleks tadbirlar turkumini amalga oshirish zarur. Bu borada oliy maktabning, hatto umumiy ta’lim maktablarining faoliyatini tubdan qayta qurish kerak”.

Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida islohotlarni boshidan

kechirgan va natijasini ko'rsata olgan sohalardan biri ta'lim tizimidir. O'zbekiston ilm-fanga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Zamonning tezkor taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yangi fan sohalari bo'yicha tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Tabiiy va aniq fanlarni o'qitish va ilmiy tadqiqotlar olib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalaridagi professor-o'qituvchilar faoliyatining salmoqli qismi ilmiy tadqiqotlargna qaratilganligi o'z samarasini bera boshladi. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi" O'zbekistonda ilmu-fan rivojlanishiga bosh maqsadlardan biri etib belgilandi.

1992-yilda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentining farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar Akademiyasiningning mavqei ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" 2002-yil 20-fevraldagi farmoni ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq ilmiy texnika va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirishda, shuningdek, mamlakat ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Respublikaning ilmiy tadqiqot majmuini Akademiya, oliy ta'lim va boshqa tarmoqlaridagi 350 dan ortiq muassasani, jumladan, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqot bo'linmalari, loyiha konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va tajriba korxonalari, axborot-hisoblash markazlari o'z ichiga oladi. 2006-yildagi natijalar bo'yicha fanning turli tarmoqlari bo'yicha 34 mingdan ortiq ilmiy xodim faoliyat ko'rsatgan. Ularning 2.4 mingi fan doktori, 2.4 mingi fan nomzodlari edi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi xalq ta’limi tizimi taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Milliy pedagogik tafakkur ta’sirichan ta’limning sog‘lomlashtirish jarayoni boshlandi. Uzoq vaqt mobaynida tashqi dunyodan uzib qo‘yilgan, o‘zga mamlakatlar tarixiy tajribasidan ham, milliy ma’rifiy merosdan ham bahramand bo‘lmagan milliy pedagogika jahon maydoniga chiqdi. Erishilgan natijalarni o‘zgalarniki bilan qiyoslash, boshqalardan ijobiy jihatlarni o‘zlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Respublikamizda ta’limning yangi tizimini amalga oshirishda O‘zbekiston xukumati tariximizdagi ta’lim jarayonlarini o‘rganib chiqib, ta’limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e’tibor ta’lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirilib, uning moddiy-texnik bazasini zamon va davr talablari darajasiga ko‘tarish va O‘zbekiston ma’rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasida 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qildi. Ushbu qonun o‘z vaqtida muhim bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo ta’lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta’lim tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog‘lash, ya’ni uzluksizlikni ta’minlash muammolarini yecha olmadi. Ta’lim tizimidagi yig‘ilib qolgan muammolar 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi qonunni va kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Milliy dastur muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari, milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlashning ilmiy modeli, kadarlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari kabi bo‘limlarni qamrab olgan. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning mohiyatini o‘zida aks ettirgan bu dastur respublika ta’lim tizimining istiqbolli kelajagiga mo‘ljallangan bo‘lib, uni komp-

leks rivojlantirishga qaratilgan. Milliy Dastur va dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida mazkur soha tubdan isloh qilindi, zamonaviy uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimi yaratildi.

Mamlakatimizda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan maktabgacha ta'lim tizimi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i paydo bo'lmoqda. Misol tariqasida "Xonadon bog'chasi", "Fermer xo'jaligi bog'chasi", "Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab" majmualari vujudga kelmoqda. So'nggi uch yilda yangi ijobiy yutuqlardan biri maktabgacha ta'lim muassasalari xususiy sektorning ulushi oshib bormoqda. MDH davlatlari doirasida noyob tajribalardan biri maktabgacha ta'lim xalq ta'limidan mustaqil Vazirlik tasarrufida boshqarilmoqda. Zero bu soha ulkan hajmga ega. 2006-yilda 6565 ta maktabgacha ta'lim muassasasi bo'lib, 571157 bola ta'lim tarbiya olgan. 59595 nafar pedagog xodim shu sohaga jalb etilgan. Ammo bu raqam shuni ham ko'rsatadiki, 21,4%gina maktabgacha bolalarni qamrab olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi Qaroriga muvofiq yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bu sohada faoliyat tubdan yangiga negizga qurildi. O'tgan qisqa davrda 980 dan ortiq bog'chalar ishga tushirildi. So'nggi 2 yil ichida esa bolalar bog'chalari soni 1 ming 400 taga ortib, 6 ming 367 taga etdi. Ularda ta'lim va tarbiya ishlari mazmun va sifat jihatidan eng ilg'or usul va vositalar yordamida olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyev Oliy majlisga Murojaatida O'zbekistonda ta'lim tizimi taraqqiyoti davlat siyosatining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlab shunday dedi: "Uchinchidan, ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish zarur. Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan bir hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim

tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim".

Ta'lim tizimi aholining katta qismini jalb qiladi. Umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi asosiy bo'g'in bo'lib, u bilimlarni zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'rikmalarini rivojlantiradi.

1997-yilda O'zbekistonda 59 ta oliy o'quv yurti, 258 ta o'rta maxsus o'quv yurti, 75 ta kollej faoliyat yuritdi.

1998 – 2000-yillarda mamlakatda 160 ming o'quvchiga mo'ljallangan 47 ta akademik litsey va 260 ta kasb-xunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi. Shu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm sarflandi.

2000-yil boshiga kelib, mamlakatimizda 61 ta oliy, 25 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari, shu jumladan, 75 ta kollejlarda 360 mingdan oshiq talaba tahsil oldi.

O'zbekistonda 2006-yilda 9748 ta maktab bo'lib, ularda 5 mln 926860 ta o'quvchilar ta'lim oladi. Ular uchun 451567 ta o'qituvchilar faoliyat yuritib 463 nomda 16,8 mln nusxa darslik nashr etiladi.

Ta'lim tizimining eng mas'uliyatli bo'g'inlaridan biri bo'lgan oliy ta'limni tubdan o'zgartirilishi mustaqil O'zbekistonda islohatlarning tarkibiy qismi bo'ldi. Mamlakat kelajagi va taraqqiyoti bevosita yoshlarning milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalanganligi bilan belgilanadi. Bu murakkab vazifa esa zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini vujudga keltirish orqali amalga oshiriladi. Shu bois ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari darajasida rivojlantirish ustivor vazifa sifatida belgilangan. Yoshlarning tegishli mutaxassislik, hunar va kasblarini chuqur egallashlari Vatan va millat manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsata oladigan barkamol shaxsni tarbiyalash ham oliy ta'lim zimmasidagi asosiy vazifa ekanligi belgilangan.

Oliy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimini bosh bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bu soha jamiyatning iqtisodiyoti, fani, madaniyati

va texnologik jarayoni bilan yaxlit holda chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun uning taraqqiyoti umummilliy rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. XXI asr globalizatsiya bilan bog'liq holda oliy ta'limga yangi an'analar va yangi muammolarni yetkazib berdi. Bu jarayon dunyoning barcha universitetlariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugungi kunda barcha universitetlar uchun dunyo ta'lim kengliklarida o'z mavqeini saqlab qolish, teng huquqli hamkor sifatida bo'lish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi galda universitetlar ta'lim tizimini zamonaviy loyihasi tayyorlanib, ta'lim tizimining asosi bo'lgan yangi o'quv rejalar, dasturlar yaratildi. 1993-yildan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va bakalavrlar tayyorlashda qo'llanila boshladi. Viloyat markazlarida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy intellektual imkoniyat va moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 1995-yil 31-mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi ning "Ta'lim to'g'risida" qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida oliy ta'lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash va rivojlantirish, ularni zamonaviy o'quv laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlash, darslik va o'quv uslubiy materiallar, pedagog kadrlar bilan ta'minlash amalga oshirildi. Bu davrda Toshkent Islom universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kabi o'nlab universitet va institutlar tashkil etildi. Moskva Davlat universitetining filiali, xalqaro Vestminstr universiteti, Turin politexnika instituti kabi nufuzli oliy ta'lim dargohlari minglab yoshlarga ilg'or xorijiy tajribani qo'llab, ta'lim berishi mamlakatimizda kadrlar tayyorlashni yana bir pog'ona yuqori ko'tarilishiga omil bo'ldi. Shuningdek, mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish,

xorijda tayyorlanadigan mutaxassisliklarni qo'shma fakultet va institutlar ko'magida tayyorlash tajribasi yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko'paytirib, sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan Toshkent Davlat universitetiga "Milliy universitet" maqomi berildi. Respublikamizda emas balki Markaziy Osiyoda oliy ta'limni tashkil topishida va rivojlanishida Toshkent Davlat Universiteti katta o'rin tutadi. Davrlar mobaynida ushbu universitetning qator fakultetlari negizida bir nechta mustaqil institutlar tashkil topdi. "Milliy universitet" mustaqillik yillarida oliy ta'lim rivojiga munosib hissasini qo'shdi va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining ijrosida haqiqiy bayroqdorlik qildi. Shu o'rinda oliy ta'lim sohasida ko'plab sohalarga bosh mezonni belgilovchi O'zbekiston Milliy universitetida 30 dan ziyod ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, ulardagi ilmiy natijalar ilm-u fan taraqqiyotiga xizmat qilayotganligi quvonarli holdir.

2006-yil respublikada 62 ta oliy o'quv yurtida 265438 talabaga 21409 ta professor-o'qituvchi, jumladan 1662 nafar fan doktori va professorlar, 7360 ta fan nomzodlari va dotsentlar ta'lim berdi.

Oliy ta'limdagi tubdan o'zgarishning asosiylaridan biri yangi avlod darsliklarini yaratilishi, davlat ta'lim standartini shakllantirish bo'ldi. Bu oliy ta'lim, shuningdek, akademik tizimdagi olimlarning ulkan hajmdagi mashaqqatli, mas'uliyatli vazifalaridan biri bo'lib, zamonaviy ilmiy qarashlarni o'zida jamlagan bilimlar to'plami vujudga keldi.

Oliy ta'limning maqsadi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlashga, o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli, yuqori malakali, raqobatdardosh kadrlarni tayyorlash-

dan iborat. Respublika oliy o'quv yurtlarida talabalar bilim olish bilan birgalikda ilmiy tadqiqot ishlarini ham olib boradilar. Ilmiy mavzular ko'pincha talabalarning ixtisosligi bo'yicha tegishli ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xorijdagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan aloqani kuchaytirish, chet el investitsiyalarini ta'lim sohasiga jalb etishga alohida e'tibor qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro hamkorligi ta'lim tizimini takomillashtirish va uni jahon andozalariga ko'tarish, malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, xorijiy ta'lim muassasalari bilan o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, professor-o'qituvchi, doktorant aspirant va talabalarning til va kasbiy malakasini oshirish hamda ta'limning turli yo'nalishlari bo'yicha tajriba almashtirish maqsadlarida amalga oshirilmoqda.

AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya hamda Yevropa mamlakatlarining yetakchi oliy o'quv yurtlarida malaka oshirishning tizimli asosi yaratildi. Shuningdek, oxirgi yillarda yana bir ijobiy yutuq xorijdagi vatandoshlarimiz ilmiy salohiyatidan unumli foydalanish, iqtidorli xorijlik olimlarning O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida dars berishlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, o'qitishning yangi texnologiya va usullarini o'rgatmoqdalar. Ilm ahli chet eldagi olimlar bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatildi. "Umid", "Iste'dod" hamda "El-yurt umidi" fondlari tomonidan ilm fan, ta'lim namoyondalarini jorijiy tajribaga o'rganish muhim vazifa qilib qo'yildi. Buning natijasida tabiat va texnika-texnologiya haqidagi fanlar ham jahon andozasi darajasiga ko'tarila boshlandi. 1997-yilning dekabrida "Ustoz" jamg'armasi tashkil topdi. Ushbu jamg'armaning asosiy maqsadi professor-o'qituvchilar orasidan yuqori malakali pedagog-ustozlarni tayyorlashdan iborat. Bu jarayonni amalga oshirishda rivojlangan demokratik mamlakatlarda mavjud bo'lgan tajribalar o'rganildi va ular tatbiq etildi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 25-sentabrdagi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida "El yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma chet ellarda faoliyat ko'rsatayotgan salohiyatli vatandagi olimlar, mutaxassislar va ekspertlarini O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarga faol jal etishga shuningdek iqtidorli yoshlarning rivojlangan mamlakatlarda ta'lim olish, yetakchi xalqaro institutlar hamda xorijiy tashkilotlarda malaka oshirishda ko'maklashadi.

Mustaqilligimiz kelajagi yoshlar qo'lida ekan bilimdon, ma'naviyatli, mustaqil fikrlab, mustaqil ish yuritadigan yoshlarni, mamlakat rahbari ta'biri bilan aytganda, jamiyatimizning eng katta boyligi, millatimizning intellektual, aql-zakovat boyligi bo'lmish yigit-qizlarimizni tarbiyalash mamlakatimiz hayotida birinchi darajali vazifa ekanligi ko'p bor ta'kidlandi.

Respublikadan tashqarida ham keng tanilgan – Toshkent va Samarqand davlat universitetlari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetlari, Jahon tillari universiteti, Toshkent iqtisodiyot universiteti, Texnika universiteti, Agrar universitet, Konservatoriya, San'at instituti, shuningdek, respublikaning barcha mintaqalarida joylashgan tibbiyot, gumanitar tarmog'i ta'lim tizimining o'zagi bo'lib qoldi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirish, xo'jalik yuritishning ilg'or usullari va ishlab chiqarishni ilmiy-texnikaviy rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bilim sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash kengayib bordi. Shu yillarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida 360 mingdan ortiq talaba o'qib, malaka egalladi.

Ta'kidlash joizki, 2011 – 2016-yillarda oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sharoitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish doirasida 25 ta oliy ta'lim muassasasining 202 ta ob'yektida yangi qurildi, kapital

ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Iqtisodiyotni real sektori talablaridan kelib chiqib, muhandislik ishlab chiqarish va qurilish yo'nalishlari va ixtisosliklari bo'yicha o'qishga qabul qilish uning umumiy soniga nisbatan 23 foizdan 33.2 foizga oshdi.

Mamlakatimizda 2016-yilda siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda, ijtimoiy sohalarda ham chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Jamiyat ijtimoiy sohasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri ta'lim-tarbiya sohasi bo'lib, uning rivoji siyosiy, huquqiy iqtisodiy va ma'naviy sohalarga bevosita ta'sir etadi hamda ijtimoiy sohalar me'yoriy mohiyati, kamolot darajasini belgilab beradi.

2017-yilda ta'lim davlat siyosatining eng ustivor yo'nalishiga aylandi. Davlat byudjetidan ta'limga ajratilgan mablag'lar byudjet xarajatilari qismining 33.7 foizi darajasida rejalashtirilib, ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan harajatlar hajmi mamlakatimiz YAIM tarkibida 10 – 12 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston ta'lim maydoni ulkan hajmga ega bo'lib, 10 mingga yaqin maktab, 1556 ta litsey va kollejlar, 100 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida yangi ta'lim tizim asosida bilim va tarbiya olib, zamonaviy kasb-hunarlarga ega bo'lib, mamlakatimiz ta'lim modelining samarasini namoyon etmoqdalar.

Yangilanayotgan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar zamirida oliy ta'limning o'rni va ahamiyatiga ulkan xissa qo'shildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ilm-fan taraqqiyoti, ta'lim rivojlanishining kelgusidagi har bir muvaffaqiyati, muammoli masalalari yechim topishi hayotiy masala ekanligi teran tushuntirildi.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek ta'lim tizimi bir necha million fuqaroni birlashtirib, mamlakatning ertangi kuniga birinchi galdagi daxldor soha ekanligi barchamizga ayon bo'lib bormoqda. Shuningdek, globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanishni taqazo etayotganligi ham kundek ravshan. Bejizga 2016 – 2020-yillarning may oyigacha oliy ta'lim tizimini yangi

bosqichga olib chiqishga qaratilgan 62 dan ortiq me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilinmaganligini teran anglamog'imiz lozim. Biz shu o'rinda ularning ba'zilariga to'xtalib o'tsak, mavzuning mazmun mohiyatini tushunarli bo'ladi. Oliy ta'limning yangi sifat bochqichiga ko'tarilishiga xizmat qiluvchi ushbu Farmon va qarorlarning qabul qilishni yoshlarimizning jahonning rivojlangan mamlakatlardagi ta'lim standartlariga to'la mos keladigan bilimlarni egallashlariga, ularning ijodiy va intelektual salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu me'yoriy xujjatlar yana shunisi bilan e'tiborliki, unda faqatgina yutuqlar sanab o'tilmay, ishchan tanqid, muammolarni e'tirof etish orqali kelajak taraqqiyot uchun konstruktiv g'oya va takliflar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, mamlakat Bosh Vaziri Sh.Mirziyoyev 2016-yil 30-sentabrda "1-oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni" munosabati bilan yo'llagan tabrigida shunday degan edi: "Ayni paytda bugungi kunda oldimizda yanada muhim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta'lim tarbiya sohasini moddiy texnika bazasini yanda mustahkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan hamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domlalarning mashaqqatli va mas'uliyatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish, qisqa qilib aytganda, hayotimizga katta kuch bo'lib kirayotgan yanrgi avlodimizni kamol toptirish uchun davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar safarbar etiladi".

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdi (2016-yil 19-oktyabr) O'zbekiston rahbari Sh.Mirziyoyev ilm ahliga,

ta'lim namoyandalarini sharaflab shunday degan edi: "Ma'lumki, O'zbekiston ulkan tabiiy zahiralar, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Ammo Yaratganning o'zi ato etgan yana bir bebaho boyligimiz borki, u ham bo'lsa, xalqimizning beqiyos intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

Ilm-fan namoyondalarining, ta'bir joiz bo'lsa "igna bilan quduq qaziydigan" zahmatkash olimlarimizning mashaqqatli ilmiy izlanishlari mamlakatimiz, uning bugungi va kelgusi ravnaqi uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu fidoyi insonlar uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish maqsadida biz bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz bironta sohani rivojlantirish mumkin emas. Ushbu niyat va fikrlar kelgusida aniq rejalar asosida amalga oshirildi va ta'lim tizimida ulkan sifat o'zgarishlariga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishgan kunlardanoq O'zbekistonda ilmu-fanni taraqqiy toptirish, ta'lim tizimini shu jumladan, oliy ta'limni zabardast sohaga aylantirishga tizimli amaliy ko'mak berishga bosh bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi salohiyati oshirildi. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimi takomillashtirildi, moddiy texnika bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati tiklandi. Ko'p yillik tanaffusdan so'ng Fanlar akadmiyasiga saylov o'tkazilib, o'zining ilmiy ishlari bilan mamlakatimiz va xalqaro miqyosda nom qozongan iste'dodli olimlar akademik degan yuksak sharafga sazovor bo'ldilar. 2016-yil 30-dekabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvida qayt etilganidek, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga yanada takomillashtirishni muhim ahamiyatga ega. Bugun jahonnning yetakchi universitetlari iliy markazlari va fanlar akademiyalari bilan ilmiy xamkorlikni yanada mustahkamlashni zamonni o'zi

talab etmoqda. Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasi rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin.

Olimlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish ilmu fanni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushini oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish Vazirligi tashkil etildi. Bunda istiqbolli ilmiy loyihalarga katta hajmda davlat grantlari ajratilmoqda.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 24-may kuni O'zbekiston Milliy universitetida oliy ta'lim va ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi. Uchrashuv chog'ida bugunda ilmiy tadqiqotlar, ta'lim tizimida sifat jihatidan tubdan yaxshilash borasida qator fikrlar bildirildi va moddiy texnika bazasini yaxshilash uchun 6 mln dollar hajmida moliyaviy ko'mak ajratishga ko'rsatmalar berildi.

Olim va pedagoglarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash masalalari alohida e'tibor qaratib, ular uchun ko'p qavatli uylar qurish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shunga muvofiq Talabalar shaharchasi 6 ta 9 qavatli uylardagi 216 ta xonadosh tayyor holda foydalanishga topshirildi. Davlatimiz rahbari Olmazor massiviga tashrifi doirasida mazkur uylarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, xonadon egalari bilan suhbatlashdi. Xonadon egalarini tabriklar ekanlar, "Biz olim va pedagoglardan natija kutardig-u, sharoitini so'ramasdik. Sizlarni ham rozi qiladigan vaqt soat keldi. Ilmli odamlar – mamlakatimizni oltin fondi. Ularning qo'lida kelajagimiz bo'lgan bolalarimiz tarbiyalanadi" – deb niyat bildirdi, yuqoridagi fikrlar, niyatlar amaliy ish xarakatga aylanayotganligi hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Ushbu safar davomida Innovatsion rivojlanish Vazirligining yangi binosi bilan tanishish chog'ida Prezident: "Mamlakatimiz yuqori texnologik sohalar bo'yicha dunyoda ortda qolib ketgan. Barcha sohalarni modernizatsiya qilish, jahon bilan hamqadam bo'lish uchun Innovatsion rivojlanish Vazirligi tashkil etilib, shunday sharoitlar yaratdik. Bu jamoa yil

yakuni bo'yicha aniq amaliy natijalarni ko'rsatishi kerak, – deya ta'kidladi.

Bugungi kunda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash uchun zarur tizim yaratildi. Ilmiy tadqiqot muassasalari va olimlarning innovatsion g'oya va loyihalari qo'llab-quvvatlanib, qiymati 28.2 milliard so'mlik 31 ta startap loyiha moliyalashtirildi. Xalqaro hamkorlik doirasida 2020-yil birinchi choragi davrida Germaniya, Rossiya, Belorusiyadagi sheriklar bilan 9.6 mlrd so'mlik 38 ta qo'shma loyiha amalga oshirilmoqda.

Olimlarga yaratilayotgan sharoitlar, ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishuv chog'ida davqlatimiz rahbari talaba yoshlarning chuqur bilim olishlari masalasiga to'xtalib, "Yoshlar imtixondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun o'qishlari lozim", deb ta'kidladi. Chunki davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan barcha sa'yi-harakatlar, xalqimizning orzu-umidi yoshlarimizning yetuk, bilimdon, sog'lom fikrli bo'lishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktyabrdagi Farmoyishiga ko'ra tuzilgan Ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijalariga ko'ra, bir qator oliy ta'lim muassasalarida hali ham ilmiy pedagogik salohiyatni pastligi, ta'lim jarayonlarini axborot uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bajasini tizimli yangilashga muxtojligi aniqlandi. Oliy ta'lim tizimida o'quv jarayoniga ilg'or xalqaro tajribani keng joriy etish, yetakchim xorijiy turdosh ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqfalarini yo'lga qo'yish orqali pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish borasida ishlar talab darajasida emasligi ham ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori oliy ta’lim rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Qarorda “har bir oliy ta’lim muassasasi tomonidan xorijdagi yetakchi turdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini yaqindan yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv metodik materiallarini keng joriy etish, ilmiy-pedagogik faoliyatga yuqori malakali chet el o‘qituvchilari va olimlarini jalb etish” belgilandi.

Shuningdek, belgilangan vazifalar sirasiga “oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarni yana-da rivojlantirish, ularning akademik ilm-fan bilan integratsiyasini kuchaytirish, professor-o‘qituvchilar tarkibining ilmiy faoliyati samaradorligini oshirish, iqtidorli talaba yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga jalb etish”ga ham e’tibor berildi.

Oliy ta’lim tizimini yana-da takomillashtirish borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2017 – 2021-yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish Dasturi qabul qilindi. Dasturga muvofiq 48 ta OTMlarda 180 ta o‘quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muxandislik infratuzilmalarida qurilish va kapital ta’mirlash olib boriladi. 53 ta OTMlarda 400 ta o‘quv laboratoriyalari bosqichma-bosqich eng zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanadi. Bakalavriat va magistraturaga talabalar qabul qilishni 2021-yilgacha 18 foizga oshirish ko‘rsatib o‘tildi. Ushbu Dasturning amalga oshirilishiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar 1.7 trillion so‘mdan ziyod ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar Stategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan Harakatlar stratugiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi

yo‘nalishida maktabgacha ta’lim muassasalarining qulayligini ta’minlash, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlari turadi.

2017-yilda yangi ta’lim muassasalari qurish, mavjudlarini ta’mirlashga alohida e’tibor qaratildi. 12 ta umumta’lim maktabi yangitdan barpo etildi, 320 tasi rekonstruksiya qilindi, 152 ta maktab kapital ta’mirlandi.

Ko‘plab ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida 11 yillik ta’lim qayta tiklandi.

Joylardagi o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyojni qoplash uchun Toshkent viloyatida Chirchiq davlat pedagogik instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 15 ta oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo‘limlarda o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma’lumotlar olish imkoniyati yaratildi.

Ta’lim tizimidan innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug‘bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o‘qitiladigan maxsus maktablar tashkil etildi.

O‘zbekistonda 2017-yilda yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalari soni 81 tani, hududlardagi filiallar soni 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi. Oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiyot real sektordagi talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi. Bunda 260 mingdan ziyod talaba 850 dan ortiq yo‘nalish va mutaxassisliklar bo‘yicha bilim olishdi.

2018-yil Investitsiya dasturi doirasida 356 ta ta’lim muassasasida 684 milliard 700 mln so‘mlik” “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari bo‘yicha 371 ta umumta’lim maktablarida 424 mlrd so‘mdan ziyod qurilish rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. 2018-yilning avgust oyiga qadar davlat byudjetidan 12 trillion 366 mlrd. so‘m yoki yalpi xarajatlarning 26 foizdan ziyoda aynan ta’lim-tarbiya sohasiga

yo'naltirilganligini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu tizimdagi islohotlarimizning ko'lami va miqyosi yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimining keyingi bosqichi oliy ta'lim sohasida ham ulkan islohatlar olib borishmoqda. 2018-yilda yurtimizda xalqaro talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. 2018-yilning o'zida mamlakatimizda jami 13 ta oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Samarqanda "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti, Janubiy Koreyaning Puchon universiteti, Inxa universitetlari filiallari, AQShning Vebster universiteti filiali ish boshladi. Turkiyaning Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent shahridagi "MEI" Milliy tadqiqot universiteti Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filiali, "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti federal davlat avtonom OTMning Toshkent filiali, Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti faoliyat olib bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ–4740-son qaroriga muvofiq Geologiya fanlari universiteti tashkil etildi.

2018-yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytinggi yaratildi, ta'lim ilmiy tadqiqot jarayoni tahlil etildi.

Mazkur tahlil sohada qator muammo hamda kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Xususan oliy ta'lim muassasalari qabul kvotasi qamrovi umumta'lim maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining atigi 7 – 9 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Rossiyada 74, Koreya respublikasida 96 foizdir.

Oliy ta'lim 2019-yilda yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi va oliy ta'limga qamrovning oshishi quyidagicha bo'ldi: 2019-yilda jami 14 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etildi:

- 6 ta mahalliy oliy ta'lim muassasasining filiali;
- 8 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasining filiali.

Yangi tashkil etilgan 14 ta oliy ta'lim muassasasida:
- 40 ta yangi ta'lim yo'nalishi (bakalavriatura);
- 41 ta yangi mutaxassislik (magistratura) ochildi.

Oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan olis, chekka va tog'li hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari uchun maqsadli qabul ko'rsatkichlari belgilandi.

Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 20 foizga etkazildi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar soni 423 ming nafardan oshdi (2016-yilda 273 ming nafar). Oliy ta'lim muassasalariga qabul ko'rsatkichlari 121 mingdan oshdi (2016-yilga nisbatan ikki barobar).

Magistraturaga qabul 7705 tani tashkil etib, 2016-yilga nisbatan 1,5 barobarga (54%) oshirildi:

Tabiiy va muhandis-texnik soha mutaxassisliklari bo'yicha to'liq davlat granti asosida belgilandi hamda davlat granti ulushi 54% ga oshirildi;

55 ta oliy ta'lim muassasasida 21 ta xorijiy davlatning (AQSh, Germaniya, Turkiya, Finlyandiya, Fransiya, Gollandiya, Indoneziya, Isroil, Italiya va boshqa) yetakchi universitetlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Jumladan:
- 83 ta ta'lim yo'nalishi (bakalavriatura);
- 64 ta mutaxassislik (magistratura) bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-iyunda O'zbekiston yoshlarga yo'llagan bayram tabrigida oliy ta'limda kechayotgan taraqqiyot va sifat o'zgarishlariga to'xtalib o'tdi. Jumladan, shunday degan edilar:

- Bugungi shiddatli zamonda, global miqyosda raqobat kuchayib borayotgan murakkab vaziyatda yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Shu bois biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan va

mas'uliyatli vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Jumladan, keyingi uch yilda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari soni 60 foizga oshib, 116 taga etdi. Ular orasida nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari borligi alohida e'tiborga loyiq. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari soni izchil oshirib borilmoqda.

Agar 2016 – 2017 o'quv yilida bu raqam 58 mingtani tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda 150 mingtaga etadi. Ya'ni, bu yil maktab bitiruvchilarining 25 foizi oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoniga ega bo'ladi. Holbuki, 2017-yilda bu raqam 9 foizga teng edi.

Prezidentimizning 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolarini bartaraf etish, ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tadbiq etish markazi faoliyatini takil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qarori 2020-yil 10 fevral O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda Faol ishtirokini ta'minlash to'g'risida"gi Qarori (2018-yil 5-iyun, PQ-3775) sohasidagi qator muammolar keltirib o'tilgan: "*birinchidan*, oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni, ta'lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti; *ikkinchidan*, professor-o'qituvchilarning faoliyatini bilimini va

pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizim mavjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Miziyoyevning 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni imzolandi. Ushbu Farmon yuqoridagi fikrlarni izchillik bilan amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berganligini oliy ta'limda to'planib qolgan uzoq yillik muammolarga yechim topib berish barobarida, oliy ta'lim jahon standartlariga javob bera oladigan, mamlakatning kelajagi uchun xizmat qila oladigan darajada ko'tarishning yangi bir davrini boshlab berganligini mushohada qilamiz.

Ushbu konsepsiyada oliy ta'lim sohasida davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

O'zbekiston milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining filialiga aylashtirish;

Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symondg Wotld University Ranking, Times Higher Education yoki Akademic Ranking of World Universites) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti birinchi 500 o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatini kiritish oliy ta'lim muassasalarini akademik mustaqilligi ta'minlash kabi qator muhim vazifalar belgilandi.

Shuningdek, Farmonda nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim Kengashi tuzish belgilandi. Kengash vazifalari sirasiga professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, jamoatchilik va ish beruvchining fikrini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish

orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish; ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish" kiritildi.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'rsatkichlari:

- Xorijiy oliy ta'lim muassasalari dasturlari asosida o'qitish tashkil qilingan OTMlar soni 23 tadan 45 taga ko'payadi;

- O'quv va ilmiy adabiyotlarning elektron shaklini yaratish 20 foizdan 30 foizga oshiriladi.

- Magistratura mutaxassisligi bitiruvchilari ilmiy faoliyatga yo'naltirish 15 foizdan 45 foizgacha ko'tariladi.

- Xorijda malaka oshirgan va stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilarning ulushi 2 foizdan 20 foizgacha oshiriladi.

- Muxandislik – texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushi 20 foizdan 50 foizgacha ko'payadi.

- 2019-yil aholini oliy ta'lim bilan qamrab olish 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2030-yilga borib 50 foizga oshadi.

- Nodavlat, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida oliy ta'lim muasasalari soni 35 taga yetkaziladi.

- Kredit-modul tizimi joriy etiladigan oliy ta'lim muassasalari soni ham 2 tadan 85 taga ko'payadi.

Ushbu Farmonning ilovasida mamlakatda 114 ta oliy ta'lim muassasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasi va ularning filiallari hisoblanishi aytib o'tildi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasi filiallari tashkil etildi. Kadrlar buyutmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisliklari kiritildi. 2019 – 2020 o'quv yilida 59 ta oliy ta'lim muassasisida

sirtqi ta'lim, 10 ta oliy ta'lim muasssasida kechki ta'lim joriy etildi.

Respublikada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha 410 ming, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 13 ming nafarni tashkil etib, so'nggi uch yilda 1,7 baravarga oshdi. So'nggi 3 yilda 1 693 693 nafar professor o'qituvchi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy darajaga ega pedagog xodimlar soni 9 636 taga yetdi.

So'nggi 3 yilda oliy ta'lim muassasalaring 1611 nafar professor o'qituvchisi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashi malaka oshirishi ta'minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta'lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisliklariga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta'lim olishga qabul qilindi.

Ushbu Farmonning ilovasida bugungi ta'lim tizimining shaffofligi va demokratik ruhda ekanligi butkul namoyon bo'ladi. Muammolarni xaspo'shlanmay ochiq berildi va faqat tanqid bilan cheklanmay, uning yechimi yo'llari batafsil yoritib berildi.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarning amalga oshirilishidan kelgan natijalar oliy ta'lim muassalarining taraqqiyotida qanday aks etganligi bugungi kun uchun ham kelajak rivojlanishimiz uchun ham katta ahamiyatga molik masaladir. Oliy ta'lim muassasalarining real imkoniyatlaridan kelib chiqib, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimi joriy etishga yo'l ochildi. Shu bilan birgalikda bu oliy ta'lim olish istagidagi yoshlarimizga bir vaqtning o'zida bir necha oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirish imkoniyati oliy ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimida kvota institutning yo'q qilish sari izchil qadam tashlanmoqda. Fuqarolarimizning chet davlat OTMlarda O'zbekiston OTMlariga o'qitishni ko'chirish soddalashtirildi. 2019 – 2020

o‘quv yilida o‘qishni ko‘chirishga yalpi ravishda ruxsat berildi. Minglab talaba yoshlar respublikamiz OTMlarida o‘qishni davom ettirishga muvaffaq bo‘ldilar.

Oliy ta’limdagi sifat o‘zgarishlari bilan birgalikda uning jamiyat hayotidagi insonparvarlik jihatlariga ham alohida to‘xtalib o‘tish joiz bo‘ladi. Buning uchun oliy ta’limga qabul bo‘yicha qilingan qarorlarning mazmun mohiyatiga e’tibor qaratish lozim. Davlat komissiyasi majlisining 2020-yil 1-son bayoni bilan, Respublika OTMlariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun to‘rt foizli qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti tasdiqlandi. Unga ko‘ra, yangi o‘quv yilida xotin-qizlar uchun OTMlar bakalavriatning kunduzgi ta’lim shakliga qo‘shimcha 940 ta kvota ajaratildi.

2020/2021 o‘quv yili uchun respublika OTMlariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy soniga nisbatan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qo‘shimcha ikki foizli davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari belgilandi. Unga ko‘ra, respublika miqyosda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun jami 2799 ta kvota ajratilgan.

2020-yil 12-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4947-son qarori bilan “2020/2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” qarori tasdiqlandi.

2020-yil 20-iyulda respublika bo‘yicha jami 1 452 789 nafar (joriy yilgi bitiruvchilar 530 496 nafar) abituriyent ro‘yxatdan o‘tganligi o‘zi mamlaktimiz fuqarolarining oliy ta’limdagi o‘zgarishlarni chuqur anglayotganligi va yurtimiz kelajagida oliy ta’limning katta o‘rni borligini anglayotganligidan dalolatdir.

Oliy ta’limdagi katta islohotlar ijtimoiy adolatni barqaror bo‘lishi bilan hamohang kechdi. Bolalarning majburiy

mehnatiga chek qo'yildi. Paxta "umumilliy xarakati" isloh etildi. O'qituvchi va sog'liqni saqlash xodimlari, talabalar hamda va boshqa davlat tashkilotlari xodimlarining beminnat xizmatidan foydalanishi amaliyoti deyarli tugatildi.

Oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolar tan olinmoqda va ochiq munosabat bildirilmoqda. Oliy ta'lim tizimining shaffofligi, mobil tezligi oshirib borilmoqda. Ta'lim va sog'liqni tizimidagi muammolar e'tirof etildi. Ularning yechimiga qaratilgan islohatlar hayotga tadbiq etilmoqda.

Xalq ta'limi vazirligi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, nufuzli universitetlar rektorining, taniqli professor-o'qituvchilarning, olimlarning press-klublardagi ochiq muloqotda ishtirok etishlari muammolar yuzasidan ochiq, bevosita fikr bildirishlari ham bu sohadagi jamoatchilik bilan aloqa yo'lga qo'yilishida muhim qadam bo'ldi.

Maktab o'qituvchilarining oylik ish haqlarini oshirish yuzasidan amaliy xarakatlar qilindi. Pedagog xodimlarni namunaviy arzon uy-joylar, avtotransport bilan ta'minlash maqsadida uzoq muddatli imtiyozli kreditlar berish, ularning oila a'zolariga tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi. 2019-yilda boshlab mutaxassis o'qituvchilarning oshirilgan haqi miqdori 54 foizga oliy toifali pedogogklarning esa 64 foizga yetkazildi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida 2018-yilda umumiy o'rta ta'lim maktablari 16 ming nafar oliy ma'lumotli yosh kadrlar bilan to'ldirildi. Qariyib 13 ming nafar erkak o'qituvchilar maktablarga qaytishdi. Professor-o'qituvchilar oyligi va mavqieni oshirish siyosati tizimli davom ettirilmoqda. O'qituvchilaring boshqa majburiy mehnat va jamoat ishlariga jalb etish amaliyotiga chek qo'yildi. Oylik moashlari bir necha barobar oshirildi. Ilg'or o'qitish tizimini kengroq joriy etish, ilmiy tadqiqot ishlariga rag'batlantirish maqsadida 20 foizda 60 foizgacha ustama xaq to'lash albatta o'z natijasi ko'rsatadi.

Xalqimiz azaldan ilm va ma'rifatga intilib kelgan. Istiqlol yillarida ushbu soha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoridan o'rin oldi. Buni olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar yaqqol tasdiqlaydi. Bu jarayonda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk barkamol yoshlarni tarbiyalash va ularning bilim olishi bo'yicha bergilangan vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizda farovon hayotni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek ustoz va shogirdlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari, olimlarning fidokorona mehnatlari tufayli masafaviy ta'lim va onlayn dars berishda ham ijobiy tajribalar to'plandi. Endilikda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar siyosatini rivojlantirishni hamda uning moddiy texnik bazasini mustahkamlash borasida qilinayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunigdek, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlariga o'tishda oliy ta'lim muassasalari faoliyati va samaradorligini oshirish taqazo etilmoqda.

Fan-texnika tarraqiyoti va ta'lim tizimini raqobatbardosh sohaga aylantirish O'zbekiston uchun hayotiy masala ekanligi xalqimiz ongu-shuuridan mustahkam o'rin oldi. Ilmsevar, ma'rifatga ehtirom bilan qarovchi O'zbekiston xalqining ushbu sohadagi orzu-istaklari amalga oshirishda barcha kuch g'ayrat sarflanmoqda. Bu tizim yuksak ma'naviyat zaminida qurilib, davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlandi.

Mustaqqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari va O'zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya islohotlari: Sh.M.Mirziyoyevning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari. Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi

qat'iy xulosaga kelindi. Ana shu sababli ham "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy maqsadi sifatida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash belgilab berildi". Natijada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning boy milliy madaniy-tarixiy an'analar, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida o'ziga xos pedagogik nazariyalar maktabi vujudga keldi. Mazkur pedagogik nazariyaning tadrijiy rivojlanishi bu davrda yetakchi bo'lgan millatning ijtimoiy, ilmiy tafakkur darajasini yaqqol ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik fikrlarning taraqqiyoti davlat tomonidan ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmaga bevosita bog'liqdir. Chunki ijtimoiy buyurtmada davlat va jamiyat ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy ehtiyojlari ta'lim orqali qondirilar ekan, xuddi shu ta'lim tizimining ilmiy asoslanishiga zaruriyat mavjud.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida insonparvar, demokratik xarakterdagi uzluksiz ta'lim tizimi joriy etildi. U birinchi navbatda Shaxsning ma'naviyati, qobiliyati, iqtidori, salohiyatini ro'yobga chiqarish, uni amaliyotga joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga qaratildi. Bu esa pedagogika fanining yangi metodologiyaga tayanilgan holda rivojlanishiga yo'l ochdi, pedagogik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirdi, Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasini ishlab chiqishga yo'naltirildi.

Chunki pedagogika fani uchun ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etilgan o'quvchi hamda talabalar o'zlashtirgan bilimlar

hamda ularning intellektual rivojlanganligigi, axloqiy sifatlarni qay darajada egallaganliklari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib, tayanch kompetensiyalarni shakllantirib borish lozim. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim modeli jamiyatda erkin fikrlovchi Shaxsni shakllantirishga olib keladi. Bu esa hayotiy maqsadlariga ega va irodali, o'z qadrini biladigan insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ta'lim va tarbiya muntazam ravishda zamon talablariga mos holda rivojlanib, yangilanib boraveradi. Shu o'rinda uzluksiz ta'lim Sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'zligini namoyon qila oladigan kompetent kadrlarni tayyorlash vazifasi ustuvorlik kasb etadi. Zamonaviy ta'lim modeliga asoslangan holda Davlat ta'lim standartlari qaytadan ko'rib chiqildi. Takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlarida ta'lim oluvchilarda tayanch va predmetga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

"Tayanch kompetensiyalar – inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, Shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko'nikma va malakalar majmuidan iborat. Bunda har bir Shaxs kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo'lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi".

Pedagogika nazariyasi va tarixi fani uchun ham, amaliyoti uchun ham ta'lim oluvchilar Shaxsi bosh qadriyatga, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish yetakchi maqsadga aylangach, pedagogik nazariyaning mazmun-mohiyati tubdan o'zgardi.

Xullas, mustaqillik in'om etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'rifiy shart-sharoitlar va imkoniyatlar

asosida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlanib borayotgan pedagogik fikrlar ham O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'lib, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun ham pedagogika O'zbekiston Respublikasida ilmning ustivor sohasiga aylandi

Shuningdek, pedagogika fani sohasida xal etilishi zarur bo'lgan quyidagi muhim vazifalar belgilandi: sobiq sho'ro davridan qolgan mafkuraviy qarashlardan voz kechish, ta'lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni amalga oshirish, zamonaviy bilimga ega o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoni, mazmuni, darsliklar sifatini, o'quvchilarga beriladigan bilimlar hajmini aniqlash, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limini yangidan barpo etish, oliy o'quv yurtlarida zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratishdan iborat.

Pedagogika nazariyasini boyitish va barkamol Shaxsni shakllantirish jarayoni ilmiy metodik jihatdan ta'minlanibgina qolmasdan, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz pedagogika fanida ta'lim tizimi hamda o'quv jarayonini boshqarish – pedagogik menejment tizimi vujudga keldi. Ta'limning yangi Shakllari, liberallashtirish imkoniyatlari, Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish asoslari ishlab chiqildi.

Ajdodlarimizning boy pedagogik merosini o'rganish sohasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarni quyidagi gurnhlarga ajratish mumkin:

1. Ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish yo'nalishidagi izlanishlar;

2. Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash yo'nalishidagi tadqiqotlar;

3. Ta'limninng ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo'nalishlar;

4. Yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish yo'nalishidagi ishlar;

5. Ta'lim tizimi va o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo'nalishidagi tadqiqotlar;

6. Pedagogika tarixi yo'nalishidagi tadqiqotlar;

7. Xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar;

8. Xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganishga oid tadqiqotlar;

9. O'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar;

10. Kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar;

11. Oila tarbiyasi to'g'risidagi tadqiqotlar;

12. Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim yo'nalishidagi izlanishlar;

13. Barkamol avlodni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar;

14. Huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta'lim-tarbiyaga oid izlanishlar;

15. O'quvchi-talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar;

16. Axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo'nalishida tadqiqotlar;

17. Xususiy metodikaga oid ishlar.

Mustaqillik yillarida pedagogikaning xususiy tarmoqlari rivojlandi. Pedagogik prognostika, tashxislash, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy-pedagogika, andropedagogika, difektologiya, inklyuziv ta'lim sohasida izlanishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda pedagogika fani oldida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud:

· mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, huquqiy yetuk Shaxsni shakllantirish;

· darsliklarning yangi tipologiyasini yaratish;

· pedagogikaning xususiy tarmoqlarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish;

· yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning innovatsion tizimini yaratish;

· o'qituvchining ta'lim jarayonini loyihalash sohasidagi bilim va mahoratini oshirish;

· o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va muntazam rivojlantirish orqali, ularni kasbga yo'llashning yangicha texnologiyalarini yaratish;

· o'quvchilar bilimini baholash imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarni rivojlantirish.

Bugungi kunda pedagogika fani oldida dolzarb vazifalar o'z yechimini kutmoqda:

1. Yoshlarni barkamol Shaxs sifatida shakllantirish jarayonida ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan o'quv vositalari, usul va metodlarini qo'llash imkoniyatini yaratish.

2. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy qadriyatlar, an'analar, madaniy boyliklar, o'zbek xalqining urf-odatlarini singdirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish.

3. Shaxsga yo'naltirilgan uning ko'pfaoliyatliligiga asoslangan o'quv-biluv jarayonini ilmiy metodik jihatdan ta'minlash.

4. Pedagogika tarixi sohasida fundamental tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish.

5. Tarbiyaviy ishlarning yangicha mazmuni, Shakllarini belgilab berish.

Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishi uchun yaratilgan Shart-Sharoitlar natijasida pedagogika nazariyasi va tarixi sohasida nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, DTSlari takomillashtirildi, o'quv dasturlari va o'quv metodik majmualar

yaratildi, uzluksiz metodik xizmat ko'lami kengaytirilib, qo'llanmalar, ilmiy metodik tavsiyalar va monografiyalar ishlab chiqildi.

1. O'zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgach, pedagogika mustaqil fan sifatida Shakllandi hamda ilmning ustuvor sohasiga aylandi.

2. Mustaqillik yillarida ilk bor pedagogika ilmida o'zbek o'quvchisi va talabasining milliy ruhiyati, mintaliteti, o'ziga xosligi, imkoniyatlari hisobga olindi va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida ularga ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos hususiyatlari tadqiq etildi.

3. Mustaqillik yillari pedagogika fanining metodologik asosi sifatida milliy g'oya, o'zbek xalqining ko'p asrning ma'naviy-madaniy, pedagogik merosi, qadriyatlari, falsafiy yondashuvlar, dialektik bilish nazariyasi xizmat qila boshladi.

4. Mustaqillik yillarida ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari ob'yektiv ilmiypedagogik yondashuvlarga tayanilgan holda vujudga keltirildi.

5. Mustaqillik yillarida pedagogikaning yangi tarmoqlari: pedagogik antropologiya, falsafiy-pedagogika, pedagogik prognostika, ijtimoiy-pedagogika, pedagogik-diagnostika, statistik pedagogika sohasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi.

6. Shuningdek mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar keng ko'lamli bo'lib, ularni quyidagi bir qator yo'nalishlarga mujassamlashtirish mumkin: ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish yo'nalishidagi izlanishlar; ta'lim mazmunini modernizatsiyalash yo'nalishidagi tadqiqotlar; ta'limning ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo'nalishlar; yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish yo'nalishidagi ishlar; ta'lim tizimi va o'quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo'nalishidagi tadqiqotlar; pedagogika tarixi yo'nalishidagi tadqiqotlar; xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar; xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganishga oid

tadqiqotlar; o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar; kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar; oila tarbiyasi to'g'risidagi tadqiqotlar; maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim yo'nalishidagi izlanishlar; barkamol avlodni shakllantirishda ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar; huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta'lim-tarbiyaga oid izlanishlar; o'quvchi-talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar; axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo'nalishidagi tadqiqotlar; xususiy metodikaga oid ishlar va h.k.

Mustaqillik yillarida ta'lim-tarbiya, uning muammolari va yechimlariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiya, o'quv adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va maqolalar e'lon qilindi.

Bu ishlarda pedagogik fikrlaming ilmiy-metodologik asosi, metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, ta'lim va tarbiya mazmuni, Shakl va metodlari hamda shu kabi muammolarga milliy istiqlol g'oyalari va milliy mafkura asosida yangicha yondashishga harakat qilindi.

Mustaqillik yillarida milliy pedagogikamizning nazariyasi va tarixiga oid ilmiy-tadqiqotlar ham yaratilgan. Pedagogika tarixining ta'lim-tarbiya taraqqiyotida tutgan o'rni mustaqillikning dastlabki yillaridayoq pedagog olimlar diqqatini tortdi.

Masalan, *"Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari" (Safo Ochil), "Pedagogika" (R.Mavlonova va boshqalar), "Pedagogika tarixidan xrestomatiya" (O.Hasanboeva), "Pedagogika tarixi" (O.Hasanboeva va boshqalar), "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" (K.Xashimov va boshqalar), "O'zbek pedagogikasi tarixi" (A.Zunnunov va boshqalar) "Barkamol avlod orzusi" (Sh.Qurbonov va boshqalar)* kabi pedagogikaga doir darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalari zamonaviy pedagogik kadrlarni kasbiy Shakllantiruvchi ta'lim mazmunidir. Shu ma'noda *J.Yo'ldoshev va S.Hasanovning*

pedagogik texnologiya tarkibiy qismlarini yoritishga oid bir qator o'quv-uslubiy qo'llanmalari, K.Zaripov tomonidan pedagogik mahorat cho'qqisiga erishish bosqichlarini ilmiy pedagogik jihatdan asoslanishi, Sh.Qurbonovning Shaxs va milliy modelning uzviyligi, R.Axliddinov tomonidan DTSning ijtimoiy mohiyatini yoritilishi zamonaviy pedagogika fani va pedagogik fikrlar mazmunida o'z aksini topishi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatni kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbekistonning mustaqillik taraqqiyoti strategiyasi, xalqimizning kelakjakda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lidagi orzu-umidlarini, milliy istiqlol mafkurasining asl mohiyatini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish jarayoni kechayotgan bir davrda ta'lim-tarbiyaga doir nazariy va amaliy g'oyalar muhim ahamiyat kasb etadi va bular asosida ijtimoiy ongni shakllantirish shart-sharoitlari, mexanizmini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turli asosiy vazifalardan biridir.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Pedagogika tarixi fanining vazifasi?
2. ..... jamiyatning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilm-fan va amaliy faoliyat sohasidir.
3. *"Maktab"* yunon so'z bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?
4. Ekskursiyadan ko'zlangan asosiy maqsad nima?
5. Pedagogik jarayonning vazifasi (funksiyasi) nimalardan iborat?

Nazorat uchun testlar:

1. Pedagogika tarixi fanining vazifasi

A) ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ochib berish;

B) o'tmish pedagogik nazariyalari, ta'lim-tarbiyaning eng ilg'or tajribalari asosida pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni o'rgatadi;

C) pedagogik faoliyatni chuqurroq o'rgatadi;

D)*ijtimoiy fan sifatida pedagogik nazariyalarni o'rgatadi.

2. Yunonistonda bolalarning *"donishmand"*lar bilan suhbatini qanday nomlangan?

A)*Maktab;

B) Dargoh;

C) Ilmxona;

D) Savodxona.

3. *"Maktab"* yunon so'z bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?

A) "savod o'rganish";

B)*"bo'sh vaqt, mehnatdan dam olish";

C) "mahorat sirlari";

D) "yashash uchun kurash".

4. ..... jamiyatning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilm-fan va amaliy faoliyat sohasidir.

A) Sotsioligiya;

B) Falsafa;

C)*Pedagogika;

D) Psixologiya.

5. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyaning jahon xalqlari pedagogik-tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o'rganishdan iboratdir.

A)*Pedagogika tarixi fani predmeti;

B) Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D) Pedagogika tarixi fanining tadqiqot metodlari.

6. Qadimgi O‘rta Osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini, buyuk Sharq mutafakkirlari va ma’rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta’lim-tarbiya nazariyasiga qo‘shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta’lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o‘rganishdan iborat.

A) Pedagogika tarixi fani predmeti;

B)*Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D) Pedagogika tarixi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

7. Pedagogik jarayonning vazifasi (funksiyasi) nimalardan iborat?

A)*Bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilish;

B) O‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirib borish;

C) Bilish kuchlarini rivojlantirib borish;

D) Tevarak-atrofdagi voqealarni tushuntirish.

8. Ekskursiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad nima?

A)*Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to‘g‘risidagi tasavvurlarini shakllantirish;

B) Kuzatish;

C) Ta’lim-tarbiya berish;

D) Tabiatni ko‘rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. – 1914-yil 23-may. – № 12.

2. G‘ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. – 1919-yil 25-iyun. – № 129.

3. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. – 1917-yil 6-sentabr. – № 2.

4. G'ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. – 1923-yil 6-fevral. – № 57.

5. G'ozi Yunus. Maslak va maqsad // Ishchilar dunyosi. – 1918-yil 4-yanvar. – № 1.

6. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

7. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

8. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

9. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

16-mavzu: Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari.

Reja:

1. “Pedagogik mahurat” tushunchasi.
2. O‘qituvchining perseptiv va nutqiy qobiliyatlari.
3. O‘qituvchining tashkilotchilik, avtoritar va kommunikativ qobiliyatlari.
4. O‘qituvchining pedagogik xayoli, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Tayanch so‘z va iboralar: Pedagogik mahorat, pedagogik faoliyat, pedagogik fikrlar, tashkil etish, ta’limni tashkil etish shakli, ta’limni tashkil etish tizimi, dars, darsning turlari.

“Pedagogik mahurat” haqida tushuncha. Pedagogik kasbi o‘z mohiyatiga ko‘ra individualdir. Har bir pedagogning hayotiy o‘rni o‘z ishining ustasi bo‘lishi, usta (master) juda ilg‘or, bilimdon yoki o‘z ishini mohirlik bilan bajaruvchi deb ifodalanadi. Pedagoglik mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. Pedagog eng avvalo, pedagogik jarayon qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo‘lishi lozim.

Shu ma’noda pedagogning umumlashgan malakalari, uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga ega.

Mahorat – bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo‘lish mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog‘idagina go‘zaldir.

Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik

texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeyini ifodalaydi.

Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. So'nggi yillardagi ilmiy yondashuvlar bu holatga nisbatan quydagicha xulosa qilishga imkon berdi: pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi induviduallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan kishi induvidualligini xarakterlaydi. Xo'sh pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimadan iborat? Unga qanday erishsa bo'ladi? Hozirgi zamon pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy manbalarda pedagogik mahorat tushunchasiga nisbatan turlicha izohlarga duch kelamiz. Bu tushuncha mohiyatining aniqroq ta'rifi "Pedagogik ensiklopediya"da berilgan bizningcha, boshqalarga nisbatan bu ta'rif pedagogik mahorat mazmun – mohiyatini ancha to'g'ri yoritadi. "Tarbiya va o'qitishda yuqori darajaga erishish va uni doimo takomillashtirib borish imkonini ta'minlovchi san'at bo'lib, talabaga mehr qo'ygan va o'z kasbini sevgan, har bir pedagogning qiladigan ishi. O'z ishining mohir ustasi bo'lgan pedagog-bu yuksak daraja madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, fanning yoki san'atning tegishli sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyotini mukammal egallagan mutaxassisdir".

Bu ta'rifni yaxshi tushunib, uning ma'no mohiyatini tahlil etadigin bo'lsak, ushbu ta'rifda pedagogik mahorat tushunchasi mazmuniga kiradigan quyidagi masalalarni ajratish mumkin bo'ladi:

1. Umumiy madaniyatning yuqori darajasi hamda bilimdonlik va aql zakovatining yuksak ko'rsatgichi.

2. O'zining o'qitayotgan faniga doir keng va bilim sohibi.

3. Pedagogika, umumiy va pedagogik-psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ulardan o'qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish.

4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini egallangan bo'lishi.

Mustaqil O'zbekistonda qurilayotgan demokratik huquqiy davlatda faoliyat ko'rsatadigan pedagog qanday bo'lishi kerak? Hozirgi zamon pedagogining shaxsi uchun eng muhim asos – bu insonparvarlik. Pedagog juda yuksak darajadagi madaniyatga ega bo'lgan shaxs. U juda ko'p narsani bilishi kerak. Hozirgi zamonda o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilarni har kuni mashg'ulotlarni o'rgatib borish uchun o'zi muntazam o'qib, o'rganib, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak.

Demak, pedagog, pedagogik mahoratining asosiysi o'z ustida mustaqil o'qishidir. O'zbekiston mustaqillika erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar an'analarni joy-joyiga qo'yish milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayon. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilim va pokiza odob-axloqli qalb egasi ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Bu muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarning o'rni muhim va pedagogik mahorat faning roli ulkan.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zlarining qator nutqlari va asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga to'xtalar ekanlar, eng avvalo, pedagoglik kasbiga e'tibor berib, bu mashaqqatli va sharafli ekanligini jamiyatimizda ta'lim berish tizimini zamon talablari asosida yangilash, munosib avlodni shakllantirishni faoliyati bilan bog'lab, uning o'zida ana shu xususiyatlar bo'lishini ko'rsatib turadi. Pedagogik mahorat – tug'ma yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki izlanish, ijodiy mehnat mahsuli. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zamirida ijodiy mehnat yotadi.

Agar pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qarasa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati – mahoratidan iborat. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir jihatlari albatta ifodalanadi.

O‘qituvchilik kasbining ma’nosi uning vakillari tomonidan amalga oshiriladigan va pedagogik deb ataladigan faoliyatda ochiladi. Bu insoniyat tomonidan to‘plangan madaniyat va tajribani keksa avloddan yoshlarga o‘tkazish, ularning shaxsiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish va jamiyatda muayyan ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

Ko‘rinib turibdiki, bu faoliyat bilan nafaqat o‘qituvchilar, balki ota-onalar, jamoat tashkilotlari, korxona va muassasalar, ishlab chiqarish va boshqa guruhlar rahbarlari, shuningdek, ma’lum darajada ommaviy axborot vositalari ham shug‘ullanadi. Biroq, birinchi holda, bu faoliyat kasbiy, ikkinchisida – umumiy pedagogik bo‘lib, uni har bir shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullangan holda ixtiyoriy ravishda amalga oshiradi. Pedagogik faoliyat kasbiy faoliyat sifatida jamiyat tomonidan maxsus tashkil etilgan ta’lim muassasalarida: maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, kasb-hunar maktablarida, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida, qo‘shimcha ta’lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyatning mohiyatiga kirib borish uchun maqsad, motivlar, harakatlar (operatsiyalar), natijalarning birligi sifatida ifodalanishi mumkin bo‘lgan tuzilishini tahlil qilishga murojaat qilish kerak. Faoliyatning tizimli, shu jumladan pedagogik xarakteristikasi maqsaddir (A.N.Leontiyev).

Pedagogik faoliyatning maqsadi ta’lim maqsadini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda ham ko‘pchilik tomonidan asrlar qa’ridan kelgan barkamol shaxsning umuminsoniy ideali sifatida qaralmoqda. Bu umumiy strategik maqsadga turli sohalarda kadrlar tayyorlash va tarbiyalashning aniq vazifalarini hal etish orqali erishiladi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi tarixiy hodisadir. U ijtimoiy rivojlanish tendensiyasining aksi sifatida ishlab chiqilgan va shakllangan bo‘lib, zamonaviy shaxsga uning

ma'naviy va tabiiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda talablar majmuini taqdim etadi. U, bir tomondan, turli ijtimoiy va etnik guruhlarning manfaatlari va umidlarini, ikkinchi tomondan, shaxsning ehtiyojlari va intilishlarini o'z ichiga oladi.

A.S.Makarenko ta'lim maqsadlari muammosini ishlab chiqishga katta e'tibor bergan, ammo uning hech bir asarida ularning umumiy formulalari mavjud emas. U har doim ta'lim maqsadlari ta'riflarini amorf ta'riflarga, masalan, "barkamol shaxs", "inson-kommunist" va boshqalarga qisqartirishga qaratilgan har qanday urinishlarga keskin qarshi edi. A.S.Makarenko shaxsni pedagogik loyihalash tarafdori bo'lib, pedagogik faoliyat maqsadini shaxsni rivojlantirish dasturida va uning individual tuzatishlarida ko'rdi.

Pedagogik faoliyat maqsadining asosiy ob'yektlari sifatida ta'lim muhiti, o'quvchilarning faoliyati, o'quv jamoasi va o'quvchilarning individual xususiyatlari ajralib turadi. Pedagogik faoliyat maqsadini amalga oshirish ta'lim muhitini shakllantirish, o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, o'quv jamoasini yaratish, shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog'liq.

Pedagogik faoliyatning maqsadlari dinamik hodisadir va ularning rivojlanish mantig'i shundan iboratki, ular ijtimoiy rivojlanishning ob'yektiv tendensiyalarining aksi sifatida paydo bo'lib, pedagogik faoliyatning mazmuni, shakllari va usullarini jamiyat ehtiyojlariga moslashtirib, bosqichma-bosqich harakatning batafsil dasturini qo'shadilar, oliy maqsad sari – shaxsni o'zi va jamiyat bilan uyg'unlikda rivojlantirish.

Asosiy funksional birlik, uning yordamida pedagogik faoliyatning barcha xususiyatlari namoyon bo'ladi pedagogik harakat maqsad va mazmun birligi sifatida. Pedagogik harakat tushunchasi pedagogik faoliyatning barcha shakllariga (dars, ekskursiya, individual suhbat va boshqalar) xos bo'lgan, lekin ularning hech biri bilan cheklanmaydigan umumiylikni ifodalaydi. Shu bilan birga, pedagogik harakat shaxsning ham

umuminsoniy, ham barcha boyligini ifodalovchi o'ziga xos xususiyatdir.

Pedagogik harakatni moddiylashtirish shakllariga murojaat qilish pedagogik faoliyatning mantiqiyligini ko'rsatishga yordam beradi. O'qituvchining pedagogik harakati birinchi navbatda bilish vazifasi shaklida namoyon bo'ladi. Mavjud bilimlarga asoslanib, u o'z harakatining vositalari, predmeti va kutilgan natijasini nazariy jihatdan bog'laydi. Kognitiv vazifa psixologik jihatdan hal qilinib, keyinchalik amaliy transformatsion harakat shakliga o'tadi. Shu bilan birga, pedagogik ta'sir vositalari va ob'yektlari o'rtasida ma'lum bir nomuvofiqlik aniqlanadi, bu o'qituvchining harakatlarining natijalariga ta'sir qiladi. Shu munosabat bilan amaliy harakat shaklidan harakat yana bilish vazifasi shakliga o'tadi, uning shartlari to'liqroq bo'ladi. Demak, o'qituvchi-pedagogning faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra har xil turdagi, sinf va darajadagi behisob muammolar majmuasini yechish jarayonidan boshqa narsa emas.

Pedagogik vazifalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning yechimlari deyarli hech qachon sirtda yotmaydi. Ular ko'pincha mashaqqatli fikrlash, ko'plab omillar, shartlar va vaziyatlarni tahlil qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, kerakli aniq formulalarda taqdim etilmaydi: u prognoz asosida ishlab chiqilgan. O'zaro bog'liq bo'lgan bir qator pedagogik masalalarni hal qilishni algoritmlash juda qiyin. Agar algoritm hali ham mavjud bo'lsa, uni turli o'qituvchilar tomonidan qo'llash turli natijalarga olib kelishi mumkin. Bu o'qituvchilarning ijodkorligi pedagogik muammolarning yangi yechimlarini izlash bilan bog'liqligi bilan izohlanadi.

An'anaga ko'ra, yaxlit pedagogik jarayonda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatning asosiy turlari o'quv va tarbiyaviy ishlardir.

Tarbiyaviy ishlar – bu shaxsning barkamol rivojlanishi muammolarini hal qilish uchun ta'lim muhitini tashkil etishga

va o‘quvchilarning turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat. LEKIN o‘rgatish – bu maktab o‘quvchilarining asosan kognitiv faoliyatini boshqarishga qaratilgan o‘quv faoliyatining bir turi. Umuman olganda, pedagogik va tarbiyaviy faoliyat bir xil tushunchalardir. Ta’lim ishi bilan o‘qitishning o‘zaro bog‘liqligini bunday tushunish o‘qitish va tarbiyaning birligi haqidagi tezisning mazmunini ochib beradi.

Mohiyati va mazmunini ochish ko‘plab tadqiqotlarga bag‘ishlangan ta’lim faqat shartli ravishda, qulaylik va chuqurroq bilish uchun ta’limdan ajratilgan holda ko‘rib chiqiladi. Ta’lim mazmuni muammosini ishlab chiqishda ishtirok etayotgan o‘qituvchilar (V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lemer, M.N.Skatkin va boshqalar) shaxsning o‘quv jarayonida egallagan bilim va ko‘nikmalari bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zlashtiradigan bilim va ko‘nikmalarni ham hisobga olishlari bejiz emas. Ijodiy faoliyat tajribasi uning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lishi va atrofdagi dunyoga hissiy va qimmatli munosabat tajribasi. Ta’lim va tarbiya ishlarining birligisiz ta’limning ushbu elementlarini amalga oshirish mumkin emas. Majoziy qilib aytganda, yaxlit pedagogik jarayon o‘z mazmuniga ko‘ra “ta’lim ta’limi” va “tarbiya ta’limi” birlashgan jarayondir. (A.Disterweg).

O‘quv jarayonida ham, darsdan tashqari soatlarda ham sodir bo‘ladigan o‘qitish faoliyati bilan yaxlit pedagogik jarayonda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni umumiy ma’noda taqqoslaylik.

Faqat dars emas, balki har qanday tashkiliy shakl doirasida amalga oshiriladigan o‘qitish odatda qat'iy vaqt chegaralariga, qat’iy belgilangan maqsad va unga erishish imkoniyatlariga ega. O‘qitish samaradorligining eng muhim mezoni o‘quv maqsadiga erishishdir. Har qanday tashkiliy shakl doirasida ham olib boriladigan tarbiyaviy ishlar maqsadni bevosita amalga oshirishni ko‘zlamaydi, chunki tashkiliy shaklning muddatlari

doirasida unga erishib bo‘lmaydi. Tarbiyaviy ishda faqat maqsadga yo‘naltirilgan aniq vazifalarni izchil hal etishni ta’minlash mumkin. Ta’lim muammolarini samarali hal etishning eng muhim mezoni o‘quvchilar ongida hissiy reaksiyalar, xatti-harakatlar va faoliyatlarda namoyon bo‘ladigan ijobiy o‘zgarishlardir.

Ta’lim mazmuni, demak, o‘qitish mantig‘i qattiq kodlangan bo‘lishi mumkin, bu ta’lim ishining mazmuni bilan ruxsat etilmaydi. O‘rganish o‘quv dasturlarida nazarda tutilmagan axloq, estetika va boshqa fan va san'atlardan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish mohiyatan o‘rganishdan boshqa narsa emas. Tarbiyaviy ishda rejalashtirish faqat eng umumiy ma’noda qabul qilinadi: jamiyatga, mehnatga, odamlarga, fanga (ta’limga), tabiatga, atrofdagi olamning narsa va hodisalariga, o‘ziga munosabat. Har bir alohida sinfda o‘qituvchining tarbiyaviy ishining mantiqiyligini me’yoriy hujjatlar bilan oldindan belgilab bo‘lmaydi.

O‘qituvchi taxminan bir xil “manba materiali” bilan shug‘ullanadi. Mashq natijalari deyarli bir ma’noda uning faoliyati bilan belgilanadi, ya’ni, o‘quvchining bilim faolligini uyg‘otish va yo‘naltirish qobiliyati. Pedagog o‘zining pedagogik ta’sirlari o‘quvchiga uyushmagan va uyushgan salbiy ta’sirlar bilan kesishishi mumkinligini hisobga olishga majbur bo‘ladi. Faoliyat sifatida o‘qitish diskret xarakterga ega. Odatda tayyorgarlik davrida talabalar bilan o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga olmaydi, bu ko‘proq yoki kamroq davom etishi mumkin. Tarbiyaviy ishning o‘ziga xosligi shundaki, o‘qituvchi bilan bevosita aloqada bo‘lmagan taqdirda ham o‘quvchi uning bilvosita ta’siri ostida bo‘ladi. Odatda tarbiyaviy ishda tayyorgarlik qismi asosiy qismga qaraganda uzoqroq va ko‘pincha muhimroqdir.

O‘quv jarayonida o‘quvchilar faoliyati samaradorligining mezoni bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi, kognitiv va amaliy muammolarni hal qilish usullarini egallash,

rivojlanishdagi muvaffaqiyatlarning intensivligi hisoblanadi. Talabalar faoliyatining natijalari osongina aniqlanadi va sifat va miqdor ko'rsatkichlarida qayd etilishi mumkin. Tarbiyaviy ishda tarbiyachi faoliyati natijalarini ishlab chiqilgan tarbiya mezonlari bilan bog'lash qiyin. Rivojlanayotgan shaxsda tarbiyachi faoliyatining natijasini ajratib ko'rsatish juda qiyin. Tufayli stokastiklik ta'lim jarayoni, ba'zi ta'lim harakatlarining natijalarini oldindan aytish qiyin va ularni qabul qilish vaqtida ancha kechiktiriladi. Tarbiyaviy ishda teskari aloqani o'z vaqtida o'rnatish mumkin emas.

O'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishdagi qayd etilgan farqlar shuni ko'rsatadiki, o'qitish uni tashkil etish va amalga oshirish usullari nuqtayi nazaridan ancha osonlashadi va yaxlit pedagogik jarayon tarkibida u bo'ysunuvchi o'rinni egallaydi. Agar o'quv jarayonida deyarli hamma narsani mantiqiy ravishda isbotlash yoki xulosa qilish mumkin bo'lsa, unda insonning muayyan munosabatlarini keltirib chiqarish va mustahkamlash ancha qiyin, chunki bu yerda tanlash erkinligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun o'rganishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan shakllangan kognitiv qiziqish va umuman o'quv faoliyatiga munosabatga bog'liq, ya'ni, nafaqat o'qitish, balki tarbiyaviy ishlar natijalaridan ham.

Pedagogik faoliyatning asosiy turlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash shuni ko'rsatadiki, o'quv va tarbiyaviy ish ularning dialektik birligida har qanday mutaxassislik o'qituvchisi faoliyatida amalga oshiriladi. Masalan, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ishlab chiqarish ta'limi ustasi, o'z faoliyati davomida ikkita asosiy vazifani hal qiladi: zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasining barcha talablariga rioya qilgan holda o'quvchilarni turli operatsiyalar va mehnatni oqilona bajarish uchun bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish va mehnatni tashkil etish; mehnat unumdorligini, bajarilayotgan ish sifatini oshirishga ongli ravishda intiluvchi, tashkil etilgan, o'z ustaxonasi, korxonasi sha'nini qadrlaydigan shunday

malakali ishchini tayyorlash. Yaxshi usta nafaqat o‘z bilimini talabalarga beradi, balki ularning fuqarolik va kasbiy rivojlanishiga ham rahbarlik qiladi. Bu, aslida, yoshlarga kasbiy ta’lim berishning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. O‘z ishini, xalqni bilgan va sevgan ustagina o‘quvchilarda kasbiy sharaf tuyg‘usini uyg‘otadi, mutaxassislikni mukammal egallash zaruratini uyg‘otadi.

Xuddi shunday, uzaytirilgan kun guruhi tarbiyachisining vazifalari ko‘lamini ko‘rib chiqsak, uning faoliyatida ham o‘quv, ham tarbiyaviy ishlarni ko‘rishimiz mumkin. Darsdan tashqari guruhlar to‘g‘risidagi nizomda tarbiyachining vazifalari belgilab berilgan: o‘quvchilarda mehnatga muhabbat, yuksak axloqiy fazilatlar, madaniy xulq-atvor odatlari va shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘quvchilarning kun tartibini tartibga solish, uy vazifalarini o‘z vaqtida tayyorlashga rioya qilish, ularga o‘qishga, bo‘sh vaqtini oqilona tashkil etishga yordam berish; maktab shifokori bilan birgalikda bolalar salomatligi va jismoniy rivojlanishiga yordam beradigan tadbirlarni amalga oshirish; o‘qituvchi, sinf rahbari, o‘quvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan aloqada bo‘lish. Biroq, topshiriqlardan ko‘rinib turibdiki, madaniy xulq-atvor odatlari va shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini shakllantirish, masalan, allaqachon nafaqat ta’lim, balki tizimli mashqlarni talab qiladigan o‘qitish sohasidir.

Shunday qilib, maktab o‘quvchilari faoliyatining ko‘p turlaridan kognitiv faoliyat nafaqat ta’lim doirasi bilan cheklanib qolmaydi, bu esa o‘z navbatida ta’lim funksiyalarini “yuklaydi”. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘qitishdagi muvaffaqiyatga, birinchi navbatda, bolalarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, sinfda umumiy ijodiy muhit, guruh mas'uliyati va sinfdoshlarining muvaffaqiyatiga qiziqish muhitini yaratish uchun pedagogik qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar erishiladi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi mazmunida o‘qituvchilik mahorati emas, balki

tarbiyaviy ish ko'nikmalari birinchi o'rinda turishini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ularning yaxlit pedagogik jarayonni boshqarishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan.

Ta'lim maqsadi, o'quv-tarbiya jarayonining shaxsga yo'naltirilganligi sifatidagi shaxsga yangicha qarash:

1) shaxs pedagogik jarayonning ob'yekti emas, sub'yekti sifatida aks etadi;

2) shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta'lim tizimi maqsadi;

3) har bir o'quvchi qobiliyatli, ko'plab o'quvchilar iqtidorli;

4) shaxsning muhim sifatlari sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi.

II. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish:

1) pedagogik muhabbat, o'quvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash;

2) o'quvchiga yuksak ishonch bilan qarash;

3) hamkorlik, muloqot mahorati;

4) to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish;

5) ijobiy rag'batlantirishning muhimligi;

6) o'quvchi shaxsiga ta'lim sub'yekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat;

7) o'qituvchi va o'quvchi huquqlarini tenglashtirish; o'quvchining erkin tanlashga bo'lgan huquqi tushuniladi.

III. Zamonaviy sharoitda to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan natija bermaydigan metod sifatida voz kechish. Majburlashsiz o'qitish quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) majburlovsiz, ishonchga asoslangan talabchanlik;

2) o'qitishga tug'ma qiziqishlarni ko'payganligi;

3) majburlashning o'rnini muvafaqqiyatga erishishga imkon beradigan istak bilan almashtirish;

4) o‘quvchilarni erkinlik va tashabbuskorlikka qo‘yib berilishi;

5) jamoa orqali bilvosita o‘quvchilarning qo‘llanilishi;

6) o‘quvchilarga ularning sub’yektivligi, o‘z-o‘zini namoyon etishi, ijtimoiylashuvi, madaniy tenglashuvi, hayotiy o‘z o‘rnini belgilashiga yordam ko‘rsatish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

IV. Individual yondashuvni yangicha talqin etish:

1) “o‘quv fanidan o‘quvchiga qarab borish emas, o‘quvchidan o‘quv faniga borish” tamoyilining bajarilishi;

2) o‘quvchilarning qobiliyatlari va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish;

3) o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga yo‘nalganlikdan voz kechish; shaxsning eng yaxshi sifatlarini izlash;

4) shaxsni psixologik-pedagogik tashxis etish (qiziqishlari, qobiliyatlari, yo‘nalganligi, Men-konsepsiyasi, xarakteri, fikrlash jarayonlarining o‘ziga xosligi)ning qo‘llanilishi;

5) shaxsning o‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘ziga xosliklarini hisobga olish.

V. Ijobiy ma’nodagi “Men-konsepsiyasi”ni shakllantirish:

1) pedagogik muloqotning o‘quvchilarda o‘ziga ijobiy munosabatni rivojlantirishning yo‘nalganligi;

2) hayotiy faoliyatning ijobiy yo‘l-yo‘riq va motivlarini shakllantirish.

Pedagogik mahorat o‘z ichiga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, o‘qituvchi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir. Pedagogik bilimdonlik deganda aniq tarixiy davrda qabul

qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik deganda esa, pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. N.Azizxo'jayeva ta'kidlab o'tganidek, bu xislat pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi, maqsadga muvofiq faoliyatni konstruktsiyalashni osonlashtiradi.

Pedagogik qobiliyatlar – ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda zaruriy shakl, metod va vositalarni samarali qo'llay olishdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda uch katta guruhga bo'lish mumkin: shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

1) ta'lim oluvchilarga ijobiy yo'nalganlik – ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do'stona munosabat, xayrixohlik;

2) vazminlik, o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o'qituvchi zaruriy tarzda o'z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg'u, g'azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak;

3) o'z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o'qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro'y bergan bo'lsa ham o'zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

1) tushuntirish qobiliyati – o'rganilayotgan materialni ta'lim oluvchilar uchun tushunarli qilib yetkazish, buning uchun

o‘qituvchi ta’lim oluvchilar uchun yangi bo‘lgan materialni “ularning ko‘zlari bilan ko‘ra bilishi kerak”; akademik qobiliyat – o‘z fanini, sohasini chuqur bilishi, umumiy va ilmiy dunyoqarashning kengligi; nutq qobiliyati – o‘z fikrlari, his-tuyg‘ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o‘rinli foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, yetkazayotgan ma’lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni “og‘irlashtiruvchi” tuzilmalardan foydalanmaslik, qo‘llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- tashkilotchilik qobiliyati – o‘quvchilar jamoasini tashkillay olish va o‘z faoliyatini tashkillay olish; rejalashtirish, nazorat qilish;

- kommunikativ qobiliyat – o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda muloqotni to‘g‘ri tashkillash;

- pedagogik kuzatuvchanlik – o‘quvchining ko‘rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik;

- pedagogik takt – ta’lim oluvchiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishda aniq vaziyatdan, ta’lim oluvchi shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik;

- suggestiv qobiliyat – ta’lim oluvchiga emotsional-irodaviy ta’sir o‘tkazish, talab qo‘yish va talabning bajarilishini qat’iy nazorat qilish (bir tomondan qo‘rqitishsiz, qistovsiz – boshqa tomondan bo‘shlik qilmasdan);

- pedagogik prognoz – o‘z harakatlari natijasini, shaxsida bo‘lib o‘tadigan o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish;

- diqqatni to‘g‘ri taqsimlay olish – bir paytning o‘zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o‘z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, ta’lim oluvchilar jamoasi xulqini nazorat qilib turish.

Pedagogik adabiyotlarda o'qituvchining kasbiy va ijtimoiy moslashuviga ta'sir etuvchi mahsuldor sabablar (omillar) umumlashtirilib pedagogik madaniyat nomi bilan qayd etiladi. Boshqa tushunchalar singari pedagogik madaniyatning ham bir necha xil ta'riflari mavjud. Biroq barcha ta'riflarda pedagogik madaniyat tushunchasi uch ilmiy jihatdan, ya'ni aksiologik, faoliyat va shaxsga yo'naltirilganlik nuqtayi nazaridan talqin etilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aksiologik yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – tarbiya haqidagi fan sifatida pedagogika tayanadigan pedagogik qadriyatlar majmuyidir. Ushbu qadriyatlar moddiy va ma'naviy shakllarda mavjud bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtayi nazariga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik faoliyatdagi tarbiyaviy munosabatlarni amalga oshiruvchi sub'yekt sifatida kasbiy yetuk pedagog shaxsining muhim sifati. Faoliyatli yondashuvga ko'ra, pedagogik madaniyat – bu pedagogik qadriyatlarning tadbiq etilishini ta'minlovchi, o'qituvchi kasbiy faoliyatining o'ziga xos usullari majmuyidir.

Pedagogik madaniyatning mufassal tavsifi L.D.Stolyarenko tomonidan quyidagicha ochib berilgan: "Pedagogik madaniyat – bu umuminsoniy madaniyatning bir bo'lagi bo'lib, unda eng avvalo, avlodlar almashinuvi va shaxsning ijtimoiylashuvi kabi tarixiy jarayon uchun xizmat qilishda insoniyat uchun zarur bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar aks etgan".

O'qituvchining pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi:

1) shaxsga yo'nalganlik: e'tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg'usining mavjudligi;

2) kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik;

3) pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg'usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o'z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) qiziqishlar va ma'naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma'naviy ehtiyojlarning ko'p qirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo'lishi, tashqi ko'rinish va nutq madaniyati.

Uzoq yillar olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib berdi. Ana shu tadqiqot ma'lumotlaridan foydalanib, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida muhim o'rin egallaydigan qator komponentlar (tarkibiy qismlar)ni ajratib ko'rsatish mumkin.

Didaktik qobiliyatlar – bu bolalarga o'quv materialini aniq va ravshan tushuntirib, oson qilib yetkazib berish, bolalarda fanga qiziqish uyg'otib, ularda mustaqil faol fikrlashni uyg'ota biladigan qobiliyatlardir.

Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi zarurat tug'ilganda qiyin o'quv materialini – osonroq, murakkabrog'ini soddaroq, tushunish qiyin bo'lganini tushunarliroq qilib o'quvchilarga moslashtirib bera oladi. O'qituvchining mana shu xislatlarini bilib olgan o'quvchilar odatda: "O'qituvchining eng muhim tomoni ham uning hamma narsani aniq-ravshan va tushunarli qilib berishida. Bunday o'qituvchining qo'lida maza qilib o'qiging keladi"; "Unisi esa hech narsaga yaramaydigan o'qituvchi, hecham aniq tushuntirib bera olmas edi"; "O'quv materialini oldida tirik odamlar emas, balki qandaydir mexanizmlar bordek, zerikarli va noaniq – mujmal qilib tushuntiradi. Biz bunday o'qituvchilarni yoqtirmaymiz" – deydilar.

Hozirgi tushunchamizdagi kasbiy mahorat shunchaki bilimlarni osonroq, hammabob va tushunarli qilib o'quvchilar ongiga yetkazib berish qobiliyatinigina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning mustaqil ishlarini, ularning bilish faolligini oqilona va mohirlik bilan boshqarib, ularni kerakli, tomonga yo'naltirib turishdan iborat qobilyatni ham o'z ichiga oladi.

Mana shu qobiliyatlar asosida o'quvchilar psixologiyasiga xos doimiy ustanovka yo'naltirish yetadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning tayyorlik darajasini, ularning taraqqiyot darajasini hisobga olgan holda bolalarning nimani bilishi va nimani bilmasligini, nimalarni allaqachon esdan chiqarganliklarini tasavvur qila oladi.

Ko'pchilik o'qituvchilarga, ayniqsa xafsalasiz o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiygina va hech qanday alohida tushuntirish hamda izoh berishni talab qilmaydigandek tuyuladi.

Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki birinchi galda o'zlarini nazarda tutib ish olib boradilar. Shuning uchun ham o'quv materialini o'ziga qarab tanlaydilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchilar esa o'zlarini o'quvchi o'rniga qo'yib, kattalar uchun aniq-ravshan va tushunarli bo'lgan material o'quvchilar uchun noaniq va tushunarsiz bo'lishi mumkin degan nuqtayi nazarda bo'ladila. Materialni bayon etish jarayonida qobiliyatli o'qituvchi turli o'quvchilarning qanday tushunayotganliklari va zarur bo'lganda dars bayonotiga alohida e'tibor berishga intilayotganliklari kabi qator belgilariga qarab to'g'ri tasavvur qilib, xulosa chiqara oladi.

Ana shunday pedagogik qobiliyatni aniqlash uchun psixolog N.F.Gonobolin juda qulay test tavsiya etadi. Bu testga ko'ra bilish xarakteridagi matnda o'qituvchining fikri bo'yicha ayrim sinf o'quvchilari uchun qiyin deb hisoblangan qismlarni alohida ko'rsatib, nima uchun bu qismlarning qiyinligini tushuntirib berish, shundan so'ng esa matnni o'quvchilarga yengil va ularning o'zlashtirishlari uchun qulay qilib qayta tuzish tavsiya etiladi.

Qobiliyatli o'qituvchi shu bilan bir qatorda materialni o'zlashtirish, o'quvchilarga biroz nafas olib o'zlariga kelib olishlari va o'z diqqat-e'tiborlarini bir joyga qo'yib, ayrim qo'zg'alishlarni "so'ndirib" boshqalarini esa jadallashtirib, ularning bo'shashganligini, sustligini va loqaydliligini yengishlari uchun zamin tayyorlash zarurligini ham nazarda

tutadi. Bunday o'qituvchi zarur sharoit yaratilmaguncha darsni boshlamaydi. Haddan tashqari shiddat bilan boshlangan dars o'quvchilarda himoya qiluvchi tormozlanishni vujudga keltirib, miya faoliyati tormozlanadi, o'qituvchining so'zlari yetarlicha idrok qilinmaydi.

Akademik qobiliyatlar – matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va boshqa shu kabi fanlarga xos qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o'qituvchi o'z fanini faqat kurs hajmidagi emas balki atroflicha keng, chuo'ur bilib, bu sohada erishilgan yutuqlar va kashfiyotlarni doimiy ravishda kuzata borib, o'quv materialini mutlaqo erkin egallab, unga kata qiziqish bilan qaraydi hamda ozgina bo'lsada tadqiqot ishlarini olib boradi.

Ko'pchilik tajribali pedagoglarning aytishlaricha, o'qituvchi o'z Fani bo'yicha yuksak bilim saviyasiga erishish, boshqalarni qoyil qilib xayratda qoldirish, o'quvchilarda katta qiziqish uyg'ota olish uchun u yuksak madaniyatli, har tomonlama mazmunli, keng erudisiyali bilimdon odam bo'lmog'i lozim.

Bunday o'qituvchilar haqida o'quvchilar "Maxmud aka xudi professorning o'ziginasi-ya. Biz uning bilmagan birorta sohasi bormikin deb tez-tez uylab turamiz. Darslarga u butun vujudi bilan kirishib ketadi" deydilar. Ba'zan o'quvchilar o'z o'qituvchisi haqida "Baqir-chaqir qiladi-yu, ammo zarracha bilimi yo'q" deb butunlay teskarisini aytsalar juda alam qiladi.

O'qituvchining perseptiv va nutqiy qobiliyatlari. Perseptiv qobiliyatlar – bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o'quvchi shaxsining vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog'liq nozik tomonlarini tushuna bilishdan iborat qobiliyatlardir.

Qobiliyatli o'qituvchi bolalarning har qanday mayda-chuyda xatti-harakatlarida, erkin ifodalanadigan ayrim

holatlarida hamda ularning ichki dunyosida yuzaga keladigan o'zgarishlarni sezdirmasdan ilib oladi. Ana shunday hollarda o'quvchilar: "Muhabbat opa kimningdir kayfiyatida o'zgarishlar bo'lsa yoki kimdir dars tayyorlamasdan kelgan bo'lsa ko'ziga qaraboq bilib oladi", "Bizning o'qituvchimiz xech qayoqqa qaramasa ham, hamma narsani ko'rib turadi" deydilar. Nutq qobiliyati – kishining o'z to'yg'u-hislarini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantomimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish qobiliyatidir. Bu o'qituvchilik kasbiga muhim qobiliyatlardandir. Chunki o'qituvchidan o'quvchilarga axborot asosan ikkinchi signal tizimi – nutq orqali beriladi. Bunda mazmun jihatdan uning ichki va tashqi xususiyatlari nazarda tutiladi.

Darsda qobiliyatli o'qituvchining nutqi hamma vaqt o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntiradimi, o'quvchining javobini sharhlab beradimi, o'quvchilar javobini, ularning xatti-harakatlari yoki xulq-atvorini ma'qullaydimi yoki tanbeh beradimi, xullas, nima qilishidan qat'iy nazar uning nutqi hamma vaqt o'zining ishonchliligi, jozibadorligi kabi ichki quvvat bilan alohida ajralib turishi lozim. O'qituvchi nutqi, uning talaffuzi aniq-ravshan, oddiy va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak. Beriladigan axborotlari shunday tuzilishi kerakki, bunda o'quvchilarning fikru-zikri va diqqat-e'tiborini yuqori darajada faollashtiradigan bo'lsin. Buning uchun esa o'qituvchi o'rtaga savol tashlab, asta-sekinlik bilan o'quvchilarni to'g'ri javobga olib keladi, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini faollashtiruvchi /"Bunda ayniqsa, ziyrak bo'ling!", "O'ylang, yana o'ylab ko'ring!"/ kabi so'z va iboralarni o'z me'yorida ishlatadi.

O'qituvchi nutqi jumlalarni, murakkab og'zaki izohlarni, qiyin atamalarni va zarurati bo'lmasa, turli ta'riflarni ishlatmasligi lozim. Shu bilan birga o'qituvchi shuni ham hisobga olishi kerakki, o'qituvchining lo'nda-lo'nda bo'lib chiqqan qisqa nutqi ko'p hollarda o'quvchilarga tushunarsiz

bo‘lib qolar ekan. O‘qituvchining o‘z o‘rnida ishlatilgan hazil aralash va xayrixohlik bildiruvchi arzimagan kinoyali nutqi o‘quvchilarni juda jonlantirib, o‘quvchilar tomonidan o‘tu yaxshi qabul qilinar ekan.

Qobiliyatli o‘qituvchining nutqi jonli, obrazli, aniq-ravshan intonasiyali va ifodali, emosiyaga boy, dona-dona bo‘lib, bunda stilistik va grammatik xatolar mutlaqo bo‘lmasligi loizm. Bir xil ohangdagi ezma nutq o‘quvchilarni juda tez toliqtirib, ularni zeriktiradi va bexafsala qilib quyadi. Shu bilan birga bunday nutq I.P.Pavlovning fiziologik ta’limotiga ko‘ra doimiy ta’sir etuvchan qo‘zg‘ovchiga aylanib, katta bosh miya yarim sharlar pustida tormozlanish jarayonini yuzaga keltirib, o‘quvchini ezma va uyquchan qilib quyadi. Nutq tezligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining individual psixologik xususiyatga bog‘liq. Ayrim o‘qituvchilar tez gapirsalar boshqalari sekin gapiradilar. Ammo o‘qituvchi o‘quvchilarning bilimlarni egallab olishlari uchun eng qulay tezlikdagi nutq-o‘rtacha jonli nutq ekanligini edan chiqarmasligi lozim.

Shoshqaloq nutq bilim o‘zlashtirishga xalaqit berib, bolalarni tez toliqtiradi, muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. O‘ta sekin lanjlik va zerikishga olib keladi. Nutqning balandligi – qattiq gapirish ham xuddi shu singari xollarga olib keladi. Xaddan tashqari qattiq, keskin, baqirib gapirish o‘quvchilarning asabiga tegib, ularni tez toliqtirib, muhofaza qiluvchi tormozlanishni yuzaga keltiradi. Mana shu yerda Sharq mutafakkirlaridan Nasriddin To‘siyning “...o‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin...” degan nasihatini keltirishimiz juda o‘rinli bo‘lardi. O‘qituvchining bo‘sh, sekin ovozi yomon eshitiladi. Nutqi imo-ishoralar, turli keskin harakatlar o‘quvchilarni jonlantiradi. Bu tariqa imo-ishora va harakatlar tajribali o‘qituvchilarda o‘z me’yorida ishlatiladi. Lekin bir xildagi tajribali harakatlarning xaddan tashqari ko‘p bo‘lishi kishining asabiga tegadi.

O‘qituvchining tashkilotchilik, avtoritar va kommunikativ qobiliyatlari. Tashkilotchilik qobiliyati – bu birinchidan, o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilish, bunday jamoani jipslashtira olish va ikkinchidan, o‘zining shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olish qobiliyatidir.

O‘quvchilar o‘z o‘qituvchilari haqida turlicha fikrda bo‘ladilar. Jumladan, ayrim o‘quvchilar: “...Biz Azim akani juda yaxshi ko‘ramiz. Ular sinfimizda bir pasning ichida, juda tezlik bilan ishchanlik kayfiyatini uyushtirib, barchamizni o‘zining puxtaligi, ozodaligi, epchilligi va tadbirkorligi bilan hayratda qoldiradilar”, – desalar, ayrim o‘quvchilar: “Sobir akamlar bizning ixlosimizni qaytarib, xafsalamizni bir pul qiladilar. Ular ko‘p ishga urinadilar-u, ammo birortasini ham oxiriga yetkazmaydi...”, – deydilar. Ba’zan ayrim o‘quvchilarning o‘z o‘qituvchisi haqida: “...Nodira opalar biz bilan xuddi ona tovuqdek ovora bo‘ladilar. Agar biz sho‘xlik qila boshlasak, ular o‘zlarini ko‘rmaslikka, payqamaslikka soladilar. Ajoyib ayol edi-yu, ammo uning darsida hech kim hech narsa qilmas edi-da...”, – degan fikrlarini ham eshitish mumkin.

O‘qituvchining o‘z ishini tashkil qila bilishi deganda uning o‘z ishini to‘g‘ri rejalashtirib, uni nazorat qila olishi nazarda tutiladi. Tajribali o‘qituvchilarda vaqtga nisbatan o‘ziga xos sezuvchanlik – ishni vaqt bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlab, mo‘ljallangan vaqtdan to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Dars davomida, albatta, ko‘p hollarda vaqtni behuda yo‘qotish ham mumkin. Lekin bu yo‘qolgan vaqt dars rejasini tuzatish zaruriyati tug‘ilgan hollarda bo‘lishi mumkin. Tajribali o‘qituvchilar vaqtni seza bilishni o‘rganish uchun dars rejasi yoki matnda vaqtni nazorat qilish uchun belgilab olib borishni tavsiya etadilar. Jumladan: darsning 10, 20, 30 va boshqa daqiqalar davomida mabodo ko‘zda tutilmagan vaqt ortib qolgan taqdirda foydalanish uchun qanday qo‘shimcha materiallarni tayyorlash yoki vaqt qolgan taqdirda qanday materialni keyingi darsga qoldirish mumkinligi haqida maslahat beradilar.

Avtoritar qobiliyati – bu o‘quvchilarga bevosita emotsional-irodaviy ta’sir etib, ularda obro‘ orttira bilishdan iborat qobiliyatlardir.

Avtoritar qobiliyat o‘qituvchining rostgo‘yligi, irodaviy uddaburonligi, o‘zini tuta bilishi, farosatliligi, talabchanligi kabi irodaviy hislatlari hamda qator shaxsiy hislatlarga, shu bilan birga o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasida javobgarlikni his etishi, uning e’tiqodi, o‘quvchilarga ma’naviy va ma’rifiy e’tiqodni singdira olganligiga ishonch kabi hislatlariga ham bog‘liqdir.

O‘quvchilar ayniqsa o‘qil bolalar, o‘spirinlar – buni alohida ta’kidlab o‘tish kerak talab qilishni biladigan, o‘quvchilarni majbur qilmagan va do‘q-po‘pisa qilmagan, shu bilan birga behuda rasmiyatchilikka yo‘l qo‘ymagan holda o‘z aytganini qildira oladigan o‘qituvchilarni juda hurmat qiladilar. Shu munosabat bilan o‘quvchilarning o‘qituvchilar haqida ayrim fikrlarini misol qilib keltiramiz:

“Uning ajoyib hislat bor – u hech qanday zo‘rlash va baqiriq-qichqiriqsiz ishlay oladi”; “Biz uni jiddiyligi, vazminligi va talabchanligi uchun juda yaxshi ko‘ramiz. U hamma vaqt shunchaki muloyimgina, sipogina talab qiladi, ammo uning talabi shu qadar ta’sirchanki, unga quloq solmaslik mumkin emas”; “Bizning matematika o‘qituvchimiz hamma vaqt yuvosh, osoyishta, o‘zini tutgan va shu bilan bir qatorda butun sinfga ajoyib ta’sir eta oladi”; “Ximiya o‘qituvchimizning obro‘sini e’tibor etmay ko‘rginchi, u har qanday sharoitda ham o‘z aytganiga erishadi”; “Nig‘mat aka bizga ustalik bilan ta’sir etadi. U ha deb talab qilavermaydi, agar talab qiladigan bo‘lsalar undan bo‘yin tovlab bo‘lmaydi”, yoki o‘quvchilarning o‘z o‘qituvchilari haqidagi mana bunday fikrlari: “Polvon aka maktabimizdan ketganiga biz xursand bo‘ldik. U bizni do‘q-po‘pisa, baqiriq-qichqiriq, buyruqbozlik bilan qo‘lga olaman deb o‘ylardi-yu, ammo bizni bardosh berishganigina majbur etardi, xolos”.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning maktab ta’limi jarayonida olib borilayotgan

ishlarning ahvoli to‘g‘risida juda achinib aytgan fikrlarini keltirish o‘rinli bo‘lur edi: “Mabodo biror o‘quvchi o‘qituvchiga e’tiroz bildirsa, ertaga u hech kim xavas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o‘qituvchi hukmron. U boladan faqat o‘zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: mening aytganim-aytgan, deganim-degan”.

Shu bilan bir qatorda o‘quvchilar o‘qituvchining bo‘shligi, landavurligi, laqmaligi, soddalarcha ishonuvchanligi, sustkashligi, ortiqcha rioyagarchiligi, irodasizligi kabi xislatlarini baralla qoralaydilar: “yaxshi odamu, leki nuta bo‘sh: uni aldab ketish hech gap emas”; “Tushunib bo‘lmaydi: ba’zan juda qattiqqo‘l, talabchan, ba’zan hech qanday talab degan narsa yo‘q”; “Juda bo‘shang, lanj: uni ko‘rishing bilan uyqung keladi”...

Kommunikativlik qobiliyati – bu bolalar bilan muloqotda bo‘lishga, o‘quvchilarga yoshdoshish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga pedagogik taktning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir.

Pedagogik takt psixologiyasini o‘rganishda psixolog I.V.Straxov benihoya katta hissa qo‘shgan. Uning fikricha bunda muhimi o‘quvchilarga ta’sir etishning eng qulay usullarini topa bilish, tarbiyaviy ta’sirni qo‘llashda maqsadga muvofiq pedagogik choralarga e’tibor berish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, o‘quvchi shaxsining psixologik xususiyatlari va uning imkoniyatlari hamda mazkur pedagogik holatlarini hisobga olish zarurdir.

Pedagogik taktning yaqqol ifodalaridan biri – har qanday pedagogik ta’sirga nisbatan qo‘llaniladigan chora-tadbirlarni his eta bilishdan iboratdir. Farosatli o‘qituvchi bolalarga e’tibor berib, ziyraklik bilan qaraydi, ularning individual psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. “U biz bilan hayron qolarli darajada ajoyib yaqin do‘stlarcha yaxshi munosabatda bo‘ladi”;

"Bizning tarix o'qituvchimizning kuchli tomoni – o'qituvchining o'quvchilar oldida xushomadgo'ylik qilishidir. Bizning zoologiya o'qituvchimiz Farida opamlar shundaylardan edi: ular nimaiki qilmasin u bolalarni o'ziga qaratish uchun xushomadgo'ylik qilardi! Nega ular o'zini shunchalik kamsitib yerga uradi? deb uylar edim. Axir ular o'z fanini yaxshi biladiku"; "Ibroxim aka esa qarabsanki, hech narsadan-hech narsa yo'q kishi diliga ozor berar, tushirib qolar yoki behudaga urishib, koyib berar edi".

O'qituvchining pedagogik takti masalasi munosabati bilan shuni ham aytish joizki, qachonki o'quvchilar o'qituvchining ijobiy xislatlari to'g'risida gapirar ekanlar, ular hamisha o'qituvchining adolatligi kabi xislatini birinchi o'ringa qo'yadilar.

"Ko'p hollarda nohaq ish qiladilar – biror masalani yaxshilab tekshirib ko'rmasdan ish tutadilar". O'qituvchining bunday xislatiga o'quvchilar nechukdir achinishli talabchanlik munosabatida bo'ladilar. O'qituvchining adolatsizligi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bu to'g'rida har qaysimiz maktab amaliyotidan qandaydir tasavvurga egamiz.

O'qituvchining pedagogik xayoli, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Pedagogik xayol – kishining o'quvchilar shaxsini tarbiyaviy tomondan loyihalashtirishda o'z ish harakatlarining natijasini oldindan kura bilishda namoyon bo'ladigan maxsus qobiliyatidir. Bu qobiliyat o'qituvchi ma'lum o'quvchidan kelgusida Kim chiqishini ko'z oldiga keltirishida, tarbiyalanuvchilarda u yoki bu xildagi xislatlarning o'sib rivojlanishini oldindan ko'ra bilishida namoyon bo'ladi. Bu qobiliyat pedagogik optimizm, tarbiyaning kuchiga, o'quvchiga bo'lgan ishonch bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham o'quvchilar ayrim o'qituvchilar to'g'risida "Axmad akamlar, chamasi ichimizdagi eng yaramaslariga ham ishonchlarini yo'qotmasdilar, shuning uchun ham biz ularni hurmat qilardik" degan fikrlarni izxor qiladilar.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – bu qobiliyat bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olishda namoyon bo'lib, o'qituvchi ishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zining diqqat-e'tiborini o'quv materialining qanday bayon etilishiga, uning mazmuniga, o'z fikrlarini atroflicha qilib qanday ochib berishga yoki o'quvchi fikriga baralla qaratadi va shu bilan bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni kuzatibyu, ularning toliqqan-toliqmaganligiga, e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushinish-tushunishmasligiga e'tibor berib, o'quvchining intizomini kuzatadi hamda, oqibat natijada o'zining shaxsiy-xulq atvoriga /yurish-turishga, o'zini tutishiga mimika va pontamimikasiga/ e'tibor beradi. Tajribasiz o'qituvchi, ko'pincha o'quv materialini bayon etishga berilib ketib, o'quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib quyadi, agar, bordi-yu, o'quvchilarni diqqat-e'tibor bilan kuzatishga xarakat qilsa, bunday hollarda o'z bayonotining izchilligini yo'qotib qo'yadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan tashqari, o'qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarinlik kabi qator ijobiy xislatlariga ega bo'lishi lozim.

U o'quvchilarni tarbiyalar ekan, o'zining xulq-atvori, yurish-turishi, xullas, butun o'qituvchilik shaxsi bilan o'quvchilarga urnak bo'lishi kerak.

O'qituvchining o'zini qo'lga ola bilishi, o'z his-to'yg'ularini, kayfiyatini boshqara olish xislatlari muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy umuminsoniy axloq me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta ahamiyatga ega. Agar biz qo'yidagi xislatlarni olib qaraydigan bo'lsak, bularning barchasi ham o'ta muhim omillardir. Jumladan, o'qituvchining tashqi qiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ozodaligi,

ixchamligi, uning pokizaligi, sarishta-saramjonligi, sipoyagarchiligi, uning qiliqlari, o'zini chiroylik tutishi, qaddi-qomati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi. Jumladan, o'quvchilarning "Farida opani nechuk yaxshi ko'rmaysan ular har doim shu qadar xushchaqchaq, ozoda, sarishta-saranjomlar-ku?" yoki "Noila opa maktabda emas, balki teatrda ishlab, tomosha ko'rsatishi kerak – chunki ularning turqi-qiyofasi, yurish-turishi yasama, soxta" degan fikrlarini olishimiz mumkin.

Muhim davlat vazifasini – kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati kirib kelayotgan XXI asrda shakllanib asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivolana boradi.

Shu bilan birga o'qituvchi doimiy ravishda ta'minlashga yordam beradigan shaxsiy xislatlarini tarbiyalab borishi zarurdir. Bu to'g'rida mazkur ishimizning kelgusi boblarida so'z boradi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. O'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo'li bilan ta'limni tnshkil etish, o'quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta'rif qaysi o'qish turiga tegishli?

2. Tinglash, o'qish, mexanik yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlash qaysi o'qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan. Bu yerda o'qishning qaysi turi tasvirlangan?

3. Bu darsning tuzilishi quy idagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tuslnunishini tekshirish vabilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?

4. O'qituvchining darsga tayyorlanishida qanday bosqichlar ko'rsatiladi?

Nazorat uchun testlar:

1. O‘quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash yo‘li bilan ta’limni tnshkil etish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlari va idrok etish faolliklarini rivojlantirish. Bu ta’rif qaysi o‘qish turiga tegishli?

A) komputerli ta’lim;
B) tushuntirish – namoyishli ta’lim;
C) masofali ta’lim;
D) muammoli ta’lim;
E) innovatsion ta’lim.

2. Tinglash, o‘qish, mexanik yod olish, eslab qolish va matnni so‘zma-so‘z takrorlash qaysi o‘qishda asosiy faoliyat turlari hisoblangan. Bu yerda o‘qishning qaysi turi tasvirlangan?

A) tushuntirish;
B) sokratcha;
C) arxaik;
D) komputerli;
E) dogmatik.

3. Bu darsning tuzilishi quy idagicha: yangisi uchun asos hisoblangan ilgarigi materialni takrorlash, o‘qituvchining yangi materialni tushuntirib berishi va darslik bilan ishlash, tuslnunishini tekshirish vabilimlarini, dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa. Darsning qaysi turi haqida gap bormoqda?

A) bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsi;
B) ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darsi;
C) yangi material bilan tan ish ish darsi;
D) bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish darsi;
E) bilimlarni tekshirish darsi.

4. O‘qituvchining darsga tayyorlanishida quyidagi bosqichlar ko‘rsatiladi:

A) yordamchi, sinfdan tashqearish;

B) konsultatsiya, instruktaj, conferensiya;

C) frontal, guruhli, individual;

D) diagnostika (tashxis qilish, bashorat (prognoz) qilish, loyihalashtirish (rejalashtirish);

E) didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.

2. Xodjayev B.X, Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.

3. Ro‘ziyeva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

4. Mutalipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU. 2015.

5. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник – Т.: ТТПУ, 2014.

6. Калдыбекова А.С.Жалпы педагогика теориясы жэне практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.

7. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

8. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

9. Pedagogika. // M.To‘xtaxo‘djayevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

10. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003.

17-mavzu: O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat, kommunikativ malakalar va ta’sir ko‘rsatish, o‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi.

Reja:

1. Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha.
2. Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo‘llari.
3. Kommunikatsiya haqida tushuncha va kommunikatsiya metodlari. O‘qituvchining kommunikativ malakasi va kommunikutiv ta’sir etish yo‘li. O‘qituvchining kommunikativ madaniyati va o‘qituvchining kommimikativ qobiliyatini rivojlantirish yo‘llari.
4. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari, pedagogik muloqot uslublari, muloqot madaniyati, pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo‘llari.

Tayanch so‘z va iboralar: Qobiliyat, pedagogik qobiliyat, pedagogik qobiliyatni shakllantirish, kommunikatsiya, kommunikatsiya metodlari, kommunikutiv ta’sir etish, kommunikativ madaniyat, kommunikativ malaka, kommunikativ qobiliyat, pedagogik muloqot, muloqot madaniyati, pedagogik nizo.

Qobiliyat va pedagogik qobiliyat haqida tushuncha. Pedagogik qobiliyat tarixidan ma’lumki, pedagogik qobiliyat adabiyotda birinchi bo‘lib, XIX-asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Pedagogika nazariyasida o‘qituvchilar tayyorlash va pedagogik-perseptiv qobiliyatga A.Disterverg diqqat-e’tibor berdi. Shunday qilib, A.Disterverg pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat’iy erkinlikka ahamiyat berdi. U o‘qituvchining bilim orttirishlik qobiliyatini ilgari surdi. So‘ngra XIX asrning ikkinchi yarmida

P.G.Redkin "Axloqiy qobiliyat" tushunchasini ilgari surdi. A.Disterverg, P.G.Redkin fikrlarini K.D.Ushinskiy davom ettirdi. K.D.Ushinskiy: "Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo'li ishontirish, odam e'tiqodiga esa faqat ishiontirish bilan ta'sir qilish mumkin", – deydi.

A.S.Makarenko fikricha, tasodifiy ravishda o'qituvchi bo'lib qolgan, lekin u bu ishga qiziqib ketib badiiy adabiyotni ko'p o'qigan M.Gorkiyni o'zining ustozi deb uni asarlarini o'rganishga kirishgan. A.S.Makarenko o'z tajribasiga asoslanib: "Agar har bir kishi qunt bilan mehnat qilsa, u o'ziga nisbatan talabchan bo'lsa, u yaxshi pedagog bo'lishi mumkin", – deydi.

Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay biri yuqori, biri o'rta va biri quyi darajada bo'ladi. Faqat aqli zaif insonda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o'qituvchisining faoliyati inson shakllanishiga qaratilgan. Muvafaqqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'zi mehnat qilib katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi, qobiliyatni rivojlantirish uchun esa layoqat, zehn, iste'dod inson asab tizimida anatomik-fiziologik xususiyat bo'lishi zarur. O'qituvchining ba'zi psixik jarayonlari unda shaxsga xos sifatlarni shunday tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin. Bu qobiliyatni ayrim psixik xususiyatlardan iborat qilib qo'yish mumkin emas. Ta'lim ishlarining muvaffaqiyatli bo'lishini pedagog shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlar, jumladan, uning irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos bo'lgan bir qancha xususiyatlarni ham ta'minlab beradi. K.D.Ushinskiy: "Faqat shaxs rivojlanishiga va tarkib topishiga ta'sir qilishi mumkin, Xarakter ta'siri bilan xarakterni vujudga keltirish mumkin", – deb yozgan edi.

Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyati yuzasidan layoqati va uning kasbini muvafaqqiyatli bajarishdagi sub'yektiv shart-sharoitni ifodalovchi individual psixik xususiyatlari.

Falsafa tarixida qobiliyat uzoq davrgacha "O'zgarmas irsiyat", nasldan-nasga o'tuvchi alohida kuch sifatida talqin etilgan. Bunday qarashlar dastlab fransuz filosofi J.Lokk va boshqa fransuz olimlari tomonidan tashkil qilingan. Qobiliyatni rivojlantiruvchi anatomik-fiziologik xususiyatlar tug'ma bo'ladi.

Empatiya – boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunishi va ularga hamdardlik qilish qobiliyati (birgalikda dardlashmoq).

Perseptiv qobiliyat – idrok jarayonining asosiy tuzilishi bo'lib, idrok ob'yektlarini bilib olish va uning xotira obrazlari bilan solishtirishdan iborat. Ya'ni, idrok etish bog'chadagi bolaning oldiga kubiklar qo'yilgan rasmlar qo'yib chiqadi. Odamlarni solishtirish obrazi.

Didaktik qobiliyat – o'quvchilar bilan muloqot qilishdagi, pedagogika qonuniyati va uslublarini o'rganadi.

Konstruktiv qobiliyat – o'qituvchining o'z ishini rejalashtira olish qobiliyati.

Kommunikativ qobiliyat – boshqa odamlar bilan bo'ladigan muloqotni yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik qovushuvni ta'minlaydigan qobiliyat.

O'quvchi bilan o'zaro muloqotda bo'lish. Ba'zan falon domla biz bilan yomon munosabatda bo'ladi yoki bo'lmaydi.

Bilish qobiliyati – bilimni egallash va uni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Anglash (tushunish) qobiliyati – ayrim harakatlarni odam qiladi. O'zi anglab yetib, ongli harakat qiladi.

Ko'p sonli o'qituvchi, tarbiyachi, maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va internat xodimlaridan qobiliyat haqida: "Shaxsning qaysi sifatlarini pedagogik qobiliyat deb hisoblaysiz?" – deb berilgan savolga 82 ta yozma javob olingan.

Sifatlarni quyida keltiramiz:

O'z ishiga muhabbat bilan ishlashga qiziqish.

Yuqori madaniyatli auditoriyani ishlata olish.

O‘tiladigan darsga qobiliyat, uni yaxshi bilishi, unga qiziqish.

Pedagogik takt (go‘zallik)ga ega bo‘lish.

Mehnatga qobiliyatli, mehnatsevarlik.

Bolalar jamoasiga kirishib ketish qobiliyati.

Bolalarga muhabbat.

Mehnatga ijodiy yondashish.

Javobgarlikni his qilish.

Harakatchan (energiyalik).

Tashkilotchilik qobiliyatlari.

Tarbiyaga oid bilimlar yaxlitligi.

O‘qituvchi faoliyati yo‘nalishlari quyidagi sohalarda aks etadi:

G‘oyaviy sohada: ilmiy dunyoqarash va e’tiqod; ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish; ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash; ijtimoiy-siyosiy faollik.

Pedagog kasbi sohasida: o‘quvchilarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; ruhiy-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat’iyatlilik, maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish, kasbiy layoqatlilik.

Bilish sohasida: keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish; pedagogik ma’lumotlarni oshirishga intilish.

O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilingan sana – 1991-yil 31-avgust xalqimiz hayotidagi ulug‘ voqealardan hisoblanadi. Endi xalqimiz o‘zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o‘rganish, targ‘ib qilish, o‘zligini anglash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu voqeadan so‘ng ko‘p sonli o‘qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, buyuk Vatan yo‘lida o‘z jonini ham ayamaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ko‘ndalang qo‘yildi. Bu vazifa oliy ta’lim konsepsiyasida alohida ta’kidlanadi. Bunda

o‘qituvchi-mutaxassis oldida turgan vazifalar quyidagicha belgilanadi:

Pedagogik bilishga o‘qituvchining barcha harakatlar majmuiga qarab, ular uning pedagogik faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlardan va uning kasbiy fanlardan bilimdonligidan kelib chiqadi.

Pedagogik bilish qobiliyati: O‘qituvchiga xos bo‘lgan bilimlarni o‘qitish va tarbiyalash uslublarini yangi pedagogik sharoitda ham o‘tkaza olish. Har bir pedagogik holat uchun yangi yechimlarni topa bilishi.

Aniq pedagogik vaziyatlarda yangi pedagogik yechimlarni va ideallarni taklif eta olish hamda yangisini echish uslublarini topa olish.

O‘qituvchining bilish qobiliyatini Markova g‘oyasiga ko‘ra 7 guruhga bo‘lish mumkin:

1-guruh: pedagogik vaziyatdagi muammoni ko‘ra bilish va uni pedagogik masalaga aylantira bilish. Bu holda masalani o‘quvchiga moslay olish; pedagogik holatning o‘zgarishiga qarab, maqsadni zudlik bilan vaziyatga tomon yo‘naltira bilish; turli xil og‘ir vaziyatlardan ham mohirona chiqib keta bilish.

2-guruh: a) nimani o‘rgatish; b) kimni o‘qitish; v) qanday o‘qitish.

a) o‘quv fanining tayanch ideallarini fikr nuqtalariga ajrata olish, yangi sharoitlarni zamonaviy terminlar-atamalar, tushunchalardan foydalanib, o‘quv fanini yangilash hamda turli-tuman axborotlarni (gazeta, jurnallar, radio va boshqalardan olingan ma’lumotlarni) tahlil qila bilish, o‘z fanini boshqa fanlar bilan bog‘lay olish.

b) kimni o‘qitish: o‘quvchilarning alohida ruhiy holatlarini, bilimdonligini va ularning real imkoniyatlarini aniqlab, so‘ng o‘qitishga o‘tish; o‘quv jarayonini tashkil qilishdan oldin o‘quvchilarning talab va istaklarini hisobga olish.

v) qanday o‘qitish bilish uchun har bir vaziyatni yaxshi anglab, har xil usullardan foydalanib o‘qitish va hokazo.

3-guruh: pedagogik bilimdonlikning talabalar pedagogik, psixologik bilimlarini, yangi pedagogik tajribalarni bilish-bilmasligini bilgan holda, tinglovchilar va o'z mehnatini, o'zining tajribalarini baholab dars o'tish.

4-guruh: yuqori darajadagi muloqot uslublaridan foydalanish. Unga boshqaning dunyoqarashini bilish, uning shaxsiga to'g'ri munosabatda bo'lish va boshqalar kiradi.

5-guruh: bu asosan pedagogning o'z o'rnini bilgan holda o'zining kasbiy o'rnini saqlay bilishi, o'zining pedagogik qobiliyatini ishga solishi va o'stirishi, o'zining emotsional holatlirini saqlay bilishi va hokazo.

6-guruh: o'z kasbining rivojlanish holatini bila olish, o'z individual stilini yaratish.

7-guruh: o'z o'quvchisining yil boshida va yil oxiridagi bilimlarini aniqlay olish, o'qitilganlikning alohida ko'rsatkichlarini topa bilish; o'qitilganlik va o'qitishning barcha tashkil etuvchilarini o'z vaqtida ishlab chiqa bilish. "Har kishida muloyimlik, xushmuamolalik bor bo'lsa, fayz-u kamol topishidan o'zga ehtimol yo'q. Har kishi badf'el bo'lsa, beobro' bo'lishdan boshqa chora yo'qdir. Xushfe'llik, muloyimlik hamma ne'matlarning yaxshirog'idir" (Voiz al-Koshifiy).

"Mutaxassis malakasi – chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter bo'yicha savodxonligi, o'z bilimini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi... Shular qatorida uning intizomi, mas'uliyati, ziyolilik va o'z bilimini, o'z ishi, mamlakati mustaqilligi uchun Vatan va jahon taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg'ularini ham tarbiyalash zarur".

Bu vazifa va talablar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida to'la mujassamlashgan bo'lishi lozim. Zero, maktabga ilk bor qadam qo'ygan bola hayotning qonun-qoidalarini, sir-asrorlarini o'qituvchidan o'rganadi. Agar bolani chuqur bilimli, e'tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsak, shu fazilatlar o'qituvchida mujassam bo'lmog'i zarur.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar uning o'ziga jo bo'lishi zarur.

Xolis hakamlar – tarbiyalanuvchilardir. Manfaatdor ota-onalar, keng ommaning ko'z oldida bo'lishi lozimligi o'qituvchi shaxsiga, uning ma'naviy qiyofasiga yuksak talablarni qo'yadi. Eng avvalo, pedagog amaliy faoliyatining faqat yarmigina ratsional texnologiyaga asoslanganligini nazarda tutish kerak. Uning ikkinchi yarmi bu – san'at. Shu tufayli professional pedagogga taqdim qilinadigan dastlabki talab – unda pedagogik qobiliyatlarining mavjudligi.

Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari.

Pedagogik qobiliyati – bu bolalar bilan ishlashda ishtiyoq, bolalarga nisbatan muhabbat, ular bilan bo'lgan muloqotdan mamnun bo'lish bilan ifoda bo'ladigan shaxs sifatlari. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layoqat va zehn, ya'ni inson asab tizimida anatomik-fiziologik xususiyat bo'lishi zarur.

Qobiliyatning quyidagi turkumlari mavjud:

1. Tashkiliy – o'qituvchining o'quvchilarni jipslashtirish, ularni band qilish, vazifalar bo'lib berish, ishni rejalash, qilingan ishlarni jamlash mahoratida namoyon bo'ladi.

2. Didaktikaga oid – o'quv material, ko'rgazmali qurollar, vositalarni yig'ib tayyorlab qo'yish, o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish, o'rganishga bo'lgan qiziqish va ma'naviy, hissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimini orttirish, faollashtirish mahoratida namoyon bo'ladi.

3. Perseptiv – tarbiyalanuvchilarning ma'naviy dunyosiga singib, ularning emotsional holatini baholash, ruhiy xususiyatlarini aniqlash mahoratida namoyon bo'ladi.

4. Kommunikativ – o'qituvchining o'quvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari, ta'lim muassasalari rahbarlari bilan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq munosabatlar qurish mahoratida namoyon bo'ladi.

5. Suggestiv – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi.

6. Tadqiqiy – pedagogik vaziyat va jarayonlarni o'rganish va ob'yektiv baholash mahoratida namoyon bo'ladi.

7. Ilmiy – o'rganish qobiliyatlari – tanlangan sohada ilmiy bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatidan iborat.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim:

Bilish qobiliyati – fanning tegishli sohalariga oid qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi. O'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi.

Tushuntira olish qobiliyati – o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otish qobiliyati.

Kuzatuvchanlik qobiliyati – o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira bilish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir.

Nutq qobiliyati – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o'z fikr va tuyg'ularini aniq ifodalash qobiliyati. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhim.

Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni, ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

Obro‘ orttira olish qobiliyati – o‘quvchilarga bevosita emotsional – irodaviy ta’sir ko‘rsatish va shu asosda obro‘ qozona olish. Obro‘ faqat shu asosdagina emas, balki o‘qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi, nazokatliligi va hokazo.

To‘g‘ri muomala qila bilish qobiliyati – bolalarga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazaridan juda samarali o‘zaro munosabatlar o‘rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati – o‘z harakatlari oqibatini ko‘ra bilishda, o‘quvchining kelgusida qanday odam bo‘lishini tasavvur qila olishida, tarbiyalanuvchilarda qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan ayta olish.

Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – hajmi, kuchi, ko‘chuvchanligi, idora qilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izohlanadi.

Pedagogining amaliy faoliyatida barcha qobiliyatlar bir xil muhimlikka egami? Ma’lum bo‘lishicha, unday emas. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar “yetakchi” va “yordamchi” qobiliyatlarni ma’lum qiladi. Yetakchi qobiliyatlar – pedagoglar orasida o‘tkazilgan ko‘p sonli so‘roqlarga ko‘ra, pedagogik ziyraklik (kuzatuvchanlik), didaktik, tashkiliy, ekspressiv qobiliyatlardan iborat. Qolgan qobiliyatlar yordamchi qobiliyatlar qatoriga kiradi.

O‘qituvchi yuqorida ko‘rsatilgan qobiliyatlardan tashqari, bir qancha kasbiy sifatlarga: aniq maqsadni ko‘zlash, qat’iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak. Bunday xususiyatlar bo‘lmasa, o‘rta pedagogik darajasidan yuqoriga ko‘tarila olmaydi.

E’tiqod, odob, fuqarolik burchini anglash – o‘qituvchining asosiy sifatlaridan biridir. O‘quvchilarga mehr-muhabbat o‘qituvchining eng muhim fazilati. Bu o‘quvchilarning hamma qilmishlarini kechirish, ularga xushomadgo‘ylik qilish

emas, balki talabchanlik va qattiqqo'llik, adolatlilik bilan qo'shilgan mehr-muhabbat bo'lib, ana shu sifatga ega bo'lgan shaxs o'zining ko'p vaqtini va kuchini o'quvchilar tarbiyasiga bag'ishlaydi.

Ijtimoiy faollik va fuqarolik burchini anglash o'qituvchi shaxsiga xos sifat. Zero haqiqiy pedagog to'la ma'nodagi jamoatchi bo'lib, bolalarga hayotda ijtimoiy faol holatda turishning amaliy namunasini ko'rsatadi.

O'qituvchining muhim fazilati-kishilar bilan tez kirisha olish, ko'pchilikka aralasha bilish, ulfatijonlik, dilkashli bo'lib, bu unda muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki o'qituvchiga hamisha odamlar bilan aloqa qilishga ular bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda, o'quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yuritish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo'luvchi pedagogning insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'qituvchi uchun muhim xislat-insonparvarlik, ya'ni o'sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabatda bo'lish lozim. Insoniy munosabatlar o'qituvchining shaxsiga qiziqish, o'quvchiga nisbatan xayrixohlik, unga yordam berish, ularning gapiga quloq solmoq, uning o'quvchilik faoliyatiga yuksak talabchanlik, o'quvchi shaxsi rivojlanishiga tashvish qilishdan iborat.

O'qituvchi doim faol, ijodkor shaxs. U o'quvchilarning kundalik hayotini uyushtiruvchi odam. O'quvchilarning qiziqishini uyg'otish, ularni o'zi bilan yetaklab yurish faqat yuksak irodali kishi qo'lidan keladi. Sinf, auditoriya, o'quvchilar jamoasi kabi murakkab organlarga pedagogik rahbarlik qilish tarbiyachidan topqir, zehni o'tkir, savodli, har qanday vaziyatlarni mustaqil yechishga doim tayyor bo'lishligini talab qiladi. Pedagog-o'quvchilarga o'rnak, o'z orqasidan yurishga unday oladigan odam.

O'qituvchiga kasbiy jihatdan kerakli xislatlardan biri bu sabr-toqat va dadillik. O'qituvchining har qanday sarosimaga

tushganini, nochorligini o'quvchilar sezishi va ko'rishi zarur emas. Bu borada A.S.Makarenko – "tormozsiz o'qituvchi – bu buzuq, haydab bo'lmaydigan mashina" – deb qayd qilgan. Buni hamisha esda tutish kerak, o'z harakati va axloqini nazorat qilishi lozim. O'quvchilar tubanlashmasligi, arzimagan narsalarga asabiylashmasligik kerak.

O'qituvchi xarakterida qalbdan mehribonlik – o'quvchilar ruhiy holatini, ularning kayfiyatini sezishga imkoniyat beradigan va vaqtida yordamga kelish imkoniyatini beradigan o'ziga xos barometr. O'z tarbiyalanuvchilarining bugungi kun kelajaklari uchun xavotirlik – bu pedagogning tabiiy o'zining shaxsiy mas'uliyatini anglash.

O'qituvchi – talabchan bo'lishi shart. Bu uning muvaffaqiyatli ishlashining birinchi sharti. Dastlabki eng yuksak talablarni o'qituvchi o'ziga taqdim qilishi kerak, chunki o'zingda yo'q narsani birovlardan talab qila olmaysan. Pedagog talabchanligi bilan birga oqilona tarbiyachi ham bo'lishi lozim. Pedagogik jarayonlarda bo'lib turadigan keskinliklarni xolis qilish uchun tarbiyachiga hazil mutoyiba tuyg'usi yordam beradi. "Quvnoq pedagog xo'mrayganidan ko'ra, yaxshiroq o'qitadi" deb, bekorga aytilmagan. Uning ko'lamida tayyor hazil, maqol, yaxshi, do'stona piching – ijobiy emotsional holat yaratishga yordam beradi va o'quvchilarni o'zga vaziyatga kulgili tomondan qarashga imkoniyat beradi.

Alohida pedagogning kasbiy nazokati haqida aytib o'tish joiz. Pedagogik nazokat – bu o'quvchilar bilan bo'lgan muloqotda me'yorni (chegarani) bilish. **Nazokat bu – tarbiyachining bir joyga to'plagan aqli, tuyg'usi va umumiy madaniyati.** Pedagog nazokatining mag'zi bu tarbiyalanuvchilarning shaxsiga bo'lgan hurmat.

Tarbiyalanuvchilarni tushunish – o'qituvchilarni nazokatsiz muomalalardan saqlab qoladi va unga aniq vaziyatlarda ta'sir etadi, tadbirlar tanlashda yordam beradi.

Pedagogik etikada yaxshilik tushunchasi o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq holda aniqlashtiriladi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, o'qituvchi va o'quvchi maqsadining birligi, ta'lim-tarbiya samarasi uchun kurashining birligi aks etadi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri – **mas'uliyat.** O'qituvchi mas'uliyati – mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagani holda, o'qituvchining faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini o'z ichiga oladi. O'qituvchi shaxs zimmasiga bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi. O'qituvchi – o'quvchiga chuqur nazariy bilim berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga u o'quvchidagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy-axloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

Shunday qilib, pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilar orasida obro' qozonadi. O'qituvchi qanchalik ko'proq obro' qozonsa, ta'lim va tarbiya mohiyatan shunchalik muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Aksincha, o'qituvchi obro'yi qanchalik past bo'lsa, uning bolalarga ta'siri shuncha bo'sh va o'quvchilarni voyaga yetkazish jarayoni ham shuncha zaif bo'ladi.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvafaqqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga tadqiqot ishlariga o'rgata olishni talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, eng avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borish davomida omillarni to'playdi,

tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

O'qituvchi qobiliyatida pedagogik qobiliyat o'rni va ahamiyatini umumiylashgan holda, o'qituvchilar shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablar asosida tushunib olish mumkin. Ular kasbiy bilimdonlik, intelegentlik, ma'naviy barkamollik.

Hozirgi davrda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish keskin kuchaygani uchun ham o'qituvchiga va o'quvchiga turli-tuman axborot texnologiyalari bilan ishlashga to'g'ri kelganligidan ularning asosiylarini yuqori bilim va aql-idrok bilan ajratib olish zarur. Shuning uchun o'qituvchilar mehnati va bilimini tashkil qilish uchun quyidagilar zarur.

Pedagogning birgina axborot texnologiyalari muhitida ishlashga tayyorgarligini tashkil etish. Bu muammoni axborot texnologiyalarini bilish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish ma'nosida qarash mumkin.

Pedagogning fikrini jamlash, vaqtini tejash hamda o'qitish metodikasini tashkil etishga imkon beruvchi yagona axborot tizimiga yaqinlashtirish.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim berishga tayyorlanish va o'tish. Bunday o'tish o'quv kurslarini axborotli telekompyuterli holatga o'tkazishni ko'zda tutadi.

Birlashgan axborot hajmidagi o'quv jarayonining dasturiy-uslubiy ta'minlashini tayyorlash.

Shunday qilib, universitetning bo'lajak pedagoglari aniq fanlarni o'qitishda kompyuterdan foydalanish malakalarini oshirishi va bilishi zarur.

Ta'limdagi xalqaro tendensiyalarning, xususan, kasbiy pedagogikadagi tahlili o'qituvchining ham kasbga oid va ham shaxsiy sifatiga nisbatan talablarning keskin ortishiga olib kelmoqda:

A) ta'lim sifatining o'qituvchi kasbiy bilimdonligi yuqorilashib borishi zarurligini ko'rsatadi;

B) o'qituvchilarga ko'plab ilmiy va ijodiy masalalarni qo'yish va yechishlarga to'g'ri kelmoqda, bu esa o'qituvchi ilmiy va ijodiy xususiyatlarining ortib borishiga olib keladi. Shunday qilib, kelajak o'qituvchining uzluksiz ijodiy shaxsga aylanishi zarurligini ko'rsatadi;

V) murakkablashib borayotgan tarbiya o'qituvchidan yuqori darajadagi intelegentlikni va ruhiy-ma'naviy xulqning ortib borishiga talab qilmoqda;

G) XXI asr o'qituvchidan o'qitish va tarbiyaning ilg'or texnologiyalaridan va ajdodlarimiz bitiklaridan doimo foydalana borishini talab qilmoqda.

Interfaol uslublarni qo'llash ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorligi g'oyasini amalga oshiradi, ularni konstruktiv harakatga o'rgatadi, ruhiy iqlimini sog'lomlashtirishga yordam beradi, ishonchli sharoit yaratadi. Shu munosabat bilan pedagog shaxsiga u yoki bu bilim doirasidagi tor mutaxassis sifatida emas, balki yuqori ma'naviy sifatlar, ziyrak va tashabbuskor, sodda va moslashuvchan, hayotiy tajribaga ega shaxs sifatida kuchli e'tibor qaratiladi.

Pedagog shaxsining professional sifatlarini tuzilishida ruhshunoslar 4 ta yetakchi blokni belgilaydi.

Dunyoqarash, ishonch va ideallar, madaniyat darajasi, ya'ni aynan talabalarga singdirish va ularda rivojlanishi zarur bo'lgan axloqiy xususiyatlar.

Pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, shaxsning pedagogik yo'nalganligi, pedagogik moyilliklar boshqacha aytganda o'qituvchining pedagogik ishga o'zini baxshida etishga intilish va barqaror xohish bo'lishi.

Profeissional pedagogik bilim va malaka ko'nikmalarni vosita, uslub va jihozlar jamlanmasi yordamida aqlli, yaxshi, abadiy etishga umid qildi.

Pedagogik qobiliyatlar – ya'ni ta'lim vositalari, uslublari va instrumentlaridan ta'lim maqsadi va auditoriyaga muvofiq holda samaraliroq foydalanish.

Shunday qilib, o'qitishdagi muvafaqqiyat o'qituvchi shaxsining ilg'or dunyoqarashi, yuqori axloqiy sifatlari,yuksak bilim darajasi, professional malaka va ko'nikmalari, yuqori darajali ijtimoiy madaniyati va pedagogik yo'nalganligiga bog'liq. Biroq bularning o'zi o'qituvchiga yetarli emas, aqliy doiraga kiruvchi shaxsning ayrim o'ziga xos ruhiy xususiyatlari ham emotsional iroda zarur bo'ladi. Bu xususiyatlar pedagogik faoliyat shaxsga qo'yilgan talablarga javob bo'lgani uchun ham uning muvafaqqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning ko'pchilik pedagogik faoliyat talablariga javob beruvchi va ushbu faoliyatini egallashdagi muvafaqqiyatini aniqlab beruvchi pedagogik qobiliyatdir.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda 3 guruhga bo'lish mumkin: O'qituvchi shaxsining shaxsiy, didaktik va tashkiliy – kommunikativ qobiliyatlari.

Shaxsiy qobiliyatlarga:

a) talabalarga moyillik, ya'ni talabalar bilan ishlash, muloqot qilish xohishi va intilish, ular bilan muloqotdan chuqur rohat olish, yaxshi munosabatda va ziyrak bo'lishlik. Shu munosabat bilan A.M.Gorkiy A.S.Makarenko haqida "U bolalarga muhabbat alangasida yonardi" – deydi. V.A.Suxomlinskiy "Bolalarga yuragimni beraman" nomli kitob yozgan, kitobning nomini o'zidan gap nimada ekanligini bilish mumkin;

b) sabr – toqat o'zini tutish – har doim, har qanday sharoitda, o'z his-tuyg'ularini, temperament, boshqarish, axloqi ustida nazoratni yo'qotmaslik; biroq bu o'z o'rnida jaxl va xursandchilik talabalar axloqiga nisbatan e'tirozni inkor etmaydi. Bundan tashqari, xotirjamlik va sabr – toqat, befarqlik va sovuqqonlikka aylanmasligi lozim. Bundan o'qituvchi topqirligi va vaziyatni boshqarishi katta ahamiyatga ega;

v) o‘z ruhiy holatini, kayfiyatini talabalar kayfiyati va ta’lim muvafaqqiyatini boshqarishga qobiliyatiga bog‘liq. O‘qituvchini tetik, hayolidan xursand, lekin ortiqcha hayajonsiz ko‘rish odatiy hol.

Didaktik qobiliyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) tushuntirish qobiliyati, ya’ni talabalarni ko‘zi bilan ko‘rishi va eshitishi, tushunarsiz atamalarni tushunarli, sodda va hammabop qila olishi;

b) akademik qobiliyatlar, boshqacha aytganda predmet, fan sohasini bilishi, eruditsiyasi, dunyoqarashni keng bo‘lishi o‘z ustida ishlash natijasi sifatida qaraladi;

v) nutq qobiliyatlari, o‘z fikri va his tuyg‘ularini nutq shaklida aniq va ravshan namoyon qilish qobiliyati, nutqni muloqotning noverbal vositalar, ya’ni mimika va pantomimika bilan birga qo‘shib olib borishi. Bundan predmetni bilish, o‘zi bayon qilayotgan so‘zlarga ishonishi murakkab frazeologik iboralardan voz kechish, qo‘llanayotgan atama va tushunchalarni izohlash, nutq sur’ati va balandligi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlar quyidagi sifatlar bilan tavsiflanadi:

a) tashkiliy qobiliyatlar, bunda faoliyatning 2 yo‘nalishini belgilash zarur – birinchidan, ta’lim oluvchilar jamoasini tashkil qilish, ikkinchidan, o‘z ishini to‘g‘ri tashkillashtirish, rejalashtirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘quv jarayonining vaqt jihatdan chegaralanganligini ijobatga olgan holda, bilimlarni yetkazish uchun o‘qituvchidan maksimum kuch talab etiladi;

b) kommunikativ qobiliyatlar – ta’lim oluvchilar jamoa, alohida shaxs bilan ularni individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, to‘g‘ri o‘zaro munosabat o‘rnatish; buni ikki chegaraning o‘rtasida – sovuq begonalik va familyar munosabatlardan bilish lozim;

v) pedagogik kuzatuv yoki A.S.Makarenko aytganidek, “Yuzaga qarab o‘qish qobiliyati”, ya’ni ta’lim oluvchining ichki

dunyosiga kira olish, ziyraklik, talaba shaxsini tushunish va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini anglash. Bularga, albatta, tashqi omillar, talabaning xulq-atvori hamda pedagogik tajriba ham ta'sir ko'rsatadi;

g) pedagogik taktika – ya'ni talabalarga ta'sir ko'rsatishning maqsadga muvofiq choralarni topish qobiliyati, ularning individual va boshqa xususiyatlarini inobatga olgan holda, konkret vaziyatdan kelib chiqib, inson shaxsiyatiga tegmagan holda;

d) suggestiv qobiliyat – talabalarga emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish qobiliyati, talab qo'yish va ularni bajarilishi, hech qanday bosim va zo'rlashsiz, shu bilan birga yumshoqlik va irodasizlik;

e) pedagogik xayol, o'z harakatlarining oqibatlarini oldindan ko'ra olish qobiliyati, ta'lim oluvchilar shaxsini tarbiyaviy loyihalash, ta'lim oluvchining u yoki bu sifatlarini rivojlantirish oldindan ko'rish qobiliyati;

j) diqqatni taqsimlash, o'z diqqatini bir nechta ob'yekt va faoliyatlar orasida taqsimlash, ya'ni materialni bayon qilish, fikr rivojlanishini kuzatish, yuzaga kelgan savollarga o'z vaqtida javob berish, ta'lim oluvchilar jamoasi xulq-atvorini nazorat qilish.

Pedagogik texnologiya pedagoglarning professional ahamiyatli mahoratlari tizimini aniqlab beradi. Ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha pedagogik faoliyatni texnologikligini anglash uslublarini taklif etadi.

Har bir pedagog ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatishni ko'pgina parametrlarga ko'ra tuzadi. Emotsional-ruhiy holat, yoshga oid va madaniy rivojlanishning umumiy darajasi, munosabatlarnining shakllanganligi, ma'naviy va intellektual rivojlanish va boshqalar. Yakunida tashqi namoyon asosida talaba shaxsi har bir birlamchi tasavvurda shakllanadi. Pedagogik ta'sir xarakterini ko'p jihatdan aniqlab beradi.

Pedagogik texnologiya nuqtayi nazaridan pedagogika bilan prinsipial talablarni olimlar pedagogik ta'sir uslubini qo'llashning umumiy qoidalarini belgilashdi:

- Talabalarga nisbatan talab va hurmatning uyg'unligi.
- Har qanday pedagogik ta'sirning tayyorlanganligi.
- Ushbu ta'sirni oxirigacha yetkazish.
- Ta'lim natijasi uchun mas'uliyatni his qilish qobiliyati.

Ushbu har bir nizomni olib chiqib, ta'kidlash joizki, ularning hammasi ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati hamda predmet va natijasiga qiziqishni rivojlantirishiga yo'naltirilgan.

Shuni unutmaslik joizki, ta'lim muvafaqqiyati pedagog, uning yuqori professional mahorati, uning shaxsiy xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Kasbiy qobiliyat – odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, malaka orttirish shu xususiyatlarga bog'lik bo'ladi.

Odamning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallashda muhim xisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallandimi yoki yukmi – bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'likdir.

Qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zarur ko'nikma va malakalar tizimi hamda mustaqil bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanab, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravjida unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi bo'ladi. Qobiliyatlar bilim, malakalar, ko'nikmalarda ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namoyon bo'ladi.

Demak, qobiliyat shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan indiviudal – psixologik xususiyatdir. Agar

shaxsning ma'lum sifatlari yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oraliqida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga, unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Qobiliyatlar taraqqiyotning yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning o'zidan ancha uzoqdir. Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak, Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, katta ijodiy va zo'r mehnatni taqazo qiladi. Iste'dodli kishilar shubxasiz mexnat orqali olamga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo, o'qituvchiga, uning bilimi va kasb mahoratining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Zero, o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog'lik vijdon, aql va pedagogik mahorat bilan bajarilishi jamiyat kelajagini ta'minlovchi muhim omildir.

Pedagogik mahorat asoslari fanining paydo bo'lishi buyuk pedagog A.S.Makarenko (1889 – 1939) nomi bilan bevosita bog'liq. U bolalar kalonnasidagi faoliyatida, ya'ni faqat tarbiyasini emas, ma'naviy qiyofasini ham yo'qotgan bolalar bilan ishlab, ularning benihoya hurmati va ishonchiga sazovor bo'ldi. Shaxsiy tarbiyaviy usuli bilan butun olamga mashhur bo'lganligining o'zi ham A.S.Makarenkoning yuksak pedagogik mahorat cho'qqisiga erishganligining yaqqol dalilidir. YUNESKO qarori bilan uning 100 yilligiga 1988-yil – "Makarenko yili" deb e'lon qilindi. A.S.Makarenko bo'lajak pedagog talabalik davridayoq pedagogik mahorat sirlarini o'rganishi zarurligini ta'kidlab, shunday deydi: "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor

bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin"[36].

Buyuk pedagogning bu fikriga Ukraina pedagogika instituti olimlari katta mas'uliyat bilan qarashdi. Ular bir necha yillar davomida Makarenko pedagogik mahorati maktabini, mavjud bo'lgan ilg'or nazariya va amaliyotni atroflicha tahlil qilishdi. Natijada 1979-yili "Pedagogik mahorat asoslari" fani yaratildi va u barcha pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshlandi. Bu fanning tuzilish prinsipining o'ziga xosligi shundaki, u pedagogda shaxs va jamoaga ta'sir eta olishni ta'minlaydigan va turli fanlarga bog'liq bo'lgan bilimlarni tanlab, ularni o'zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham fan dasturiga pedagogik mahorat mohiyati, o'quvchiga ta'sir etish vositalari va usullari kabi pedagogik mahoratning odatdagi masalalaridan tashqari, teatr pedagogikasi va notiqlik san'ati haqidagi ma'lumotlar ham kiritilgan. Bu fanni o'rganish pedagogika, psixologiya, metodika va boshqa pedagogik fanlardan egallangan bilimlarga asoslanadi.

Kommunikatsiya haqida tushuncha va kommunikatsiya metodlari. O'qituvchining kommunikativ malakasi va kommunikutiv ta'sir etish yo'li. O'qituvchining kommunikativ madaniyati va o'qituvchining kommimikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari. Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bilan yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablarni qo'llashi va birgalikda ijodiy faoliyat olib

[36] Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Turon-Iqbol" nashriyoti, 2006. – 6 b.

borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, bu o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolida namoyon bo'ladi hamda uning o'zi baho oluvchi hisoblanadi. bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari hamda o'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi prinsiplarda namoyon bo'ladi:

Kommunikativ muloqot.

Interaktiv muloqot.

Perseptiv muloqot.

1. Kommunikativ muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'lmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Interaktiv muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi o'qituvchi o'zaro ta'sir etishda, o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi.

3. Perseptiv muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun,

o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shaxsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

Ishonchini qozonish usuli nafaqat o‘qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta’lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o‘quvchiga ta’sir qiladi. O‘quvchi ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O‘qituvchi ishontirish bilan o‘quvchida ijobiy hislatlarni uyg‘otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o‘quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy hislatlari har xil bo‘lgani uchun bir o‘quvchiga nisbatan foydali bo‘lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir o‘quvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini o‘qituvchi muntazam o‘rganib borishi, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o‘rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimiga bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilar ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart.

O‘quvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o‘z-o‘zini tarbiyalashidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchining o‘zini o‘zi idora qilishi, o‘zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir. O‘quvchining yashirin qobiliyatlari o‘z-o‘ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi.

O‘quvchi uchun o‘z-o‘zini baholash qiyin jarayon. O‘quvchi ta’lim-tarbiya berayotgan o‘qituvchilarga ishonch bilan ergashib, o‘ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o‘z burchini to‘g‘ri tushunadi, bilish va o‘rganishga qiziqishi kuchayadi, o‘z-o‘zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o‘ziga atrof-muhitdagi o‘rtoqlari ko‘zi bilan xolisona baho beradi, o‘ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo‘ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo‘qotish va bartaraf etishga intiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bilan pedagogik muloqotni har tomonlama mukammal tashkil etish va ko‘zlangan maqsadga erishishi uchun tarbiyaviy jarayonning jamiyat talablariga mos keluvchi yetakchi tamoyillaridan o‘rinli foydalanishi lozim:

1. Tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishda demokratik yondashuv. Muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini ijtimoiy qadriyat deb tan olishi, har bir bola, o‘smir va o‘spirinning betakror va o‘ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishi, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini e’zozlashi lozim. Zero, ta’limni isloh qilishdan asosiy maqsad, tarbiyada demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma’muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo‘yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o‘zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik munosabat mohiyatini ijobiy tomonga yo‘naltirish demakdir. Muloqotni demokratik uslubda tashkil etishdan maqsad, ta’lim-tarbiyani insonparvarlashtirish, pedagogik faoliyat markazida inson shaxsi turganini unutmaslik, insonga nisbatan bebaho boylik sifatida munosabat tuyg‘ularini o‘quvchilarda ham shakllantirish vazifasi bajariladi.

2. O‘quvchilar bilan do‘stona munosabat. Aslida muloqotdan maqsad o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatni ro‘yobga chiqarishdir. O‘quvchi shaxsini hurmat qilish o‘qituvchining insonparvarlik tuyg‘ularidan kelib chiqadi. O‘quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga cheksiz mehr-muhabbat

ko‘rsatish va ularga ishonish shart. Bolalarga nisbatan hurmat tuyg‘usi ularning kuchiga kuch qo‘shadi, o‘z imkoniyatlariga ishonch tuyg‘usini shakllantiradi, tarbiyaning samaradorligini oshiradi. O‘quvchi shaxsini hurmat qilish va munosabatni adolatli talabchanlik mezonlari asosida qurishdir. Do‘stona muloqot o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi bilimlarni puxta o‘zlashtirilishini ta’minlaydi va mukammal shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda sodir bo‘ladigan muomala odobi o‘qituvchilarning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. O‘qituvchining o‘ziga va o‘z kasbiga, o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati uning muloqotida yaqqol namoyon bo‘lishi mumkin.

3. Muloqotni ijtimoiy hayot qonuniyatlari bilan bog‘lab olib borish. Yosh avlodning o‘sib ulg‘ayishi va shakllanishiga hayot, ijtimoiy muhit qonuniyatlari ham muntazam ta’sir etadi. Muhit ijtimoiy omillarning eng muhim xususiyati bo‘lib, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Muhit deganda, shaxsning tarbiyalanib, shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi olam voqealari, hodisalar majmui tushuniladi. Muhit tushunchasi o‘zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit xususiyatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, oila, maktab, do‘stlar davrasi, tengqurlar kabilarni o‘z ichiga oladigan mikromuhit shaxsni tarbiyalash jarayoniga muhim ta’sir etishi pedagog va psixolog olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Oila muhiti o‘quvchining tarbiyasi va barkamol inson sifatida shakllanishida o‘ziga xos muhim tarbiyaviy ta’sirga ega. Shuning uchun o‘qituvchi muloqotni tashkil etishda ota-onalar, mahalla faollari, o‘quvchilar jamoasi faollari, uchastka nozirlari bilan doimiy aloqada bo‘lib, ular bilan birgalikda faoliyat olib borishi kerak. Muloqotda ijtimoiy hayot qonuniyatlarini hisobga olish, o‘quvchilarni maqsadli tarbiyalashda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zamin yaratadi.

4. Muloqotni tashkil etishda mehnat faoliyatining o‘rni. Ta’lim muassasalarida o‘quvchi mehnat faoliyati bilan o‘z

qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi. Mehnat – yosh avlodni yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvorini namoyon qiluvchi, kasbiy qobiliyatlarini uyg'otuvchi, tarbiyaviy jarayonning eng qadimiy va sinalgan vositasidir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani jismonan chiniqtiradi va faollashtiradi, xulq mukammalligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qilib shakllantiradi. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni ularning mehnatsevarligiga yoki dangasaligiga qarab belgilasa ham bo'ladi. Ta'lim muassasalarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat qiluvchilarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zaro muloqotning o'rni cheksiz. Ta'lim muassasalarida o'qishning o'zi ham mehnatdir. Muloqotdan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun u mehnat tarbiyasi bilan aloqadorlikda olib borilishi lozim.

5. Qo'rquv va hayajonga asoslangan muloqot uslubi. Bunday muloqot uslubiga odatda yosh, tajribasiz o'qituvchilar tushib qolishi mumkin. Ushbu uslub asosida boshlangan muloqot, ko'pincha, o'quvchilarni tez-tez ogohlantirish, ularni qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga harakat qilish, o'qituvchi yoqtirmagan o'quvchilar xatti-harakatini ta'qiqlash vaziyatida olib boriladi. O'quvchilar faolligi, tashabbuskorligi inkor etiladi. Natijada o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida ko'z ilg'amas qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

6. O'qituvchining muloqot asosida sinf jamoasini boshqarish usullari. Pedagogik mahorat bolajak o'qituvchilarda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi. O'qituvchi bunday murakkab vazifalarni amalga oshiruvchi, davlat va jamiyatning ishonchli vakilidir. O'quvchilar jamoasini birlashtiruvchi sinfda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati va psixologik xususiyatlari ochiq namoyon

boladi. Avvalo, o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik va bir-birlariga nisbatan ishonch tuyg'ulari bo'lishi hamda o'qituvchi o'z kasbiy bilimlaridan tashqari boshqa o'quv fanlarini ham puxta egallagan bo'lishi lozim.

Zero, sinf jamoasini boshqarish – pedagogik jamoa, ota-onalar oldi-da o'qituvchining obro'-e'tibori qay darajada ekanligini ko'rsatuvchi mezon. O'qituvchining axloqiy saviyasini, bilimini muloqot asosida sinf jamoasini boshqarishda erishayotgan yutuqlari belgilaydi. Odatda, o'qituvchilarning xarakteri, individual xususiyatiga qarab: tashabbuskor, ijodkor, tashabbussiz, o'z fikriga ega bo'lmagan, barcha ishlarga befarq qarovchilar toifasiga ajratishadi. Pedagog va psixolog olimlarning ko'p yillik ilmiy izlanishlari, kuzatishlari va ilmiy tajribalariga asoslangan holda o'qituvchilarning rahbar sifatida sinf jamoasini boshqarishida qo'llaydigan muloqot uslublari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Avtoritar uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar;
2. Demokratik uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar;
3. Liberal uslubda faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar.

Avtoritar uslubda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi;
- o'zi o'quvchilarga ko'rsatmalar va buyruqlar beradi;
- ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi;
- qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- topshiriqlarning to'liq bajarilishini talab qiladi;
- gap qaytargan, fikr bildirgan o'quvchini yoqtirmaydi;
- aytgan tashakkuri ham buyruqdek chiqadi, so'zlari qattiq va qo'pol;

- o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Avtoritar uslublarda pedagogik faoliyat olib boruvchi o'qituvchi "Mening aytganim aytgan, deganim degan" shaklidagi prinsip asosida pedagogik faoliyat olib boradi. U sinf jamoasi bilan muloqotga kirishishda quyidagi uslublarni qo'llaydi: buyruq, ko'rsatma berish, qattiqqo'llik bilan ishlash, tarbiyaviy jazo turlarini tez-tez qo'llash. O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayoniga qo'pol, dag'al, do'q-po'pisa, majbur etish, qo'rqitish, cho'chitish orqali kirishadi. Ushbu uslub o'qituvchi asab tizimini doimiy taranglashib yurishiga sabab bo'lib, uning sog'ligiga putur yetkazishi mumkin. Natijada o'qituvchi tez charchaydi. Avtoritar usulning ijobiy tomonlari ham bor: ya'ni, ular faqat favqulodda vaziyatlar jarayonida ishlatilishi (yong'inda, suv toshqinida, aholini evakuatsiya qilishda) mumkin. O'qituvchi muloqotining ushbu uslubda boshqarilishi sinf jamoasini tarqoqlikka, hamjihatlikning buzilishiga olib keladi.

Demokratik uslub asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi. Zero, Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Ushbu uslubni mukammal egallagan o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlarni mujassamlashtiradi:

- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining fikr mulohazalariga tayanib ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi;
- sinf jamoasining tashabbusini ma'qullaydi, rivojlantiradi, o'quvchilarning erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratadi;
- muloqot jarayonida o'quvchilar fikr-mulohazalarini inobatga olib, pedagogik faoliyatida qo'llaydi;
- muloqotga kirishishning asosiy shakllari: iltimos, maslahat berish, samimiy muomala.

Demokratik uslubda muloqotni tashkil etuvchi o'qituvchi hozirgi zamon talablariga, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan kutilayotgan maqsadlarga javob bera oladi. O'qituvchining vazifasi barkamol inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb bilgan holda, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan tengdoshlariga namuna bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli o'quvchilarni tarbiyalash uchun qizg'in pedagogik faoliyat olib borishi lozim. Muloqot jarayonida o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Samarali demokratik tarbiyaviy jarayon, sinf jamoasi a'zolarining qobiliyat va iste'dodlarini yuzaga chiqaradi, o'quvchining jamoada har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar paydo qiladi. O'quvchilar bilan muloqotning erkin demokratik asosda tashkil etilishi sinfning ahil jamoa bo'lib birlashib, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi. Yaxshi uyushgan jamoada har bir o'quvchining fikri ulkan tarbiyaviy kuchga ega.

Liberal uslub asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariga sho'rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbussiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
- sinf jamoasining tarbiyaviy faoliyatiga aslo aralashmaydi;
- ta'lim-tarbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, taqdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;

- o‘z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo‘ladi.

Biroq, yillar o‘tib, zamonlar o‘zgargan sari, XXI asrda jamiyatning ijtimoiy talablaridan kelib chiqib, o‘qituvchining xulq-atvori, pedagogik va psixologik bilimlar saviyasi, o‘z kasbiy faoliyatiga nisbatan munosabati, pedagogik va axborot informatsion texnologiyalarini puxta o‘zlashtirish saviyasi ham o‘zgarmoqda. Shu sababli, o‘qituvchilar o‘z bilim va tafakkurlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, sinf jamoasini boshqarishning turli shakl va metodlarini amalda qo‘llamoqdalar. Sinf jamoasining har qanday boshqaruv uslubi o‘qituvchi muloqoti asosida tashkil etiladi. Muloqotdan kutilayotgan natija, tarbiya asosida o‘quvchining ongini va tafakkurini boyitish va o‘zgartirishdir.

O‘qituvchining kommunikativ vazifalarni bajarishi – pedagogik faoliyatning turli shakllaridan, sinf jamoasining shakllanib ulgurgan darajasidan, muloqotni boshqarish tamoyillaridan, vaziyat qatnashchilari bo‘lgan o‘quvchilarning individual yosh xususiyatlaridan, ta’sirning rejalashtirilayotgan metodlaridan kelib chiqadi. Pedagogik vazifaning kommunikativ vazifaga mutanosibligi, kommunikativ vazifani tanlangan ta’lim-tarbiyaviy ta’sir metodikasi bilan nisbatlash va ularning birligini tashkil etish muloqot jarayoni va umuman pedagogik o‘zaro hamkorlikning samaradorligini ta’minlaydi.

Bu o‘rinda quyidagi bog‘liqlik ko‘zga tashlanadi: birinchidan, sinf jamoasi bilan ishlash metodikasi muloqot tizimi bilan vositalanadi, ikkinchidan esa, muloqot va joriy kommunikativ vazifalarni hal qilish yo‘llari tanlangan pedagogik ta’sir metodikasi strategiyasi bilan belgilanadi. Kasbiy-pedagogik muloqot asoslarini bo‘lajak o‘qituvchi oliy pedagogik ta’lim muassasalarida, qizg‘in pedagogik faoliyati davomida hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida egallashi mumkin. Bunda o‘qituvchi quyidagi muhim kommunikativ vazifalarni mukammal bilib bajarishi lozim:

Kasbiy-pedagogik muloqotning uzluksiz jarayonlarini o'rganish qonuniyatlari, tizimi va tamoyillarini mukammal bilish.

Pedagogik kommunikatsiya ta'lim-tarbiya jarayonida bevosita qo'llash tartibi va texnologiyalarini muntazam egallab borish.

Kasbiy-pedagogik muloqotning ko'nikma va malakalarini uzluksiz o'zlashtirib borish.

Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish yo'nalishlar o'qituvchining kasbiy muloqot ko'nikmalarini egallash jarayonini to'la ta'minlay oladi, deb o'ylash xato bo'ladi. Umumiy ijodiy pozitsiyalarni o'zining kasbiy-pedagogik, muloqot faoliyati tajribasi bilan doimiy ravishda o'zaro nisbatlash, o'zi uchun uning tizimi, mantiqi, optimal individual shakllarini aniqlash pedagogik muloqotni egallash bo'yicha olib boriladigan faoliyatning muqarrar sharti sanaladi. Shuningdek, pedagogik kommunikatsiyaning nazariy qoidalarini o'qituvchi o'z tajribalarida aprobatsiyalashi (sinovdan o'tkazish) zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi kommunikativ vazifalarni qanday amalga oshiradi va u qanday funksiyalarni bajaradi? Pedagogik faoliyatda kommunikativ vazifalarning ahamiyati ko'p qirrali ekanligini o'qituvchi yaxshi his qiladi. Ta'lim-tarbiya davomida o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlik, o'quvchilarni qandaydir jamoaviy ishlarni bajarishga uyushtirish, jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini shakllantirish, maqbul emotsional mikroiqlimni ta'minlash kabi kommunikativ vazifalarning pedagogik muammolarni hal qilishda yordam beradigan masalalari ro'yxatini hali uzoq davom ettirish mumkin. O'qituvchining kommunikativ muloqoti ko'plab funksiyalarga ega bo'lgan tizimdir:

- axborot-kommunikativ;
- regulyatsion-kommunikativ;
- affektiv-kommunikativ.

Kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida bu funksiyalar yaxlit, kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak, aks holda, o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot olib borish samaradorligi past bo'ladi va belgilangan natijalarni bermaydi.

Kasbiy faoliyatini endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z-o'zini muntazam tahlil qilib borishi, dars jarayoniga pedagogik jihatdan samarali tayyorgarlik ko'rishi uchun har tomonlama chuqur bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Jumladan:

- o'z o'quv predmeti yuzasidan chuqur bilimga ega bo'lishi va o'r-ganilayotgan materialni puxta va mukammal bilishi;
- pedagogik-psixologik va metodik jihatdan o'quvchilar bilan muloqotga jiddiy tayyorgarlik ko'rishi;
- har bir o'quvchini va sinf jamoasining ichki psixologik xususiyatlarini o'rgangan bo'lishi;
- muloqotda o'zini erkin tutishi va ruhiy psixologik his-tuyg'ularini jilovlay olishi;
- sinf jamoasi bilan muloqot qilishning kasbiy ko'nikma va malakalarini egallashi;
- pedagogik madaniyat va pedagogik taktning yuksak namunalarini namoyish eta olishi, pedagogik tafakkur va dunyoqarashning rivojlanganligi;
- fanlarni o'qitish maqsadi, vazifasi va mazmuniga mos vosita va metodlarni tanlash mezonlari asosida mashg'ulotning texnologik xaritasini tuza olishi;
- sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tasodifiy pedagogik vaziyatlarni oldindan bilishi va unga nisbatan keskin choralar ko'rishi.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining kommunikativ ko'nikma va malakalarni egallashiga va uni qo'llay olish layoqatiga bog'liq.

Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari, pedagogik muloqot uslublari, muloqot madaniyati, pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari.

Muloqot – insonlarning bir-birlari bilan axborot almashish jarayoni. Ilmiy manbalarda uning kommunikativ, interaktiv va perseptiv jihatlari borligi aytiladi. Muloqotning kommunikativ jihati deyilganda, suhbatdoshlarning o'zaro axborot almashuvi, interaktiv jihati deyilganda, ularning ekstralingvistik omillar yordamida bir-birlariga o'zaro ta'sir o'tkazishi, perseptiv jihati deyilganda suhbat jarayonida bir-birlarini anglashga intilishi nazarda tutiladi.

Pedagogik muloqot esa ana shu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladi. "Pedagogik muloqotda ta'lim psixologiyasi, tarbiyaning psixologik asoslari, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, o'qituvchi psixologiyasi, maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish muhim o'rinni egallaydi"[37].

A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" o'quv qo'llanmasining "O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi" deb nomlangan 6-bobida pedagogik muloqotda muomala madaniyati masalasini tahlil qilgan. Muallifning ta'kidlashicha, o'quvchining intellektual rivojlanishida o'qituvchining muloqot madaniyati va muomalasi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi ma'naviy muhitining shakllanishi o'qituvchining yuksak axloq namunasi orqali namoyon bo'ladi. Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, muallif buning aksi – o'qituvchi sub'yekti bilan, o'quvchi ob'yekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir etishi mumkinligini

---

[37] Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Turon-Iqbol" nashriyoti, 2006. – 6 b.

ham aytadi. O‘qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chehrali bo‘lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir, deydi u. O‘qituvchining muloqot madaniyati bunda o‘qituvchi mahoratining uchta jihatiga alohida e’tibor qaratiladi: hayotiy tajribasi; pedagogik faoliyat jarayonida egallagan ko‘nikma va malakasi; muayyan o‘quvchilar jamoasi bilan muomalada bo‘lish tajribasi[38].

S.Xo‘janazarova va M.Oripovalar esa “O‘qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari” nomli maqolasida masalaga ilmiy-metodik jihatdan yondashib, o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olishligini ko‘rsatadi:

1. O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xusysiyatlarini o‘rganishi o‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish o‘qituvchilarning muloqotni to‘g‘ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.

2. Shaxsiy muloqotda ro‘y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: muloqotda qo‘pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.

3. O‘qituvchilar o‘zlari uchun muloqot madaniyatining qulay bo‘lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni olib borish va o‘z-o‘zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarini taqqoslash.

4. O‘zining muloqot madaniyati uslublariga mos keluvchi milliy an’ana va ma’naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

---

[38] Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2010, – Б. 82 – 85.

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash[39].

Darhaqiqat, ustoz-shogird tizimining mukammal ishlashida o'qituvchi xarakteridagi bir qator ijobiy sifatlar, jumladan, o'z o'quvchi-talabasi bilan bo'ladigan muloqot madaniyatining ahamiyati sezilarli darajada ekanligini kuzatamiz.

Xuddi boshqa kasblarda bo'lgani kabi o'qituvchi kasb axloqining ham zamonaviy ta'lim sifatini tubdan yaxshilash talablaridan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlari bor, albatta. Birinchi navbatda, u talaba-yoshlarni jamiyat taraqqiyotiga bog'liq bo'lgan eng kerakli bilimlar bilan qurollantirmog'i va bu bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatmog'i zarur. Buning uchun o'qituvchining o'zi o'qitayotgan fan yo'nalishida zamonaviy bilimlarga ega bo'lmog'i, ulardan o'qish-o'qitish jarayonida eng ma'qul ta'lim metodlarini qo'llagan holda foydalanmog'i lozim bo'ladi.

O'qituvchi uchun bundan-da murakkab bo'lgan ikkinchi masala bor. Bu – uning umuminsoniy odob-axloqda o'z talaba-o'quvchilariga namuna bo'lish masalasidir. Nutqiy muloqot madaniyati ham ana shu namunaviylik tarkibida qaraladi. Hozirgi sharoitda xalqimizning til madaniyatiga e'tibor qilishlari, mahalliychilik, shevachilik illatlaridan voz kechib, imlo va talaffuzda o'zbek adabiy tili me'yorlariga rioya qilgan holda ish yuritishlari ham ko'p jihatdan pedagog-murabbiylarning namunaviy faoliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shu ma'noda qaysi fan o'qituvchisi bo'lishidan qat'i nazar uning chuqur bilim berishi muomala madaniyatiga ham bog'liq ekanligini his qilgan holda ish olib borishi zarur. Shundagina u talaba-yoshlarni orqasidan ergashtira olishi va ilm-fanga havas uyg'ota oladi.

---

[39] https://cyberleninka.ru/article/n/ituvchilarda-muloqot-madaniyatini-shakllantirishda-zamonaviy-tehnologiyalardan-foydalanishning-pedagogik-asoslari.

Zero, o'qituvchilarning jamiyatimizda tutgan o'rni yosh avlodga bilim berish barobarida ularda Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash, mehnatsevarlik, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, mehr-oqibat tuyg'usini shakllantirish bilan belgilanadi. Bunga esa oliyjanob axloqiy fazilatlar hamda yuksak muomala va nutqiy madaniyat bilan erishish mumkin bo'ladi.

Insoniyatning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklari hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va usullari majmui sanaladigan madaniyat odamzod turmush tarzining mazmunini belgilab beradi.

Binobarin, har bir xalq va millatning, hatto alohida olingan bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni uning madaniy saviyasiga bog'liq. Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi sanaladi. Faqat insongagina xos bo'lgan odamgarchilik fazilati ham, piravord natijada madaniyat mahsulidir. Shuning uchun jamiyatdan tashqaridagi madaniyatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ilg'or jamiyat va davlat bo'lishning muhim omili ham madaniyat omilidir. Bu – ishlab chiqarish madaniyati, boshqarish madaniyati, rejalashtirish madaniyati, turmush madaniyati, xizmat ko'rsatish madaniyati, ekologiya madaniyati, bola tarbiyasi madaniyati va hokazo.

Ana shu umuminsoniy madaniyatlar tizimida insonning ma'naviy qiyofasini yaqqol ko'rsatib turadigan muomala madaniyati ham bor. Necha ming yillar davomida shakllangan va sayqal topgan bu madaniyat avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho qadriyatdir.

Muomala madaniyatida ta'lim-tarbiya jarayonining o'rni hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Yuksak ong mahsuli sanaladigan ta'lim-tarbiya ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omil ekan, uning muomala

madaniyati takomilidagi xizmatlarini ham inkor etish mumkin emas.

Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko'rishi zarur.

O'qituvchining faoliyati faqat ta'lim berish bilangina chegaralanib qolmaydi. Ayni paytda, u tarbiya jarayonining ham faol ishtirokichisi hisoblanadi. Keyingi paytlarda mamlakatimizda ta'limning barcha bo'g'inlarida o'qish-o'qitish va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid qarashlarning ko'payib ketgani, yagona bir tizim holiga keltirilmagani bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgani kabi ustoz-shogird munosabatlarini ham murakkablashtiradi va ko'p masalalar o'qituvchining bilim va iste'dodi, mas'uliyat va kommunikativ mahoratiga bog'liq bo'lib qoladi. Har qanday muloqotning axborot uzatish jarayoni ekanini inobatga olsak, bunda o'qituvchining muomala madaniyati birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonni til omilisiz tasavvur qilish mutlaqo mumkin emas. Chunki til va nutq madaniyati ham umuminsoniy va milliy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Til madaniyati tushunchasi til tizimining madaniylik darajasini, ya'ni uning qanchalik ishlanganligi, me'yorlashganligini ko'rsatsa, talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalarini o'z ichiga olgan nutq madaniyati og'zaki yoki yozma adabiy til me'yorlarini puxta egallashni, shuningdek, muloqot jarayonida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanishni ko'zda tutadi.

2019-yilning 21-oktabr kuni bo'lib o'tgan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan

tantanali marosimda so'zlagan nutqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak". Shunday ekan, pedagogik mahorat doirasida nutq va til madaniyatini puxta egallash boshqa kasb egalaridan ko'ra o'qituvchi-murabbiylarga ko'proq zarur bo'ladi.

M.Hamdamova "Pedagogning kasbiy rivojlanish pog'onalari. O'qituvchining pedagogik mahorati va kompetentligi" maqolasida pedagogik mahorat tushunchasiga izoh bergan va uning tarkibiy qismlari haqida mulohaza yuritgan. "Agar ilgari pedagogik mahorat bilim, ko'nikma va malakadan iborat ikki komponentli tuzilma deb qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda u kamida to'rtta komponentni, ya'ni bilimlar tizimi, maxsus qobiliyat, pedagogik texnika va shaxsning insonparvarlik yo'nalishini o'z ichiga olgan", – deydi muallif. Pedagogik mahorat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: pedagogik texnika, pedagogik muomala, pedagogik ijod, pedagogik qobiliyat, pedagogik madaniyat, pedagogik takt kabi[40].

Darhaqiqat, pedagogning kasbiy mahorati oldiga qo'yiladigan talablar ijtimoiy hayotdagi boshqa kasb egalari mahorati talablaridan tubdan farq qiladi.

Bu yerda o'z kasbini sevish va puxta bilim egasi bo'lishdan tashqari samimiyat va mehribonlik, fidoyilik va jonkuyarlik, ijodkorlik va yangilikka intiluvchanlik kabi umuminsoniy omillar yetakchilik qiladi. Pedagogik mahorat aynan ana shu fazilatlarning o'qituvchi-murabbiyda bo'lishligini ko'zda tutadi.

[40] https://videouroki.net/blog.

Bundan tashqari, pedagogika ilmida texnologik madaniyat tushunchasi ham bor. Bunda har bir pedagogning o'z ish usuli, muomala madaniyati, xullas, kasbiy-pedagogik faoliyatining mazmunini ochib beradigan ko'nikmalari anglashiladi va u, ayni paytda, layoqatlilik darajasini belgilaydigan muhim omil sanaladi.

Tan olishimiz kerak, muloqot madaniyati bizga ajdodlardan milliy qadriyat sifatida meros bo'lgan va har kim uni imkoniyat va ehtiyoj darajasida o'zlashtirib kelinayotgan, shu paytgacha ta'lim tizimida maxsus o'qitilgan emas edi. Endi esa uni tizim holatiga keltirib o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Natijada muloqot madaniyati sirlarini tadqiq etish va uni ommalashtirish pedagogik-didaktik va filologik ta'lim dasturlaridan o'rin egallamoqda.

Notiqlik san'ati ham pedagog-murabbiylar egallashi zarur bo'lgan sa'natdir. Chunki kasb mas'uliyati muttasil talaba-yoshlar bilan, xalq ommasi bilan muloqotda bo'lishni taqozo qiladi. O'qituvchi va murabbiylarning turli majlislarda va mitinglarda, yubiley tantanalari, to'y va marosimlarda, xullas xalq hayotiga tegishli barcha tadbirlarda ishtirok etishiga to'g'ri keladi.

Oldimizda esa yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa turibdi. Aslida nutq madaniyatini egallash degan gap – yuksak milliy madaniyatga ega bo'lish degan gap. Millatni, elni, xalqni qadrlagan kishigina uning madaniyatini qadrlaydi va oqibatda o'zi ham e'zoz topadi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchining eng yaxshi fazilatlari va xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari, uning xatti-harakati, pedagogik mahorati uning ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni mukammal tashkil etish ham ijobiy natijalar bermaydi. O'qituvchi sub'yekti bilan, o'quvchi ob'yekti o'rtasidagi qattiq avtoritar intizom ham o'zaro muloqot madaniyatiga salbiy ta'sir

etadi, natijada o'quvchining ichki hissiyoti hamda shaxsiy fazilatlari rivojlanmaydi.

Pedagogik muloqot madaniyati o'qituvchi faoliyatini muvaffaqiyatga yo'naltiruvchi eng muhim vosita, bunda o'qituvchining muhim fazilati, uning muloqot madaniyatiga asoslangan muomalasidir. Muomala barcha falsafiy va psixologik fanlarda o'ziga xos ta'rifga ega. Pedagogikaning kategoriyasi sifatida muomala o'quvchilar qalbiga yo'l topa olish, ularga yondashish uchun mehrini qozonish, pedagogik nuqtayi nazardan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan o'zaro aloqa bog'lashga qaratilgan o'qituvchining pedagogik qobiliyatidir.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muomalaga kirishish asosida:

1. O'z ijodkorligini va pedagogik mahoratini namoyish qiladi.

2. Yosh avlodni milliy mafkuramiz va milliy madaniyatimiz ruhida tarbiyalaydi.

3. Sharqona udum va urf-odatlarimiz asosida barkamol shaxsni shakllantiradi.

4. O'zining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarini namoyish etgan holda, har bir o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Muomala o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zida ulkan pedagogik imkoniyatlarni mujassamlashtiradi. Pedagogik muomalada o'qituvchi quyidagi faoliyatga qat'iy amal qilishi lozim:

- o'qituvchida tarbiyalash mahoratining shakllanganligi. Uning tarbiyaviy jarayonga oid so'z va ohangni tanlay bilishi va ta'sir o'tkaza olishi;

- muomala ob'yekti bo'lmish o'quvchilar diqqatini jalb qiluvchi nutq, pauza, harakat, imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlatishi, tarbiyaviy ta'simi bilishi;

- o'quvchilarning ichki ruhiyatini, psixologik xususiyatlarini bilgan holda muomalaga jalb etishi, darsni boshlashdan oldin o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaviy muloqotga tayyorlashi;

- o‘quvchilarga og‘zaki, o‘zaro ta’sir ko‘rsatishning tarbiyaviy usullarini bilishi. O‘qituvchining nutqi ravon, o‘quvchilar ongiga ijobiy ta’sir qiladigan bo‘lishi.

Nihoyat, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan kundalik muomalasi shunga olib keladiki, u o‘quvchilarning xatti-harakatlaridagi chuqur ma’no va haqiqiy sabablarni turli vaziyatlarda payqab oladi, buning uchun namuna sifatida uning o‘zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o‘quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiravchi hamda o‘rnini to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi. Muomala o‘zaro munosabatlar doirasida sodir bo‘ladi. Boshqarish vositasi bo‘lgan muomala pedagogik faoliyatdan oldin sodir bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqot madaniyatiga erishishi natijasida quyidagi holatlar paydo bo‘ladi:

- pedagogik muloqot orqali o‘qituvchi tarbiyalanuvchi ob’yekt bilan o‘ziga xos muomala muhitini yaratadi. Bunday muhitda o‘qituvchi o‘zining psixologik, mimik, pantomimik, notiqlik san’ati, ta’sir o‘tkazish kabi qobiliyatlar tizimini namoyish etadi;

- o‘qituvchining shirinsuxanligi, ochiq chexrali bo‘lishi, samimiy muomalasi muloqotda ijobiy natijalarga erishish kalitidir;

- o‘quvchilar jamoasi bilan muomalada o‘qituvchining doimo psixologik bilimlarga tayanishi ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda bir xil muvozanatni saqlaydi;

- o‘qituvchi o‘quvchilar jamoasi bilan o‘zaro muloqotga kirishar ekan, yaxshi muomalasi bilan ular hissiyotida yashiringan eng nozik qatlamlarni ham anglab olishga qodir bo‘ladi.

Mukammal shakllangan pedagogik muloqot madaniyati asosida ob’yekt va sub’yektning ichki hissiyoti bilan ular

harakatlarining uyg'unlashuvi sodir bo'ladi. Ushbu o'zaro uyg'unlashuvni yuzaga keltiradigan muomalaning asosiy bog'lovchisi so'zdir. So'z – mazmunan o'qituvchining nutqida, ma'ruzasida, dialog, monolog va deklaratsiyalarida o'z ifodasini topadi.

Sharqona tarbiya va muosharat odobining muloqotga ta'siri Ajdodlarimizning madaniy va ma'naviy merosi, ular yaratgan so'z, xalq tilining tuganmas boyligi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Hisrav Dehlaviy, Abu Hamid G'azzoliy, Kaykovus, Shayx Sa'diy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa Sharq va G'arb donishmandlarining boy me'roslarida farzandlarni tarbiyalash va kamolotga yetkazish asosiy muammo sifatida targ'ib qilingan. Ular so'zni va nutqni ta'lim-tarbiyada ilohiy ne'mat va hikmat deb bilishgan hamda har bir so'zning o'z o'rni va ahamiyati borligini, tarbiyada so'zdan kuchliroq va qudratliroq narsa yo'qligini, tilga e'tibor-elga e'tibor ekanligini, so'z sehri mo'jizalar yarata olishini ta'kidlab kelganlar. Bularning barchasi mudarris va shogirdlaming samimiy muloqoti jarayonida amalga oshirilgan. Mudarrislar barkamol va tarbiyalangan insonning o'nta nishonasi borligini alohida ta'kidlashgan:

- birinchisi: xalq to'g'ri deb topgan narsaga noto'g'ri deb qaramaslik;
- ikkinchisi: yoshlikdan o'z nafsiga erk bermaslik;
- uchinchisi: birovlardan aslo ayb qidirmaslik;
- to'rtinchisi: yomonlik va omadsizlikni yaxshilikka yo'yish;
- beshinchisi: agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish va kechirimli bo'lish;
- oltinchisi: muhojirlar hojatini chiqarish;
- ettinchisi: doimo el g'amini eyish;
- sakkizinchisi: aybini tan olish;

- to‘qqizinchisi: el bilan ochiq chehrali bo‘lish;

- o‘ninchisi: odamlar bilan doimo shirin muomalada bo‘lish.

Muloqot sharqona tarbiyada axloq ko‘rki sanalgan. Muallim har bir o‘quvchining qanday dunyoqarashga egaligi, tafakkuri, bilim saviyasi, hayotga nisbatan munosabati odamlar bilan o‘zaro muloqotida namoyon bo‘lishini uqtirishgan. Sharq mutafakkirlari merosida muloqot – azaldan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi bo‘lgan. Muloqotning asosiy quroli til hisoblangan. Shuning uchun ham til – aloqa quroli sifatida ta’riflanadi.

Alisher Navoiy “Voiz olimning o‘zi avvalo halol ish ko‘ruvchi bo‘lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni” o‘z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san’ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o‘qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas’uliyati xisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida nutqning ta’sir kuchi nihoyatda beqiyosdir. O‘qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o‘quvchilarning o‘zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ulkan ta’sir etuvchi kuchli vositalardir. O‘qituvchining “til boyligi va notiqlik san’ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan” (A.P.Chexov). Uning his tuyg‘usi, intilishlari, iroda va e’tiqodi nutqida aks etadi. O‘qituvchi til boyligi bilan o‘quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g‘azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg‘otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o‘qituvchi “tilning xalq o‘tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita” (K.D.Ushinskiy) ekanligini unutmasligi kerak.

Kishilarning bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarida shirin-suxanlik, go‘zallik, so‘zlashuv ohangidagi muloyimlik muosharat odobi deyiladi. Muosharat odobi insonning go‘dakligida ota-ona bag‘rida, oilada shakllantirilishi kerak.

"Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola maktabda, ulg'aygach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi.

Insonning eng ulug', lekin murakkab va mashaqqatli faoliyatlaridan biri odamlar orasida, ya'ni jamiyatda o'z o'rnini topib yashashidir. Bu faoliyatning murakkabligi shundaki, ko'pchilikka qo'shilish, ular bilan ahil bo'lib yashash uchun insonda shunga yarasha muomala va munosabat bo'lishi kerak. Muomala va munosabatda o'quvchilarning diliga to'g'ri kelmaydigan qo'pol va dilozor muloqot olib boruvchi o'qituvchilarni hech kim yoqtirmaydi. O'quvchilar xushfe'l, shirinsuxan, adolatparvar, muomalasi shirin o'qituvchi va tarbiyachilarni dildan yoqtirishadilar va hurmat-e'tibor qilishadi. Insonlar orasida munosib o'rinini topish, inoq va hamjihat bo'lib yashash shartlaridan biri odamning kamtarligidir. Kamtarin inson hech qachon o'zining yutug'i bilan, badavlatligi bilan, ilm-hunari bilan maqtanmaydi, hamma vaqt kamgap, sodda bo'ladi. Ammo insondagi kamtarlik samimiy bo'lmog'i zarur.

Muloqot madaniyati hamma joyda kerak. Ish joyida, transportda, uyda biz kim bilan qanday muomala qilishni bilishimiz zarur. O'qituvchining qanchalik bilimli, aql-zakovatli ekanligi o'quvchilarning bir-birlari bilan va ota-onalari bilan olib boradigan muloqoti orqali namoyon bo'ladi.

Odamlar butun ichki dunyosini, maqsadini, muomala va munosabatlarini bir-birlariga so'z yordamida yetkazadilar, amalga oshiradilar. Shu tufayli so'zlashuv munosabatlari nihoyatda go'zal va muloyim bo'lishini hayot taqozo etadi. So'zga boy, shirinsuxan kishilarning muomalalari yoqimli, ishi ham yurishgan bo'ladi. Bunday kishilarni yoqtiradilar, hurmat qiladilar. So'zlashuv ham o'ziga xos san'atdir. Bu san'atning ildizi muosharat odobi bo'lib, uni mukammal o'rganish har bir inson uchun zarur. Shu bilan birga, ona tilini mukammal

o‘rganmoq va sof adabiy tilda o‘quvchilar bilan muloqot qilish o‘qituvchining notiqlik qobiliyatidir.

Inson o‘z qadr-qimmatini va o‘zligini umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya jarayonida anglay boshlaydi. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi tomonidan o‘zaro muloqot asosida olib boriladigan quyidagi xususiyatlar negizida o‘quvchilarda muloqot orqali ma’naviy madaniyatni shakllantirish mezonlari (O.Musurmonova) ifodalangan:

- har bir insonning qiziqishlarini ko‘ra bilish, his etish va hurmat qilish;
- milliy-ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, o‘zligini anglashga ehtiyoj;
- inson hayotida mehnatning o‘rnini to‘g‘ri tushunish;
- insonparvarlik, mehr-oqibat, iymon, e’tiqod, milliy qadriyatlarni e’zozlash;
- Vatanga muhabbat, sadoqat, o‘z manfaatlarini jamiyat, xalq man-faatlaridan yuqori qo‘ymaslik;
- ota-ona, qarindoshlar va boshqa atrof-muhitidagi kishilarga nisbatan muruvatli, sahovatli bo‘lish.

Ma’naviy madaniyatning muhim belgilarini shakllantirishda, ta’lim-tarbiya tizimini ma’naviy muhit, ma’naviy faoliyat va ma’naviy anglash bosqichlaridan iborat andozalar asosida tashkil etishda ushbu mezonlar talablariga rioya qilish belgilangan maqsadni samarali amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda o‘qituvchining muloqoti asosida o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi quyidagi omillar ham muhim ahamiyatga ega:

1. O‘quvchi ma’naviy faoliyat asosida o‘zligini anglashni shakllantirish uchun ma’lum bir muhitda ma’naviy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit va faoliyat bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun o‘quvchilar ma’naviy madaniyatini shakllantirish samaradorligini ma’naviy harakat omili ta’minlaydi.

2. Ma'naviy qadriyatlarning mohiyati, ma'naviy-axloqiy tajriba, o'qituvchining ta'sirchan nutqiy muloqoti vositasida o'quvchilar ongiga singdiriladi. Nutqiy aloqalar tarbiya jarayoni ob'yektlari va sub'yektlari orasida kechadi va o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchining xulq namunasi, ma'naviy harakati, nutqiy aloqalar samaradorligi o'qituvchi va o'quvchining muloqoti asosidagi faoliyat munosabatlari bilan belgilanadi.

3. Ma'naviy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatidan ta'sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishini ta'minlab, o'quvchi ma'naviy madaniyatini tarbiyalashdagi ahamiyatini yanada takomillashtirish ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan (o'qituvchi va o'quvchi) doimiy ijodkorlikni talab qiladi. Ijodkorlik – milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida uning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi.

4. O'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muvaffaqiyati o'qituvchining muloqot olib borish psixologik taktikasi omillariga ham bog'liq. Ushbu omilni harakatlantiruvchi sharoitlar:

- o'qituvchining pedagogik-psixologik va maxsus fanlar integratsiyasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi;
- mutaxassisligi bo'yicha kasbiy mahorati;
- o'quvchilar bilan o'zaro do'stona muloqot madaniyati;
- o'quvchilarning ruhiy holatini tez bilib olishi;
- o'qituvchi ma'naviy madaniyatining shakllanganlik darajasi;
- ta'lim-tarbiyaning zamonaviy usul va metodlarini tanlay bilishi:
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari to'g'risida chuqur ma'lumotlarga ega bo'lishi;

milliy qadriyatlar bo'yicha o'z bilim va ko'nikmalarini oshirish ishtiyoqi rivojlanadi.

To'rtinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o'z kasbiga, faniga munosabati, olib boradigan darsi andozasini va uning natijasini oldindan ko'ra bilish, har bir dars samaradorligini ta'minlovchi texnik va texnologik belgilardan biridir.

Beshinchidan, dars jarayonida o'quvchilar jamoasiga erkin fikr yuritish, o'z fikr-mulohazasini erkin bayon etishga imkoniyat yaratish, o'quvchilar jamoasi fikriga tayanish, ularning fikr-mulohazalari, istak-xohishlarini e'tiborga olish, o'quvchilarning mustaqil ishlaridan keng foydalanish zarur.

Oltinchidan, o'quvchilar bilimiga, xulqiga beriladigan bahoning xolisona va adolatli bo'lishi barcha ta'lim va tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etilishiga ijobiy ta'sir etuvchi omil ekanligini unutmaslik kerak.

Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. Muloqot – yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zaro fikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o'z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi.

Psixologiya fanida muomala kategoriyasi keng ma'noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot o'qituvchi va o'quvchilar jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim va tarbiyaviy

ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

• muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;

• muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;

• o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi;

• pedagogikada muloqot – o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

• muloqot – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;

• noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

• salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

• o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;

• o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;

• o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;

• dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

O‘qituvchining pedagogik muloqoti ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, quyidagi funksiyalar bilan xarakterlanadi:

Pedagogik muloqot funksiyalari:

- o‘zaro axborot almashishni yo‘lga qo‘yish;
- ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni birgalikda tashkil etish;
- o‘quvchilarni erkin fikr-mulohaza yuritishga o‘rgatish;
- salbiy xolatlarni sinf jamoasi bilan birgalikda bartaraf;
- do‘stlar uchun qayg‘urish va ularga yordam berishga erishish;
- o‘zligini anglash. O‘quvchilar bilan muloqotda qoniqish xis etish.

Muloqot jarayonida o‘qituvchi qisqa muddatda o‘zining psixologik bilimlariga tayanib o‘quvchilarning psixik xususiyatlarini mukammal bilishga harakat qilishi lozim. O‘quvchilarning ichki dunyosiga, ruhiy holatiga kirib bormasdan, unga nisbatan turli tarbiyaviy jazolar qo‘llash, tanbeh berish mumkin emas. Bu holat o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotni tuzatib bo‘lmas darajada buzilishiga, o‘quvchilarning yashirin holatga, o‘z qobig‘iga kirib olishiga sabab bo‘ladi.

O‘qituvchilarning o‘zaro axborot almashishi bilan bog‘liq xususiyatlari, uning sinf jamoasiga singib keta olish qobiliyati bilan bog‘liq. Sinf jamoasida ro‘y berayotgan har qanday voqea va hodisalar o‘qituvchilar nazoratida bo‘lishi, ularning oqibatini o‘qituvchilar tez va adolatli tahlil qilishi va oldini olishi lozim. Bu faqat faol o‘quvchilar bilan axborot almashib turish natijasida amalga oshiriladi. Shundagina, o‘qituvchining o‘quv tarbiyaviy jarayondagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi va ijobiy natijalar beradi.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o‘qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotiga ko‘plab tavsiflarni ilmiy asarlarida

bayon etsalarda, muloqot, avvalo, o‘qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo‘ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o‘qituvchiga yo‘nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o‘qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Prognostik bosqich (modellashtirish): O‘qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo‘lajak muloqotni modellashtirish.

2. Kommunikativ aloqa: O‘quvchi bilan dastlabki o‘zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.

3. Pedagogik jarayon: O‘qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

4. Natijalar tahlili: Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo‘nalishlarini quyidagicha ta’riflash mumkin!

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlarini o‘rganishi, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko‘ra olish va bartaraf etish, muloqotning o‘zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya’ni muloqot o‘qituvchi shaxsiga emas, balki o‘quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta’minlash zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Kommunikativ qobiliyat qanday qobiliyat?
2. Kommunikativ qobiliyatni shakllantiruvchi asosiy yonalishlarni belgilang?
3. Qobiliyat nima?
4. Kommunikativ tushunchasining mohiyatini qaysilar?

5. Nutqning vazifalarini aniqlang!

6. Nutqning tezligi nimaga qarab ozgaradi?

7. Ovoz hajmi, tonlarining eng past va eng yuqori chegaralari bu ...

Nazorat uchun testlar:

1. Qobiliyat nima?

A) Qobiliyat – shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'yektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatdir;

B) Qobiliyat – o'qituvchi o'z ishini rejalashtira olish demakdir;

C) Qobiliyat – odamlarning psixik holatini tushunish;

D) Qobiliyat – faoliyat jarayonida paydo boladi.

2. Kommunikativ qobiliyat qanday qobiliyat?

A) Boshqalarning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdardlik munosabatida bo'lish qobiliyatidir;

B) O'qituvchining o'z ishini rejalashtira olish demakdir;

C) Boshqa odamlar bilan boladigan va birgalikdagi faoliyatda psixologik kirishuvchanlikni taminlaydigan qobiliyatdir;

D) Ta'lim bera olish qobiliyatidir.

3. Kommunikativ qobiliyatni shakllantiruvchi asosiy yo'nalishlarni belgilang?

A) Ishontirish, tasir etish, taqlid qilish;

B) Mimika va pantomimika;

C) O'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish;

D) Nutq madaniyatiga doir bilimlar.

4. Kommunikativ qobiliyatning tarifi to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

A) kishilarni o‘ziga ishontira olish, muloqotga tez kirisha olish, ochiqlik ya’ni muloqot ehtiyoji;

B) kasbiy xushyorlik, emotsiya, pedagogik intuitsiya;

C) harakatchan tashabbuskor bo‘lish;

D) o‘zini-o‘zi boshqara olish.

5. Kommunikativ munosabatda ishontirishning quyidagi faoliyat shakllari mavjud:

A) Bahs, munozara, suhbatda o‘qituvchining dalillashi, isbot va mantiqqa tayanishi;

B) Ovozning ozgarashi, talaffuz, nutq ohangi;

C) Nutq madaniyati, munosabatga kirishish madaniyati, o‘z-o‘zini boshqarish munosabati;

D) Mavzu bo‘yicha topshiriq berish, uni mashq qilish, rag‘batlantirish.

6. Kommunikativ tasir etishning quyidagi shakllari mavjud:

A) O‘qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishish madaniyati, nutq madaniyati;

B) Oldindan ogohlantirish, tezlik bilan tasir etish;

C) Tahlil etilgan iboralar, andozaga kiritilgan nutqlar;

D) O‘z kasbiga bolgan salbiy munosabat, chiqisha olmaslik, tadbirni tanlash, rejasini tuzish, tahlil qilish, guruhlarga bo‘linish.

7. Kommunikativ tushunchasining mohiyatini belgilang?

A) Diagnostik, talabalarda bilim olish ishtiyoqini ostirish, shaxsiy hislatlarini shakllantirish va rivojlantirish funksiyalari;

B) Tahsil, tarbiyaviy, aqliy faoliyatni nazorat qilish;

C) Ananaviy va noananaviy nazorat qilish;

D) Tarbiyaviy aloqa ornatish.

8. Quyidagi pedagogik nazokatga oid fikrga o‘z munosabatingizni bildiring?

A) Pedagogik nazokat – o‘qituvchining sabr-toqati, sezgirligi, ozini tuta bilishi, vijdon, oriyat kabi xususiyatlami o‘zida mujassamlashtirishi, halolligi, rostgoyligi, axloqiy pokligi, kamtarligi;

B) Pedagogik nazokat – dostlik, xizmatdagi moslik, chiqishib, hamjihat bolish, mayinlik;

C) Pedagogik nazokat – tadbirni tanlash, uning rejasini tuzish, otkazish va tahlil qilish;

D) Pedagogik nazokat – nafas olish, ovozni o‘zgaruvchanligi, talaffuz, ravon nutq.

9. Nutqning vazifalarini aniqlang.

A) nutq vositasida bolaning his-tuygulari, o‘quvchilar orasida muloqot o‘rganish, olingan ma’lumotlarni ongli tahliliy idrok etish;

B) lug‘aviy, grammatik, leksik, jihatdan to‘g‘riligi va boyligi;

C) nutqning ifodaliligi, obrazliligi, yorqinligi, his tuyg‘ularga boyligi;

D) o‘qituvchining nutqida, xatti-harakatida, o‘quvchilar shaxsiga nisbatan hurmat.

10. Nutqning tezligi nimaga qarab o‘zgaradi?

A) O‘qituvchining individual xususiyatlariga, nutq mazmuniga va muloqot vaziyatiga qarab;

B) Ma’ruzaning muhim bo‘lishiga qarab;

C) O‘quvchilar o‘qituvchining nutqini yaxshi idrok etishiga qarab;

D) Nutqdagi organning kamchiliklaming ko‘rinishiga qarab.

11. Ovoz hajmi, tonlarining eng past va eng yuqori chegaralari bu ...

A) diapazon;

B) tembr;

C) rezanator;
D) tovushning yuqoriligi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. – 1914-yil 23-may. – № 12.

2. G'ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. – 1919-yil 25-iyun. – № 129.

3. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. – 1917-yil 6-sentabr. – № 2.

4. G'ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. – 1923-yil 6-fevral. – № 57.

5. G'ozi Yunus. Maslak va maqsad // Ishchilar dunyosi. – 1918-yil 4-yanvar. – № 1.

6. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

7. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

8. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

9. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

18-mavzu: Pedagogik takt va pedagogik etika. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi.

Reja:

1. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha, takt va taktika hamda pedagogik takni qo'llash shartlari.
2. Pedagogik odob va pedagogning muomala odobi.
3. Pedagogik texnika haqida tushuncha va pedagogik texnikaning tarkibiy qismilari.
4. Mimika, pantomimika. O'qituvchining pedagogik teknikasini shakllantirish yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: Takt, pedagogik takt, takt va taktika, pedagogik odob, muomala odobi, pedagog muomalasi, pedagogik texnika, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi, mimika, pantomimika.

Takt va pedagogik takt haqida tushuncha, takt va taktika hamda pedagogik takni qo'llash shartlari. Takt axloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lim oluvchilar oldida o'zini tutishni bilishi, ta'lim oluvchining holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil

qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. Shunday ekan, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota-onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik taktga zid bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish o'quvchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bunday qarama-qarshiliklar, ko'pincha, dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladi. Bunda ayniqsa yosh o'qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

O'qituvchining taktik mahorati birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda o'quvchilar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo'lmish pedagogik taktga ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

Shunday qilib, pedagogik takt bu o'qituvchining ta'lim oluvchilarga nisbatan amalga oshiradigan ta'sirining mezonidir.

Pedagogik taktni qo'llash shartlari:

Taktika tanlash turli vaziyatlarda xilma-xil rollarni bajarish bilan bog'liq. Bu haqida ma'lumotni psixoterapevt A.B.Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to'rtta pozitsiya bo'lib, ular quyidagicha: "yuqoridan pastga", "pastdan yuqoriga", "yonma-yon" va "aralashmaslik" pozitsiyasi.

"Yuqoridan pastga" pozitsiyasida o'qituvchi mustaqil hal etishni namoyish etadi, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu pozitsiya "ota-ona" pozitsiyasi.

"Pastdan yuqoriga" pozitsiyasi tobelik, shaxsning o'ziga ishonmasligi. A.B.Dobrovich so'zi bilan aytganda, bu "ta'lim oluvchi" pozitsiyasi.

"Yonma-yon" pozitsiyasida farosatlilik va vazminlik, vaziyatga qarab ish tutish, boshqalarning ham manfaatini o'ylash, o'zi va ular o'rtasida mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash ifoda etiladi. Bu "katta odam" pozitsiyasi.

"Aralashmaslik" pozitsiyasi – aralashmaslik, faollikni namoyon etmaslik. Har bir pozitsiyaning qo'llanishi vaziyat talabiga mos tanlanadi. Muloqot ikki tomonlama jarayon bo'lganligi uchun o'qituvchi ta'lim oluvchi rolini ham inobatga olishi shart. O'qituvchining odatiy pozitsiyasi bu hamkorlikda ish olib borayotgan "katta odam", ya'ni ishga aloqador darajani talab qiluvchi pozitsiyadir. Bu pozitsiya ta'lim oluvchida teng huquqli sheriklikni shakllantiradi, o'zaro ishonch muhitini yaratadi. Bunda quyidagi jumlalarni qo'llash mumkin: "Sizlar bilan maslahatlashmoqchi edim", "Kelinglar, o'ylab ko'raylik" va hokazo. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashi-ning hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining

mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy ta’lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo‘nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi – jamiyatning o‘qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – o‘qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

O‘qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo‘lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o‘qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe’l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta’sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma’lum axloqiy talablar qo‘yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o‘z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O‘qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirib olishi, tajribada qo‘llashi, o‘zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko‘rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o‘qituvchining o‘z axloqiy fazilatiga, e’tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo‘shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o‘rni va rolini belgilaydi.

O‘qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e’tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e’tiqod va sifatlar o‘qituvchining dars berish

jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmati, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularning chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muomala odobi o'z tabiati, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo'ladi. Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma'naviy, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o'rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o'ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega. Bu xususiyat va mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi o'rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bog'lanishlarga asoslanadi.

Muomala odobi bevosita baho beruvchanlik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy prinsiplar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlarga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalariga muamolasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat, davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi. Pedagogik jarayonda muomila odobi o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilik faoliyatida qo'yiladigan axloqiy talablar, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-an'anaviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalariga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida, unda qatnashayotgan kishilaning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalari, usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Muomala odobining tuzilishi juda murakkabdir. U pedagogik faoliyatda sub'yekt-ob'yekt munosabatlari shaklida ifaodalanadi. Sub'yekt-ob'yekt munosabatlari muallim o'zining professional burchini bajarayotganida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, jamoat tashkilotlarining vakillari bilan o'qituvchi o'rtasidagi aloqalarda vujudga keladi. U o'zaro hurmat darajasi, ishonch, talabchanlik, xayrixohlik tashabbuskorlik, o'zaro g'amxo'rlik, har birlarining inson sifatida qadr-qimmatini e'zozlash kabilarda namoyon bo'ladi. Ular o'qituvchining

pedagogik faoliyatida boshqalar bilan muamalasining xarakterini baholashda xizmat qiladi. O'zaro ta'sirlar o'quv ishida, turmushda, dam olish paytlarida, oiladagi muomala-munosabatlarining xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud. Masalan, o'quv ishlari sohasida, jamoat topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar, bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish paytlardagi muomala, shuningdek, o'qituvchining Vatanga, xalqqa bo'lgan munosabati o'ziga, xos xususiyatlarga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, agar o'qituvchining bu muomala munosabati o'z professional vazifasini burchini bajarish jarayonida sodir bo'lsa, jamiyat o'qituvchining pedagoglik kasbining ijtimoiy mavqeini, unga ma'lum bir huquq va vakolatlar berilganligini nazarda tutadi.

Pedagogik etikada muomola odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi – bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning sub'yekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi-figurasi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari

o‘qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob’yekti hisoblanadi. Ular bilan bo‘ladigan aloqalar yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo‘ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo‘lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o‘zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Pedagogik muomala-munosabatlarda hissiyot aralashgani uchun ularning axloqiy va ruhiy jihatlarini bir-biridan ajratish qiyin bo‘ladi. Shuning uchun ham bunday hodisalar haqida gapirganda, odatda, pedagogik jamoadagi axloqiy-ruhiy vaziyat tushunchasi ishlatiladi.

Demak, o‘qituvchining muomala odobi-u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o‘z professional vazifasini bajarayotganda sodir bo‘ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondashuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi muomala; o‘qituvchi bilan pedagogik jamoa o‘rtasidagi muomala; o‘qituvchi bilan ota-onalar o‘rtasidagi muomala; o‘qituvchi bilan maktab rahbarlari o‘rtasidagi muomala.

Muomala odobida o‘qituvchining axloqiy ongi, axloqiy faoliyatining yetuklik darajasi, axloqiy ehtiyojlari va axloqiy yo‘nalishlari, so‘zi bilan ishining birlik darajasi, xullas, muallimning faol hayotiy nuqtayi nazari namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘quvchilar muhitiga uzviy ravishda qo‘shilib keta olishi nihoyatda qiyin jarayon. Lekin uning pedagogik faoliyati bevosita o‘quvchilar orasida olib boriladi. O‘zaro munosabatlarni ishonch va do‘stlik tuyg‘ulari bilan mustahkamlab borish o‘qituvchidan jiddiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchi avvalo, turli xarakterdagi o‘quvchilardan iborat bo‘lgan, sinf jamoasida tez-tez o‘zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga darhol o‘z munosabatini bildirishi va unga odilona baho berishi kerak. U

o‘quvchilar xatti-harakatini to‘g‘ri idrok etishi, vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilishi, tarbiyaviy metodlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi, o‘quvchilar bilan muomalada bosiqlik, sabr, milliy an’ana va turmush tarzimizdan kelib chiqqan muruvvat va himmat, odamiylik va mehr-oqibat tuyg‘ularini ko‘rsata olishi shart. Bu vazifalar o‘qituvchining zimmasiga yuklanadigan va u rioya qilishi lozim bo‘lgan pedagogik nazokat deb atalmish faoliyatning zarur shartidir.

Pedagogik nazokat – o‘qituvchi axloqiy-ma’naviy qiyofasini namoyon etuvchi me’yor tuyg‘usi yoki xulq va odob qoidalariga rioya qilishi demakdir. Pedagogik nazokat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatini tashkil qilish vositasi. Psixologik til bilan aytilganda, nazokat insonning bir qolipdagi barqaror tasavvurlarida mujassamlashgan shaxsiy insoniy hislatlarining yig‘indisidir.

Pedagogik nazokat me’yorlari o‘qituvchidan avvalo yuksak insoniy fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Zero, ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishning asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasi bo‘lib, u davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb e’lon qilingan. Ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish o‘qituvchi zimmasida. Shunday ekan, hozirgi demokratik jamiyat o‘qituvchisining o‘zi avvalo barkamol inson bo‘lishi, mukammal bilimlar sohibi, o‘z kasbining yetuk egasi bo‘lishi zarur. O‘qituvchi xulq-atvorida pedagogik nazokat ma’lum bir muddatda shakllanib tugaydigan jarayon emas, uning omillari ham jamiyat taraqqiyoti natijasida uzluksiz sayqallanib boradi.

O‘qituvchi pedagogik nazokatga ta’lim va tarbiya jarayonidagi har bir vaziyatga adolatli baho berishi, o‘quvchilarning xatti-harakatini to‘g‘ri idrok etishi, sabot va matonat, o‘zini tuta bilish, sabr-toqat, sezgirlik, vijdon, oriyat kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi bilan erishadi. Pedagogik faoliyatda o‘z kasbini sevgan o‘qituvchigina butun

kuch g'ayratini, qalb nuri va dil haroratini shu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchi axloqiy qiyofasini namoyon etuvchi muhim fazilatlardir.

O'qituvchi deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning yaxshi xulq va ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimlarini baholaydi, nojo'ya xatti-harakatlari uchun tanbeh berib, lozim bo'lganda tarbiyaviy metodlarni qo'llaydi.

Pedagogik nazokat doimiy izlanishni, ijodkorlikni talab qiladi. Doimiy ijodiy izlanishda bo'lgan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi, ilm-fan muammolari, tarbiya etikasi va psixologiyasi yuzasidan erkin fikr yurita oladi.

O'qituvchi o'quvchilarning kattalar bilan muloqotga kirishish tizimiga ma'lum darajada kirib borib, ularning ichki qoidalarini o'rganishga harakat qilishi kerak. Bu narsa o'quvchilar bilan suhbatlashish orqali, fe'l-atvorini o'rganish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini kuzatish, o'quvchilar hayotidagi turli voqealar va muammolarni birgalikda tahlil qilish, ular muhitida ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan fikr-mulohazalarini bilish asosida amalga oshiriladi. Bunda u o'quvchilar jamoasida ro'y berib turadigan, tashqi tomondan kuzatganda aslo bilib bo'lmaydigan yashirin hodisalar va voqealarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada o'qituvchi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda o'z oldida turgan vazifalarni hal etishda o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qila oladi.

Ijobiy natijalarga erishish uchun, o'qituvchi o'quvchilarning ishonchini qozona olishi shart. Yosh o'quvchi "do'st"lar ishonchini qozonish yoki ishonchiga kirishi uchun o'qituvchi pedagogik nazokat imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olishi lozim. O'zaro ishonch munosabatlari o'rnatilgach, o'quvchilar og'ir damlarda o'qituvchidan yordam so'rab murojaat qiladilar, o'z mulohazalarini u bilan baham ko'radilar. O'zaro ishonch norasmiy munosabatlarda ham o'qituvchiga o'quvchilarning

ba'zan anglab bo'lmaydigan ichki dunyosini ko'rish imkoniyatini beradi. O'quvchilar bilan munosabatlarda pedagogik nazokatni qo'llash natijasida:

• o'qituvchi o'quvchilarning xarakterini, ichki dunyosini yaxshi bilib oladi, o'quvchilar bilan munosabatda do'stona muloqot qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi;

• o'qituvchi o'quvchilar bilan chin ko'ngildan bir-biriga yaqin bo'ladi, ba'zan eshitmasligi kerak bo'lgan o'quvchilarning o'zaro sirli gaplarini eshitmasdan o'tib ketishi mumkin, negaki o'zgalar gapini tinglash odobsizlikdir;

• o'qituvchi ba'zan o'quvchilar jamoasining kundalik ishlariga aralashmasligi, jamoada ro'y beradigan ba'zi ko'ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etishni jamoa faollari zimmasiga havola etishi mumkin.

Bularning hammasi o'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan ixtiloflariga, kelishmovchilik va ziddiyatlariga barham beradi.

Mamlakatimizda har qanday kasb egasi avvalo odob va axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik nazokat va odoblilik mutlaqo o'zgacha harakatni va muomalani talab qiladigan o'qituvchilar uchun chinakam mahoratdir. Chunki bu hislatlar faqatgina pedagogik qobiliyat va iste'dodga ega bo'lgan o'qituvchida yillar davomida shakllanadi.

O'qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt: Pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri bo'lmish dilkashlik insonning atrofdagi odamlar bilan barqaror, yaqin munosabatda bo'lishga intilishi deb ta'riflanadi. Bu intilish o'qituvchining o'quvchilar va atrofidagi kishilar bilan tez aloqa o'rnata olishi va belgilangan maqsadga erishishini ta'minlaydi. Albatta bu jarayon birdaniga sodir bo'lmaydi, ayniqsa yosh o'qituvchilardan psixologik bilim, kishilar bilan muloqotda xushmuomalalik, ehtiyotkorlik talab qilinadi. Psixologlar o'qituvchilarning dilkashlik xususiyati ikki toifadagi odamlar xarakterida mujassamlashgan deb ta'kidlaydilar:

Birinchisi, ekstravert shaxslar: Ular barcha ishlarda faol, jiddiy va vazmin, osoyishtalikka va tashqi ta'sirchanlikka moyil kishilardir.

Ikkinchisi, introvert shaxslar: Ular faqat o'z ichki olamiga beriluvchan, atrofidagi odamlarga aralashmaydigan, o'z-o'zini nazorat qilishga, doimo ichki xavotirga moyil kishilardir.

Pedagog olimlar o'qituvchining dilkashligi ekstravert yoki introvert xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar xarakterining birlashuvida paydo bo'lishini ta'kidlaydilar. Biroq, ko'pincha pedagogikada ekstravert tipdagi shaxslar dilkash insonlar sifatida e'tirof etilganlar. O'qituvchida ushbu hislatlarning mavjudligi, uning pedagogik nazokat qoidalariga rioya qilib dilkashlik xususiyatlarini rivojlantirishi pedagogik mahorat sirlarini takomillashtirish zamini va shartidir.

Dilkashlik munosabatini doimiy ravishda o'z kasbiy faoliyatida mujassamlashtirgan o'qituvchi quyidagilarni unutmasligi kerak:

- sinf jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimiga ega bo'lishi;
- o'quvchilar bilan doimo erkin muloqot qila olishi, har bir o'quvchiga individual shaxs sifatida yondashishi;
- birorta ham o'quvchisining yomon bo'lishiga, ularning hurmat e'tiborini qozonmasligi mumkin emasligiga ishonch hosil qilishi;
- biror o'quvchiga nisbatan ishonchsizlik, salbiy munosabat sinf jamoasi bilan o'zaro yaxshi munosabatni yo'lga qo'yilishiga xalaqit qilishini bilishi;
- o'quvchilar bilan muloqotda haddan tashqari masofani (subardinatsiya) saqlash mumkin emasligi;
- sinf jamoasida sodir bo'ladigan kulgili vaziyatlarda o'qituvchining o'ta jiddiy va qat'iy bo'lishi jamoadagi qaltis ahvolni murakkablashtirib yuborishini unutmasligi;
- har bir o'quvchiga beriladigan xolisona va adolatli baho (ijobiy yoki salbiy) o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatni mustahkamlaydigan ko'prik ekanligini unutmaslik.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi, o'quvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o'rgatish, intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, o'qituvchidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shu jihatdan o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida "Pedagogik takt" muhim pedagogik qobiliyat sifatida e'tirof etiladi.

Takt so'zi azaldan pedagogikada tarbiyaviy ta'sir etish ma'nosini bildiradi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni boshqarishga yordam beruvchi axloqiy kategoriya sifatida ta'riflanadi. O'quvchilar bilan muloqot jarayonida ro'y beradigan eng og'ir vaziyatlarda ham pedagogik takt o'qituvchidan mutlaqo bosiqlikni, suhbatdoshiga nisbatan hurmat va ehtiromni talab qiladi.

Pedagogik takt – o'qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo'lib, o'quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta'sir o'tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg'ulari asosida o'rnatish o'lchovi, o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko'nikmalarini hosil qilish shaklidir. Pedagogikada o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabati ularning yosh xususiyatlariga qarab belgilanishi va bu qonuniyatga amal qilinishi qat'iy talab qilinadi. Shunday ekan, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida hali to'liq shakllanmagan, ta'sirlarga va ruhiy kechinmalarga tez beriluvchi, ota-onasining sevimli farzandi bo'lgan murg'ak qalb egalari bilan muloqot qilayotganligini aslo unutmasligi kerak.

O'quvchilar bilan muloqotda pedagogik taktga zid bo'lgan qo'pollik, adolatsizlik, qo'rqitish, haqorat, mensimaslik, pedagogikaga zid bo'lgan jazolash usullarini qo'llash va boshqa ular shaxsiga salbiy ta'sir qiladigan turli jargon so'zlar ishlatish o'quvchilar qalbini umuman tuzalmaydigan darajada jarohatlab qo'yishi, yoki o'qituvchining obro'siga putur yetkazishi mumkin. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bunday qarama-

qarshiliklar ko'pincha dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo'ladi. Bunda ayniqsa yosh o'qituvchilarning pedagogik takt sirlarini bilmasligi, tajribasizligi pand beradi.

O'qituvchining taktik mahorati birdaniga shakllanib qolmaydi, u yillar davomida pedagogik faoliyatda, ustozlar tajribasini o'rganishda, dars jarayonida, sinfdan tashqari faoliyatda va tarbiyaviy soatlarda o'quvchilar bilan muloqotda takomillashib boradi. Dars jarayonida pedagogik mahoratning asosi bo'lmish pedagogik taktga ega bo'lish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

Takt axloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali xulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining talabalar oldida o'zini tutishni bilishi, bolaning holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir. Shunday qilib, pedagogik takt bu o'qituvchining talabalarga nisbatan amalga oshiradigan ta'sirining mezonidir. TAKT VA TAKTIKA Taktika tanlash turli vaziyatlarda turli rollarni bajarish bilan bog'liq. Bu haqida ma'lumotni psixolog A.B.Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to'rtta pozitsiya bo'lib, ular quyidagicha: "yuqoridan pastga", "pastdan yuqoriga", "yonma-yon" va "aralashmaslik pozitsiyasi". "Yuqoridan pastga" pozitsiyasi o'qituvchi mustaqilligini, barcha mas'uliyatni o'z bo'yniga olishini namoyish etadi. Bu pozitsiya "ota" pozitsiyasi ham deb ataladi. "Pastdan yuqoriga" pozitsiyasida o'ziga ishonmaydigan, tobe' shaxs bo'ladi. A.B.Dobrovich so'zi bilan aytganda, bu "bola" pozitsiyasi.

Pedagogik taktni shakllantirish omillari: Insonparvarlik g'oyalariga asoslangan pedagogikada pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim, deyiladi: Tarbiyalanuvchilarga

mehrli bo‘lish, mehrini ko‘rsata olisbi; Talabalar xatti-harakatlarining “ichki prajinalarini” ko‘ra olish; Vaziyatni to‘g‘ri baholay olish; Maqsadga muvofiq ta’sir usulini tanlash; Talabalar bilan samarali muloqot qura olish.

Maqsadga muvofiq ta’sir usulini tanlash; Talabalar bilan samarali muloqot qura olish. Pedagog va talaba pozitsiyalarining to‘g‘ri kelmasligi ko‘p konfliktlarga sabab bo‘ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo‘llaniladigan sinalgan QOIDALARNI bilish kerak. Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o‘z qo‘liga olish bu emotsional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo‘riqishdan, ortiqcha xatti-harakatlardan halos bo‘lish. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta’sir ham ko‘rsatadi. Shunday qilib, tashqi vazminlik va hotirjamlik! Ikkinchi qoida. O‘z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta’sir ko‘rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o‘rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi. Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harkatlari motivlarini tushunishga harakat qilish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emotsional qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o‘z holatini tushuntirish (Shu meni o‘yiantiryapti...) Ya’ni xatti-harakatni darrov baholamang, oldin tug‘ilgan vaziyatga bo‘lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling. To‘rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Talaba bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko‘rsatish. Beshinchi qoida. Samarali yechim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so‘ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo‘llari). Muloqot qoidalariga rioya qilish o‘qituvchiga har bir talaba uchun muvafaqqiyat vaziyatini yaratishga va u bilan samarali hamkorlikni o‘rnatishga, talabaning barcha qobiliyatlarini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

O‘qituvchining rejissyorlik va aktyorlik ko‘nikmalari. Pedagogik va aktyorlikning o‘zaro o‘xshashliklari ko‘p. Bu ushbu faoliyatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Har ikkala faoliyat negizida insonlar ongiga ta’sir etish masalasi yotadi. Aktyor sahnadagi rol orqali, pedagog turli pedagogik ta’sir vositalari yordamida inson ongida oldindan ko‘zlangan o‘zgarishlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu kasblarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi yana bir narsa – bu har ikkalasi ham ommaga qaratilib, omma nigohida amalga oshirilishidir. O‘qituvchining o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulot, tadbirlarini “ssenariy”sini ishlab chiqishi, unda o‘quvchilar faoliyatini boshqarishi bu kasbni rejissyor kasbiga yaqinlashtiradi. O‘qituvchilar talabalar diqqatini jamlash, e’tiborini vaqt davomida yo‘naltirib turish qanchalik qiyinligini yaxshi biladilar. Shunda o‘qituvchilarga aktyorlik mahorati katta yordam beradi. Buyuk rus dramaturgi K.S.Stanislavskiyning aktyorlar bilan ishlash sistemasi pedagogning aktyorlik mahoratini oshirishga katta imkon beradi.

Pedagog ham aktyor kabi o‘zining psixik-jismoniy yaxlitlik holatida farliyat vositasi rolini o‘ynaydi. Shuning uchun u o‘z organizmini sozlashi, uni zarur paytda to‘g‘ri harakatni amalga oshira olishini ta’minlashi kerak. Boshqaruv uslublari. Psixologiyada turli tipdagi boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ishlab chiqilgan – bunda ularning boshqaruvida bo‘lgan jamoa bilan muloqoti texnikasi tahlil qilinadi. O‘qituvchi ham pedagogik jarayonda boshqaruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqaruv uslublarining uchta asosiy turini o‘zaro ta’sir qilish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqamiz. Avtoritar uslub. Talabalar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qayerda o‘tirishigacha o‘qituvchi yakka o‘zi hal qiladi.

Taktika tanlash turli vaziyatlarda xilma-xil rollarni bajarish bilan bog‘liq. Bu haqida ma’lumotni psixoterapevt A.B.Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to‘rtta pozitsiya bo‘lib, ular quyidagicha: “yuqoridan pastga”, “pastdan yuqoriga”, “yonma-yon” va “aralashmaslik” pozitsiyasi.

"Yuqoridan pastga" pozitsiyasida o'qituvchi mustaqil hal etishni namoyish etadi, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu pozitsiya "ota-ona" pozitsiyasi.

"Pastdan yuqoriga" pozitsiyasi tobelik, shaxsning o'ziga ishonmasligi. A.B.Dobrovich so'zi bilan aytganda, bu "ta'lim oluvchi" pozitsiyasi.

"Yonma-yon" pozitsiyasida farosatlilik va vazminlik, vaziyatga qarab ish tutish, boshqalarning ham manfaatini o'ylash, o'zi va ular o'rtasida mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash ifoda etiladi. Bu "katta odam" pozitsiyasi.

"Aralashmaslik" pozitsiyasi – aralashmaslik, faollikni namoyon etmaslik.

Har bir pozitsiyaning qo'llanishi vaziyat talabiga mos tanlanadi. Muloqot ikki tomonlama jarayon bo'lganligi uchun o'qituvchi ta'lim oluvchi rolini ham inobatga olishi shart. O'qituvchining odatiy pozitsiyasi bu hamkorlikda ish olib borayotgan "katta odam", ya'ni ishga aloqador darajani talab qiluvchi pozitsiyadir. Bu pozitsiya ta'lim oluvchida teng huquqli sheriklikni shakllantiradi, o'zaro ishonch muhitini yaratadi. Bunda quyidagi jumlalarni qo'llash mumkin: "Sizlar bilan maslahatlashmoqchi edim", "Kelinglar, o'ylab ko'raylik" va hokazo.

Pedagogik odob va pedagogning muomala odobi. Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat

tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi – jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablari, mezonlarini belgilaydi.

O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shilib, bozor

iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt o'qituvchi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalminalchilik, adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar o'qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik burchi, o'qituvchilik sha'ni, qadr-qimmati, o'qituvchilik mas'uliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchanlik va adolatli bo'lish, o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularning chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Muomala odobi o'z tabiati, mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy qonuniyatlar pedagogik jarayondagi muomala odobida namoyon bo'ladi. Pedagogik odob jamiyatda qabul qilingan ma'naviy, umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy munosabatlar pedagogik jarayonda qatnashuvchilar o'rtasidagi muomala odobini tartibga solib, boshqarib boradi. Ijtimoiy munosabatlarning har biri o'ziga xos xususiyatga, mezonlarga ega. Bu xususiyat va

mezonlar ijtimoiy faoliyatning sohasi, shaxslararo aloqalarning xarakteri bilan belgilanadi. Muomala odobi kishi bajarishi lozim bo'lgan axloqiy qoidalar bilan shaxs ularni qay darajada qabul qilishi o'rtasidagi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar orasidagi bog'lanishlarga asoslanadi.

Muomala odobi bevosita baho beruvchanlik xususiyatiga ham ega. Axloqiy baho esa kishilarning xulqini, xatti-harakatlarini nazorat qiladi, tartibga soladi. Muomala-munosabatlar kishi o'z xulqi va faoliyatida axloqiy prinsiplar, qoidalar, talablar, an'analarga, urf-odatlarga qay darajada amal qilayotganiga qarab baholanadi.

Pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muomala odobida muallimning axloqiy madaniyati, tarbiyalanganlik darajasida aks etadi. Muallimning pedagogik kasb egasi sifatida o'ziga, o'z kasbiga, o'quvchilarga, kasbdoshlariga, ota-onalariga muamolasini belgilovchi asosiy qoidalar, talablar mavjud. Bu mezonlar jamiyat, davlat o'qituvchiga, ta'lim-tarbiya ishlariga nisbatan qo'yayotgan axloqiy talablariga, pedagogik faoliyatning axloqiy xarakteri va xususiyatlariga asoslanadi. Pedagogik jarayonda muomila odobi o'qituvchining faoliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchilik faoliyatida qo'yiladigan axloqiy talablar, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yosh avlodni umuminsoniy va milliy-an'anaviy, madaniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash sohasida kun tartibiga qo'yayotgan vazifalariga bog'liq. Ular pedagogik jarayondagi muomala odobida, unda qatnashayotgan kishilaning xulqi, xatti-harakatlarida ifodalanadi. Bu xatti-harakatlar pedagogik jarayon qatnashchilarining ta'lim-tarbiya maqsadi, vazifalari, usul va vositalarini, axloqiy qadriyatlarni qay darajada qabul qilishlari shaklida namoyon bo'ladi.

Pedagogik jarayonning o'zida ham faoliyatning turli sohalarida turlicha muomala-munosabatlar mavjud. Masalan, o'quv ishlari sohasida, jamoat topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar, bilan sinfdan tashqari ishlarda, dam olish

paytlardagi muomala, shuningdek, o'qituvchining Vatanga, xalqqa bo'lgan munosabati o'ziga, xos xususiyatlarga ega. Uning mohiyati shundan iboratki, agar o'qituvchining bu muomala munosabati o'z professional vazifasini burchini bajarish jarayonida sodir bo'lsa, jamiyat o'qituvchining pedagoglik kasbining ijtimoiy mavqeini, unga ma'lum bir huquq va vakolatlar berilganligini nazarda tutadi.

Pedagogik etikada muomola odobining biror jihati, masalan, o'qituvchining o'z kasbiga munosabati, burchi alohida tahlil etilishi mumkin. O'qituvchilik kasbi kishiga ma'lum talablarni qo'yadi, lekin muallim bu talablarni qanday bajarayotgani bu talablarda hali aks etmaydi. O'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini xalq ta'limi bo'limlari, maktab ma'muriyati, metodik birlashma xodimlari baholaydi. O'qituvchining pedagogik jarayon qatnashchilari bilan muomalasi – bu kishilarning o'zaro bir-birlariga bo'lgan shaxsiy insoniy munosabatlari sifatida ham qaraladi, ular pedagogik jarayon qatnashchilarining xatti-harakatlarida, xulqida, ish shakli va usullarida namoyon bo'ladi. Ular o'rtasidagi o'zaro axloqiy baholashlar ham muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning sub'yekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi-figurasi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi tizimida o'qituvchi asosiy figuradir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob'yekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan hayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatlari, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari,

mezonlarini ta'lim-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lim oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lim muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero, tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi.

Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Axloqiy ta'lim-tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida pedagog odobi fazilatlarini shakllantirishda ikki yo'nalishdagi aloqador tushunchalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir: birinchisi – jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati; ikkinchisi – o'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati.

O'qituvchi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, o'qituvchi-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir. Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalga oshiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi.

Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi.

Pedagogik texnika haqida tushuncha va pedagogik texnikaning tarkibiy qismilari. Pedagogik tushuncha – bu avvalo, o'qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko'nikmalar hisoblanadi, ya'ni uning savodli va ifodali so'zlay olishi, o'z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta'sirchan bayon qilishi, his-tuyg'usini jilovlay olishi, o'zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo'lishi, aniq imo-ishora, ma'noli qarash rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so'zning cheksiz qudrati orqali o'quvchilar ongiga va tafakkuriga ta'sir o'tkazishi, hozirjavoblik psixologik bilimlarga ega bo'lishi kabilardir.

O'qituvchining pedagogik texnikasi qanday ko'nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida o'qituvchi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

O'qituvchining tarbiyalanuvchi ob'yektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishida aktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, o'qituvchi butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida o'quvchilar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, sinf jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majbur. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun o'qituvchidan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning rolini beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilishi (mimika, pantomimika), his-tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olishi, ishtiyoq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallashi va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi. Demak, pedagogik texnika o'qituvchi kasbiy faoliyatida shunday kasbiy va shaxsiy malakalar yig'indisiki, u o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va boshqarish ishlarida asosiy yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qiladi.

Ilg'or va novator o'qituvchilarning texnik mahorati pedagogik faoliyat olib borishlarida mimik va pantomimik harakatlarida, ovozini idora qila olish xususiyatlarida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, o'qituvchilar pedagogik texnika san'atini mukammal egallaganlar, uning ko'nikma va malakalarini o'zlarida aniq shakllantirishgan va turli pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlariga egadirlar.

Pedagogikada o'qituvchi chuqur hissiyotga berilishini, shaxsiy hayotidagi turli ruhiy vaziyatlar tufayli kayfiyatining o'zgarib turishini o'zi qattiq nazorat qilish talab qilinadi.

Ushbu nazoratni o'qituvchining o'zi boshqarishi lozim. Bu jarayonning ijobiy natijalari o'qituvchining refleksiv qobiliyatlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnikaning yana bir muhim xususiyati pedagogik ta'sir ko'rstishdagi o'qituvchining ma'naviy va estetik qiyofasi. Bu tarbiyalanuvchilarga yaqqol namoyon bo'ladigan xususiyatdir. Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq bo'lsa, nutqi tartibsiz va muloqotda sust bo'ladi, didi past, o'z hissiyotlarini jilovlay olmaydigan qo'pol bo'lsa, uning ta'lim-tarbiya berishi haqida gap bolishi mumkin emas.

Pedagogik texnikaning sirlarini egallash yo'llari o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlar va mustaqil peda-

gogik faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Pedagogik texnika sirlarini mukammal egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'qituvchi o'z-o'zini doimiy shakllantirib borishi, ya'ni o'z oldiga qo'yilgan talablar nuqtayi nazaridan mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik texnikaning muhim xususiyatlaridan biri o'qituvchining o'quvchilar bilan bevosita muloqoti jarayonida shakllanadigan kasbiy texnik ko'nikma va malakalaridir. Bunda pedagogik texnikaning ko'nikma va malakalari o'qituvchining pedagogik mahorati bilan aloqadorlikda shakllanib boradi.

Rivojlangan pedagogik texnika xususiyatlari o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot jarayonida zarur so'z va gap ohangi, qarash, imo ishorani tez va aniq topish, kutilmagan pedagogik v aziyatlarda bosiqlik va osoyishtalik. aniq fikr yuritish, vaziyatni fikran va tez tahlil qilish kabi qobiliyatlarini namoyish etish bilan ifodalanadi. Pedagogik texnikaning ushbu xususiyatlari o'qituvchi kasbiy mahoratida aniq ifodalangan individual shaxsiy shakl oladi, ya'ni o'qituvchining psixologik-fiziologik xususiyatlari asosida uning shaxsiy pedagogik texnikasini tarkib toptiradi.

Individual pedagogik texnikaning shakllanishi o'qituvchining yoshi, jinsi, mijozi, fe'l-atvori, salomatligi, anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq.

Hozirgi kunda pedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo'lib o'rganiladi.

Birinchi guruh komponentlari: o'qituvchining shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'z o'zini boshqarish malakalarida (refleksiya) namoyon bo'ladi:

- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarishi, (mimika, pantomimika);
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo'ya ta'sirlarga berilmaslik;

• mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;

• nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o'z o'rida qo'Ilay olishi.

Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari o'qituvchining shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish malakalari bilan bog'liq bo'lib, bu guruh ta'lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:

• o'qituvchining didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;

• ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarining bajarilishini nazorat qilishi;

• ta'lim muassasasida va o'quvchilar jamoasida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;

• o'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

O'qituvchilarda individual shaxsiy pedagogik texnika malakalarini shakllantirish muammolari, ayniqsa, psixolog olimlarning tadqiqot markazidan o'rin olgan. Psixolog olimlar R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Abdullajonova kabilar o'qituvchilarning individual kasbiy faoliyatini batafsil o'rganishib, o'qituvchining shaxsiy "Mehnat professiogrammasi"ni ishlab chiqdilar. Olimlarning fikrlariga ko'ra o'qituvchi professiogrammasi o'qituvchilarga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga oladi hamda har bir fan o'qituvchisining alohida ixtisoslashgan xarakteristikasini belgilab beradi. Jumladan, ular ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib boradigan "o'qituvchi-murabbiy professiogrammasi"da quyidagi hislatlar, ya'ni "Pedagogik texnika" malakalari mujassamlashgan bo'lishini ta'kidlaydilar.

1) o'qituvchining shaxsiy hislatlari: bolalarni sevishi, kamtarligi, dilkashligi, mehnatsevarligi.

2) Kasbiga xos bilimlari: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini bilishi, pedagogik va psixologik bilim asoslarini egal-

lashi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga asosan psixologik imkoniyatlarini anglashi, tarbiyaviy ta’sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalana olishi, otaonalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan faoliyat mazmunini puxta bilishi.

3) Kasbiga xos hislatlari: milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlar, milliy an’ana va urf-odatlarning asl mohiyatini tushunishi, kuzatuvchanligi, pedagogik qobiliyatga egaligi, o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini anglay olishi, pedagogik takt, nutq madaniyati.

4) Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg‘ulotlarida zarur materiallarni tanlay olishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishi, ta’lim-tarbiya jarayonini istiqbolli rejalashtirishi, o‘quvchilar jamoasini boshqara olishi.

5) Tashkilotchilik malakalari: o‘quvchilar jamoasini uyushtira bilishi, turli ziddiyatli vaziyatlarda ham o‘quvchilar jamoasini boshqarishi, amaliy muammolarni hal etishda uddaburonligini namoyish eta olishi.

6) Kommunikativ malakalari: o‘quvchilarni o‘ziga jalb etishni bilishi, o‘quvchilar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik muloqotlarni tashkil qilishi, o‘quvchilarning jamoada o‘zaro munosabatlarida bir xil muvozanatni tartibga solishi.

7) Gnostik malakalari: o‘quvchilarning asab psixik holati darajasini aniqlay olishi, o‘z pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, ustoz o‘qituvchilar mahoratini nazariy va amaliy jihatdan O‘rganib borishi, psixologik va pedagogik adabiyotlardan to‘g‘ri foydalana bilishi, o‘quvchilar xulq-atvorini mukammal o‘rganishi.

8) Ijodiy hislatlari: o‘z pedagogik mahoratini doimiy takomillashtirib borishi, o‘quvchilarni tarbiyalashda o‘z dasturini ishlab chiqishi va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishi, o‘quvchilar nazari bilan voqelikni tahlil qilish qobiliyati, o‘quvchilarga pedagogik ta’siri natijalarini oldindan ko‘ra olishga intilishi.

Psixolog olimlaming fikricha, ushbu professiogramma yosh o'qituvchilarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab, kasbiy mahoratlarini takomillashtirib borishlariga yordam beradi. Demak, o'qituvchi professiogrammasi ham pedagogik texnikani egallashning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, o'qituvchilarning o'z kasbiy texnikasini mukammal egallab, rivojlantirib borishiga va o'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanishni his etishga olib keladi. Bularning barchasi o'qituvchilarning tinimsiz pedagogik mehnati tufayli yuzaga keladi. Bir maromda olib boriladigan tizimli ijodiy mashg'ulot tufayli aktyor yuksak cho'qqilarni egallaydi. O'zgalar obrazini mujassamlashtirishda u ma'lum bir qolipdan aslo chiqib keta olmaydi. Demak har qanday ijodkorlik, hatto pedagogik ijodkorlik ham ma'lum bir belgilangan qolipda shakllanishi kerak. U o'qituvchining ichki kechinmalari, tuyg'ulari va hissiy reaksiyalari asosida qurilishi aslo mumkin emas. Chunki, tarbiyalash san'atida o'qituvchining pedagogik texnikasi, ya'ni "bir qolipda"gi mehnat madaniyati borki, u boshqa biror kasbiy faoliyatga aslo o'xshamaydi. Shuning uchun, respublikamizda tarbiyaviy texnologiyalarni muntazam bilishga intilish, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini uzluksiz oshirib borish o'qituvchining bir qolipdagi mehnat madaniyatini shakllantirishga, pedagogik texnika malakalarini doimiy oshirib borishiga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, hali biror o'qituvchi oliy ta'lim muassasasini tugatib, yoki malaka oshirish kurslarida bilim olib birdaniga pedagogik texnika sirlarini mukammal biladigan tajribali o'qituvchi bo'lib qolgani yo'q. O'qituvchida pedagogik texnika ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatish jarayonida, o'quvchilar bilan yakkama-yakka muloqot jarayonida, pedagogik amaliyotda shakllanib boradi.

O'qituvchining peda-...asining shakillantirish yo'llari.

Sharqona muloqotga kirishda mimika va pantomimikalarning ahamiyatlidir. O'qituvchining tashqi ko'rinishida, pedagogik texnikasi tizimidagi mimik, pantomimik holatlar muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining xatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo-ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'iadi va ular o'qituvchi-tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tishida puxta zamin tayyorlab beradi.

MIMIKA – bu o'z fikrlarini, kayfiyatini, holatini, hissiyotini qosh, ko'z va chehra muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan o'qituvchi chehrasining va nigohining ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini beradi. O'quvchilar o'qituvchining muomalasi va xatti-harakatiga qarab kayfiyatini, munosabatini tezda "uqib" oladilar. Shuning uchun oiladagi ba'zi noxushliklar, hissiyotga berilish, g'am va tashvishning o'qituvchi chehrasida va mimik belgilarida ifodalanishi mumkin emas. Chunki ushbu noxushliklar o'qituvchining pedagogik faoliyatiga dars mashg'ulotlarini mukammal bajarishida o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. O'qituvchining chehrasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchilarga ta'lim va tarbiyaviy topshiriqlarni yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalash lozim.

O'qituvchining chehrasidagi ifoda, nutqi, o'quvchilar bilan o'zaro munosabati uning individual xarakteriga mos bo'lishi kerak. O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'lim-arbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, orozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, qilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda

ovozdagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etish-da qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi.

Qosh, ko'z, chehra o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, xafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalash bilan birga, o'quvchilar diqqatini bolmasdan, boshqalarga xalaqit bermasdan ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishga ham yordam beradi. Shuni alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar o'qituvchining xarakterini, ichki dunyosini, ma'naviyatini, pedagogik faoliyatining individual xususiyatlarini bekamu ko'st namoyish etadi. O'qituvchining mimikasi ifodalangan nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'ladi. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazmali qurollarga yoki devorga nigoh tashlab raimik ifodalarni namoyish qilish aslo mumkin emas.

PANTOMIMIKA – bu o'qituvchining gavdasi, qoi, oyoq harakatini tartibga soluvchi uslubdir. O'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida o'quvchilar bilan muloqoti muhim ahamiyat kasb etishi barchaga maium. Biroq o'quvchilar bilan muloqotda o'qituvchining pantomimikasi, ya'ni, gavda, qoi, oyoq harakati to'g'ri ifodalanmasa, ta'lim-tarbiyaga asoslangan muloqot natija bermasligi mumkin. O'qituvchi o'z gavdasi, qo'li, oyoq harakatlarining holati orqali har qanday pedagogik ma'lumotlarning obrazini "chiza" olsa, o'quvchilar bundan avqlanadilar, ular ichki his-tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan o'shilib butun ongini o'quv materiallari mazmunini zlashtirishga qaratadilar. Pantomimika gavdani rost tutib yura ish, qoi va oyoq harakatlarining bir-biriga mosligi, fikrlarini q va to'liq bayon qilib qo'lini, boshini turli harakatlarda alash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini iradi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchilar oldida ni tuta bilish holatini tarbiyalashi lozim. (oyoqlari 12 – 15 kenglikda, bir oyoq sal oldinga surilgan holda turish).

O‘qituvchining yurishi, qoi va oyoq orqali imo-ishoralari ortiqcha harakatlardan holi bo‘lishi kerak. Masalan: auditoriyada orqaga oldinga tez-tez yurish, qoilari bilan turli imo-ishoralar qilish, boshini har tomonga tashlash va hokazo. Bunday holatlar dars davomida o‘quvchilarning e’tiborini bo‘lib, g‘ashini keltiradi va o‘rganilayotgan fanga, o‘qituvchiga nisbatan hurmatsizlik kayfiyatini uyg‘otadi.

O‘qituvchi mashg‘ulot o‘tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. Uyondan, buyongayurish talabalarfikrini bo‘ladi. Old tomonga yuravotganida o‘qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o‘qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo‘ladilar.

Dars hamda darsdan tashkari jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, unga qo‘yiladigan talablar.

Muloqot – yunoncha so‘z bo‘lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma’nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarnfng so‘zlashuvida paydo bo‘ladi. Inson muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta’lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar g‘oya va mafkura omillari ta’sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanib, u o‘z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomaia kategoriyasi keng ma’noda tushuniladi hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasini mujassamlashtirib, o‘zaro ta’sir va o‘zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni ifodalaydi.

Pedagogikada muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishida, ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘ladi hamda quyidagi xususiyatlarga ega:

- muloqot o‘qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy qurol hisoblanadi;

- muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim ahamiyatga ega;

- o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u hamxuddi shunday muhim rol o'ynaydi;

- pedagogikada muloqot – o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir o'tkazish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maqsadni dastur asosida amalga oshirishning rejalashtirilgan funksiyasini bajarishidir;

- muloqot – hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chiqadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi;

- noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchiga ishonchsizlik paydo boladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

Pedagogik muloqot – bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatidir.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin muloqotidan asosiy maqsad:

• salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;

• o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;

• o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;

• o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;

• dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

A.S.Makarenkoning fikricha, o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim.

V.D.Suxomlinskiy o'qituvchining "...maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak" deb ta'kidlaydi. O'qituvchining har bir so'zi olimning fikricha, nafaqat o'quvchi qulog'iga aytiladi, balki uning qalbiga ham qaratilgan bo'lishi shart. Umuman ilg'or o'qituvchilarning fikricha, ta'lim va tarbiya faqat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorlik pozitsiyasi asosidagi muloqot jarayonida quriladi.

O'qituvchining to'g'ri tashkil etilgan muloqoti o'quvchining o'zligini anglash funksiyasini takomillashtiradi. Bunda o'qituvchining vazifasi muloqot asosida o'quvchilarga o'zining "Men'ligini anglashni, shaxs sifatida o'z fikrini dadil va erkin gapirishni, jamoada o'z o'rnini bilishni, o'z-o'zini baholashni o'rgatishi kerak.

Pedagogik muloqot tuzilishi jihatidan o'qituvchi ijodkorligining noyob namunasidir. Pedagog olimlar o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotiga ko'plab tavsiflarni ilmiy asarlarida bayon etsalarda, muloqot, avvalo, o'qituvchining shaxsiy psixologik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Olimlar esa, muloqot uchun o'qituvchiga yo'nalish beradi xolos. Jumladan, rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, o'qituvchining pedagogik muloqoti tuzilishi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: Prognostik bosqich (modellashtirish): O'qituvchi tomonidan sinf jamoasi bilan bo'lajak muloqotni modellashtirish.

Kommunikativ aloqa: O'quvchi bilan dastlabki o'zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etishga erishish.

1. Pedagogik jarayon: O'qituvchining xatti-harakati, pedagogik mahorati bevosita muloqotni boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

2. Natijalar tahlili: Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish. Olimning fikrlari asosida muloqotning ushbu yo'nalishlarini quyidagicha ta'riflash mumkin?

Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur. Kommunikativ aloqa bosqichida sinf jamoasini o'zaro muloqotga tez jalb etadigan suhbat texnikasini puxta bilish, ularning barcha qiziqishlariga javob bera olish, erkin fikr bildirishlariga imkoniyat yaratish va o'quvchilar ongiga ijobiy ta'sir etishning turli usullarini qo'llash metodlarini egallash lozim. Pedagogik jarayon bosqichida o'qituvchining faoliyati bevosita ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ma'lum bir yo'nalishga solish, o'quvchilar tashabbusini qo'llab-quvvatlash, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari bilan adolatli muloqotni tashkil etish, o'z fikrlarini jamoa fikrlari bilan real sharoitga moslashtira olish ko'nikmalarini yaratish kabi faoliyat olib boriladi. Natijalar tahlilma o'qituvchi o'z faoliyatiga xolisona baho berishi, yutuq va kamchiliklarni inobatga olib, kelgusi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida tanqidiy qo'llashni bilishi lozim, ushbu yo'nalishda maqsad, reja va natijalarning birligi ta'minlanadi, o'quv-tarbiya jarayonida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbarlikni, tashabbuskor bo'la olishni bilishi kerak. O'quvchilarning axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrof-muhitga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi.

Joqiy tarbiyalanganlik o'quvchining his-tuyg'ularida ichki kechinmalarida ifodalanadi va xulq-atvorida, o'qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzaga qalqib chiqadi. O'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va mehribonlikni namoyish etish, o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatda to'g'ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin bo'ladi. Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy

maydon yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarlik osida ulardan biri hisoblanadi.

O'qituvchi chehra ko'rinishidagi mimik ifoda, ta'ilm-tarbiya qonuniyatlariga mos ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquv-chanlik, befarqlik, ikqilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Bunda ovozdagi turli o'zgarishlar, nutqning tushunarli bayon etilishi muhim ahamiyatga ega. Mimik ifodaning asosiy belgilarini namoyish etish-da qosh, ko'z, chehra ko'rinishi ishtirok etadi. O'qituvchi mashg'ulot o'tish jarayonida faqat oldinga yurishi tavsiya qilinadi. Uyondan, buyongayurish talabalar fikrini bo'ladi. Old tomonga yuravotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi mumkin, chunki bunda talabalar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar. Modellashtirish bosqichida auditoriyaning barcha andozalarga javob berishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini o'rganishi, ta'lim-tarbiyaviy jarayonda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar dinamikasini oldindan ko'ra olish va bartaraf etish, muloqotning o'zaro hamkorlik asosida qurilishi, ya'ni muloqot o'qituvchi shaxsiga emas, balki o'quvchi shaxsiga ham mos kelishini ta'minlash zarur.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktika bu – ...?
2. Hozirgi zamon o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablar nima?
3. Chorizm maktab siyosatining bosh maqsadi nima edi?
4. Maktabdagi o'quv tarbiyaviy ishlarning sifati kim tamonidan nazorat qilinadi?
5. "Ta'lim berib tarbiyalaylik, tarbiyalab ta'lim beraylik" risolasi muallifi kim?
6. Intellektual mulk nima?

Nazorat uchun testlar:

1. Didaktika bu – ...?

A) Tarbiyalash;

B) Zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;

C)*Ta'lim va o'qitish nazariyasi sifatida har qanday fanni o'qitishga xos umumiy qonuniyatlarni o'rgatadi;

D) Bolani maktaga tayyorlaydi.

2. Hozirgi zamon o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablar nima?

A)*Dunyoqarashning g'oyaviyligi va ilmiyligi;

B) O'qimishlilik;

C) Onglilik;

D) Ilmiylik.

3. Maktabdagi o'quv tarbiyaviy ishlarning sifati kim tamonidan nazorat qilinadi?

A) Direktor;

B)*Xalq maorifi vazirligi tomonidan;

C) Sinf raxbari tomonidan;

D) Tuman (shaxar) maorif xodimlari tomonidan.

4. "Ta'lim berib tarbiyalaylik, tarbiyalab ta'lim beraylik" risolasi muallifi kim?

A)*S.Rajabov;

B) Qori Niyoziy;

C) Malla Ochilov;

D) K.Hoshimov.

5. Intellektual mulk nima?

A)*Inson aqliy mehnatining mahsulidir;

B) Insonning aqliy qobiliyati;

C) Insonning aqliy salohiyati;

D) Insonning intelektual salohiyati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedur? // Sadoyi Turkiston. – 1914-yil 23-may. – № 12.

2. G'ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. – 1919-yil 25-iyun. – № 129.

3. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. – 1917-yil 6-sentabr. – № 2.

4. G'ozi Yunus. Madrasalarimizda islohot // Turkiston. – 1923-yil 6-fevral. – № 57.

5. G'ozi Yunus. Maslak va maqsad // Ishchilar dunyosi. – 1918-yil 4-yanvar. – № 1.

6. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

7. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

8. Pedagogika / Nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva. – T.: TDPU. 2013.

9. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Tashmetova Sh. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2012.

19-mavzu: Nutq texnikasi va madaniyati hamda o‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish.

Reja:

1. Nutq haqida tushuncha va nutqning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni.
2. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari, nutq texnikasi nafas olish, tovush, diksiya, ritmika, leksik madaniyat, o‘qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo‘llari.
3. O‘qituvchi mehnatining ilmiy tashkil etishning mohiyati hamda o‘qituvchining kun tartibi va ish o‘rni.
4. Pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil qilishning asosiy yo‘nalishlari.

Tayanch so‘z va iboralar: nutq, nutq madaniyati, nutq elementlari, nutq texnikasi, nafas olish, tovush, diksiya, ritmika, leksik madaniyat, o‘qituvchining kun tartibi va ish o‘rni, pedagogik mehnat.

Nutq haqida tushuncha va nutqning o‘qituvchi faoliyatidagi o‘rni. Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikr bo‘lib ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: 1) ichki nutq; 2) tashqi nutq.

O‘qituvchi ongida hosil bo‘ladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og‘iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘ylashi ichki nutqdir.

O‘qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga ta’siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq – tashqi nutq bo‘lib, u ijtimoiy hodisadir.

O‘qituvchining nutqiy faoliyati: so‘zlash, mutolaa qilish va eshitishdan iborat. Nutq hodisasi monolog, dialog, polilog, deklamatsiya hamda ayrim matn va kitob shaklida bo‘lishi

mumkin. Nutq maxsus belgilangan tartibda o'zining hajmi bilan notiqqa havola etiladi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahlili asosida nutqning quyidagi o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Funksiyalari: muloqot, shaxsga ta'sir ko'rsatish, ta'lim va tarbiya vositasi.

2. Shakllari: tashqi nutq (og'zaki): monolog, dialog, polilog; yozma: doklad, referat, annotatsiya va boshqalar; ichki nutq.

3. Nutq texnikasi: pedagog ovozining kasbiy sifati: tembr, intonatsiya, diksiya, temporitm (bir minuda 120 ta so'z).

4. Nutqiy faoliyat turlari: o'qish, yozish, gapirish.

5. Nutq uslublari: ilmiy, rasmiy, so'zlashuv, badiiy, ommabop.

6. Nutqqa qo'yiladigan talablar: talaffuzning aniqligi, ifodaviylik, emotsionallik, diksiyaning tushunarligi, tovushlarning aniq talaffuz qilinishi, obrazlilik, nutq madaniyati, so'zdan foydalanish qoidalariga rioya qilish, temporitmga amal qilish.

7. Nutqni egallashda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar: monotonlik, temporitmning oshib ketishi, noto'g'ri diksiya, so'zlarni noo'rin qo'llash, til qoidalarini buzish.

O'qituvchi nutqining ta'sirchanligi nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi va nutqdagi to'g'rilik va aniqlik, mantiqiylik va tozalik tinglovchiga ta'sir etish uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan, o'qituvchining og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishida paydo bo'ladigan ruhiy vaziyat e'tiborga olinadi. Ya'ni notiq-o'qituvchi o'quvchilarni hisobga olishi, ularning bilim darajasidan tortib, hatto yosh xususiyatlarigacha, nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatlarigacha kuzatib turishi, o'z nutqining o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini nazorat qilishi lozim. Professional bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar jo'n, sodda tilda gapirishlari maqsadga

muvofiq emas, oddiy, yetarli darajada notiqlik ma'lumotiga ega bo'lmagan yosh o'qituvchilar ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga harakat qilishlari kerak emas. Xullas, notiq – o'qituvchidan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi va ifodalamoqchi bo'lgan har qanday fikrini to'laligicha o'quvchilarga yetkazishga harakat qilish vazifa qilib qo'yiladi.

O'quvchilar tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Buning uchun esa, o'qituvchida yuqorida aytilganidek, mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, o'quvchilarni avvalo nutq rejasi bilan tanishtirib, so'zni boshlash lozim. Vaqtni hisobga olish, notiqlik fazilatlaridan biridir. Chunki so'zlash muddati oldin e'lon qilinib, shunga rioya qilinsa, agar iloji bo'lsa, sal oldinroq tugatilsa, o'quvchilar zerikishmaydi.

Nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligi haqidagi gap ma'lum ma'noda nutq sifatlari haqida aytilgan gaplarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilatlarini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatoliklarni tahlil qilish, pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi. Nutqdagi fikrlarni o'quvchilarga mazmunli yetkazishning xilma-xil yo'llari va vositalari mavjud. Ularni yordamchi vositalar deb ham atash mumkin. Masalan, yumor yoki biror hikoyatni olaylik. Nutqdagi uzluksiz ilmiy-ommabop fikr oqimi, uning bir maromda bayon qilinishi o'quvchini ham, har qanday tinglovchini ham zeriktirib qo'yishi mumkin. Shunday paytda, yumor, hikoyat, qiziqarli voqealar haqida gapirish o'qituvchiga juda qo'l keladi. Yumorning nutq mazmuniga mos holda keltirilishi yana ham yaxshidir. Shunday qilinsa, o'quvchi ham dam oladi, ham o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi.

Nutqda mavzu doirasida ba'zi fikr va mulohazalarni keltirish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday fikrlar notiq

fikrining to‘g‘riligini, haqqoniy ekanligini isbotlash uchun foydalaniladi, faqat ulardan foydalanishni suiste’mol qilmaslik kerak. Badiiy adabiyot namunalaridan, hikmatli so‘zlardan, tildagi ifoda – tasvir vositalaridan nutqda o‘rni bilan foydalanish ham ijobiy natijalarga erishishni ta’minlaydi.

Nutqning o‘quvchilarga qanday ta’sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida o‘qituvchining nutqiy jarayon davomida o‘zini qanday tuta bilishi, imo-ishoralari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham o‘rni bor.

Samimiylik, xushmuomalalik, odoblilik, o‘quvchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning o‘quvchilar tomonidan e’tibor bilan tinglanishiga sabab bo‘ladi.

Mukammal notiqlik san’atiga ega bo‘lish – o‘qituvchilar uchun ulkan mehnat talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutqning o‘tkirligi, yorqinligi va originalligi tinglovchi va o‘quvchilarda his-tuyg‘u va qiziqish uyg‘otishi, uning e’tiborini qaratishi, aytilayotgan narsaning mazmunini yaxshilab yetkazish uchun zarurdir.

Demak, nutq aniq va ravon bo‘lishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan bo‘lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo‘ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o‘rganilayotgan bilim o‘quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o‘qituvchilardan tinimsiz izlanish va o‘z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari, nutq texnikasi nafas olish, tovush, diksiya, ritmika, leksik madaniyat, o‘qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo‘llari. Nutq odamlar o‘rtasidagi og‘zaki muloqot shaklidir. Bu, bir tomondan, fikrlarni shakllantirish va shakllantirishni, ikkinchi tomondan, idrok etish va tushunishni o‘z ichiga oladi.

Madaniyat ko‘p ma’noga ega atama bo‘lib, u ko‘plab fanlarning o‘rganish predmeti hisoblanadi. Muloqot va nutqqa ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan ma’no ham mavjud. Bu og‘zaki signallardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan madaniyatning bir qismi bo‘lib, ular tilni, uning etnikligini, og‘zaki va yozma shakllarga ega bo‘lgan funktsional va ijtimoiy navlarini anglatadi.

Nutq – bu insonning hayoti, shuning uchun u yozma va og‘zaki nutqda to‘g‘ri va chiroyli gapira olishi kerak.

Demak, nutq madaniyati va nutq madaniyati til me’yorlarini egallash, uning ifoda vositalaridan turli sharoitlarda foydalana bilishdir.

Nutq madaniyati so‘zlovchilarning millatidan qat’i nazar, bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Vaqt o‘tishi bilan til bo‘yicha mavjud bilimlarni tizimlashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Shunday qilib, tilshunoslikning nutq madaniyati deb ataladigan bo‘limi paydo bo‘ldi. Ushbu bo‘limda tilni normallashtirish muammolari, uni takomillashtirish maqsadida o‘rganiladi.

Nutq texnikasi – muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quv soatlarining to‘rtdan bir, ba’zan ikkidan bir qismi o‘qituvchi nutqi orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi nutqiga nisbatan juda sezgir bo‘lib, o‘qituvchining xatolari, noto‘g‘ri talaffuz bolalarda kulgu uyg‘otsa, monoton ohang ularni zeriktiradi, noto‘g‘ri intonatsiya esa nutqning yasama ekanligini ko‘rsatadi va bolalarni o‘qituvchidan uzoqlashtiradi. Fiziologlar fikricha o‘zgartirib bo‘lmaydi deb hisoblanadigan tovush tembrini ham mashq qilish asosida o‘zgartirish mumkin ekan. Masalan Qadimgi Gretsiya yashab o‘tgan buyuk orator Demosfen o‘zidagi barcha jismoniy kamchiliklarni mashq qilish orqali bartaraf etadi.

Demak, nutq texnikasi o‘quvchilarga nutqning to‘liq mohiyatini yetkazishga yordam beradigan nafas olish, tovush hosil qilish va diksiyadan iborat malakalar kompleksidir.

Nutq texnikasining nafas, tovush va diksiya kabi elementlari mavjuddir.

Nutq texnikasi jamoa va shaxs bilan muloqot qilish mahorati, muloqot jarayonini nazorat qila olish, jamoani tashkil qilish, o‘z kayfiyatini, ovozini va harakatlarini boshqara olish mahorati kabilar bilan bir qatorda pedagogik texnikaning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Inson nutqi amalga oshirilishiga ko‘ra ichki va tashqi nutqqa, tashkil etilishiga ko‘ra og‘zaki va yozma nutqqa bo‘linadi. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U bazan istak-tilak, ba’zan chaqiriq-murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Ichki nutq inson tafakkurining mahsulidir. U inson miyasida juda tez sur'atlarda sodir bo‘lib, faqat insonning o‘zigagina ma’lum bo‘ladi. Ichki nutq ba’zan xayol, fantaziya kabi psixologik xususiyatlar bilan bog‘lanib ketadi.

Tashqi nutq esa ikki yoki undan ortiq kishilar uchun amalga oshirilib, atrofdagilarga fikr-mulohazalarni bildirish uchun tashkil etiladi.

Shuning uchun nutq madaniyatini shakllantirishda ichki nutqni rivojlantirishga ham alohida e’tibor berishga to‘g‘ri keladi. Tashqi nutq boshqalarga va nazorat qilish mumkin bo‘lgan faol nutq bo‘lib, u og‘zaki va yozma ko‘rinishlarga ega. Og‘zaki nutq odatdagi tovushli so‘zlashuv nutqi bo‘lib, bu nutq ko‘proq-ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Og‘zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to‘liqsiz gaplar keng qo‘llaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshirishida va monologik, dialogik shaklda namoyon bo‘ladi.

Monologik nutq – bir kishining boshaqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o‘qiganni qayta

so‘zlab berish, o‘zi savol berib, o‘zi javob berish shaklida namoyon bo‘ladi.

Dialogik nutq – ikki va undan ortiq kishi o‘rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko‘rinishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bu nutq keng jumlalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to‘liqsiz gaplar juda ko‘p bo‘ladi. Bunday nutq tarkibida so‘roq va undov gaplar ham uchraydi.

Og‘zaki dialogik nutqda so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham shunga kiradi. O‘qituvchilarda shu vositalarni tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

Yozma nutq harflar vositasida, og‘zaki nutq esa tovushlar vositasida amalga oshiriladi. Inson ijtimoiy faol bo‘lish uchun ko‘pincha og‘zaki nutqdan foydalanadi. Og‘zaki nutqni, ya’ni tovushlarni hosil qilishda nutq texnikasining fonasion nafas, tovush hosil qilish va diksiya kabi elementlari ishtirok etadi. Ularning har biri ustida alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Nafas. Nafas fiziologik funksiyani, ya’ni inson organizmining hayotiy funksiyasini amalga oshiradi. Shuningdek, u nutq jarayonini energiya bilan ta’minlaydi. Demak, inson ikki turda nafas oladi: fiziologik va fonasion nafas.

Fiziologik nafasda havo burun orqali olinib, nafas olish va nafas chiqarish teng hamda bir tekisda bo‘ladi. U quyidagi ketma-ketlikda sodir bo‘ladi: qisqa nafas olish, qisqa nafas chiqarish va pauza.

Fonasion nafasda qisqa nafas olinadi, pauza va cho‘ziq nafas chiqariladi. Chunki tovush hosil qilish uchun havo oqimi zarur bo‘ladi.

Fonasion nafas shakllanmagan bo‘lsa nutq jarayonida hapqirib qolish, yurak urishi tezlashishi, yuz qizarib ketishi kabi holatlar kuzatiladi. Nafas olish jarayonida ishtirok etadigan muskullar ishtirokiga qarab nafasni to‘rt turga ajratiladi. Yuqori nafas – yelka, ko‘krak qafasi va o‘pkaning yuqori qismi ishtirokida amalga oshiriladigan yengil nafas turidir. Ko‘krak

nafas – qovurg'a muskullari ishtirokida sodir bo'lib, ko'krak qafasini aylanasi o'zgaradi. Bunda diafragma deyarli o'zgarmaydi.

Diafragmal nafas – ko'krak qafasi hajmining bo'ylamasiga o'zgarishi natijasida amalga oshadi. Diafragmal-qorin nafas ko'krak qafasi muskullarining ko'ndalangiga hamda bo'ylamasiga o'zgarishi, qorin muskullarining o'zgarishi asosida hosil bo'ladi. Shu nafas fonasion nafas uchun eng qulayi hisoblanadi. Nutq tovushlari cho'ziq nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Shu sababli fonasion nafas va tovush hosil qilish jarayonini takomillashtirishda diafragmal-qorin nafasni rivojlantiriuvchi mashqlardan foydalanish lozim. O'qituvchining nafas olishini tartibga solish uchun juda ko'plab mashqlar belgilangan. Shulardan biri, yerga chalqancha yotgan holda burun orqali uzoq vaqt davom etadigan chuqur nafas olish yoki shu holatni tik turgan holda qaytarish nafas olish organlarining to'g'ri ishlashiga yordam beradi. Tovush. O'qituvchilar orasida tabiiy ravishda ijobiy ta'sir etadigan, jarangdor, yoqimli tovush egalari juda kam uchraydi. Yaxshi tovush yillar o'tishi bilan, maxsus mashqlar yordamida chiniqtirib borilmasa, o'zgarishi mumkin. Shuningdek, har bir insonning tovushi maxsus mashqlar asosida chiniqtirilsa kuchli, o'zgaruvchan va jarangdor bo'lishi mumkin. Tovush apparatining tuzilishi bilan tanishib chiqamiz. Tovush apparati 3 qismdan iborat: generator, rezonator, energiya tizimi. Generator tizim – tovushni generasiyalaydi, tovush paylarida va og'iz bo'shlig'ida sodir bo'ladi. Tovushlarni tonal va shovqin tovushlarga ajratadi. Rezonator tizimga halqum, og'iz va burun bo'shlig'i kiradi. U nutq dinamikligini ta'minlaydi. Energetik tizimga yuqori nafas yo'llari kirib, tovush hosil qilishda ishtirok etadigan havo oqimining tezligi va hajmini ta'minlaydi.

O'qituvchi tovushining muhim xususiyatlari Tovush o'pkadan chiqayotgan havo oqimining tovush paylari tomonidan to'sib qolinishi natijasida hosil bo'ladi. Tovushning muhim jihatlari tovush apparatining qay darajada shakllanganligiga

bog'liq. O'qituvchi tovushining muhim jihatlariga quyidagilar kiradi:

1) Tovushni ma'lum masofaga yetkazish va boshqarish.

2) Tovushning egiluvchanligi – nutq mazmuniga ko'ra o'zgartirish.

3) Tovushning balandligi – tovushning tonallik darajasi. Tovush harakati uning baland-pastligiga bog'liq. Odam ovozi osongina 2 oktava balandligida o'zgarib turishi mumkin, ammo kundalik nutqimizda 3 – 5 nota kuchida ovoz ishlatilishi mumkin.

4) Diapazon – ovoz ko'lami, kengligi. Inson imkoniyatlari darajasidagi, eng yuqori va eng quyi chegarasiga ega turli balandlikdagi tovushlar yig'indisi.

5) Tembr – har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati, tovush bezagi, uning mayinligi yoki yo'g'onligi, yorqinligi.

Har bir insonning tovush tembri rezonator tizim asosida o'zgarishi mumkin. Rezonator tizimning 2 turi farq qilinadi: yuqori (bosh) va quyi (ko'krak).

Yuqori yoki bosh rezonator tizimiga bosh miya, og'iz va burun bo'shlig'i kiradi. Quyi yoki ko'krak rezonator tizimiga traxeya va bronxlar kiradi. Rezonator tizim yordamida turli xildagi ton (tovush) va oberton (qo'shimcha tovush)lar hosil qilish mumkin.

6) Ritmika – tovush va so'zlarni talaffuz qilishdagi umumiy tezligi, davomiyligi, ovoz maromi yoki vazni. Ba'zi bir so'zlarning, bo'g'inlarning talaffuzi, ularning tezligi – nutqning sur'atini tashkil etadi.

7) Temporitm – so'zlar orasidagi tanaffuslardir.

8) Nutq tezligi o'qituvchining shaxsiy sifatlari, nutq mazmuni, muloqot qilish vaziyatiga, har bir o'qituvchining fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog'liq.

Individual tarzda tashkil etiladigan maqsadli va aniq yo'naltirilgan mashqlar tovush tembriga ta'sir etadi, tovushdagi noo'rin qo'shimcha tovushlarni yo'qotishga yordam beradi.

Ongli ravishda ovozni mashq qildirish uzoq, muntazam va individual davom etadi. Ko‘p olimlar olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, past ovoz o‘quvchilar tomonidan yaxshi idrok etiladi. Past ovoz ularga yuqori ovozga nisbatan yoqadi. Yuqori ovoz o‘quvchilarni ham, o‘qituvchining o‘zini ham tez charchatib qo‘yadi. O‘qituvchi kasb kasalliklarining 40,2 foizini ovoz kasalliklari tashkil etadi. Ovoz kasalligining sabablari: a) yuqori ovozda gapirish; b) ovoz apparatlaridan to‘g‘ri foydalanmaslik; v) ovoz gigiyenasiga amal qilmaslik; g) ovoz apparatining tug‘ma kamchiliklaridir. Turli xil ovoz kasalliklarining oldini olish maqsadida ishdan so‘ng pedagog 2 – 3 soat davomida kam va sekin gapirishi kerak. 3 – 4 soat dars berishdan so‘ng bir soat ovoz apparatlariga dam berish kerak.

O‘qituvchilar asabiylashmasligi, ayniqsa, ovqat yeyish kun tartibiga rioya qilishlari kerak. Masalan: achchiq, issiq, sovuq, spirtli ichimliklar ichish, chekish ovoz paydo bo‘lish a’zolarining qizarishiga, yallig‘lanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Tomoqni qurib qolishidan saqlash uchun mutaxassislar soda va yod eritmasi bilan halqumni chayqab turishni tavsiya etadilar. Quyidagi maslahatlar ham o‘qituvchilarga foydali:

1) bir xil tonda gapirish ovoz muskullarini charchatib qo‘yadi. Agar har xil, ifodali belgilar bilan gapirilsa, ovoz apparatlari sog‘lom bo‘ladi;

2) bo‘rning mayda changlari ovoz paylari uchun juda ham zararli, doimo doskani ho‘llatta bilan artish kerak;

3) dars bergandan so‘ng, agar havo sovuq bo‘lsa, tez yurmaslik kerak. Chunki, sovuq havo xalqumni yallig‘lantiradi.

O‘quvchilarning o‘qituvchi nutqini yaxshi idrok etishlari uchun o‘qituvchi tovush, so‘zlarni aniq va ifodali talaffuz qilishi kerak. Tovush, bo‘g‘in va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishda ovoz apparati: lablar, til, tish, jag‘lar, tanglay, kichik til, xalqum, ovoz paylari qatnashadi. Nutqdagi organik kamchiliklarni jarrohlik va logopedik uslublar bilan bartaraf etish mumkin.

Noorganik kamchiliklar esa: to‘ng‘illab gapirish, soqovlanish, duduqlanish, ba’zi bir tovushlarni talaffuz eta olmaslik, burunda gapirish, tez gapirish, chala gapirish.

Bularni bartaraf etish uchun nutq organlari harakatini artikulyatsiya gimnastikasi orqali mashq qildirish tavsiya etiladi. Bu ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: a) nutq apparatlarini mashq qildirish, b) har bir unli va undosh tovushlarning to‘g‘ri artikulyatsiyasini mashq qilish.

Nutqning tezligi, alohida bo‘g‘inlarning va so‘zlarning jaranglashi, shuningdek, nutq ritmidagi pauzalarga rioya qilish nutqning ritmini tashkil etadi. K.S.Stanislavskiyning ta’kidlashicha, intonatsiya va pauzaning o‘zi, so‘zdan ham ortiqroq eshituvchiga hissiy ta’sir etar ekan. Nutq tezligi o‘qituvchining individual xususiyatlariga, nutq mazmuniga va muloqot vaziyatiga qarab o‘zgaradi.

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo‘llari: o‘qituvchi rahbarligidagi mashg‘ulotlar (pedagogik texnikani o‘rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalash)dir.

Pedagog malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalash, ya’ni talabaning o‘zida mohir o‘qituvchiga xos shaxsiy fazilatlarni va kasbiy malakalarni shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi rol o‘ynaydi, deb aytish mumkin.

Tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik texnika mashg‘ulotlari individual, guruh bilan yoki ketma-ketlikda o‘tkazilishi mumkin. Masalan, zarur bilimlar ma’ruzalarda yoki tegishli adabiyotni mustaqil o‘qishda egallanishi mumkin.

Avtomatlashtirishga doir ayrim oddiy harakatlar (to‘g‘ri artikulyatsiya, fonatsion nafas olish usullari, relaksatsiya usullari va shu kabilar) ketma-ket ko‘rsatilishi mumkin.

Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishning boshlang‘ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi

yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatoliklarning oldini olishida, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishida yordam beradi.

O'qituvchi mehnatining ilmiy tashkil etishning mohiyati hamda o'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnat – mehnat turlaridan biri bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchilar, moddiy va ma'naviy vositalar, mehnat shart-sharoitlari faol o'zaro harakatda bo'ladi. Qachonki, pedagogik faoliyat fan va amaliyotning zamonaviy yutuqlariga, mehnat jarayonini har tomonlama metodologik tahlil etish, barcha omillardan majmuaviy foydalanishga asoslansa, u holda uni ilmiy tashkil etilgan mehnat deb atash mumkin. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishga pedagogikaning alohida sohasi sifatida qaraladi.

O'qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta'sir etadigan shart – sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo'llarini to'g'ri belgilashga bog'liq. O'qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi avvalo o'z mehnatini rejalashtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o'z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi zamon axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti davrida o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o'qituvchi tomonidan qay darajada o'zlashtirilishiga ham bog'liq.

Shu bilan birga o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish uchun fanlar integratsiyasini, pedagogika va psixologiya fanlarining eng so'nggi yutuqlarini muntazam o'zlashtirib borish

shart. Ushbu bilimlar axborot kommunikatsion texnologiyalari, matbuot, ilmiy jurnallar, ilmiy adabiyotlar asosida o'zlashtiriladi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda vaqtdan unumli foydalanish, o'zining keng imkoniyatlarini hamisha hisobga olish, o'quv va tarbiya jarayonida har bir daqiqadan unumli foydalanish, vaqtni bekorga o'tkazishga yo'l qo'ymaslik muvaffaqiyat garovidir. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda avvalo:

- o'z ijodiy imkoniyatlariga ishonishi;
- ta'lim muassasalarida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini;
- to'liq tasavvur eta olishi;
- har bir tarbiyalanuvchining ruhiy holatini puxta bilishi;
- o'z mehnati mexanizmini, qonuniyatlarini, cheklangan imkoniyatlarini yaxshi anglashi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilishi shart.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etish bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy-foydali mehnat bo'lib, u yuqorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, aql va diqqatni, jismoniy kuchni, shijoat va g'ayratni talab etadi.

O'qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatishiga, o'z fikr-mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tomonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o'z kasbini puxta o'zlashtiradigan yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

Pedagogik mehnatni ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal bo'lgan va yuqori samara beradigan kun tartibini tanlay olishi lozim.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining kun tartibi uning faoliyati va hayotini tartibga soluvchi asosdir. U yo'q joyda mehnat unumi ham past bo'ladi, asablar tez charchaydi, sog'likka putur

etadi. Natijada o'qituvchi sarf qilgan kuchini qayta tiklay olmaydi, mehnat unumdorligi pasayadi, ish qobiliyati susayadi, oqibatda ta'lim-tarbiyaning sifati yo'qoladi. Demak, ilmiy asoslangan kun tartibi o'qituvchilarning o'z mehnatini to'g'ri va mukammal tashkil etish vazifasini hal etishga qo'yilgan ilk qadamdir desak mubolag'a bo'lmaydi. Pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish shartlaridan yana biri ish o'rnini tartibga solish va mehnat sharoitini o'z faoliyatiga moslashtirishdir. O'qituvchining ish joyi yashash jarayonining bir qismi bo'lib, mehnat unumdorligining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi. O'qituvchining ish joyi, xususiyati, pedagogik mehnatning mazmuni va xususiyati bilan belgilanadi.

Mehnat sharoiti, kun tartibi kompleks tushuncha. Unda o'qituvchining mehnat qilayotgan joyi, aniq vaziyatlar e'tiborga olinib quyidagi tamoyillar asosida takomillashtirilib boriladi.

Pedagogik mehnatning samaradorligi, maqsadi va faoliyat vazifasiga ko'ra aniq bir yo'nalishni belgilash o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning birinchi tamoyilidir.

Ikkinchi tamoyil mutaxassislikka oid bilimlarni chuqur o'zlashtirib qizg'in pedagogik faoliyat uslubini belgilash.

Uchinchi tamoyil pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etishda axborot va kompyuter texnologiyalari vositalaridan samarali foydalanishni mukammal bilish tushuniladi. Bunda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik texnologiyalar ham e'tiborga olinadi.

To'rtinchi tamoyil ta'lim-tarbiya birligini ta'minlagan holda pedagogik faoliyatni rejalashtirish. Ushbu tamoyil reja asosida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tartibga solish, uning modelini yaratish, tayanch tizimlarni topish kabi masalalardan tashkil topgan.

Pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida rejalashtirmasdan turib shaxsni va jamoani tarbiyalash va ularni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash mumkin emas, bu esa jamiyatga ham ijtimoiy, ham iqtisodiy

zarar keltiradi. Pedagogik mehnatni nazorat qilish va hisobga olish o'qituvchi faoliyatini muntazam kuzatib borish yutuq va kamchiliklarini aniqlash, muhimlarini ajratib olishni nazarda tutadi. Hisobga olishning eng maqbul yo'li statistik hisobga olishdir. Pedagogik nazoratda ob'yektivlik, omilkorlik, samaradorlik, muntazamlilik va oshkoralik talab qiladi.

Pedagogik mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari, pedagogik mehnatni ilmiy tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish qonunlariga quyidagilar kiradi:

- vaqtni maksimal ravishda tejash va undan samarali foydalanish;
- ijobiy mehnat sharoitlari va dam olishni tashkil etish hamda samarali foydalanish;
- mehnat jarayoni barcha ishtirokchilarining salomatligi va har tomonlama rivojlanishi haqida qayg'urish.

O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- optimallashtirish – o'quvchilarning o'quv-tarbiya ishlari uchun ijobiy shart-sharoitlarni yaratish;
- insonparvarlik tamoyili – pedagog tashiuvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi hodisalarni bartaraf etish;
- estetizatsiyalash tamoyili – ishchanlik qobiliyatini oshiruvchi badiiy unsurlarni kiritish;
- tejamkorlik – o'quv mashg'ulotlarini oqilona tashkil etish;
- individuallashtirish tamoyili – o'quvchilarga tabaqalashtirilgan tarzda yondashuv;
- jamoaviylik tamoyili – alohida xodim va pedagogik jamoa mehnatini uyg'unlashtirish;
- nazariy va amaliy ta'limni optimal uyg'unlashtirish tamoyili – qisqa muddatda o'quvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishlarini ta'minlash;
- kadrlarni oqilona tanlash, ularning malakasini tizimli tarzda oshirib borish tamoyili;

- pedagogik fanlar rivojini hisobga olgan holda o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va tizimli yo‘lga qoyish.

Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari o‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat ko‘rsatishiga, o‘z fikr-mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tamonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, o‘z kasbini puxta o‘zlashtiradigan yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi.

O‘qituvchi mehnati ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishida o‘quvchilar bilan olib borilayotgan faoliyatning quyidagi yo‘nalishlariga e’tibor berish lozim:

- o‘qituvchi va o‘quvchilarning ikki tomonlama bir-biriga ta’siri natijalari;
- o‘qituvchining o‘quvchilar jamoasi bilan ishlay olish qobiliyati;
- sinf jamoasi faollari bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning ijobiy natijalari.

O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etishning quyidagi vositalarga e’tibor berish lozim.

O‘qituvchi mehnatining ta’lim-tarbiyaviy mohiyati ijobiy natijalar berishi uchun, o‘qituvchi sinf jamoasi bilan o‘tkazilayotgan har qanday tadbirni belgilangan vaqtda amalga oshirishi, mehnat va dam olish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olishi, o‘z mehnati faoliyatida sog‘ligiga, ruhiy holatiga e’tibor berishi lozim.

Ayniqsa, yosh o‘qituvchilar mehnatini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etishda boshlang‘ich yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Didaktika nimani o‘rganadi? Mazkur sohaning ob’yekti va predmetini izohlang.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalarini sanab bering.

3. Zamonaviy ta'lim paradigmalariga nimalar kiradi?

4. O'qitish jarayonining asosiy vazifalariga izoh bering.

5. O'qitish jarayonining bosqichlariga ta'rib bering.

6. O'quvchilarning bilish faoliyatining tuzilishi va o'ziga xosliklarini izohlang.

7. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?

8. Ta'limning qanday umumiy qonuniyatlari mavjud?

9. Ta'limning xususiy qonuniyatlariga nimalar kiradi?

10. Ta'lim tamoyillari deb nimaga aytiladi?

11. Ta'limning mazmunga doir tamoyillariga nimalar kiradi?

12. Ta'limning tashkiliy-metodik tamoyillariga izoh bering.

Nazorat uchun testlar:

1. Pedagogika tarixi fanining vazifasi

A) Ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ochib berish;

B) O'tmish pedagogik nazariyalari, ta'lim-tarbiyaning eng ilg'or tajribalari asosida pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni o'rgatadi;

C) Pedagogik faoliyatni chuqurroq o'rgatadi;

D)*Ijtimoiy fan sifatida pedagogik nazariyalarni o'rgatadi.

2. Yunonistonda bolalarning *"donishmand"*lar bilan suhbatini qanday nomlangan?

A)*Maktab;

B) Dargoh;

C) Ilmxona;

D) Savodxona.

3. *"Maktab"* yunoncha so'z bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?

A) "savod o'rganish";

B)*"bo'sh vaqt, mehnatdan dam olish";

C) "mahorat sirlari";

D) "yashash uchun kurash".

4. "Ta'lim, – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishni, o'rganishidir" ushbu sitata qaysi qomusiy olim fikridan keltirilgan?

A) Abu Ali ibn Sino;
B)*Abu Nasr Forobiy;
C) Abu Rayhon Beruniy;
D) Al Xorazmiy.

5. ... jamiyatning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilm-fan va amaliy faoliyat sohasidir.

A) Sotsioligiya;
B) Falsafa;
C)*Pedagogika;
D) Psixologiya.

6. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyaning jahon xalqlari pedagogik-tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o'rganishdan iboratdir.

A)*Pedagogika tarixi fani predmeti;
B) Pedagogika tarixi fanining maqsadi;
C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;
D) Pedagogika tarixi fanining tadqiqot metodlari.

7. Qadimgi O'rta Osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini, buyuk Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta'lim-tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani

rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

A) Pedagogika tarixi fani predmeti;

B)*Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D) Pedagogika tarixi fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

8. Pedagogik jarayonning vazifasi (funksiyasi) nimalardan iborat?

A)*Bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish;

B) O'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib borish;

C) Bilish kuchlarini rivojlantirib borish;

D) Tevarak-atrofdagi voqealarni tushuntirish.

9. Ekskursiyadan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

A)*Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish;

B) Kuzatish;

C) Ta'lim-tarbiya berish;

D) Tabiatni ko'rsatish.

10. Qaysi alloma o'zining asarlarida aqliy tarbiyaga, jismoniy tarbiyaga estetik tarbiyaga, axloqiy tarbiyaga, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratgan.

A) A.Navoiy;

B) Farobiy;

C) Beruniy;

D)*Ibn Sino.

11. Yangi usul maktablari ochish uchun birinchi bo'lib "Ustodi avval" alifbosini kim yaratgan.

A) Bexbudiy;

B)*Saidrasul Aziziy;

C) Avloniy;

D) Shakuriy.

12. Didaktika bu – ...?

A) Tarbiyalash;

B) Zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;

C)*Ta'lim va o'qitish nazariyasi sifatida har qanday fanni o'qitishga xos umumiy qonuniyatlarni o'rgatadi;

D) Bolani maktaga tayyorlaydi.

13. Mehnat jarayonini rejalashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?

A)*Mehnat malakasini o'rgatish, mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish;

B) Maqsad qo'yish, mehnat faoliyati uchun kerakli ish qurollarini tayyorlab olish;

C) Natijani aniqlab olish, ish joyini yig'ib qo'yish;

D) Qo'l mehnati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.

2. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari / O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. – T.: TDPU, 2004.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

5. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 115 b.

6. Musurmonov R. Ta'lim faoliyati sharoitida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi nizolarning oldini olish – ta'lim samaralidorligi omili. Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723

7. Ismoilova D.M. Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish. "Xalq ta'limi" jurnali – T.: 2020-yil. № 5.

8. Khasanova G.K. The success and education system of South Korea and Japan // Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материа. – 2021. – С. 94.

9. Khasanova, G.K. (2021). Main trends in the development of education and professional training in the world. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 1), 257 – 262.

10. Хашимова С. Некоторые грамматические и семантические особенности удвоения в японском языке. – Страны. Языки. Культура. – С. 334 – 338.

11. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334 – 338.

12. Насирова, С.А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. Китайская лингвистика и синология (С. 384 – 387).

13. Насирова, С.А. (2021). Военная система древнего Китая: обзор терминов. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 1), 139 – 146.

14. Hashimova, S.A., & Nasirova, S.A. (2021). Features of forming of animated nouns with the affixes in modern Chinese language. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1 – 10.

20-mavzu: O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishilash. Pedagogik tajribani to‘plash tizimi.

Reja:

1. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash hamda pedagogik mahoratning asosiy shartlari.
2. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganishda materiallar to‘plash. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish yo‘llari, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ularni qo‘llash metodlari.

Tayanch so‘z va iboralar: o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z ustida ishlash, pedagogik mahoratning asosiy sharti, ilg‘or pedagogik tajriba, pedagogik mahorat, ilg‘or pedagogikani o‘rganish materiallari, pedagogik tajriba, ilg‘or pedagogika metodlari.

O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash hamda pedagogik mahoratning asosiy shartlari. O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni, o‘z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. Tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilishlari, turli o‘quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo‘llaniluvchi usullardir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta’minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta’sirchan vositasidir. O‘quvchilar o‘qish, tarbiya va dam olishda o‘z-o‘zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, bu usullar o‘quvchilarni o‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi irodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni, tarbiyalanishni xohlashi, o‘zini o‘rtoqlari, atrofdagilarning ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir. Ushbu metodni qo‘llash sinfdagi o‘quvchilarning umumiy yoki jamoa a’zolarning shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo‘llaniladi: “Shunday harakat qilish kerak”, “Hamma shunday qiladi”. O‘smirlar bilan ishlaganda ma’naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma’nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo‘llaniladi:

1. Yangi ma’naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash;

2. Tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o'quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to'g'ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Maktab amaliyotida izohlash ishontirishga tayanadi. Ishontirish vositasida o'quvchi ruhiyatiga sezilarsiz holda ta'sir etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda o'smirlar ishonuvchan bo'lishadi. Pedagog ishontirishdan tarbiyalanuvchi ma'lum ko'rsatmani qabul qilishi zarur bo'lgan vaziyatlarda foydalanadi. Mazkur metoddan boshqa metodlarning ta'sirini kuchaytirish uchun ham foydalaniladi.

Munozara tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli bo'lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzular ("Did haqida bahs", "Mashhur bo'lish yo'llari", "Biz madaniyatli kishilarmizmi?" va hokazolar)da o'tkaziladi. Munozara turli nuqtayi nazarlar to'qnashgan vaziyatda o'quvchilarda ma'lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

Munozara asosida turli qarashlar yotadi. Bahs ijobiy natija berishi uchun puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq. Munozara uchun mustaqil mulohaza va qarashni yuzaga keltiruvchi 5 – 6 ta savol tayyorlanadi. Ushbu savollar bilan munozara ishtirokchilari oldindan tanishtiriladilar. Ba'zan tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o'zi tayinlashi ham mumkin. Chiqishlar jonli, erkin va qisqa bo'lishi zarur. Matnni yozish kerak emas, agar shunday holat yuz bersa munozara zerikarli tus oladi. Pedagog munozara ishtirokchilariga fikrlarini ixcham, asosli va dalillar asosida bayon etishga yordam beradi.

Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va

shaxs rivojlanishining keyingi bosqichlarida mustahkamlanib boradi.

O'qituvchi hamda ota-onalar bolalarda ijobiy odatlarning tarbiyalanib borayotganligini kuzatib borishlari kerak. O'quvchilar odatlarni o'z yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular atrofdagilar bilan faol muloqotga kirishishlari tufayli taqlid qilish, uzluksiz tarbiyani yo'lga qo'yish asosida tarkib toptiriladi. Natijada odat xarakterga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli, ijobiy jarayondir. Mashq natijasini ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

O'rgatish tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xil usullari mavjud:

1. Faoliyatda mashq qilish;
2. Kun tartibi mashqlari;
3. Maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy hamda jamoa faoliyatini tashkil etish va o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari belgilangan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq ko'nikma va malakalarini hosil qiladi, mustahkamlaydi.

Topshiriq o'quvchilarda mehnat, ijtimoiy xulq va hayotiy tajriba ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida qo'llaniladigan

usul. O‘quvchilarning topshiriqlarni jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar, mehnat qilish o‘quvchilarning harakatlarini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o‘quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Pedagogik talab ma’lum harakatlarni rag‘batlantiruvchi yoki to‘xtatuvchi hamda o‘quvchini oqilona harakatlarni bajarishga undovchi xarakterga ega bo‘lishi mumkin.

Rag‘batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usulidir. O‘qituvchi har bir o‘quvchi shaxsida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni anglay olishi zarur. Shundagina o‘quvchi o‘zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o‘z kuchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o‘z o‘rniga ega. O‘qituvchi ana shunday holatning yuzaga kelishi uchun rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanadi. O‘quvchining yanada ijobiy sifatlarga ega bo‘lishga intilishiga yordam beradi.

O‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalashi uchun, avvalo o‘zini atroflicha chuqur o‘rganishi, o‘z ishidagi yutuq va kamchiliklarini ko‘ra olishi kerak. O‘z-o‘zini o‘rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir. Boshqalarning yutuqlarni o‘rganmay, o‘zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o‘zini shaxs sifatida o‘rganishi mumkin emas. O‘zini anglash, o‘zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

K.D.Ushinskiy o‘z-o‘zini tarbiyalash orqali quyidagilarga erishilishni ta’kidlab o‘tgan:

1) xotirjamlik;
2) so‘zda ishonch va to‘g‘rilikka;
3) xatti-harakatga mulohaza bilan yondashish;
4) qat’iylik;
5) o‘zi haqida sababsiz biror og‘iz gapirmaslik;
6) lozim narsalardangina foydalanish;
7) har kuni kechasi o‘ziga o‘zi hisobot berish.
8) biror marotaba maqtanmaslik.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘z faoliyatini tahlil qilishdan va o‘z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘z ustida ishlashi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda quyidagi usullardan foydalanadi:

- O‘z-o‘zini bilish;
- O‘z-o‘zini anglash;
- O‘z-o‘zini aniqlashtirish;
- O‘z-o‘zini rivojlantirish;
- O‘z-o‘zini nazorat qilish.

O‘z-o‘zini bilish jarayoni o‘qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma’lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O‘z-o‘zini bilish – o‘qituvchining pedagogik mahorati doirasida ma’lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. O‘qituvchi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

▶ O‘qituvchining o‘z faoliyati va unda o‘ziga nisbatan “metapozitsiya” (noaniq pozitsiyada)da turib, o‘ziga tashqaridan qarash, o‘zini kuzatish malakasini ko‘zda tutadi.

Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiylashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi, refleksiv – "MEN" shakllanadi. Bu o'qituvchining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

- Boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarni hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi. Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy "MEN" va ideal "MEN" nisbatlanadi. Bu o'qituvchining eng yaqin rivojlanish darajasi bilan bog'liq.
- O'qituvchining kasbiy faoliyati davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, refleksiyalangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

O'qituvchi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z-o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

- Pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy tavsifga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniqlanadi. Pedagogik ijodkorlik majmui – pedagogik tajribadir.
- Ilg'or pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yangi shakl, metod va vositalarini izlab topishdir.
- Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi turdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

- Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari yig'indisidir. Pedagogik tajribani to'plash pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish omili hisoblanadi

Pedagogik tajribani to'plash tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

- Maqsadni belgilash.
- Ma'lumotlarni to'plash.
- Ma'lumotlarni tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish.
- Yutuqlarni aniqlash va amaliy faoliyatga tatbiq etish.
- Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida faoliyat olib borayotgan "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni va tajribalarni joriy etish" bo'limi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-avgustdagi 234-sonli "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida tashkil qilingan.
- Ilg'or pedagogik texnologiyalar va tajribalarni joriy etish bo'limi faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 19-iyundagi 164-sonli "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblarining yangilangan klassifikatorini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Xalq ta'limi vazirligining 2015-yil 16-fevraldagi 34-sonli "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institut (markaz)larining ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2015-yil 24-iyundagi 191-sonli "Xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqlariga muvofiq belgilangan.
- O'qituvchining ijodkor va tashabbuskor bo'lishi lozimligini buyuk nemis pedagogi A.F.Distervergning fikri ham

tasdiqlaydi: "Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo'yadi, yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi".

▶ Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: "Loaqal bir harf o'rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo'lmaydi". Biz ulardan umrbod qarzdormiz.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish yo'llari, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlar. Ilg'or innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida elektron darslik, elektron qo'llanma va boshqa elektron nashrlarga talabning kuchayib borayotganligi ilm-fan taraqqiyotini yana chuqur egallash uchun yaratilayotgan qulay imkoniyatlardir. Ilg'or pedagogik tajriba ko'rinishida ommalashib kelayotgan elektron adabiyotlar va ularning tatbiqi davr talabi hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash o'qituvchining darslarini kuzatish va tahlil etish jarayonida ma'lum bo'ladi. So'nggi yillarda ochiq darslarni rejalashtirish o'qituvchi uchun shart bo'lgan me'yorga aylanib bormoqda. Shunga ko'ra har bir o'qituvchi mutaxassis sifatida, o'z sohasining malakali va bilimdon fidoyisi sifatida ilmiy asoslangan dars tahlili va uning metodikasini bilmog'i lozim. Dars tahlillari jarayonida o'qituvchi tomonidan ko'tarib chiqilgan yangiliklar, yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar tatbiqi va uning samaradorligiga ko'ra ta'lim mazmunidagi ijobiy o'zgarishlarga qarab ilg'or pedagogik tajriba umumlashtiriladi va ommalashtiriladi.

Ta'lim tajribasi – o'qituvchi tomonidan o'quv ishlari jarayonida olingan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarning yig'indisi.

Asosida o'qituvchilik tajribasi o'qituvchi pedagogik mahorati shakllanmoqda. Shu bilan birga, bu pedagogika fanining rivojlanish manbayi.

Maktab amaliyotida oliy ta'limni o'qitish jarayonida olingan bilimlar faqat moslashuvchan va chuqurlashadi va o'qituvchining pedagogik harakatlarini optimallashtiradi. Jarayonda o'quv faoliyati tajriba psixologik va pedagogik fanlarga tayanib, yangilanadi. U pedagogik mahoratni rivojlantirish va boshqa odamlarning tajribasini o'rganishni faollashtiradi, uni o'ziga xosligi bilan taqqoslaydi.

Ilg'or pedagogik tajribaning o'ziga xos xususiyati uning yechimiga e'tibor berishdir, dolzarb masalalar maktabning o'quv jarayoni.

Uning muhim ko'rsatkichi barqarorlikdir. Bu shuni anglatadiki, ta'lim va ta'lim samaradorligini vaqt sinovidan o'tkazish kerak. Ilg'or pedagogik tajribaning istiqboli shuni ko'rsatadiki, u "ishlaydi" amaliyot boshqa o'qituvchilar, uni tarqatish va amalda qo'llash mumkin.

O'qituvchining xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng yaxshi amaliyotlar innovatsion yoki namunali bo'lishi mumkin. Innovatsion pedagogik tajriba o'ziga xoslik, yangilik bilan ajralib turadi. Innovatsion o'qituvchining tajribasi tajriba deb ataladi va tadqiqot deb ataladi. Agar biz o'qitish va o'qitishning shakllari, usullari, vositalarini ulardan ijodiy foydalanish asosida takomillashtirish haqida gapiradigan bo'lsak, unda bunday tajriba ratsionalizatsiya hisoblanadi. Namunaviy pedagogik tajriba – bu pedagogika fanining yutuqlaridan, olimlar, metodistlarning metodik tavsiyalaridan, boshqa o'qituvchilarning tajribasidan mohirona foydalanadigan o'qituvchining ongli faoliyati va shu asosda uning tarbiyaviy ishi boshqalar uchun namuna. Maktab ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarni izlashni rag'batlantirishi kerak.

Ilg'or pedagogik tajriba maktab ichidagi nazorat jarayonida pedagogik o'qishlar, konferentsiyalar va boshqalarda qayd etiladi. U ommaviy amaliyotning mulkiga aylanishi uchun uni quyidagi ish bosqichlarini nazarda tutgan holda o'rganish va umumlashtirish kerak:

a) pedagogik muammoni va o'rganish ob'yektini aniqlash. Ushbu bosqichda tajriba mavzusini shakllantirish, uning dolzarbligini asoslash, uni o'rganish uchun guruh tuzish;

b) tajribani oldindan o'rganish. Ushbu bosqich tajriba ob'yekti bilan oldindan tanishishni o'z ichiga oladi, mashg'ulotlarda qatnashish, o'qituvchilar bilan suhbatlar va maktab hujjatlarini o'rganish. Shu asosda g'oyalar aniqlanadi, mukammallik, uni o'rganish usullarini aniqlang;

c) nazariy tayyorgarlik. Eng yaxshi amaliyotlarni o'rganadigan odamlar ushbu muammo bo'yicha mavjud nazariy va uslubiy qoidalarni bilishlari kerak, bu esa tajribaning yangilik darajasini aniqlaydi, pedagogik sharoitlarining samaradorligini ta'minlash;

d) tajribani o'rganish. Ushbu bosqichda empirik materiallar to'planadi, o'quv jarayonining individual aloqalari o'rganiladi va nazorat imtihonlari (bo'limlar) tashkil etiladi.

To'plangan materiallar odatiy va tasodifiy deb tasniflanadi, chunki u tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan. Ushbu ish argumentatsiya va dastlabki nazariy pozitsiyalarni nazariy tayyorlash bosqichida shakllantirilgan empirik materiallar bilan mustahkamlashdan iborat. Tajribani tizimlashtirish va umumlashtirish jarayonida aynan ushbu qoidalar uning asosiy g'oyalarini aniqlash, o'rganilayotgan muammoni hal qilish bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish va tajriba istiqbollarini baholash uchun asos bo'ladi.

Eng yaxshi tajribalarni tarjima qilish shakllari va usullari: ochiq darslar va boshqa tadbirlar; o'rganilgan natijalarni og'zaki ravishda yetkazish, o'qituvchilarning maktabda, xalq ta'limi vakillarining yig'ilishlarida, kurslarida, seminarlarida chiqishlarida ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; o'rganilgan natijalar to'g'risida yozma hisobotlarni tayyorlash, ilg'or pedagogik tajribalarni metodik xatlar, metodik ishlanmalar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, risolalar, monografiyalar, anjuman va seminarlarning materiallari to'plamlari ko'rinishida

umumlashtirish; ilg'or pedagogik tajribani namoyishkorona ommalashtirish – ko'rgazmalar, metodikada maxsus stendlarni tashkil etish va boshqalar.

Ilg'or pedagogik tajribaning samaradorligi pedagogika fani va maktab amaliyotining organik o'zaro ta'sirini ta'minlaydi, o'qituvchilarni o'qitish va tarbiyalashning yangi usullarini izlashda baxtsiz hodisalar va xatolar haqida ogohlantiradi.

Innovatsion o'qituvchilar tajribasida ularning pedagogik faoliyatini ajratib turadigan va o'ziga xosligini ochib beradigan individual xususiyatlar aniq kuzatiladi. Ularning ishlarida juda ko'p va umumiy belgilar. Asosan, ular hamkorlik pedagogikasining quyidagi g'oyalariga ega: tarbiyaviy maqsadga ega bo'lgan jamoada xilma-xil munosabatlarni qo'llash; ishning shakllari va usullarini bolalar o'zaro munosabatda bo'ladigan tarzda o'ylash; talabalarga o'z faoliyati va munosabatlarini tahlil qilish qobiliyatini singdirish; o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonida, majburlashsiz o'qitishdagi birligi; o'quvchiga optimistik qarash, uning talabada ob'yektiv o'zini-o'zi anglash qobiliyatini va atrofdagi voqelikni idrok etish qobiliyati.

Pedagogik tajribaning samaradorligini va uni baholash darajasini aniqlash uchun quyidagi mezonga ega bo'lish kerak: ob'yektning xususiyatlari, ma'lum bir atributni ma'lum ob'yektda aks ettirish darajasini aniqlash uchun o'lchov va mos yozuvlar nuqtasi (biror narsani o'lchash uchun sizda shunday bo'lishi kerak). Ushbu tarkibiy qismlarsiz ishonchli mezon mavjud emas va shuning uchun pedagogik tajribani ob'yektiv baholash mumkin emas.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra, ikkita guruh mezonini ajratish mumkin: birinchi guruh – bu umumiy pedagogik mezonlarga tegishli mezonlar (masalan, muammoli o'qitish mezonlari), ikkinchisi – eng yaxshi amaliyotga tegishli bo'lgan umumiy pedagogik mezonlarning zarralari sifatida (masalan, muammoli o'qitish mezonlari nisbatan boshqacha) faoliyat turlari.

O‘qitishda ustunlik belgilari quyidagilar:

1. Asosiy parametrlar bo‘yicha o‘quv jarayoni natijalarining yuqori miqdoriy va asosan sifat ko‘rsatkichlari:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligi;
- bolalar ta’limi (bilimlarning to‘liqligi va mustahkamligi, bilimlar tizimi va ularni umumlashtirish o‘lchovi, bilimlarni yangi vaziyatga o‘tkazish qobiliyati, tegishli ko‘nikmalar mavjudligi);
- bilim faoliyati, qiziquvchanlik, bilimlarni egallashda mustaqillikka intilish;
- ta’lim darajasi.

2. Pedagogik tajribaning optimalligi (o‘qituvchilar va bolalar uchun vaqt va kuchni tejab sarflamagan holda tarbiyaviy ishda eng yaxshi natijalarga erishish va bundan tashqari, ushbu tajriba boshqa teng darajada muhim o‘quv va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda to‘siq bo‘lmasligi uchun).

3. Tirishqoqlik, tajribaning barqarorligi, uning uzoq muddatli ishlashi. Qisqa vaqt ichida mavjud bo‘lgan va vaqt o‘tishi bilan takrorlanmagan tarbiyaviy ishdagi o‘qituvchining muhim yutuqlari ham eng yaxshi amaliyotga bog‘lanish qiyin.

4. Bitta o‘qituvchining tajribasini boshqalar tomonidan takrorlash va ijodiy foydalanish imkoniyati, ushbu tajribani ommaviy tajribaga yetkazish.

5. Tajriba istiqboli. Eng yaxshi amaliyotlar har doim kelajakka ega, uni rivojlantirish istiqbollari aniq.

6. Tajribaning ilmiy asosliligi. Eng yaxshi amaliyotlar o‘qituvchining ijodiy nazariy izlanishlari yoki urinishlar va xatolar jarayonida topishi mumkin. Ammo har holda, bunday tajriba doimo ilmiy asosga ega bo‘ladi. Ilg‘or pedagogik tajribani umumlashtirishning vazifalaridan biri unga ilmiy izoh berishdir.

Ushbu belgilar mavjud bo'lganda, bu tajribani eng yaxshi amaliyot deb hisoblash kerak, ammo keyin siz har bir belgi qanday paydo bo'lishini o'lchashingiz kerak.

Ushbu bosqichdagi odatiy xatolar:

1. Ba'zi o'qituvchilar pedagogik muammoni pedagogik vazifadan ajratib turmaydi. Shunday qilib, erishmoqchi bo'lgan o'qituvchi yuqori natijalar o'z ishida qo'shimcha darslar olib boradi, ularning davomiyligini oshiradi. Bu ish bir zumda yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin (ya'ni hozirgi pedagogik vazifa hal qilinadi), ammo eng muhimi o'tkazib yuborilgan, pedagogik muammo: bolalarning ruhiy salomatligi.

2. O'qituvchilarning yangisi – bu mukammallik kafolati emasligi to'g'risida tushunchaning yo'qligi. Ba'zi shakllar, usullar va usullardan ommaviy foydalanish ham mukammallikning ishonchsiz ko'rsatkichidir. Ba'zida soxta innovatsion va soxta pedagogik metodlar eng yaxshi amaliyot sifatida beriladi. Masalan, o'qituvchini texnik vositalar bilan almashtirishga urinish, agar bunday almashtirish asosli bo'lmasa; har qanday holatda ham tarbiyaviy ishda yuqori natijalarga erishishga intilish; bolalarga ta'sir qilishning diktatorlik uslublari; haqiqiy muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini qayta baholash va boshqalar. Boshqa o'qituvchilar qo'shimcha darslar orqali yuqori darajadagi bilimlarga erishmoqdalar. Shu bilan birga, ustozning qadr-qimmati kabi yaxlitligini ta'kidlab, bu faqat mahoratning asosiy belgisi emasligini va bundan tashqari, ilg'or tajriba emasligini anglash mumkin emas.

Pedagogik tajribani o'rganish. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishni boshlagan holda, rahbar birinchi navbatda umumlashtiriladigan tarkibiy qismlarni aniqlashi kerak. Bo'lishi mumkin:

Pedagogik faoliyatning yaxlit tizimi (eng uzoq vaqtni, ehtimol bir yildan ko'proq vaqtni talab qiladi);

Har qanday muammo bo'yicha o'qituvchining ishlash tizimi (yil davomida o'rganilishi mumkin);

Bitta samarali texnikadan foydalanish (o'qish vaqtini o'qituvchi belgilaydi);

Yangi yoki o'tmishdan olingan, ammo moslashtirilgan tajribani o'zlashtirish tajribasi zamonaviy sharoitlar texnologiyalar (masalan, dizayn usuli).

Shunday qilib, o'qituvchi tomonidan ijobiy natija beradigan va "Hech qanday zarar yetkazmaslik" talabini qondiradigan muayyan tizimda ishlatiladigan har qanday tarkibiy qismlar o'rganilishi mumkin: usul, texnologiya, alohida texnika, usul, vosita va boshqalar.

Ob'yektni o'rganish rejasiga kiritish uchun asos eng yaxshi amaliyotga bo'lgan talabdir.

Keyin quyidagi formula yordamida tajribani umumlashtirish rejalashtirilgan:

Maqsadni belgilash ***(sabab?)***.

Tarkibni aniqlash ***(nima?)***.

Usul va vositalarni aniqlash ***(qanday?)***.

Natijalarni tashxislash ***(qaysi biri?)***.

Tajribani o'rganish davomiyligi o'rganilayotgan ob'yekt hajmiga bevosita bog'liq. Ish chorak davomida tavsif bilan yakunlanishi mumkin yoki uni bir yil yoki undan ko'proq vaqtga rejalashtirish mumkin.

Pedagogik tajribani umumlashtirish. Uning tavsifi, darajasi (amaliy, ilmiy, uslubiy). Ta'rif eng ko'p uchraydigan xatolar bo'lgan tajribani umumlashtirishda eng qiyin va vaqt talab etadigan bosqichlardan biridir.

O'qituvchining tavsifi yangi emas, shuning uchun uslubiy adabiyotlarda keng namoyish etilgan juda mashhur tajribaning tavsifi. Bunday tajriba ushbu jamoa uchun rivojlangan, ammo uni boshqa shakllarda umumlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy xususiyatdagi fikrlar va xulosalar taqdimoti, adabiyotlardagi nazariy hisob-kitoblardan foydalanish. Bunday materialni xabar, metodik adabiyotlar izohi deb atash mumkin

va o‘qituvchilarning ta’lim ufqlarini kengaytirish uchun foydalanish mumkin.

Yetakchi g‘oyalar tizimi har doim ham oshkor etilmaydi, metodologiyaning eng muhim tarkibiy qismlari tajriba mantig‘ini, unda o‘qituvchining harakatlarining ketma-ketligini ochib beradi.

Ta’rifdagi yuzakilik, ish tahlilini alohida misollar va rasmlar bilan almashtirish.

Pedagogik tajribani tavsiflashga kirish quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

Maqsadlilik: ushbu tajribani boshqa o‘qituvchilar tomonidan qayta ishlab chiqish qobiliyati.

Aniqlik: tajriba muallifining pedagogik faoliyati namunalari asosida tajriba tarkibiy qismlarini (usul va boshqalar) qisqacha va shu bilan birga qisqacha ochib berish.

Ilmiy: ta’riflangan tarkibiy qismlarning pedagogika nazariyasida ularning ta’riflariga muvofiqligi.

Yaxlitlik, mantiq: tarkibiy qismlarning ketma-ket tavsifi, ularning eng yaxshi amaliyotlar uchun ahamiyati aniq bog‘liqligi.

Tajribani umumlashtirish uchun hujjat janri va tajribani tarqatish shakli bog‘liq umumlashtirish darajasi bu sodir bo‘ladi amaliy, uslubiy va ilmiy.

Amaliy – Umumlashtirilish darajasi (eng ko‘p ishlatiladigan) o‘z ichiga quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ish uslublari va individual texnik va usullarini tavsiflash va (yoki) namoyish qilish, ish faoliyatini namoyish qilish, mehnat tizimini namoyish qilish.

Uslubiy – (eng samarali) umumlashtirish darajasi ilmiy va nazariy asoslashdan iborat bo‘lib, tajribaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tavsiflaydigan, ish samaradorligini tahlil qiladigan, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalar tayyorlaydigan tajribaning ilg‘or pedagogik g‘oyalarini ta’kidlaydi.

Ilmiy – umumlashtirishni o‘z-o‘zini anglash uchun motivatsiyaga hissa qo‘shadigan bo‘limlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ish tajribasini ilmiy va nazariy asoslash; tajribaning amaliy yangiligi; tajribaning murakkabligi; nazariya va amaliyotni rivojlantirish uchun tajribaning ahamiyati.

Pedagogik tajribaning tavsifi, ammo modul shaklida tajriba tavsifini taqdim eting.

O‘qitish tajribasini tarqatish turli darajalarda amalga oshiriladi: MDOU doirasida, shahar, mintaqaviy, umumrossiya va boshqalar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. “Pedagogika” tushunchasi qanday mazmunni anglatadi?
2. Didaktika (ta’lim nazariyasi) nima?
3. Tarbiya nazariyasi nimalarni o‘rganadi?
4. Pedagogika fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari mohiyatini yoriting.
6. Qanday fanlar pedagogik fanlar tizimiga kiradi?
7. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda qanday metodlar qo‘llaniladi?
8. Ta’lim muassasasini boshqarish tizimi qanday tashkil qilinadi?
9. Ta’lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjatlar haqida gapirib bering?
10. Ta’lim sifati monitoringi tushunchasini izohlang?
11. Xalqaro baholash dasturlarining me’yoriy asoslari. Xalqaro baholash, dasturlari metodologiyasi va PISA haqida gapirib bering?

Nazorat uchun umumiy testlar:

1. Pedagogika tarixi fanining vazifasi

A) ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ochib berish;

B) o'tmish pedagogik nazariyalari, ta'lim-tarbiyaning eng ilg'or tajribalari asosida pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni o'rgatadi;

C) pedagogik faoliyatni chuqurroq o'rgatadi;

D)*ijtimoiy fan sifatida pedagogik nazariyalarni o'rgatadi.

2. Yunonistonda bolalarning *"donishmand"*lar bilan suhbatini qanday nomlangan?

A) *Maktab;

B) Dargoh;

C) Ilmxona;

D) Savodxona.

3. *"Maktab"* yunoncha so'z bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?

A) "savod o'rganish";

B)*"bo'sh vaqt, mehnatdan dam olish";

C) "mahorat sirlari";

D) "yashash uchun kurash".

4. ... jamiyatning ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ilm-fan va amaliy faoliyat sohasidir.

A) Sotsiologiya;

B) Falsafa;

C)*Pedagogika;

D) Psixologiya.

5. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiyaning jahon xalqlari pedagogik-tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda, yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o'rganishdan iboratdir.

A)*Pedagogika tarixi fani predmeti;

B) Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D) Pedagogika tarixi fanining tadqiqot metodlari.

6. Qadimgi O'rta Osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini, buyuk Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta'lim-tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

A) Pedagogika tarixi fani predmeti;

B)*Pedagogika tarixi fanining maqsadi;

C) Pedagogika tarixi fanining vazifalari;

D) Pedagogika tarixi fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

7. Pedagogik jarayonning vazifasi (funksiyasi) nimalardan iborat?

A)*Bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish;

B) O'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib borish;

C) Bilish kuchlarini rivojlantirib borish;

D) Tevarak-atrofdagi voqealarni tushuntirish.

8. Ekskursiyadan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

A)*Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirish;

B) Kuzatish;

C) Ta'lim-tarbiya berish;

D) Tabiatni ko'rsatish.

9. Qaysi alloma o'zining asarlarida aqliy tarbiyaga, jismoniy tarbiyaga estetik tarbiyaga, axloqiy tarbiyaga, mehnat tarbiyasiga e'tibor qaratgan.

A) A.Navoiy;

B) Farobiy;

C) Beruniy;

D)*Ibn Sino.

10. Yangi usul maktablari ochish uchun birinchi bo'lib "Ustodi avval" alifbosini kim yaratgan.

A) Behbudiy;

B)*Saidrasul Aziziy;

C) Avloniy;

D) Shakuriy.

11. Didaktika bu – ...?

A) Tarbiyalash;

B) Zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish;

C)*Ta'lim va o'qitish nazariyasi sifatida har qanday fanni o'qitishga xos umumiy qonuniyatlarni o'rgatadi;

D) Bolani maktabga tayyorlaydi.

12. Mehnat jarayonini rejalashtirish nimalarni o'z ichiga oladi?

A) *Mehnat malakasini o'rgatish, mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish;

B) Maqsad qo'yish, mehnat faoliyati uchun kerakli ish qurollarini tayyorlab olish;

C) Natijani aniqlab olish, ish joyini yig'ib qo'yish;

D) Qo'l mehnati.

13. Avtoritar tarbiyaning mazmuni nimadan iborat?

A)*Boshqalarga ko'r-ko'rona bo'ysunish;

B) Mustaqil fikr yuritishga asoslangan;

C) Mehnat qilishga asoslangan;

D) Rassomlik, o'ymakorlik.

14. O'tmish ma'naviyati va madaniyatini belgilab beruvchi omillarga nimalar kiradi?

A) *Rasadxona, maqbara va masjidlar;

B) Kulolchilik, naqqoshlik;

C) Mehnat qilishga asoslangan;

D) Rassomlik, o'ymakorlik.

15. Barkamol insonni tarbiyalashda qanday hamkorlikni yo'lga qo'yish kerak?

A) Oila bilan individual suhbat;

B) A'lochi o'quvchilar bilan hamkorlik;

C)*Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi;
D) Rassomlik, o'ymakorlik.

16. Jamoa so'zining ma'nosini ayting.

A) Kishilarning istalgan guruhiga aytiladi;
B)*Maqsadlari bir xil kishilar guruhiga aytiladi;
C) Turli maqsadli kishilar guruhiga aytiladi;
D) Kulolchilik, naqqoshlik.

17. Tarbiya prinsiplari deb nimaga aytiladi?

A) Qayta tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash;
B) Tarbiya murakkab ko'p qirrali jarayon;
C)*tarbiyaviy ishlarning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etishiga bog'liq;
D) Kulolchilik, naqqoshlik.

18. A.Avloniy tarbiya haqida nima degan?

A) Tarbiya tug'ilgandan boshlanadi;
B) Tarbiya murakkab jarayon;
C)*Tarbiya yo hayot, yo mamot;
D) Tarbiya murakkab ko'p qirrali jarayon.

19. Hozirgi zamon o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablar nima?

A)*Dunyoqarashning g'oyaviyligi va ilmiyligi;
B) O'qimishlilik;
C) Onglilik;
D) Ilmiylik.

20. Maktabdagi o'quv tarbiyaviy ishlarning sifati kim tamonidan nazorat qilinadi?

A) Direktor;
B)*Xalq maorifi vazirligi tomonidan;
C) Sinf rahbari tomonidan;
D) Tuman (shahar) maorif xodimlari tomonidan.

21. Pedagogika tarixi fanining vazifasi?

A) Ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ochib berish;
B) O'tmish pedagogik nazariyalari, ta'lim-tarbiyaning eng ilg'or tajribalari asosida pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni o'rgatadi;

C) Pedagogik faoliyatni chuqurroq o'rgatadi;

D)*Ijtimoiy fan sifatida pedagogik nazariyalarni o'rgatadi.

22. Sharq uyg'onish davri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) V – X asrlar;

B) VII – IX asrlar;

C)*IX – XVI asrlar;

D) X – XV asrlar.

23. "Baytul hikma" ya'ni "Donishmandlik uyi" qayerda va kim tomonidan tashkil etildi?

A)*Bog'dodda Xorun ar-Rashid;

B) Xorazmda Xorazmshox;

C) Bog'dodda Xorun ar-Rashid o'g'li Ma'mun;

D) Buxoroda A.Temur.

24. Arab xalifaligida Sharq uyg'onish davri nechanchi asrda vujudga keldi?

A) X asrda;

B)*VII – IX asrlarda;

C) IX asrda;

D) X – XV asrlarda.

25. Eng qadimgi kishilarga xos xususiyatlarni o'rganishda qaysi manbalar asos bo'ladi?

A)*Arxeologik qazilmalar, topilmalar, Xalq og'zaki ijodi, Buyuk adib allomalarning ijodiy merosi;

B) Arxeologik qazilmalar, topilmalar, diniy kitoblar;

C) Xalq og'zaki ijodi, epos, dostonlar;

D) Buyuk adib allomalarning ijodiy merosi.

26. Dastlabki urug'chilik davridan oldin jamoa a'zolarining yosh jihatlariga ko'ra qanday tasniflangan?

A) *Bolalar va o'smirlar, mehnatga to'la ishtirok etuvchilar, keksalar;

B) Mehnatga to'la ishtirok etuvchilar;

C) Bolalar va keksalar;

D) Bolalar va o'smirlar.

27. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda turli qabila va elatlar yashagan voha va o'lkalar ko'rsatilgan to'g'ri qatorni belgilang?

A)*Baqtriya, Xorazm, Sug'diyona, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari va Parkana kabi o'lkalar;

B) Bulung'ur, Xorazm, Isfaxon, Marg'iyona, Nuroat, Zarafshon vohalari va Parkent kabi o'lkalar;

C) Baqtriya, Xiva, Sug'diyona, Marg'ilon, Parfiya, Zarafshon vohalari va Poykent kabi o'lkalar;

D) Varg'onza, Xorazm, Surxon, Marg'iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari va Peshko' kabi o'lkalar.

28. Eramizdan avvalgi 1000 yilliklar o'rtalarida paydo bo'lgan yozuvlarni aniqlang.

A)*Oromiy, yunon, mixxat;

B) Xorazm, so'g'd, run, uyg'ur;

C) Oromiy;

D) Sug'd, mixxat.

29. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, Ruhga sig'inish ilmiy jihatdan qanday nomlanadi?

A)*Onimizm;

B) Totemizm;

C) Fateshizm;

D) Shovenizm.

30. Ajdodlarimizning hayotiy tajribalari ta'lim-tarbiyaga doir qarashlari bizgacha qaysi manbada yetib kelgan.

A)*Geradotning "Tarix", Pulutarning "Harbiy hiylalar", "Devonu lug'atit turk" asarida;

B) To'maris Shiroq afsonasida;

C) "Devonu lug'atit turk" asarida;

D) Geradotning "Tarix", Arastuning "Etika" asarlarida.

31. Gerodotning qaysi kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan?

A)*Tarix;

B) Shohnoma;

C) Avesto;

D) Ta'birnoma.

32. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda asosiy qaysi manbalarga tayangan holda ish ko'riladi?

A)*Xalq og'zaki ijodi materiallari, allomalarning ijodi me'rosiga, arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar;

B) Xalq og'zaki ijodi materiallari, arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar, tarixiy voqealarga;

C) Tabiat hodisalariga, allomalarning ilmiy ijodi, arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ashyolar;

D) Xalq og'zaki ijodi materiallari, allomalarning ilmiy ijodi, falsafiy qarashlarga.

33. Qaysi shohning farmoniga ko'ra "Avesto" va zardushtiylik dini keng tarqaladi?

A)*Vishtasp;

B) Spitamen;

C) Doro;

D) Paurushaspa.

34. "Irq bitigi" nima haqida ma'lumot beradi?

A)*nima yaxshiyu nima yomonligini anglab etish;

B) shohlarning davlat qurishidagi vazifalari;

C) ayollarning odobi;

D) ov qilish marosimi.

35. "Avesto" kitobi qachon va kim tomonidan yaratilgan?

A) er. avv. IV asrda Zaratura;

B) er. avv. VII – VI asrlarda Zardusht;

C)*er. avv. III asrda Zardusht;

D) er. avv. I asrda Ptolomey.

36. Xalq pedagogikasi fan sifatida shakllanmagan davrda qabila a'zolari qanday tarbiya vositasidan foydalangan?

A)*mehnat jarayonida tarbiyalash vositasidan;

B) hunar o'rganishga da'vat;

C) xalq "Alpomish", "Ravshan", "Murodjon", "Shiroq", "To'maris" afsonaviy qahramonlar vositasidan;

D) o'zaro hashar ishlari.

37. Arab xalifaligida qanday maktablar vujudga kelgan?

A)*Maktablar, madrasalar, qorixonalar;

B) Maktablar, madrasalar, oliygohlar;

C) Ilmxona, madrasalar, qorixonalar;

D) Maktablar, qiroatxona, qorixonalar.

38. Ibn Sinoning qaysi asarlarida pedagogik qarashlari bayon etilgan?

A)*"Kitob al-qonun fit-tib", "Donishnoma", "Hay ibn Yakzon";

B) "Risolat fi-l-ishq", "Ash-Shifo", "Tib qonunlari";

C) "Navobig' ul Kalima", "Musiqa bilimiga oid to'plam";

D) "Ash-Shifo", "Tib qonunlari", "Navobig' ul Kalima".

39. "Ta'lim faqat so'z va o'rganish orqali egallanadi". Ushbu fikr muallifini aniqlang

A)*Abu Nasr Farobiy;

B) Al-Xorazmiy;

C) Abu Rayxon Beruniy;

D) Abu Ali ibn Sino.

40. "Ta'limga intilish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir" iborasi qaysi madrasa peshtoqiga kim tomonidan yozilgan?

A)*Mirzo Ulug'bekBuxoroda;

B) Ibn Arabshoh Xorazmda;

C) Samarqandiy Samarqandda;

D) Amir Temur Shahrisabzda.

41. "O'zbekcha til saboqlari" (925-yil) kitobining mualliflari.

A) Kayum Ramozon va Shorasul Zunun;

B) Munavvar Qori, Fitrat, Shorasul Zunun;

C) Kamol Shams, Haydar Shavkiy va Shorasul Zunun;

D)*Munavvar Qori, Kayum Ramozon va Shorasul Zunun.

42. 20-yillarning birinchi yarimida Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni rivojlantirishning faollarini aniklang.

A) X.X.Niyoziy. T.Shermuxammedov, T.N.Koriniyoziy;
B)*X.X.Niyoziy M.Abdurashidxonov, S.Ayniy;
C) T.N.Koriniyoziy, S.Ayniy, T.Shermuxammedov;
D) X.X.Niyoziy. A.Kodiriy, A.Fitrat.

43. Jadidchilikning asoschisi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) A.Qodiriy;
B)*I.Gaspirali;
C) F.Xo'jaev;
D) Fatali Oxunov.

44. "Jadid" so'zining lug'aviy ma'nosi.

A)*Yangi;
B) Yangilanish;
C) Yangi zamonaviy maktab;
D) Harakat.

45. 1 sinf uchun "Yengil adabiyot" 2 sinf uchun "O'kish kitobi" va "Qiroat kitobi" darsliklari kimning kalamiga mansub?

A) A.Avloniy;
B)*X.X.Niyoziy;
C) Behbudiy;
D) Fitrat.

46. Taraddudirla maktabda o'qing o'g'lonlar, o'g'lonlar. Bo'lursiz bir kun olamda zo'r insonlar, o'g'lonlar" u to'rtlikning muallifi...

A) Hamza;
B) Fitrat;
C)*Avloniy;
D) Behbudiy.

47. "Birinchi muallim" asarining muallifi kim.

A) Siddikiy;
B) Shokuriy;
C)*Avloniy;
D) Hamza.

48. "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini kim yozgan?

A) Furqat;
B)*Avloniy;
C) Navoiy;
D) Usmon Nosir.

49. Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o'quvchilar qaysi o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin edi?

A)* 1)To'liq umumiy ta'lim o'rta maktablarida (IX – X sinflarda);
2) o'qish muddati uch-to'rt yillik bo'lgan texnikumlarda;
3) hunar va umumiy ta'lim bilimlarini birgalikda beradigan hunar-texnika bilim yurtlarida;
4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.
B) Oliy o'quv yurtlarida;
V) Maxsus texnikumlarda;
G) Kollej va litseylarda.

50. Pedagogika tarixi qanday fan?

A) Siyosiy;
B) Huquqiy;
C)*Ijtimoiy;
D) Didaktik.

51. Mamlakatimizda "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" qachondan boshlab nishonlanadi?

A)*1996-yil 1-oktabrdan;
B) 1998-yil 1-oktabrdan;
C) 1999-yil 1-oktabrdan;
D) 1997-yil 1-oktabrdan.

52. Pedagogik faoliyat deganda qanday jarayon tushuniladi?

A) Pedagogik jarayon – inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan jarayon;

B) Pedagogik jarayon – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llash, ta'lim berishga hamda fanga oid o'quv materiallari to'g'risidagi ma'lumotlarni samaradorli o'zlashtirilishiga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni;

C) Bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik kasb egasi;

D)*Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ta'lim-tarbiya berish uchun maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyati.

53. Intellektual mulk nima?

A)*Inson aqliy mehnatining mahsulidir;

B) Insonning aqliy qobiliyati;

C) Insonning aqliy salohiyati;

D) Insonning intellektual salohiyati.

54. Yunonlar fanni tasnif etishda ikkinchi qismda qaysi fanlarni kiritishgan?

A)*etika, iqtisod va siyosat to'g'risidagi fanlar;

B) Tabiat to'g'risidagi fan, matematika to'g'risidagi va matematika fanlari;

C) Tabiat, etika va davlatni boshqarish to'g'risidagi fanlar;

D) Matematika, filologiya va jamiyatshunoslik to'g'risidagi fanlar.

55. Yunonlar fanni tasnif etishda birinchi qismda qaysi fanlarni kiritishgan?

A)*tabiat to'g'risidagi fan, matematika to'g'risidagi va matematika fanlari;

B) etika, iqtisod va siyosat to'g'risidagi fanlar;

C) tabiat, etika va davlatni boshqarish to'g'risidagi fanlar;

D) matematika, filologiya va jamiyatshunoslik to'g'risidagi fanlar.

56. "Sharq Yevropaning muallimidir" degan fikr kimga tegishli?

A) A.Navoiy;
B) A.Avloniy;
C)*Olmon olimi Xerler;
D) Beruniy.

57. O'g'il bolalar 13 – 14 yoshga yetganlaridan keyin qaysi o'quv yurtiga o'tar edilar?

A)*palestra;
B) kifarist;
C) gimnaziya;
D) kollej.

58. Pedagogika olamiga savol-javob metodini, ya'ni "evristik" suhbat metodini (savol berish va savolni to'ldirish) metodini olib kirgan mutafakkir kim?

A)*Suqrot;
B) Aflotun;
C) Arastu;
D) Demokrit.

59. Tarbiya – davlat tomonidan tashkil etilmog'i va Hukmron guruhlarning – faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko'zlamog'i lozim degan fikrlar kimga tegishli?

A)*Platon;
B) Arastu;
C) Demokrit;
D) Anaksiman.

GLOSSARIY

Akademik litsey – o‘quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo‘naltirilgan ta’lim olishlarini ta’minlash maqsadida davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘rta maxsus ta’lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Akademiya – kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshirishga imkon beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Amaliy ishlar metodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Anomaliya (yunoncha – anomal) – me’yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto‘gri rivojlanish.

Anomal bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo‘lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Axloq (lotincha “moralis” – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi.

Axloqiy ong – shaxga axloqiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalari to‘grisidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga

yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Baynalminallik (“inter” – orasida, o‘rtasida, aro, “natio” – xalq) – o‘zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an’analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma’naviy-axloqiy fazilat.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Bashoratlash – bo‘lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Baho – ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag‘batlantirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish vositasi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Bilim olish – borliqni idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish – ob’yektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni.

Vatanparvarlik (lotincha “patriotes” – vatandosh, “patris” – vatan, yurt) – shaxsning o‘zi mansub bo‘lgan millat, tug‘ilib o‘sgan vatani tarixidan g‘ururlanishi, buguni to‘g‘risida qayg‘urishi hamda uning porloq istiqboliga bo‘lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.

Verbal – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.

Davlat ramzlari – muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'oyaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'grisidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta'lim nazariyasi) – (yunoncha "didaktikos" – "o'rgatuvchi", "didasko" – "o'rganuvchi") – ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan "principium" – har qanday nazariyaning asosiy, boshlangich, dastlabki holati) – ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining asosiy maksadi va

qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tizim (yunoncha "systema" – yaxlit, kismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'yekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini ragbatlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Jazolash – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha "kollektivus" so'zining tarjimasi bo'lib, yigilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) – bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maksad asosida tashkil topgan guruh.

Jismoniy tarbiya – o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Joriy nazorat – ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o'zlashtirilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Kategoriya – fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha "compensatio" – o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) – oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta ko'rish.

Korreksiya (yunoncha "correctiio" – tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal

bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to'liq tuzatish.

Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya – yunoncha "defectus" – nuqson, kamchilik, "logos" – fan, ta'limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.

Madaniyat ("cultura" so'zidan olingan bo'lib, parvarish kilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli ko'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lim – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-etti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lim bosqichi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Maktabdan tashqari ta'lim – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshka yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maksadida tashkil etiladigan ta'lim bosqichi.

Ma'rifat – shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy kadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maksadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Ma'ruza – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish shakli.

Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod – yunoncha tarjimasi "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi.

Tarbiya – muayyan, aniq maksad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy kismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli).

Tashxis – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102 b.

3. "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

4. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.

5. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-sonli Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh.M. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi" gazetasi 2018-yil 8-dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-sonli Farmoni.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga ShARH // http://uzlidep.uz/ positionparty/82

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3755-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomil-lashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5545-sonli Farmoni.

16. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori

17. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 1993.

18. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.To'xtaxo'djayeva va boshqalar. Prof. M.X.To'xtaxo'djayevaning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 1996.

19. Андреева А.С. Формирование системы профессионального воспитания обучающихся в условиях непрерывного образования // Устойчивое развитие науки и образования. 2016. № 3. С. 34 – 38.

20. Аношкина В.Л., Резванов С.В. Образование. Инновация. Будущее. (Методологические и социокультурные проблемы) – Ростов-на-Дону: Изд-во РО ИПК и ПРО, 2001. – 176 стр. Раздел. 3. Стадии становления концепции непрерывного образования. URL: sbiblio.com/biblio/archive/resvanov_obrasovanie/

21. Ахмедов А.Е., Смольянинова И.В., Шаталов М.А. Система непрерывного образования как драйвер совершенствования профессиональных компетенций // Профессиональное образование и рынок труда. 2016. № 3. С. 26.

22. Образование: сокрытое сокровище. Основные положения Доклада Международной комиссии по образованию для XXI века // http://www.ifap.ru/library/ book201.pdf.

Axborot manbalari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-INTRANET.ped

MUNDARIJA

Annotatsiya 3
Shartli belgilar 5
So'z boshi 6
1-mavzu. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari 8
2-mavzu. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari 47
3-mavzu. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Yaxlit pedagogik jarayon 78
4-mavzu. Ta'lim mazmuni 122
5-mavzu. Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari. STEAM ta'lim (STEAM Education) 161
6-mavzu. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni 200
7-mavzu. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'yekti sifatida. Tarbiyaning umumiy metodlari 240
8-mavzu. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya. Fuqorolik tarbiyasi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi 275
9-mavzu. O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish. Ta'lim muassasasi menejmenti. Xalqaro baholash dasturlari (Programme for the International Assesment) 303
10-mavzu. Korreksion pedagogika asoslari. Inklyuziv ta'lim (Inclusive education) 326
11-mavzu. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoliy jamoada tarbiya. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-

tarbiya va pedagogik fikrlar. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyda tarixi, maktab va pedagogik fikrlar 359
12-mavzu. Sharq uyg‘onish davrida pedagogik fikrlaming rivojlanishi. Sharq uyg‘onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji 388
13-mavzu. IV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji. VII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji 418
14-mavzu. XIX asrning 2-yarmi – XX asrning I-choragida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar .. 442
15-mavzu. 1924 – 1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji 471
16-mavzu. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari 520
17-mavzu. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat, kommunikativ malakalar va ta’sir ko‘rsatish, o‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi 548
18-mavzu. Pedagogik takt va pedagogik etika. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi 602
19-mavzu. Nutq texnikasi va madaniyati hamda o‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish 639
20-mavzu. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash. Pedagogika tajribani to‘plash tizimi 660
Nazorat uchun umumiy testlar 677
Glossariy 689
Foydalanilgan adabiyotlar 695

Ilmiy nashr

Zamilova Rimma Ramilevna

UZLUKSIZ TA'LIM PEDAGOGIKASI VA INKLYUZIV TA'LIM

Darslik

Muharrir: **Alisher Jo'rayev**
Texnik muharrir: **Nikita Tixonov**
Musahhih: **Madina Mamajonova**

Terishga berildi 15.05.2023-y.
Bosishga ruxsat etildi 11.07.2023-y.
Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$. Xajmi 43,75 bosma taboq.
Times New Roman garniturasi. Ofset usulida bosildi.
Adadi 350 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

«USMON NOSIR MEDIA» nashriyoti.
Namangan shahri, Navoiy ko'chasi, 36.
Nashriyot tasdiqnoma raqami: 1743
2020-yil 30-sentabrda berilgan.
Tel.: +998-93-050-28-72.

"Yashin sanoat" xususiy korxona bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Hamroh ko'chasi, 71^A-uy.

ISBN 978-9910-9750-2-8